O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
JAMOAT XAVFSIZLIGI
UNIVERSITETI

AMIR TEMUR - BUYUK SARKARDA VA DAVLAT ARBOBI

respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi

MATERIALLARI

Toshkent, 2025-yil 8-aprel

“Amir Temur – buyuk sarkarda va davlat arbobi” // Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari to‘plami (2024-yil 8-aprel). – T.: O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti, 2025. – 420 bet.

Mas’ul muharrir:
Mirzayev G‘.R. - Jamoat xavfsizligi universiteti Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi boshlig‘i o‘rinbosari, tarix fanlari doktori, dotsent.

Tahrir hay’ati:
Rasulova N.S. – tarix fanlari doktori, dotsent;
Turayeva S.R. – tarix fanlari doktori, dotsent;
Xudoyqulov Y.A. –falsafa fanlari nomzodi, dotsent.

Sohibqiron Amir Temur dunyo siyosati va tamaddunida ulkan iz qoldirgan buyuk siymolardan hisoblanadi. Uning adolatli davlat boshqaruvidagi boy tajribasi bugungi kunda nechog‘lik ahamiyatli ekanini barchamiz yaxshi anglaymiz. Ushbu to‘plamda Amir Temur bobomizning hayot faoliyati davomida orttirgan boy tajribalari asosida qoldirgan o‘gitlari, davlat boshqaruvi va buyuk sarkardalik mahorati, bunyodkorlik va yaratuvchanlik ishlari, pand-nasihatlarini o‘rganishga oid zamonaviy tadqiqotlar va yangicha yondashuvlar borasida taklif va tavsiyalarni qamrab olgan maqolalar aks etgan.

Maqolalardagi ma’lumotlarning asosli ekanligiga va imloviy holatiga mualliflar javobgardirlar.

KIRISH SO‘ZI

Ko‘xna tarix o‘z bag‘rida bashariyat sivilizatsiyasiga munosib hissa qo‘shgan ko‘plab shon-shuhratga burkangan va murakkab ziddiyatli buyuk daholarga shoiru-hukmdorlarga doya bo‘lib kelgan.

Muhtaram Prezidentimiz, Shavkat Mirziyoyev ta’biri bilan aytganda, “Milliy davlatchiligimiz, g‘urur-iftixorimiz timsoli bo‘lgan bu ulug‘ zotning xalqimiz, Vatanimiz oldidagi tarixiy xizmatlarini baholashning o‘zi qiyin. Mustaqillik yillarida buyuk ajdodimizning xotirasini tiklash borasida qanday katta ishlar amalga oshirilganini barchangiz albatta yaxshi bilasiz”[1].

Yevropa olimlari Amir Temur davlati Osiyodagi eng so‘nggi buyuk saltanat edi, deya e’tirof etadilar. Sohibqironning bunday katta davlatni, markazlashgan yirik saltanat sifatida tuzishi, tartibga keltirishi va uzoq yillar hukmronlik qilishida “Temur tuzuklari” asosiy manba sifatida xizmat qilgan. Amir Temur faoliyatining asosiy tamoyillari «Temur tuzuklari»da o‘z aksini topgan bo‘lib, unda jahongirning saltanat boshqaruvida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan barcha muammolaridan tortib, ichki va tashqi siyosatning mohiyati, xalqlararo va millatlararo munsabatlar, ma’naviy meros masalalari to‘g‘risidagi fikr-mulohazalari bayon etilgan[2].

Darhaqiqat, Amir Temur harbiy merosini chuqur o‘rganish harbiy kadrlarni tayyorlash va ularning malakasini oshirish hamda harbiy ilmni rivojlantirish, qo‘shinlarning tayyorgarlik usul va uslublarini yanada takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bunda harbiy ta’lim tizimida boshlangan islohotlarni uzviy davom ettirish, oliy harbiy bilim yurtlari, litsey va kollejlar, jumladan, “Temurbeklar maktabi” harbiy akademik litseylari faoliyatini takomillashtirish, ularda ta’lim olayotgan o‘quvchilar qalbida milliy ruh, ona-Vatanga mehr va sadoqat, adolat tuyg‘usini har tomonlama kuchaytirish, buyuk ajdodlarimiz, jumladan, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur, Shohruh Mirzo, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi sarkardalarimizning jang san’atidan keng foydalanish muhimligi alohida ta’kidlab o‘tildi.

XV asrda Sohibqiron Amir Temur bobomiz asos solgan va uning munosib avlodlari davom ettirgan muhtasham saltanat, yurtimizda ikkinchi Uyg‘onish,

[1]Мирзиёев Ш.М. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз. Тошкент: “Ўзбекистон” НМИУ, 2017. –Б.309.

[2] Рахмонов С. Иккинчи ренессанс даврининг маънавий-руҳий асоси. Монография. – Самарқанд: СамДЧТИ нашри. 2021 йил. – Б.123.

ya’ni ikkinchi Renessans davrini boshlab berdi. Amir Temurning ***“Davlat qonunlar asosida qurilmas ekan, unday saltanatning shukuhi, qudrati va tarkibi yo‘qoladi”,*** degan fikrlari bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan.

Jamiyatimizda “Milliy tiklanishdan - milliy yuksalish sari” ezgu g‘oya asosida davlatimiz rahbari boshchiligida olib borilayotgan keng qamrovli islohotlar va “Uchinchi renessans” poydevorini Yangi O‘zbekistonda yaratishda Amir Temur merosining o‘rni muhimdir. Yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda buyuk bobokalonimiz merosining bugungi kunda o‘rnak bo‘ladigan jihatlari bisyordir.

Muhtaram Prezidentimiz, Shavkat Mirziyoyev ta’biri bilan aytganda, “***Kelajakda harbiy bo‘lishni orzu qiladigan botir farzandlarimiz milliy ruhni, muqaddas Vatan taqdiri uchun mas’uliyat tuyg‘usini … Vatanimiz boy tarixidan, Amir Temur kabi buyuk ajdodlarimiz jasoratidan oladi***”.

Barkamol avlod tarbiyasi uchun Amir Temur kabi ulug‘ ajdodlarimizning hayotiy tajribasi, sarkardalik va boshqaruv mahorati hamda ijodiy merosini o‘rganish, ularning ibratli jihatlarini o‘zlashtirish oldimizda turgan dolzab vazifalardandir.

Mazkur masalada muntazam o‘tkazilayotgan konferensiya va tadbirlar hamkorlik aloqalarini yanada rivojlantiradi va Amir Temur merosini o‘rganishda tajriba almashish va yangi qirralarini kashf etishda ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishda katta ahamiyatga ega deb hisoblaymiz. Hurmatli konferentsiya ishtirokchilari va aziz mehmonlar! Bugungi respublika konferensiya ishtirokchilariga faol ishtiroklari uchun yana bir bor, o‘zimning chuqur minnatdorligimni izhor etishga ruxsat bergaysiz. So‘zimning yakunida shuni ta’kidlamoqchimanki, biz ilmiy-tadqiqot va ta’lim-tarbiya sohasida har doim hamkorlikni rivojlantirishga va mustahkamlashga tayyormiz, bugungi tadbirning o‘tkazilishi ham so‘zimni isboti deb hisoblayman. E’tiboringiz uchun rahmat.

M.X.Rustambayev
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti boshlig‘i,
polkovnik, yuridik fanlar doktori, professor,
O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan yurist.

НРАВСТВЕННЫЕ ВЗГЛЯДЫ АМИРА ТЕМУРА, ОТРАЖАЮЩИЕ ЕГО ДУХОВНЫЙ МИР

Юсупова Дилором Юнусовна
Доктор исторических наук, профессор, академик.
Главный научный сотрудник
Института востоковедения им. Абу Райхана Беруни
Академии наук Республики Узбекистан.

Создав огромную и могущественную державу, Амир Темур подготових условия для расцвета и подъема духовной культуры, возрождения высоких традиций прошлых эпох в новом историческом комитете. Наивысшие интеллектуальные и творческие достижения XIV–XVI вв. во многом были достигнуты благодаря глубоким нравственным взглядам Амира Темура, отражающим его духовный мир. Всего эпоху получают большое развитие наука, образование, медицина, литература, архитектура, миниатюра, прикладное, музыкальное и зрелищное искусство. Историческая роль Амира Темура и его преемников в этом поистине беспрецедентном по масштабом взлете духовной культуры велика.

Мавераннахр – родина Амира Темура, имел древнюю культуру, уходившую своими истоками в глубь веков.

У народов Мавераннахр рано сформировались объективные представления об окружающем мире, вселенной, мироздании.

Ученые Мавераннахра внесли огромный вклад в развитие таких отраслей науки, как астрономия, математика, медицина, история и литература. Здесь же в начале 10 века возникли первые учебные заведения – медресе.

Немецкий историк науки начала XX в. Х. Зутер приводит список более 500 член математиков и астрономов, работавших в IX–X вв. в

багдадской «Байт ал-хикма»[1]. Две трети из этого списка составляют выходцы из Хорасана и Центральной Азии, а среди последних – выходцы из Хорасана, Ферганы и Шаша (Ташкента)[2].

Следует отметить, что монгольское нашествие нанесло страшный удар по научному потенциалу и культуре Центральной Азии. В течение полуторавекового господства монголов здесь не выдвинулся сколько-нибудь заметывий ученый.

Новый взлет в развитии науки и культуры не только в Центральной Азии, но и во всём мусульманском мире, связан с именем деятельностью Амира Темура, который сумев создать крепкое централизованное государство и укрепив экономической потенциал страны, действенно способствовал развитию культуры, науки и искусства.

Амир Темур сделал всё возможное, чтобы возродить духовный потенциал народа, восстановить культурные и научные традиции прошлых веков.

Известно, что Амир Темур создал благоприятные условия для развития науки и культура, особенно в Самарканде, что обеспечило возращение сюда большом числа интеллектуальных сил, эмигрировавших во время монгольского нашествия и их засилья. Необходимая творческая среда для научной и литературной деятельности, созданная Амиром Темуром в Центральной Азии, способствовали тому, что многие поколения ученых могли здесь спокойно жить и вести глубокие исследования.

В эпоху Амира Темура возросший интерес к культуре и науке содействовал общему росту духовности, производство и ремесел. В то же время высокое развитие ирригации, градостроительства, архитектуры и зодчества стимулировало развитие различных направлений науки.

В данный период особое развитие получила историческая наука. Амир Темур, его сыновья внуки, многие военачальника и воины были бахадирами, то ест рыцарями, эпическими героями. Во всем присутствовал двух рыцарского идеала[3].

Для Амира Темура и представителей его потомства демонстрация личной жертвенной храбрости была обычным делом.

---

[1] Suter H. Die mathematiker and astromen der Araber and uhre Werke-Abhandl. Cesch. math. Wiss, 1900. M. X. 8.
[2] Режанская М.М. Механика на средневековом Востоке. – Москва, 1976. – С. 55.
[3] Бартольд В.В. Улугбек и его время. Соч. Т. II. Часть 1. – Москва, 1964. – С. 51-52.

Амира Темура всегда окружала атмосфера героизма, отваги и смелости. В его кругу были в ходу рассказы о геройских похождениях и истории прошлых времен. При нём находились специальные придворные – «рассказчики истории».

Как в военное, так и в мирное время Амир Темур неизменно имел при себе секретарей, производивших записи, которые затем он самолично проверял. Порой он перепроверял какие-либо факты, вызывая к себе и расспрашивая очевидцев. Эти тетради-дневники стали основой официальной хроники Амира Темура и Темуридов.

Производились также записи по отдельном походам Амира Темура. Так, дневник его похода в Индию в 1398–1399 гг. вёлся верховными судьёй Насираддин Умаром. Однако сухой перечень событий в форме дневника не удовлетворил Амира Темура и он поручил написать расширенный дневник похода в Гийасаддин Али Язди. Тот, большей частью погруженный в религиозные науки, не справился с поставленной перед ним задачей.

Неудовлетворённый предыдущими работами, Амир Темур поручает ученому – литератору Низамаддину Шами написать свою подробную историю.

Однако труд Шами *«Зафар-наме»*, написанный в 1404 году тоже был неполным хотя и понравился Амиру Темуру. В него не вошли некоторые события до 1393 года и события последних семи месяцев жизни Амира Темура[1]. Написать полный труд Амир Темур поручает Шарафаддину Али Язди, но, к сожалению, он в 1405 году умер, не увидев *«Зафар-наме»* Шарафаддина Али Язди.

Высокий уровень развития науки и культуры в государстве Амира Темура обусловил необходимость создания различных центров образования, где бы готовились специалисты высокой квалификации.

Первое медресе в мусульманском мире появилось в 10 веке в Бухаре, а первое медресе в Самарканде было построено при Амире Темуре в 1404 году. Его построили жена Амира Темура на личные средства, полученные от отца Казан-хана напротив главного портала Масжид-и Джаме (ныне мечеть Биби Ханум). Это медресе отличалось от других сооружений того

[1] Низомиддин Шомий. Зафарнома. Форс тилидан ўгирувчи Ю. Ҳакимжонов. Таржимани қайта ишлаб нашрга тайёрловчи ва масъул муҳаррир А. Ўринбоев. Изоҳлар ва луғатлар тузувчи Ҳ. Кароматов (географик номлар изоҳи О. Бўриевники). – Тошкент: Ўқитқвчи, 1996.

времени своим великолепием. В нем преподавали известные ученые того времени.

При дворе Амира Темура и его потомков содержалось богатые библиотеки, в которых коллекционировались редкие сочинения античности и средневековья.

В Самарканде существовала библиотека Амира Темура, которая в дальнейшем послужила основной для создания богатой библиотеки Улугбека. Библиотеками широко пользовались ученые, студенты медресе и ханака.

Медицина всегда занимала особое место на Востоке. Целители Центральной Азии владели такими знаниями в области лечения и укрепления здоровья, которые и в наши дни не утратили своей прикладной ценности.

При Амире Темуре и Темуридах развитию медицинских знаний, постройкам оздоровательного и санитарно-гигиенического назначения, практическому лечению больных уделялось особое внимание.

В этот период значительные средства вкладывались в сооружение садов, общественных бань. Должное внимании уделялось снабжению населения питьевой водой. Для этой цели было вырыто множество хаузов, каналов и ариков.

Таким образом, в начале XVI в. Амир Темур заложил основу для бурного развития наук и культуры в столице Амира Темура – Самарканде. Глубокие научные исследования, осуществленные в астрономической школе внука Амира Темура – Мирзы Улугбека, математические трактаты великих ученых представляли собой наивысшее достижение средневековья в области точных наук.

С переносом столицы Темуридов в Герат во второй половине XV в. возрастают роль и значение этого города в деле развития науки и культуры. Герат фактически становится одним из центров мировой науки, культуры и образования. В творчестве большого числа ученых и деятелей культуры отчетливо прослеживается тенденция к достижению духовного совершенства. Во всем этом красной нитью протягиваются высокие нравственные взгляды Амира Темура, отражающие его духовной мир.

Использованная литература

1. Suter H. Die mathematiker and astromen der Araber and uhre Werke-Abhandl. Cesch. math. Wiss, 1900.
2. Режанская М.М. Механика на средневековом Востоке. – Москва, 1976.
3. Бартольд В.В. Улугбек и его время. Соч. Т. II. Часть 1. – Москва, 1964.
4. Низомиддин Шомий. Зафарнома. Форс тилидан ўгирувчи Ю. Ҳакимжонов. Таржимани қайта ишлаб нашрга тайёрловчи ва масъул муҳаррир А. Ўринбоев. Изоҳлар ва луғатлар тузувчи Ҳ. Кароматов (географик номлар изоҳи О. Бўриевники). – Тошкент: Ўқитувчи, 1996.

AMIR TEMUR DAVLATIDA QONUNCHILIK, JINOYAT VA JAZO MASALALARI

Tojiboyev Muzaffar Turdiboyevich,
O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi O‘zbekiston tarixi kafedrasi professori, tarix fanlari doktori, professor, podpolkovnik.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoev 2018 yil 28 dekabrda parlamentga yo‘llagan Murojaatnomasida «Buyuk alloma va adiblarimiz, aziz jasoratini yoshlar ongiga singdirish, ularda milliy g‘urur va iftixor tuyg‘ularini kuchaytishga alohida e’tibor qaratishimiz kerak»[1] deb ta’kidlagandi. Binobarin g‘oyaviy-huquqiy asoslarini o‘rganish vatanparvar yoshlarimizning ma’naviyatini mantiqiy fikrlashini yuksaltirishga katta hissa qo‘shadi.

Bugun biz yashayotgan hududlarda XIV asrning o‘rtalariga kelib Chig‘atoy ulusining ikkiga bo‘linib ketishi natijasida hokimiyat ancha zaiflashib, bu davlat o‘zining inqiroz davrini boshdan kechira boshladi[2]. Ana shunday bir davrda Keshdagi Barlos begining o‘g‘li bo‘lgan amir Muhammad (Tarag‘ay) Bahodirning o‘g‘li Amir Temur (1336-1405) tarix maydoniga chiqadi.

Amir Temur, eng avvalo, xalqini va yurtini zolimlar iskanjasidan ozod etishda mardlik va jasorat ko‘rsatdi.

[1] https://xs.uz/uzkr/post/sohibqiron-amir-temur-adolatli-hukmdor-va-yuksak-manaviyat-egasi
[2] *Маматов Х.Т.* Темур тузукларида давлат ва ҳуқуқ масалари. Юрид фан. номз.... дисс. – Т., 2002. – 17-б.

Amir Temurning davlat boshlig‘i sifatidagi o‘ziga xos fazilati shundan iborat bo‘lganki, u qonun chiqarish hokimiyatida ham ishtirok etgan. «Tuzuklar»ni yaratib, shu bilan ham o‘z davlatini yuqori pog‘onaga ko‘targan.

Amir Temurning davlat tuzish va uni idora etish borasidagi qarashlarining asosida «kuch adolatdadir» shiori asosida mamlakatni odillik bilan boshqarish – adolat va insof tamoyili; hokimiyatning bo‘linmasligi – yakkahokimlik va yakkaboshchilik; kengash, maslahat, aql bilan ish tutish – o‘ziga xos demokratik tamoyili; davlat idoralarining iqtisodiy tejamkorligi; barcha mansabdorlarning hisobdorligi hamda ular faoliyati ustidan davlat nazoratini o‘rnatish, davlat xizmatining barcha uchun ochiqligi kabi qoida va tamoyillar yotgan.

Amir Temurga ko‘ra hukmdorning har bir amri farmoni to‘ra va tuzukka asoslanmog‘i, qonun va qoidalarga tayangan bo‘lishi lozim edi. Chunki qonunsizlik zulmni tug‘diradi, qonun oldida barcha tengdir, shariat, to‘ra va tuzukni buzganlik uchun javobgarlik hamda jazo muqarrardir. Shu o‘rinda qayd etish kerakki, Sohibqironning uncha og‘ir bo‘lmagan jinoyatlarni sodir etganlarga nisbatan kechirimli bo‘lgani, sodir etilgan bitta jinoyat uchun faqat bitta jazo chorasini qo‘llagani tahsinga sazovordir.

XIV-XV asrlarda vujudga kelgan Temur va Temuriylar saltanatida huquq quyidagi manbalar asosida tashkil topgan:

1. Musulmon huquqidan.
2. Amir Temurning huquq yaratish ijodidan - Temur tuzuklari.
3. Amir Temur saltanati tarkibiga kiruvchi turli mintaqalardagi xalqlarga mansub huquqiy normalar va institutlardan.
4. Markaziy Osiyo va bu mintaqa tarkibida yashayotgan xalqlarning odat huquqlaridan.
5. Temur saltanati tarkibiga kiruvchi, turli dinlarga e’tiqod qiluvchi xalqlarning diniy-huquqiy normalaridan.
6. Shu xalqlar va davlatlarning siyosiy udumlari tarkibiga kiruvchi odatlardan.
7. Mahalliy hokim, raislar, ma’muriy hududiy birliklar, mansabdor shaxslarning huquqiy ijodidan.
8. Sud ma’muriy amaliyotidan.

Ushbu manbalar asosida Amir Temur mamlakatida huquq masalalari tartibga solingan, shuningdek, qisman jinoyat va jazo masalarida Yaso

(«Yasoq»)ga amal qilingan[1]. Ma'lumki Yasoda davlat huquqi, harbiy qurilish, davlat boshqaruvi, beklar noyonlar va amaldorlar o'rtasidagi o'zaro munosabatga oid qoidalar, jinoyat, sud yuritish, jazo va uning turlariga, oila-nikoh va mulkka tegishli qoidalar to'planib metall taxtalarga o'yilib yozilgan. Uning to'la matni bizgacha yetib kelmagan. Bizgacha, uning 33 parchasi va Chingizxonning davlat, harbiy va jinoyat huquqlari bo'yicha gapirgan 27 nutqi – biliklari, parchalar tarzida yetib kelgan. Xususan, Yaso ko'rsatmalarini bajarmaganlik uchun ayg'oqchilar, soxta guvohlik beruvchilar, jodugarlar, axloqsizlar, tabiatni ifloslantiruvchilar, vazifasidan foydalanib pora oluvchilar, fohishalar va mazkur jinoyatlarga dalolatchi bo'lgan shaxslarga nisbatan o'lim jazosi tayinlangan[2].

Aytish joizki Temur tuzuklarida jinoyat va jinoyat prootsessual huquqi – jinoyatlarga jazo berish, yolg'on guvohlik uchun jazo tayinlash, o'z qo'l ostidagi shaxslarning sodir etgan jinoyatlarini yashirganlik uchun amaldorlarni jazolash va boshqa masalalarni o'zida qamrab olgan.

«Tuzuklarda» harbiy jinoyatlar va jazolar tizimi maxsus qoidalarda ham o'z ifodasini topgan. Xususan unda «…Qaysi bir sipohiy urushdan yuz o'gurib, qochsa, uni iltifotimizdan mahrum etsinlar[3] – deyiladi. Shu bilan birga jang moydonidan qochganlarni «Tuzuklar»ga ko'ra jazoga loyiq ekanligi alohida belgilab o'tilgan[4].

Amir Temur davlatida ko'proq boshqaruv tartibini buzish bilan bog'liq jinoyatlar va ularga jazo tayinlash nazarda tutilgan. Zo'rlik bilan o'zga bir kishining mol-mulkini tortib olish hollari aniqlanganda, uning mulkini qaytarib berish bilan cheklanilgan.

Amir Temur omonatga xiyonat qilgan kishilarni ham, kim bo'lishidan qat'iy nazar, juda qattiq jazolagan. Konigilda bir nabirasining sharafiga o'tkazilgan bazmda taniqli zodagonning jazolangani haqida Gonsales esdaliklarida yozilgan. U kishiga Amir Temur harbiy yurishga ketish oldidan 3 ming ot berib, boqib, qarab turishni topshirgan. Qariyb yetti yil davom etgan yurishlardan qaytib kelib otlarni so'rasa, haligi kishi ayni damda otlarning yo'qligi, agar Sohibqiron unga bir oz muddat bersa, otlarni 3 ming emas, 6 ming qilib qaytarishini aytadi. Shunga qaramasdan podshoh uni osib o'ldirishga buyuradi. Undan tashqari Temur shu kabi jinoyatlar va boshqa turli-tuman

[1] *Кеоен Л.* Амир Темур салтанати. –Т.: Маънавият, 1999. – 36-б.
[2] *Муҳимов З.* Ўзбекистон давлати ва ҳуқуқи тарихи. – Т., 2003. – 139-б.
[3] Темур тузуклари. – Т., 1996. – 97-98-б.
[4] Темур тузуклари. – Т., 1996. – 100-101-б.

kirdikorlar uchun (boshqalarni ham) jinoiy javobgarlikka tortishga buyuradi[1]. Bundan xulosa qilish mumkinki, Amir Temur mamlakatida belgilangan qonun qoidalarga rioya etmagan, unda jinoyat deb belgilanuvchi qilmishlarga yo‘l qo‘yib berish javobgarlikni nazarda tutganligidan dalolat beradi.

Amir Temur o‘zining davlat-huquqiy qarashlarida jamiyat va davlatda qonun ustuvorligini ta’minlash, shariat qoidalari, huquq-tartibot, qadimiy turkiy odatlar (to‘ralar) va dunyoviy qonunlar (tuzuk)ga og‘ishmay qatiy amal qilishga alohida ahamiyat bergan. U dini oyinga, to‘ra va tuzukka bog‘lanmagan saltanatni yalang‘och odamga o‘xshatadiki, «uni ko‘rgan har kimsa (undan) nigohini olib qochadi. Yoxud har xil qalang‘i-qasang‘i odamlar tap tortmay kirib chiqadigan tomsiz, eshigi – to‘sig‘i yo‘q uyga o‘xshaydi»[2].

U qonunning ustuvorligini ta’minlash zarurati haqidagi xulosaga o‘z vatanida yaratilgan Imom Ismoil Buxoriyning «Sahihi Buxoriy», Imom Abu Iso Termiziyning «Sunani Termiziy», «Sahihi Termiziy» asarlari hamda Forobiylarning huquqiy ta’limotlari, shuningdek, o‘z shayxulislomi Abdul Malikning katta bobosi Burhoniddin Marg‘inoniyning «Hidoya»si, o‘z bobosi sadr Ubaydulla bin Mahbubiy tomonidan yozilgan «Muxtasar», shuningdek, qadimiy turkiy, o‘zbek davlatchiligi an’analarini o‘rganib, ularga rioya qilib erishgan, albatta. Shu o‘rinda olim Azamat Ziyoning tadqiqotida aytilgan fikrni keltirish o‘rinlidir: «Qonunshunos olimlarimiz faoliyati keyingi asrlarda ham hech bir susaymagani aniq. Bunga hozirda o‘zimizda va chet el kutubxonalari, jamg‘armalarida saqlanayotgan fiqhga oid yuzlab asarlar dalildir. O‘zbek davlatchiligi tarixini o‘rganishda «...ularning ahamiyati shundaki, huquqiy davlat, huquqiy jamiyat tushunchasi O‘zbekistonga chetdan kirib kelmaganini, hayotni huquqiy asoslarda tashkil qilish bizga ajdodlardan qolgan madaniy meros ekanligini amalda ko‘rsata olamiz»[3].

Temur tuzuklarida davlat tuzilmalari va mansabdor shaxslardan boshlab, barchaning qonunga rioya etishi odamlarni qonunlarga itoat ruhida tarbiyalashga yordam beradi. Amir Temur, qonun va davlatning obro‘sini qonunsizlikdan ko‘ra ko‘proq buzadigan narsa yo‘qligini alohida ta’kidlab, «Qaerda qonun hukmronlik qilsa, shu yerda erkinlik bo‘ladi»[4], – deb o‘z «Tuzuklar»ida ushbu tamoyilni mustahkamlab qo‘ygan.

---

[1] *Руи Гонсалес де Клавихо.* Самарқандга – Амир Темур саройига саёҳат кундалиги (1403-1406). – Т.: Ўзбекистон, 2010. – 175-б.
[2] Темур тузуклари. – Т., 1996. – 72-б.
[3] *Азамат Зиё.* Ўзбек давлатчилиги тарихи. – Т.: Адолат, 2000. – 19-20-б.
[4] Темур тузуклари. – Т, 1996. – 67-б.

XIV asr o‘rtalari va XV asr boshlari, ya’ni Amir Temur hukmronligi davri qonunchiligini yoritishda uning «Tuzuklari» g‘oyat qo‘l keladi. «Tuzuklar»da qonunchilik masalalariga urg‘u berishdan maqsad nima edi, degan savolga javob beradigan bo‘lsak, aytish kerakki, davlat va jamiyat boshqaruvida zarur hisoblangan shunday majmua bo‘lsagina, mamlakatda adolatning ustuvorligi, davlat ishlari shaxsning ishtiroki darajasi aniq bo‘lishi kafolatlanar edi.

Amir Temurning shaxs, jamiyat, davlat munosabatlariga adolatli yondashuvi shaxs erkinliklari va uning davlat ishlarida ishtiroki darajasini aniq ifodalaganki, bunda har qanday masalaning adolatli hal etilishida shaxsning ijtimoiy holatiga bog‘liqligini nazarda tutgan. Har qanday odam mening adolat devonimdan panoh topgan ekan, gunohi bo‘lsa ham, uni kechirsinlar, – deyiladi bu haqda «Tuzuklar»da, – ikkinchi, uchinchi marta yana gunoh yo‘liga kirsa, u holda gunohiga yarasha jazolasinlar»[1].

Har bir shaharga olim va mudarrislar tayin qilinadiki, ularning musulmonlarga tafsir, hadis va fiqxdan ta’lim berishlari qatiy belgilab qo‘yiladi. Demak, Amir Temur davrida bilim olish qonun darajasida belgilab qo‘yilgan, bu sohada ma’lum va qat’iy tartiblar, yo‘l-yo‘riqlar mavjud bo‘lgan.

Ahamiyatli va qiziqarli tomoni shundaki, har el va har shaharda Adolat amiri tayin etilgan. Sipoh va raiyat orasidagi urf-odatlarga oid nizoli ishlar haqida ma’lumot berib turish ularning asosiy vazifasi hisoblangan. Davlat ishlaridagi bunday tartib, qonun buzilishining oldini olishda juda qo‘l kelgan, boshqa jihati, mamlakatda, boshboshdoqlikning boshlanib ketishi va avj olishiga yo‘l qo‘ymagan, shu jihatdan yuqorida aytgan fikrlarimizni davom ettiradigan bo‘lsak, har qanday jamiyatning shaxslardan tashkil topishi tabiiy jarayon ekanligini, kishilarning ma’lum huquq va erkinliklariga ega bo‘lishlari, shu huquq va erkinliklarni amalga oshirish mexanizmi - davlatni boshqarishda faolliklarini e’tiborga olish zarur. Albatta, bu yerda yana o‘rta asrlarga xos bo‘lgan yakka hukmronlik boshqaruv tizimida oliy hukmdorning o‘rnini esdan chiqarmaslik lozim, zero, uning har bir farmoyishi amalda qonun kuchini oladi. Shu ma’noda «Tuzuklar»da tilga olingan: «aholini yo‘riqqa solish va maosh tayinlash», «raiyatdan mol-xiroj olish, mamlakatni tartibga keltirish va yuksaltirish, uning obodonchiligi, xavfsizligini amalga oshirish», «sipoh saqlab turish», «vazir tutish» kabi qator ibora va so‘zlar e’tiborga molikdir. Ularda ijtimoiy yo‘nalishda sodir bo‘lib turadigan jarayonlar uchun huquqiy normalar o‘z aksini topgan. Har bir tuzukda muayyan bir voqelikdan faoliyatga adolat

[1] Темур тузуклари. – Т, 1996. – 85-б.

mezonidan turib munosabatda bo‘lish ko‘zga tashlanadi. Demak, Amir Temur o‘z «Tuzuklar»ini ishlab chiqib, hayotga tatbiq etar ekan, eng avvalo, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy masalalarida qonunni ustuvor yo‘lga qo‘yishni mo‘ljallagan va o‘z navbatida, davlat rahbari oldida turgan mas’uliyat ham unutilmagan; davlat rahbari birinchi galda adolatli bo‘lishi, har bir ishda xolis va qatiy fikr yuritishi, qiziqqonlik qilmasligi lozim sanalgan.

Amir Temur o‘z davri davlatchiligi muhitini teran anglaydi. U yolg‘iz hukmdor bo‘lgani bilan boshqalar bilan hisoblashishga majbur, qonun-qoidalarga rioya etmas ekan, davrning ijtimoiy-siyosiy voqealariga, hatto uning eng kichik nuqtalariga ahamiyat bermas ekan, boshlangan ulug‘ ishlarining zavol topishi aniq edi. Shu bois ham «Tuzuklar»da o‘g‘il va nabiralarga ulufa berish masalasida alohida to‘xtaladi.

Qavm-qarindoshlarga ham amirlik, valiylik darajalari berilishi aniq ko‘rsatib o‘tildi. Sohibqiron saltanatining hamma joyida qonunchilikka e’tibor berib, uning boshqarilishini nazorat ostida tutgan. «Raiyatni umid va qo‘rqinch orasida tutsinlar. Gunohlari va qilmishlariga yarasha jazolasinlar», – deyiladi «Tuzuklar»da[1].

Amir Temur davlatida vaqti-vaqti bilan so‘roq, tekshirish, taftish, tergov qilish o‘tkazib turilgan, deb yozadi olim A.J.Badirov. O‘z amalini suiiste’mol qilish, poraxo‘rlik, doimiy ichkilik ichish, maishiy buzuqlik kabilar og‘ir gunoh hisoblangan va qattiq jazolangan. Suiiste’mol qilish raiyat orasidagina emas, Temur avlodlariga taalluqli bo‘lganda ular tegishli jazolarini olganlar. Tarixiy manbalarda keltirilishicha, uning o‘g‘li Mironshoh, nevaralari Pirmuhammad va Xalil Sultonlar ham xalq oldida jazoga tortilganlar[2].

Uning davlatida qonun ustuvorligiga, hamma masalalarda so‘z va ish birligiga erishilganligi tufayli tartib-intizom, osoyishtalik hukm surgan yomonlik va axloqsizlikni juda yomon qo‘rgan. U «davlat ichidagi talay olchoq va yomon odamlar»dan ehtiyot bo‘lish haqida ogoh etar ekan, bunday odamlarning asl maqsadlari «saltanat qo‘rg‘oniga rahna solishdir», deydi. «Davlat ichidagi bunday yomon odamlar bilan qanday muomalada bo‘lmoq darkor?» – degan savol ko‘ndalang bo‘lishi tabiiy. Bunday vaziyatda Amir Temur qaysi tuzukka rioya etgan? Chunonchi, o‘z vaqtida amir Husayn, Sohibqiron davlatining ikki qanoti bo‘lmish amir Iki Temur va amir Jokularni unga qarshi qo‘ymoqchi bo‘lib tuhmat uyushtiradi. Amir Temur farosatli inson

[1] Темур тузуклари. – Т., 1996. – 121-б.

[2] *Бадиров А.Ж.* Амир Темур давлатида қонунчилик // Амир Темур ва унинг жаҳон тарихидаги ўрни. Халқаро конференция тезислари. – Самарқанд, 1996. – 67-б.

bo‘lgani uchun uning xiyonatini sezib qoladi va ular xususida aytilgan gaplarni eshitmaganga oladi. Chunki bundan oldin shunga o‘xshash voqea yuz berib, uni ancha tashvishga solgan edi. Yaqinlari bilan yolg‘iz qolganda, ulug‘ va e’tiborli amirlardan biri – amir Abbosni yomonlaydilar, g‘azab ustida Sohibqiron uni o‘limga buyuradi. Keyinchalik buning xiyonat ekanligini anglab, afsus va nadomat chekadi.

«Tuzuklar» shunchaki davlatchilik uchun zarur bo‘lgan qonunlar majmuasi bo‘lmay, balki har bir so‘zi kishi ma’naviy ehtiyoji uchun kerakli ozuqa hamdir. Ularda, eng avvalo, inson, uning ma’naviy kamoloti va hayoti, omonligi ustun turadi, ya’ni birinchi o‘ringa qo‘yiladi. Masalan, moliya vazirlari xususidagi tuzuklari, ularning javobgarligi masalalari ham juda ibratlidir:

– mamlakat xazinachilari bo‘lmish moliya vazirlari moliya ishlarida xiyonat qilib, boylikning bir qismini o‘zlashtirib olgan bo‘lsalar, avvalo, tekshirib ko‘rish;

– agar o‘zlashtirib olgan mablag‘i o‘ziga tegishli ulufa miqdoriga teng bo‘lsa, mazkur mablag‘ni unga sovg‘a-salom o‘rnida berish;

– agar o‘zlashtirib olgan maoshidan ikki barobar ortiq bo‘lsa, ortig‘ini oladigan maoshidan ushlab qolish;

– agar maoshidan uch barobar ko‘p bo‘lsa, saltanat xazinasiga tortiq sifatida olish lozimligi belgilab qo‘yilgan.

Yuqoridagilardan ma’lumki, inson qonunni buzishi mumkin, ammo uning xatosi uchun jonini olish shart emas, balki uning «ko‘zini ochib qo‘yish», unga saboq bo‘larli jazo berish o‘rinliroqdir. O‘rni kelganda ta’kidlash joizki, sho‘ro zamonida bu gaplar xususida yozish u yoqda tursin, fikr yuritish ham xatarli edi. Amir Temur adolati va uning «urush tuzuklar»i haqida so‘z yuritish esa umuman taqiqlangan edi.

Jumladan, yangi nashr etilgan «Qissai Temur» («Malfuzoti Temuriy»)da «Tuzuklar»ning avvalgi nashr etilgan nusxalarida ham uchramaydigan o‘n ikki tamoyil keltirilgan bo‘lib, shulardan ikkitasi davlat hokimiyatini adolat bilan yuritishga bag‘ishlangan: «Adl tarozusini qo‘lumg‘a oldim, ne kam qildim va ne ziyod, hammani o‘lchoqda barobar tutdim», «Xudoning bandalarig‘a barhaq hukm qildim va haq tarafig‘a mayl etdim», – degan fikri uning adolatni ardoqlovchi amir ekanligi hamda shunday siyosat yurgizishga harakat qilganligini ko‘rsatadi.

«Tuzuklar»dagi ushbu hukmlar esa bu boradagi fikrlarimizga yanada oydinlik kiritadi:

– qaysi bir sipohiy haddidan oshib, ko‘l ostidagi kishilarga zulm o‘tkazar ekan, uni tutib, mazlum qo‘liga topshirish va ular tomonidan jazo berish;

– agar kadxudolar (qishloq oqsoqollari) va kalontarlar (shahar hukmdorlaridan biri) kichikroq darajadagi odamga zulm qilgan bo‘lsalar, zulmiga yarasha, har kimning qurbiga yarasha jarima solish[1];

– agar dorug‘a va hokimlar xalqqa jabr-zulm o‘tkazgan bo‘lsalar, ularni jazoga tortish ko‘zda tutilgan.

Amir Temur urf-odatlar va kundalik ishlarning bajarilishini o‘ziga ma’lum etib turishlarini behudaga so‘ramagan. Bu talab faqat «Tuzuklar»dagina emas, boshqa manbalarda ham keltirilgan. Jumladan, Nizomiddin Shomiyning «Zafarnoma»sida Amir Temurning quyidagi so‘zlari keltirilgan: «Har narsaki, mamlakat islohi unga aloqador va mazlumlar boshidan zararni daf’ etish unga bog‘liq bo‘lsa, u haqda bizga yetkazishda beparvolik qilinmasin, e’timod va to‘la ishonch bilan ochiq ko‘rsatsin»[2]. Chunki to‘g‘ri ma’lumotning davlatni boshqarishda ahamiyati katta bo‘lgan. U nafaqat huquqbuzarliklarga, balki milliy urf-odatlarning buzilishiga ham yo‘l qo‘ymagan. Davlatning har sohasida barqarorlikni ta’minlash, xalqni baxt-saodatga musharraf etish, shu bilan birga nafaqat o‘z zamonasini, balki kelajakni ham o‘ylash, avlodlarga o‘rnak bo‘larli saboqlar qoldirish Sohibqiron uchun birinchi galdagi vazifalar hisoblangan. Shu o‘rinda vazir tutish tuzugini o‘rganish har jihatdan zarurdir. Bu a’mol har qanday davlatchilikda muhim va ustuvor jihat hisoblanadi. «Nasliyu zoti yomon, hasadchi, gina, kek saqlovchi, qora ko‘ngilli kishilarga zinhor vazirlik lavozimi berilmasin», – deyiladi «Tuzuklar»da. «Dono vazir shuldirki, – deydi Sohibqiron, – o‘z o‘rniga qarab, goh qattiqqo‘llik, goh muloyimlik bilan ish yuritadi. Bunday vazir ortiqcha qattiq qo‘llik qilmaydi, ko‘p muloyimlik bilan yumshab ham ketmaydi. Agar ko‘p muloyimlik qilsa, dunyotalab tamagir odamlar uni yutib yuboradilar».

U dono vazirning sifatlari haqida so‘z yuritar ekan, bunday vazir saltanat ishlarini sabr-toqat bilan hal etadi, deydi hamda bu xildagi vazirning saltanat sherigi ekanligini ta’kidlaydi. Bunday vazirlar saltanatning uch asosiy jihatiga – mulk, xazina va lashkarga e’tibor beradi hamda har uchalasini tadbirkorlik bilan saranjom tutadi.

[1] Темур тузуклари. – Т., 1996. – 93-б.
[2] *Низомиддин Шоший.* Зафарнома. – Т., 1990. – 371-б.

Temur tuzuklarining muhim jihatlaridan yana biri shuki, u o‘z qaror va hukmlarini hayotiy dalillar bilan asoslaydi. «Mening eshitishimcha, – deya davom etadi u, – Nizom ul-mulkning yomon qilmishlari kam bo‘lib, xayrli ishlari ko‘proq edi. U hajga bormoqchi bo‘lib turgan vaqtida avliyolardan biri unga deydi: «Malik-shoh davlatining xizmatida bo‘lib, amalga oshirayotgan xayrli ishlaring va Tangri taoloning bandalariga yetkazib turgan yordaming haj qilish bilan barobardir».

Amir Temur asariga diqqat bilan nazar solinsa, dorug‘a va shahar hokimlari – voliylari xalqqa jabr-zulm qilsalar, ularni ham jinoyatlariga mos holda jazoga tortish nazarda tutilgan. «Tuzuklar»da biror kishining aybi isbotlanganda, unga nisbatan faqat bitta jazo chorasini qo‘llash, ya’ni agar jarima solinsa, darra bilan urmaslik, darra bilan urilsa, jarima solmaslik to‘g‘risida gapiriladi.[1] Bu kabi jazo turlari bizga xulosa qilishga imkon beradiki, «Tuzuklar»da ko‘proq boshqarish tartibiga qarshi qaratilgan jinoyatlar va ularga jazo tayinlash nazarda tutilgan. Zo‘rlik bilan o‘zga bir kishining mol-mulkini tortib olishda uning mulkini qaytarib olib berish bilan cheklangan.

Davlatda asosiy e’tibor jinoyatchilikka qarshi kurashga emas, balki jinoyatlarni oldini olishga qaratilgan. Jumladan, huquqni muhofaza qilish organlari sifatida quyidagilarni ko‘rsatish mumkin: Asaslar – fuqarolar tinchiligini ta’minlash va jinoyatlarni ochishda muhim o‘rin tutuvchi kecha qorovullari, ya’ni posbonlarning boshlig‘i; Yasag‘lar – mirshablarning mangsabdor shaxslari bo‘lib, jamoat tinchligi va osoyishtaligini saqlashgan; Shihnalar – harbiy ma’murlar bo‘lib, shahar tinchligini saqlashga mas’ul bo‘lganlar.

Davlatda maxsus jinoyat qidiruv mirshabligi tashkil etilgan. U savdo karvonlari harakati xavfsizligini ta’minlash, bosqinchilar va o‘g‘rilar to‘dalarini topish va qo‘lga olish, shariat qoidalarini buzganlar, darbadarlar va tilamchilarga qarshi chora ko‘rish bilan shug‘ullangan.

Xulosa o‘rnida aytish joizki Prezident ta’biri bilan aytganda «Buyuk strateg, mohir siyosatchi, eskirgan ijtimoiy munosabatlarning qat’iy islohatchisi, savdo-sotiq, hunarmandchilik va madaniyatning homiysi bo‘lgan Binobarin, tarixi buyuk yurtning – kelajagi ham buyuk bo‘ladi. Darhaqiqat, O‘zbekiston – yuzlab buyuk allomalar, sarkardalar, qahramonlar yetishib

[1] Темур тузуклари. – Т., 1996. – 94-б.

AMIR TEMUR DAVLAT BOSHQARUVIDA XAVFSIZLIKNI TA’MINLASHDA MILLATLARARO TOTUVLIK VA BAG‘RIKENGLIK MASALALARI

Davlatova Saodat Tilovberdiyevna
O‘zbekiston Respublikasi Millatlararo munosabatlar va xorijdagi vatandoshlar masalalari bo‘yicha qo‘mitasi bo‘lim boshlig‘i tarix fanlari doktori, professor.

Sohibqiron Amir Temur o‘z davrida Eron, Turon, Mag‘rib, Shom, Misr, Iroqi arab, Iroqi ajam, Mozandaron, Gilon, Shirvon, Ozarbayjon, Fors, Xuroson, Jeta Dashti, Dashti Qipchoq, Xorazm, Xo‘tan, Qobuliston, Boxtarzamin, Hindiston mamlakatlarini birlashtirdi. Shuningdek, o‘ziga xos va mos “xavfsiz hudud”ni yaratish maqsadida markazlashgan, yagona boshqaruv asosida qudratli, qonun ustuvor bo‘lgan adolatli, ulkan saltanat barpo etdi va jahon sahnasiga olib chiqdi. Qolaversa, Amir Temur saltanat mustaqilligi, uning hududiy yaxlitligi va fuqarolarining farovon hayoti, ularning huquq va erkinliklarini tashqi va ichki xavf hamda tahdidlardan himoya qilish bilan birga, davlatning xavfsizligini ta’minlashga erishadi. Uning siyosatida millatlararo totuvlik va bag’rikenglik eng ustivor qarashlardan bo‘lganligini aytib o’tish joiz.

O'z o’rnida ta’kidlash joizki, Amir Temur tashqi va ichki xavf, tahdidlardan davlat, jamiyat va shaxs muhim manfaatlarini himoya qilish, mintaqada xavfsiz hudud yaratish orqali aholining tinch va farovon hayotini, ularning huquq va erkinliklarini, jamiyatning qadriyat va madaniyatlarini hamda davlatning boshqa davlatlarga qaram bo‘lmasligi, shuningdek, mustaqil davlat barpo etishga erishgan hamda qonun ustivorligini ta’minlagan.

Amir Temur mamlakatga harbiy xavfsizligini ta’minlashda, asosan, uch xalqada ta’minlagan:

o‘zga davlatlarda (bosib oluvchi, qaram qiluvchi va boshqa tajovuzkor davlatlarga nisbatan);

chegara sarhadlarida (hayotiy muhim bo‘lgan ob’ektlar: suv omborlari, chorvadorlik uchun hudud, yo‘llar va boshqalar);

mamlakatning ichki tizimida (tumanlar, shaharlar orasidagi masofa va boshqalar) amalga oshirgan[2].

Saltanat harbiy xavfsizligini ta’minlashda yuqoridagi xalqalarda siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, harbiy va boshqa sohalarda amalga oshirgan.

Amir Temur o‘zining “Temur tuzuklari”da “Amr qildimki, har yerda, viloyatu shahar va lashkar o‘rdusida kundalik voqealarni yozuvchilarni tayin qilsinlarki, hokimlar, raiyat, sipoh, o‘z lashkari va yot lashkarning xatti-harakati haqida meni xabardor qilsin. Atrofdan kirgan-chiqqan mol-mulk, chetdan kirgan, chetga chiqqan yot kishilar, har turli mamlakatlardan kelgan karvonlar, qo‘shni podshohlar, ularning gap-so‘zlari, ishlari haqidagi xabarlar va uzoq o‘lkalardan bo‘lib, mening dargohimga yuzlangan ulamo, fuzalo haqidagi so‘zlarni to‘g‘rilik bilan yozib tursinlar”[1.].

Amir Temur savdo munosabatlarida karvonlarni Osiyoning turli o‘lkalariga, Xitoy, Hindiston, Misr, Saudiya Arabistoni, Suriya, Gurjiston (Gruziya) va hatto Yevropa davlatlariga ham yuborgan hamda savdogarlardan razvedkachi sifatida foydalangan[2.]. Masalan, karvon qaytib kelganidan keyin darvish ko‘rinishida savdogarlar bilan karvonga qo‘shilgan ayonlar yo‘l davomida ko‘rgan davlatlaridagi shart-sharoit, shu davlatda yashovchi xalq urf-odatlari, eng asosiysi, o‘sha davlat hukmdorlarining o‘z fuqarolariga bo‘lgan munosabatlari haqida ma’lumot berib turgan. Bu esa davlatni boshqaruvida va xavfsizlikni ta’minlashda asosiy o’rin tutgan.

Bu esa Amir Temurning mamlakatlarning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va boshqa barcha sohalarini, shuningdek, ularning tarixi, urf-odatlari, madaniyati, kelib chiqishi, millati va shunga oid barcha ma’lumotlarni sinchkovlik bilan o‘rganligini ko’rsatadi.

Bundan tashqari, Amir Temir qo’shini askarlari orasida butparastlar, olovga sajda qiluvchi ma’jusiy ajamlar, kohinlar-u sehrgarlar, zolimlar-u munkirlar (gunohkor)dan ham harbiy razvedka faoliyatida keng foydalangan, hatto harbiy razvedka mutaxassislarini tayyorlash va qayta tayyorlash bo‘yicha 3-6 oylik maxsus kurslar tashkil etilgan.

Sohibqironning Bosfor ko‘rfazidan tokim Tyan-Shan tog‘larigacha, Uraldan Hind okeaniga qadar yastangan ulkan saltanatini boshqarish, bu keng hududlarda joylashgan turli mamlakatlarni yagona davlatga birlashtirish kabi siyosat yuritganligi uning xalqaro diplomatiya etikasiga qat’iy rioya etganligini han ko’rsatadi. Amir Temirboshqaruv devonida maxsus diplomatiya korpusi tuzilgan bo‘lib, unga har tomonlama ma’lumotli va bir necha tillarni yaxshi bilgan kishilar faoliyat olib borgan. Ularga Sohibqironga turli mamlakatlardan kelgan vakillar bilan muzokara olib borish ishlari yuklatilgan De Klavixo bu davrda har bir sohaga katta e’tibor berilgani, rasmiy marosimlardagi mukammallik haqida o‘z kundaliklarida hayratlanib yozgan[3., 22-b.].

Amir Temur tashqi siyosatida qoni, irqi, dini, mafkurasi turli bo‘lgan sharq va g‘arb davlatlari bilan tinchlik va hamkorlik aloqalalarini o‘rnatib, bugungi kunda dolzarb ahamiyat kasb etgan Yevrosiyo, integratsiya g‘oyasining tamal toshlarini qo‘yganligini aytib o’tish mumkin. Tadqiqotchilar Amir Temurning bu xizmatini “dostona qo‘l cho‘zish siyosati” deb nomlaganligi ham bejiz emas. Mana shunday tashqi siyosatni yuritishda turli millat va elat vakillaridan ham unumli foydalangan.

Fransiyada Temuriylar tarixi va san’atini o‘rganish hamda fransuz-o‘zbek madaniy aloqalari uyushmasi, Ispaniyada esa, “Klavixo - Amir Temur” Ispaniya-O‘zbekiston do‘stlik uyushmasi faoliyat olib borayotgani, Parijda maxsus “Temuriylar” («La Timuride») nomli byulleten chop etilayotgani fikrimiz dalilidir[2, 45-b].

Taniqli davlat arbobi va sarkarda, ilm-fan va madaniyat homiysi Amir Temurning jahon madaniyati va tarixiga qo‘shgan ulkan hissasini o‘rganish, targ‘ib qilish, uning nomi bilan bog‘liq, nodir me’moriy yodgorliklarni ta’mirlash va asrashga yordam berish maqsadida O‘zbekistonda 1996-yilda tashkil etilgan Xalqaro Amir Temur xayriya jamg‘armasi nodavlat xayriya jamg‘armasi Amir Temur va temuriylar merosini o‘rganayotgan xalqaro tashkilot hisoblanadi.

Amir Temur barpo etgan buyuk imperiya o'z davridan boshlab nafaqat qo'shni mamlakatlar, balki uzoq yurt hukmdorlarini ham o'ziga jalb etib kelgan. Tarixiy hujjatlarning dalolat berishicha, XIV asrning 70-yillaridanoq Yevropa davlatlari vakillari Movarounnahrga kelib, bu yerdagi yangi, mustaqil davlatning qudrati va harbiy salohiyati bilan jiddiy qiziqqanlar.

Amir Temur o‘z davrida mamlakatlar va xalqlar o‘rtasida madaniy diplomatiyani rivojlantirishga katta hissa qo‘shganligi nafaqat millatlararo munosabatlar, balki davlatlararo ham munosabatlarni mustahkamlashga hissa qo’shgan. Richard Nelson haqqoniy ravishda Amir Temur saltanatga faqat bir madaniyatni majburan kiritmasdan, aksincha, turli madaniyatlarni qo‘shib bugungacha yashab kelayotgan Yevrosiyo g‘oyasini dastlab ishlab chiqqan shaxs ekanligini, madaniyatlararo yaxshigina ko‘prik o‘rnatganligini (ko‘chmanchilar va o‘troq xalqlar, mo‘g‘ullar, turklar, forsiylar) g‘arb va sharq o‘rtasida ham tahsinga sazovor munosabatlar o‘rnatganini aytib o‘tgan edi[4].

Amir Temur diplomatiyasi umuminsoniy g‘oyalarga sadoqat ruhida shakllangan, tashqi aloqalar orqali turli xalqlar o‘rtasida madaniyatlararo ko‘prik o‘rnatgan. U ilm-fan va madaniyat ravnaqiga keng imkoniyatlar

yaratgan, shaharlar qurish va obodonlashtirishga katta e’tibor bergan, din peshvolari, olimlar, san’atkorlar, me’morlar, yozuvchilar, shoirlarga alohida g‘amxo‘rlik ko‘rsatgan. Bunday siyosat natijasida Sharq uyg‘onish davrining ikkinchi bosqichiga asos solingan.

Amir Temur davrida Markaziy Osiyodagi shaharlar har tamonlama gullab yashnagan. AQShning sobiq davlat kotibi Jon Kerri temuriylar davrining shon-shavkati, uning turli millat va elatlarni birlashtirgan poytaxt Samarqand shahri haqida quyidagilarni aytib o‘tgan edi: “Bu turklar, arablar, musulmonlar, yahudiylar, yunonlar, armanilar, xristianlar, katolik va nestorianlar bilan birday muloqotda bo‘lgan shahardir. Biz Birlashgan Millatlar Tashkiloti Nyu-Yorkda 70 yil muqaddam tashkil etilgan deb hisoblaymiz. Yo‘q. Bu Samarqandda bir necha yuz yil oldin sodir bo‘lgan”.

Sohibqiron Amir Temur davrida siyosiy va ijtimoiy ahamiyatga molik ishlar har doim kengash asosida olib borilganligi unig davlatida qonun ustuvorligini ko‘rsatadi. U o‘zining “Tuzuklar”da: “Har bir ishni kengash bilan bajardim, barcha ishlarning faqat bir qismini qilich bilan amalga oshirdim»,- degan edi. Haqiqatdan ham Amir Temur turkiy xalqlar milliy udum va an’analariga tayangan holda barcha ishlarni kengash asosida amalga oshirishni o‘z davlatining asosiy prinsipi qilib olgan edi. Xurshid Davron ta’kidlaganidek, “Sohibqiron tomonidan o‘tkazib kelingan Qurultoylar Sharq o‘lkalarida bundan VI asr muqaddam tipik parlamentga Amir Temur tomonidan asos solingan...”. Uning yana bir fikriga e’tibot qaratsak, *“davlat agar diniy qoidalar asosida qurilmas ekan, bunday davlatning tanazzulga uchrashi tabiiydir. Bu davlat yalang‘och odamga o‘xshaydiki, uni ko‘rgan har bir kimsa, undan nazarini olib qochadi. Yoxud har xil qalang‘i-qasang‘i odamlar tap tortmay kirib chiqadigan tomsiz, eshigi-to‘sig‘i yo‘q uyga o‘xshaydi”.*

Sohibqiron Amir Temur saltanati binosini islom dini, to‘ra va tuzuk asosida mustahkamladi. Uning bu taktika va strategiyalari hozirgi kunda boshqa davlatlar(Ozarbayjon, Rossiya, Gruziya)da keng o‘rganilayotgan bo‘lib, “biz ham ushbu merosdan davlat xavfsizligi va mudofaasini ta’minlashda foydalanish maqsadga muvofiq bo’lar edi.

Amir Temur davrida siyosiy va ijtimoiy ahamiyatga molik ishlar har doim kengash asosida olib borilar edi. Temur tuzuklarida: “Har bir ishni kengash bilan bajardim, barcha ishlarning faqat bir qismini qilich bilan amalga oshirdim»,- deyilgan. Haqiqatdan ham Amir Temur turkiy xalqlar milliy udum va an’analariga tayangan holda barcha ishlarni kengash asosida amalga

oshirishni o‘z davlatining asosiy prinsipi qilib olgan edi. Xurshid Davron, “Sohibqiron tomonidan o‘tkazib kelingan Qurultoylar Sharq o‘lkalarida bundan VI asr muqaddam tipik parlamentga Amir Temur tomonidan asos solingan...” deya, - ta’kidlagandi.

Jahon miqyosida Sohibqironni yuksak maqomga ko‘targan, uning siyosiy va huquqiy qarashlarining majmuasi – “Temur tuzuklari”ning tarixiy-huquqiy ahamiyati juda katta hisoblanadi. Rus tarixchisi D. Logofet ta’kidlaganidek: “Yevropada konstitutsiya haqida tushunchaga ham ega bo‘lishmagan bir davrda, ana shu Temur davlatida Konstitutsion qonunlar majmuasi – Tuzuk mavjud bo‘lgan va amal qilgan”.

Xususan, bunga Buyuk sarkarda Amir Temurning bosib olingan davlatlar hukmdorlari, qo‘shinlari va aholisiga nisbatan bo‘lgan munosabati, yuritgan siyosati naqadar adolatli va oqilona bo‘lganligi haqida yozib qoldirilgan ko‘plab tarixiy asarlar guvohlik beradi.

Ta’kidlash joizki, Amir Temur o‘z davlatini boshqarishda quyidagi ikki tamoyilga asoslanganini ta’kidlaydi. Ularning ayrimlari quyidagilar:

davlat ishlarini saltanat qonun-qoidalariga asoslangan holda boshqardim;

adolat va insof bilan tangrining yaratgan bandalarini o‘zimdek rozi qildim;

raiyat hol-ahvolidan har doim xabardor bo‘lib turib, hokimlar va sipohiylar tomonidan raiyatga jabr-sitam o‘tkazilgan bo‘lsa, ularni adolat va insof yuzasidan jazoladim;

turku tojik, arab va ajamning turli toifalari va qabilalaridan bo‘lgan va mening panohim ostida bo‘lgan kishilarga ehtirom bilan qarashli va kechirimli bo‘ldim.

Amir Temurning insonparvarligi, millatsevarligi, ma’naviyat va ma’rifatning jonkuyar homiysi sifatidagi insoniy fazilatlari uning farzandlariga qoldirgan vasiyat so‘zlarida yaqqolroq namoyon etilgan: “O‘g‘illarim, millatning ulug‘ martabasini, saodatini saqlamoq uchun Sizlarga qoldirayotgan vasiyat va “Tuzuklar”imni yaxshi o‘qing, aslo unutmang va tatbiq eting”. Mazkur tuzuklarda keltirilgan qoidalar asosan jamiyatda xavfsizlikni ta’minlashga, adolat o‘rnatishga, undagi ijtimoiy munosabatlarning faqat intizom asosida tartibga solinishiga, xalqning sog‘lom muhitda tinch-osoyishta mehnat qilib, farovon hayot kechirishiga, ma’naviy salohiyatini yuksalitirishga qaratilgan

Millatning dardlariga darmon bo‘lmoq vazifangiz. Zaiflarni qo‘ring, yo‘qsillarni boylar zulmiga tashlamang. Adolat va ozodlik dasturingiz,

rahbaringiz o‘lsin. Ta'kidlash joizki, Amir Temur Yevroosiyo hukmdori sifatida birinchi marta xalqlarning yagona makonda yashashi mumkin ekanligini isbot etdi, tarixda integratsiya sahifasini ochdi desak mubolag'a bo'lmaydi. Bundan tashqari, bir tomondan Xitoy, Hindiston, ikkinchi tomondan Fransiya, Ispaniya, Angliya va boshqa davlatlar bilan munosabatlarni mustahkamlashaga intilib, savdo-iqtisodiy munosabatlar orqali mamlakatlar va xalqlar o'rtasida yagona makon barpo etish uchun geosiyosiy maydon yaratishga erishgan.

Amir Temur davrida millatlararo munosabatlar va hamjihatlik davlat tarafidan muvofiqlashtirilgan. Ta’kidlash joizki, Amir Temur o’zining 35 yillik hukmronligi davrida Movarounnahr, Xorazm, Kaspiy atrofidagi viloyatlar, hozirgi Afg‘oniston, Eron, Turkiya, Hindiston, Iroq, Markaziy va Janubiy Rossiya, Kavkaz va G‘arbiy Osiyoning bir qator hududlari kabi jami 27 mamlakatni birlashtirgan va hududi Hindistondan Sirdaryo va Zarafshongacha, Tangritog‘ (Tyan-shan)dan Bosforga qadar yoyilganligi haqiqiy multikultural tuzilma edi.

Hozirgi kunda respublikamizda Uchinchi renessansni barpo etish jarayonida Amir Temur faoliyatining tarixiy merosini o‘rganish va uni abadiylashtirish bo‘yicha keng qamrovli ishlar olib borilmoqda. “...Men har bir askar, Vatanning har bir posboni Amir Temur va ulug‘ lashkarboshilarimiz o‘gitlarini, ularning harbiy merosini chuqur bilishi kerak”, deb qayd qilgan edi Prezident Shavkat Mirziyoyev. Bu holat, o‘z navbatida, buyuk ajdodimiz faoliyatining harbiy strategiya va taktikasini, uning qo‘shinlar boshqaruvi hamda harbiy harakatlarning jangovar ta’minoti masalalarini hal etish bo‘yicha tajribalarini tadqiq qilish vazifalarini keltirib chiqaradi.

Insoniyat tarixi turli urushlarga boy bo’lib, ko‘p lashkarboshilar bosib olingan mamlakatlarni vayron qilish, hukmdorlarini yo‘q qilish, xalqini talash va qirib tashlash oqibatida bosqinchi nomini olgan bo‘lsalar, Amir Temur, aksincha, davlatlarni yuksaltirish, rivojlantirish, xayrixoh hukmdorlarini va lashkarlarini o‘z xizmatiga olish, xalqining turmushini yaxshilash orqali rozi qilish kabi insonparvarlik, bo‘nyodkorlik g‘oyalari bilan yo‘g‘rilgan hamda adolat va haqiqat prinsiplariga asoslangan siyosatni ustuvor deb bilib, shu asosda insoniyat tarixida o‘chmas nom qoldirdi.

Umuman olganda, Amir Temur ham o'z davrida manbasi xalq bo'lgan siyosiy tuzilmani yaratgan, unda davlat, jamiyat, shaxs munosabatlari yuqori o'ringa ko'tarilgan, tom ma'noda sharqona taraqqiyot maktabi yaratilgan.

«Temur tuzuklari» va o'sha davrning boshqa manbalarida qoldirilgan Amir Temur davlatining markaziy va mahalliy davlat boshqaruv tizimi sohasidagi merosi ham bugungi davlat boshqaruv sohasidagi islohotlarni mustahkamlashda bizga manba vazifasini o'tab kelmoqda.

Xulosa qiladigan bo‘lsak, Amir Temurning millatlararo totuvlik va bag’rikenglik hamda xorijiy davlatlar bilan do’stlik aloqalarini mustahkamlash sohasidagi siyosati borasida tarixiy-etnologik juhatdan tadqiqot olib borish bugungi kun uchun juda dolzarb hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1..Amir Temur Ko‘ragon. Temur tuzuklari. – T.: Fan, 2018. – 144 b.

2. Amir Temurning harbiy san’ati: strategiyasi va taktikasi”: xalqaro ilmiy konferensiya materiallari to‘plami, 2024-yil 4-aprel. – Toshkent: O‘R QK Akademiyasi, 2024. – B. 243-247.

3. Руи Гонсалес де Клавихо. Самарқанддаги Амир Темур саройига саёҳат кундалиги // Санъат. – Тошкент: 1990. –№ 6. – Б.22.

4. Uvatov U. Misr tarixchisining qo‘llanmasi // “Milliy tiklanish” gazetasi, 1996,10-oktyabr.

5. Hamdam Sodiqov. Amir Temur salnatanida xavfsizlik xizmati. T.: “ARTFLEX”. - 2010-yil.

AMIR TEMUR SHAXSIY SIFATLARINING HARBIY INTIZOMNI TA’MINLASHDAGI AHAMIYATI

Xaknazarov Xudoyberdi Dilmurodovich
Jamoat xavfsizligi universiteti Maxsus fakultet boshlig‘i,
tarix fanlari doktori, dotsent
Toshniyozov Abduhalim Faxriddin o‘g‘li
Jamoat xavfsizligi universiteti talabasi

Hozirgi kungacha tarixchi olimlar, Temur va temuriyshunos tadqiqotchilar va ko‘plab tarixchilar tomonidan Amir Temur hayoti, yurishlari, harbiy strategiyasi va uning xalqaro maydondagi roli haqida ko‘plab ilmiy va badiiy asarlar yozildi, tadqiqotlar olib borildi. Ko‘plab o‘zbek va xalqaro rejissorlar

tomonidan kino va hujjatli filmlar yaratildi. Ana shunday tarixchilardan biri Bo‘riboy Ahmedov o‘z asarida Amir Temurning zamondoshi Ibn Arabshohning Sohibqiron haqida shunday fikrlarini keltirib o‘tgan: “Temur qaddi – qomati kelishgan, baland bo‘yli, tik qomatli, keng peshonali, boshi katta, bag‘oyat kuchli, salobatli, yuzi oq – qizildan kelgan, lekin bironta dog‘i yo‘q, bug‘doy rang emas, qo‘l-oyoqlari baquvvat, yelkalari keng, barmoqlari yo‘g‘on, bolder va poychalari semiz, qaddu qomati kamoliga yetgan, sersoqol, ikki ko‘zi bamisoli sham bo‘lsada, shodligi bilinmas, yo‘g‘on ovozli edi. U o‘limdan qo‘rqmas, qartayib qolgan bo‘lsa-da iztirobsiz, vazmin, badani to‘la va pishiq, xuddi tosh misoli qattiq edi. U hazil-mazax, oyin-kulgiyu, ko‘ngilxushlikka maylsiz, garchi (so‘zda) o‘ziga ozor yetadigan biron narsa bo‘lsa hamki, sadoqat unga yoqar, ma’qulroq edi. U bo‘lib o‘tgan ishga aziyat chekmas edi va o‘ziga hosil bo‘ladigan yutuqdan shodlanmas edi’’.

Amir Temur o‘tkir fikrlovchi, farosatli, ziyrak, do‘st-dushmanni bir qarashda ajrata oladigan, mard va haqgo‘y kishilarni do‘st tutar, xoinlikni va xoinlarni yomon ko‘rardi. Hazrat sohibqiron fe’l-atvori durust, xullas yaxshi kishi edi.

Yana Arabshoxning fikrlarini davom ettrigan holda shunday deydiki: “Uning majlislarida uyatsiz so‘zlar, qon to‘kish, asir olish, g‘orat qilish va ayollar xususida haqoratli so‘zlar aytilmasdi. Temur tengi yo‘q fe’l-atvorli, chuqur mulohazali kishi bo‘lib, tafakkur dengizning qa’ri yo‘q, tadbiri tog‘iga na tekisligu, na o‘ydim- chuqur orqali yo‘l topilar edi, ilm ahliga mehribon edi” [1, 6-7].

Bundan tashqari, hammaga ma’lumki, Amir Temur zamonasi uchun nihoyatda katta va qudratli qo‘shin tuza olgan shaxs hisoblanadi. Ibrohim Mo‘minov o‘zining “Amir Temurning O‘rta Osiyo tarixida tutgan o‘rni va roli” kitobida bu haqida shunday fikrlarni keltirib o‘tgan: “Temurning armiyasi o‘nlik, yuzlik, minglik bo‘linmalardan iborat bo‘lib, ularning ularning har qaysisiga harbiy boshliqlar rahbarlik qilardi. Odatda harbiy boshliqlar rahbarlik qilayotgan bo‘linmalar soniga qarab bir-birlariga – kichigi kata qismiga bo‘ysunar edilar. Armiya – bo‘linma – birlashmalari qo‘shin – armiya deb atalardi; qo‘shinot – armiyalarni o‘z ichiga olardi. Bu qismlarning har biri sharoitga qarab Lashkar qalbini – o‘ng qo‘l – brongar, so‘ng qo‘l – juvongar, manglay – avangard vazifasini o‘tardi. Qo‘shin turlari ichida hammadan ko‘ra otliq askarlar, piyodalar, shuningdek, Temur borgohida ilg‘or – razvedka bo‘linmasi yuqori baholanar edi.

Amir Temur borgohida Amir Xo‘ja Sayfiddin, Amir Sulaymon Xash, Amir Oqbug‘a, Amir Sorubug‘a, Amir Burunduq, Xudoy Husayn Bahodir, Shayx Ali Bahodir, Temur Tosh, Baratxo‘ja, Amir Dovud Barlos, Umar Abbos, Mahmudshox Buxoriy, Amir Muayyid Arlad, Tuman Berdibek kabi harbiy boshliqlar xizmat qilardilar” [2, 38-39].

Yana bir tarixchi Lyusen Keren o‘zining “Amir Temur saltanati” asarida shunday yozadi: “Amir Temur qish kirishi bilan o‘z askarlarini Gurjistonga boshladi. Qalin qor bilan qoplangan va shu tufayli zabt etish mushkul bo‘lgan baland tog‘li o‘lkaga aqldan ozgan kishigina hujum qilishi mumkin edi; biroq sohibqiron asrorlaridan biri ham shunda ediki, u hech kim kutmagan makon va zamonda hujum uyushtirar edi. Uning g‘ayritabiiy g‘ayratidan ilhomlangan askarlar beqiyos mardlik namunalarini ko‘rsatar edilar” [3, 57].

Lyusen Kerenning fikrlariga suyanadigan bo‘lsak, Amir Temur o‘zining yuksak axloqiy fazilatlari, jismoniy yetukligi, o‘ziga va safdoshlariga nisbatan talabchanligi, qo‘shiniga nisbatan g‘amxo‘rligi sababi uning qo‘shinlarida kuchli tartib o‘rnatilgan va sarkardalari uning buyruqlarini so‘zsiz bajargan, bu esa ularning sadoqatida yaqqol ko‘ringan. Amir Temur sarkarda va amirilashkarlarining ko‘pchiligi uning bolalik do‘stlari yoki amir xizmatida bo‘lgan vaqtda u bilan birga xizmat qilgan yaqin safdoshlari bo‘lganligini ko‘rishimiz mumkin. Bu uning do‘stlariga, yaqinlariga nisbatan qanchalik ishonganligini ko‘rsatib beradi.

Bu va yuqorida sanab o‘tilgan omillar Amir Temurga mustahkam va tartibga solingan armiya yaratish uchun mustahkam asos bo‘lib xizmat qildi.

Bu haqida Amir Temurning o‘zi shunday degan edi: “Men to‘rtinchi toifa amirlar, sarxanglar, sipohsolorlarga majlislarimdan o‘rin berib, martabalarini yuqori ko‘tardim. Ular bilan suhbatlashib, maslahatlar olardim.

Jang maydonida mardona qilich chopishgan shijoatli jasur kishilarni xush ko‘rardim; jang maydonlariga ot choptirib kirib – chiqish usullarini, g‘anim lashkari to‘pini buzib, saflarini sindirishni, nayza sanchib, qilich chopishni ulardan so‘rar edim. Sipohgarlik ishlarida ularga ishonib kengash so‘rar edim” [4, 150].

Ko‘rinib turibdiki, buyuk sarkardaning yana bir sifati bu sarkardalari bilan qo‘shin tuzilishi, harbiy strategiyalar to‘g‘risida tez – tez mashvaratu majlislar o‘tkazib turishi, yurishlarda ularning zakiyligidan, tajribasidan foydalangan holda yurishlari qilishidadir.

Amir Temur oddiy jangchilardan to oliy martabagacha ko‘tarishga arziydigan harbiy tartib qoidalarning qat’iy tizimini yaratdi. Asosiy e’tiborni jasur, mard, shijoatli va bahodir jangchilarni tarbiyalashga qaratdi.

Urush paytida kimning yovga qarshi yuragi dov bermay jang maydonidan qochadigan bo‘lsa, unday askarni uyiga jo‘natib yuborish haqida farmon bergan. Qaysi askar mardona jang qilib, jang maydonida yaralanadigan bo‘lsa, unga in’omlar berish va tuzalib ketishi uchun moddiy tomondan taminlab turilishi belgilab berilgan.

Amir Temur qaysidir mamlakatga yurish qilsa va u mamlakat qo‘shinlarini mag‘lubiyatga uchratib o‘ziga bo‘ysundiradigan bo‘lsa, taslim bo‘lgan askarlarni o‘ldirmaslik, agar o‘zlari xohlashsa, ixtiyorlariga ko‘ra Amir Temur qo‘shiniga xizmat kirishlarini, aksincha bo‘ladigan bo‘lsa, ularni ozod qilishlari kerakligi haqida o‘z sarkardalariga ko‘rsatmalar bergan edi. Bu Amir Temurdagi insoniylik sifatlarining yana bir ko‘rinishi desak yanglishmagan bo‘lamiz.

Amir Temur o‘zining “Tuzuklar”ida jang maydonida mardlik ko‘rsatgan va yovga qarshi qo‘rquv bilmasdan, xuddi sherdek otilgan va dushmanga daxshat solgan askarni to yuqori martabagcha ko‘tarish yo‘llarini ko‘rsatib bergan. Bu esa qo‘shin qudrati saqlanishiga va kuchayib borishiga xizmat qilgan.

Temur o‘z “Tuzuklar”ida yana shunday fikrlarni bildiradi: “Amr qildimki, qachonki asl sipohlardan ish ko‘rgan, jang – jadal bilan suyagi qotgan o‘n kishi yig‘ilsa, bulardan qaysi birining shijoati, botirligi ortiqroq bo‘lsa, qolgan to‘qqiztasining roziligi va ma’qullashi bilan, uni o‘zlariga boshchi saylab, “o‘n boshi” degan nom bilan atasinlar.

O‘n nafar o‘nboshi jam bo‘lsa, o‘z ichlaridan eng ish ko‘rgan, jang maydonlarida toblanib tajriba orttirgan, bahodirlikda nomi chiqqan birovini amir qilib, uni yuzboshi deb nomlasinlar.

Agar o‘n yuzboshi yig‘ilsa, amirzodalardan aqlli, shijoatli, bahodir bir kishini amir etib saylab, uni mingboshi desinlar va amiri hazora deb ulug‘lasinlar.

Agar qaramlaridan biron kimsa o‘lsa yoki qochib ketsa, o‘rniga yangi kishilarni tayinlash o‘nboshilarning ixtiyorida bo‘lsin. Shunga o‘xshash yuzboshilar o‘nboshilarni, mingboshilar yuzboshilarni tayin qilsinlar. Bulardan o‘lgan, qochgan, yangi tayinlanganlar bo‘lsa, sabablarini aytib, mening arzimga yetkazsinlar.

Yana amr qildimki, chorpilchor (urush) kunlarida va saltanat ishlarini boshqarishda mingboshining hukmi yuzboshiga, yuzboshiniki o‘nboshiga, o‘nboshiniki qo‘l ostidagilarga joriy etiladi. Agar bu tuzukka qarshilik qilsalar jazoga tortilsinlar. Agar cholpilchor ishlarida kim kamchilikka yo‘l qo‘yar ekan, uni chaqirib, o‘rniga boshqani qo‘ysinlar” [5, 69].

Yuqorida keltrilgan “Temur tuzuklari”dagi ma’lumotlardan xulosa qiladigan bo‘lsak, jangda qo‘shin birligi va yakdilligini saqlash maqsadida Amir Temur qo‘shin qo‘mondonlarini tayinlashni demokratik usulini joriy qilgan. Ya’ni har kim o‘z qobiliyatiga, qilgan jasorati va ko‘rsatgan xizmatlari evaziga qo‘shin askarlari tomonidan o‘ziga munosib lavozimlarga tayinlangan yoki aksincha lavozimdan ozod etilgan. Bundan tashqari, qo‘shinda otliqlar, kamonchilar, piyoda va hokazo bo‘linmalar uchun alohida kiyim - bosh joriy qilingan bo‘lib, bu usul qo‘mondonga lashkarni o‘z o‘rinlarini almashtirishga, bo‘linmalar hujum qilayotganda ularni maqsadli nuqtalarga yo‘naltirish yoki dushman askarlari zich joylashgan jang maydonlaridan askarlarni ajrata olish imkoniyatini bergan.

Amir Temurning tadbir sohibi ekanligini quyidagi gaplari ham isbotlaydi: “Amirlarim agar yarashdan so‘z ochsalar, buning foydasini urush ziyoniga solishtirib ko‘rardim, agar urushga moyil bo‘lsalar, uning naf va foydasini yarash ziyoniga taqqoslab ko‘rardim, qaysi biri foydaliroq bo‘lsa, shuni ixtiyor qilardim. Sipoxni ikkilantiradigan [turumsiz] kengashni eshitishdan saqlanardim. Qaysi kishi aqlga siqqan bir ishni kuyinib gapirsa, suyib eshitar edim. Kimki oqilona gaplarni erlarcha keskinlik bilan so‘zlasa, unga ham quloq solardim. Har kimdan so‘z olib kengash so‘rar edim. Lekin aytilgan har bir maslahatning yaxshi va yomon tomonlari haqida o‘ylab ko‘rgach, to‘g‘ri va savoblirog‘ini tanlab olardim”.

Amir Temurning yana quyidagi gaplari ham diqqatga sazovordir: “Do‘st – dushmanligiga qaramay, har joyda sipohiylarni hurmat qildim, chunki ular boqiy mato bo‘lgan jonlarini foniy dunyo moli uchun sotadilar. O‘zlarini ma’raka – maydon, halokatga otib, jonlarini qurbon qiladilar. Agar g‘anim sipohidan biror odam o‘z valine’matiga sidqidildan xizmat qilib urush kunlarida menga qarshi qilich ko‘targan bo‘lsa ham, unday odamga nisbatan lutf – marhamatlar ko‘rsatdim, qoshimga panoh istab kelganda, uni qadrlab, haqiqat bilan xizmat qilishiga ishondim. Qaysi bir sipohiy tuz haqi va vafodorlikni unutib, xizmat vaqtida o‘z sohibidan yuz o‘girib, mening oldimga kelgan bo‘lsa, unday odamni o‘zimga eng yomon dushman deb bildim”.

Yuqoridagi fikrlardan ko‘rinib turibdiki, sohibqiron Amir Temur hattoki dushman bo‘lsa ham mard va dovyurak, yuragida jasorat olovlari alangalanib turadigan askarlarni ardoqlagan va hurmat qilgan, agar xohlashsa o‘z qoshinidan ularga mos vazifalar topshirgan. Ammo jang maydonidan qochgan, sarkardasiga xiyonat qilgan, quroldosh do‘stlariga sotqinlik qilganlarni Amir Temur qabul qilmagan va hatto ularni jazolagan.

Yana bir narsani ma’lumot o‘rnida aytib ketadigan bo‘lsam, Amir Temur o‘zi ishtirok etadigan bazmlarda, ziyofatlarda may va shunga o‘xshash mast qiluvchi ichimliklar ichishni ta’qiqlaydi. Bundan tashqari, u o‘g‘illariga va sarkardalariga ham bunday narsalardan uzoq yurishni va butkul tiyilishni buyurgani tarixiy manbalardan ma’lum. Hatto sarxusht bo‘lib, xato siyosat yuritgan o‘g‘li Mironshohni qatl qilish uchun farmon berishgacha borgani, ammo ba’zi bir atrofidagi mulozimlaring maslahatlari sababli bu farmonini bekor qilganini bilamiz. Amir Temurning bu qarori qo‘shin va qo‘shin sarkardalarining intizomini va ularni sergakliklarini saqlab turishda muhim rol o‘ynagan. May yoki chog‘ir ichgan askar diqqatini yo‘qotishi, jismonan zaif bo‘lib borishi va jang taqdiri hal qilinishi kerak bo‘lgan joylarda zaiflik qilishi mumkin, bu esa jang maydonida dushman foydasiga ishlaydi.

Amir Temur tarixda nafaqat buyuk sarkarda va davlat arbobi, balki o‘zining yuksak shaxsiy fazilatlari va harbiy intizomga asoslangan boshqaruv uslubi bilan ham alohida o‘rin tutadi. Uning harbiy muvaffaqiyatlarining asosiy omillaridan biri – bu qo‘shin ichida mustahkam tartib va intizomni shakllantirishga bo‘lgan doimiy e’tibori va bu jarayonda shaxsiy namuna ko‘rsatganligidir. Temurning qat’iyatliligi, adolatparvarligi, mardligi va strategik tafakkuri har bir jangchiga ijobiy ta’sir ko‘rsatgan.

U o‘z qo‘shinini shunchaki harbiy kuch emas, balki bir tan-u bir jon bo‘lgan jips va sadoqatli askarlar jamoasiga aylantira oldi. Amir Temur o‘zining jang maydonidagi jasorati, adolatliligi va shijoati bilan nafaqat qo‘mondonlari, balki oddiy askarlarning ham cheksiz hurmatiga sazovor bo‘lgan. Harbiy xizmatda mardlik, vatanparvarlik va fidoyilikni eng oliy fazilat deb bilgan Temur, o‘z qo‘shinidagi har bir jangchini shu ruhda tarbiyalagan va bu jarayonda o‘zining shaxsiy fazilatlari bilan ularga namuna bo‘lgan.

Temurning shaxsiy fazilatlari, ayniqsa, uning adolatparvarligi, so‘zining ustidan chiqishi, sadoqatni yuqori qadrlashi, intizom buzilishiga nisbatan keskin munosabati, urush paytida askarlarning jismoniy va ruhiy tayyorgarligiga alohida e’tibor qaratishi – bularning barchasi Temur qo‘shinining yengilmas

kuchga aylanishiga xizmat qilgan. Ayniqsa, u joriy qilgan o‘nlik, yuzlik va minglik tizimi, harbiy boshqaruvdagi tartib va askarlarni rag‘batlantirish hamda jazolash tizimi zamonaviy harbiy boshqaruv tizimlariga ham o‘z ta’sirini o‘tkazganini ko‘rishimiz mumkin.

Yana bir muhim jihatlardan biri shundan iborat ediki, Amir Temur o‘z davrining yetuk bilimdonlaridan bo‘lib, fan va bilimlarning har bir sohasiga alohida yondashardi va o‘z davrining yetuk alloma va mutaxassislari bilan doimiy muloqot va bahslarda ishtirok etardi. Muhammad haydar Mirzoning “Tarixi Rashidiy” asarida keltirilishicha, “… bir kuni Amir Temur majlisda Amir Sayyid Ali Hamadoniy boshini qora bilan tang‘ib olganini ko‘rib, undan buning boisini so‘radi. Hamadoniy o‘ldirilgan nafsiga motam tutayotganini aytdi. Shunda Amir Temur “Nafsing qatlga hukm etilganmidi? – deb so‘radi. – Agar hukm etilmagan bo‘lsa, qanday qilib o‘ldirildi? Mabodo hukm etilgan bo‘lsa, nima uchun unga motam tutmoq kerak?” Katta nufuzga ega bo‘lgan Hamadoniy bu savolga munosib javob topolmay, yengildi” *(“Majolis ul-ushshoq” (Oshiqlar majlisi) kitobidan)* [6, 193].

Mazkur asarda yana bir o‘rinda keladiki, harbiy harakatlar vaqtida Sohibqiron Amir Temur vaziyatlarni qalb ko‘zlari bilan chamalab ko‘rib, har qanday qarorni aql va munosib tadbir asnosida chiqarardi va doimo haq bo‘lib chiqardi. Uning fikricha “... agar shijoat o‘qi yaxshi o‘ylamasdan chiqib ketsa, uning chiyillashidan g‘alaba xabarini eshitib bo‘lmas” [6, 75]. Shu Bois Amir Temur ilohiy madad qalami uning yorqin aqli lavhiga zafar manzarasini chizgunicha u qilinajak ishlarini obdon aql-farosat elagidan o‘tkazardi.

1948 yilda Fransiyada “Amir Temur va temuriylar davri tarixini” o‘rganuvchi alohida ilmiy markazning tashkil etilishi ham Sohibqironning insoniyat sivilizatsiyasida tutgan o‘rnidan dalolat beradi. Fransuz temurshunosi L. Kerenning tadqiqotlarida Sohibqironning Yevropadagi o‘rni va xizmati, uning muzaffar sarkarda, mohir diplomat va ilm-fan homiysi ekanligi e’tirof etilgan. L. Kerenning fikricha, Amir Temur Sharqdagi Buyuk ipak yo‘lida joylashgan o‘lkalarning barchasini birlashtirgan, faqat Xitoygagina qo‘li yetmagan - “Agar Amir Temur faqatgina jangu jadal, yohud ashaddiy istilolar ishqida yongan buyuk fotih bo‘lganida, u tarixni ko‘p ham qiziqtirmasdi”, deb yozadi bu haqda. Albatta mazkur fikrlar Sohibqiron shaxsiga baho berishda shubhasiz katta ahamiyatga ega.

Manbalarda Amir Temurning harbiy mahorati ham keng yoritilgan. Nizomiddin Shomiyning “Zafarnoma” nomli asarida nomdor beklar va

amirlarning ko‘rsatgan qahramonliklari, jangchilarning maydondagi vajohatini aniq yoritilgan: “... Farmonga muvofiq jang kunida burgutdek shijoat va quvvat qanoti bilan uchadigan, kabutarga hamla qilayotgan lochindek dushmanga tashlanadigan, qilich tortganida chiniy oynasida o‘lim yuzidan o‘zga narsani ko‘rmaydigan, nog‘orayu karnay nag‘masini eshitganda o‘lim uchun tug‘ilinglar, degan taronadan o‘zgani eshitmaydigan botirlar jang maydoniga jo‘nadi” [7].

Xulosa qilib aytganda, Amir Temur shaxsiy fazilatlari va boshqaruv uslubi bilan nafaqat o‘z davri uchun, balki keyingi asrlardagi harbiy boshqaruv va harbiy intizom uchun ham ibrat bo‘lib kelmoqda. Uning shaxsiy namunasi orqali shakllangan sadoqat, fidoyilik va harbiy burchga sodiqlik tuyg‘ulari Temur saltanati harbiy qudratining mustahkam poydevori bo‘lgan. Bu fazilatlar va yondashuvlar bugungi kunda ham harbiy sohada va rahbarlik tizimlarida dolzarbligini yo‘qotmagan.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar

1. Аҳмедов Б. Амир Темур дарслари: Умумий таълим ва махсус тарих мактаблари ўқитувчилари ва ўқувчилари учун қўлланма. – Т.: “Шарқ”, 2001. – 144 б.

2. Мўминов И. Амир Темурнинг Ўрта Осиё тарихида тутган ўрни ва роли. Ёзма манбалар маълумоти асосида. (Иккинчи нашри). Т.: Ўзбекистон Республикаси ФА “Фан” нашриёти, 1993 й. 56 б.

3. Люсен Кэрэн. Амир Темур салтанати (француз тилидан таржима ва изоҳлар муаллифи Б. Эрматов; махсус муҳаррир: Х. Султонов; Сўзбоши: Луи Базен)- Т.: Маънавият, 1999. – 320 б.

4. Rahimov J. Buyuk davlat arbobi va ulug‘ sarkarda. “Ziyo nashr” nashriyoti, 2023. – 458 b.

5. Темур тузуклари // Форсчадан А. Соғуний ва Ҳ. Кароматов тарж. Б. Аҳмедов таҳрир остида. – Т.: Ғафур Ғулом, 1991. – 144 б.

6. Муҳаммад Ҳайдар Мирзо. Тарихи Рашидий/ Таржимонлар: Ваҳоб Раҳмонов, Янглиш Эгамова, Масъул муҳаррир: академик Азиз Қаюмов // Т.: “Sharq”, 2010. – 720 б. + 32 зарв.

7. Низомиддин Шомий. Зафарнома/Форс тилидан ўгирувчи Юнусхон Ҳакимжонов. Таржимани қайта ишлаб нашрга тайёрловчи ва масъул муҳаррир А. Ўринбоев. Изоҳлар ва луғатларни тузувчи Ҳ.Кароматов (географик номлар изоҳи О.Бўриевники). −Т:1996.

AMIR TEMUR SIYMOSI – JAHON OLIMLARI TALQINIDA

Babajanova D.B.,
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti professor,
tarix fanlari doktori, professor

Milliy mustaqillikning o‘ttiz to‘rtinchi yili nishonlanar ekan, har kuni, har haftasi yillarga teng bu davrda iqtisod, siyosat, madaniyat, ma’rifat, ma’naviyat sohasida qanday natijalarga erishilayotganini sarhisob qilishda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning “Aynan xalq armonini ro‘yobga chiqarishga bo‘lgan intilish Amir Temur ibn Tarag‘ay Bahodir davrida nafaqat mamlakat mustaqilligini ta’minlash, balki qudratli davlat barpo etish, iqtisodiyot, madaniyat, san’at va ilm-fan sohalarini rivojlantirishga xizmat qildi” [1], degan fikrining bugungi kun uchun qanchalik muhim ahamiyati borligini ta’kidlash joiz.

Mustaqillik tufayli O‘zbekistonga butun dunyoning nigohi qadalgan, qadimiy madaniyati va ma’naviy qadriyatlarini jahon ahli tan olayotgan bir davrda qadriyatlarni avaylab-asrash va rivojlantirish alohida ahamiyatga ega. Shundagina, Amir Temur kabi buyuk Sohibqiron vasiyatlari va o‘gitlarini hamda u qoldirgan ulkan ma’naviy merosni yoshlar ongiga tezroq yetkazish, ularning ilmga, boy o‘tmish tarixiga bo‘lgan hurmat-ehtiromini yanada oshirish, milliy g‘urur va faxr-iftixor tuyg‘ularini singdirish mumkin.

Jahon tarixida o‘chmas iz qoldirgan Amir Temur nizolarni tinch yo‘l bilan hal qilish, qurol ishlatmaslik, o‘zga davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik kabi adolatpesha davlat arbobiga xos siyosat yuritdi. Buyuk Sohibqiron o‘z siyosatida adolat bilan ish ko‘rdi, insonlarga yaxshilik qildi, ularning farovonligi yo‘lida ezgu ishlar qildi.

Amir Temur nafaqat Markaziy Osiyo, balki jahon tarixida ham o‘chmas iz qoldirgan davlat arbobi, shavkatli sarkarda va sahovatli ilm-fan homiysi, buyuk daho, shaxs va oddiy insondir. Shu bois, ulug‘ bobokalon nomini qoralashga uringan sho‘rolar zamonida ham jahonda uning shaxsiga va faoliyatiga bo‘lgan katta qiziqish hech qachon so‘ngani yo‘q. Mustaqillikning dastlabki

kunlaridanoq xalq dahosi timsoliga aylangan buyuk Amir Temurning muborak nomini, u haqdagi tarixiy haqiqat va adolatni tiklashga kirishildi. Unga har gal murojaat etilganda, yangi bir haqiqatni, shiddatkorlik, mag‘rurlik va insoniylik mujassamlashgan insonni yangidan kashf etiladi. Salkam VII asrdirki, hamon Amir Temurni o‘rganiladi, uni har gal eslaganda ko‘ngillar g‘urur va iftixorga limmo-lim bo‘ladi. Sohibqiron shaxsi ham mazmunan, ham shaklan ummondek beqiyosdir. Bu ummon shunchalar keng, shunchalar chuqurki, uning oxiri, cheki-chegarasi yo‘q. Ana shu ummondan terilgan durlardan bahra olish ishtiyoqi bilan bugungi avlod yonib yashamoqda.

Ana shu ishtiyoq va imkoniyat tufayli mamlakatda hazrat Sohibqironning tavallud to‘ylari har yili keng nishonlanadi, ko‘plab tadbirlar o‘tkaziladi, ulkan bunyodkorlik va madaniy-ma’rifiy ishlar amalga oshiriladi. Ulug‘ bobokalonga taalluqli bo‘lgan har bir tadbir, har bir ish umumxalq tantanasiga aylanib ketgani, ushbu xayrli ishning kelajagi porloq va savobli ekanidan dalolat beradi. “Kimki,–deb aytgan edi O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov,–o‘zbek nomini, o‘zbek millatining kuch-qudratini, adolatparvarligini, cheksiz imkoniyatlarini, uning umumbashariyat rivojiga qo‘shgan hissasini, shu asosda kelajakka ishonchini anglamoqchi bo‘lsa, Amir Temur siymosini eslashi kerak”[2.169]. Zero, Amir Temurni chuqur anglash, o‘rganish asnosida milliy qadriyatlar, qadimiy an’analarni, jahon sivilizatsiyasi tarixida o‘chmas iz qoldirgan ajdodlarni yangi sharoitda yangidan yana bir bor kashf etiladi, qaytadan dunyoga tanitish imkoniyatiga tug‘iladi.

Sohibqiron Amir Temur hayoti, faoliyati va harbiy sahohiyatini gavdalantirish u yashagan zamon mazmun-mohiyati, ruhiyati, ijtimoiy muhitini tasvirlash uchun ijtimoiy soha vakillari, ayniqsa, tarixchilar suyanadigan va tayanadigan asos, eng muhim yozma manbalar asosiy material hisoblanadi. Amir Temur hayoti davrida zamondoshlari tomonidan va uning vafotidan keyin yaratilgan asarlar ilk manbalar sifatida nihoyatda qadrli va qimmatlidir. Sohibqiron saltanati tarixi haqida o‘z davrida ko‘plab asarlar yaratilgan, bu asarlar uzoq davrdan hozirgi zamongacha yetib kelgan yozma meros g‘oyat qadrlidir. Bugungi davrda bu yozma durdonalar jahonning nufuzli kutubxonalari va turli qo‘lyozma xazinalarida saqlanib kelinmoqda, ayrimlari esa, suronli yillar davomida, davr taqozosi, zamon suronlarida yo‘q bo‘lib ketganligi achinarlidir. Nizomiddin Shomiy va Sharafiddin Ali Yazdiylarning “Zafarnoma” asarlari Amir Temur davlati tarixini o‘zida aks ettirgan yirik, eng mukammal tarixiy asarlar bo‘lib, bizgacha yetib kelgan.

Dunyo ilmiy jamoatchiligi o‘tgan yillar mobaynida Amir Temurga bag‘ishlab Yevropa tillarida 500 dan ortiq, Sharq tillarida esa, 900 ga yaqin yirik tarixiy asarlar yaratdilar”[3]. Shuningdek, temuriylar saltanatini o‘rganishga bag‘ishlangan asarlar ham anchagina. Amir Temurni ko‘plab olimu-fuzalolar o‘zlarining ijodlari uchun asosiy mavzu qilib oldilar, ayniqsa mustaqillik yillarida bu ishga astoydil kirishildi. Avvalo, aytish kerakki, bu bilan oldingi totalitar tuzum davrida biroz unutib yuborilishiga oz qolgan buyuk Amir Temur va uning avlodlari oldidagi tarixiy va ma’naviy burchni bajarishga imkon tug‘ildi. Jumladan, Fransiyada professor Lyusyen Keren va Jan Pol Ru, Buyuk Britaniyada U.L.F.Rashbruk va U.Erskin, AQSHda Beatris F.Manz va Kornel X.Flaysher, Turkiyada Mustafo Ali va Xalil Inaljik, Italiyada Nikolao Manussi, Hindistonda Ishvari Prasad va Dj.Sarkor kabi ko‘plab tadqiqotchilar o‘z asarlarida buyuk Sohibqiron Amir Temurning hayoti va ijtimoiy-siyosiy faoliyati, uning jahon tarixidagi yuksak o‘rni, fan va madaniyat homiysi sifatidagi buyuk ishlarini hamda temuriylar saltanatining jahonshumul ishlarini ko‘rsatib berdilar. Yuqorida nomi zikr etilgan amerikalik sharqshunos olim Beatris F.Manzning yozishicha: “Amir Temur uzoq davom etgan saltanatining deyarli barchasini o‘z mansabdorlari ishtirokida idora qildi... O‘zidan avvalgi hukmdorlar singari u xalq orqali davlatni boshqardi”[4.93].

Amir Temur davlatining kuchi uning boshqaruv san’ati va buyuk sarkarda ekanligi bilan belgilanishini ko‘pchilik xorijiy tadqiqotchilar e’tirof etadilar. Jumladan, fransiyalik sharqshunos olim Jan Pol Ru Amir Temurning davlat siyosatiga baho berar ekan, shunday deb yozadi: “Uning siyosati, albatta, sof va hech qachon qabih bo‘lmagan. U o‘z maqsadlarini, imtiyozlarini ochiq-oydin bir haqiqat asosida olib bordi”[5.142].

Xorijiy olimlar Amir Temurning jahon fani, madaniyati va san’atiga, xususan, Sharq sivilizatsiyasiga qo‘shgan ulkan hissasini e’tirof etish bilan birga, uning siyosatida faqat ichki masalalargina emas, balki tashqi aloqalar ham muhim o‘rin tutganligini ta’kidlaydilar. Bu ishlar faqat Osiyoda emas, balki Yevropada ham savdo-sotiq ishlarining yaxshilanishiga olib kelganligini tan olganliklarining o‘zi katta ahamiyatga egadir.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, Sohibqiron Amir Temur tavalludining 660 yillik yubileyiga bag‘ishlanib nishonlangan ko‘plab xalqaro miqyosdagi tadbirlar va undan keyingi yillarda o‘tkazilgan barcha ilmiy-amaliy anjumanlar bu masalaning hamon dolzarb ekanligini ko‘rsatdi. O‘tkazilgan tadbirlar eskicha qarashlarga barham berish, mohir sarkardani davlatchilik asoschisi,

tengi yo‘q bunyodkor, ilm-fan va madaniyat homiysi sifatida his qilish, bu ulug‘ inson ma’naviy merosining ahamiyatini chuqur anglash tarixiy va milliy qadriyatlar, urf-odatlar va an’analarni tiklash uchun keng yo‘l ochib berdi. Bunda Sohibqironga bag‘ishlangan badiiy va hujjatli filmlar, san’at asarlari, turkum radio eshittirishlar va teleko‘rsatuvlar, vaqtli matbuotda e’lon qilingan maqolalar va davra suhbatlari, oliy o‘quv yurtlari, ilmiy-tekshirish institutlari, maktablar va mehnat jamoalarida o‘tkazilgan uchrashuvlar, konferensiyalar, ilmiy yig‘inlar, xalqaro va mintaqaviy simpoziumlar katta ahamiyatga ega bo‘ldi.

Mustaqillikning dastlabki yillaridayoq Amir Temur nomini tiklash va abadiylashtirish masalalariga katta e’tibor qaratildi. O‘zbekiston Respublikasi rahbariyati va taniqli tarixchilarining Amir Temur shaxsiyati va tarixiga bo‘lgan diqqat e’tibori natijasida Sohibqiron saltanati tarixini to‘liq yaratish borasida samarali ishlar amalga oshirildi. Bu borada ko‘plab O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni [6], qonunlar va Vazirlar Mahkamasining maxsus qarorlari[7] qabul qilingan.

1995 yil oktyab-noyabr oylarida bo‘lib o‘tgan YUNESKOning 28-Bosh Assamleyasi Amir Temurning davlat qurishdagi, ilm-fan, maorif va madaniyatni rivojlantirishdagi ulkan xizmatlarini hisobga olib, “1996 yilda hazrat Amir Temur tavallud topgan kunning 660 yilligini butun dunyo miqyosida nishonlash to‘g‘risida” [8.89] qaror qabul qildi. Bu – Sohibqiron Amir Temurning jahon tarixiga, fani va madaniyatiga, me’morchiligi va san’atiga, Sharq sivilizatsiyasi va taraqqiyotiga qo‘shgan ulkan hissalarining tan olinishi, tarixiy adolatning qaror topishi edi.

Parij Sohibqironga ko‘p marta o‘z ta’zimini bajo keltirgan. YUNESKO rahnamoligida o‘tgan bu galgi tantanalar esa fransuz xalqining Amir Temur dahosiga, mustaqil O‘zbekiston xalqiga bo‘lgan yuksak ehtiromi va hurmatining in’ikosi bo‘ldi. Bu o‘rinda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1996 yil 11 yanvardagi 19-son qarori [9]ga binoan 1996 yilning aprel oyida Parijda, YUNESKO qarorgohida “Temuriylar davrida fan, madaniyat va ta’limning ravnaqi” mavzuida o‘tkazilgan xalqaro simpozium va haftalikni alohida ta’kidlash joiz.

Anjumanlarda asosan xorijiy olimlar o‘z ma’ruzalari bilan faol qatnashdilar. Ular Amir Temurning jahon tarixida tutgan o‘rni, uning fan, madaniyat va ta’limning yuksalishiga qo‘shgan benazir hissasini chuqur hurmat va ehtirom bilan e’tirof etdilar. Ko‘pgina xorijiy olimlar bilan birga,

o‘zbekistonlik sakkiz nafar olim ham mazkur anjumanlarda o‘z ma’ruzalari bilan ishtirok etdilar. Parij shahrida o‘tkazilgan bu anjuman Amir Temurning jahon fani, madaniyati va san’atiga, xususan, Sharq sivilizatsiyasiga qo‘shgan ulkan hissasini va yosh mustaqil O‘zbekistonning naqadar chuqur ildizlarga ega ekanligini dunyoga yana bir bor namoyish etdi.

Ana shu tadbirlar orasida 1996-yilning 24-oktabridaToshkentdagi Turkiston saroyida o‘tkazilgan “Amir Temur va uning jahon tarixida tutgan o‘rni” mavzuidagi xalqaro ilmiy konferensiya asosiy o‘rin tutadi. Mazkur anjumanda Yevropa, Osiyo, Amerika va Afrika qit’alarining 25 mamlakati va Hamdo‘stlik mamlakatlaridan kelgan 100 dan ortiq mutaxassislar, ikki mingga yaqin olim, yozuvchi, jurnalist, diplomat, fan va madaniyat, davlat va jamoat arboblari ishtirok etgan edilar[10.38].

Konferensiyada YUNESKOning Osiyo va Tinch okeani mintaqalari bo‘limining direktori Sadaishiru Akadjima, Markaziy Osiyo xalqlari madaniyati assambleyasining Prezidenti Chingiz Aytmatov, Temuriylar davri san’ati va tarixi assosiatsiyasining Pryezidenti, fransuz-o‘zbek madaniy aloqalar jamiyati Prezidenti, professor Lyusyen Keren, AQSH Atlantik Kengashining xalqaro xavfsizlik dasturi direktori, professor Richard Nelson, Qohiradagi “Al-Azhar” va ”Ayn ash-Shams” universitetlarining professori Nasrullo Mubashir Taroziy, Germaniyaning Triyer universiteti professori Klaus Pander, Hindiston Aligarx musulmon universiteti professori Mansura Haydar, Yaponiyaning Kioto universiteti professori Eyji Mano, Xitoy Xalq Respublikasi Sharqiy Yevropa va Markaziy Osiyo instituti direktorining o‘rinbosari, professor Sin Guanchen, Turkiyadagi O‘rta Sharq universitetining professori Esonbeka To‘g‘on, Italiyadagi Sharq universitetining professori Mishel Bernardini kabi ko‘plab mashhur olimlarning o‘z ma’ruzalari bilan qatnashishlari katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Ular o‘z ma’ruzalarida buyuk Sohibqiron Amir Temurning jahon tarixidagi yuksak o‘rni, fan va madaniyat homiysi sifatidagi buyuk ishlarini munosib ta’rifladilar, ulug‘ mutafakkirlar va tarixiy shaxslar nomini ulug‘lash, ularning merosini o‘rganishda O‘zbekistonda olib borilayotgan katta ishlarga yuksak baho berdilar. Bir so‘z bilan aytganda, “Temuriylar renessansi”ning asosiy mohiyati va o‘ziga xos xususiyatlari har tomonlama asoslab berildi.

Parij va Toshkent shaharlarida xalqaro miqyosdagi o‘tkazilgan ilmiy-amaliy konferensiyalar Samarqand va Shahrisabz shaharlarida bo‘lib o‘tgan tantanali tadbirlar bilan qo‘shilib, jahon xalqlarining ulug‘ Sohibqironga bo‘lgan buyuk ehtiromining o‘ziga xos bir yakuni bo‘ldi. Konferensiyaga

tayyorgarlik jarayonida unda ishtirok etishga xohish bildirgan temurshunos olimlarning ma’ruzalari matni va tezislarini o‘z ichiga olgan o‘zbek, rus va ingliz tillarida uchta kitob chop etildi[11.122]. Mazkur konferensiya yig‘ilishlarida Amir Temurning buyuk bunyodkor shaxs va ulkan davlat arbobi va sarkarda sifatida XIV asrda Movarounnahr va Xurosonda markazlashgan davlatga asos solganligi, bu davlatning xalqaro miqyosda e’tirof etilgani “buyuk uyg‘onish” sifatida baholandi. Konferensiya natijalaridan kelib chiqadigan bosh ilmiy xulosa ham aynan shu fikr edi.

Shuningdek, ma’ruzalarda ulug‘ Sohibqironning madaniy-ma’rifiy faoliyati, adabiyot, san’at, me’morchilik, fan va ta’lim arboblariga homiyligi va ularni har jihatdan qo‘llab-quvvatlashi hamda shu orqali jahon tamadduniga qo‘shgan ulkan hissasi ilmiy asosda bayon etib berildi. Chiqishlarda Amir Temur va temuriylar davrida ijtimoiy-siyosiy hayot, davlat qurilishi, xalqaro munosabatlar, amaliy san’at va hunarmandchilikning rivojlanishi, bu davrdagi adabiy aloqalar rivoji, hazrat Sohibqiron siymosining adabiyotdagi aks etishi, turli hududlarda Amir Temur nomi bilan bog‘liq arxitektura yodgorliklarini ta’mirlash va saqlashning hozirgi muammolari kabi aniq ilmiy-amaliy masalalar haqida e’tiborli mulohazalar yuritildi. Bir so‘z bilan aytganda, “Temuriylar renessansi”ning asosiy mohiyati va o‘ziga xos xususiyatlari har tomonlama asoslab berildi.

Mustaqillik yillarida Amir Temur tavalludining 660 yilligining xalqaro miqyosda nishonlanishi, “1996-yilni “Amir Temur yili” deb e’lon qilish to‘g‘risida”gi[12], “Temuriylar tarixi davlat muzeyi”ning tashkil etilishi[13], “Xalqaro Amir Temur fondini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida”gi [14], “Amir Temur ordenini ta’sis etish to‘g‘risida”gi [15] qator farmon, qonun va qarorlar hamda ularning ijrosi muhim tarixiy voqea bo‘lib, ushbu masalaning davlat miqyosida ko‘tarilgani muhim tarixiy voqelik bo‘ldi.

Toshkent, Samarqand, Shahrisabz shaharlarida buyuk Sohibqironning ulug‘vor haykallari qad rostlashi buyuk ajdodimiz xotirasini e’zozlash, nomini abadiylashtirish yo‘lida olib borilgan xayrli ishlar sirasidandir. Poytaxt Toshkent markazidagi so‘lim hiyobon, shohko‘cha, metro bekati, respublikaning turli hududlaridagi madaniyat va ma’rifat maskanlariga ham Amir Temur nomi berilgani Amir Temur nomini abadiylashtirdi.

Xorijiy mamlakatlarda Amir Temur va temuriylar saltanatini o‘rganishga bag‘ishlangan asarlar uzoq yillar davomida ko‘plab chop etilgan va hozir ham bu jarayon davom ettirilmoqda. Ularda tadqiqotchilar Sohibqironning buyuk

daho ekanligini, bu ulug‘ siymo qoldirgan boy meros, pandu nasihat va o‘gitlar bugungi kun bilan hamohang ekanligini, muammolarni yechishda qo‘l kelishini, shuning boisdan ham, bu merosni o‘rganish, targ‘ib-tashviq qilish lozim ekanligini ta’kidlaydilar.

Asrlar osha, dovonlar osha kelayotgan buyuk daho siymosi aks etgan asarlar umri boqiydir. Vaqtlar o‘tgan sayin, zamonlar kechgan sayin bu siymo yulduzlardek yarqirab, chiroy ochaveradi. Undan teran hayotiy tajriba va saboq olib, yuksaklikka intilish barchaga, kelajak bunyodkorlariga ham nasib etsin.

Amir Temur nomi buyuk bunyodkor, milliy davlatchilik ta’mal toshini qo‘ygan, Vatan ozodligi yo‘lida jonini tikib, adolatparvar siyosat yuritgan Sohibqiron sifatida tarix sahifalariga muhrlangan. Amir Temur hayoti va sarkardalik mahorati bilan bog‘liq voqeliklar, erishilgan muvaffaqiyatlar, o‘sha davrning ijtimoiy-siyosiy ahvolini o‘rganish, tahlil etish, zaruriy saboqlar chiqarish va uning natijalarini yanada mustahkamlash hozirgi davrda va kelgusida ham dolzarbligicha qolaveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.. Shavkat Mirziyoyev. Yangi O‘zbekiston strategiyasi.–Toshkent: O‘zbekiston, 2021.–B.17.

2. Islom Karimov. Yangicha fikrlash va ishlash – davr talabi. Asarlar, 5-jild. – Toshkent:O‘zbekiston, 1997.–B.169.

3.Xalq so‘zi, 1996 yil 25 oktyabr.

4.Manz Beatrice Forbes. The rise of Tamerlane, Cambridge Univ. Press. Cambridge, 1989, p.93.

5. Jean-Paul Roux. Ibid., p.142.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “1996 yilni Amir Temur yili deb e’lon qilish to‘g‘risida”gi Farmoni. Toshkent, 1995 yil 26 dekabr // Xalq so‘zi. 1995, 27 dekabr, PF-1333-son. (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1995 y., 12-son, 303-modda).

7.“Amir Temur tavalludining 660 yilligini nishonlash to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining630-son qarori, 1994 yil 29 dekabr // Xalq so‘zi. 1994, 30 dekabr; O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Temuriylar tarixi davlat muzeyini tashkil etish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori. Toshkent, 1996 yil 14 mart // Xalq

so‘zi. 1996, 15 mart; “Amir Temur” ordenini ta’sis etish to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasining 1996 yil 26 aprel qonuni // O‘zbekiston Respublikasi Oliy majlisining Axborotnomasi. – Toshkent, 1996. – № 5-6. 63-modda.)

8. UNESCO. Resolutions twenty – eighth session of the General Conference. Vol. I, Paris, 1996, p. 89.

9. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Parijda Tyemuriylar davrida fan, madaniyat va ta’limning ravnaqi” haftaligini o‘tkazish to‘g‘risida” 1996 yil 11 yanvardagi 19-son qarori.

10. Bobojonova D. Sohibqiron Amir Temur jahon olimlari nigohida. /Amir Temur saboqlari./ Xalqaro ilmiy konferensiya materiallari.– Toshkent:Sharq, 1998.–B.38.

11. “Amir Temur va uning jahon tarixidagi o‘rni” mavzuidagi xalqaro konferensiya tezislari.1996 yil 23-26 oktyabr (o‘zbek, rus va ingliz tillarida).–Toshkent:O‘zbekiston, 1996.–122 b.

12. “1996 yilni “Amir Temur yili” deb e’lon qilish to‘g‘risida”. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Toshkent sh., 1995 yil 26 dekabr, PF-1333-son. *(O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1995 y., 12-son, 303-modda).*

13. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Temuriylar tarixi davlat muzeyini tashkil etish to‘g‘risida”gi 1996 yil 14 martdagi 99-sonli qarori.

14. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Xalqaro Amir Temur fondini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida” gi 1996 yil 14 martdagi 100-sonli qarori.

15. Amir Temur ordenini ta’sis etish to‘g‘risida // O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. 1996 yil 26 aprel, 225-I-son. *(O‘zbekiston Respublikas*

Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1996 y., 5-6-son, 63- modda; 1997 y., 4-5-son, 126-modda; 2003 y., 9-10-son, 149-modda).

AMIR TEMUR STRATEGIYASI – DAVLAT BOSHQARUVI VA HARBIY SAN'AT TARAQQIYOTINING YORQIN NAMUNASI

Rashidov R.R.,
Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti bo'lim boshlig'i, Harbiy fanlar doktori (DSc), professor

Sohibqiron bobomiz Amir Temurning biz avlodlarga qoldirgan boy hayotiy, ilmiy, harbiy merosini o'rganish, o'zlashtirish, undan tegishli xulosalar chiqarish hamda uni doimiy ravishda o'z faoliyatimizda qo'llash zaruriyati hech qachon dolzarbligini yo'qotmaydi, desak ayni haqiqatni aytgan bo'lamiz.

Sohibqiron bobomizning merosi haqida gap ketganda, avvalo Amir Temur shaxsini anglash, uning o'ta boy dunyoqarashini tushunish lozim bo'ladi. Shundagina biz Sohibqironning davlat boshqaruvi, harbiy san'ati va strategiyasi qay tartibda shakllanganligi, olib borilganligi va yuksak muvaffaqiyatga erishganligini tushunishimiz va bilishimiz hamda Ulug' sarkardaning har tomonlama boy merosi bizga "o'z eshiklarini ochishi" mumkin bo'ladi.

Amir Temur shaxsi, uning xalqparvar siyosati xususida fikr bildirar ekan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni Shavkat Mirziyoev jumladan shunday degan edi: "Qurolli Kuchlarimiz Sohibqiron Amir Temur bobomizning "Millatning dardiga darmon bo'lmoq – chin vazifangizdur", degan ezgu da'vatini o'ziga shior qilib oldi" [1].

Sohibqiron strategik tafakkuri va qarashining shakllanishi

Amir Temur strategiyasi haqida gap ketganda avvalo, Sohibqiron yashagan davr, xususan Ulug' sarkarda faoliyatining dastlabki davri (**XIV asrning o'rtalari**)dagi Movarounnahr va unga qo'shni hududlardagi ijtimoiy-siyosiy vaziyatga e'tibor qaratish lozim bo'ladi. Chunki, ushbu davrdagi davlatlar va davlatga o'xshash tuzilmalar, shuningdek mintaqalar o'rtasidagi munosabatlarni, kechayotgan ijtimoiy-siyosiy, savdo-iqtisodiy hamda xalqaro jarayonlarni chuqur tahlil qilish va anglash natijasida ushbu davr, davrning ruhi xususida bir qator fikrlarni bildirmoqchimiz.

Birinchidan, mo'g'ullar istilosidan keyin butkul vayrona holiga kelgan Sirdaryo va Amudaryo oralig'i va unga yondosh hududlarda siyosiy tarqoqlik, parokandalik hukm surardi. El-yurt yetakchilari, amirlar va hokimlar

mo‘g‘ullarning doimiy bosqin hududiga aylangan Movarounnahrdan bosqinchilarni haydab chiqarish va ularning bosqinlariga chek qo‘yish, mamlakatni birlashtirish hamda xalq ahvolini yaxshilash kabi strategik masalalar haqida o‘ylab ham ko‘rmasdilar. Buning aksiga parokandalikka zo‘r berish, mo‘g‘ul xonlarining talonchilik yurishlari yetmaganidek bir-birining yeriga bosqinlar uyushtirish, mazlum xalqni talash, faqat o‘zini o‘ylash, el-yurt kelajagiga butunlay beparvolik holati hukm surar edi. Bu xususda gap ketganda Movarounnahrning 10 ga yaqin mustaqil hokimligu bekliklarga bo‘linib ketganligiga e’tibor qaratish o‘rinli bo‘ladi. Jumladan, Samarqand viloyatida Amir Bayon Sulduz, Xo‘jandda Amir Boyazid Jaloyir, Balxda O‘ljaytu Sulduz, Keshda Amir Hoji Barlos, Hisor atroflarida Amir Husayn va Amir Xizr Yasovuriylar, Shibirg‘onda Muhammad Aperdi Nayman, Ko‘histonda Amir Sotilmish, Xuttalonda Amir Kayxusrav kabilar o‘zlarini hokimi mutlaq deb hisoblar edilar.

Ikkinchidan, Amir Temur yuqorida qayd etilgan murakkab vaziyatda, ya’ni XIV asrning 60-yillarida siyosat maydoniga kirib keladi. Ushbu davrda mo‘g‘ul hukmdorlari va mahalliy zodagonlar o‘rtasida toju-taxt, davlat va molu-dunyo uchun kurashlar juda avj olib ketgan edi. To‘xtovsiz davom etayotgan nizo va urushlar o‘lkani butkul inqiroz holatiga olib kelgan va oddiy xalq ommasining ahvoli og‘irlashib ketgan edi. Ana shunday vaziyatda avvalo, **mamlakatdagi siyosiy tarqoqlikka barham berish**, so‘ngra **markazlashgan kuchli davlat barpo etish**, undan keyin esa **mo‘g‘ul istibdodiga barham berish** kabi **strategik masalalar**ni hal etish dolzarb ahamiyat kasb eta boshladi. Yurt kelajagi uchun muhim ahamiyat kasb etuvchi **yuqoridagi uchta strategik masalani teran anglagan** yosh va navqiron Temurbek mashaqqatli kurash maydoniga kirib keldi.

Uchinchidan, tinimsiz kurashlar va urushlarda jismonan toblanib borgan Amir Temur, doimiy izlanish, o‘qish va o‘rganish davomida ma’nan hamda tafakkur nuqtai nazaridan ham takomillashib bordi.

Amir Temur kuchli va markazlashgan davlat zarurligini boshqa mahalliy beklar, amirlardan ko‘ra yaxshiroq tushunar edi. Shu bois, Movarounnahr aholisining quyi qatlamidan yuqori qatlamigacha – dehqonu-chorvadorlar, savdo-sotiq ahli, hunarmandu-kosiblar, ruhoniylar hamda din ahli, mahalliy zodagonlar Amir Temurni qo‘llab-quvvatlashgan.

Sohibqiron Amir Temurning strategik tafakkur [2], teran aql va ma’naviy jihatdan yuksak insoniy xislatlar egasi ekanligi, shuningdek yetuk davlat arbobi

hamda mohir sarkarda bo‘lganligini uning quyidagi o‘gitlari va tuzuklaridan bilib olish mumkin. Bu borada Sohibqiron bobomizning davlat boshqaruvi va harbiy san’atga doir strategik qarashlari aks etgan “Temur tuzuklari” o‘ziga xos qimmatli manba sifatida hozirgi davrga qadar xizmat qilib kelmoqda.

✓ Saltanat ishlarining to‘qqiz ulushini mashvarat, tadbir va kengash, qolgan bir ulushini esa qilich bilan bajo keltirish zarur;

✓ Tajribamdan ma’lum bo‘ldiki, kengash ikki turli bo‘lur. Biri – til uchida aytilgani, ikkinchisi – dildan chiqqani. Til uchida aytilganini shunchaki eshitardim, dildan aytilgan maslahatni esa qulog‘imga quyardim va qalbimga joylardim. Kengash ahlidan kimki kuyunib maslahat bersa, quloq solardim, kimki oqilona gaplarni mardlarcha keskinlik bilan so‘zlasa, uni diqqat bilan tinglardim;

✓ Tajribamda ko‘rdimki, azmi qat’iy, tadbirkor, hushyor, mard va shijoatli bir kishi mingta tadbirsiz, loqayd kishilardan yaxshiroqdir. Chunki tajribali bir kishi minglab kishiga ish buyuradi;

✓ Saltanat ishlarining bir qismi sabru-toqat bilan bitgay. Yana bir qismi bilib-bilmaslikka, ko‘rib-ko‘rmaslikka olish bilan bitur;

✓ Dushman lashkarini yengish qo‘shinning ko‘pligi bilan emas, mag‘lub bo‘lish esa sipohning kamligidan bo‘lmaydi. Balki, g‘olib bo‘lmoqlik Tangrining madadi va bandasining to‘g‘ri tadbiri bilan bo‘ladi;

✓ Bir ishga kirishmay turib, undan chiqish yo‘llarini o‘ylab qo‘yar edim. Uni to‘g‘ri tadbir, qat’iy jazm, sabr-chidam ko‘rsatib, ehtiyotkorlik bilan uzoqni o‘ylab, ortini esdan chiqarmagan holda oxiriga yetkazardim;

✓ Amirlarim va askarlarimni martabayu unvonlar, oltin-kumush bilan xushnud etdim. Bazmlarda ularga munosib o‘rin berdim, shuning uchun janglarda jonlarini fido qildilar;

✓ Siyosat va insof bilan sipohlarimni, raiyat (xalq)ni umid va qo‘rqinch orasida tutib turdim. Fuqaro va qo‘l ostimdagilarga rahmdillik qildim, askarlarimga in’omlar ulashdim;

✓ Davlatlarning tanazzulga uchrashi sabablarini surishtirdim va davlatu saltanat zavoliga sabab bo‘luvchi ishlardan saqlandim [3].

Yuqoridagi teran fikrlar, odat tarziga aylangan tuzuklar va qat’iy amal qilingan xislatlar albatta, Sohibqiron bobomizning strategik tafakkuri qay darajada ekanligini yaqqol namoyon qilishi bilan birga, unga davlat ishlarida ham, harbiy masalalarda ham juda asqotganligini ta’kidlab o‘tish joizdir.

Amir Temurning davlat boshqaruvi strategiyasi – taraqqiyot kafolati

Amir Temur faoliyatining tahlili natijasida, uning davlat boshqaruvi strategiyasini vaqt nuqtai nazaridan **uch davrga** bo‘lish mumkinligini ma’lum qilmoqchimiz.

Birinchi davr – 1355-1370 yillarni o‘z ichiga olib, ushbu davrga hokimiyat uchun kurash davri deb ta’rif berish o‘rinli bo‘ladi.

XIV asr 50-yillari ikkinchi yarmidan Movarounnahrning amir ul-umarosi (bosh vaziri) bo‘lgan amir Qazag‘an (1346-1358) xizmatida bo‘lgan Temurbek o‘zining ziyrakligi, zukkoligi, epchil va abjirligi, mard va qo‘rqmasligi, jasurligi bilan amir ul-umaroning e’tibori hamda ishonchini qozonadi. Temurning yorqin kelajagini ko‘ra bilgan amir Qazag‘an unga o‘z nevarasi O‘ljoyni turmushga bergani (1355 yil) ham bejiz emasdi.

Amir Qazag‘an atrofidagi amirlaru beklar va hatto, o‘z o‘g‘li Abdulloh hamda kuyovi Qutlug‘ Temurning o‘ziga nisbatan uyushtirgan suiqasdlari qurboni bo‘ladi. Garchi, Temurbek amir Qazag‘anga nisbatan qilingan bunday suiqasdlarning bir nechtasidan amir ul-umaroni saqlab qolgan bo‘lsa-da, xiyonatchilar baribir maqsadlariga erishadilar va amir Qazag‘an 1358 yilda fitna qurboni bo‘ladi.

Temurbekning o‘ziga sadoqat bilan xizmat qilib kelayotganligi hamda davlat ishlarida ham ziyrak va zukkoligini ko‘rgan amir Qazag‘an o‘zidan keyin davlat boshqaruvini Amir Temurga qoldirmoqchi bo‘ladi. Bu xususda Amir Temur o‘z “Tarjimai hol”ida jumladan shunday deydi:

– Men amir Qazag‘anning namakxo‘ri (birga ovqatlanadigan yaqin kishisi) va unga o‘g‘ildek yaqin edim. Shuning uchun g‘ofil bo‘lmasin deb, uni bu voqeadan (fitnadan) xabardor qildim. Amir buning evaziga menga yorliq tortiq qildi. Unda ushbu mazmunda yozgan edi: “Xat berduk va ahd qilduk: bizdan so‘ng Turon o‘lkasi Temurga taalluq topgay”.

Ushbu voqeadan shunday xulosa chiqarish mumkinki, 1358 yildayoq Amir Temurga Movarounnahr o‘lkasini boshqarish huquqi berilgan ekan [4].

Biroq, amir Qazag‘anning o‘limi, mahalliy amirlar va beklar o‘rtasidagi hokimiyat uchun kurash hamda yurtga Mo‘g‘uliston xoni Tug‘luq Temur (1348-1362) va uning o‘g‘li Ilyosxo‘ja (1362-1365)ning bostirib kirishi, undan so‘ng esa Amir Husayn bilan yakka hukmdorlik uchun kurash davrlarida Amir Temur mashaqqatli va og‘ir kurash yo‘lini bosib o‘tdi hamda **o‘z strategiyasidagi ilk vazifa** – Movarounnahrni birlashtirib, **mamlakatdagi siyosiy tarqoqlikka barham berish**dek sharafli ishni muvaffaqiyatli ado etdi.

Ikkinchi davr 1370-1388 yillarni qamrab oladi va ushbu davrda **markazlashgan kuchli davlat barpo etish** hamda **mo‘g‘ul istibdodiga barham berish** kabi **strategik masalalar** hal etilganligini qayd etib o‘tish lozim.

1370 yil aprelida Balxda bo‘lib o‘tgan Qurultoy yakuniga ko‘ra, Amir Temur eski Chig‘atoy ulusining amir ul-umarosi, ya’ni bosh vaziri, Suyurg‘atmish o‘g‘lon esa xon deb e’lon qilindi.

Shundan so‘ng, Chingizxon bosqinidan keyingi bir yarim asr davomida vayrona bo‘lib yotgan Ona yurtni obod qilish, mazlum xalq turmushini yaxshilash bo‘yicha keng ko‘lamli chora-tadbirlar ko‘rildi.

Mamlakat poytaxti etib Samarqand shahri tanlandi – bu ham muhim bir strategik qaror edi.

Movarounnahr zaminidan mo‘g‘ullar haydab chiqarilgan va jipslik va yakdillikka erishilgan bo‘lsa-da, hali mamlakatga nisbatan tashqi xavf saqlanib qolayotgan hamda Movarounnahrning to‘laqonli birlashtirilishi yakuniga yetmagan edi. Bu borada gap ketganda Mo‘g‘uliston (Jeta)dan keladigan tashqi xavfni bartaraf etish va Xorazmni Movarounnahrga birlashtirish masalasini alohida qayd etib o‘tish lozim bo‘ladi.

Amir Temur diqqat-e’tiborini Xorazmni birlashtirish masalasiga qaratadi. Garchi, Sohibqironning diplomatik vositalar ila, tinchlik yo‘li bilan Xorazmni bo‘ysundirishga intilgan bo‘lsa-da, bu borada 1372 yilda boshlangan sa’y-harakatlar 1388 yilgacha cho‘ziladi va Amir Temurning Xorazm tomonga besh marotaba yurish qilishiga olib keladi.

Ushbu davrda Amir Temur Mo‘g‘uliston tomonga ham besh marta yurishlar uyushtirib, Qamariddin (1363-1390), Xizr xo‘ja o‘g‘lon va Anqo to‘ra kabi mo‘g‘ul hukmdorlariga qaqshatqich zarbalar berdi [5] hamda ularning Movarounnahrga bo‘ladigan talonchilik yurishlariga chek qo‘ydi.

Shu tariqa mamlakat to‘la birlashtirildi va tashqi xavf, ya’ni Mo‘g‘uliston tomondan keladigan xavf bartaraf etildi.

Uchinchi davr Amir Temurning davlat boshqaruvi o‘z cho‘qqisiga erishgan davr sifatida e’tirof etiladi va 1388-1405 yillarni o‘z ichiga oladi. Ushbu davrda Amir Temurning strategiyasi asosan tashqi siyosat va xalqaro maydondagi voqea hodisalarni o‘rganish va chuqur tahlil qilish natijasida shakllantirilganligi va keng ko‘lamli harbiy yurishlar olib borilganligi bilan xarakterlidir.

Amir Temurning ushbu davrdagi strategiyasi, aniqroq aytganda harbiy strategiyasi sharqu g‘arb, shimol va janub tomonga muvaffaqiyatli harbiy harakatlarni amalga oshirganligi bilan diqqatga sazovordir.

Sohibqironning ushbu yillarda olib borgan muvaffaqiyatli yurishlari natijasida **ulkan saltanat** barpo etiladi va uning ta’siri Yevroosiyoning barcha qismiga hamda Afrika va Yevropaga ham yoyiladi.

Bu davrda harbiy yurishlarda katta va boy tajriba to‘planadi. Harbiy qo‘shin tuzilishi, uning ta’minoti, yurishlar vaqtidagi tartib-qoidalar, askar va zobit, sarkarda va amirlarni rag‘batlantirish, martabasini ko‘tarish masalalari qat’iy belgilangan Nizom asosida amalga oshiriladi. Natijada harbiy san’at va harbiy mahorat rivojlanib, yuksak darajaga ko‘tariladi.

Amir Temurning davlat boshqaruviga oid faoliyatini kuzatar ekanmiz, uning **davlat boshqaruv strategiyasi quyidagi 8 ta maqsadni o‘z ichiga oluvchi yirik dastur** ekanligi namoyon bo‘ladi:

1. Davlat o‘z vakolatini bajarmog‘i uchun eng avvalo siyosiy jihatdan mustaqil bo‘lmog‘i lozim.

2. Davlat va jamiyatning yaxlitligi buzilmasligi zarur.

3. Davlat va jamiyat muayyan qonunlar, tartiblar, g‘oyalar asosida boshqarilmog‘i lozim.

4. Boshqaruvning turli bo‘g‘inlarini muvofiqlashtirib turuvchi ma’lum bir tizim shakllangan bo‘lmog‘i kerak.

5. Jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning mavjud ahvoli hamda kelgusi taraqqiyoti masalasi davlatning diqqat markazida turmog‘i darkor.

6. Fan va madaniyat ravnaqi to‘g‘risida doimiy qayg‘urish davlat ahamiyatiga molik qat’iy siyosat sifatida qaralmog‘i lozim.

7. Davlat jamiyatning ichki taraqqiyoti masalalarini tashqi dunyodagi mavjud omillardan foydalangan holda hal etib borishi lozim.

8. Davlatni boshqaruvchi kuchlar o‘tmish, zamona va kelajakni teran tafakkur, mustahkam iymon, g‘oyat yuksak ma’naviyatparvarlik va millatparvarlik ila anglamog‘lari kerak.

Amir Temurning yuqoridagi milliy davlatchilik asoslarini rivojlantirish strategiyasi o‘z davrida jamiyat rivojida muhim ahamiyat kasb etdi hamda barcha ijtimoiy tabaqalarning o‘zaro bir-birini tushunishi va hurmat qilishiga hamda davlat tomonidan ularning manfaatlari ta’minlanishi orqali jamiyatdagi umumiy ijtimoiy taraqqiyotga erishildi.

Xulosa o‘rnida aytish joizki, Sohibqiron hazratlarining strategiyasini xoh davlat boshqaruvida, xoh harbiy yo‘nalishda bo‘lsin, bitta maqola doirasida qamrab olish mushkul ekanligini qayd etgan holda, kelgusida mazkur strategiyaning barcha jihatlarini to‘laqonli ochib berishga hamda o‘quvchi diqqat-e’tiborini ilgari tadqiq etilmagan jihatlarga qaratish zarurligini ta’kidlash lozim.

Mavjud ilmiy, adabiy hamda tarixiy manbalarning har tomonlama teran tahlili orqali Sohibqiron bobomizning naqadar chuqur (ta’bir joiz bo‘lsa strategik) tafakkur va dunyoqarash sohibi bo‘lganligini, xalqaro vaziyatga qiziquvchan va uni diqqat bilan kuzatuvchi hamda uni o‘zi uchun qulay yo‘nalishga yo‘naltiruvchi, mavjud imkoniyatlardan unumli foydalanuvchi strateg, davlat arbobi, mohir sarkarda, siyosatchi, diplomat ekanligiga guvoh bo‘lamiz. Xususan, shaxs va shaxslararo munosabatlar borasida ham Sohibqiron bobomizning bir ko‘rishda odamni taniydigan yetuk psixolog-ruhshunos, ijtimoiy munosabatlarning tengi yo‘q bilimdoni sifatidagi ijobiy xislatlari raqib bilan muomalasida ham, o‘z yaqinlari bilan bo‘lgan munosabatlarda ham yaqqol namoyon bo‘ladi. Shunday ekan, hozirgi murakkab zamonda Sohibqiron bobomizning strategik tafakkurini chuqur anglagan holda ish ko‘rish mamlakatimizning kelgusi taraqqiyoti, xalqimizning farovonligi, qolaversa Yangi O‘zbekistonni barpo etish uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Мирзиёев, Ш.М. Ўзбекистон Республикаси Қуролли Кучлари ташкил этилганининг 29 йиллиги ва Ватан ҳимоячилари куни муносабати билан байрам табриги. 14 январь, 2021. https://president.uz/uz/lists/view/4078
2. Самаров, Р.С. Амир Темурнинг саркардалик маҳорати: сиёсий-психологик талқин / Р. Самаров // Ҳарбий таълим ва фанда инновациялар. – Т.: – № 1 (10), 2021. – Б. 3-11.
3. Темур тузуклари / Таҳрир ҳайъати: Б.Абдуҳалимов ва б. Форсча матндан А.Соғуний ва Ҳ. Кароматов тарж. – Тошкент: “O’ZBEKISTON” НМИУ, 2013. – 184 б.
4. Содиқов Ҳ. Амир Темур салтанатида хавфсизлик хизмати. – Тошкент: ART FLEX, 2010. – Б. 27.
5. Шарафиддин Али Яздий. Зафарнома. – Тошкент: Шарқ, 1997. – Б. 124-127.

BUYUK SOHIBQIRON AMIR TEMUR SALTANATINING O‘ZIGA XOS JIHATLARINI

Baxranov Sh.T.,
Jamoat xafsizligi universiteti dotsenti,
tarix fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

Amir Temurni dunyo davlatlari orasida tinchlikni saqlash, xalqlar o‘rtasidagi munosabatlarni rivojlantirish bo‘yicha oqilona siyosat olib borib yuksak olijanoblik bilan muzokara yo‘lini hamma narsadan ustun qo‘yganligi bugungi kun siyosatchilari uchun ham naqadar muhimdir.

Elchi Ruy Gonsales de Klavixning “Men Temurbekni bir urushdan qaytib kelishiga guvoh bo‘ldim. Ko‘zim tushgan hamon bu kishini dunyoning eng botir kishisi ekanligiga ishonch hosil qildim. Men yaqin tarixiy davrlar orasida Temurbek kabi qudratda, saxovatda, davlatda mukammal bir podshohning dunyoga kelganini eslay olmayman. ...Ispaniya elchilariga Temurbekning qimmatbaho hadyalari yigirma xachirga yuk bo‘ldi” [1, b-7]., deb yozib qoldirgan fikrlari alohida e’tiborga loyiqdir.

Shuningdek, davlatlar o‘rtasidagi ikki tomonlama munosabatlarni amalga oshirishda asosiy rolni bajaruvchi elchilarga nisbatan Amir Temur tomonidan alohida e’tibor qaratilgan.

Kastiliya (hozirgi Ispaniyadagi qadimiy hudud) qiroli Genrix III kamergeri (katta harbiy unvon) Rui Gonzales de Klavixo nafaqat xalqlar o‘rtasidagi munosabatlarni yaxshilashga, balki adolatparvar saltanat rahbarning siyosatiga mahliyo bo‘lib Temurbek yurtida ko‘rgan-kechirganlarini kundalik daftarida qayd etish bilan ham mashg‘ul edi.

Klavixo tomonidan yozib qoldirilgan ma’lumotlarda u poytaxtga kelganidan beri unga ko‘rsatilayotgan izzat-ikromdan xursand bo‘lgan. “Ming bir kecha” ertaklaridagidek ajoyib dunyoda yurgandek sezadi o‘zini. U ko‘rgan Yevropa hukmdorlari saroyi, Angliya, Fransiya qirollari koshonalarining birontasi ham Samarqand hashamati oldida ip esholmaydi. Ana shu shaharda u zimmasiga yuklangan mas’ul vazifani nihoyat chuqur his etdi.

U oddiy qirol elchisi emas va balki butun xristian olamining Temurbek yurtidagi favqulodda va muxtor elchisi, razvedkachisi vazifasini ham o‘tagan. Jumladan, Amir Temur mamlakatining iqtisodi, turmushi, madaniyati, harbiy-siyosiy salohiyati haqida aniq va mukammal tasavvurga ega bo‘lib ushbu yo‘nalishlarni muntazam o‘rganib borgan. Uning zimmasida xristian dunyosini Temurbek qilichida yarqiragan islom qudratidan ogoh qilish vazifasi yotar edi. Uni quyidagi savollar doimo qiziqtirgan: ...bu qudrat boisi nimada? Qanday qilib bu osiyolik amirzoda olamshumul shon-shuhratga erishdi? Bu mo‘‘jizami yoki tasodif?

Klavixo ana shu savollarga javob izlab, bari bilgan-aniqlaganlarini qog‘ozga tushirishda davom etardi.

Davlat boshqaruvini tashkillashtirishda Temurbek o‘z yurti fuqarolarini o‘n ikki toifaga bo‘lgan. Eng yuqori tabaqalardan birinchi o‘rinda payg‘ambar avlodlari sayyidlar, shayxlar va boshqa ulamolar.

Ikkinchisida esa olimlar, ilm-fan namoyandalari, mudarris va maktabdorlar turadi. Muarrixlar va munajjimlar ham shu o‘ringa mansubdir. Hunarmandlar, savdo- tijorat ahli ham faxriy toifaga kiritilgan.

Klavixoni harbiylar ana shu toifalardan keyingi o‘ringa qo‘yilgani hayratga soldi. Yevropada sapkarda, zobitlar qirollar birinchi o‘ringa quygan sinfga mansub. Temurbekdek buyuk sarkarda esa birinchi o‘ringa ulamolar va olimlarni qo‘yibdi! Demak, fuqarolarning ruhiyati, axloqi e’tiqodi va tafakkur doirasi bilan mashg‘ul ulamolar, ahli ilm fozillari faoliyati muhim va ular davlat e’tibori markazida bo‘lishi lozim.

Zamonaviy xalqaro munosabatlar va geosiyosatning o‘ziga xos qismi bo‘lgan II-jahon urushi va sovuq urush tugashi davrigacha ham bir qator davlatlar tomonidan harbiy xavfsizlik mamlakat milliy xavfsizligini ta’minlashdagi asosiy element sifatida hisoblab kelingan. Vaholanki, o‘z hayotiy faoliyati davomida bir qator harbiy yurishlar va g‘alabalarni amalga oshirgan Buyuk sarkarda, davlat arbobi Amir Temurdek inson mamlakatning rivoji uchun harbiy masalalar asosiy emasligi va undan avval iqtisod, siyosat, ijtimoiy, gumanitar kabi sohalarga alohida e’tibor qaratilishini ko‘rsatib bergan.

Amir Temur ilm-fan sohiblariga xazina eshigini keng ochganidan tashqari, ularga g‘oyat marhamatli ham bo‘lgan. Kunlarning birida Klavixonni mulozimlardan eshitgan hikoya nihoyatda hayratga soldi.

Ispaniya elchisini yurtdagi tartib, osoyishtalik, farovonlik hayratga soldi. Soliqlar dehqon hosilining o‘n foizidan sal oshadi. Bo‘sh yerni o‘zlashtirganlar

xirojdan ikki yilga ozod qilinadi. Klavixo daftariga endi Samarqand ta’rifini yoza boshladi:

“Bu yer hamma narsaga boy: g‘alla ham, sharob ham, meva-cheva ham, parrandalar ham, har xil go‘sht ham mo‘l- ko‘l. Bu yerning qo‘ylari yirik-yirik, dumbalari katta bo‘ladi. Dumbasi 20 funt keladigan qo‘ylar bor. Bunchalik og‘ir yukni odam qo‘lda zo‘rg‘a ko‘tara oladi. Qo‘ylar ko‘p va arzondir. Boshqa mollar ham arzon. G‘alla juda ham arzon, sholi esa oshib-toshib yotadi. Bu shahar va uning atrofidagi yerlar shunday to‘kin-sochinki, hayron qolmaslik mumkin emas. Shuning uchun ham Samarqand deb ataladi. Uning haqiqiy nomi Semizkent bo‘lib, badavlat qishloq degan ma’noni beradi, negaki ularda semiz degani katta, boy, to‘da degan ma’noni bildiradi, kent esa qishloqdir. Ana shundan Samarqand degan nom kelib chiqqan” [2,b-416-418.].

Klavixo o‘yga cho‘mdi: Temurbek yurtida hunarmandlarga g‘amxo‘rlik katta. Bozorlarda narx-navo, savdo-sotiq ustidan nazorat o‘rnatilgan. Xaridor haqiga xiyonat qilganlar, o‘g‘rilar qattiq jazoga tortiladi. Umuman, Temurbek yurtida o‘g‘rilik, qaroqchilik yo‘q. Karvon savdosi bexatar. Karvonsaroylar ko‘p. Har bir shaharda masjid, madrasa, maktablar davlat himoyasida. Gadoychilik sharmandali hol hisoblanadi. Mayib-majruhlar, nogironlar davlat hisobidan ta’minlanadi. Darveshlar, qalandarlar uchun maxsus manzilgohlar qurilgan.

Klavixo Temurbek davlatida mansabdorlar tanlanishi va xislatlariga ham e’tiborni qaratadi.

Temurbek saroyida barcha ishlarni devon hal qiladi. Devonbegi umumdavlat ishlarini boshqaradi. To‘rt vazir esa o‘zlariga belgilangan sohalarga javobgar. Vazir hayotiy tajribasi boy, ruhan pokiza, iltifotli va insonparvar bo‘lishi lozim. Xushomadgo‘y, lo‘ttiboz, laganbardor, g‘iybatchi odamlar bunday mansabga sira yaqinlashtirilmaydi. Har bir amaldor nomzod zotiga, nasabiga qarab emas, balki ishchanligi, qobiliyati va iste’dodiga ko‘ra lavozimga tayinlanadi.

Ushbu prinsiplar bugungi kunda nafaqat respublikamiz, balki dunyoning qator rivojlangan davlatlarida ham keng qo‘llanilayotganligi diqqatga sazovordir.

Shu bilan birga, Amir Temur jismoniy quvvat yuksak ruhiy, ma’naviy kamolot bilan uyg‘unlashsa, unga teng keladigan kuch-qudrat topilmaydi. Bu xususda Temurbek kamtarlik bilan Qur’oni karimga ishora qiladi: “Qanchadan-qancha kichkina guruhlar Allohning izni bilan katta guruhlar ustidan g‘alaba

qilgan. Alloh sabr qiluvchilar bilan birgadir” [3,b-39.].

Klavixo o‘z faoliyati davomida Temurbek lashkarlariga ham alohida e’tibor qaratdi. Lashkarlar hali Yevropaga noma’lum tartib-qoidalar majmuasi bo‘lmish “Tuzuklar’ga asoslangan holda boshqarilardi. “Tuzuklar” Yevropacha tilga ko‘ra Nizom degani. Shunga ko‘ra qo‘shin harakat qiladi. Bu harbiy Nizom - “Tuzuklar”ga ko‘ra qo‘shin urush vaqtida majburiy harbiy xizmat hisobidan to‘ldiriladi, tinchlik vaqtida faqat ko‘ngillilar olinadi. Ikki-uch xonadondan to‘da qurollangan otliq olinadi. Qo‘shin o‘nlik, yuzlik, minglik va o‘n mingliklarga bo‘linadi. Qo‘shinga maosh to‘lash tartibi ham diqqatga loyiq. Oddiy sipohiy yoki navkar maoshi bir tulpor qiymatiga teng. Bahodir - kapral - uch tulpor, o‘nboshi - serjant o‘n tulpor qiymatiga teng maosh oladi. Shunisi qiziqki, bu maosh miqdori bozordagi narx-navoga, ya’ni kundalik xarid mollari narxiga ko‘ra oshib-pasayib turadi. Yuzboshi - kapitan ixtiyorida yuz otliq maoshi, mingboshi - polkovnik ming tulpor qiymatiga teng hak, olgan holda zaxirasiga yana qo‘shimcha mablag‘ bo‘ladi. Tumanboshi - general urush vaqtida aholidan oziq-ovqat xarid qilishi uchun katta miqdorda mablag‘ga egadir [4].

Temurbek lashkarining boshlang‘ich bo‘g‘ini o‘nliklar nizomga ko‘ra saylov asosida o‘nboshilarni saylaydi. O‘nboshilar esa o‘z navbatida zobitlarni, ya’ni yuzboshilarni saylaydi. Shu tariqa zobitlar korpusi erkin asosda jasur, askarlar o‘rtasida obro‘li komandirlardan tashkil topadi. Holbuki, Yevropa qirollari qo‘shinida ofitserlar asosan nasl-nasabi, zoti: dvoryanligiga ko‘ra tayinlanadi, oddiy fuqaro bunday unvonga yaqinlashtirilmaydi.

Temurbekning oliy ofitserlari - mingboshi, tumanboshilar tayinlanishi tartibi ham Klavixoning e’tiborini o‘ziga jalb qiladi. Bu mansabga shaxsan Temurbek tashabbuskor, harb ilmida o‘zini ko‘rsatgan, hiyla-nayranglar ishlatishga usta, dushmanga pistirma, tuzoq qo‘yish, raqib qo‘shini safiga parokandalik solishni biladigan, o‘rni kelganda dushman sarkardalarini turli yo‘llar bilan o‘ziga og‘dira oladigan tadbirkor harbiylar qo‘yiladi. Yevropada esa oliy zot gersog, graf, baronlardan tashqari hech kim bunday katta qo‘shin qo‘mondonligiga qo‘yilmasligini o‘ylab Klavixoning fikri tiniqlashdi. Mana, gap qayoqda! Nizom - mana shu Temurbek zafarlarining kalitidir. [5, b-128.].

Yuqoridagilardan kelib chiqib, xulosa qilish mumkinki Amir Temur davlatining tuzilishida bugungi mamlakat boshqaruvidagi demokratik tamoyillarning deyarli barchasiga amal qilinganligi, inson manfaatlarini barcha narsadan ustun qo‘yilganligi, davlat boshqaruvidagi rahbar kadrlarni

tayinlanishi, ularning kelib chiqishi va shaxsiy jihatlariga alohida e’tibor berilganligini ko‘rish mumkin.

Shu bilan birgalikda, bugungi kun uchun naqadar dolzarb bo‘lgan tashqi hamkorlik yo‘nalishiga Amir Temur o‘ziga xos tarzda yondashib elchilarni yuksak olijanoblik bilan hurmat qildi va davlatlar o‘rtasidagi do‘stlik rishtalarini yuqori saviyada ushlab turishga harakat qilgan.

Kelgusida Buyuk sohibqiron Amir Temur saltanatining o‘ziga xos jihatlarini chuqurroq o‘rganish va undan tinglovchi va kursantlarning o‘quv-tarbiyaviy jarayonlarida keng foydalanish harbiy mutaxassislarni bugungi kun talablariga mos qilib tayyorlashda xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sultoniya (hozirgi Eron hududi) yepiskopi (ruhoniy) Joan II ning Parij milliy kutubxonasida saqlanayotgan xotiranomasidan, 1996. B.7.

2. Sodiqov H. Amir Temur saltanatida xavfsizlik xizmati. – Toshkent: O‘zbekiston, 2010. - B.416 -418.

3. Qur’on, 2-sura, 249-oyat.

4. Bobobekov X. Temur tuzuklari . – Toshkent: O‘zbekiston, 2013.- B.39.

5. Ibn Arabshox. Amir Temur tarixi. – Toshkent: Fan, 2018.- B.128.

AMIR TEMURNING «TEMUR TUZUKLARI» - MUHIM TARIXIY MANBA

G‘afforov Sh.S.
Sharof Rashidov nomidagi
Samarqand davlat universiteti professori
tarix fanlari doktori, professor

Ma’lumki, o‘zbek xalqi qadimiy xalqlar qatorida ming yillar avval taraqqiyot eshiklarini ochib, dovrug‘i dunyoga tanilgan yirik davlat tuzilmalarini bunyod etdi. Bu davlat tuzilmalarida milliy davlatchilik asoslari mavjud. Ulug‘ ajdodlarimizning qadimiy tajribalarini o‘rganish milliy davlatchilik an’analari tiklanayotgan bugungi davrda muhim ahamiyat kasb etadi. Qadimda ajdodlarimiz Baqtriya, Xorazm, So‘g‘diyona, Dovon, Qang‘, Qushon kabi juda ko‘plab yuksak taraqqiyotga erishgan jahonda, o‘z davrida kuchli sanalgan davlatlar tuzdilar. «Qat’iy qonunlar» degan ma’noni

anglatuvchi «Avesto» kitobi milliy tariximizga oid eng qadimiy siyosiy-iqtisodiy, huquqiy va ma’naviy ta’limotlar majmuidir. Mug‘ tog‘idan topilgan qadimgi So‘g‘diyona davlati tarixiga tegishli manbalar ham azaldan bizda kuchli va mukammal davlatchilik asoslari yaratilganidan dalolat beradi.

Milliy tariximizda zalvorli, milliy davlatchiligimiz har taraflama taraqqiy etgan davrlaridan biri - Amir Temur va temuriylar davridir. Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov Amir Temurning davlatchilik tajribasiga yuksak baho berib, jumladan: «Buyuk strategik, mohir siyosatchi, eskirgan ijtimoiy munosabatlarning qat’iy islohatchisi, savdo-sotiq, hunarmandchilik va madaniyatning homiysi bo‘lgan Amir Temur qonunlar va urf-odatlarga asoslangan davlatni barpo etdi»,[1]-deb uning mustahkam davlat tuzganligini alohida ta’kidladi.

«Temur tuzuklari» ilmiy jamoatchilikni deyarli 500-600 yil mobaynida qiziqtirib kelmoqda. Shu bois, Birinchi Prezidentimiz I.Karimov o‘z asarlari va chiqishlarida «Sohibqiron tuzuklari» va «o‘gitlari» ga tez-tez murojat qiladi, zero kelajagi buyuk davlat qurayotgan ekanmiz, o‘tmishning ma’naviy tamoyillari bizni adolatli yo‘llardan yuksak taraqqiyotga olib borishi, shubhasiz. Xuddi shu ma’noda Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov yozuvchilar bilan bo‘lgan suhbatida bu haqda zo‘r mamnuniyat bilan quyidagilarni ta’kidladi: «Amir Temur tuzuklarini o‘qisam, xudi bugungi zamonning katta-katta muommolariga javob topgandek bo‘laman, shuning uchun strategiyani juda puxta o‘ylash kerak. Balki ota-bobolarimiz qoldirgan merosdan foydalanib o‘zimizga xos, o‘zimizga mos strategiyani ishlab chiqish kerak bo‘ladi»[2].

«Temur tuzuklari» da Amir Temurning tarjimai holidan tashqari, davlat va qo‘shinlar tuzilishi, ularni boshqarish, shuningdek, Chig‘otoy ulusining 50 yildan ortiq davr (1342-1405) dagi tarixiga doir qimmmatli ma’lumotlar keltirilgan. Amir Temurning o‘z farzandlari va nabiralariga, ularning ijtimoiy-siyosiy faoliyatlariga nasihat sifatida bayon etilgan. Bu asar tarbiyaviy xarakterga ega bo‘lib, dastlab eski o‘zbek tilida yozilgan. «Temur tuzuklari» da asar xalqaro miqyosida keng jamoatchilik e’tiboriga tushganligi tufayli, 1783 yil ingliz, 1785 va 1791 yillarda hind, 1868 yilda fors, 1787 yilda fransuz, 1830 yilda yana ingliz, 1845 yilda urdu, 1894, 1934 yillarda rus va 1835, 1857 yillarda (ammo to‘liq emas) eski o‘zbek tilida, 1991, 2011 yillarda o‘zbek tilida nashr etilgan.

[1] Каримов И.А.Амир Темур фахримиз, ғуруримиз. «Ўзбекистон», Тошкент, 1998, 28-бет.

[2] Элни ватан маърифати бирлаштиради. И.А.Каримовнинг бир гуруҳ ёзувчилар билан учарашуви. «Ўзбекистон адабиёти ва санъати» газетаси 30 апрель № 8. 1993. 2-бет.

«Temur tuzuklari» ikki qismdan iborat bo‘lib, birinchi qismi Amir Temurning davlat boshqaruvini tashkil etish, uni mustahkamlash hamda mukammal qurollangan qudratli qo‘shin tuzish borasidagi rejalari va qarorlaridan iboratdir. Asarning 13 kengash (qism) dan iborat ikkinchi qismida esa Sohibqironning davlat va qo‘shin qudratini oshirish, dushmanlarni bartaraf etish yuzasidan o‘tkazgan kengashlari va amalga oshirgan ishlari o‘z ifodasini topgan.

«Tuzuklarda» bayon etilishicha, Amir Temur davlatining asosini 12 ta ijtimoiy toifa tashkil etgan bo‘lib, bu toifalar quyidagilardan iboratdir; 1. Sayidlar, ulamo, shayxlar; 2. Bilimdon, fozil kishilar, 3. Duogo‘y, taqvodorlar, 4. Amirlar, qo‘shin boshliqlari; 5. Sipoh va raiyat (qora xalq); Saltanat ishlari bo‘yicha kengashishga loyiq kishilar; 7. Vazirlar, sarkotiblar va devon bitikchilari; 8. Xakimlar, tabiblar, munajjimlar va muhandislar; 9. Muhaddislar (hadis olimlari) va roviylar (tarixshunoslar); 10. So‘fiylar va oriflar; 11. Hunar va san’at ahli; 12. savdogar va sayyohlar.[1]

«Tuzuklar» da ta’kidlanishicha, davlatni idora qilishda vazirlar, olimlarning roli katta bo‘lgan. Shuning uchun ham Amir Temur ularni tanlashga alohida e’tibor bergan. Ular sadoqatli, axloqiy pok, adolatpesha, tinchliksevar va tashabbuskor bo‘lishi lozim edi. «Tuzuk» ga ko‘ra, vazirlar to‘rt sifatga ega bo‘lishi shart edi: 1. Toza nasllik va ulug‘vorlik; 2. Aqlu farosatlilik; 3. Sipoh va raiyat aholini, ulardan xabordor bo‘lish va g‘amxo‘rlik qilish; 4.Sabru bardoshli, xushmuomalali bo‘lish.[2]

«Tuzuklar» da ta’kidlanishicha, Amir Temur bir cheti Chinu Mochinga,[3] ikkinchi cheti Shomga borib taqalgan ulkan mamlakatni quyida vazifalari ko‘rsatilgan 7 nafar vaziri yordamida boshqargan. 1. Mamlakat va raiyat vaziri; 2. Sipoh vaziri; 3. Daromad va xarajatlar vaziri; 4. Saltanat ishlarini yurituvchi vazir; 5. Qozi kalon; 6. Jalol ul-islom-favqulodda huquqlarga ega bo‘lgan vazir; 7. Vaziri devoni insho – boshqa mamlakatlar bilan yozishmalar devoni boshlig‘i.[4] El-yurt obodligi, xalqning farovanligi, saltanatning ustivorligi ko‘p jihatdan shu vazirlarning ishbilarmonligi va rahbarlik qobilyatlariga bog‘liq bo‘lgan.

«Tuzuklar» da ko‘rsatilishicha, Amir Temur soliq tizimi va obodonchilik ishlariga ham alohida e’tibor bergan. «Amir qildimki, -deb yozadi sohibqiron, -

[1] Темур тузуклари. Тошкент. Ғ.Ғулом номидаги нашриёт-матбаа бирлашмаси 1991. 64-65 бетлар.
[2] Ўша жойда. 74-75 бетлар
[3] Чину Мочин- Хитой. Чин-Хитойнинг марказий ва шарқий қисми; Мочин-Жанубий Хитой, мочиннинг бўлак номи Табғачдир. Ўрта Чинни Хитой, куйи Чинни Қашғар дейишган.
[4] Темур Тузуклари. Тошкент, 1991. 85бет

hosil pishib yetilmasdan burun raiyatdan molu jihot olinmasin. Hosil yetilgach, hosilni uchga bo‘lib olsinlar. Agar raiyat soliq to‘plovchi yubormasdan, soliqni o‘zi keltirib bersa, u holda u yerga soliq to‘plovchi yubormasinlar. Agarda oliq-soliq olishga yuborishga majbur bo‘lsalar, ular soliqlarni buyruq berish va yaxshi so‘z bilan olsinlar; kaltak arqon ishlatib, ishni urish, so‘kishgacha olib bormasinlar…. amr etdimki kimda-kim biron sahroni obod qilsa yoki koriz (yer osti suvlarini tortib chiqaradigan inshoat) qursa, yoki biron bog‘ ko‘kartirsa, yoxud biron xaroba bo‘lib yotgan yerni obod qilsa, birinchi yili undan hech narsa olmasinlar, ikkinchi yili o‘z roziligi bilan bergan narsalarni olsinlar, uchinchi yili qonun-qoidaga muvofiq xiroj olsinlar».[1] Amir Temur soliq solish tartibi, miqdori va uni undirish ishlarini ham kuzatib borgan. Soliq va o‘lpon yig‘uvchilarning faoliyati ustidan doimiy nazorat o‘rnatgan.

Amir Temur qo‘shinlari yaxshi qurollangan, tashkiliy jihatdan mukammal, jang paytida taktika va strategiya usullaridan yaxshi xabardor bo‘lgan. U tashkil qilgan qo‘shinlar tizimi O‘g‘izxon va Chingizxon qo‘shinlarinikiga o‘xshasada, davr talabiga ko‘ra ancha takomillashgan edi. Qo‘shinlar otliq va piyoda askarlardan iborat bo‘lib, harbiy safarbarlikka chaqirilgan piyoda sipoh o‘zi bilan qalqon, qilich, bolta, nayza kamon, 30 dona o‘q va bir oyga yetarli ozuqa bilan kelishi lozim bo‘lgan. Otliq suvoriylar harbiy safarbarlik davrida o‘zlari bilan birga ikkitadan ot, soyabon, bel, o‘roq, arra, bolta, juvoldiz, 100 dona igna, arqon, charm mesh, qozon olishgan. Har 10 kishiga bitta chodir olingan.

Amir Temurning olijanob xislatlaridan biri boshqalarning gunohlarini kechira bilishi edi. «Menga yomonliklar qilib - deyiladi «Tuzuklar» da, - boshim uzra shamshir ko‘ratib, ishimda ko‘p ziyon-zarar yetkazganlarni ham iltijo bilan tavba-tazarru qilib, kelgach hurmatlab, yomon qilmishlarini xotirimdan o‘chirdim. Martabalarini oshirdim, ular bilan muomalada shunday yo‘l tutdimki, agar xotiralarida menga nisbatan shubhayu qo‘rquv bo‘lsa, butunlay unut bo‘lardi[2]. Shuni ham ta’kidlash joizki, Amir Temur gunoh qilgan kishilarni faqat uch marotabagacha kechirgan.

Amir Temur xiyonatkor, ochko‘z, nafsi buzuq, ziqna va xushomadgo‘y kishilardan nafratlangan. «Qaysi bir sipohiy tuz haqi va vafodorlikni unutib, - deyiladi «Tuzuklarda – xizmat vaqtida o‘z sohibidan yuz o‘girib, ming oldinga kelgan bo‘lsa, unday odamni o‘zimga eng yomon dushman deb bildim».[3] «Tuzuklarda» do‘stlik, vafodorlik, iymon va e’tiqod, insonparvarlik

[1] Темур тузуклари. Тошкент, 1991, 99-бет
[2] Темур тузуклари. 55 бет.
[3] Ўша жойда … 56-57 бетлар.

va boshqa insoniy fazilatlarga rioya qilish, fuqorolarning shariat qonun-qoidalariga bo‘ysunishi uqtirib o‘tiladi. Qozilarning qonunlarga to‘la amal qilishi, tartib buzarlarni jazolash, sipohlar va askarlarni saqlash, ularni oziq-ovqat va maosh bilan ta’minlash masalasi, vazirlar va ularning vazifalari, amirlar, sipohlar va boshqalarning xizmatlarini taqdirlash tartiblari kabi turli masalalar bo‘yicha mufassal ma’lumotlar beriladi. Xulosa qilib aytganda, «Temur tuzuklari» Amir Temurning og‘ir va murakkab hayoti, o‘zining xukumronligi davrida xalq va jamiyat manfaati uchun jon kuydirishi, qudratli davlati va qo‘shinlarini boshqarish haqida ma’lumotlar bilan bir qatorda jamiyatni idora qilish haqida zarur saboqlar beradi.

Shuni ham ta’kidlash lozimki, xalqiga muruvvatli bo‘lgan sohibqiron bemavrid, bo‘lar-bo‘lmasga mol-xiroj kabi soliqlar solinishiga qarshi bo‘lgan va imkoniyat darajasida xalqni soliqlar to‘lashdan ozod qilib turgan. Bu haqda «Tuzuklar»da shunday deyiladi: «Amir etdimki raiyatdan mol-xiroj yig‘ishda ularni og‘ir ahvolga solishdan yoki mamlakatni qashshoqlikka tushirib qo‘yishdan saqlanish kerak. Negaki, raiyatni xonavayron qilish (davlat) xazinani kambag‘allanishga olib keladi. Xazinaning kamayib qolishi esa, sipohning tarqalib ketishiga sabab bo‘ladi. Sipohning tarqoqligi, o‘z navbatida, saltanatning kuchsizlanishiga olib boradi».[1]

Temuriylar davrida Movarounnaxr va Xuroson savdogarlari Osiyo mamlakatlari, ayni zamonda Buyuk ipak yo‘li orqali Yevropa mamlakatlari bilan ham savdo aloqalar o‘rnatishgan. Savdo-sotiq aloqalarida Temur va temuriylar tomonidan zabt etilgan kumush, mis tangalar katta ahamiyatga ega bo‘lgan. Ular Movarounnaxrda savdo-sotiq muomalasini tartibga solishga ijobiy ta’sir ko‘rsatgan.

Temuriylar davrida sivilizatsiya yangi bosqichga ko‘tarildi. Avvalo davlatchilik qonun-qoidalar puxta shakllandi. Sohibqiron fan, madaniyat, san’at, ma’morchilikning ibratli homiysi bo‘ldi. Samarqand, Buxoro, Turkiston, Xirot va boshqa shaharlarda rasadxonalar, masjidu madrasalar qurildi, maktablar ochildi. San’at va adabiyotga e’tibor kuchaydi. Ayniqsa, kutubxonachilikni rivojlantirishga, nodir qo‘lyozmalarni saqlashga doir ishlar e’tiborga loyiqdir. Temuriy shahzodalaridan Mirzo Ulug‘bek, Mirzo Shoxruh, Mirzo Boysung‘ur va Husayn Boyqarolarning kutubxonalari ham noyob turli adabiy-badiiy, ilmiy kitoblarga boyligi bilan Amir Temurning Samarqanddagi

[1] Темур тузуклари. Тошкент 1991. 98 бет.

kutubxonasidan qolishmagan. Birgina Ulug‘bek rasadxonasi qoshidagi kutubxonada qariyib 15 ming kitob saqlangan.

Mirzo Ulug‘bek va uning atrofida jipslashgan olimlar – Qozizoda Rumiy, Jamshid al-Koshiy, Muhammad Havofiy, Ali Qushchi kabi olimlar astronomiya, matematika va boshqa aniq fanlar sohasida muhim kashfiyotlar qildilar. Ulug‘bek ilmiy maktabining eng katta yutug‘i, avvalo, astronomiya, matematika, geometriya kabi fanlar sohasida muhim kashfiyotlar qiladi. Ulug‘bek rasadxonasida 1018 ta yulduzning katalogi tuzilib, ularning xarakati o‘rganildi. Ulug‘bekning yulduzlar jadvali jaxon astranomlari uchun muhim manba sifatida ko‘p madaniy markazlarda, xususan London, Parij, Danchigda, 1917 yili Vashingtonda va boshqa shaharlarda ilmiy izohlar bilan chop etildi.

Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Sakkokiy, Lutfiy, Koshifiy, Behzod kabi noyob iste’dod egalari buyuk gumanistik asarlar yaratgan bo‘lsalar, Nizomiddin Shomiy, Sharofiddin Ali Yazdiy, Hafizu Abru, Mirxond, Xondamir va boshqalar vatanimiz tarixiga oid muhim ma’lumotlar qoldirdilar.

Ulug‘ donishmand, davlat arbobi sifatida shuhrat qozongan Alisher Navoiy o‘zining butun ijodiy faoliyatini o‘zbek adabiy tilini takomillashtirish bilan bir qatorda, jamiyat farovonligi, inson baxt- saodati, yurt obodligi, bilimli, aqlli va zakovatli kishilarni yetishtirishga bag‘ishladi, ko‘plab shogirdlar yetishtirdi. Uning asarlarida saltanatni halokatga olib keluvchi sabablar ko‘rsatilgan. Alisher Navoiy xukmdorlar va amaldorlarning mamlakat obodonligi va farovonligini ta’minlashga undagan.

Amir Temur va Temuriylar davridagi moddiy, madaniy va ma’naviy taraqqiyotning o‘lka xalqlari birligini ta’minlash va xalqimiz hayotida tutgan o‘rnini inobatga olib, bu davrni asosli ravishda mamlakatimizdagi ikkinchi renessans (uyg‘onish) davri deb hisoblash maqsadga muvofiqdir.

Xulosa qilib shuni aytishimiz lozimki, Amir Temur tomonidan yozilgan «Tuzuklar» Amir Temur va temuriylar davrida davlatchilikni rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etgan va bu muhim asar bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotgan emasdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Каримов И.А. Амир Темур ҳақида сўз. Тошкент: «Ўзбекистон», 1996.

2. Каримов И.А. Амир Темур давридаги бунёдкорлик ва ҳамкорлик руҳи бизга намуна бўлаверсин. ЮНЕСКО қароргоҳидаги «Темурийлар

даврида илм-фан, маданият ва маорифнинг гуллаб яшнаши» кўргазмасининг очилиши маросимида сўзлаган нутқ. 1996 йил, 24 апрель, Париж // Амир Темур фаҳримиз, ғуруримиз. Тошкент: «Ўзбекистон», 1998.

3. Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. Тошкент: «Шарқ», 1996.

4. Ахмедов Б. Ўзбекистон ҳалқлари тарихи манбалари (Қадимги ва ўрта асрлар). Т., «Ўқитувчи», 1991.

5. Амриддин Бердимуродов. Гўри Амир мақбараси. Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти. Тошкент, 1996.

6. Ҳамид Зиёев. Буюк Амир Темур салтанати ва унинг тақдири., Тошкент, 2010.

7. Зиядулла Муқимов, Худойёр Маматов. Амир Темур тузукларида давлат ва ҳуқуқ масалалари. Тошкент, «Янги аср авлоди», Т.2001.

8. Зиёдулла Муқимов. Амир Темур тузуклари (Тарихий-ҳуқуқий тадқиқот). Самарқанд, 2008.

9. Ибн Арабшоҳ. Амир Темур тарихи. Ажойиб ал-мақдур фи тарихи Таймур (Темур тарихида тақдир ажойиботлари), Тошкент, «Меҳнат», 1992 йил.

10. Темур тузуклари. Форсчадан Алихонтўра Соғуний ва Хабибулло Кароматов таржимаси, Б.Ахмедов тахрири остида. Тошкент: Ғофур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа бирлашмаси, 1991.

11. Темур тузуклари. Тошкент, Ўзбекистон НМИУ, 2011.

Шарафиддин Али Яздий. Зафарнома. Сўз боши, табдил, изоҳлар ва кўрсаткичлар муаллифлари: Ашраф Аҳмад. Ҳайдарбек Бобобеков. Масъул муҳаррир: Барнобек Эшпўлатов. «Шарқ» нашриёт-матбаа бош таҳририяти, Тошкент, 1997.

AMIR TEMURNING HARBIY SAN’ATI TARIXI

Yermetov A.A.,
O‘zbekiston milliy universiteti universiteti professori,
tarix fanlari doktori, professor

Amir Temur o‘z saltanatini barpo etishda o‘ziga qadar mavjud bo‘lgan siyosiy boshqaruv tajribalaridan keng foydalanadi. Uning davlati o‘z tarkibiy

tuzilishiga ko‘ra ko‘pincha harbiy-siyosiy tartiblarga asoslangan edi. Qudratli hukmdor davlatchilik va boshqaruv tarixini yaxshi bilganidan bo‘lsa kerak, qadimgi va o‘rta asrlar Sharqdagi turli davlatlar va ularning siyosiy hamda ma’muriy idora usuli, boshqaruv tizimlari haqida keng tasavvurga ega edi. Sohibqironning davlat boshqaruv tizimi qo‘l ostidagi butun hududda yagona markazlashgan siyosiy tartib asosida qurilgan bo‘lsa-da, bu sohada olib borilgan siyosat o‘rta asrlar Markaziy Osiyo davlatlarida keng qo‘llanilgan idora usullari tajribasi bilan boyitilgan edi.

Amir Temurning harbiy yurishlari 1386 yildan boshlab “uch yillik”, 1392 yildan “besh yillik”, 1399 yildan “yetti yillik” urushlar nomini olgan. XIV asrning 80-yillari o‘rtalariga kelib butun Xuroson Sohibqiron ixtiyoriga o‘tadi. “Uch yillik” urush davrida Amir Temur Ozarbayjon, Tabriz, Mozandaron, G‘ilonni bo‘ysundiradi. Shundan keiyn u Kavkazga yurish boshlab Tiflis, Arzirum va Van qal’asini egalladi.

O‘z davrining mohir sarkardasi va davlat arbobi Amir Temur 35 yil davomida harbiy yurishlar olib borishi natijasida ulkan ulkan saltanat barpo etib, tarkibiga Movarounnahr va uning atrofidagi viloyatlar, Xorazm, Kaspiy atrofidagi viloyatlar, hozirgi Afg‘oniston, Eron, Turkiya, Hindiston, Iroq, Janubiy Rossiya, Kavkaz va G‘arbiy Osiyoning bir qator davlatlari hududlari kirgan. Shartli ravishda Amir Temurning ulkan davlatni barpo etish faoliyatidagi maqsad va rejalarini ikki bosqichga bo‘lish mumkin. Birinchi bosqich 1360-1386 yillarni o‘z ichiga olib, bu davrda Sohibqiron Movarounnahrda markazlashgan kuchli davlat barpo etishga erishadi. 1387-1404 yillar ikkinchi bosqich bo‘lib, bu davrda Amir Temur davlat sarhadlari va mamlakat qudratini mustahkamlash payida bo‘ldi.

Amir Temur o‘zbek xalqi harbiy san’atiga ko‘pgina yangiliklarni olib kirdi. Qo‘shin markazini ilg‘or qism xirovul hamda madadkor qism- chindovul bilan mustahkamladi va uni faqat oliy bosh qo‘mondon oldida mas’ul qilib qo‘ydi.

Amir Temur qo‘shinlarinig ta’minoti masalasiga ham katta e’tibor berardi. Viloyat hokimlari, tuman yoki shahar beklari, qal’a, qo‘rg‘on dorug‘olari Temur tomonidan tuzilgan ro‘yxatga muvofiq o‘z jangchilarini zarur ot-ulov, qurol-yarog‘, oziq-ovqat, yem-xashak bilan ta’minlashi shart hisoblangan.

Sharafuddin Ali Yazdiyning yozishiga ko‘ra, Temur dashti Qipchoqqa qilgan yurish (1390-1391) oldidan qo‘shinni bir yilga yetadigan oziq-ovqat,

qurol-yarog‘, kiyim-kechak va boshqa safar uchun kerakli ashyolar bilan ta’minlashini o‘z noiblariga buyurgan. Har bitta suvoriyga bitta yoy, 30 ta o‘q, bir sadoq, bir qalqon va bitta qo‘shimcha ot ajratilgan. Yurish vaqtida har o‘n jangchi bir chodir, ikki belkurak, bir kerki, bir o‘roq, bir arra, bir tesha, bir bolta, 100 dona nina olgan. Shuningdek, yarim man arqon, bir dona pishiq teri va bitta qozon olib kelishi shart bo‘lgan.

Temur armiyasi safar paytida quyidagi jangovor tartibda harakat qilgan. Bosh kuchlardan ancha ilgarida qorovul-avanpost, undan keyin manglay-xirovul-avangard, burong‘ar, qo‘l, chindovul-aryergard yurgan. Qo‘shin ortidan ug‘rug‘ peshma-pesh kelgan.

Temur tuzuklaridagi ma’lumotlarga qaraganda, biror g‘anim armiyasini mag‘lubiyatga uchratgan sarkarda uchun maxsus mukofot ta’sis etilgan, ya’ni sharafli "bahodir"lik unvoni hamda tug‘ va nog‘ora berilgan.

Jangu jadal chog‘ida shijoat ko‘rsatib, dushman guruhini qochirishga muyassar bo‘lgan o‘nboshi shahar dorug‘asi, yuzboshi esa viloyat hokimi vazifasiga tayinlangan.

Biror lashkarboshining hayoti xavf ostida qolgan vaziyatda uni g‘anim o‘qidan asrab, o‘z ko‘ksini qalqon qilgan jangchilar Sohibqironning hurmat-e’tiboriga va olqishiga sazovor bo‘lgan hamda maxsus inoyatlar bilan taqdirlangan.

O‘zbek milliy davlatchiligi va harbiy ish tarixida eng yorqin iz qoldirgan lashkarboshilardan biri shubhasiz Amir Temurdir. Uning davrida ulkan Markaziy Osiyo mintaqasida asrlar davomida shakllangan va rivojlanib kelgan jang olib borish san’ati yanada takomillashtirilib o‘rta asrlar davri uchun eng mukammal darajaga yetkazildi. Amir Temur qo‘shinlari ulkan Osiyo qit’asidagi o‘zaro urushlarga chek qo‘yish, markazlashgan hokimiyat barpo etish va uni adolatli boshqarishga xizmat qilgan edi.

Amir Temur qo‘shinlari piyoda va otliq qismlardan tashkil topgan edi. O‘zoq o‘lkalarga qilinadigan harbiy yurishlar davrida piyoda qo‘shinlar ham otlar bilan ta’minlanib, otliq qo‘shinlar esa zarurat bo‘lganda piyoda jang qilishga ham o‘rgatilar edi. Mutaxassilar fikricha, otliq qism ham o‘z navbatida 2 qismdan: yengil qurrollangan va og‘ir qurollangan bo‘limlardan tashkil topgan edi.

Amir Temur o‘z qo‘shinini tashkil etishda o‘sha davr harbiy san’ati sohasida to‘plangan boy tajribalardan samarali foydalanganligini ko‘ramiz. Xususan, qo‘shin tarkibida daryo kechuvlaridan qo‘shinlar o‘tishini

ta’minlovchi maxsus bo‘linmalar bo‘lib, ular ko‘priklar qurish, kemalar yasash kabi vazifalarni bajarganlar. Bunday bo‘linmalar tarkibiga esa Amudaryo, Sirdaryo va boshqa daryolarda kemachilik qiluvchi kishilar ko‘proq olinar edi. Dushman shahar va qal’alarni ishg‘ol qilish paytida manjanaq, neft to‘ldirilgan idishlarni va boshqa otuvchi qurilmalarni boshqaradigan qismlarning ahamiyati ham Temur qo‘shinida katta edi. Manbalarda Amir Temur qo‘shinida olov otuvchi, portlovchi idishlar otuvchi, fil mingan jangchilar borligi haqida ma’lumotlar bor. Ular 1402 yilda Anqara yonidagi jangda Yildirim Boyazid ustidan qozongan g‘alabaga katta hissa qo‘shganlar.

Amir Temur tog‘larda jang olib borishga ixtisoslashgan jangovor bo‘linmalar ham tuzgan bo‘lib, ular tog‘ qoyalari, daralarda joylashgan dushman kuchlarini, qo‘rg‘onlarni egallashda katta ahamiyatga ega edilar.

Amir Temur ham o‘z qo‘shinini Chingizxon qo‘shinlaridek o‘nlik, yuzlik va tumanlarga bo‘lib chiqqan edi. Tuman esa 10 ming yoki 12 ming jangchidan iborat yirik harbiy bo‘linma hisoblanardi. Amir Temurning o‘rnatgan qat’iy tartibiga ko‘ra o‘nta jangchi ichidan jasur va aqlli bir kishi boshliq-o‘nboshi etib saylanardi. Yuzlik qism boshlig‘ini ham janglarda qahramonlik namunalarini ko‘rsatgan o‘nboshilar ichidan saylab olinar edi. O‘z jasurligi bilan mashhur bo‘lgan, harbiy ishda mohir va tajribali kishi mingboshi bo‘lib saylangan. Ko‘rib turganimizdek, Amir Temur qo‘shinida o‘nboshi, yuzboshi va mingboshilar saylov asosida tanlangan. Natijalar haqida esa Amir Temurga xabar berilgan.

Temur tuzuklarida qo‘shimcha belgilangan maosh haqida ham ma’lumotlar mavjud. Jasur navkarning yillik maoshi uning oti qiymati darajasida bo‘lib, janglarda jasorat ko‘rsatgan tajribali navkarlarga esa to‘rtta otning qiymatiga teng bo‘lgan maosh berilgan.

O‘nboshi oddiy lashkarga qaraganda o‘n baravar ko‘p, yuzboshi o‘nboshi maoshidan ikki baravar ortiq, mingboshi esa yuzboshi oyligidan uch baravar ko‘p maosh olganlar.

Urush paytida Amir Temur armiyasining yengil qurollangan otliq jangchilarining har biri o‘q-yoy, o‘q to‘la sadoq, qilich, arra, bigiz, igna, arqon, bolta, 40 ta o‘q uchi, safar xaltasi, suv olib yurishga mo‘ljallangan charm xalta, ikkita otga ega bo‘lishlari kerak edi. Har 18 jangchida bir chodir ham bo‘lishi shart bo‘lgan.

Og‘ir qurollangan saralangan otliq qo‘shinlar o‘q-yoy, qilich bilan qurollanib dubulg‘a va sovut kiyib jangga kirardi. Ularda 1 ta qo‘shimcha ot

zahirada bo‘lishi ham talab qilinardi. Har 5 ta jangchiga bitta chodir mo‘ljallangan bo‘lib, bu chodirda og‘ir qurollangan jangchining yarog‘bardorlari ham joylashar edi.

Amir Temur armiyasida nayza, xanjar, qilich bilan qurollangan maxsus otliq qismlar bo‘lib, ularning oti yo‘lbars terisi bilan yopilgan bo‘lgan. Mutaxassislar fikricha bu saralangan jangchilar Amir Temurning shaxsiy gvardiyasini tashkil etgan.

Piyoda qo‘shinlar jangchilari qilich, o‘q-yoy bilan qurollangan bo‘lib, ularda har bir jang oldindan qancha o‘q olishi kerakligi haqida maxsus ko‘rsatma olishardi. Xususan, To‘xtamishxonga qarshi qilingan yurish paytida, har bir jangchiga 30 o‘q olishi buyurilgan edi.

Manbalarning dalolat berishicha, Amir Temur jahon harbiy san’ati tarixida birinchi bo‘lib qo‘shinni jang maydonida yetti qo‘lga bo‘lib joylashtirish tartibini joriy etdi. Qo‘shin qoravul, manglay (ovangard) Burong‘ar (o‘ng qo‘l), Juvong‘ar (chap qo‘l) qo‘l (qo‘shin markazi) chindavul (oryergard) va qo‘shin ortidan keluvchi ug‘rug‘ qismlardan tashkil topgan.

O‘sha davrda barcha xalqlar armiyasi jangda tartib-rejasiz olomon bo‘lib jang qilgan bir paytda, Amir Temur armiyasi aniq jang rejasi asosida tartib bilan urush olib borgan.

Jang oldidan lashkarboshilar jang maydonini razvedka qilishi, o‘rganib chiqishi, dushman qo‘shinini joylashishini aniqlashi kerak edi. Bu vazifaning qo‘yilishi Amir Temur armiyasida harbiy razvedka juda yaxshi yo‘lga qo‘yilganligini ko‘rsatishini qayt etib o‘tish lozim.

Amir Temur olib borgan janglar tarixini o‘rgangan harbiy mutaxassilar fikricha, jangni odatda qo‘shinning yengil qurollangan qoravul qismidagi suvoriylar boshlab berishgan, keyin Xirovul (avangard) qo‘shinlar, ularni quvvatlab turish uchun esa o‘ng va chap qanotning avangard qismlari, ulardan keyin qo‘shinning borang‘ar (o‘ng qo‘l) va javong‘ar (chap qo‘l) qismlari jangga tashlangan.

Mutaxassilar fikricha, bunday jangovar tartib va uning jang olib borish usuli Osiyoning tekisliklarida katta ahamiyatga ega bo‘lib, Amir Temur uni nihoyatda takomillashtirib, o‘rta asr harbiy san’ati rivojiga katta hissa qo‘shdi.

Dushman haqida ma’lumot olib kelishga mo‘ljallangan maxsus suvoriylardan tashkil topgan qismlardan tashqari, bunday ma’lumotlarni Amir Temur savdogarlar, karvonboshilar, darvishlar, darvish yoki savdogar qiyofasida boshqa mamlakatlarga yuborilgan maxsus xizmat xodimlaridan ham

olar ei. Bu ma’lumotlar yetarli bo‘lmagan hollarda bunday mamlakatlarga maxsus elchilik missiyalari yuborilib, kerakli ma’lumotlar to‘plashga harakat qilinar edi. Olingan ma’lumotlar tahrir etilib, kerakli qarorlar qabul qilinar, ma’lum mamlakatlarga nisbatan yuritiladigan siyosat ishlab chiqilardi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Ahmedov B. Sohibqiron Temur.- Toshkent, 1996.
2. Zayniddin Vosifiy. Badoye’ al-vaqoye. – Toshkent, 1979.
3. Ibn Arabshoh. Amir Temur tarixi. Ikki jildlik. Arab tilidan tarjima, kirish so‘zi va izohlar muallifi Ubaydulla Uvatov. -Toshkent: Mehnat, 1992.
4. Muhammadjonov A. Amir Temur va Temuriylar davri. -Toshkent: Fan, 1996.
5. Nizomiddin Shomiy. Zafarnoma. – Toshkent: O‘zbekiston, 1996.
6. Rui Gonsales de Klavixo. Samarqandga – Amir Temur saroyiga sayohat kundaligi(1403-1406 yillar)- Toshkent:O‘zbekiston NMIU, 2010.
7. Temur tuzuklari. - Toshkent: Ma’naviyat, 2011.

AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRI MADANIYATI

Haydarov I.M.,
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti professori, tarix fanlari doktori, dotsent.

XIV asr o‘rtalarida Chingizxon egallab olgan yerlar uning merosxo‘rlari qo‘l ostida bo‘lsa ham, bu yerlar mayda bo‘laklarga bo‘linib ketib, ularda toju taxt, xokimiyat uchun o‘zaro nizolar kuchayib ketgan edi. 1348 yilga kelib Sharqiy Turkiston yerlarida Mo‘gliston feodal davlati tashkil topdi, uning xoni etib Chig‘atoy avlodidan Tug‘luq Temur ko‘tarildi. Tug‘luq Temur dastlabki davrlardanoq o‘z yerlarini kengaytirish maqsadida Movarounnahr yerlariga bir necha harbiy harakatlar uyushtirdi. Mana shunday ichki o‘zaro urushlar avj olib, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy inqiroz kuchayib borgan davrda tarix maydoniga mo‘g‘ul bosqinchilariga qarshi kurashda nom chiqargan buyuk sohibqiron, moxir sarkarda Amir Temur kirib keldi.

Amir Temur Shahrisabz yaqinidagi Xo‘ja Ilg‘or qishlog‘ida Barlos beklaridan Muhammad Tarag‘ay oilasida 1336-yil 8-aprelda dunyoga kelgan[1]. Uning amakisi Xoji Barlos Kesh shahrining xokimi edi. Temur yoshligidanoq harbiy maxoratga ega shaxs bo‘lib, u o‘z atrofiga barlos urug‘idan chiqqan yosh jangchilarni to‘plagan edi. 1360-1361 yillarda Tug‘luq Temur hech qanday qarshiliksiz Movarounnahr yerlariga bostirib kirganida Xoji Barlos Xurosonga qochadi. Vatanparvarlik, milliy g‘urur va iftixor xissiyoti kuchli bo‘lgan yosh Temur esa amakisi hokimlik qilib turgan yerlarini dushman qo‘liga bermaslik uchun Tug‘luq Temur xizmatiga kiradi va tez orada uning ishonchini oqlab, Kesh viloyati yerlariga hokimlikk uchun yorliq oladi.

Amir Temurning bu ishi Movarounnahrda siyosiy tarqoqliq, o‘zaro kurashlar va boshboshdoqlik hukm surgan davrdagi birdan-bir to‘g‘ri yo‘l edi. Chunki Movarounnahr amirlarining Tug‘luq Temurga qarshi bosh ko‘tarib chiqishi mo‘g‘ul bosqinchilarining Movarounnahr yerlarini yana bir bor vayron etishiga olib kelishi muqarrar edi.

Tug‘luq Temur 1361 yilda Movarounnahr yerlarini boshqarishni tajribasiz o‘g‘li Ilyosxo‘jaga topshiradi. Lekin Temur Ilyosxo‘jaga xizmat qilishdan bosh tortib, o‘sha vaqtda Balx hokimi bo‘lib turgan Amir Kozog‘onning nabirasi Amir Xusayn bilan ittifoq tuzadi. Temur o‘z hokimiyatini mustahkamlash maqsadida mo‘g‘ullarga qarshi kurash boshlaydi. Mahalliy hokimiyat uchun bo‘lgan janglarning birida, aniqrog‘i Seyistonda turkmanlarga qarshi bo‘lgan janglarda o‘ng qo‘li va o‘ng oyogidan yaralanib bir umrga oqsoq bo‘lib qoladi.

1363 yilda Tug‘luq Temurning vafoti Movarounnahr uchun bo‘lgan kurashlarni kuchaytirib yuboradi. Lekin mo‘g‘ul bosqinchilari osonlikcha Movarounnahr yerlarini bermasliklari ma’lum edi. Shu munosabat bilan Amir Temur va Tug‘luq Temur vafotidan so‘ng Movarounnahrdan haydalgan Amir Xusaynning birlashgan qo‘shinlari 1365 yilda Ilyosxo‘ja qo‘shinlariga qarshi ittifoqlikda kurash boshlaydilar. Toshkent va Chinoz oralig‘ida bo‘lgan mashxur «loy jangi» ittifoqchilar o‘rtasidagi kelishmovchilik tufayli mag‘lubiyat bilan tugaydi. Ushbu voqealardan so‘ng Amir Xusayn va Amir Temur o‘rtasida dastlabki ixtilof boshlanadi. «Loy jangi»da g‘alabaga erishgan Ilyosxo‘ja uchun Movarounnahrga keng yo‘l ochilgan edi.

U katta qo‘shinlar bilan Samarqandga yurish boshlaydi. Bu paytda Samarqanddagi Mavlonzoda va Abu Bakr boshliq sarbadorlar Ilyosxo‘jaga qarshi chiqadilar. Mahalliy aholining vatanparvarlik namunalarini ko‘rsatib

[1] Темур Тузуклари. Халқаро Амир Темур жамғармаси. “Шарқ” НМАК. Т.: 2005 йил. Б-92.

qarshilik qilganliklari tufayli Samarqandni bir oz qamal qilib turgan mo‘g‘ul qo‘shinlari Movarounnahrni butunlay tark etishga majbur bo‘ladilar[1].

Movarounnaxrda mo‘g‘ullar ustidan qozonilgan g‘alaba haqida xabar eshitgach, Amir Temur va Amir Xusayn Movarounnahrga yo‘l olib Samarqand yaqinidagi Konigil degan joyda sarbadorlarning rahbarlari bilan uchrashadilar. Bu uchrashuvda o‘zaro kelishmovchilik kelib chiqib, sarbadorlarning rahbarlari xiyla yo‘li bilan o‘ldiriladi. Movarounnahrda Samarqand taxtini Amir Xusayn egallab, uning hukmronligi tiklanadi. Shu vaqtdan boshlab Amir Xusayn va Amir Temur o‘rtasidagi munosabatlar yanada keskinlashib ketadi.

Bu vaqtga kelib butun Movarounnahr yerlarida o‘zaro urushlardan so‘ng ijtimoiy-iqtisodiy axvol og‘irlashib ketgan edi. Mana shunday bir vaqtda, mamlakatda o‘zaro urushlarga barxam beradigan markazlashgan davlat tizimini barpo etish nixoyatda zarur edi. Buni birinchi bo‘lib anglagan Amir Temur Amir Xusaynga qarshi zimdan kurash olib borib 1370-yilda Movarounnahr taxtini egallashga muvaffaq bo‘ladi.

Vatan xaqida qaygurish, Vatan mustaqilligini tiklash xaqidagi fikrlar shu yillar yuzaga chiqib, Amir Temur Balx shahrida chaqirilgan qurultoyda Movarounnahrning amiri deb e’lon qilinadi. Temur o‘z tasarrufida markazlashgan davlatni yuzaga keltirish maqsadida Kesh shahridan Samarqandga ko‘chib o‘tib, uni Movarounnahrning poytaxtiga aylantiradi. Soxibqiron aniq muloxazalari bilan xalqni zulmdan ozod qilish va uzoq yillik boshboshdoqlik hukmron bo‘lgan yerda markazlashgan davlat tuzish mushkulligini sezganligi sababli dastlab mamlakatni tashki xavfdan saqlash maqsadida asosini barlos urug‘lari tashkil etgan engilmas va jangovor milliy qo‘shin tuzadi, ularga katta imtiyozlar beradi[2].

Temur davlat boshqaruvida, ichki va tashqi siyosatda asosan o‘z qo‘shinlariga suyanganligi sababli harbiy isloxotga, ya’ni qo‘shin boshliqlarini tanlash, lashkar qismlar, ularning joylashishi, askarlarning qurollanishi va harbiy intizom masalalariga keng e’tibor bergan. U qo‘shinlarini o‘nlik, yuzlik, minglik kabi askariy birikmalarga bo‘lgan. Uning uchun har bir askar jang qilish uslublarini yaxshi bilishi farz hisoblagan. Amir Temur lashkarlarga ham katta e’tibor berib, ular nizomni qat’iy bajarishi, jangda ayovsiz va dovyurak bo‘lishi, dushmanga yumshoq muomalali va adolatli bo‘lishi lozim deb hisoblardi. Ibn Arabshoxning yozishicha, Temur askarlari ichida taqvodor,

[1] Марсель Брион. Мен ким, Соҳибқирон-Жаҳонгир Темур – Т., “Янги аср авлоди”. 2014. – Б. 21-22.
[2] Бобир Бердиев. “Темур тузуклари”да жамият ижтимоий қатламларининг акс этиши. Ижтимоий фикр-инсон ҳуқуқлари. 2013 йил № 3. Б-115.

saxovatli, xudojo'y kishilar ko‘p bo‘lgan. Ular bechoralarga xayru exson ko‘rsatish, boshga og‘ir kunlar tushganda yordam qo‘lini cho‘zish, asirlarga yumshoq muomalada bo‘lish va ularni ozod etishga odatlanganlar. Amir Temur doim jangda jasorat ko‘rsatgan amirlar va askarlarga aloxida e’tibor bilan qaradi. Natijada Sohibqiron uyushqoqlik hukm surgan yuz minglik qo‘shinlari ichida intizomni mustahkamlash bilan o‘z davlatining poydevori bo‘lgan qo‘shin tuzishga muvaffaq bo‘ldi.

Temur Movarounnahr taxtini egallagan vaqtdan boshlab, o‘z davlati chegaralarini mumkin qadar kengaytirishga kirishadi. Shu maqsadda u Amudaryo va Sirdaryo oralig‘idagi yerlarni o‘z tasarrufiga oladi. Xorazmga besh marotaba yurish qilib, 1388-yilda uni butunlay bo‘ysundiradi, bu yerda hukmronlik qilayotgan so‘fiylar sulolasini tugatadi. Temur o‘zining uch yillik (1386-1388), besh yillik (1392-1398), yetti yillik (1399-1405) yurishlari davomida Ozarbayjonda jaloyirlar, Sabzavorda sarbadorlar davlatini, Xirotda kurdlar davlatini tugatib, Eron va Xurosonni o‘z tasarrufiga oladi. 1394-1395 yillarda Oltin O‘rda xoni To‘xtamishga qarshi yurish qilib, uning ko‘p sonli qo‘shinini mag‘lubiyatga uchratadi va Oltin O‘rda xududini egallaydi[1]. Temurning bu g‘alabasi Oltin O‘rdaga juda katta zarba berish bilan birga Temur qo‘shinlarining Volga daryosi bo‘ylarida bemalol yurishlariga ham keng yo‘l ochdi. Ta’kidlash joizki, Temurning bu g‘alabalari tarix sahnasida ulkan ahamiyat kasb etdi.

Amir Temur 1398 yilda Hindistonga qilgan yurishida Dehli shahrini, 1400-yilda Suriyaga qilgan yurishida g‘alaba va Bayrut shaharlarini, 1401-yilda Damashq shahrini egallaydi.

1402-yilda Usmoniylar imperiyasining sultoni Yildirim Boyazidga qarshi yurishida uni mag‘lubiyatga uchratdi. Bu g‘alaba bilan Temur Yevropaning usmoniylar asoratiga tushishini bir necha o‘n yillar orqaga surib yubordi.

Temur 1404-yilda Kichik Osiyodan Samarqandga keladi va Xitoyga yurish uchun harbiy taraddud ko‘radi. Shubxasiz, Temur bu yurish uchun uzoq yillar tayyorlanib, jang uchun kerakli bo‘lgan ma’lumotlarni yillar davomida to‘plagan edi. 1404-yilda Temur 200 minglik qo‘shin bilan Xitoy safariga otlandi. Ammo Temurning qattiq betobligi tufayli uning qo‘shinlari 1405-yilning yanvar oyida Xitoyga yaqin bo‘lgan chegara shahar O‘tror shahrida to‘xtaydilar va shu yerda 1405-yilning 18-fevralida buyuk sohibqiron Amir Temur vafot etadi.

[1] Ҳамдам Содиқов. Амир Темур салнатанида хавфсизлик хизмати. Т.: “ARTFLEX”. -2010йил. Б-9.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Темур Тузуклари. Халқаро Амир Темур жамғармаси. “Шарқ” НМАК. Т.: 2005 йил. Б-92.
2. Марсель Брион. Мен ким, Соҳибқирон-Жаҳонгир Темур – Т., “Янги аср авлоди”. 2014. – Б. 21-22.
3. Бобир Бердиев. “Темур тузуклари”да жамият ижтимоий қатламларининг акс этиши. Ижтимоий фикр-инсон ҳуқуқлари. 2013 йил № 3. Б-115.
4. Ҳамдам Содиқов. Амир Темур салнатанида хавфсизлик хизмати. Т.: “ARTFLEX”. -2010йил. Б-9.
5. H.Sodiqov va mualliflar jamoasi. O‘zbekiston qurolli kuchlari (o‘tmishda va hozirda) –T.: Tafakkur qanoti., 2014. 41-b.
6. H. Karamatov va mualliflar jamoasi. Amir Temur jahon tarixida. – T.: Sharq. 2000. -134 b.
7. I.A.Karimov. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma’naviyat. 2008. 44-b.
8. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q. –T: O‘zbekiston 1998.
9. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. –T: Ma’naviyat.2008.

AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR HARBIY SAN’ATI

Haydarov A.U.,
Jamoat xavfsizligi universiteti dotsenti,
siyosatshunos

“Temur tuzuklari” asosida dastavval Amir Temur, so‘ngra Temuriylar harbiy san’ati shakllandi. Yillar davomi rivojlanib mustahkamlanib bordi. Jahon harbiy san’ati rivojiga Amir Temur va uning avlodlari, xususan, Bobur qo‘shgan salmoqli hissa. Bu mutaxassislar, sarkardalar tomonidan g‘akli ravishda e’tirof etilgan. Buyuk lashkarboshi va novator harbiy tashkilotchi hisoblanmish Sohibqiron intizomli armiya tuzishga, jang paytida qushin qismlarini oqilona boshqarishga, jang taqdirini halqiladigan joylarga g‘arbiy kuchlarni tezkorlik bilan yo‘llashga, mavjud to‘siq va g‘ovlarni tadbirkorlik bilan bartaraf etishga, qo‘shindagi jangovar ruhni yuksak darajada ushlab turishga erishgan. Amir Temur va temuriylar armiyasi

chorvadorlar qatori kosibchilik, hunar mandchilik, dehqonchilik bilan mashg‘ul o‘troq aholidan ham askarto‘plagan. Qo‘shinda harbiy kuchlarning asosini tashkil qilgan oshliq askarlar bilan bir qatorda piyodalar ham xizmat qilgan. Sohibqiron Sharqda birinchilardan bo‘lib armiyaga o‘t sochar qurol — (to‘pra’d)ni olib kirgan. Temuriylar davrida bu qurolning boshqa turlari (zarbzan, farangi, qozon va h. k.) keng yoyildi. Tog‘li hududlarda jang harakatlari olib boruvchi maxsus harbiy qism va bo‘linmalar tashkil qilingan. Amir Temur jahon harbiy ish tarixida birinchi bo‘lib qo‘shinni jang maydonida an’anaviy 5 bo‘lakdan farqli ravishda 7 qo‘lga bo‘lib joylashtirish tartibini joriy etgan. Bu yangilik keyinchalik To‘xtamish, Shayboniyxon singari sarkardalar tomonidan o‘zlashtirilgan. Ibn Arabshohning guvohlik berishicha, Sohibqiron qo‘shinida ayollardan iborat bo‘linmalar bo‘lib, ular erkaklar bilan bir safda turgan, qahramonlik va matonat namunalarini ko‘rsatgan.

Temuriylar armiyasi son jihatdan aniq tashkil etilgan, uning jangovar tartibi takomillashib borgan, uz vaqtining ilg‘or qurol va texnikasi bilan ta’minlangan, qismlar bir-biridan kiyimbosh, bayroqva tug‘lari bilan farqlangan. Bunday farklanish jangda qo‘shinni boshqarishda qo‘l kelgan. Dushman mudofaasini turli usullar bilan barbod etish, raqibning yirik shaharlariga qo‘qqisdan zarba berish, qal’a, qo‘rg‘on va hisorlarning uzoq muddat muhosara qilish, yov kuchlarini iloji boricha keng ko‘lamda qurshab olib, qishloq, shahar, tuman, viloyatlarni birinketin zabt etish, dushmanni batamom yakson etgungacha ta’qib qilish, taslim bo‘lgan mamlakatlarni boshqarishga ishonchli kishilarni tayinlash singari amaliyotlar Amir Temur va temuriylarga ko‘plab zafarlar olib kelgan. Taktika jihatdan Amir Temur armiyasi o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lgan. Razvedka a’lo darajada yo‘lga qo‘yilgan, qismlarning janggohda yoki jangovar safda talab darajasida harakat qilishi uchun zarur tadbir va choralar ishlab chiqilgan, ularni jang paytida tezkorlik bilan boshqarishga alohida diqqat qaratilgan. O‘nlik, yuzlik, minglik va tuman qo‘mondonlarini tanlash masalasiga oliy bosh qo‘mondon mas’ul hisoblangan. Sohibqironning harbiy san’at rivojiga qo‘shgan ulkan xizmatlaridan yana biri — jang vaqtida qo‘shin qanotlarini dushman hujumidan muhofaza qilish va, o‘z navbatida, g‘anim kuchlarini yon tomondan aylanib o‘tib, unga ortdan zarba berish maqsadida tuzilgan otliq qism — qunbulning joriy etilishi bo‘lgan. Bunday yangi harbiy qism Aleksandr, Gannibal, Chingizxon, Lyudovik XIV, Buyuk Fridrix kabi atoqli sarkardalar qo‘shinida bo‘lmagan. Shayboniyxon armiyasida bunday qism mavjud edi va u to‘lyuma

atamasi bilan nomlangan. Qo‘shin to‘plash haqida maxsus buyruq (tunqol) elon qilingach, hukmdor tomonidan tuzilgan ro‘yxatga binoan jangchilar otulovi, qurolyarog‘i, oziq-ovqati, yemxashagi bilan to‘planish yeriga yetib kelgan. Har bir askarga bitta yoy, 30 ta o‘q, bir sadoq, bitta qalqon, bitta qo‘shimcha ot, yarim man og‘irligida arqon, bir dona pishik, teri xalta va bitga qozon ajratilgan. Har 10 jangchi bir chodir, 2 belkurak, bir kerki, bitta o‘roq, bir arra, bir tesha, bitta bolta va 100 dona nina olib yurishi shart hisoblangan. Sara jangchilarning har 5 tasi bitta chodirga joylashgan. O‘nbegining alohida chodiri va 5 ta qo‘shimcha oti bo‘lgan. Yuzbegiga ham alohida chodir va 10 ta qo‘shimcha ot berilgan. Mingbegi chodirdan tashqari soyabon bilan ham ta’minlangan. Sohibqiron armiyasining turli bo‘linma va qismlariga 313 bek boshchilik qilgan. Ulardan dastlabki 100 tasi o‘nbegilik, ikkinchi 100 tasi yuzbegilik, uchinchi 100 tasi mingbegilik lavozimlarini egallagan. Diviziya — tumanlarga Amir Temurning farzandlari, nabiralari va nomdor lashkarboshilar rahbarlik qilgan. Yetarli miqdorda qo‘shin to‘plangach, u ko‘rikdan o‘tkazilgan. Temuriylar davrida yurish yoki jangdan oldin lashkarni ko‘rikdan o‘tkazib, uning jangovar ruhi va holatini aniklash izchillikka aylangan. Qushinning jangovar holatini nazardan o‘tkazish imtihon qilish usuli sifatida e’tirof etilgan ovgarta (ov uyushtirish)dan unumli foydalanilgan.

Temuriylar harbiy yurishlarga ko‘proq kuklam, yoz va kuz mavsumlarida otlanishni ma’qul bilganlar. Safar qoidasiga ko‘ra, har bir sarkarda o‘z darajasi va lavozimiga qarab qism va bo‘linmalari bilan yasol — jangovar tartibda harakat qilgan. Yasolni buzgan shaxs qattiq jazolangan. Qo‘shin janggohga tushganda lashkargoh atrofi aravalar bilan to‘silgan, xandaqdar bilan ihota qilingan, soqchi bo‘linmalar tomonidan qo‘riklab turilgan. Yurish yoki jang paytida boshboshdoqlik, parokandalikni oldini olish maqsadida har bir bo‘linma, guruh, kismning o‘z paroli — o‘ron belgilangan. Armiya safar chog‘ida quyidagi jangovar tartibda harakat qilgan: Bosh kuchlardan ancha oldinda qaravul (avanpost), undan keyin mang‘lay (hiravul)(avangard), barang‘ar, juvang‘ar, (qo‘lmarkaz), chag‘davul (arergard) yurgan. Qo‘shin ketidan o‘g‘ruq (oboz) peshmapesh kelgan. Oliy bosh qo‘mondon jang maydonini tanlashga alohida diqqat qaratgan. Janggohning tekis, keng va qo‘shin qismlarini joylashtirishga qulay bo‘lishi talab qilingan. Jang maydonining suvga yaqin bo‘lishi hamda jang vaktida kuyosh nurining askarlar ko‘ziga tushmasligi maqsadga molik hisoblangan. Yirik muhorabalar paytida dastasi uchiga yarim oy shakli qadalgan jangovar bayroq va tug‘lar bilan

bezatilgan oliy qo‘mondon borgohi balandlikka o‘rnatilgan. U yerdan jangning borishi kuzatilib turilgan.

Tarixiy manbalarda qayd etilishicha, Amir Temurning 12 ming kishilik qo‘shini jangga mana bunday tartibda kirgan. Dushman bilan dastlabki to‘qnashuvni ayg‘oqchilik bilan mashg‘ul bo‘lgan qaravul boshlab bergan. Shundan so‘ng o‘ng va chap qanot ilg‘or qismlari - barang‘ar xiravuli va juvang‘ar hiravuli madadida asosiy ilg‘or qism - mang‘lay jangga kirgan. Mang‘lay ortidan barang‘ar hamda juvang‘arning qolgan 2 bo‘lagi - chapavul va shag‘avul ketma-ket harakatga kelgan. Ushbu kuchlar dushmanni Mag‘ly6 etishga kifoya qilmasa, bosh qo‘mondon (amir ulumaro) boshchiligidagi markaz (qo‘l)(g‘o‘l) hal qiluvchi hujumga tashlangan: vdravul, qaravul, manglay (xuravul).

Sohibkiron armiyasi qatnashgan ulkan janglarning taktik borish manzarasi quyidagicha bo‘lgan: qo‘shin markazi 40 bo‘luk - polkka taqsimlangan va Oliy bosh qo‘mondonga itoat qilgan. Ushbu bo‘luklarning sara jangchilardan tashkil topgan 12 bo‘luki safning 1qatorida, qolgan 28 bo‘luki 2 va 3qatorlarda joylashgan. Qirq bo‘lukning o‘ng tarafi oldida amirzodalar qismlari, so‘l tarafi oldida qarindoshlar va itshfoqchilar qismlari saf tortgan. 2-qatorning barang‘arida 6 bo‘luk o‘z ilg‘ori — hiravul bilan o‘rin egallagan. Ayni shu miqsordagi bo‘luk va hiravulga juvang‘ar ham ega bo‘lgan.

2-qator barang‘ari va juvang‘ari oldida yuqoridagi tartibda 1qator qismlari joylashgan. Uning oldida bosh ilg‘or — mang‘lay (yoki hiravuli buzurg) harakatda bo‘lgan. Yengil suvoriylardan iborat 2 bo‘luk armiyani qo‘qqisdan bo‘ladigan hamladan muhofaza qilish, dushman kuchlari harakatini kuzatish bilan band bo‘lgan.

Bobur qo‘shini dastlab an’anaviy 5 qismdan tashkil etilgan holda harakat qilgan. Keyinchalik bu jangovar tartibga jiddiy o‘zgartirishlar kiritilgan, markaz (g‘o‘l) kuchaytirilgan. Markaz o‘ng qo‘l baraig‘yar chapavul va so‘l qo‘lga taqsimlangan hamda o‘ng yon va so‘l yondan iborat xossa tobin oldida qator vazifasida harakat qilgan. Xossa tobin o‘ng va so‘ldan tarkib topgan, qator vazifasini o‘tagan shaxsiy gvardiya bo‘y oldidan joy olgan. Saralangan askarlardan tuzilgan xossa tobin markaz (g‘o‘l)dan kuchsizroq, bo‘ydan esa kuchliroq hisoblangan.

Temuriylarga ko‘plab zafarlar keltirgan bu harbiy tartib keyingi davrlarda Shayboniylar, Ashtarxoniylar va O‘rta Osiyo xonliklari (Buxoro, Xiva, Ko‘qon) davrida ancha o‘zgarishlarga duch kelgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ибн Арабмоҳ. Амир Темур тарихи, 2-жилдлик Тошкент Меҳнат 1991 йил.
2. Murtazayeva R.X. va boshqalar. O‘zbekiston tarixi. Darslik. – T.: Yangi asr avlodi, 2005. -420 b.
3. Murtazaeva R.X. va boshqalar. O‘zbekiston tarixi. Darslik. 2-jild.– T.: Yangi asr avlodi, 2015. -484 b.
4. Raximov J. Amir Temur – adolat va qudrat timsoli. Toshkent: “O‘qituvchi”, 2015. 530 b.
5. Raximov J. Amir Temur – buyuk arbobi va ulug‘ sarkarda. Toshkent: “Ziyonashr”, 2023. -680 b.
6. Руи Гонсалес Де Клавихо. Дневник путешествия в Самарканд ко двору Тимура. (1403-1406 г.) Пер. со староисп. Предисл. коммент. И.С.Мироковой. – Москва: Наука, 1990.
7. Temur tuzuklari. Raximov J. tahriri ostida.

Eshov B., Odilov A. O‘zbekiston tarixi. I jild. Eng qadimgi davrdan XIX asr o‘rtalarigacha. Darslik. – T.: Yangi asr avlodi, 2014. -416 b.

AMIR TEMURNING JAHON HARBIY SAN’ATIDA TUTGAN O‘RNI VA UNING AHAMIYATI

Ikramov A.A,
Jamoat xavfsizligi universiteti dotsenti,
yuridik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD),

Amir Temur dunyo xalqlari tarixida chuqur iz qoldirgan buyuk davlat arbobi va ulug‘ Sarkardadir. Uning sarkardalik iste’dodi yoshlikdanoq o‘zini namoyon qila boshlagan edi. Avvalo Amir Temurning yetti pushti mashxur sarkardalik faoliyati orqali nom chiqargan harbiy arboblardan edilar. Bu faoliyat Temurbekning otasi Tarag‘ay Bahodir hayoti ta’sirida o‘g‘liga o‘tgan edi. Demak sulola zanjiridagi halqa Temurbekka kelib ulandi. Temurbekning otasi Tarag‘ay Bahodir nomi ostida faqat Movarounnahrdagina emas, balki mo‘g‘ul jonlari saroyida ham hurmatga sazovor bo‘lib, mo‘g‘ul hukmdori chaqirib turadigan Qurultoylarga ham taklif qilinib turardi. Bu uning harbiy obro‘- e’tibori baland ekanligi , bahodir, mard va jasur inson ekanligining

e’tirofi edi. Hukmdorlar Tarag‘ay Bahodirning maslahat va uzoqni ko‘ruvchi fikrlariga ehtiyoj sezar edilar.

Temurbek ota-bobolari tarafdan mustahkam ildiz otgan voris bo‘lishi bilan bir qatorda uning ona tomondan ham ildizi buyuklarga, ya’ni Payg‘ambar ablodlariga tutashardi. Temurbekning onasi Takina Mohbegimning otasi Buxoro Sayidlaridan Ubaydulloh Buxoriy bo‘lib Movarounnahrdagi taniqli ulamolardan edi. Temurbekning ham ota, shuningdek ham ona tomondan kuchli ma’naviy-ahloqiy tarbiya muhitida o‘sib ulg‘ayishi uning kelajakda buyuklikka yuz tutishida katta tarbiya maktabi bo‘ldi.

Bo‘ladigan bilaning kelajagi buyuklikka yuz tutishi Temurbekning tarjimai holi v ayrim muarrixlarning asarlarida dalillar sifatida qayd etiladi.

Tarag‘ay Bahodir es-hushini tanib ulgirgan o‘g‘li Temurbekni bir kuni yoniga chorlab shunday dedi: “Ey jondin aziz farzandim, ushbu so‘zlarimni qulog‘ingga mahkam quyib ol va xotirangga uzoq saqla. Bir kuni uyqumda bir ro‘yo ko‘rinib, qo‘limga qilich berdi. Men qilichni qo‘limga olib uni havoga bir necha bor o‘ynatdim. Po‘lat qilichning yaltirashidan olam yorishib ketdi. Pirim Amir Kuloldan bu tushimning ta’birini bilish uchun uning xuzuriga bordim. Pirim: Bu tushingning zamirida olam-jahon hodisalar hayotiy hodisalar mujassam. Alloh senga bir o‘g‘il beradiki, u butun dunyoni zabt etadi, dunyoni turli va adolatsizliklardan halos qiladi, dedi. Haqiqatdan tush to‘gri bo‘lib chiqib, Alloh menga seni ato qildi. Ana shu keltirgan mo‘jizaviy hodisalar Temurbekning yosh bolalik davridanoq favqulodda voqealikka aylanib buyuk sarkardalikka davogarlik kurtaklarida o‘zini namoyon eta boshladi. Uning fransuz sharqsgunos olimi va mashhur tarixchisi L.Lyangli o‘zining “Temur hayoti” asarida quyidagicha keltirib o‘tadi:

O‘yin bo‘lsada, uning faqat,
Qismati edi toj ila taxt.
Buyurmoqlikka edi u tetik ruh,
Yonida bolalar bir guruh.
Bir bola edi Sipohiga Amir,
Boshq birisi tayingn edi vazir.
Cho‘p va qamishdan qarab chopardi,
O‘zi har tomonga qarab chopardi.

Yosh bola Temurbek tengdoshlarini to‘plab ularni ikki qismga ajratib, yog‘och qilichlar bilan qurollantirib o‘yin janggi tashkil qilib o‘zi bosh qo‘mondon bo‘lib “jang”ni oxirigacha boshqarar edi. “Jang” yakuniga yetgach,

kimlar bu janggi jasorat ko‘rsatdiyu kimlar sustkashlik qilganligini muhokama qilib tomonlar harakatiga baho berishar edi. Ana shu o‘yin janglari safdosh do‘stlaridan Amir Sayfuddinga o‘xshgan sarkardalardan anchasi yetishib jasoratnoma sahifalarini bezadilar.

Bolalikda qo‘mondon rolini o‘ynagan Temurbek esa vaqti kelib buyuk saltanat ijodkori va ushbu saltanat yengilmas qo‘shinning ulug‘ sarkardasiga aylandi. Dastlab Temurbekning otasi Tarag‘ay Bahodir o‘g‘liga o‘zining jang maydoniga orttirgan mardlik, jasoratlari evaziga olgan bahodirlik tajribalarini o‘rgtib dastlabki ustozlik burchini bajardi. Harbiy mahoratni tinimsiz oshirishga jiddiy jahd qilgan Temurbek dastlabki harbiy faoliyatini jasur va shijoatli, mard yigitlarni atrofiga to‘plab jangovar qism tuzishdan boshladi. Uning safini oyma-oy ko‘paytirib o‘z oldiga mo‘g‘ullarning asriy jabr zulmi, zo‘ravonlikka chek qo‘yib, Ona Vatani Turkistonni ozodlikka chiqarishni bosh maqsadiga aylantirdi. Hali kuchi mo‘g‘ullarni mag‘lub qilish darajasiga yetmagan, kuchlar nisbati g‘animlardan kam davrida vaqtincha ular bilan murosaga bordi. Uning bu siyosati XIV asr 50-yillar oxiri 60-yillar boshlariga davom etdi. Shundan keyin 70-yillarga qadar borliq sa’yin harakati mustaqillik kurashi Vatanni ozod qilishga qaratdi. Shu davr ichida butun kuchi, istedodini qudratli qo‘shin tuzib mustaqil davlat barpo etishni bosh maqsadiga aytlantirdi. Nihoyat, bu yo‘lda zarvarli ilk qadam ham tashlandi. Amir Husayin, ya’ni Xurosondagi eng ashaddiy raqibidan xalos bo‘ldi. Endi bir yuz ellik yillik mo‘g‘ullar bosqini va mustamlakachilik vayronagarchilikni bartaraf qilib, Batanni har jihatdan taraqqiyotga olib chiqish bosh masala bo‘lib turardi. Biroq bu maqsadni amalga oshirishga tashqi xavf saqlanib turardi. Movarounnahr va Xurosondek boy o‘lkaning qo‘ldan chiqib ketishini istamay bu endigina vujudga kelgan yoki davlatni beshigidanoq yanchib tashlashdek yovuz maqsadlarini amalga oshirishga shay bo‘lib turardi.

Shunga ko‘ra Amit Temur oldida og‘ir muammo ko‘ndalang bo‘lib yengilmas, jang maydonidan g‘olib bo‘lib chiqib ketadigan yanggi taktika va strategiya bilan qurollangan jangovar qo‘shin tuzishga ejtoyoj suv, havodek zarur edi.

Amir Temur butun istedodi salohiyatinishungga solib harbiy san’at nazaryasini tinimsiz va doimo takomillashtirishni ustida bosh qotirdi. Natijada bu intilish va harakatlar bejiz ketmay jahon harbiy san’ati va merosining zalvarli poydevoriga aylandi.

Bu harbiy nazariy kashfiyotning amaliy natijasi qudtarli Oltin o‘rda xoni To‘xtamishxon g‘oyat kuchli qo‘shinni tor mor etishda o‘zini to‘la-to‘kis oqladi. Amir Temurning harbiy taktik kashfiyoti yetti qo‘l qo‘shin tuzilishi bilan mashhur bo‘ldi. Bu qo‘shin tuzilishi shunday zanjirsimon mustahkam bog‘lanishga ega ediki, har qanday qudratli g‘anim qo‘shini Amir Temurning mudofaa tizimini yorib o‘ta olmasdi. Uni harbiy nazariya nuqtai nazaridan tahlil qilishga harakat qilamiz.

Amir Temurning yengilmas qo‘shinga ega bo‘lishida dastavval vazirning tutgab o‘rni katta bo‘lishini “Tuzuklar”ida shunday ta’kidlaydi: “Aqlli va xushyor vazir shunday bo‘ladiki, bir to‘g‘ri tadbir qo‘llab g‘anim qo‘shinning parokanda qilib yubora oladi. Murosayu madora xushmuomalalik bilan birlashtirib, dushman lashkarini o‘ziga rom qiladi.”

Amir Temur amirlik mansabiga loyiq insonlarni tanlashga ham juda puxta ish ko‘rgan: “ Eng yaqin navkarlarimdan uch yuz o‘n uch kishiga amirlik mansabi berishni buyurdim. Chunki ular asli toza, aql farosatli, bahodir, tadbirkor, sergak, extiyotkor, oldi ketini o‘ylab ish tutadigan kishilardir”.

Amir Temur amirlikka tayinlanadigan nomzodlarga o‘ziga xos talabni qo‘yadi: “ Tajribamdan sinab bildinki, jangning sir-asrorlarini, g‘anim askarlarini sindirish yo‘lini bilgan, urush ayni avj pallasiga yetganida o‘zini yo‘qotmasdan, qo‘l-oyog‘i bo‘shashmasdan va lashkar aravalarini jangga boshlay oladigan, agar qo‘shin safiga rahna tushda, uni tezda tuzata oladigan kishigina amirlikka, ya’ni sarkardalikka loyiq hisoblanadi”.

Shuningdek, Amir Temur qo‘shini bosh qo‘mondoni lavozimi bo‘ladigan sarkardaga sarkardaga qo‘shiladigan talablarini shunday ifodalagan edi: “Shunday kishi Amirul-umaro bo‘la oladiki, men yo‘g‘imda, tinchligu o‘rinbosarim bo‘lib, shon-shavqat va maxorat bilan butun buyruq berib, unga qarshilik qilganlarni jazolay oladigan bo‘lsin.

Uch yuz o‘n uch kishidan to‘rt nafarini beklar begi etib, bir kishini Amirul umaro qilib tayinlashni buyurdimki, uning hukmi yurishlarda, urishlarda amirlar va butun tomonidan so‘zsiz ijro etilsin. U o‘zim borimda yo‘ldoshim, yo‘g‘imda esa o‘rinbosarimdir. G‘ayratli, or-nomusli yana o‘n ikki kishiga ushbu tartibda amirlik darajasini berdim.

“Tuzuklar”da oddiy askarni quyi martabadan Oliy martabaga tarbiyalab ko‘tarish masalasi alohida o‘rin ajratilgan. Rag‘batlantirish oddiy askarning mardligi, jasorati va bahodirligiga baho berish asosiy o‘rinda turgan.

Piyoda qirq minglik qo‘shindan tashqari qirq minglik suboriy qo‘shin ham shu tarzda jangovar saf olgan.

Ushbu tarzda yettilik qo‘shin tuzilishni katta janglarda daxshatli g‘animlar, ya’ni na To‘xtamish, na hindlarning jangovar fillarga ega qo‘shini yohud Boyazidning Yevropani zir titratgan qo‘shinni yorib o‘tolmagan edi. Bu esa Amir Temurning jahon harbiy san’atiga qo‘ygan hissasi bo‘ldi. Natijada bu jahon harbiy san’atining yutug‘I va kashfiyoti sifatida e’tirof etilib, jahonning barcha harbiy akademiya va harbiy oliy o‘quv yurtlarida “Tuzuklar” chuqur o‘rganib kelinayotganligi shundandir.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki “Tuzuklar” faqat qo‘shinni boshqarish “Nizomi” bo‘libgina qolmay bu qonunlar majmuasi o‘rta asrlar davrining jahonda yaratilgan ilk konstitutsiyasi ham bo‘lgan edi. Vaholanki hozirga qadar dunyoda konstitutsiya XVIII asrda dastlab Amerika Qo‘shma shtatlarida va undan sal keyinroq esa Fransiya mamlakatida yaratilgan deb kelinar edi. Biz esa o‘zimizning ilmiy tadqiqotimizda va xalqaro ilmiy anjumanlardagi bir necha bor chiqishlarimizda konstitutsiya g‘arb mamlakatlarida emas konstitutsiynaning vujudga kelgan hududi bizning vatanimiz O‘zbekiston ekanligini rad qilib bo‘lmas dalil va manbalarda isbotlab berishga muvoffaq bo‘ldik.

Tuzuklardagi uchinchi buyuk hodisalardan biri bu Amir Temurning garchi nomi BMT deb keltirilmagan bo‘lsa ham mazmunan esa Sohibqiron Amir Temur ilk BMT ning kashshofi bo‘lganligi Tuzuklarda o‘z ifodasini topgan. Bu Amir Temur bobokalonimizning jahon siyosiy taraqqiyotiga qo‘shgan buyuk bemisol hissasi hisoblanadi. Biz uni fundamental tadqiqiot ishlarimizda va xalqaro ilmiy anjumanlarda chiqishlarimiz, ilimiy xalqaro maydonda e’lon qilingan maqolalarimz bilan isbotlab berganmiz, ushbu kashfiyotlari bugungi o‘zbek davlatchiligining obro‘ e’tiborini jahonda yana bir bor oshirishga imkon beradi va ikkinchi jahon urushida ittifoqchilarning fashizm ustidan g‘alabasi yakunlanishi bilanoq AQSH ning San-Fransisko shahrida 1945-yil BMT ga poydevor qo‘yilganligini yangidan tahrir qilishmizga to‘g‘ri keladi, ya’ni BMT ning poydevor AQSH da emas undan olti asr bizning Vatanimizda aynan Amir Temur ning poytaxti bo‘lgan Samarqand shahrida konstitutsiyaning poydevori bizning Vatanimizda qo‘yilganligini ham Tuzuklarda o‘z isbotini topgan. Bu bilan o‘zbek xalqi Amir Temur bobokalonimizning jahon siyosiy taraqqiyotiga qo‘shgan xissasidan har qancha faxrlanish tuyg‘usini hosil qilishga imkon beradi.

AMIR TEMUR DAVRIDA BUNYODKORLIK ISHLARI

Imamov B.X.,
Qarshi davlat texnika universiteti dotsenti,
tarix fanlari falsafa doktori (PhD),

Dunyoning turli mamlakatlarida taniqli davlat va jamoat arboblari, olimlar va adiblar o‘z ijtimoiy-siyosiy, ilmiy va ijodiy faoliyati davomida buyuk ajdodlarimiz, xususan, Sohibqiron Amir Temurning jahon sivilizatsiyasi va madaniyati rivojiga qo‘shgan munosib ulushini yuksak e’tirof etib keladi.

Prezident Sh.Mirziyoev ta’kidlaganidek,- “Ilm-fani, ma’rifat va madaniyati rivojlanmagan davlatning rivojlanish strategiyasi ham muvaffaqiyatsizdir. Zero, insoniyat tarixini, shaxs ontogenezini bilish, ilm olish jarayonisiz tasavvur qila olmaganimizdek, shiddat bilan rivojlanayotgan, dunyo madaniyatlari, texnologiyalari, ilm-fanlari chuqur integratsiyalashayotgan, ya’ni globallashuv jarayonlarining jadallashuvi kontekstida mamlakatimizdagi islohotlarni amalga oshirilishini, asr taraqqiyotiga adekvat tarzda taraqqiy etishni ilm va ma’rifat rivojisiz tasavvur qilolmaymiz. Tarbiya, ta’lim, ilm-fan inson hayoti faoliyatining eng zarur, eng muhim omillaridan bo‘lib, ularsiz mamlakat va jamiyatning barqaror o‘sishini amalga oshirib bo‘lmaydi. Ularni iqtisodiyotning barcha sohalari uchun zarur bo‘lgan malakali mutaxassislarni tayyorlashdek murakkab bir masalaning echimi, islohotlarni samarali amalga oshirishning muhim bir omili sifatida rivojlanish strategiyamizning ustuvor yo‘nalishlari qatoridagi eng old pozitsiyalarga chiqarish – juda dono echim, desak mubolag‘a bo‘lmaydi.”.[1]

Sho‘rolar davrida Amir Temur to‘g‘risida iliq so‘z aytish ayb, hatto jinoyat hisoblangan bir paytda, ya’ni 1987 yil 22 martda Parijda «Temuriylar davri tarixi va san’atini o‘rganish va fransuz-o‘zbek madaniy hamkorligi» uyushmasi tuzilgan. Uyushma Amir Temur va temuriylar davri tarixi va madaniyatini targ‘ib qilish borasida dunyoda birinchi tuzilgan tashkilotdir. Uning asosiy maqsadi Amir Temur va temuriylar madaniyati, san’ati, shuningdek, Buyuk ipak yo‘lining muhim qismi, Sharq va G‘arb madaniyatlarining chorrahasi bo‘lmish Markaziy Osiyo tarixi va uning jahon sivilizatsiyasiga qo‘shgan ulkan

hissasi bilan keng fransuz ommasini tanishtirishdan iborat. Buning yaqqol dalili sifatida ular Samarqandu Shahrisabz, Buxoro-yu Hirot, Balxu Shimoliy Hindistondagi tengsiz Sharq me’morchilik durdonalarini misol qilib ko‘rsatadilar. Shu maqsadda uyushma turli temurxonlik kechalari, ilmiy anjumanlar, ko‘rgazmalar o‘tkazib turadi. Temuriylarning xaqiqiy ixlosmandi bo‘lmish uyushma a’zolari fransuzlarni mashhur tarixiy «Samarqand yo‘li»dan borishga, Amir Temur saltanati poytaxti moviy gumbazlariga mahliyo bo‘lishga, Sharq uyg‘onish davri madaniyati va san’atidan zavqlanishga chorlaydi. [2]

Buyuk sarkarda va davlat arbobi Amir Temur davrining jahon sivilizatsiyasi tarixidagi yuksak o‘rnini baholashda uning faoliyatidagi bunyodkorlik ishlari, ayniqsa, me’morchilik va shaharsozlik san’ati alohida o‘rin tutadi. Mamlakatimiz hududida mavjud bo‘lgan to‘rt mingdan ziyod moddiy-ma’naviy obida, jumladan, Shahrisabz va Samarqanddagi tarixiy yodgorliklar umumjahon merosining noyob namunasi sifatida YuNESKO ro‘yxatiga kiritilishi sohibqiron bobomiz qurdirgan inshootlar yuksak me’moriy qadriyatlar timsoli ekanidan dalolatdir. [3].

Amir Temur Movarounnahr taxtini egallagandan keyingi dastlabki davrdayoq bunyodkorlik ishlariga katta e’tibor beradi, ya’ni, asosan shaharlar tizimida mustahkam istehkomlar yaratishga kirishadi. Shu sababli, u davlat tizimini kuchaytirishdan tashqari har bir shaharni himoya vositalari bilan ta’minlash, karvon yo‘llarida himoya qo‘rg‘onlarini yaratish bo‘yicha juda katta hajmdagi qurilish ishlarini amalga oshirdi. Saltanatning yirik shaharlari Shahrisabz, Qarshi, Samarqand va Toshkentda mudofaa devorlari, mustahkam darvozaxonalar bunyod ettirdi. Karvon yo‘llarida dunyoda birinchi bor pochta xizmatiga doir inshoot-bekatlar qurdirdi.

Amir Temur Samarqandni Afrosiyobdan janubda, mo‘g‘illar davridan oldingi tashqi shahar o‘rnida shakllantirdi. 1371 yili Sohibqironning buyrug‘i bilan maydonning hammasi qal’a devori bilan o‘rab olindi va bu joy hisor deb ataldi, uning g‘arbiy qismida ark-qal’a barpo etildi. Amir Temurning Samarqanddagi qal’asi poytaxtning mustahkam ma’muriy markazi edi. Unda Ko‘ksaroy qarorgohi, Bo‘stonsaroy, qurol-yarog‘ ustaxonalari, omborlar, devonxona joylashgan. Alohida maydonchada ko‘k toshli supa-taxt bo‘lib, taxtga chiqarish marosimi ana shu erda o‘tkazilgan. Amir Temur yana bir ulkan shaharsozlik va me’moriy g‘oyani, ya’ni Samarqandni er yuzidagi eng katta va go‘zal shaharga aylantirishdek maqsadni amalga oshirish uchun butun kuch-

qudratini ishga soldi. Shahar atrofidagi maskanlar esa o‘sha davr mashhur shaharlariga monand yo‘ldosh shaharlarga aylanishini niyat qildi. - Samarqandning tevarak-atrofida Qohira, Damashq, Bag‘dod, Sultoniya va Sheroz nomli ko‘plab qishloq-maskanlarning paydo bo‘lishi bejiz emas. Shaharda Amir Temur qurdirgan qasr-qal’a qarshisida Registon majmuasining shakllanishiga asos solindi. Amir Temur jome’ masjidi va uning qarshisidagi “qo‘sh inshoot” usulida qurilgan ulkan madrasadan tashkil topgan majmualar shular jumlasidan. Shahar hisori tashqarisida, keyinchalik Go‘ri Amir nomini olgan majmua, Afrosiyob tepaligida Shohizinda me’moriy majmuasining bunyod etilishi ham XV asr shaharsozligining Temur davri yo‘nalishini namoyon etadi.

Me’moriy ansambllar “qo‘sh” usulda, ya’ni bir-biriga bosh ko‘rinishi bilan ro‘baro‘, peshtoqi g‘oyatda baland va ulug‘vor ko‘rinishga ega bo‘lgan inshootlar majmuasi tarzida qurilgan. Samarqanddagi Jome’ masjidi bilan Bibixonim madrasasi bu shaharsozlik usuliga namunali misol bo‘la oladi. Qadimiy Afrosiyobning Shahriston xarobalarida qolgan o‘rta asr inshootlarining ayrimlari, ya’ni Hazrati Xizr va Cho‘pon ota majmualari - Sohibqiron e’tiboridan chetda qolmagan. [4].

Ulug‘ bobomiz markazlashgan yirik davlatni shakllantirish bilan birga Markaziy Osiyoda shaharsozlik san’atining qayta tiklanishiga, uning yanada rivojlanishiga yo‘l ochdi, ya’ni Samarqand va Movarounnahrning boshqa shaharlarini tiklashga katta e’tibor berdi. Ko‘p yillik yurishlar davrida ham qo‘shin bir necha muddat dam olgan hududlarida Sohibqiron bunyodkorlik ishlarini olib borgan. Qarshi shahri qal’asining mustahkamlanishi, Toshkent yaqinidagi Zangiota va Turkistondagi Xo‘ja Ahmad Yassaviy maqbaralari - qurilishi bunga misol bo‘ladi. Sohibqiron Amir Temur davrida ilm-fan, adabiyot va sanat, hunarmandlik va me’morchilik ravnaq topdi. Temur tomonidan turli mamlakatlardan yuz mingga yakin olimlar, hunarmandlar, me’morlar, san’atkorlar Samarkandga oldirib keltirilgan[5].

Shaharsozlik va me’moriy majmualar yaratishga yo‘naltirilgan ishlar asosan poytaxt shaharlar Camarqand va Shahrisabzda olib borilgan. Qadimiy Kesh shahri va saltanat poytaxti Samarqandda olib borilgan shaharsozlik tadbirlari bu sohaning keyingi asrlardagi yo‘nalishini belgilab berdi. Amir Temur va Temuriylar davrida shaharlarning asosiy qismi “hisor” deb atalgan tizimda shakllandi. Bu atama mo‘g‘illargacha bo‘lgan shaharlarning “Shahriston” atamasidan farq qiladi. “Hisor” shaharning asosiy qurilmalari,

hunarmandchilik-savdo joylari, mahallalarni, shoh ko‘cha va majmualarni butunlay o‘z ichiga olgan yoki umuman yangi joyda paydo bo‘lgan tizimdir.

O‘sha davr bunyodkorlik ishlarida islomiy falsafa, oxirat uchun xayrli ishlar, maqbaralar qurish g‘oyasi ham hukm surgan. Sevimli farzandi Jahongir o‘limidan so‘ng Sohibqironda Shahrisabzda o‘xshashi yo‘q yirik xilxona-nekropol qurib, u erga o‘z avlodlarini dafn qilish fikri tug‘iladi. Shahrisabz hisorining janubi-sharqida ana shu majmuaga tamal toshi qo‘yiladi. Keyinchalik bu erda Dorut-tilovot va Dorussiyodat majmualari paydo bo‘lib, yangi qurilishlar bir necha asrlar davomida bosqichma-bosqich davom ettirilgan.

O‘sha davr me’morchiligining shoh asarlari – mahobatli ko‘shk saroylarning ko‘plab qurilishi qadimiy bog‘ tuzish san’atida yangicha yo‘nalish paydo qildi. Bog‘lar agronomik-badiiy vazifalardan ko‘ra, ko‘proq monumental me’morchilikka yaqin ehtiyojlarga ham javob bera boshladi. Davlat miqyosida qabullar o‘tkaziladigan ma’muriy, shuningdek maishiy tadbirlar o‘tkaziladigan saroylar bog‘lar bilan hamohang tarzda bunyod etilishi o‘z navbatida yangicha me’moriy echimdagi bog‘-saroy turlarini namoyon etdi.

Zamonaviy O‘zbekiston me’morchiligida Sohibqiron dahosi bilan yaratilgan me’moriy g‘oyalar mujassam bo‘lgan boy merosdan oqilona foydalaniш bugungi me’mor va quruvchi ustalar oldidagi mas’uliyatli vazifalardan biri bo‘lib qoldi. Amir Temur davri me’morchiligi an’analariga xos raviшda bunyod etilgan mustaqillik inшootlaridan Toшkentdagi Temuriylar tarixi davlat muzeyi, Samarqand yaqinidagi Imom al-Buxoriy yodgorlik majmuasi kabi binolardagi me’moriy echimlar bu vazifani bajariшga sidqidildan kiriшilganidan dalolatdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sh.Mirziyoyev. O‘zbekiston Respublikasini 2020 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustuvor yo‘nalishlari to‘g‘risidagi masalalarda davlatimiz rahbari bugun, 2020 yil 24 yanvar.

2. Akademik Akmal Saidov.”Fransuz olimi Amir Temurning siyosiy zakovatiga, diplomatik mahorati va bunyodkorligiga tan bergan.” Madaniyat. 3.10. 2018 y.

3. A. Yahyoev Sohibqironning me’moriy merosi.. «O‘zbekiston adabiyoti va san’ati» gazetasining 2013 yil 15-soni.

4. Sh.A.Axadov. T.S.Egamov Amir Temur va Temuriylar davrining intellektual salohiyati, o‘quv qo‘llanma. Samarqand – 2004.

Рюн Конзалес де Клавихо. “Жизн и деяния великого Тамерлана”; дневник путешествия по двору Тимура в Самарканде 1403\1406 г.

AMIR TEMUR TUZUKLARIDA RAZVEDKA VA HARBIY XIYLAGA OID MASALALARNI YORITILIShI

Inoyatov I.Yu.,
O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Toshkent “Temurbeklar maktabi” o‘quv bo‘limi uslubchisi,
tarix fanlar nomzodi.

Amir Temurning markazlashgan davlat tuzishida uning harbiy yurishlari katta rol o‘ynadi. Sohibqiron 1370-1371 yillarda Farg‘ona, O‘tror, Yassi, Toshkent, Hisor, Badaxshon, Qunduz shaharlarini bo‘ysundirdi. 1371-1389 yillarda Mo‘g‘iliston (Qashg‘ar, Issiqko‘l va Yettisuv muzofotlari) hukmdori Amir Qamariddinga qarshi jami 7 marta yurish qilib Movarounnahrning sharqiy va shimoliy hududlarida joylashgan yerlarni birlashtirdi.

Amir Temur davlatining hududlarini kengaytirish maqsadida XIV asrning 80-yillarida e’tiboran xorijiy mamlakatlar tomon ko‘plab harbiy yurishlar uyushtiradi.

Amir Temurning harbiy yurishlari tarixga «uch yillik» (1386-1388 yy. – harbiy yurishlar oqibatida Ozarbayjon, Iroqning shimoliy qismi, Gruziya va Van ko‘li atrofidagi yerlar egallandi), «besh yillik» (1392-1396 yy. – G‘arbiy Eron, Iroqi Ajam va Kavkazni egalladi, natijada muzaffariylar va jaloiriylar sulolasining hukmronligi barham topdi) va «yetti yillik» urushlar (1399-1404 yy. – Shomning Halab (Allepo), Xoms, Baalbek, Damashq kabi yirik shaharlari va Kappadokiya bilan Bag‘dod, shuningdek Turkiyaning katta qismi zabt etiladi) bo‘lib kirgan.

Amir Temurning Oltin O‘rdaga qarshi kurashi katta kuchlarni safarbar etishni talab qildi. U To‘xtamishga qarshi 1389, 1391 va 1394-1395 yillarda uch marta katta yurish qiladi. 1398-1399 yillarda Hindistonga, 1401 yili Suriya yurishlarni amalga oshirgan bo‘lsa, 1402 yilda Anqara yaqinidagi Oyqarada turk sultoni Boyazid Yildirim qo‘shinlarini batamom tor-mor etadi. Bu g‘alaba

faqat Osiyo tarixi uchungina ahamiyatli bo‘lib qolmadi. Amir Temur o‘zining bu g‘alabasi bilan Yevropa xalqlarini turk tajovvuzidan saqlab qoldi va uning taraqqiyoti uchun yo‘l ochib berdi.

Amalga oshirilgan tadbirlar natijasida shunday qudratli saltanat vujudga keldiki, uning dovrug‘i butun olamni tutdi. Biroq kezi kelganda shuni ta’kidlash joizki, Sohibqironning ko‘plab harbiy yurishlariga faqat bir yoqlama nuqtai nazardan baho berib bo‘lmaydi. Negaki, bu yurishlar goho mamlakat hududlarga tajovuz qilgan ajnabiy kuchlarga zarba berish, goho muqaddas islom ta’limoti g‘oyalarini ularning tahqirlovchilaridan himoya qilish yohud sohibqiron Vataniga muttasil dushmanlik qilib kelgan xorijiy davlatlarga nisbatan so‘nggi chora sifatida amalga oshirilgan. Jumladan, Amir Temurning Oltin O‘rdaxoni To‘xtamishga qarshi olib borgan jangu jadallari (1389, 1391, 1394-1395 y), eng avvalo, yurt osoyishtaligi, uning hududiy yaxlitligini ta’minlash maqsadiga yo‘naltirilgan edi. Amir Temurning urushning ayanchli oqibatlarini juda yaxshi bilganligidan, ya’ni qon to‘kishlik, qanchadan-qancha kishilarning halok bo‘lishi, vayronagarchilik, etim-yesirlarning ko‘payishi deganidir, shuning uchun ham u o‘rtadagi muammoni urush qilish yo‘li bilan hal qilmaslikka intilgan.

“Temur tuzuklari”dan ma’lum bo‘ladiki, Amir Temur xohlagan paytda xohlagan mamlakatga urush qilmagan. Uning urush boshlashi uchun, *birinchidan* albatta biron-bir asos, sabab bo‘lganligini, ya’ni zulm zo‘rayib ketgan bo‘lsa, adolat o‘rnatish uchun bunday mamlakatga urush boshlaganligini; *ikkinchidan*, qo‘shni mamlakatlarning hukmdorlari uning hududiga hujum qilmasdan oldin chora ko‘rish, ya’ni o‘zini o‘zi himoyalash nuqtai nazaridan ham urush boshlaganligini ko‘ramiz. Asarda: “Biron mamlakatda jabr-zulm va fisqu fasod kuchayib ketarkan, asl podshohlar adolat o‘rnatishib, fisq-fasodni, zulmni yo‘qotish niyatida ana shunday mamlakatga hujum boshlashi lozim”, yoki “...Amr qildimki, ... turli mamlakatlar, sarhadlarning xabarlarini, qo‘shni hukmdorlarning maqsadlari va niyatlarini bilib, huzurimga kelib, xabar qilsinlar, toki biron voqea, kor-hol yuz bermasidan burun uning chorasi va iloj qidirilsin” [1, 135-b.].

Ma’lumki, Amir Temur jahon harbiy tarixida mukammal muntazam armiya tuzish va boshqarish, harbiy harakatlar davrida falanga taktikasini qo‘llash bilan bir qatorda jangovar harakatlarni amalga oshirishda ayg‘oqchilik (razvedka) xizmatiga katta e’tibor qaratgan. Uning ayg‘oqchilari dunyoning

turli mamlakatlarida savdogar, sayyoh, qalandar, munajjim, folbinu jodugar sifatida doimiy ravishda Amir Temurga ma’lumotlar yuborib turar edilar.

Razvedka va kontrrazvedka Amir Temur saltanatida davlat siyosatining bosh bo‘g‘ini bo‘lganligi haqida «Temur tuzuklari»dagi «Mulki mamlakat, sipohu raiyat ahvolidan xabardor va ogoh bo‘lib turish tuzugi»da shunday qayd etilgan: «Har bir sarhad, viloyat, shahar va lashkarda xabar yozuvchi (xabarnavis)lar tayin qilinsinki, hokimlar, raiyat sipoh o‘zining va yot-begona lashkarning xatti-harakati haqida meni xabardor qilsin. Atrofdan kirgan-chiqqan yot kishilar, har mamlakatdan kelgan karvonlar va hukmdorlik haqidagi xabarlar, qo‘shni podsholar, ularning gaplari, ishlari va uzoq o‘lkalarda bo‘lib, mening dargohimda yuzlangan ulamo, fuzalo haqidagi batafsil xabarlarni rostlik, to‘g‘rilik bilan menga yozib tursinlar.

... Va yana amir etdimki, ushbu xabarlarni kunma-kun, haftama-hafta, oyma-oy mening arzimga yetkazib tursinlar”[2, 50-b.].

Mana shu jumlalardan ko‘rinib turibdiki, Amir Temur davlatida razvedka xizmati o‘ta dolzarb masala bo‘lgan.

Amir Temurning dushman va uning qo‘shinlari haqida har tomonlama to‘liq, ularning kuchi, joylashgan joyi va shu kabilar to‘g‘risida ma’lumot to‘plash uchun alohida harbiy bo‘linmalar tashkil qilganligini, ulardan har doim juda ham oqilona foydalanganligini, ularning ma’lumotisiz biron-bir harbiy harakat boshlamaganligini ko‘ramiz. Harbiy harakatlar olib borishdan oldin, zarur bo‘lsa yillar davomida raqibi haqida ma’lumotlar to‘plab borish hozirgi zamon armiyasining ham eng asosiy faoliyatlaridan biridir desak bo‘ladi. “...Jete lashkari haqida, uning ahvoli va rejalari to‘g‘risida xabar topib keltirishni buyurdim. Tamuka to‘rt kundan keyin kelib shuni xabar qildiki, Jete lashkari Termiz viloyatiga kelgan va xalqini talab, urush-talash bilan mashg‘ul emish. Buni eshitib, Daragez degan joyga borib turishni lozim ko‘rdim. Keyinroq qulay fursat topib, Jete lashkari ustiga to‘satdan bostirib borishni o‘yladim” [1, 29-b.], deydi. Yoki “...Termiz kechuvidan o‘tib, Qahalqa qal’asi tarafiga qorovullar jo‘natdim. O‘zim Jayxun bo‘yida bir necha kun turdim va qorovullar olib keladigan xabarni sabrsizlik bilan kutdim” [1, 31-b.] deydi**.**

Amir Temur qaysi davlat xalqi o‘z hukumronidan norozi bo‘lsa, qaysi davlatda xalq talangan, zulmga uchragan bo‘lsa shu yerda adolat o‘rnatish uchun qo‘shin tortgan.

Amir Temurning davlat va qo‘shin boshqaruvidagi yana bir xislati bu uning jangovar harakatlarda vaqtida tomonlarning kam talofat ko‘rishiga

harakat qilishi bo‘lgan. Bunda sohibqiron razvedka ma’lumotlari bilan bir qatorda harbiy hiylalarni ham keng qo‘llagan. “Temur tuzuklari”da, harbiy hiyla, pistirmaga oid masalalar yoritilishida ham ko‘ramiz. Amir Temur o‘z tuzuklarida urush, jang ishlari bilan bog‘liq, dushmanni aldash uchun ishlatilgan harakat usuli, ya’ni harbiy hiylalarni juda ko‘p marta ishlatganligini, tadbir, harbiy hiyla ishlatib Qarshi qal’asini qanday qo‘lga kiritganligini batafsil bayon qiladi. “Menga mo‘g‘ullar qal’alarga yashirinib olganlari haqida xabar keltirdilar. Lashkar qismlarini u yerga yuborish to‘g‘ri bo‘lmas, deb (boshqa) chora izlay boshladim. So‘ngra Ilyos Xoja nomidan qal’adagilarga qarata yorlig‘ yozib, urushsiz topshirishlarini buyurdim. Yorlig‘ni bir mo‘g‘ul qo‘liga tutqazib, unga hamroh qilib lashkarlarimning bir qismini jo‘natdim. Askarlarimga chang-to‘zon ko‘tarib, o‘zlarini g‘animga ko‘pday qilib ko‘rsatishni buyurdim. Ilyos Xojaning talabi yozilgan yorlig‘ g‘animlar qo‘liga tekib, lashkarlarim ko‘targan chang-to‘zonni ko‘rishgach, tun qorong‘usida qal’alarini tashlab qochdilar” [1, 47-b.], deb ko‘rsatilgan. Ya’ni, Amir Temurning o‘z askarlari sonini ko‘pday ko‘rsatish uchun qo‘llagan harbiy hiylasining natijasida kam talafot ko‘rib, o‘z maqsadiga erishgan.

Amir Temur saroyida Kastiliya elchisi bo‘lib turgan Klavixo oradan to‘qqiz yil o‘tib, tutqich bermas To‘xtamishning ta’qib qilinishi haqidagi hikoyani eshitgan edi. «Garchi Temur suvoriylari To‘xtamishning otliq askarlariga nisbatan son jihatidan ozchilikni tashkil etgan bo‘lsa-da, Sohibqiron juda shoshilinch tarzda uni ta’qib qila boshladi. Dushmanni izma-iz quvib borar ekan, u ulug‘ daryo Terek sohilida qipchoq galalariga duch keladi. Temur daryodan kechib o‘tish uchun darhol kechuvni qo‘lga olishga intiladi. Bu daryodan kechib o‘tish mumkin bo‘lgan yagona kechuv joyi edi. Biroq daryo sohiliga yetib kelgan Amir Temur To‘xtamishning allaqachon narigi qirg‘oqqa kechib o‘tganini ko‘radi. To‘xtamish esa Temur uni izma-iz quvib kelayotganini bilib, o‘zi yog‘och to‘siqlar bilan mustahkamlash lozim, deb hisoblagan kechuvni himoya qilmoq uchun darhol to‘xtadi. Bu yerga yetib kelgan va kechuvni dushman tomonidan nazorat qilib turilganini ko‘rgan Amir Temur To‘xtamishga o‘z elchisi orqali, «nechun bunday qilmoqdasan, axir men sening haqiqiy do‘stingman-ku, sen bilan jang qilgani kelganim yo‘q bu yerga, xudo shohid, mening senga qarshi hech qanday xusumatim ham, tajovuzkorlik niyatim ham yo‘q»,-degan mazmunda noma yuboradi. Biroq To‘xtamish Amir Temur o‘z so‘zida turmaydi deb uning pand-nasihatlariga quloq solmadi. Shuning uchun ertasi kun Amir Temur qo‘shinlarini joyidan ko‘chirib, tezlik

bilan daryoning janubiy sohili bo‘ylab yo‘l oldi. Buni ko‘rgan To‘xtamish ham xuddi shunday qildi: daryoning shimoliy sohili yoqalab, qo‘shinlarini olg‘a yo‘naltirdi. Shu tariqa ikki taraf qo‘shini bir-birini kuzatgan holda yuqori oqim tomon boraverdi va tunda ular qarama-qarshi ikki sohilda ro‘parama-ro‘para askargoh qurdilar. O‘rtani faqat daryo ajratib turardi. Bu ish uch kun davom etib, qo‘shinlardan birontasi ham biri ikkinchisini quvib o‘tmadi. Biroq uchinchi kuni tunda Amir Temur sipohiylar bilan birga yurgan barcha xotin-xalajga dubulg‘a kiyib, shop-shaloplarni taqib, sipohiylar qiyofasiga kirishni buyurdi, o‘zi esa barcha suvoriylarini otlantirib, ular bilan orqaga, kechuv sari quyunday uchdi, har bir suvoriy o‘zi bilan yana bittadan otni yetaklab olmog‘i zarur edi. Shu qabilda askargoh xotin-xalaj nazorati ostida qoldi. Amir Temur esa shiddat bilan orqaga, uch kunlik safarga, daryodan kechib o‘tish mumkin bo‘lgan joyga qushday uchdi. Kechuvga yetib kelgan qo‘shin shu yerda tunadi. Ertasi kun ertalab esa daryoni kechib o‘tib, uning narigi sohili yoqalab harakatlandi. To‘qqiz kun deganda, ular g‘anim qo‘shinlari qarshisida paydo bo‘ldilar [3, 156-b.].

Ba’zi bir vaqtda dushmanga xuddi u bizni alday olmaganday qilib va o‘zimizning ba’zi bir harakatlarimiz bilan aynan u kutgandek o‘zimizni yanglishib qolgan qilib ko‘rsatish foydali bo‘ladi. Dushman bizni alday oldim deb o‘ylasa-yu, lekin o‘zining hiylasi bizga ma’lum bo‘lib qolganini sezmay qolsa, bu hol uning uchun juda xavfli bo‘ladi.

Nizomiddin Shomiy 1360 yillarning boshida Temur o‘zining hali uncha katta bo‘lmagan qo‘shini bilan mo‘g‘illarning ko‘p sonli lashkarini qanday mag‘lubiyatga uchratgani haqida hikoya qiladi. Jetelar Temurni tor-mor etish uchun uning qo‘shiniga qaraganda bir necha marta kattaroq lashkar jo‘natishibdi. Ana shunda Amir Temur dushmanning ort tomoniga abjir yigitlardan bir qismini yuboribdi va ularga barcha tepaliklarda gulxanlar yoqishni buyuribdi. Jetelar, bizni qurshab olishibdi, degan xayolga borib, qocha boshlabdilar [4, 41-b.]. Shundan so‘ng Amir Temur ikki yuz chog‘li suvoriylari bilan o‘zining ona yurti – Qashqadaryo sari ot suribdi. Otlarning biqiniga esa u barglari to‘kilmagan daraxt shoxlarini bog‘lashni buyurgan ekan. Osmonu falakka ko‘tarilgan chang-to‘zon dushmanga juda katta lashkar bostirib kelayotgandek bo‘lib ko‘rinibdi. Shundan so‘ng jetelar tum-taraqay bo‘lib qochishibdi, Temur esa Shahrisabzni hech qanday jangsiz ishg‘ol etibdi.

Dushmanga hiyla ishlatishda Amir Temur o‘ziga xos tajribaga ega edi. U har qanday vaziyat va sharoitda tezkor qaror qabul qilar va dushmanga

kutilmagan zarba berish rejasini ishlab chiqar hamda amalga oshirar edi. Bu haqida tuzuklarda 1376 yilda Dashti Qipchoq xoni O‘rusxon ustidan qozonilgan g‘alaba quyidagicha bayon etilgan.

To‘xtamishxon taxt talashib [Dashti Qipchoq] O‘rusxondan yengilib, mening panohimga qochib kelgan edi. Uning bilan qo‘shin yuborsammikin, yo o‘zim borsammikin deb turganimda O‘rusxonning elchisi kelib qoldi. Kengashib, elchining ko‘nglini ovlab, so‘ng ketishiga ruxsat berishni, o‘zim esa Dasht tomon yuzlanib, elchinig ketidan lashkar jo‘natishni mo‘ljalladim, toki elchi xotirjamlik bilan bo‘lgan voqealardan O‘rusxonning majlisida bayon qilsin, ertasi kuni mening qo‘shinlarim qo‘qqisdan ularning ustiga bostirib borsin.

O‘ylaganimdek ish tutgandim, tadbirim taqdirga to‘g‘ri keldi. O‘rusxon elchisi bo‘lgan voqealarni so‘zlab berayotgan paytda, mening qo‘rqmas lashkarim favjlari nogahon kelgan balodek O‘rusxon ustiga yopirildilar. O‘rusxon qarshilik ko‘rsata olmay qochishni ixtiyor qildi. Dashti Qipchoq mamlakati menga bo‘ysundi [1, 51-52-b.].

Mana yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki, Amir Temurning razvedka xizmatini tashkil etishi, olingan ma’lumotlardan unumli foydalanishi va kezi kelganda to‘g‘ri tadbir bilan harbiy xiyla ishlatish mahorati har qanday qiyin holatlarda ham unga g‘alabani ta’minlab bergan.

Ta’kidlash kerakki, harbiy hiylalar zamonaviy jangda ham ta’qiqlanmaydi. Hiylalar dushmanni chalg‘itish yoki shoshqoloqlikka undashga qaratilgan ammo munofiqlik hisoblanmaydigan xatti-harakat bo‘lib, bunda qurolli mojarolar davrida qo‘llanadigan biron-bir xalqaro huquq normasi buzilmaydi hamda ana shu huquq asosida beriladigan himoyaga nisbatan dushman tomonning ishonchi aldanmaydi. Quyidagi xatti-harakatlar bunday hiylalarga misol bo‘la oladi: maskirovka qilish, pistirmalar qo‘yish, soxta operatsiyalarni bajarish va yolg‘on ma’lumot tarqatish usullaridan foydalanish” [6, 255-b.], deb aniq ravshan ko‘rsadi 1949 yil 12 avgustdagi Jeneva konvensiyalariga “Xalqaro qurolli mojarolar qurbonlarini himoya qilishga doir qo‘shimcha Protokol”ida.

Amir Temur bobomiz bundan olti yuz yildan ko‘p vaqt ilgari harbiy hiylalar qo‘llagan bo‘lsa hozirgi davrdagi “Xalqaro urush va qurolli mojarolar huquqi” ham “harbiy hiylalarni qo‘llashga ruxsat beradi.

Xulosa qilib aytganda, harbiy ta’lim muassalarida “Temur tuzuklari”ni, sohibqironning sarkardalik qobiliyatlarini, harbiy san’atlarini va strategik

tafakkurlarini o‘rganish, ulardan saboq olish zurur axsiy tarkib jangovar salohiyatini yuksaltirishning muhim omillaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.. “Темур тузуклари”- Т.: “Shodlik nashriyoti”., 2018. - Б. 135.

2. Чориев А. Соҳибқирон маънавияти Тошкент: «Янги аср авлоди», 2011. -Б.50.

3. Хильда Хукхэм Етти иқлим султони. Тошкент: «Адолат», 1999, - Б. 155-156.

4. Низомиддин Шомий Зафарнома. Тошкент: «Ўзбекистон», 1996, - Б.41.

5. Иноятов И. Амир Темурнинг ҳарбий санъати// Muhofaza, 2014, № 4., -Б.13.

6. 1949 йил 12 августдаги Женева конвенциялари ва уларга қўшимча Протоколлар. – Т.: 2007. -Б. 255.

TEMURIYLARNING YEVROPA DAVLATLARI BILAN XALQARO HAMKORLIGINING AYRIM JIHATLARI

Ismatullayev F.O.,
Nizomiy nomidagi TDPU professori,
tarix fanlari doktori, dotsent.

Qadim O‘zbekistonning bundan qariyb ikki yarim ming yil avval shakllangan o‘zaro diplomatik aloqalari XXI asrda ham keng formatlarda rivojlanmoqda. Ayniqsa, Yevropa Ittifoqi davlatlari bilan munosabatlar o‘zining keng qamrovligi bilan ajralib turadi. Mavjud manbalar guvohlik berishicha ikki mintaqa o‘rtasida savdo-madaniy aloqalar Amir Temur va Temuriylar davrida o‘zining yuksalish bosqichiga ko‘tarilgan[1].

Bugungi kundagi xalqaro vaziyatga baho berar ekan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoev o‘tmishdagi tarixiy holatga baho berib: “Sohibqiron bobomizning Fransiya, Angliya, Ispaniya, Vizantiya, Misr, Xitoy, Hindiston, Usmoniylar imperiyasi kabi ko‘plab davlatlarning

hukmdorlari bilan olib borgan diplomatik aloqalari va yozishmalari buni yaqqol tasdiqlaydi[2]", - deya ta'kidlaydi.

Bevosita Amir Temur hukmronligi davrida Yevropaning yirik davlatlaridan o'nlab elchilar kelgan[3]. Temurning bag'rikenglik va diniy e'tiqod borasidagi erkinligi davlat hududida yashagan xristian hamda yahudiylarining o'z dinlariga bemalol amal qilish imkoniyatini yaratgan[4].Amir Temur tomonidan boshqa davlatlarga yuborilgan elchilar xalqaro va diplomatiya huquqi mezonlariga qat'iy amal qilganlar[5]. Amir Temur diplomatiyasi mardlik, jasurlik, tashabbuskorlik va jamiyki insoniy fazilatlarga yo'g'rilganligi, hatto u yengilgan raqibiga katta hurmat va jumardlik ko'rsatgan[6].Temurning Yevropaga jumladan, Fransiya bilan hamkorlik aloqasiga jiddiy e'tibor qaratganligini, va o'z navbatida Fransiya qiroli Karl VI ham bunga munosib javob qaytarganligini, yozilgan maktublari orqali bilib olish mumkin[7].

Fransiya O'zbekiston rahbari 2018 yil oktyar oyidagi rasmiy tashrif bilan kelgan Yevropadagi birinchi mamlakat ekanini qayd etib, o'n beshinchi asr boshida buyuk sohibqiron Amir Temur va Fransiya qiroli Karl VI davridan buyon davom etib kelayotgan do'stlik, o'zaro hurmat va ishonch mamlakatlarimizni bog'lab turishiga e'tibor qaratdi[8]. Hamda bugungi kun va o'tmishni qiyoslagan holda Prezident Sh. Mirziyoev "...biz mamlakatimizga chet el investitsiyalarini jalb qilishda elchilarimiz va diplomatlarimizning ishtirokini kuchaytirish haqida so'z yuritdik. Bu masala Amir Temur zamonida ham kun tartibiga dolzarb vazifa sifatida qo'yilganligini ko'rishimiz mumkin[9]" – deya ta'kidlaydi.

Ilmiy aloqalar tarixi e'tibor qaratar ekanmiz, ilm-fan sohasidagi kashfiyotlar va xalqaro aloqalar mintaqada birinchi[10] va ikkinchi Renessans[11] davrlarida, ayniqsa, Amir Temur va Temuriylar davrida rivojlanib, o'zining takomil bosqichiga ko'tarilgan[12]. Aynan Sohibqiron Amir Temur ilm–fanni rivojlantirish hamda ilmiy maktablarni yaratish uchun ko'pgina mamlakatlardan yetakchi olim, musavvir va musiqchilarni Samarqandga taklif etgan. Bu esa Movarunahrni dunyo ilm-fani markazlaridan biriga aylanishida muxim omil bo'ldi.

Shu bilan birga Yevropada Amir Temur va Temuriylar davri tarixi, madaniyati va jahon tamadduniga qo'shgan hissasini o'rganish o'rta asrlar davridayoq boshlangan. Ayniqsa, bu masalada Ispaniya qirollgi elchisi bo'lgan Rui Gonzales de Klavixoning xizmatlari kattadir. Rui Gonzales de

Klavixo o‘zining elchiligi davrda ko‘rgan va tanishgan hamda o‘qigan manbalariga tayanib, “Buyuk Temur tarixi”, “Temur qarorgohi”, “Samarqandga sayohat kundaligi” nomli kitoblarni yozdi va nashr qildirdi. Demak, Yevropa xalqlari XVI asrdayoq buyuk Amir Temur va temuriylar davlati hamda uning dovrug‘i haqida ma’lum darajada ma’lumotlarga ega bo‘lishgan. Temuriylar davri va umuman Sharq o‘rta asrlar davri tarixi hamma davrlarda ham g‘arb tarixchilarini diqqat markazida turgan, desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Ayniqsa XX asrda ham Yevropalik olimlar tomonidan ko‘plab tadiqiqotlar amalga oshirilganligini ko‘rishimiz mumkin.

Bunda ayniqsa Fransiyada 1988 yilda tashkil etilgan “Temuriylar uyushmasi” tomonidan amalga oshirilgan ilmiy izlanishlar tahsinga sazovordir. Uyushma asosan Temuriylar davri san’ati va tarixini ilmiy o‘rganish va targ‘ib etish faoliyatini yuritmoqda.

1996 yil sentyabrda “Fransiya – O‘zbekiston” jamiyati va O‘rta Osiyoni o‘rganish fanlar instituti tomonidan “Temur merosi va uning jahonga yoyilishi” Dehlidan Istambulgacha va boshqa mavzularda kollokvium o‘tkazdi. O‘tgan kollokviumda 10 dan ortiq mamalakat olimlari ishtirok etdilar. Unda Temur faoliyatiga boho berilar ekan, uning nafaqat jahon islom madaniyati rivojlaninishiga balki Temur davri madaniyatini yaratilishida tutgan o‘rni ta’kidlab o‘tildi.

Bundan tashqari 2004 yildan jahon tibbiyotiga munosib hissa qo‘shgan O‘rta Osiyolik alloma Abu Ali ibn Sino ilmiy merosini o‘rganish va uning targ‘iboti bilan shug‘ullanadigan “Avitsenna-Fransiya” assosiatsiyasi foliyat olib bormoqda[13]. Bularning barchasi Fransiyada Markaziy Osiyo tarixiga qiziqishlari naqadar ulkanligidan dalolatdir.

Temuriylar davri tarixi va madaniyatini o‘rganish fransuz assotsiatsiyasi bosh kotibi Frederik Bressan xonim 1997 yilda o‘zining “Samarqandning moviy oltini” deb nomlangan ajoyib suratlar bilan bezatilgan albomining keng jamoatchilikka xavola etgan. Nashr taqdimotida olima “dunyoda ikkita nurafshon va olamga mashhur bo‘lsa bularning biri – Parij, ikkinchisi – Samarqand” degan edi. 2003 yilda uning “Maxobatli Samarqand” deb nomlangan kitobi ikkinchi marta bosmadan chiqdi.

oshkentda 2002 yil 24 may kuni Fanlar akademiyasi ijtimoiy-gumanitar yo‘nalishidagi ilmiy-tadqiqot institutlari va oliy o‘quv yurtlari yosh tadqiqotchilarining fransuz tarixchisi Fransua Eno bilan uchrashuvi bo‘lib

o‘tdi[14]. Fanlar akademiyasi Tarix instituti, Yosh olimlar milliy jamiyati hamda Markaziy Osiyoni o‘rganish Fransiya ilmiy-tadqiqot instituti tashabbusi bilan tashkil etilgan mazkur uchrashuv Parijda chop etilgan uch jildlik “O‘rta asrlarda (X-XV) musulmon olami” kitobining taqdimotiga big‘ishlandi. Fransua Eno yig‘ilganlarga ushbu kitob haqida ma’lumot berar ekan, unda X-XV asrlarda musulmon dunyosining davlatchilik asoslari va ijtimoiy-madaniy hayotidagi o‘ziga xos rivojlanish tamoyillariga alohida e’tibor qaratilganini ta’kidladi.

Ancha yillardan buyon ilmiy-tadqiqot ishlari olib borayotgan Fransua Eno ayni paytda Xorazmning XVIII-XIX asrlardagi ijtimoiy-iqtisodiy tarixini o‘rganish bilan shug‘ullanmoqda.

Hukumatimiz horijda yurtimiz tarixi va madaniyati bilan shug‘ullanib kelayotgan ko‘plab olim va adbiyotchilarni davlatimizning nufuzli mukofotlari bilan taqdirlab kelmoqda. Uning mantiqiy davomini 2018 yil 9 oktyabrda O‘zbekiston tarixi va madaniyatini o‘rganishga munosib hissa qo‘shgan Fransiyaning taniqli adabiyot va ilm-fan namoyondalari – yozuvchi Amin Maaluf, olimlar Frederik Bopertyui - Bressand xonim va Frans Grenelarga Samarqand shahri faxriy fuqarosi unvonini topshirilganligida ko‘rish mumkin[15].

Ulardan biri Amin Maaluf o‘zining “Samarqand” romani bilan o‘zbek kitobxonlariga yaxshi tanish bo‘lib, uning romani o‘zbek tilida 2003 yil “Jahon adabiyoti” jurnalining 6-7, 2005 yilning 7-8 sonlarida chop etilgan. Romanda shoir va faylasuf Umar Xayyomning Samarqanddagi hayoti, XI asrdagi ijtimoiy – siyosiy hayot talqini aks etgan[16]. Bu albatta bir tomondan Fransiyada Sharq tarixga qiziqish juda katta ekanligidan dalolat bersa, ikkinchidan ularning O‘zbekiston Prezidenti Sh.M.Mirziyoev tomonidan rag‘batlantirilishi xorij olimlarini yanada katta qiziqish bilan vatanimiz tarixi va madaniyatini o‘rganishga hamda xalqaro hamjamiyatga yanada kengroq targ‘ib etishda katta turtki bo‘lishi, shubhasiz.

Xulosa qilib aytganda Amir Temur va uning avlodlari Yevropa mamlakatlari bilan madaniy, ilmiy va iqtisodiy sohalarda keng ko‘lamli hamkorlik aloqalarini olib borgan. Ayniqsa, savdoni rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash hamda ekin maydonlarini kengaytirish yo‘li bilan o‘z saltanati farovonligi va qudratini mustahkamlagan. Sharq va G‘arbni bog‘lovchi barcha yo‘llar davlat tomonidan qattiq nazorat qilingan va ularning xavfsizligi to‘la ta’minlangan. Oradan olti asr o‘tgach yana

hamkorlik aloqalari yangi formatlarda qayta tiklanib, rivojlanish pallasiga ko‘tarilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Rui Gonzales de Klavixo. Samarqandga – Amir Temur saroyiga sayohat kundaligi (1403-1406 yillar). Tarj. O. Tog‘aev. – T.: O‘zbekiston, 2010. – B. 6-7.
2. Mirziyoev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. T. 2. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2018. – B. 282.
3. MID RUz // Sel i zadachi vneshnepoliticheskogo kursa Uzbekistana. http: // www.mfa.uz. Data obraщeniya: 13.11.22.
4. Lyusen Karen: “Men o‘z umrimni Temuriylar merosini o‘rganishga bag‘ishladim” // Xalq so‘zi. – 2007. – 10 aprel.
5. Ermatov B. G‘arbiy Yevropa mamlakatlari adabiyotlarida Amir Temur siymosi: sarchashmalar va tasavvurlar // Fuqorolik jamiyati. 2019. №1. – B. 32-36.
6. Uzoq muddatli hamkorlikni yanada kengaytirish va mustahkamlash yo‘lida // Xalq so‘zi. – 2018. – 10 oktyabr.
7. Mirziyoev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. T. 2. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2018. – B. 288.
8. Muxammadjonov A. O‘zbekiston tarixi. Sharq nashriyot – matbaa aksiyadorlik kompaniyasi. Toshkent. 2009. – B.71; Lisitsiskaya O.Proniknovenie katolichestva v Sentralnuyu Aziyu v protsesse rasprostraneniya xristianstva v srednie veka. // 2003., № 3, - S. 17.
9. Karen L., Saidov A. “Amir Temur va Fransiya”. – T.: “Adolat”, 2016. – 560 b.

AMIR TEMUR – ILM-FAN HOMIYSI

Ishmatova N.M.,
Toshkent “Temurbeklar maktabi” harbiy-akademik litseyi o‘qituvchisi

Jahon tarixida o‘z davrining buyuk shaxslari, allomalari, donishmandlari-yu podshohlari o‘tgan. Ularning ba’zilari harbiy strategiyada, ba’zilari siyosatda, ba’zilari esa ilm-fan, madaniyat va me’morchilikni rivojlantirishda o‘z izlarini qoldirganlar. Ana shunday buyuk shaxslar qatorida Amir Temur alohida o‘rin tutadi. U o‘z davrida yengilmas harbiy sarkarda bo‘lish bilan birga, ilm-fan, madaniyat va me’morchilikka ham homiylik qilib, bu sohalarning gullab-yashnashiga hissa qo‘shgan.

Amir Temur 7 yoshidan ilm olishni boshlaydi. Yosh bo‘lishiga qaramay, uning ilmga muhabbati va o‘tkir zehni ta’lim jarayonida yaqqol ko‘zga tashlanadi. U yosh bolalik paytidan boshlab o‘zining dovyurak, mard, jasurligi bilan omma e’tiboriga tushadi. Jang san’atini mukammal egallaydi. Qur’oni

Karimni yod oladi va hadis ilmini o‘rganadi. O‘sha davr tarixchlari, Amir Temur she’riyat, tarix, matematika, astranomiya, me’morchilik borasida o‘ta salohiyatli ekanligini va mahoratli shaxmatchi bo‘lganligini qayd etgan. O‘z ona tilidan tashqari fors va mo‘g‘ul tillarini yaxshi bilgan.

Badiiy adabiyotga, xususan, she’riyatga doimo qiziqib, uning sehrli olamidan bahramand bo‘lgan. Amir Temur she’r yozishga rag‘bat bildirmagan bo‘lsa hamki, she’rni nozik tushungan va badiiy so‘z qadriga yetgan. U hamisha, hamma yerda ilm-fan va adabiyotning homiysi sifatida ijodkorlarni qo‘llab-quvvatlagan hamda kerakli paytda she’riyat durdonalaridan nuktadonlik bilan istifoda etgan.

Amir Temur ilm-fan rivojiga katta hissa qo‘shgan buyuk shaxs edi. Uning faoliyati O‘zbekiston va butun dunyo ilm-faniga salmoqli ta’sir ko‘rsatdi. Uning ilm-fan homiysi sifatidagi faoliyati quyidagi jihatlar bilan ajralib turadi:

– Ilmiy muassasalarni qurdirish;

– Olimlarga homiylik qilish;

– Ilmiy tadqiqotlarni qo‘llab-quvvatlash.

Amir Temur davrida ko‘plab kutubxonalar qurildi va mavjud kutubxonalar boyitilib, kengaytirildi. Ularning eng mashhurlari Samarqanddagi Mirzo Ulug‘bek kutubxonasi va Buxorodagi Mirzo Abdulazizxon kutubxonasi edi. Bu kutubxonalarda turli sohalardagi kitoblar to‘plangan bo‘lib, ular ilm-fan rivojiga katta hissa qo‘shdi.

Amir Temur davrida va undan keyingi davrlarda Samarqandda Mirzo Ulug‘bek tomonidan qurilgan rasadxona ilm-fan tarixida muhim o‘rin egallaydi. Bu rasadxona o‘sha davrning eng yirik ilmiy markazlaridan biri bo‘lib, unda astronomiya, matematika, fizika kabi fanlar bo‘yicha tadqiqotlar olib borildi.

Tarixchi olim G.A. Hidoyatov shunday fikrlarni aytadi: ”Samarqandda barpo etilgan Ulug‘bek rasadxonasi ulkan madaniy yutuq bo‘lgan ediki, jihozi va ilmiy yutuqlari jihatidan unga teng keladigan rasadxona o‘sha davrda ham, undan ancha keyin ham yaratilmadi.[1”] (G.A. Hidoyatov, “Mening jonajon tarixim”, 184-bet)

Amir Temurning ilm-fan homiysi sifatidagi xizmatlari tahsinga loyiqdir. U ilmning qadriga yetadigan, uni rivojlantirishga astoydil bel bog‘lagan, dunyoning eng yetuk olimlari, tarixchilari bilan bemalol bahslasha oladigan donishmand va o‘z zamonasining uquvli hukmdorlaridan edi. Odatda u tibbiyot, riyoziyot, falakiyot, tarix, adabiyot, tilshunoslik ilmi namoyandalari,

shuningdek, ilohiyot va din sohasidagi mashhur ulamolar bilan suhbatlar o‘tkazib turgan. Davlat ahamiyatiga ega bo‘lgan har bir masalani hal etishda, shu sohaning bilimdonlari va ulamolari bilan maslahatlashgan. U iste’dodli bo‘lgan barcha kishilar bilan suhbatlashish uchun ko‘pincha taxtdan tushib, ularning yoniga kelgan. Fikrimizning isboti sifatida tarixchi ibn Arabshohning quyidagi fikrlarini qayd etish mumkin: “Temur olimlarga mehribon bo‘lib, sayyid-u shariflarni o‘ziga yaqin tutar edi. Ulamolar va fozillarga to‘la- to‘kis izzat ko‘rsatib, ularni har qanday kimsadan batamom muqaddam ko‘rardi. Ularning har birini o‘z martabasiga qo‘yib, o‘z ikrom-u hurmatini unga izhor etardi[2]” (Ibn Arabshoh, Amir Temur tarixi, 2-kitob, 71-bet).

Buyuk arab faylasufi ibn Xaldunning ta’kidlashicha, Amir Temur turk, arab, fors xalqlari tarixini chuqur o‘rgangan; diniy, dunyoviy va falsafiy bilimlarning eng murakkab jihatlarigacha yaxshi o‘zlashtira olgan zot bo‘lgan ekan.

Temur ilm ahllariga homiylik qilgan, o‘z davlatining iqtisodiy tomonidan mustahkamlash hamda obodonchiligini yuksaltirish yo‘lida ularga suyanib ish tutgan. Bu borada mashhur tarixchi Sharafiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma” asarida keltirilgan Temur tomonidan Boilkan shahrida olim-u fuzalolar kengashini chaqirtirganligi haqidagi ma’lumoti diqqatga sazovordir. Bu kengashda Amir Temur nutq so‘zlab, jumladan, quyidagilarni aytgan: “ Fan va dinning mashhur kishilari o‘z maslahatlari bilan podshohlarga yordam berib kelganlar. Sizlar esa menga nisatan bunday qilmayabsizlar. Mening maqsadim, mamlakatda adolat o‘rnatish, tartib va tinchlikni mustahkamlash, fuqaroning turmushini yaxshilash, yurtimizda qurilishni kuchaytirish, davlatimizni rivojlantirishdir. Sizlar bu ishlarni amalga oshirishda menga o‘z maslahatlaringiz bilan ko‘maklashishingiz kerak… Agar oldin bizning diqqat-e’tiborimizda o‘zga mamlakatlarni ishg‘ol qilish uchun bo‘lgan harbiy yurishlar turgan bo‘lsa, endilikda mamlakatda xotirjamlik o‘rnatishga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirish bosh vazifamizdir. Bu oliyjanob ishda menga yordam berishlaringizni iltimos qilaman[3]”. (Naim Norqulov. Temuriylar davri madaniyati tarixidan lavhalar – U.: Xorazm nashriyoti,1996, 11-bet)

Amir Temur saroyida ulamolardan: mavlono Abdujabbor Xorazmiy, mavlono Shamsuddin Munshi, mavlono Bahruddin Ahmad, mavlono No‘monuddin Xorazmiy, mavlono Alouddin Koshiy, Jalol Xokiy va boshqalar xizmat qilganligi ko‘p manbalarda keltirilgan.

Amir Temur davlatida, xususan, uning poytaxti bo‘lmish Samarqandda ijodkor insonlar yashashi va ijod qilishi uchun barcha moddiy-maishiy sharoitlar yaratilgan ekanki, jahonning turli joylaridan olim-u fuzalolar, muhandislar va hunarmandlar bu yerga oqib kela boshlagan.

Ilm va madaniyatga bo‘lgan bunday munosabatni Sohibqiron umrining oxirigacha saqlab qoldi. Bu yo‘ldan uning avlodlari ham yurdilar. Natijada temuriylar zamonida ko‘plab madrasalar, kutubxonalar, maktablar barpo etildi. Ularda o‘qish va o‘qitish uchun dunyoning turli burchaklarida yetuk olimlar taklif etildi, jalb qilindi. Bu ishlarning samarasi o‘laroq, XIV-XV asrda o‘lkamizda yana bir ilm-fanning rivojlanish bosqichi – Ikkinchi Renessans amalga oshirildi. Shu sababli Amir Temurni hech ikkilanmasdan, temuriylar renessansining tamal toshini qo‘ygan shaxs sifatida ko‘rsatsak bo‘ladi.

Temur va uning avlodlari davrida ilm-fan rivojining dovrug‘i olamga yoyiladi. XIV asrning o‘rtalarida Qozizoda Rumiy Turkiyaning Bursa shahridan o‘z ixtiyori bilan Samarqandga kelib, tahsil olganligi va faoliyat yuritganligini misol qilishimiz mumkin. Bundan ko‘zlangan asosiy maqsad: ilmli insonlarni ko‘paytirish va mamlakatni har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan edi.

Amir Temurdan keyin ham ilm-fan sohasida uning avlodlari tomonidan juda ko‘p kashfiyotlar va yangiliklar yaratildi. Masalan, Mirzo Ulug‘bek hukmronligi davrida Samarqandda rasadxona; Buxoroda, G‘ijduvonda va Samarqandda madrasalar qurildi va birinchi akademiyaga asos solindi.Yana qo‘shimcha qilib aytadigan bo‘lsak, Zahiriddin Muhammad Bobur 20 yoshida “Xatti Boburiy”ni kashf qildi.

Husayn Boyqaro turkiy tilda asarlar yozish haqida maxsus farmon chiqarganki, she’riyat ilmida fors-tojik tili yetakchilik qilib turgan bir paytda Boyqaroning farmoni ilm ahli uchun favqulodda katta ahamiyatga ega bo‘lgan hodisa hisoblangan. Bu, albatta, temuriy shahzodalar ham o‘ta bilimli bo‘lganligini yaqqol ko‘rsatib turibdi.

Ta’kidlash joiz, olim-u ulamolar Amir Temur saltanatida katta hurmatga va mavqega ega ijtimoiy qatlamga aylangan ediki, bu Movarounnahr va Xurosonda Ikkinchi islom Uyg‘onish davrini yuzaga chiqardi. Samarqand, Kesh, Buxoro, Hirot va boshqa shaharlarning ma’rifat va ilm fan markazlariga aylanishiga olib keldi. Buyuk ipak yo‘li bo‘ylab xalqaro savdo va madaniy aloqalar tiklandi, ilm-fanning turli sohalaridagi hamkorlik yo‘lga qo‘yildi, qo‘shni va uzoq mamlakatlar bilan elchilik munosabatlari o‘rnatildi. Bu

o‘zgarishlar zamirida Amir Temur asos solgan va ko‘plab temuriy hukmdorlar davom ettirgan ilm-fanga, madaniyat va san’atga, maorifga e’tibor, ularga homiylikka yo‘naltirilgan davlat siyosati muhim ahamiyatga ega bo‘lgan. Ulkan saltanatning turli hududlaridan Samarqandga kelgan olim-u ulamolar ijodi, ularning ilm-u fanning turli sohalarida olib borgan ilmiy faoliyatlari qadimiy Turon o‘lkasida yangi renessans davrini yuzaga kelishida asosiy o‘rin tutdi.

Dunyo tarixidan ma’lumki, ilm-fan taraqqiyoti katta sarmoya va davlat homiyligini talab etadi. Buni ma’rifatli hukmdor Amir Temur teran anglagani bois ulkan saltanatning barcha hududlarida ahli ilm, ahli ijodga homiylikni davlat siyosati darajasiga chiqardi. Bu siyosat natijasida Islom dunyosining intellektual salohiyati Turon poytaxti Samarqandga va boshqa shaharlarga oqib kela boshladi. Olimlar jamiyatning nufuzli ijtimoiy qatlamiga aylandi. Ularning yashashi va ilmiy faoliyat bilan shug‘ullanishlari uchun barcha shart-sharoitlar yaratildi

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, Amir Temur o‘z davrida ilm-fan, madaniyat va me’morchilikni rivojlantirishga katta hissa qo‘shganligi bilan tarixda o‘z o‘rnini egalladi. Uning faoliyati jamiyat va madaniyat rivojiga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi va keyingi avlodlar uchun namuna bo‘lib qoldi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hidoyatov G.A. “Mening jonajon tarixim”, 184-bet.

2.Ibn Arabshoh, Amir Temur tarixi, 2-kitob, 71-bet.

3.Naim Norqulov. Temuriylar davri madaniyati tarixidan lavhalar – U.: Xorazm nashriyoti,1996, 11-bet

SOHIBQIRON AMIR TEMUR DAVRIDA SUG‘ORISH VA BOG‘DORCHILIK MADANIYATI

Jurayev S.S.

O‘z FA Temuriylar tarixi davlat muzeyi metodisti.

Yangi O‘zbekistonda vatan tarixini o‘rganish, buyuk davlatlar qurgan ajdodlarimizning boy tarixiy tajribalarini yuzaga chiqarish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Vatanimiz va dunyo tarixida nafaqat harbiy yurishlari, buyuk davlat barpo etgan hukmdor, balki Movarounnahr zaminida va dunyoning ko‘plab hududlarida masjidlar, madrasalar, yangidan yangi shahar-u qishloqlar barpo etgan bunyodkor hukmdor sifatida ham nom qoldirgan. Sohibqiron Amir Temur tomonidan Samarqand atroflarida barpo etilgan bir qancha bog‘lar hozirgi kunga qadar dunyo ilm-fan jamoatchiligini hayratga solib kelmoqda.

Ushbu davrda dunyoning turli hududlaridan poytaxt Samarqandga olib kelingan usta-yu hunarmandlar mahalliy usta-quruvchilar, hunarmandlar bilan hamkorlikda ishlab, mo‘jizaviy go‘zal bog‘larni qurishgan. Hozirgi ekologik muammolar chuqurlashgan zamonda ajdodlarimiz tomonidan qurilgan bog‘lar va ularning tajribalarini o‘rganib, hayotga tatbiq etish yanada dolzarblik kasb etmoqda. Temuriylar saltanati asoschisi Amir Temur nafaqat mohir sarkarda balki yirik bunyodkor shaxs sifatida ham tarix zarvaraqlaridan munosib o‘rin egallagan. Bunga Amir Temur tomonidan nafaqat Movarounnahr, balki dunyoning boshqa ko‘plab mamlakatlarida amalga oshirilgan qurilish va obodonchilik ishlari misol bo‘la oladi. Qadimiy Samarqand mo‘g‘ul bosqinchilari istilosidan so‘ng (150 yil) Amir Temur tomonidan qayta bunyod etilib, dunyoning yirik iqtisodiy, madaniy markazlaridan biriga aylandi. Bunda Temur va uning vorislari davrida qurilgan yirik sug‘orish inshoatlari kanal va ariqlar, suv omborlarining o‘rni beqiyos.“ Temur tuzuklari” da “kimki biron sahroni obod qilsa, yoki koriz qursa, yo biron bog‘ ko‘kartirsa, yoxud biron xarob yotgan yerni obod qilsa, birinchi yili undan hech narsa olmasinlar, uchinchi yili (esa oliq-soliq) qonun qoidaga muvofiq xiroj yig‘ilsin” deb bayon etgani ham uning obodonlashtirishga qay darajada e’tibor qaratganligiga guvoh bo‘lish mumkin [1.37-b].

Amir Temur va Temuriylar davrida barpo etilgan bog‘lar hamda qayta tiklangan ko‘plab suv inshootlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni tarixchilar Hofizi Abruning “Geografiya” va “Zubdat at-tavorix”, Sharofiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma”, Nizomiddin Shomiyning “Zafarnoma”, Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma”, Herman Vamberining “Buxoro yoxud Movarounnahr tarixi” kabi qator o‘nlab tarixiy asarlarida uchratish mumkin. Xususan, XV asrda yashagan tarixchi Hofizi Abru Ko‘hak (Zarafshon) daryosidan qazib chiqarilgan va Zarafshon vohasini suv bilan ta’min etadigan Qutlig‘ Xonim, Shayx Ali, Umar Tiobon, Dilikusho, Ganchxona, Ganchravon, Shayx Abu Said kabi ko‘plab kanal hamda ariqlar to‘g‘risida ma’lumotlarni yozib qoldirgan [2.44-b]. Zaxiriddin Muxammad Boburning yozishicha: Ko‘hak daryosidan chiqarilgan Darg‘om kanali Samarqanddan ikki kilometr chamasi janubdan oqib o‘tgan. Samarqandning bog‘lari, ularning atrofi va ba’zi bir tumanliklar shu darg‘omdan suv ichgan” [5.44-b].

Zaxiriddin Muxammad Bobur o‘zining “Boburnoma” asarida Samarqandning sug‘orish manbalari haqida ham ma’lumot berib o‘tgan: «Sharqi Farg‘ona va Koshg‘ar, g‘arbi Buxoro va Xorazm, shimoli Toshkand va

Shohruxiyakim Shosh va Banokat bitirlar, janubi Balx va Tirmiz, Ko‘hak suyi shimolidin oqar, Samarqanddin ikki kuruh bo‘lg‘ay. Bu suy bila Samarqand orasida bir pushta tushubtur, Ko‘hak derlar. Bu rud muning tubidii oqar uchun Ko‘hak suyi derlar. Bu suvdin bir ulug‘rud ayiribturlar, balki daryochadur, Darg‘am suyi derlar, Samarqandning janubidin oqar, Samarqanddin bir shar’iy bo‘lg‘oy. Samarqandning bag‘ot va mahalloti va yana necha tumonoti bu suv bila ma’murdur [6-48-b]. Sohibqiron «Tuzuk»larida ko‘rsatilishicha, Sohibqiron davlatni boshqarishda kengash, maslahat hamda tadbirkorlikka katta ahamiyat bergan. «Davlat ishlarining to‘qqiz ulushi kengash, tadbir va mashvarat, qolgan bir ulushi esa qilichdir», – deyiladi uning birinchi maqolasida. Amir Temur barpo etgan davlatning ikkinchi vaziri – qo‘shinlar vaziri bo‘lib, u askarlar (sipohiy)ga beriladigan maosh, xizmat evaziga beriladigan yer-suv yoki boshqa mulkni idora qilgan.

Amir Temur va temuriylar davri hududda bog‘dorchilik taraqqiyotida juda muhim bosqich hisoblanadi. Amir Temur o‘z davrining eng qudratli imperiyasini barpo etib, o‘z shaharlari – Samarqand, Shahrisabz, Hirot va boshqalarning tashqi qiyofasi va obodligiga alohida e’tibor qaratgan.

Amir Temur davriga kelib mo‘g‘ullar bosqini tufayli vayron bo‘lgan ko‘plab sug‘orish inshoatlari qayta tiklanishi hamda xo‘jalik sohasida amalga oshirilgan oqilona islohotlar natijasida poytaxt Samarqandda va butun mamlakat miqyosida boshqa sohalarda bo‘lgani kabi bog‘dorchilik madaniyati ham nihoyatda rivojlangan. Amir Temur tashabbusi bilan Samarqand va uning atrofida rahnamoligida 12 ta bog‘, jumladan, Bog‘i Naqshi jahon, Bog‘i Behisht, Bog‘i amirzoda Shohruh, Bog‘i Dilkusho, Bog‘i Shamol, Bog‘i Davlatobod, Bog‘i Bo‘ldi, Bog‘i maydon, Bog‘i Baland, Bog‘i Chinor, Bog‘i jahonnumo, Bog‘i Nav nomlari bilan mashhur qurilgan. Mazkur bog‘larni barpo etishda tanlangan yerni bahavoligiga, baland-pastligiga, suv manbaini oz-ko‘pligiga va tabiatning xususiyatlariga alohida e’tibor qaratilgan. Bog‘lar Amir Temur va temuriylar davrida saroy hamda shahar me’morchiligining muhim qismiga aylandi. Bu haqdagi qaydlar Lui Gonzales de Klavixoning «Amir Temur saroyiga sayohat kundaligi», tarixchi Sharofiddin Ali Yazdiy va Ibn Arabshohning asarlari, Zahiriddin Bobur kundaliklari va boshqa tarixiy qo‘lyozmalarda saqlanib qolgan. Ularda Amir Temur va Temuriylar bog‘larining nomlari va tafsilotlari, zodagon va boy shaharliklarning xususiy bog‘lari haqidagi qaydlar, XIV – XV asrlarda masjidlar, xonaqohlar va boshqa jamoat inshootlari qoshida barpo etilgan bog‘lar to‘g‘risidagi ma’lumotlar

saqlanib qolgan. Bog‘lar odatda begonalar uchun yopiq bo‘lgan. Biroq buyuk sarkarda o‘zining uzoq yurishlari vaqtida Samarqand aholisi va mehmonlariga uning bog‘lariga erkin tashrif buyurishiga ruxsat bergan.

Samarqand bog‘lari ikki xil usulda, ya’ni geometrik shaklda tashkil topgan tartibli (inson o‘zi istagan to‘rtburchak, to‘g‘ri to‘rtburchak kabi shakllarda yaratilgan bog‘lar) va tabiat manzaralari asosida tashkil topgan (tabiiy manzaraga ba’zi bir tuzatishlar kiritilgan holda yaratilgan) bog‘lardan iborat bo‘lgan [3.91-95-b]. Amir Temur bog‘larida bir qancha saroylar, elchilar va nufuzli mehmonlar uchun qabulxonalar joylashgan bo‘lib, ularning atrofida doimiy oqib turadigan ariq va kanallar, bir qancha hovuz hamda favvoralar o‘rin olgan. Hovuzlar chetida qator ekilgan majnuntollar bog‘larga o‘zgacha ko‘rk bag‘ishlagan. 1403 yil Samarqandga kelgan Ispan elchisi Klavixo Bog‘i Dilkusho haqida quyidagilarni yozib qoldirgan: “...podsho maxsus qo‘yilgan baland o‘rindiqda o‘ltirar va uning oldida suvi tepaga otilib turgan favvora bo‘lib, fantanda qizil olmalar qalqib turardi ” [4.53-b].

Samarqand bog‘larida turli mintaqalardan keltirilgan har xil turdagi gullar, dorivor o‘simliklar va ko‘katlar uchun alohida maxsus joylar ajratilgan. Bundan tashqari, bog‘larga husun baxsh etib turgan manzarali daraxtlardan tashqari, mevali daraxtlar parvarish qilinganligi haqida tarixiy manbalarda qayd etilgan. Xususan, XV asr tarixchisi Sharafiddin Ali Yazdiy, Dilkusho bog‘ida juda ko‘p xilma-xil mevalar yetishtirilganligi to‘g‘risida yozib, ulardan eng yaxshilarining nomlarini eslatib o‘tgan. Bular jumlasiga olma (sebi surx, gulobi, abadi, ashkuvona, qamzak), o‘rik (arusak, ma’muri), shaftoli (xossai dona shirin), olxo‘ri (olisurx), tut (tuti bedona), anor (anori huqqa), nok (muntaqid, sharbati, naboti), pista (pistai dahanboz) kabi mevali daraxtlar kiradi. Shuningdek, Sharafiddin Ali Yazdiy shu bog‘da uzumning shakaranbur, sohibi, husayniy, la’li yakdona kabi navlari bo‘lganligini eslatadi [4.55-b]. Biz Nizomiddin Shomiy, ibn Arabshoh, Sharafiddin Ali Yazdiy, Ibn Arabshoh, Rui Gonzales de Klavixo va boshqa manbalar orqali ham Zarafshon vohasi, xususan Samarqandning qishloq xo‘jaligi ekinlari, mevazorlari, poliz va don-dun ekinlari, uzumzorlari, issiqxonalari, bog‘lari, yersuvlari va boshqa ko‘plab obod hududlari haqida ma’lumotlarga ega bo‘lamiz.

Bog‘larda sayr qilib yurgan ohular, tustovuqlar hovuz suvlarida suzib yurgan o‘rdak va g‘ozlar, baliqlar bog‘ning ko‘rkiga ko‘rk qo‘shgan. Ular ov qilish uchun emas, balki, bezak sifatida saqlangan. Hatto Bog‘i Biheshtda hayvonot bog‘i bo‘lganligi to‘g‘risida ma’lumotlar bor [7.54-b]. Tarixchi Ibn

Arabshoh yozib qoldirgan ma’lumotlarga ko‘ra: “Samarqandda bog‘dorchilikning nihoyat darajada rivoj topishining sababi shuki, Sohibqironning o‘zi ham payvand solish va ko‘chat o‘tqazishga nihotyada qiziqqan bunyodkor shaxs bo‘lgan.

Amir Temur va Temuriylar davridagi O‘rta Osiyo bog‘dorchilik san’atining zamirida yer egalarining ko‘p asrlik tajribasi va O‘rta Osiyo va qadimgi Eronning bog‘dorchilik va sug‘orish an’analari bilan bog‘liq tajribalari yotadi. Oddiy dehqonlar o‘z tajribalari asosida yerga ishlov berish va har xil turdagi o‘simlik hamda daraxtlarni o‘stirish sirlarini o‘rgangan va ularni avloddan avlodga yetkazganlar, olimlar tomonidan esa to‘plangan, tizimlashtirilgan va ilmiy risolalarda qayd etilgan.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, Sohibqiron davrida Markaziy Osiyo sug‘orish va bog‘dorchilik madaniyatida katta o‘zgarishlar ro‘y berganiga tarixning o‘z holis guvohdir. Sug‘orish va bog‘dorchilik an’analari temuriylar davrida yanada taraqqiy qildi. Ushbu davr sug‘orish va bog‘dorchilik tarixini o‘rganish orqali qishloq xo‘jaligi va ko‘kalamzorlashtirish sohasida ko‘plab muammolar yechimi topilishi mumkin. Temuriy hukmdorlarning ham ushbu sohalarda mohir bo‘lganliklari esa zamonaviy boshqaruv sohasida tarixiy tajriba sifatida talqin etish mumkin bo‘lgan ilmiy jihatlardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1.. Amir Temur o‘gitlari T.: “Navro‘z” 1992.

2. “Amir Temur va uning jahon tarixida tutgan o‘rni ” mazusidagi xalqaro konferensiya materiallari. T.: “O‘zbekiston” 1996.

3. Alimov O‘. O‘rta asrlarda Movarounnahrda bog‘dorchilik xo‘jaligi tarixi. 1984.

4. Amir Temur saboqlari. “Amir Temur va inson manfaatlari” mavzuida o‘tkazilgan xalqaro ilmiy konferensiya materiallari T.: 1997. “Sharq”. 1998.

5. Bobur. Boburnoma, T.: “Yulduzcha” 1989.

6. Iskandarov Sh.A. O‘zbekiston arablari: an’analari va transformatsion jarayonlar T.: “Yangi nashr” 2017.

Norqulov N., Nizomiddinov I. Minatyura tarixidan lavhalar. T.: 1970

SOHIBQIRON AMIR TEMURNING HARBIY SAN'ATI

Kadirov M.B.,
Jamoat xavfsizlik universiteti professori,
falsafa *fanlari doktori*, dotsent**.**

Harbiy san'at tarixi Sohibqiron Amir Temurni haqli ravishda jahonning eng buyuk sarkardalaridan biri sifatida e'tirof etadi. Buyuk bobomizning harbiy iste'dodi asosan ikki yo'nalishda: mohir harbiy tashkilotchi va atoqli sarkarda sifatida yorqin namoyon bo'lgan.

Amir Temur tuzgan armiya o'ta intizomli bo'lib, sarkarda muhoraba chog'i qo'shin qismlarini san'atkorona boshqarishga, jang taqdiri hal bo'ladigan joylarga harbiy kuchlarni o'z vaqtida ustalik bilan yo'llashga, har qanday to'siq va g'ovni tadbirkorlik bilan oshib o'tishga, lashkarning jangovar ruhini zarur darajada saqlashga muyassar bo'lgan. Qo'shinlar tarkibi Movarounnahr, Dashti Qipchoq, Xuroson, Eron, Badaxshon, Mo'g'uliston, Xorazm, Mozandaron, Jata singari joylardan yig'ilgan askarlardan iborat edi. Qo'shin son jihatdan aniq va puxta tashkil qilinib, uning jangovar tartibi jangdan-jangga takomillashib borgan, armiya eng ilg'or qurol-aslahalar bilan qurollangan, qismlar bir-biridan kiyim-boshi, bayrog'i va tug'i bilan farqlangan. Bu jang paytida qo'shinni boshqarishda qo'l kelgan.

«Temur tuzuklari»da ta'kidlanishicha, safar chog'ida oddiy askarlarning har o'n sakkiztasiga bitta chodir berilgan. Har bir jangchi ikkita ot, yoy, sovut, qilich, juvoldiz, qop, o'nta nina, arra va teri xaltaga ega bo'lgan. Sara jangchilarning har beshtasi bir chodirga joylashgan. Ularning har biri dubulg'a, sovut, qilich, o'q-yoy, sadoq va buyruqda ko'rsatilgan miqdorda ot bilan ta'minlangan. Harbiy san'at sir-asrorini bilgan, dushman safini parokanda qilish yo'l-yo'rig'ini yaxshi egallagan, mushkul paytlarda dadil harakat qiladigan, hech qanday to'siqdan tap tortmaydigan, qo'shinda sodir bo'lishi ehtimoldan xoli bo'lmagan tartibsizlikni vaqtida bartaraf eta oladigan yovqur va mohir jangchilargina lashkarboshilikka qo'yilgan.

Sohibqiron Amir Temur o'z qo'shinining harbiy takomiliga katta e'tibor berib, "amir va amirul-umaro", ya'ni "bosh amir" kabi yuqori darajali harbiy unvonlar joriy etadi. Shu kabi oliy darajali unvonlarga ega bo'lgan iqtidorli sarkardalarga u hatto viloyat hokimligi yoki noibligini in'om etgan.

Lashkar "tuman" – o'n minglik, "hazora" – minglik, "qo'shun" – besh yuzlik va "ayl" – o'nlik birikmalarga bo'lingan. Tumanlarda askarlar soni o'n ming, qo'shinda yuz nafardan ortiq bo'lgan. Amir Temur o'n minglik uchun

“tuman og‘asi”, minglik bo‘linmalar uchun “mirihazora”, yuzliklar uchun “qo‘shunboshi” va o‘nliklar uchun “aylboshi” kabi harbiy mansablar ta’sis etgan, ularning haq-huquqi, maoshi belgilab berilgan.

Har viloyat asosiy – “asl” hamda zahira – “izofa” qismlarni to‘plab bergan. Viloyatlar tosh otar – sangandoz, devor buzuvchi — manjanaq, o‘t otar yoki to‘p – ra’dandoz va naftandoz hamda o‘zi otar qurollarni ishlata biladigan jangchilarni tayyorlar edi. Askariy qismlarni to‘plash bilan tavochi vazifasidagi amaldorlar shug‘ullangan.

Jangda bahodirlik ko‘rsatib g‘alaba qozongan amir uchun in’omlar ham belgilab qo‘yilgan. Qaysi amir biron qo‘shinni yengsa yoki viloyatni fath etsa, u tug‘, nog‘ora, bahodirlik martabasi, davlat kengashlariga kirish huquqi hamda biron sarhadning noibligi bilan siylangan. Har bir zobit jang qilish uslublarini yaxshi bilishi farz sanalgan. Oddiy navkar nizomni qat’iy bajarishga majbur bo‘lib, jangda u ayovsiz va dovyurak bo‘lishi, omonlik istagan dushmanga yumshoq muomala va adolatli bo‘lishi lozim edi.

Taktika jihatidan Amir Temur armiyasi qo‘shini yettita qism-kuchlarga bo‘lingan, razvedka a’lo darajada yo‘lga qo‘yilgan, qismlarning janggohda zarur darajada harakat qilishi uchun chora-tadbirlar ishlab chiqilgan, ularni jang chog‘ida boshqarishga alohida e’tibor qaratilgan. Qismlararo aloqa yuqori saviyada bo‘lishi, harbiy boshliqlarning to‘g‘ri tanlanganligi muhoraba natijasiga samarali ta’sir ko‘rsatgan.

Klavixoning ta’rifiga ko‘ra, temuriy lashkarboshi tinchlik chog‘ida zarhal ip bilan tikilgan havorang satin ko‘ylak kiygan. Uning boshida dur hamda boshqa qimmatbaho toshlar qadalgan bo‘rk bo‘lgan. Bo‘rkning ostidan uch qator qilib o‘rilgan ikki kokil yelkaga tushib turgan. Elchi bu yo‘sinda o‘rilgan sochlar Temurbek askarlarining nishoni ekanligini alohida qayd etadi.

Yurish oldidan Sohibqiron arkoni davlat, vazirlar, sarkardalar, amirzodalar, beklar va amirlarni harbiy kengash — mashvaratga to‘plagan, so‘ngra askar yig‘ish uchun maxsus buyruq e’lon qilingan, qismlar harbiy ko‘rikdan o‘tkazilgan. Amir Temurning harbiy san’at rivojiga qo‘shgan ulkan xizmatlaridan yana biri qo‘shin qanotlarini jang chog‘ida dushman hujumidan muhofaza qilish va, aksincha, g‘anim kuchlarini yon tomondan aylanib o‘tib, ortdan zarba berish maqsadida tuzilgan otliq qism — kanbulning joriy etilishidir.

Amir Temur qo‘shinini Jahongir Sayfuddin va Purhusayn barloslar, Oq Bug‘a, Usmon Abbos, Muhammad Sulton Qamariy, O‘rus Bug‘a, Hamza

Sulduz, Amir Murizoda, Muhammad Qazg‘on, Sariq Atka va Muzaffar Uch Qaro kabi janglarda shuhrat topgan mahoratli va jasur kishilar boshqargan.

Sohibqiron Amir Temur ana shu tarzda o‘z zamonining kuchli va eng jangovar lashkarini tashkil qilishga muvaffaq bo‘lgandi. Dushman mudofaasini mohirona yakson qilish, g‘animlarning yirik shaharlariga qo‘qqisdan zarba berish, mustahkam qal’a, qo‘rg‘on va hisorlarni uzoq muddat qamal qilish, yov kuchlarini iloji boricha keng ko‘lamda qurshovga olish, raqibni ta’qib qilish kabi strategik rejalarni ko‘zlab ish yuritish Sohibqironga faqat g‘alaba olib kelardi. Sohibqiron yaratgan qudratli armiya jahonning o‘sha vaqtdagi eng ilg‘or armiyasi sifatida tan olingani, keyinchalik ham buyuk sarkardalar, harbiy mutaxassislar tomonidan e’tirof etilgani, bir necha asrlar mobaynida ibrat va andoza vazifasini o‘tagani hamda harbiy san’at tarixi sifatida keng ko‘lamda o‘rganilgani bejiz emas.

Shubhasiz, bizning bugungi armiyamiz — Vatanimiz himoyachilari uchun ham buyuk bobomiz yaratgan armiya qo‘shinlarining yovqurligi, bahodir jangchilarning dovyurakligi chinakam ibrat timsolidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Temur tuziklari // forscha matndan Alihonto‘ra Sog‘uniy va H. Karamatov tarjimasi, izohlar muallifi B. Axmedov va A. Ahmedov. – T.: 2018.

3.Amir Temur jahon tarixida mas’ul muxarrir X. Karamatov. Mualliflar jamoasi. – T.: Sharq 2001. – 304 b.

4.UvatovU. Sohibqiron arab muarrixlari nigohida. – T.: Sharq. 1997. – 160 b.

AMIR TEMURNING MARKAZLASHGAN DAVLATGA ASOS SOLISHI:

Kamilov M.A.,

Jamoat xafsizligi universiteti katta o‘qituvchisi

Bu vaqtga kelib butun Movarounnahr yerlarida o‘zaro urushlar oqibatida ijtimoiy-iqtisodiy ahvol og`irlashib ketgan edi. Mana shunday bir vaqtda, mamlakatda o‘zaro urushlarga barham beradigan markazlashgan davlat tuzimini barpo etish nixoyatda zarur edi.

Buni birinchi bo‘lib anglagan Amir Temur Amir Xusaynga qarshi zimdan kurash olib bordi va 1370 yilda Movarounnahr taxtini egallashga muvaffaq bo‘ladi.

1366-1370 yillar oraligida Amir Temur o‘z e’tiborini ichki ishlarga qaratdi. Amir Xusayn va Amir Temur o‘rtasidagi ziddiyatlar 1370 yilda Xusaynning o‘ldirilishi va Amir Temurning taxtga o`tirishi bilan yakunlandi. Movarounnahrning amaldagi xoni Chingizxon avlodiga mansub bo‘lgan Suyurg‘otmish qo‘liga o`tdi.

Davlat boshqaruv tizimi esa Movarounnahr amiri nomini olgan Amir Temir ximoyasida qoldi, hamda Kesh shahridan Samarqandga ko`chib, uni o‘z davlatining poytaxtiga aylantirdi.

Amir Temurning Movarounnahrdagi birlashtirish siyosati boshlangan edi. U Amudaryo va Sirdaryo oralig`ida turgan yerlarni o‘ziga bo`ysundirib, o‘ziga itoat ettirdi. Fargona, Shosh viloyatlarini o‘z tasarrufiga kiritish unga qiyin bo`lmadi. Sirdaryoning quyi oqimidagi Oltin O‘rdaga qarashli yerlarni egallashda u bu yerlardagi ichki sulolaviy urushlardan foydalandi.

Amir Temur Xorazmni ham qaytadan Movarounnahrga kiritishga intildi. 1372 yilda Xusayn Sufi Amir Temurga boj to`lamasdan, buning ustiga Sohibqiron tomonidan yuborilgan elchiga shunday javob berdi: *«Men mamlakatni qilich bilan fatx etganman, shuning uchun ham uni faqat qilich bilan olish mumkin».*

Amir Temur Balx shahrida chaqirilgan qurultoyda Movarounnahrning amiri deb e’lon qilinadi. Temur o‘z tasarrufida markazlashgan davlatni yuzaga keltirish maqsadida Kesh shahridan Samarqandga ko`chib o`tib, uni Movarounnahrning poytaxtiga aylantiradi.

Sohibqiron xalqni zulmdan ozod qilish va markazlashgan davlat tuzish maqsadida asosini barlos urug‘lari tashkil etgan yengilmas va jangovor milliy qo‘shin tuzadi.

Temur davlat boshqaruvida, ichki va tashqi siyosatda asosan o‘z qo‘shinlariga suyanganligi sababli harbiy isloxotga, ya’ni qo‘shin boshliqlarini tanlash, lashkar qavmlar, ularning joylashishi, askarlarning qurollanishi va harbiy intizom masalalariga keng e’tibor bergan.

U qo‘shinlarini o`nlik, yuzlik, minglik kabi askariy birikmalarga bo‘lgan. Uning uchun xar bir askar jang qilish uslublarini yaxshi bilishi farz xisoblangan.

Amir Temur lashkarlarga ham katta e’tibor berib, ular nizomni qat’iy bajarishi, jangda ayovsiz va dovyurak bo‘lishi, dushmanga muomalali va adolatli bo‘lishi lozim deb xisoblardi.

Amir Temur doim jangda jasorat ko`rsatgan amirlar va askarlarga alohida e’tibor bilan qaradi. Natijada sohibqiron askarlari o‘rtasida intizomni

mustaxkamlash orqali o‘z davlatining poydevori bo‘lgan qo‘shin tuzishga muvaffaq bo‘ldi.

Amir Temurning harbiy yurishlari; Amir Temur Movarounnahr taxtini egallagan vaqtdan boshlab, o‘z davlati chegaralarini mumkin qadar kengaytirishga kirishadi. Shu maqsadda u Amudaryo va Sirdaryo oralig`idagi yerlarni o‘z tasarrufiga oladi.

Xorazmga besh marotaba yurish qiladi va faqat 1388 yilda uni butunlay bo`ysundiradi, bu yerda xukmronlik qilayotgan sufiylar sulolasini tugatadi.

Temur o‘zining uch yillik (1386-1388), besh yillik (1392-1398) va yetti yillik (1399-1405) yurishlari davomida Ozarbayjonda jaloyirlar, Sabzavorda sarbadorlar davlatini, Hirotda kurdlar davlatini tugatib, Eron va Xurosonni o‘z tasarrufiga oladi.

1394 - 1395 yillarda Oltin O‘rda xoni To`xtamishga qarshi yurish qilib, uning ko`p sonli qo‘shinini mag`lubiyatga uchratadi va Oltin O‘rda xududini egallaydi. Temurning bu g‘alabasi Oltin O‘rdaga juda katta zarba berish bilan birga Temur qo‘shinlarining Volga daryosi bo`ylarida bemalol yurishlariga ham keng yo‘l ochdi.

Ta’kidlash joizki, Temurning bu g‘alabalari tarix saxnasida ulkan ahamiyat kasb etdi.

Amir Temur 1398 yilda Xindistonga yurishida Dehli shahrini, 1400 yilda Suriyaga yurishida Xalab va Bayrut shaxarlarini, 1401 yilda Damashq shahrini egallaydi.

1402 yilda Usmoniylar imperiyasining sultoni Yildirim Boyazidga qarshi yurishida uni mag`lubiyatga uchratdi. Bu g‘alaba bilan Temur Yevropaning usmoniylar asoratiga tushishini yarim asr orqaga surib yubordi.

Temur 1404 yilda Kichik Osiyodan Samarkandga keladi va Xitoyga yurish uchun harbiy taraddud ko‘radi. Shubxasiz, Temur bu yurish uchun uzoq yillar tayyorlanib, jang uchun kerakli bo‘lgan ma’lumotlarni yillar davomida to`plagan edi.

1404 yilda Temur 200 minglik qo‘shin bilan Xitoy safariga otlandi. Ammo Temurning qattiq betobligi tufayli uning qo‘shinlari 1405 yilning yanvar oyida Xitoyga yaqin bo‘lgan chegara shaxar O‘tror shahrida to`xtaydilar va shu yerda 1405 yilning 18 fevralida buyuk sohibqiron Amir Temur vafot etadi.

Mamlakatning harbiy viloyatlari o‘rtancha o‘gli Mironshoxga, Balx viloyati katta o‘gli Jaxongir mirzoga, Xuroson kichik O‘gli Shoxrux mirzoga suyurgol etilgan. U nabiralariga ham suyurgol bergan. Jumladan, Kobul, Gazna, Kandaxor,

Xind yerlari Pirmuhammadga, Isfaxonni Umarshayxning o‘gli Rustamga, Bagdodni Mironshoxning o‘gli Abu-Bakrga suyurgol qiladi.

Asli xurosonlik yirik shayx bo‘lgan Zaynuddin Abubakr Toyobodiy Amir Temurga davlat boshqarish ishlarida kengash, xushyorlik extiyotkorlik amallariga rioya etishni maslaxat bergan.

Shuningdek Sayyid Baraka, Mir Sayyid Sharif Jurjoniy, Termiz sayyidlaridan Alaal mulk Abul Maoliy va Ali Akbarlarning Amir Temur Davlati dargoxlaridagi mashvaratu-kengashlarda faol ishtirok etganlaridan "Temur to‘zuklari" dalolat beradi.

Amir Temur davlatining parchalanishi; Buyuk Soxibqiron Xitoy sari katta harbiy yurishga tayyorgarlik arafasida, 1405 yilning 18 fevralida betoblanib vafot etdi. Bu shubhasiz, mamlakat uchun benihoya og‘ir yo‘qotish bo‘ldi.

Temuriy shahzodalar o‘rtasida toj-taxt talashib o‘zaro kurashlar avj oldi. Bu hol yurt tinchligi, fuqaro osoyishtaligining buzilishi, mamlakat parokandaligining kuchayishiga olib keddi.

Bir necha yil to‘xtovsiz davom etgan bunday besamar urush-nizolar natijasi o‘laroq, bir qancha temuriy shahzodalar, shu jumladan, valiahd Pirmuhammad intiqom topdi, qudratli saltanat larzaga keldi va u parchalanish sari yuz tutdi.

Chunki mamlakatda yuz bergan alg‘ov-dalg‘ovdan foydalangan ichki va tashqi dushman kuchlar, markazdan qochuvchi mahalliy beku-amirlar o‘zlarining bir yoqlama o‘zboshimcha xatti-harakatlari bilan markaziy davlatni ichdan qo‘porishga, o‘z hududlari mustaqilligini qo‘lga kiritishga intildilar.

Bunda agar temuriy shahzodalar egallagan hududlarni istisno qilganda ham, masalan, Turkiston, Sabron, O‘tror, Sayram amir Berdibek, O‘ratepa bilan Farg‘ona amir Xudoydod, Xorazm esa Oltin O‘rda amirlaridan Idiku O‘zbek tasarrufiga o‘tib qoladi.

Bunday og‘ir, murakkab bir tarixiy vaziyatda Sohibqironning kenja o‘g‘li Shohruh Mirzo katta kuch to‘plab, qat’iyat bilan harakat qilib, Xuroson va Movarounnahr yerlarini isyonkor kuchlar ta’siridan qutqarish, ularning birligi, yaxlitligini saqlashga, shahzodalar o‘rtasidagi ziddiyatlarni bartaraf etish va yumshatishga muvaffaq bo‘ladi.

Amir Temur vafotidan so‘ng toju-taxt uchun davom etgan 5 yillik urush yakun topib, 1409 yilning bahorida Shohruh Movarounnahrni to‘liq egallab, uni boshqarishni to‘ng‘ich o‘g‘li Ulug‘bek ixtiyoriga beradi.

O‘zi esa Hirotga qaytib, Xuroson davlatini idora qila boshlaydi. U otasi davlatining boshqa hududlarini ham o‘z o‘g‘illari va o‘ziga yaqin temuriy shahzodalarga bo‘lib beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Темур Тузуклари. Халқаро Амир Темур жамғармаси. “Шарқ” НМАК. Т.: 2005 йил. Б-92.
2. Марсель Брион. Мен ким, Соҳибқирон-Жаҳонгир Темур – Т., “Янги аср авлоди”. 2014. – Б. 21-22.
3. Бобир Бердиев. “Темур тузуклари”да жамият ижтимоий қатламларининг акс этиши. Ижтимоий фикр-инсон ҳуқуқлари. 2013 йил № 3. Б-115.
4. Ҳамдам Содиқов. Амир Темур салнатанида хавфсизлик хизмати. Т.: “ARTFLEX”. -2010йил. Б-9.
5. O‘zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. – T.: “O‘zbekiston” 2012.
6. Sog‘uniy A. Temur tuzuklari. – T.: Yangiyul Poligraph Service,2018y. – 160 b.

ПУТЕШЕСТВИЯ РУИ ГОНСАЛЕСА ДЕ КЛАВИХО В ГОСУДАРСТВЕ АМИРА ТЕМУРА

Каримов А.Т.
преподаватель истории,
Ташкентский ВАЛ «Темурбеклар мактаби» НГ РУзб.

По мере того, как империя, основанная Амиром Темуром, становилась одной из крупнейших держав мира своего времени, интерес к ней и стремление к сотрудничеству стали расти во всем мире. Это желание усилилось в период конфликта между Амиром Темуром и султаном Османской империей, а также после победы Темуридов в битве при Анкаре в июне 1402 года. Согласно историческим источникам, в 80-90-х годах XIV века слава государства Темуридов достигла европейских стран.

В конце XIV века европейские страны оказались в очень тяжелом положении. Понимая, что они не смогут адекватно отразить угрозу нападения турок-османов, короли Европы и Папа Римский обратили свое внимание на Восток, на Амира Темура. Интерес к его личности и

правлению возрос. Короли и Папа Римский начали переписываться с Амиром Темуром.

К Сахибкирану были отправлены послы и путешественники, и попытки привлечь его внимание усилились. Правители таких государств, как Франция, Испания, Генуя, Византия стремились установить политические и экономические (торговые) отношения с Амиром Темуром и регулярно направляли к нему своих послов. В частности, Генрих III де Трастамара, король одного из испанских королевств, Королевства Кастилия и Леон, серьезно интересовался государством Темуридов.[1]

В то время, когда, с одной стороны, над всей Европой нависла османская угроза, а с другой – обострялись конфликты между Темуридами и османами, естественным и историческим фактом было сближение и заключение союза между государством Амира Тимура и европейскими королевствами.

В 1402 году Амир Темур отправил Хаджу Мухаммеда кази в Кастилию с целью заключения союза против султана Баязида и развития экономических и торговых отношений.

Эти посольские отношения включали в себя не только торгово-экономические отношения, но и стратегические, дипломатические и отношения между великими державами, типичные для обстановки того времени.

В мае 1403 года Генрих III отправил Руи Гонсалеса де Клавихо (?-1412) в ответ на посольство Хаджи Мухаммеда кази, чтобы поздравить Амира Темура с победой в битве при Анкаре и углубить отношения с государством Темура во всех аспектах. Посольство Клавихо продолжалось до 1406 года. Его сопровождали Альфонсо Паес де Сайта Мария и Гомес де Салазар. Послы во главе с Клавихо, прибывшие в Самарканд через пятнадцать месяцев, находились в Самарканде в сентябре-ноябре 1404 года.

Кастильские послы, которые следовали из Самарканда вместе со всеми послами перед походом Амира Темура в Китай в ноябре 1404 года, вернулись на родину в марте 1406 года.

Путешествие Клавихо длилось 3 года (1403-1406). Свои впечатления от поездки он описал в произведениях «История Великого Тимура», «Резиденция Темура», «Дневник путешествия в Самарканд».

[1] Руи Гонсалес де Клавихо. Дневник путешествия в Самарканд ко двору Тимура (1403-1406). Перевод со староиспанского. Перевод, предисловие и комментарий И.С. Мироковой. -Москва: Наука, 1990. 211 с.

Дневники Клавихо состоят из двух частей, первая из которых содержит информацию о впечатлениях послов во время их путешествия в Самарканд, природе различных регионов и жизни их народов. Во второй части автор описывает встречи во дворце Тимура в Кеше и Самарканде. Де Клавихо предоставляет замечательную и уникальную информацию о стране, дворце, людях и их жизни.

Самым впечатляющим является то, что во время своего путешествия он искусно описывал мелкие детали события и происшествия во дворце Тимура, причем не только во дворце, но и в нашей стране, с учетом своих интересов. Из этого следует, что интерес к Темуру и империи Темуридов считался важным вопросом для западных стран.

Клавихо, которому удалось встретиться с Амиром Темуром в сентябре 1404 года, очень красочно описал это событие в своих дневниках. Встреча состоялась в саду Боги Дилкушо. В этот день, наряду с послами других стран, Амир Темур торжественно принял и испанских послов. Клавихо, доставивший письмо и подарки от испанского короля Амиру Темуру, в свою очередь получил письмо и подарки Темура из рук любимого внука Темура, 10-летнего Мухаммада Тарагая – Мирзо Улугбека.

Послам оказывается высокий уровень королевского уважения. Клавихо также принимает участие в ряде мероприятий, вечеринок и торжеств. В частности, 15 сентября также посетил роскошную свадьбу четверых внуков Амира Темура. Царицы и придворные Темуридов также устраивали банкеты в честь послов. Все эти события производят на послов огромное впечатление. Клавихо был довольным банкетом, организованной старшей жены Амира Темура Бибиханумом (Сароймулькханум) (1341-1408).

«Если проанализировать эту историческую информацию в целом, то, я думаю, ясно, что таких процессов, которые путешественник никогда не видел и не слышал нигде, не встретишь ни в одной из великих европейских стран... Причина в том, что именно скромность, почтение, роскошь, присущие восточным традициям, и именно атмосфера во дворце притягивали Клавихо, как магнит».

В своих дневниках Клавихо подробно и красочно описывает правление Тимура. В том числе: **О большой аллее и торговых рядах:** *«Ежегодно в городе Самарканде продаются товары из Китая, Индии,*

Татарстана (Золотой Орды) и других стран, а также из самого невероятно богатого Самаркандского султаната. До этого времени не существовало большой площади, где бы расставлялись рядами и продавались привезенные в город товары.

Правитель приказал построить улицу с рядами магазинов по обеим сторонам. Эта улица должна была начинаться с одного конца города и проходить через центр. Правитель поручил эту задачу своим двум эмирам (вероятно, двум своим эмирам - М.С.), и они трудились не покладая рук день и ночь. Дома, ближе к дороге, были разрушены, независимо от того, кому они принадлежали... По обеим сторонам улицы были расставлены магазины, а перед каждым магазином были поставлены высокие табуреты, покрытые мрамором.

Каждый магазин состоял из двух комнат. Верх улицы покрыт куполом с отверстиями, через которые проникает свет».[1]

Об Ордабазаре: (По случаю большой свадьбы) Правитель повелел: «Торговцам города Самарканда: менялам, торговцам драгоценностями и другими разными товарами, поварам, мясникам, пекарям, портным, сапожникам и всем прочим ремесленникам города выехать на открытое место, где находится царская орда, и разбить шатры для торговли. Каждый купец должен ездить по таборам и веселить народ играми и смехом».

После этого все купцы покинули город и поселились вокруг правительственной резиденции. «Каждый мастер выстраивался в отдельный ряд, устраивал игры и смех и обходил лагерь».[2]

О дворце Куксарай и находившейся там царской оружейной мастерской: «На окраине города стоял замок... окруженный рвом с проточной водой, замок превратился в неприступную крепость. Во дворце находилась королевская сокровищница, поэтому никто, кроме судьи и его приближенных, не мог туда войти. По приказу правителя сюда было помещено около тысячи пленных ремесленников. Они изготавливают доспехи, шлемы, луки и копья для царства круглый год».[3]

О переносной мечети, которую Амир Темур носил с собой: «Послов отвели в деревянный дом, построенный внутри саропарда. В это высокое здание можно подняться по лестнице. Его окружали деревянный коридор

[1] Дневник поездки в Самарканд – дворец Амира Темура (1403-1406); Р. Г. Клавихо; Узбекистан 2010, с. 193
[2] Дневник поездки в ……., с. 174
[3] Дневник поездки в ……., с. 153

и стеклянная веранда. Он был украшен с головы до ног золотой и синей краской, а само здание было построено таким образом, чтобы при необходимости его можно было разобрать на части и собрать заново. Это мечеть, где молился Сахибкиран, и он (Амир Темур) брал ее с собой в свои путешествия.[1]

Подобных интересных сведений в «Дневнике» немало. Клавихо интерпретировал информацию настолько искусно, что она вызывала интерес у других путешественников и историков, читавших его труды. Вот почему, сколько бы веков ни проходило, отношение к истории Великой Империи продолжает расти...

Сегодня оригинал дневников Руи Гонсалеса де Клавихо хранится в Национальной библиотеке в Мадриде. Ежедневная газета впервые была опубликована в Севилье в 1582 году издателем Арготе де Молиной под названием «Жизнь Великого Тимура с землями его империи». «Дневники Клавихо» были впервые переведены на русский язык и изданы в Петербурге в 1881 году И.И. Срезневским. Перевод на узбекский язык выполнен известным литературоведом, профессором Очилом Тогаевым.

В 2010 году «Дневник Клавихо» был переиздан известным писателем Мухаммедом Али. Мемуары Клавихо дают чрезвычайно красочную, полную, уникальную и неповторимую информацию о жизни в средневековой Европе и Азии, уникальных обычаях, традициях, легендах и правилах разных народов, географии и климате того времени, морях, островах, песчаных пустынях, бескрайних степях, горах, озерах, цветущих и разрушенных городах... Благодаря обилию информации эта книга может стать бесценным источником информации для современных исследователей в различных областях.

В нем историки, политики, экономисты, юристы, натуралисты, географы, писатели и этнографы могут найти энциклопедические сведения и наблюдения о Средних веках. Мы верим, что эта историческая и ценная информация будет совершенствоваться на протяжении многих лет и столетий, служа зеркалом истории для будущих поколений.

Таким образом, путешествие Руи Гонсалеса де Клавихо в государство Амира Тимура не только способствовало установлению дипломатических отношений, но и дало возможность европейцам узнать о последних достижениях великих цивилизаций, которые были неведомы им ранее.

[1] Дневник поездки в ……, с. 189

Использованная литература:

1. Руи Гонсалес де Клавихо (1990) – «Дневник путешествия в Самарканд ко двору Тимура (1403–1406)». Перевод со староиспанского, предисловие и комментарий И. С. Мироковой. Москва: Наука.

2. Ульжаева Ш. М., Кидирниязов Д. С. (2021) – «Дипломатический протокол в империи Амира Темура (по произведениям Руи Гонсалеса де Клавихо)». Журнал «Nomadic civilization: historical research», 1(3):9–20.

3. Якубовский А. Ю. (1946) – «Тимур (Опыт краткой характеристики)». Журнал «Вопросы истории», №8–9.

История Самарканда. Т. 1. Ташкент, 1969.

AMIR TEMUR – BUYUK DAVLAT ARBOBI VA MA’NAVIYAT SOHIBI

Karimov O‘,

Farg‘ona davlat univetsiteti o‘qituvchisi.

Vatanimiz bebaho tarixi xalqimizning buyuk bunyodkorlik salohiyati, yuksak ma’naviyatidan darak beradi. Zaminimizdan etishib chiqqan ulug‘ zotlarning jahon цivilizaцiyasi rivojiga qo‘shgan beqiyos hissasi va hayot yo‘li boqiy merosga aylangan.

Sohibqiron Amir Temur – ana shunday buyuk bobolarimizdan. Ulkan saltanat barpo etib, davlatchilik borasida o‘zidan boy amaliy va nazariy meros qoldirgan, ilmu fan, madaniyat, bunyodkorlik, din va ma’naviyat rivojiga keng yo‘l ochgan buyuk ajdodimizning hayot yo‘li bugungi yosh avlod uchun ham katta ibratdir. Amir Temurning o‘gitlari, chuqur hayotiy asosga ega fikrlari bugun ham o‘zining ma’naviy salohiyati, ulkan ahamiyati bilan alohida qadr-qimmatga ega.

Amir Temur – buyuk sarkarda, yirik davlat arbobi, qonunshunos, ma’naviy-axloqiy fazilatlar sohibi, notiq, shu bilan birga el-yurtini, xalqini sevgan va uni jahonga mashhur qilgan xalqimiz farzandi.

Amir Temurda Vatanni sevish, xalqini ulug‘lash, ulardan fahrlanish va g‘ururlanish singari oliy ma’naviy fazilatlar barq urib turgan.

O‘ o‘ o‘ g‘

tarixida alohida o‘rintutadi. Bu davrdagi madaniy yutuqlar umumbashariy sivilizatsiyasi darajasida bo‘lgan. Madaniyat tarixidagi ushbu mumtoz davrda o‘zbek madaniyatining shakllanishi bu davrdagi siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot bilan bog‘liqdir.

Amir Temur davrida O‘rta Osiyoning mustaqil bir davlat qilib birlashtirilishi mamlakatning iqtisodiy-madaniy taraqqiyotiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Ilm-fan, adabiyot va san’at, hunarmandchilik va me’morchilik ravnaq topdi. Mamlakat va poytaxt Samarqandning obodonchiligi yo‘lida mahalliy va chet mamlakatlardan ko‘plab fan va san’at ahllarini, hunarmand me’morlarni va musavvirlarni to‘pladi.

Temur va temuriylar davrida ma’naviy madaniyat sohasida katta ishlar amalga oshirildi. Amir Temurning o‘zi jamiyatning ma’naviy hayoti, din, falsafa, ilmu-fan va boshqa sohalarga katta eotibor berganligi haqida yuqorida aytib o‘tildi. Tarixchilarning yozishicha, temuriyzodalar Ulug‘bek , Sulton Husayn, Bobur ilm-fan va madaniy taraqqiyotga homiylik qilib qolmadilar, ayni vaqtda o‘zlarining faol shaxsiy ilmiy-falsafiy, badiiy-estetik faoliyatlari bilan uning taraqqiyotiga hissa qo‘shdilar.

Movarounnahrda ilm-fan va madaniyat taraqqiyotiga Mirzo Ulug‘bekning qo‘shgan hissasi ayniqsa kattadir. Ulug‘bek mamlakat ravnaq topishida ilmiy va badiiy tafakkurning kuchiga qattiq ishongan edi. Ulug‘bek dunyoviy va diniy madaniyat taraqqiyotida ma’naviy merosni o‘zlashtirishning ahamiyatini chuqur anglab etadi, shu sababli Ahmad Farg‘oniy, Muso Xorazmiy, Beruniy, Forobiy va Ibn Sino merosini chuqur o‘rganadi, buning natijasida qadimgi yunon olimlari Aflotun, Arastu va boshqalarning asarlari bilan yaqindan tanishadi. Ayni vaqtda diniy ilmgohlarning faoliyatini uyushtirishda dunyoviy ilmlarni o‘qitish masalasiga ham ijobiy yondashadi. Shu sababli madrasalarda nafaqat Qur’oni Karim, hadisi Sharif, fiqh, tafsir kabi islom manbalari, balki riyoziyot, xandasa, tibbiyot, geografiya, arab filologiyasi kabi dunyoviy ilmlarni o‘rganishga ham alohida e’tibor beriladi.

Amir Temur o‘zi barpo etgan buyuk davlatni milliy va axloqiy qadriyatlariga tayanib idora qildi. Bu esa jamiyatni adolat, insonparvarlik mezonlari asosida boshqarishga, mamlakatda osoyishtalik, tinchlik, totuvlik saqlanib turishiga olib keldi. Temur o‘z qo‘li ostidagi rahbarlardan, sarkardalardan ham axloqli, odobli, adolatli bo‘lishni talab qildi. U o‘zining «Tuzuk»larida rahbarlarning axloqli, adolatli bo‘lishi jamiyat, davlat va millat uchun qanday katta ahamiyatga ega ekanini ko‘rsatib berdi.

Sohibqiron Amir Temur davlat ishini to‘g‘ri odilona boshqarishda aqli raso, xushyor kishilar bilan bamaslahat ish yuritgan; ishbilarmon, tadbirkor, mard, shijoatli, xushyor kishilarni qadrlagan; fuqarolarga rahm – shafqatli bo‘lgan; yomonlik qilib, keyin tavba qilganlarni kechirgan; jasur, shijoatli kishilarni do‘st tutgan; ulug‘larni ustoz qatorida, kichiklarni farzand qatorida e’zozlagan; olim-u fozillar ijodiga yo‘l ochib bergan; mehnatsevar, hayr – ehsonli kishilarni qo‘llab – quvvatlagan. Shu sababli temuriylar davrida madaniyat, ma’naviyat va iqtisod rivojlangan. Buyuk sarkarda hatto o‘z farzandlari va nabiralariga xalqning, davlatning, jamiyatning ma’naviy – axloqiy kamolotini davlat barqarorligi va rivojlanishining asosiy omillaridan biri deb qarashni vasiyat qilgan.

Amir Temurning davlat boshqaruv tizimi butun xududda yagona markazlashgan siyosiy tartib asosiga qurilgan edi. Davlat o‘z tarkibiy tuzilishiga ko‘ra xarbiy-siyosiy tartiblarga asoslangan edi. Amir Temur o‘ziga qadar mavjud bo‘lgan davlatchilikning sakkizta asosiga amal qiladi:

- davlat siyosiy jihatdan mustaqil bo‘lishi;
- davlat va jamiyatning siyosiy yaxlitligi buzilmasligi;
- davlat va jamiyat muayyan qonunlar, tartiblar, mafkura asosida boshqarilishi;
- boshqaruv tizimi muvofiqlashtirib turuvchi qoidalar shakllangan bo‘lishi;
- jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar ahvoli davlat e’tiborida bo‘lishi;
- fan va madaniyat ravnaqi to‘g‘risida doimiy qayg‘urish;
- har bir davlat shart-sharoiti, tartiblariga ko‘ra davlat jamiyat ichki taraqqiyoti masalalarini tashqi dunyodagi mavjud omillardan foydalangan holda olib borishi;
- davlat tepasidagi kuchlar o‘tmish, zamona va kelajakni teran tafakkur, mustahkam iymon, g‘oyat yuksak ma’naviyat va millatparvarlik ila anglamog‘i.

Amir Temur davlatchilikning bu asoslariga to‘qqizinchisini, ya’ni, jamiyat rivoji va barcha ijtimoiy tabaqalar, manfaatlarini ta’minlashini qo‘shdi. Boshqaruv ikki idoradan: dargox va vazirlik (devon) dan iborat bo‘lgan.

Amir Temur zamonasida Samarqand va Shahrisabzda hamda Hirotda yuzlab fozilu ulamolar, minglab ahlu hunar egalari ijod bilan mashg‘ul edilar. O‘sha davrda Amir Temur saroyida turli muddatlarda faoliyat ko‘rsatgan mashhur qomusiy olimlardan Qozizoda Rumiy, Mavlono Ahmad, Saduddin at Taftazoniy, Sayyid Sharif Muhammad al-Jurjoniy, Xoja Muhammad az Zohid

al Buxoriy, Xoja Abdumalik Samarqandiy, Mavlono Ubayd, G‘iyosiddin Ali, Sharafiddin Ali Yazdi, Nizomiddin Shomiy va boshqalarni ko‘rsatish mumkin.

O‘zbek xalqi davlatchiligi tarixida Amir Temurning xizmati shundaki, u davlatchilikning boshqaruv tizimi, ichki va tashqi siyosatining tartib qoidalar, xuquqiy asoslarini yangi tarixiy sharoitda takomillashtirdi. Tashqi va ichki favqulodda voqealardan voqif turuvchi ming nafar piyoda, ming nafar tuya mingan, ming nafar ot mingan choparlar bo‘lgan. Amir Temur mamlakatni boshqarishda o‘z yaqinlariga suyangan. Davlat boshqaruv ishlarida Sohibqiron islom qonun-qoidalariga asoslangan.

Amir Temur davlatida huquqiy munosabatlar boshqa Sharq davlatlarida bo‘lgani kabi Qur’oni Karim, hadislarda bayon etilgan tartib - qoidalarga asoslangan edi.

Amir Temur zamonida yozilgan asarlarni qunt bilan o‘qisak, o‘rgansak, uning ko‘p yaxshi xislatlari: to‘g‘rilik, muruvvatlilik, adolatparvarlik, el-yurtiga mehr-muhabbat, bunyodkorlik va boshqalarni bilib olishimiz mumkin. Temur tarixda qoldirgan yaxshi nom, u tayangan va targ‘ib etgan ma’naviy – axloqiy qoidalar, odoblilik mezonlari biz avlodlarga qoldirgan buyuk ma’naviy merosdir. Buyuk bobomizning ma’naviy–axloqiy o‘gitlari va meroslarini asrab-avaylash, qadrlash bizning sharafli burchimizdir.

SOHIBQIRON HIKMATLARI

Karimova G.,

Farg‘ona davlat universiteti katta o‘qituvchi

Ha, baland tog‘lar shukuhi va salobati undan uzoqlashib borgan saringiz ko‘z oldingizda yanada buyuklik kasb etgani singari bobomiz Amir Temur Ko‘ragon siymosi ham mustaqilligimiz sharofati bilan o‘zining baland qadr-qimmatiga, yuksak martabasiga ega bo‘ldi. Bugungi yosh avlod Sohibqiron deganda tengsiz azmu shijoat, mardlik va donishmandlik ramzi bo‘lgan nurli siymoni, kuchli irodasi va aql-idroki bilan yirik saltanat barpo etib, davlatchilik borasida o‘zidan ham amaliy, ham nazariy meros qoldirgan ma’naviy barkamol insonni ko‘z oldiga keltiradi. Haqiqatan ham, agar bobomizning ma’naviy olami yuksak va benazir bo‘lmaganda, ilmu fan, madaniyat, bunyodkorlik, din va ma’rifat rivojiga bu qadar salmoqli hissa qo‘sha olmagan bo‘lar edi.

Ma’lumki, temuriylar ilmu fan va madaniyat taraqqiyotiga sidqidildan hamisha homiylik qilib kelishgan. Binobarin, Amir Temur ma’naviyat va ilm-

fan masalalariga alohida e’tibor berib, o‘z saltanatida ma’naviy hayotni rivojlantirish maqsadida etuk mutaxassislarni jalb qilgan.

Amir Temur hayotining katta qismini jang maydonlarida o‘tkazish davomida kelajak yosh avlodga hayotiy turmush odobi, hulq-odob qoidalari, jamiyatning ma’naviyat-madaniyat haqida bir-biriga o‘xshamagan o‘gitlarini meros qilib qoldirgan va bu o‘gitlarni pedagogika jarayonida qo‘llash ta’limda ko‘zlangan maqsadga erishga katta bir ko‘mak beradi.

Sohibqiron Amir Temurning buyuk saltanati juda katta va boy ma’naviy zaminga qurilgan, uning davlatining asosiy ustuni ma’naviylik bo‘lgan edi. Mana shu poydevor Temurning “Temur tuzuklari” asarida bayon qilingan. “Temur tuzuklari”da barcha voqealar Amir Temur nomidan hikoya qilinadi. Asarda Amir Temurning asosiy doktrinasi – jamiyatga, ijtimoiy-siyosiy hayotga qarashi, birlashgan qudratli feodal davlatning siyosiy va axloqiy tamoyillari ifodalangan.

“Tuzuqlar” ikki qismdan iborat. Birinchi qismda jahon tarixida mashhur fotih, sarkarda va iste’dodli davlat arbobi sifatida nom qoldirgan Amir Temurning 7 yoshidan to vafotiga qadar kechgan hayoti va ijtimoiy-siyosiy faoliyati, aniqrog‘i, uning Movarounnahrda Markaziy hokimiyatni qo‘lga kiritish, feodal tarqoqlikka barham berish va markazlashgan davlat tuzish, qo‘shni yurt va mamlakatlarni, masalan, eron hamda Afg‘onistonni o‘z tasarrufiga kiritish, Oltin O‘rda hukmdori To‘xtamishxon (1376-1395), butun Yevropaga qo‘rquv va dahshat solgan Turkiya sultoni Boyazid Yildirim (1389-1402)ga qarshi va, nihoyat, buyuk jahongirning Ozarboyjon, Gruziya va Hindistonga qilgan harbiy yurishlari ixcham tarzda bayon etilgan. Ikkinchi qism jahongirning nomidan aytilgan va uning toj-u taxt vorislariga atalgan o‘ziga xos vasiyat va pandnasihatlaridan iborat. Unda davlatni idora qilishda kimlarga tayanish, boshliqlarni saylash, sipohiylarning maoshi, mamlakatlarni boshqarish tartibi, davlat arboblari va boshliqlarning burch va vazifalari, amirlar, vazirlar va boshqa mansabdorlarning toj-u taxt oldidagi alohida xizmatlarini taqdirlash tartibi va boshqalar xususida gap boradi.

Shuning uchun buyuk bobomizning fan va madaniyat sohasiga bo‘lgan buyuk hurmati, beg‘araz homiyligining tub mohiyatini uning ma’naviyatga ijobiy munosabati, bu sohadagi axloqiy dasturlarini chuqur o‘rganmasdan turib, chuqur anglash mumkin emas.

Amir Temur to‘la ravishda asoslangan ma’naviy talablar, ehtiyojlar, tamoyillarga tayangan holda o‘sha davrda ma’naviy madaniyat taraqqiyotiga

katta ishonch bilan qaraganligini ham ta’kidlash kerak. U o‘z saltanatida tili, e’tiqodi, urf - odatlari, xududlari turlicha bo‘lgan kishilarning hamjihatligi uchun ham ko‘p qayg‘uradi. Jahonning turli mamlakatlaridan keltirilgan minglab hunarmandlarni ish bilan ta’minlaydi, ular o‘rtasidagi munosabatlarning samimiy bo‘lishiga e’tibor beradi.

Biz bu kitobni mutolaa qilar ekanmiz, Amir Temurning kuragi erga tegmagan bahodir sarkarda, yirik davlat arbobi bo‘lish bilan birga, qonunshunos, iste’dodli me’mor, usta notiq va ruhshunos bo‘lganiga ham ishonch hosil qilamiz. Agar uning qalbida tug‘ilgan ona vataniga, kindik qoni to‘kilgan tuproqqa mehr-muhabbati bo‘lmaganda, bu kabi ishlarni bajarishga tog‘dek jur’atu jasoratni topolmagan bo‘lar edi albatta.

Amir Temur o‘rta asrlar davriga xos o‘z udumlari doirasida faoliyat yuritgan bo‘lsa ham, inson manfaatlarini kuchaytirishga intilib, irqi, millati, dini va kelib chiqishidan qat’i nazar insonlarning bir butun hududda yashashi mumkinligi to‘g‘risidagi «yagona makon» g‘oyasining ilk tashabbuskoriga aylandi.

Saltanat ishlarini murosayu madora, muruvvat va sabr-toqat bilan yurgizgan buyuk ajdodimiz faoliyatida esa ijtimoiy himoya, bag‘rikenglik, g‘oya va amaliyot birligi yaqqol namoyon bo‘lganini ko‘rish mumkin. o‘

Sohibqiron hayoti davomida, sarmoyasi qo‘lidan ketib qolgan savdogarga uni qaytadan tiklab olishi uchun xazinadan yetarli miqdorda oltin, o‘z ishi bilan shug‘ullanishga qurbi yetmay qolgan dehqonlarga ekin-tikin uchun zarur urug‘ va asbob, uy-imorati buzilib, tuzata olmayotgan fuqarolarga kerakli uskunalarni yetkazib berish zarurligini hamda bunday harakatlarning ijtimoiy farovonlik va taraqqiyotni ta’minlashdagi ahamiyatini chuqur anglagan holda faoliyat olib bordi.

Turli mamlakatlar aholisi bilan bo‘lgan muomalada xolislik bilan ish tutib, jamiyatda o‘zaro bir-birini tushunish, hurmat va hamkorlik ruhi ustuvor bo‘lishiga intilib yashadi. Faqiru miskin, biron kasb qilishga ojiz kishilarga nafaqa tayinlashni yo‘lga qo‘yib, aholini ijtimoiy himoya qilishning o‘ziga xos tizimini yaratdi.

Masalani Sohibqironning aforizmga aylangan, maqsadiga ko‘ra bir necha toifaga bo‘lib qarash mumkin bo‘lgan so‘zlari mazmuni orqali yoritish ma’qul ekanligini aytib o‘tamiz.

Davlat boshqaruvi masalalari xususida «Davlat ishlarining to‘qqiz ulushi mashvarat, kengash va tadbir, qolgan bir ulushi qilich bilan bajo keltiriladi»,

deb ta’kidlaydi. Bu jumlalardan ayon bo‘ladiki, Amir Temur muammolarning harbiy yechimini birinchi o‘ringa qo‘ymagan. O‘z navbatida bu Sohibqironning jangu jadal qilishga, bekorga qon to‘kishga ruhan qarshi bo‘lganini ko‘rsatadi. Tarixdan ma’lumki, Amir Temur har gal harbiy yurishlari oldidan raqib tomonga muammoni tinch yo‘l bilan hal qilish yuzasidan maktublar orqali takliflar yo‘llagan.

Amir Temurning o‘zi hayotlik paytida yaratilgan tarixiy kitoblarni, shuningdek, undan keyingi asrlarda dunyoga kelgan asarlarni mutolaa qilsak, uning bir qator ma’naviy fazilatlarga ega bo‘lgan muruvvatli va donishmand inson bo‘lganini ko‘ramiz. Biroq bu borada eng ko‘p ma’lumot beradigan manba, bizningcha, uning kelajak avlodlarga yozib qoldirgan o‘git va pand-nasihatlaridir. “Ishbilarmon, mardlik va shijoat sohibi, azmi qat’iy, tadbirkor va hushyor bir kishi, ming-minglab tadbirsiz, loqayd kishilardan yaxshidir”, “Qilmoqchi bo‘lgan ishlarini qilmasdan qoldirmasinlar. Agar biror ishni qilmaslikka so‘z berar ekanlar, yaqiniga ham yo‘lamasinlar. Xotirdan chiqmasinkim, tangri taolo jasur kishilarni ardoqlaydi” singari so‘zlar kishini iroda sohibi bo‘lishga chaqiradi, o‘z oldiga qat’iy maqsad qo‘yib, uni ro‘yobga chiqarish niyatida oldinga intilish kutilgan natijani qo‘lga kiritishga olib kelishini ta’kidlaydi. Bizning fikrimizcha, bu o‘gitlar hozirgi bozor munosabatlari shakllanayotgan bir davrda ham alohida ahamiyat kasb etadi.

Adolat va insof, do‘stu dushmanni farqlash, zolimlar dodini berib, mazlumlar haqqini himoya qilish Sohibqiron hayotining mazmunini tashkil etadi desak, aslo yanglishmaymiz. Ana shu adolatparvarlik g‘oyasi uning bir qator hikmatlarida o‘z muxtasar ifodasini topgan. “Kuch – adolatda” shioriga hamisha qat’iy amal qilgan bobomiz buni o‘z so‘zlarida shunday bayon etadi:

- “Adolat va insof bilan tangrining yaratgan bandalarini o‘zimdan rozi qildim. Gunohkorga ham, begunohga ham rahm qilib, haqqoniyat yuzasidan hukm chiqardim. Xayr-ehson ishlarim bilan odamlar ko‘nglidan joy oldim. ”

-Zolimlardan mazlumlar haqqini oldim. Zolimlar etkazgan ashyoviy va jismoniy zararlarni isbotlaganimdan keyin, ularni shariatga muofiq odamlar o‘rtasida muhokama qildim va bir gunohkorning o‘rniga boshqasiga jabr-zulm o‘tkazmadim.”

Muarrixlarning yakdillik bilan tasdiqlashlaricha, Amir Temurning adolatparvarligi, xalqparvarligi, ayniqsa, raiyat deb atalgan oddiy odamlar sha’nini, yordamga va himoyaga muhtoj miskinlarni, zolimlar zulmi ostida ezilgan miskinlarni o‘z himoyasi ostiga olishi uning eng olijanob insoniy

fazilatlaridan bo‘lib, adolatni bu qadar mahkam tutib turish kamdan-kam hukmdorga nasib etgan.

Ana shunday pok e’tiqod bilan yashagan Sohibqironning o‘z hukmi ostidagi bepoyon hududlarda adlu insof bilan davlat yuritishga jiddu jahd ko‘rsatishi, bunyodkorlik va obodonchilik ishlariga katta e’tibor berishi tabiiy edi. Tahsinga loyiq jihati shuki, uning serqirra bunyodkorlik faoliyati, shaharsozlik ilmiga qo‘shgan hissasi, yaratgan bino va bog‘lari jahon tarixchilari, olimlari va adiblari tomonidan ko‘p marta e’tirof etilgan.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash kerak, Amir Temurning ibratli, hayotiy pand nasixatlari va o‘gitlarining har biri ma’no-mazmunan kengligi, mantiqning kuchliligi, teranligi, ta’siri umuminsoniy qadriyatlar asosiga qaratilganligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi va ularni bitmas-tuganmas xazina, odob-axloqqa oid dasturlar deya e’tirof etib, o‘zimizning hayotimizda ish faoliyatimizda, o‘gir mushkilotga yuz tutganimizda oqilona yo‘l topishimizga sohibqiron bobomizning ilmiz xazinalari sabab bo‘la oladi. Bu tuzuklari, o‘gitlar sohibqironning hayotida katta mashaqqatlar va sertashvishlar, goh muvaffaqqiyatli damlari, goh muvaffiqqiyatsiz onlarida, goh quvonchli lahzalarida, goho anduhli paytlarida umrining ijodiy mevasi hamda xalqni bir maqsad yo‘lida farovon tinch-totuv hayot kechirishlikda birlashtirgan, jipslashtirgan sehrli va tarbiyaviy kuchga ega bo‘lgan yuksak, qimmatbaho xalqimizning durdona merosdir.

UZLUKSIZ TA’LIMNI SAMARALI TASHKIL ETISHDA AMIR TEMUR MEROSI ORQALI YOSHLARNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASH

Ergashbayev Sh.,
Namangan Davlat Pedagogika Instituti doktaranti

O'zbekiston Respublikasida uzluksiz ta'lim tizimi milliy qadriyatlar va tarixiy meros asosida shakllantirilgan bo'lib, yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu tizim maktabgacha ta'limdan boshlab oliy ta'limgacha bo'lgan barcha bosqichlarni qamrab oladi. Jumladan,

2021/2022-o'quv yilida mamlakatimizda 10 130 ta umumta'lim maktabi faoliyat ko'rsatib, ularda 6 246 491 nafar o'quvchi tahsil olgan. Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda buyuk ajdodimiz Amir Temur merosi alohida o'rin tutadi. Amir Temur davrida el-ulusni birlashtirish va "Kuch adolatda" tamoyili milliy g'oya darajasiga ko'tarilib, buyuk davlat barpo etishga zamin yaratgan[1]. Shu bois, uzluksiz ta'lim jarayonida Amir Temur merosini o'rganish va targ'ib etish orqali yoshlarning milliy g'urur va vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirish dolzarb masalalardan biridir. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 10-maydagi qaroriga muvofiq, yoshlar o'rtasida "Amir Temur izdoshlari" va "Jaloliddin Manguberdi vorislari" kabi harbiy-sport musobaqalarini tashkil etish belgilangan[2]. Bu tadbirlar yoshlarning harbiy-vatanparvarlik ruhini oshirishga xizmat qiladi. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, tarixiy shaxslar merosini o'rganish yoshlarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasida muhim rol o'ynaydi. Amir Temurning harbiy nazariyasi va amaliy harbiy san'ati, taktika va strategiyasi, armiya tarkibining tuzilishi kabi jihatlar yosh avlod uchun ibrat maktabi bo'lib xizmat qiladi. Uzluksiz ta'lim tizimida Amir Temur merosini chuqur o'rganish va targ'ib etish orqali yoshlarning vatanparvarlik tuyg'ulari yanada mustahkamlanadi. Bu esa, o'z navbatida, mamlakatimizning mudofaa salohiyati va milliy birligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Amir Temur merosini uzluksiz ta'lim tizimida yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda qo'llash masalasi ko'plab ilmiy tadqiqotlarda o'rganilgan. Xususan, "Amir Temur – buyuk sarkarda va davlat arbobi" nomli ilmiy to'plamda Sohibqironning adolatli davlat boshqaruvi va harbiy mahorati bugungi kunda nechog'lik ahamiyatli ekanligi ta'kidlangan. Mazkur to'plamda Amir Temurning hayot faoliyati davomida orttirgan boy tajribalari asosida qoldirgan o'gitlari, davlat boshqaruvi va buyuk sarkardalik mahorati, bunyodkorlik va yaratuvchanlik ishlari, pand-nasihatlariga bag'ishlangan maqola va tezislar o'rin olgan[3]. Shuningdek, "Talabalarda vatanparvarlik tarbiyasi orqali ularda vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish" nomli maqolada yoshlarimizni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda xalqimizning tarixiy merosi, urf-odatlari va an'analari o'rganishning ahamiyati yoritilgan. Ushbu tadqiqotda yoshlarning ongida Vatan, millat tushunchalarini shakllantirishda tarixiy merosning o'rni alohida ta'kidlangan. Bundan tashqari, "Amir Temur – buyuk davlat arbobi va sarkarda" nomli xalqaro ilmiy konferensiya materiallari to'plamida Amir Temurning ta'lim va tarbiyaga oid qarashlari, oqillik, odillik, vatanparvarlik, bahodirlik, fidoyilik, mas'uliyat va uddaburonlik kabi fazilatlari

haqida so'z yuritilgan. Bu fazilatlar yosh avlodni tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega ekanligi qayd etilgan. Ushbu adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, Amir Temur merosini uzluksiz ta'lim tizimida qo'llash orqali yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash samarali natijalar berishi mumkin[4]. Ilmiy manbalarda keltirilgan ma'lumotlar asosida, Amir Temur hayoti va faoliyatini o'rganish yoshlarning milliy g'ururini oshirish, ularni Vatanga sodiqlik ruhida tarbiyalashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Mazkur maqolaning metodologik asoslari zamonaviy pedagogik yondashuvlar, tarixiy-merosiy tahlil usullari va empirik tadqiqotlarga asoslangan bo‘lib, uning asosiy maqsadi uzluksiz ta’lim tizimida Amir Temur merosi orqali yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning samaradorligini aniqlash va bu yo‘nalishda ilg‘or ta’lim texnologiyalarini qo‘llash imkoniyatlarini baholashdan iboratdir. Tadqiqot doirasida nazariy va amaliy tadqiqot metodlari uyg‘unlashtirilib, Amir Temur merosining ta’lim jarayoniga ta’siri o‘rganildi, shuningdek, O‘zbekistonning turli ta’lim muassasalarida 500 nafar o‘quvchi va talaba o‘rtasida so‘rovnoma tashkil etilib, ularning Amir Temur merosiga bo‘lgan munosabati, vatanparvarlik tushunchasini qabul qilish darajasi va tarixiy bilimlari baholandi. Tadqiqot jarayonida maxsus eksperimental dastur ishlab chiqilib, 10 ta ta’lim muassasasida joriy qilindi va Sohibqironning harbiy-siyosiy faoliyati, davlat boshqaruvi, harbiy strategiyasi va milliy g‘ururga ta’sirini yoritishga qaratilgan ta’lim mashg‘ulotlari, seminarlar, interaktiv o‘yinlar va targ‘ibot tadbirlari tashkil etildi. Dastur samaradorligini baholash maqsadida o‘quvchilarning bilim darajasi test sinovlari orqali aniqlanib, dasturga qadar Amir Temur merosi bo‘yicha bilim darajasi 57% bo‘lgan bo‘lsa, dastur yakunida bu ko‘rsatkich 84% ga oshgani kuzatildi. Shuningdek, tadqiqot natijalari xalqaro tajribalar bilan solishtirilib, Janubiy Koreyaning Li Sun Sin merosi va Turkiyaning Usmonli sultonlari tarbiyaviy yondashuvlari tahlil qilindi. Tadqiqotning innovatsion jihatlari integratsiyalashgan yondashuv, statistik tahlil va baholash hamda interaktiv va raqamli ta’lim texnologiyalaridan foydalanish orqali vatanparvarlik tarbiyasining samaradorligini oshirishdan iborat bo‘lib, natijalar shuni ko‘rsatdiki, uzluksiz ta’lim tizimida Amir Temur merosini integratsiya qilish yoshlarning vatanparvarlik ruhida tarbiyalanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi va kelajakda ta’lim sifatini oshirish hamda yosh avlodni milliy g‘oya asosida tarbiyalashda muhim o‘rin tutadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, uzluksiz ta’lim tizimida Amir Temur merosini integratsiya qilish yoshlarning vatanparvarlik ruhida tarbiyalanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Eksperimental dastur joriy etilgan ta’lim muassasalarida o‘quvchilarning Amir Temur merosi bo‘yicha bilim darajasi sezilarli darajada oshgani aniqlandi. Dastur boshlanishidan oldin o‘tkazilgan test sinovlarida o‘quvchilarning bilim darajasi o‘rtacha 57% ni tashkil etgan bo‘lsa, dastur yakunida bu ko‘rsatkich 84% ga yetib, 27% lik o‘sish qayd etildi. Ushbu o‘zgarish o‘quvchilarning tarixiy bilimlarni chuqur o‘zlashtirishida samarali yondashuvlar, jumladan, interaktiv o‘qitish metodlari, tarixiy ekskursiyalar va multimedia resurslaridan foydalanish orqali erishilganini tasdiqlaydi. So‘rovnomalar natijalari esa vatanparvarlik tuyg‘usining ortganini ko‘rsatdi. Tadqiqot davomida o‘quvchilarning dastur boshlanishidan oldin 68% i o‘zini vatanparvar deb hisoblasa, dastur yakunida bu ko‘rsatkich 92% ga yetdi, ya’ni 24% lik o‘sish qayd etildi. Ayniqsa, Amir Temur davlat boshqaruvi va harbiy strategiyasining bugungi kun uchun dolzarbligi, uning adolatparvarlik va jasorat tamoyillariga asoslanganligi yoshlarning milliy g‘ururini shakllantirishda muhim rol o‘ynaganini ta’kidlash mumkin[5]. Tadqiqot davomida o‘quvchilarning tarixiy merosga bo‘lgan qiziqishini oshirish maqsadida amaliy mashg‘ulotlar va interaktiv usullardan keng foydalanildi. Shuning natijasida tajriba dasturida qatnashgan o‘quvchilarning 88% i turli amaliy faoliyatlarga, jumladan, tarixiy tadbirlar, ilmiy seminarlar va interfaol loyihalarga jalb etildi. Bu esa yosh avlodning faqat nazariy bilim emas, balki amaliy faoliyat orqali ham o‘z bilimlarini boyitishiga xizmat qildi. Dastur yakunidan so‘ng monitoring natijalari shuni ko‘rsatdiki, o‘quvchilarning 79% i olingan bilim va ko‘nikmalarni kundalik hayotda, xususan, akademik faoliyat va ijtimoiy loyihalarda qo‘llashda davom etmoqda. Bu esa ta’lim jarayonining natijalari uzoq muddatli va barqaror ekanligini tasdiqlaydi. Shuningdek, mazkur tadqiqot doirasida o‘qituvchilarning malakasini oshirishga alohida e’tibor qaratildi. Amir Temur merosidan foydalanib, vatanparvarlik tarbiyasini samarali olib borish bo‘yicha maxsus trening va seminarlar tashkil etildi. Ushbu tadbirlar natijasida o‘qituvchilarning 85% i zamonaviy pedagogik texnologiyalarni o‘z faoliyatiga integratsiya qilish imkoniyatlariga ega bo‘ldi. Bu esa ta’lim sifatini oshirish bilan birga, milliy qadriyatlarni o‘quvchilar ongiga chuqur singdirishga xizmat qiladi.

Uzluksiz ta'lim tizimida Amir Temur merosi orqali yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash masalasi ilmiy-nazariy jihatdan chuqur

tahlilni talab etadi. Amir Temur shaxsiyati va uning davlat boshqaruvidagi tamoyillari yosh avlodning ma'naviy-axloqiy tarbiyasida muhim o'rin tutadi. Uning "Temur tuzuklari" asari davlat boshqaruvi, adolat va intizom kabi masalalarda boy tajribani o'z ichiga oladi. Akademik Vladimir Kvintning ta'kidlashicha, ushbu asar bo'lajak harbiylar uchun muhim manba hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasida yoshlarni oliy ta'limga qamrab olish darajasi so'nggi olti yil ichida 9 foizdan 38 foizga oshgani kuzatilmoqda. Bu esa ta'lim tizimida vatanparvarlik tarbiyasini kuchaytirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Shu bilan birga, "Temurbeklar maktablari" tajribasi ko'rsatmoqdaki, Amir Temur merosiga asoslangan harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi Biroq, ushbu yondashuvni amalga oshirishda bir qator muammolar mavjud. Avvalo, o'qituvchilarning malakasini oshirish va ularni zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan ta'minlash zarur. Shuningdek, ta'lim dasturlarini Amir Temur merosi bilan boyitish jarayonida ilmiy asoslangan metodologiyaga ehtiyoj seziladi. Bashorat qilish mumkinki, ushbu chora-tadbirlar amalga oshirilsa, kelgusida yoshlarning vatanparvarlik tuyg'usi yanada kuchayadi va ular mamlakat rivojiga faol hissa qo'shadilar.

Xulosa. Uzluksiz ta’lim tizimida Amir Temur merosini integratsiya qilish yoshlarning vatanparvarlik ruhida tarbiyalanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Tadqiqot natijalari o‘quvchilarning tarixiy bilim darajasi va vatanparvarlik hissi sezilarli darajada oshganini ko‘rsatdi. O‘qituvchilarning malakasi yaxshilandi, innovatsion pedagogik yondashuvlar samaradorligi oshdi. Kelajakda bu tizimni yanada rivojlantirish, zamonaviy texnologiyalar bilan boyitish yosh avlodning milliy qadriyatlarga hurmatini oshirish va mamlakat taraqqiyotiga hissa qo‘shishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. Xazratova G. A. Yoshlarimizni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda amir temurning “temur tuzuklari” asari manba sifatida //Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – Т. 2. – №. 15. – С. 353-356.

2. Ikromovich T. I. Yoshlar amir temur izdoshlaridir //Miasto Przyszłości. – 2024. – Т. 46. – С. 788-791.

3. Rizoqulovich M. G. Amir temurning o ‘zbek davlatiligi tarixida tutgan o ‘rni //O‘zbekiston respublikasi jamoat xavfsizligi universiteti ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi sohibqiron amir temur tavalludining 688 yilligiga bag‘ishlangan. – 2024. – С. 27.

4. Muhammadaminovna T. M., Ikromjon o‘g‘li P. H. Temur tuzuklarida insonni qadrlash va ilm-ma’rifat masalalari va uning bugungi kunga tadbiq etishdagi ahamiyati //Qo‘qon universiteti xabarnomasi. – 2023. – С. 346-349.

Esonaliyevna N. D. et al. Temuriylar davri renessansi: ilm-fan, madaniyat va san’at rivoji //sustainability of education, socio-economic science theory. – 2024. – Т. 2. – №. 24. – С. 26-29.

Особенности боевой тактики, использованной Амиром Темуром в военном походе в Индии.

Мадалиева Р.- старший преподаватель Таможенного института при Таможенном комитете, кандидат политических наук.
Абдусамедов Н.– старший преподаватель Таможенного института при Таможенном комитете, кандидат философских наук.

После разгрома войск Тохтамыша, что стало началом упадка власти Золотой Орды, Амир Темур в 1396 году с значительным трофеем вернулся в столицу своей империи – Самарканд. Успешная победа, достигнутая полководцем в сражении с монгольским ханом, усилила военно-стратегические планы Темура. Его взоры были направлены на, граничившую с территорией его государства, Индию.

На огромных территориях северной Индии начиная с XIII века сложилось индо-мусульманское государство, именуемое Делийским султанатом с правящей династией Гуридов. Но начиная с 1335 года государство находилось в упадке, в связи с чем в разгар средневековья в Индии сложилась специфическая обстановка, характеризовавшаяся усилением междоусобных противоречий и социально-политическим кризисом, связанным с ним.

К середине XIV века государи из династии Туглукидов, правившие в Дели с 1321 года, уже не могли контролировать составные части своего государства, что привело к значительным территориальным потерям, от отделившихся от султаната провинций: Декана в 1343 году, Бенгалии – 1358, Джаунпур в 1394 и Гуджарата в 1396 году.

В Дели правил шах Махмуд II из Туглукид. Его власть была ослаблена под влиянием министра Маллу Икбала и ближайшего чиновничьего окружения.

Но несмотря на внутреннюю нестабильность, за пределы Индии доходили многочисленные сведения о богатствах государства, расположенного в Южной Азии.

О походе в Индию у Амира Темура не было изначально разработанных планов. К тому же возвратившееся с серьёзного сражения с монгольским ханом Тохтамышем, войско Амира Темура нуждалось в отдыхе и восстановлении.

Нестабильность и частые восстания в Индии создавали потенциальную угрозу юго-восточных рубеженй империи Амира Темура будучи тонким стратегом и талантливым полководцем он видел преимущество в сложившейся обстановке, которая может гарантировать успешный ход военной компании. А восстание, разгоревшееся в Пенджабе лишало султана возможности выделить специальные, хорошо оснащённые боевые отряды на сопротивление Темуру.

В начале 1398 года, когда войско собралось после сражения на реке Терек, Темур предпринял военный поход в Индию. Для этого он переправил свои войска через реку Инд. Армия Темура, находившаяся под командованием внука Пир-Мухаммада вторглась на территорию султаната и быстро справлялась с местными отрядами сопротивления. Добравшись до города Мултан, войска Пир-Мухаммада стали его осождать. Через несколько месяцев, в мае 1398 года горнизон Мултана, в силу острой нехватки продовольствия начал сдавать свои оборонительные позиции.

В “Уложении Темура” Сахибкиран о начале индийской компании пишет следующее: “Царевичу Пирмухаммад Джахангиру с тридцатитысячной конницей левого крыла армии, расквартированной в Кабуле, велел идти через Сулаймановы горы, переправиться через реку Синд и внезапно напасть на вилайет Мультан и захватить его. Султан Мухаммад-хану, царевичу Рустаму и другим эмирам с тридцатитысячной конницей правого крыла армии велел форсировать реку Синд, двигаться по дороге Кашмирских гор и внезапно напасть на вилайет Лахор. Сам же я возглавлял центр армии (кул, гул) с тридцатитысячной конницей”[1].

[1] Уложение Темура. Восточная литература // https://www.vostlit.info/Texts/rus5/Ulozenie/frametext1.htm

Таким образом, 24 сентября 1398 года Амир Темур со своим войском переправился через Инд и добрался до Делийского султаната, не встречая на его землях никакого противостояния. Армия Сахибкирана заняла город Талаб, расположенный в северо-востоке от Мултана. Здесь к его войску подоспели присоединиться отряды Пир-Мухаммада.

Объединённая армия начала движение по направлению к столице султаната городу Дели.

Спустя некоторое время армия Темура достигла города раджпутов Бхатнира. Здесь раджпутские войска под руководством местного предводителя Рай Дуал Чана оказали сопротивление Темуру. Тогда Сахибкиран разделив свою армию на две части, одну отправил двигаться дальше, а сам с десятью тысячами всадников остался сражаться с раджпутами.

Укрывшийся в крепости, раджпуты оказались в оцеплении войск Темура. Понимая неравенство сил, их глава Рай Дуал Чан принял решение покориться полководцу. После разгрома раджпутских гарнизонов армия Амира Темура объединилась с войсками внука При-Мухаммада.

10 декабря 1398 года армия Темура достигла крепости Лони, раположенной в 12 км от столицы Дели. Здесь был размещён военный штаб Темура, а он сам стал готовиться к решающему сражению.

Зная о ходе событий, султан Махмуд шах и его министр Малу Икбал спешно стали собирать войска. В середине декабря 1398 года войско Темура, распологавшееся на равнине в окрестностях Дели, уже было готово к предстоящему штурму города.

Полководец решается лично сам проверить краины дели и с небольшим разведовательным отрядом подошёл к Дели для оценки состояния его укрепления.

17 декабря 1398 года состоялась битва. Под командованием Темура находилось войско насчитывавшее более 92 тысяч солдат, часть которых составляли пешие отряды.

Войска делийского султана не превосходило численности армии Сахибкирана. В его арсенале действовали 10 тысяч всадников, 40 тысяч пехотинцев и около 125 боевых слонов. Руководивший армией султана, министр Малу Икбал, надеялся на слонов, думая что именно они ввергая в страх армию Темура, обеспечат победу индийцам. Об этом пишет средневековый историк Шараф ад-Дин Йазди в своей книге о подвигах

Амира Темура “Зафарнаме”. Как свидетельствует автор: “Со стороны врага были индийские военачальники, с десятью тысячами конных и сорока тысячами пеших, все в полном вооружении, вышли из города и построились. Вся их надежда была на сто двадцать слонов, подобных горам. На слонов были натянуты латы. На слонах были установлены деревянные помосты, на которых сидели пять-шесть лучников. Рядом со слонами стояли пушкари. Но все это воинство перед войском Сахибкирана ничего не стоило. Однако вид слонов пугал некоторых слабонервных, которые раньше не видели слонов”[1].

В битве при Дели Амир Темур умело использовал тактику построения войск, котрая была разделена на четыре части: центр, левый и правые фланги и авангард. Центральная часть войска находилась под личным командованием полководца.

Армия султана Махмуд шаха состояла из центрального сегмента и двух боковых флангов. Для защиты пехоты, фланги были усилены конной кавалерией. В центре перед пехотинцами располагались боевые слоны, а перед ними конные единицы, которые выполняли роль авангарда для поддержки слоновых атак. Махмуд шах и Малу Икбал с резервными войсками находились в тылу боевых частей.

В начале боя Амир Темур дал приказ флангам атаковать пехоту врага. Всадники Темура использовали степную тактику. Они залпом обстреливали противника из луков и отсупали назад чтобы избежать ответных ударов.

Кавалерия султана будучи в численном меньшинстве не решалась выступать против конницы Темура, которая продолжала громить пехоту султана. В это время авангарду Темура удолось обойти передние войска Махмуд шаха и атаковать его правый фланг.

Участившееся наступление всадников Темура стала неожиданностью для султанских войск, что привело к истреблению большей части его авангарда.

После разгрома делийского авангарда Темур приказал объединить части своей армии и начать масштабное наступление на противника. Лобовые удары кавалерии правителя Мавераннахра оказались невыносимыми для войск султана Махмуд шаха, которые скоро стали отступать для укрытия к стенам города.

[1] Зафар-наме. Книга побед Амира Тимура. Шараф ад-Дин Йазди. // https://coollib.in/b/689731/readp?p=149&cnt=9000

Описания сражения у Дели содержатся в уложении Темура. По сообщению Сахибкирана: “Султан Махмуд и Маллу-хан укрепили крепость Дели пятьюдесятью тысячами конных и пеших воинов и 120 боевыми слонами на цепях и приготовились к сражению со мною. Я обеспокоился: что, если я пойду на приступ крепости Дели, и вдруг это предприятие затянется на долгий срок, [тогда что?]. Подумав, я решил сделать вид, что обессилил. [Делал я это для того], чтобы вражеская рать приободрилась, и, выйдя [из крепости] и развернув свои ряды, ринулась на ристалище. Поэтому я велел вырыть ров чуть подальше от того места; где стояло мое войско.Укрепившись за ним со своим войском как следует, послал на неприятеля один полк. Велел приблизиться к врагу, сделать вид, будто бы воины обессилены и якобы испуганы, затем отступить и [тем самым] приободрить врага. Войска неприятеля [видя это] посчитали себя победителями, но как только они гордо выступили на ристалище, то лицом к лицу столкнулись с моими грозными воинами. Правитель Дели султан Махмуд вступил в сражение и потерпев поражение, бежал в горы. Его несметные сокровища и богатства стали добычей моих воинов”[1].

Что касается дальнейшей участи боевых слонов, то после поражения индийской армии их распустили и отправили в различные стороны. По словам, выше упомянутого, историка Шараф ад-Дина Йазди: “Из города вывели имевшихся слонов и носорогов: было сто двадцать слонов. Часть слонов раздал царевичам, часть отправил в Самарканд. Двух слонов отправил в Табриз, одного - в Ширaз, пять слонов - в Герат, одного - в Ширван и еще одного - в Азербайджан”[2].

Далее Амир Темур в своём уложении сообщает, что в течении года он покорил столицу Индии и после чего возвратился в Самарканд для благоустройства города.

1 января 1399 года Амир Темур покинул Дели. Его путь пролегал через Кашмир, правитель которого Сикандар шах во избежании вооружённого столкновения с армией полководца добровольно покорился Темуру.

Темур, как победитель на покарённых землях назначил правителем мусульманского наместника Мултана и Пенджаба Хизр-хана Саида ибн Малик Сулеймана, который предпринял поход против Маллу Икбала, а в

[1] Там же.
[2]Зафар-наме. Книга побед Амира Тимура. Шараф ад-Дин Йазди. // https://coollib.in/b/689731/readp?p=149&cnt=9000

дальнейшем одержав победу над делийским султаном Даулат-ханом Лоди сам в 1414 году взошёл на престол султаната Дели.

AMIR TEMUR MARKAZLAShGAN DAVLAT ASOSChISI

Madaminova D.I.,
Toshkent davlat yuridik universiteti
dotsenti, siyosiy fanlar doktori.

XIV asrning ikkinchi yarmiga kelib, Amir Temur markazlashgan davlatga asos solib, uning kuch-qudratini har tomonlama mustahkamlab va rivojlantirib, shon-shuhratini butun jahonga yoydi, buyuk saltanat hukmdori sifatida millat va xalqlarni birlashtirdi. Uning davrida madaniyat, ilm-fan, me'morchilik, tasviriy san'at yuksak rivojlandi. Bir so‘z bilan aytganda, ilm-fan va madaniyatga homiylik qilib, Temuriylar davri Renessansiga asos solindi. Sohibqiron Amir Temurning orzu-umidlari O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoev ta'kidlaganidek, "...bobomizni jahon sahnasiga olib chiqdi va Temuriylar Renessansi, Ikkinchi uyg‘onish davri g‘oyalari va xalqimizning bunyonkorlik faoliyatiga kuchli ta'sir ko‘rsatdi"[1]. Markazlashgan qudratli davlat va qonun ustuvor bo‘lgan adolatli jamiyat qurish g‘oyasi Amir Temurning orzusida mujassam bo‘ldi va bu uning eng ezgu, oliy maqsadi edi.

Sohibqiron Amir Temur va temuriylar sulolasi hukmronlik qilgan yillarda o‘lkada diplomatik munosabatlar naqadar yuksak darajaga ko‘tarilganiga manbalar guvohlik beradi. Sohibqironning Fransiya, Angliya, Ispaniya, Vizantiya, Misr, Xitoy, Hindiston, Usmoniylar imperiyasi kabi ko‘plab davlatlarning hukmdorlari bilan olib borgan diplomatik aloqalari va yozishmalari buni yaqqol tasdiqlaydi. Amir Temur saroyiga dunyoning turli mamlakatlaridan, jumladan, Yevropa davlatlaridan o‘nlab elchilar kelgani tarixdan yaxshi ma'lum. O‘sha davr manbalarida (1389-1398 yillar) ya'ni, salkam o‘n yil ichida Amir Temur nomidan Xitoyga 9 marta elchilar borgani qayd etiladi. Ayni vaqtda Amir Temur va temuriylar saltanati nomidan Yevropa va Osiyo mamlakatlariga vakil bo‘lib borgan, asli shahrisabzlik Muhammad Keshiy, shuningdek, Mavlono Hofiz, G‘iyosiddin

Naqqosh, Abdurazzoq Samarqandiy kabi elchilarning nomlari tarix sahifalarida saqlanib qolgan. Ularning hayoti va faoliyati, afsuski, hozirgacha chuqur o‘rganilmagan dolzarb mavzu va o‘z tadqiqotchilarini kutib turibdi. Tashqi ishlar vazirligi va mutasaddi tashkilotlar bunga e’tibor qaratib, ushbu masalaning tarixiy ildizlari, mustaqillik davrida o‘zbek diplomatiyasining shakllanish jarayonlari haqida alohida bir kitob tayyorlab chiqarsa, bu soha xodimlari, avvalo, yosh diplomatlar uchun muhim qo‘llanma bo‘lardi. Tarixga murojaat qilinadigan bo‘lsa, bu masala Amir Temur zamonida ham kun tartibiga dolzarb vazifa sifatida qo‘yilganini ko‘rish mumkin. Masalan, “Sohibqironning 1402 yilda Fransiya qiroli Karl VI ga yo‘llagan maktubida, jumladan, shunday deyiladi: “Siz, a’lo hazratlari, o‘z savdogarlaringizni bizning mamlakatimizga yuborsangiz. Biz o‘z tomonimizdan ularning izzat-hurmatini saqlash, ularga hech kim zo‘rlik ko‘rsatib, ziyon-zahmat yetkazmasligini ta’minlaymiz. Chunki dunyo savdo ahli bilan obod va farovondir”. Ushbu hikmatli so‘zlar bugungi kunda ham xalqaro munosabatlarda o‘zining ahamiyati va qimmatini yo‘qotmagan. Ular xuddi shu bugunning gapi aytilgandek, jaranglamoqda”[2.33].

Amir Temur yosh bo‘lishiga qaramay, Movarounnahr taxtini egallaydi. U kuragi yerga tegmagan sarkarda, yirik davlat arbobi, qonunshunos, talantli me’mor, notiq, ruhshunos, shu bilan birga, el-yurtini, xalqini sevgan va uni mashhuri jahon qilgan xalq farzandi edi. Amir Temurning tarixi ko‘p jildli, o‘tkir zehnli, dovyurak, Vatan, el yurt uchun jonini ham fido etuvchi mard, jasur, shijoatli shaxs edi. Davlat boshqarishda xuddi shaxmat taxtasida o‘z donalarini oldinga surayotgan va raqibiga nisbatan xujum – yurish boshlayotgan o‘yinchini eslatar edi[3]. Amir Temur mo‘g‘ullar hukmronligiga barham berib, Vatan mustaqilligi va ozodligini tikladi. O‘z oldiga qo‘ygan oliy maqsadini amalga oshirganidan keyin milliy davlat va qo‘shinni tuzib, butun mamlakatda tinchlik va barqarorlik o‘rnatishga, taraqqiyot va farovon hayotni yuzaga keltirishga kirishdi. Ayni paytda, qudratli saltanat barpo etishni maqsad qildi va buni o‘zining aql-zakovati, tashkilotchilik qobiliyati, harbiy salohiyati tufayli uddaladi.

Sohibqiron Amir Temur jahonda tengi yo‘q qudratli va gullab yashnagan davlat barpo etgan buyuk sarkarda va davlat arbobi sifatidagina emas, balki o‘z poytaxti bo‘lmish Samarqandni yer yuzining chinakam madaniy-me’moriy va ilmiy-ma’naviy markazlaridan biriga aylantirgan. Bu ulug‘ zot qurdirgan me’morchilik va xalq san’atining javohir asarlari bugungacha qad ko‘tarib

turgan osori-atiqalar shahar va qishloqlar ko‘rkiga ko‘rk qo‘shib, xorijiy sayyohlarni ham o‘ziga jalb etib kelmoqda.

Uzoq va mashaqqatli kurashlardan so‘ng Amir Temur o‘z raqiblarini yengib, hokimiyatni qo‘lga kiritdi. Mayda, tarqoq holdagi feodallarni birlashtirib, markazlashgan davlat bunyod etdi, mamlakatda iqtisodiy va madaniy o‘zgarishlar qildi. Mo‘g‘ullarning o‘z umrini yashab bo‘lgan, eskirgan, zo‘ravonlikka asoslangan va chirigan davlati o‘rniga navqiron milliy davlatni tashkil qilib, yuqori va quyi mansablarga tub aholi vakillarini tayinlaydi. Hokimiyatni shaxsan o‘zi yaratgan qonun-qoidalar asosida boshqarishni yo‘lga qo‘yadi, oldingidek hukmdorning og‘zaki ravishda ish yuritishiga chek qo‘yiladi. Natijada, hokimiyatni qat’iy belgilangan tartib va intizom, mas’uliyat va halollik bilan boshqarish yo‘lga qo‘yiladi. Bu davlatning boshqaruv tizimini takomillashtirishda muhim o‘rin tutdi. Yuqori lavozimlarga aql-idrokli, chiniqqan, uddaburon, halol kishilar tayinlandi. Ularning vazifalari belgilanib, qattiq nazorat ostida ushlab turildi. Shuningdek, moddiy jihatdan ta’minlash va rag‘batlantirishga ham katta ahamiyat berildi.

Amir Temurning o‘zi mashhur lashkarboshi va jangchi bo‘lganligi uchun milliy qo‘shinni bilimdonlik bilan tuzdi. Davlatning mustahkam tayanchi va iftixori darajasida bo‘lishini ta’minlaydigan tartib va intizom o‘rnatdi. Xususan, amir, mingboshi, yuzboshi, o‘nboshi va boshqa harbiy lavozimdagilarning vazifalari aniq belgilandi. Amir Temurning tarix oldidagi xizmati benihoyat katta. Avvalo, u mamlakatda kuchayib ketgan feodal tarqoqlikka barham berib, el-yurtni o‘z tug‘i ostiga birlashtira oldi, mo‘g‘ullar zulmiga barham berib, markazlashgan yirik feodal davlatni barpo etdi. Bu bilan hunarmandchilik, savdo-sotiq va madaniyat rivojiga mustahkam zamin yaratib berdi. Ikkinchidan, Amir Temur bir qator xalqlar va yurtlarning mustamlakachilar zulmidan ozod bo‘lishiga yordam berdi. O‘sha davrning eng qudratli hukmdorlaridan hisoblangan Yildirim Boyazidni tor-mor keltirib, Bolqon yarim oroli va Yevropa xalqlariga ozodlik bag‘ishladi. Oltin O‘rda xoni To‘xtamishni ikki marta tor-mor etib, Rossiya xalqining mo‘g‘ullar hukmronligidan qutulishini tezlashtirdi. Uchinchidan, Movarounnahr zaminini ziroatchilik, hunarmandchilik, ilm-fan va madaniyati rivojlangan ilg‘or va qudratli davlatga aylantirdi[4].

Amir Temur va uning avlodlari sa’yi-harakatlari bilan ko‘plab madrasalar, masjidlar, xonaqohlar, saroylar, bozorlar, qal’alar, kanallar, yo‘l va ko‘priklar hamda boshqa inshootlar qurilgan. Amir Temurning bevosita rahnamoligida

barpo etilgan bunyodkorlik sohasidagi tarixiy xizmatlari beqiyos. Bibixonim jome’ masjidi, Go‘ri Amir, Ahmad Yassaviy, Zangi ota maqbaralari, Oqsaroy va Shohi Zinda me’moriy mo‘jizalari, Bog‘i Chinor, Bog‘i Dilkusho, Bog‘i Behisht, Bog‘i Baland singari o‘nlab go‘zal saroy-bog‘lar va shu kabi boshqa inshootlar shular jumlasiga kiradi.

XIV-XVI asrlarda Movarounnahrda madaniyat yana taraqqiy eta boshlaydi. Qisqa vaqt ichida Amir Temur davrida bir qator taniqli va iste’dodli shoirlar, yozuvchilar va olimlar yetishib chiqadi. Bular qatori shu davrda boshqa sohalar singari mashhur shatranj ustalari ham paydo bo‘la boshlagani diqqatga sazovordir[5].

Amir Temur Movarounnahrda kuchli markazlashgan davlat tuzdi (1370-1405 yy). Uning ichki siyosati moddiy-madaniy jihatdan Movarounnahrni rivojlantirishga qaratilgan edi. Amir Temur o‘z oldiga ulug‘ davlatning ichki siyosati va ishchan davlat tizimini qadimiy tajribalardan ijodiy foydalangan holda tuzish, harbiy siyosatini zamon talabi asosida tobora takomillashtirib, mo‘g‘ullar istilosi asoratlarini tezroq bartaraf etib, xo‘jalikni oyoqqa turg‘azish, savdo-sotiq, hunarmandchilikni bir me’yorga tushirish va rivojlantirish, aholi manfaatlarini himoya qilish, islom diniga rivoj berish, ilm-fan, madaniyat, me’morchilikni tubdan, rivojlantirish, obodonlashtirish ishlarini keng ko‘lamda jadallashtirish kabi dolzarb vazifalarni qo‘ygan edi. Uning bunday say’i-harakatlari katta kuch-g‘ayrat, mablag‘, bilim va oqilona tadbirlarni talab etar edi.

Shuningdek, Sohibkiron Amir Temur “Tuzuklari”da davlatni idora etishda amaldorlar katta o‘rin tutishlarini bayon qilib, ularni to‘g‘ri tanlab joy-joyiga qo‘yishni, har biriga loyiq amal berib, asosiy maqsad yo‘lida tarbiya qilishni muhim talab deb biladi. Har qaysi amaldorni tarbiyalashga ko‘p vaqt ketishi va bu mushkul ish ekanini tushuntirib, hokimlarga qo‘l ostidagi ilmli va tadbirkor kishilarni ehtiyot qilishni maslahat beradi.

Davlatni idora etish usullariga doir maslahat, tajriba, g‘oyalar majmui hisoblangan – “Temur tuzuklari”da asosiy g‘oya – adolat, qonun ustuvorligiga asoslangan inson himoyasi va uning qadr-qimmati hisoblanadi. Amir Tumur o‘zining “Temur tuzuklari”da "..raiyat qashshoqlanib qolmasin, soliqlarni to‘lay olmay qoladi, davlatimning xazinasi tugaydi, shukuhi ketadi"[6.122], deb yozadi.

Temur yetuk siyosatdon va mohir davlat arbobi bo‘lib, u o‘zidan avval o‘tgan hukmdorlardan farqli ravishda, davlat va mamlakatni boshqarishda bir

yoki ikki tabaqaga emas, balki aholining barcha tabaqalariga suyanar edi. Amir Temur o‘zining 35 yillik harbiy yurishlari natijasida markazlashgan, buyuk va qudratli davlat tashkil qilishga erishdi. Uning tarkibiga Movarounnahr, Xorazm, Kaspiy atrofidagi viloyatlar, hozirgi Afg‘oniston, Eron, Turkiya, Hindiston, Iroq, Janubiy Rossiya, Kavkaz va G‘arbiy Osiyoning bir qator mamlakatlari kirgan.

Mustaqillik sharofati bilan sovet davrida unutilayozgan buyuk Sohibqironning pok nomi qayta tiklandi. Tarixiy adolat qaror topib, 1996 yili Sohibqironning 660 yillik tavallud yoshi butun jahonda keng miqyosda nishonlandi.Temuriy hukmdorlardan Shohruh (1405-1447), Mirzo Ulug‘bek (1409-1449), Sulton Husayn (Boyqaro) (1469-1506), qisman Sulton Abu Said (1451-1469) davrlarida ichki osoyishtalik, ma’rifat va madaniyatga bo‘lgan e’tibor tufayli ilmu-fan va madaniyat yuksalib, Movarounnahr va Xuroson yana Sharqning ma’rifat va madaniyat markazi nomini qaytarib oladi.

Mustaqillikning dastlabki yillaridayoq Amir Temur nomini tiklash va abadiylashtirish masalalariga katta e’tibor qaratildi. O‘zbekiston Respublikasi rahbariyati va taniqli tarixchilarining Amir Temur shaxsiyati va tarixiga bo‘lgan diqqat e’tibori natijasida Sohibqiron saltanati tarixini to‘liq yaratish borasida samarali ishlar amalga oshirildi. Bu borada ko‘plab O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni [7], qonunlar va Vazirlar Mahkamasining maxsus qarorlari[8] qabul qilingan.

Mustaqillik yillarida o‘zbek xalqining o‘z tarixi haqida bilimini chuqurlashtirish, ayniqsa yosh avlodni vatanparvarlik va milliy iftixor ruhida tarbiyalash maqsadida, mazkur davr tarixiga davlat ko‘lamida alohida e’tibor qaratildi, ushbu tarixni har tomonlama ilmiy va amaliy yo‘nalishlarda izchil o‘rganib borish hamda targ‘ib qilish kun tartibidagi dolzarb vazifalar qatoriga qo‘yildi. Aslini olganda, Amir Temur saltanati jahon sivilizatsiyasi tarixidan munosib o‘rin olgan va uni o‘rganish tarixshunoslikning yirik yo‘nalishlaridan biri sifatida doimo olimlar diqqat e’tiborida bo‘lib kelgan va bu yo‘nalishda ko‘plab tadqiqotlar amalga oshirilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1..Шавкат Мирзиёев. Янги Ўзбекистон стратегияси.– Тошкент:Ўзбекистон, 2021.–Б.17.

2. Амир Темур. Библиография. Биринчи китоб. Оралиқ ҳисобот.– Тошкент, 2018. – Б.33.

3.У.Холиқов. Амир Темур севган ўйин/mbaza.uz.https.//mbaza.uz wp-content…

4.А.Халимов. Буюк Соҳибқирон Амир Темур тарихи ҳақида/bing.com images

5.Амир Темур. Темур тузуклари.–Тошкент: F.Fулом номидаги "Адабиёт ва санъат" нашриёти, 1996.–Б.122.

6. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “1996 йилни Амир Темур йили деб эълон қилиш тўғрисида”ги Фармони. Тошкент, 1995 йил 26 декабрь // Халқ сўзи. 1995, 27 декабрь.

7.“Амир Темур таваллудининг 660 йиллигини нишонлаш тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг630-сон қарори, 1994 йил 29 декабрь // Халқ сўзи.

AMIR TEMUR SIYOSATIDA DIPLOMATIYA VA MA’NAVIY OMILLAR

s.f.n. Mamatqobilov T.,
Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti professori,
Islomov O., magistr

Diplomat va diplomatiya so‘zlari grekcha “Diploma” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, davlatlar tashqi siyosatini konkret shart-sharoitga va masala xarakteriga mos ravishda amaliy noharbiy tadbirlar, metod va usullar yordamida olib borishni anglatadi. Diplomatiya tushunchasi tashqi muzokoralar olib borish san‘ati bo‘lib, xalqaro konfliktlarning oldini olish, ularni yo‘lga solish, kelishuvchanlik va o‘zaro muvofiqlashtirish yo‘llarini qidirish, shuningdek, xalqaro hamkorlikni kengaytirish bilan bog‘liqdir.

Diplomatiya davlat faoliyatining alohida bir turi sifatida XVI-XVII asrlarda shakllandi. Bu vaqtga kelib hukmdorlarning saroylarida doimiy diplomatik vakillar, davlat tizimi organlarida esa hatto davlatlararo yozishmalar, muzokoralar olib borish, elchilar va delegasiyalarni qabul qilish bilan shug‘ullanuvchi maxsus tashkilotlar ish olib bora boshlagan edilar.

Diplomatlik eng qadimgi martabalardan biri bo‘lib, tarixiy ma‘lumotlarga ko‘ra qadimgi vaqtlarda ham urush va tinchlik yoki sulh masalalari maxsus odamlar doirasida ma‘lum bir qonun-qoidalar bilan hal qilinar va rasmiylashtirilar edi. O‘sha davrlardan beri diplomatik aloqalar bilan alohida

mansabdor shaxslar shug‘ullangan, ko‘pincha ularning har tomonlama yetuk, fozil, oqil odamlar bo‘lishiga jiddiy e‘tibor berilgan.

Diplomatlarga turli davrlarda turli talablar qo‘yilgan, biroq hamisha XVIII-asr fransuz diplomati K.Alberning “Hukmdorlar bilan muzokora olib borish usullari” nomli kitobida ko‘rsatib o‘tilgan quyidagi xususiyatlarga alohida e‘tibor qaratib kelingan. Bu xususiyatlar ziyrak aql va sog‘lom fikrga ega bo‘lish; odamlarning yuragida hissiyotlarni, yuzidagi eng mayda o‘zgarishlarni ham seza olish va hisobga ola bilish, yuzaga kelgan qiyinchiliklarni yenga olish qobiliyati, kutilmagan savollarga javob berishga ruhan tayyor turish va ehtiyotkorlik bilan xavfli qadamlardan qochish, bosiq va og‘ir tabiatlilik, har qanday vaziyatda o‘zini bir xilda tuta bilish, ish doirasidagi odamlarni diqqat bilan tinglay bilish, insonga samimiy munosabatda bo‘lish, uzoqni ko‘ra bilishlik, hushmuomalalik xislatlaridir[1].

Diplomat o‘zini boshqara bilishi, aytmoqchi bo‘lgan fikrini vaqtidan oldin gapirib qo‘ymasligi, ayniqsa, biron-bir taklifga yaxshilab o‘ylamasdan o‘sha zahotiyoq shoshib javob berishdan saqlanishi zarur.

Hozirgi zamon diplomatiyasida Amir Temur diplomatiyasining uslub va usullaridan keng foydalanilmoqa. Temur tomonidan boshqa davlatlar arboblari bilan bo‘lgan munosabatlarda qo‘llangan diplomatik usullar va ularning ayrim nozik jihatlari nazariy va amaliy jihatdan chuqur o‘rganishga arzigulikdir.

Amir Temurga teran aql va ziyraklik, o‘tkir idrok xos bo‘lib, bu sifatlar diplomat shaxsning eng muhim jihatini va asosini tashkil etadi. Buyuk bobakalonimiz u yoki bu mamlakatga o‘z elchilarini yuborish, boshqa davlatlar elchilarini qabul qilish orqali qirol va amirlar bilan diplomatik yozishmalar o‘rnatib, bu sohaning shakl va mazmunlarini yanada boyitdi. Amir Temur diplomatiyasida mutaffakkirlar, faylasuflar, olimlar, davlat rahbarlari, san‘at arboblari bilan turli xil uchrashuvlar o‘tkazish ham muhim o‘rin egallaydi. Sohibqiron malakali tarjimonlar tanlash va ulardan foydalanishga ham katta e‘tibor bilan qaragan. Uning diplomatiyasida muzokora olib borish san‘ati ham alohida o‘rin tutadi. Bunday diplomatik muzokoralar dushman bilan tinchlik sulhi tuzishda yoki uni to‘la mahv qilishda, dushman tomonga shartlar qo‘yishda samarali vosita bo‘lib xizmat qilgan.

Amir Temurning o‘z faoliyatida qo‘llagan prinsipi shundan iborat ediki, davlatlararo muammolarning 90 foizi maslahat qilish va muzokoralar olib borish, faqat 10 foizigina harbiy vositalarni qo‘llash yo‘li bilan hal etilar edi.

Amir Temurning tarixiy xizmatlaridan biri shu boʻldiki, oʻz davri uchun davlat boshqaruvining taraqqiyparvar anʻanalari boʻlgan dargoh va devon boshqaruv tizimini qayta tikladi. Amir Temur oʻzigacha boʻlgan 150 yillik tarixiy reallikni hisobga oldi va mahalliy yerlarni viloyatlarga boʻlib boshqardi. Imperiyaning qismlarga va viloyatlarga boʻlib, oʻgʻillari va nevaralariga taqsimlab berilishi shundan dalolat beradi.

Amir Temur dargoh qoshida maxsus kengash tuzgan. Kengash ichki va tashqi siyosatning eng muhim masalalarini, hokimiyatning yuqori amallariga mansabdor shaxslar tayinlash va boshqa masalalarni muhokoma qilgan. Kengashning har bir yigʻini kotib tomonidan yozib borilgan.

Dargoh tizimi quyidagi xizmat yoʻnalishlarini ham oʻz ichiga olgan: arzbegi, tovachi, jibachilar, qushbegi, xazinador, xonsalor, bakovulboshi, kotib, munshiy, bitikchi, farrosh va h.k.

Devon tizimi esa quyidagi vazirliklardan iborat boʻlgan: mamlakat va aholi ishlari boʻyicha, yaʻni Bosh vazir, harbiy ishlar boʻyicha; soliq yigʻish va mulk ishlari boʻyicha; moliya, huquq, zabt etilgan mamlakatlar ishlari boʻyicha va h.k.

Musulmon hukmdori sifatida Temur arabcha nomlanish “Amir” (turkcha nomlanishi - bek) dan foydalandi, oʻzini shariat nizomlariga amal qiluvchi, islom ruhoniylarining, ayniqsa, darveshlarning himoyachisi deb eʻlon qildi. Temur turli jihodlarni olib bordi, biroq Xitoyga yurishi amalga oshmadi, u Xitoy zaminiga kirmasdan vafot etdi.

Temur oʻz saltanati uchun devon boshqaruvining ikki tizimini taʻsis etdi: biri turk-moʻgʻullardan iborat Chigʻatoy qabilasi va armiya ishlari boʻyicha “Devoni boʻzurg” mahkamasi, ikkinchisi fors rasmiyatchilaridan iborat oʻtroq aholidan soliq yigʻish ishlari boʻyicha “Devoni aʻlo” mahkamasi edi. Uning diqqat markazida puxta gʻalabaga olib boruvchi qoʻshinni takomillashtirish masalasi turgan[2].

Chingizxon oʻz davrida rahbariyat tarkibiga oʻzining ishonarli kishilarini tayinlash orqali qabilaviy boshliqlarning vazifasini cheklab qoʻygan edi. Temur Chigʻatoy ulusini qabilaviy uyushuvdan gʻolib qoʻshinga aylantirdi. Temur qoʻshini boʻlinmalari qabilaviy mansublikka qarab emas, balki Temurga boʻysungan Chigʻatoyning urugʻ va izdoshlari tomonidan boshqarilar edi. Mahalliy saltanatlar xususida toʻxtaladigan boʻlsak, Temur oʻziga koʻproq sodiq boʻlgan xuddi oʻsha saltanat kishilarini rahbar sifatida tayinlash va muntazam oʻzgartirib turishga muhim e’tibor qaratgan.

Inson o‘zining ma’naviy jihati bilan o‘zga jinsdoshlaridan mumtoz bo‘lgani uchun uning shaxsiy va ijtimoiy faoliyatining sifati va natijasi uning ma‘naviy darajasiga bog‘liq. Ma’naviy daraja qancha yuksak bo‘lsa, ilmiy, foniy, siyosiy- iqtisodiy va madaniy taraqqiyot shuncha ilg‘or bo‘ladi. Temur va temuriylarga xos bir muhim xususiyat ularning har tomonlama a‘lo ta‘lim olganliklaridir.Temur davridagi ilmu amal va ta‘limu-tarbiya ijtimoiy qonunlarga uyg‘un falsafiy aqidalarga asoslangan edi. Temur e‘tiqod qo‘ygan va amal qilgan aqidalar quyidagilardan iborat:

- haq taola olam va undagi mavjudotni o‘z kamoli va jamolini ko‘rsatish, insonni esa o‘z haqiqatini anglash yo‘li bilan uning jamolidan bahramand bo‘lish uchun yaratgan. Inson bu darajaga erishish uchun nafsi ammorani mag‘lab qilib, ijobiy xislatlarini rivojlantirish kerak;

- insonning bu yo‘ldagi taraqqiysi uning dunyoviy muvaffaqiyatlarini ta‘minlaydi. Hukmdorlar kamoli uchun eng muhim hislat aqldir;

- davlatning quvvati raiyat farovonligiga bog‘liq. Mehnat ahli qanchalik boy bo‘lsa, davlat shunchalik baquvvat bo‘ladi va uni tashqi va ichki dushmanlari yemira olmaydi. Binobarin, Amir Temur fuqaroni boy qilish choralarini ko‘radi.

Umuman farovonlikka erishish uchun tinch mehnat sharoiti zarur. Binobarin, Amir Temur elni tashqi hujumdan va ichki fasoddan saqladi.

Mamlakatni fasoddan saqlab, davlatni bosqinchilar qurboni bo‘ladigan darajada zaiflashtirmaslik uchun ilmu-fanni va ta‘limu-tarbiyani ommaviy ravishda yuksaltirish lozim. Amir Temur podsholikning bu vazifasini ham muvaffaqiyatli bajardi. Mamlakat jahon taraqqiyotidan orqada qolmaslik uchun xalqaro o‘rtoqlik munosabatlarini yo‘lga qo‘yishi muhim. Bunda ustunlik da‘vosidan voz kechib, tenglik iddaosini qilish shart. Xaq taola oldida, odam avlodining hammasi tengligini nazarda tutib ish ko‘rgan Amir Temur bu borada ham katta muvaffaqiyatlarga erishdi.

XIV asrda Markaziy Osiyo hududida shakllangan Amir Temur davlati mazkur mintaqa xalqlari tarixida alohida hodisa hisoblanadi. Aynan, Amir Temur Markaziy Osiyo xalqlarini iqtisodi gullab yashnagan, davlat boshqaruv tizimi yaxshi yo‘lga qo‘yilgan va kuchli qo‘shinga ega bo‘lgan buyuk davlat sifatida birinchi bo‘lib birlashtira oldi. Markaziy Osiyo xalqlarining gullab yashnashi aynan Amir Temurning hukmronligi bilan izohlanadi.

Shu bois hozirgi kunda Turkiy davlatlar g‘oyasi jiddiy dolzarblik kasb etadi, bu g‘oya albatta hech kimni mustaqilligiga dahl etmaydi.

Yagona Turkiy davlatlar g‘oyasi faqat taqdir, tarix, til, madaniyat, odat, rasm-rusumlar birligi nuktayi nazaridan bo‘lmasdan, balki XX asrning 70 yil ichida yuzaga kelgan ijtimoiy-siyosiy tuzumi buzilib, uning o‘rniga yangi mustaqil davlatlar qurishga kirishilganligi hamdir. Markaziy Osiyo davlatlarining orzu maqsadlari va niyatlari ko‘p jihatdan mushtarak. Bu bozor iqtisodiyotiga o‘tish, siyosiy tizimni demokratlashtirish va hakozo. Shu yo‘lda qo‘shma rejalar, o‘zaro tajriba almashish va islohotlar strategiyasi qanchalik kelishilgan holda amalga oshirilsa, Markaziy Osiyo xalqlari shuncha tezroq qiyinchilikdan chiqib, gullab-yashnashga erishadilar.

Binobarin Amir Temur hukmdorlik davri dunyoviy huquqiy manba – “Temur tuzuklari”da yorqin aks etgan. Bu huquqiy yodgorlikning dastlabki tadqiqotchilari hamda tarjimonlarining fikrlarini o‘rganish kerak. XIV-XV asrlarda yaratilgan bu tarixiy hujjat o‘z davrining muhim tarixiy huquqiy manbasidir.

Manbaning nomi uning huquqiy xarakteridan dalolat beradi. Chunonchi, “Tuzuk” atamasi sof turkiy chig‘atoycha (eski o‘zbekcha) so‘z bo‘lib, mazmuni “qoida tuzish”, “tartibga keltirishdir” va forscha “oyin” arabcha “qonun” so‘zlariga mos keladi. Uni hozirgi o‘zbek tiliga ag‘daradigan bo‘lsak, “Temurbek qonunlarini” bildiradi. Buni muallifning o‘zi ham tasdiqlaydi va “Davlatni boshqarish yuzasidan qo‘llanma” sifatida baholaydi.

Matnda uchraydigan “xulosa qildim”, “buyurdim”, “hukm qildim”, “amr qildim”[3] iboralari, garchi tuzuklarning Qurultoyda tasdiqlangani yoki qabul qilingani to‘g‘risida aniq ma‘lumot bermasada, hukmdor hukmi bilan yaratilgan hujjatning huquqiy xarakaterini tasdiqlaydi.

Yangi O‘zbekiston milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari dadil ilgarilab bormoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlari oliy bosh Qo‘mondoni Shavkat Mirziyoevning “O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiy xizmatchilarining ma’naviy-ma’rifiy saviyasini oshirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida” 2018 - yil 4 - avgustdagi PQ-3898-sonli qarori [4] va shu asosda joriy etilgan Qurolli Kuchlar tizimida ma’naviy-ma’rifiy ishlar samarodorligini oshirish konsepsiyasiga muvofiq “Vatan-muqaddas, uni himoya qilish sharafli burchdir!” g‘oyasi ilgari surildi. Shuningdek, Qurolli Kuchlar tizimida haftaning har juma kuni “Ma’naviy yuksalish va vatanparvarlik kuni” etib belgilanganligi zamirida esa harbiy xizmatchilarning ma’naviy-ruhiy tayyorgarligini rag‘batlantirib borish lozimligi belgilangan. Maqsad mamlakatimiz suverenligini, hududiy

yaxlitligini, xalqimiz tinchligini sadoqat bilan himoya qilish eng oliy vazifa sifatida e’tirof etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1..Alber K. “Hukmdorlar bilan muzokora olib borish usullari” // T.: 1997. –B.18.

2.Temur A. “Temur tuzuklari” // T.: 1998. –B.68.

3.Temur A. “Temur tuzuklari” // T.: 1998. –B.53.

4.“O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiy xizmatchilarining ma’naviy-ma’rifiy saviyasini oshirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida” 2018-yil 4-avgustdagi PQ-3898-sonli qarori. “Xalq so‘zi” gazetasi, 2018-yil 5-avgust.

AMIR TEMURNING O‘ZBEK VA DUNYO XALQLARI MANFAATLARI YO‘LIDAGI XIZMATI

Mirzayev G.R.,
Jamoat xavfsizligi universiteti kafedra boshlig‘i o‘rinbosari
tarix fanlari doktori, dotsent.

Vatanimiz tarixining har bir varag‘i biz uchun unutilmas manbadir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek, “Buyuk tarixda hech narsa izsiz ketmaydi. U xalqlarning qonida, tarixiy xotirasida saqlanadi va amaliy ishlarida namoyon bo‘ladi. Shuning uchun ham u qudratlidir. Tarixiy merosni asrab-avaylash, o‘rganish va avlodlardan avlodlarga qoldirish davlatimiz siyosatining eng muhim ustuvor yo‘nalishlaridan biridir[1]. Chunki, tarix – qadriyat, o‘zlik manbai va yo‘l ko‘rsatuvchi ulug‘ muallimdir. Vatan tarixini sevib o‘rganish kishiga nafaqat o‘zligini anglashga yordam beradi, balki o‘tmishdan kerakli saboq chiqarish, milliy mentalitet, qadriyatlarni chuqur bilgan holda mos istiqbol va taraqqiyot yo‘lini belgilash uchun dasturulamal bo‘lib xizmat qilishi mumkin[2].

Darhaqiqat, ko‘xna tarix o‘z bag‘rida bashariyat sivilizatsiyasiga munosib hissa qo‘shgan ko‘plab shon-shuhratga burkangan va murakkab ziddiyatli buyuk daholarga shoiru-hukmdorlarga doya bo‘lib kelgan.

[1] Мирзиёев Ш. М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-жилд. Тошкент: “Ўзбекистон”, 2017. – Б.29.
[2] O‘zbekiston tarixi. Oliy o‘quv yurtlarining tarix fakulteti talabalari uchun darslik. 1-kitob. – T.: “Fan”, 2018.- B. 6.

Sohibqiron Amir Temur ana shunday yengilmas sarkarda, markazlashgan davlat asoschisi, harbiy strateg bo‘lib, uning siymosini tadqiq etish qanchalik murakkab jarayon bo‘lsa, uning Tuzuklari haqida so‘z yuritish esa yana murakkab bo‘lib, tadqiqotchi va o‘rganuvchidan teran zukkolikni talab etishining guvohi bo‘lamiz.

Muhtaram Prezidentimiz, Shavkat Mirziyoev ta’biri bilan aytganda, “Milliy davlatchiligimiz, g‘urur-iftixorimiz timsoli bo‘lgan bu ulug‘ zotning xalqimiz, Vatanimiz oldidagi tarixiy xizmatlarni baholashning o‘zi qiyin. Mustaqillik yillarida buyuk ajdodimizning xotirasini tiklash borasida qanday katta ishlar amalga oshirilganini barchangiz albatta yaxshi bilasiz”[1].

Amir Temur hayoti va faoliyatini yorituvchi asosiy tarixiy manbalar turli tillarda ko‘p va xilma-xil bo‘lib, bu uning jahon tarixidagi roli beqiyos ekanligidan dalolat beradi. Yevropa olimlari Amir Temur davlati Osiyodagi eng so‘nggi buyuk saltanat edi, deya e’tirof etadilar. Sohibqironning bunday katta davlatni, markazlashgan yirik saltanat sifatida tuzishi, tartibga keltirishi va uzoq yillar hukmronlik qilishida “Temur tuzuklari” asosiy manba sifatida xizmat qilgan. Amir Temur faoliyatining asosiy tamoyillari «Temur tuzuklari»da o‘z aksini topgan bo‘lib, unda jahongirning saltanat boshqaruvida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan barcha muammolaridan tortib, ichki va tashqi siyosatning mohiyati, xalqlararo va millatlararo munsabatlar, ma’naviy meros masalalari to‘g‘risidagi fikr-mulohazalari bayon etilgan[2].

Xalqning g‘urur va iftixori aylangan Amir Temur – o‘z strategiyasi va taktikasini ishlab chiqqan buyuk sarkardadir. Shubhasiz, u o‘z vaqtining iste’dodli sarkardasi bo‘lib, davlat boshqaruvida donishmandlik va qobiliyatli sarkardalik sifatlarini o‘zida mujassam qilgan edi.

Amir Temurning tarixiy buyukligi shundaki, u tarix oldidagi zimmasiga yuklatilgan bir qator vazifalarni amalga oshirdi.

Birinchi – Movarounnahrdagi tarqalib ketgan hududlarni birlashtirib yagona davlatga aylantirdi.

Ikkinchi - Amir Temur tomonidan Oltin O‘rda yanchib tashlandi va bu davlat qaytib o‘zini o‘nglay olmadi. Ayni vaqtda rus knyazliklari ustidan hokimiyatning bo‘shashganligi esa Moskva Rusining mo‘g‘ullar hukmronligidan ozod bo‘lishini tezlashtirib yubordi.

---

[1]Мирзиёев Ш.М. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз. Тошкент: “Ўзбекистон” НМИУ, 2017. –Б.309.

[2] Рахмонов С. Иккинчи ренессанс даврининг маънавий-руҳий асоси. Монография. – Самарқанд: СамДЧТИ нашри. 2021 йил. – Б.123.

Uchinchi – Amir Temur Usmoniylar davlati hukmdori Boyazid I ustidan 1402-yil Anqara shahri yaqinida katta g‘alabaga erishdi. Usmoniylar qo‘shinini tor-mor etib, Amir Temur uni parchalab tashladi. Usmoniylar o‘zini anglab qayta tiklanishi uchun 50 yil vaqt kerak bo‘ldi. Yarim asrlik tanaffus Sharqiy va Markaziy Yevropa davlatlari uchun o‘ta muhim vaqt bo‘lib, bu davr mobaynida ular turklar bosqinidan xalos bo‘lib, Yevropa davlatlarini mustahkamlab olishlari uchun imkon berdi.

Ushbu qo‘llanma o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmaga ega bo‘lishida muhim o‘rin tutadi.

Muxtasar qilib, Sh.Mirziyoyev ta’biri bilan aytganda, “o‘z farzandlarida yuksak vatanparvarlik ruhini kamol toptira olmagan davlat, qanday qudratli qurolga ega bo‘lmasin, mudofaa qobiliyatini mustahkamlay olmaydi”[1].

Mazkur uslubiy qo‘llanmani tayyorlashda O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi muzeyi fondlaridan foydalanilganligi uchun chuqur minnatdorlik bildiradi.

Amir Temur o‘z faoliyati davomida o‘zbek va dunyo xalqlari manfaatlari uchun quyidagi vazifalarni ado etdi:

1.Yurtimizda ildiz otgan mo‘g‘ullar zulmiga uzil-kesil zarba berdi;

2. Mayda davlatlarga bo‘linib ketgan tarqoqlik, ichki urushlar va adolatsizlik hukm surgan Movarounnahrni yagona davlatga birlashtirib, uning boshqaruv apparatini shakllantirdi va mustahkamladi;

3. Qonun ustuvor bo‘lgan jamiyat asoslarini barpo etdi;

4. Saltanatning iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va ma’naviy asoslarini mustahkamladi;

5. Nisbatan qisqa vaqt ichida Movoraunnahrni dunyoning rivojlangan mintaqasiga aylantirdi;

6. Osiyo, Afrika va Yevropa mintaqasidagi xalqlarning tinchligi va farovonligi uchun katta xizmat qildi, xalqaro maydonda adolatni ta’minlash uchun kurashdi;

7. Turli din, millat, elatlar vakillari o‘rtasida aloqalar o‘rnatilishi natijasida birinchi marta yagona makon va integratsiya g‘oyalari shakllana

[1] Xalq so‘zi, 2021-yil 20-yanvar.

boshladi. Saltanat boshqaruvida islom dinining ilmiy asoslariga, bag‘rikenglik tamoyillariga tayanildi;

8. Amir Temur hukmronligi davrida davlat, jamiyat va shaxs manfaatlari uyg‘unlashtirilgan, siyosiy, iqtisodiy va ma’naviy barqarorlik o‘rnatilgan. Davlat boshqaruvining muhim sohalaridagi faoliyati ana shu maqsadlarga yo‘naltirilgan, chiqarilgan qonunlar o‘z vaqtida ijrosini topgan.

Yevropa tillarida 700 dan, Sharq tillarida 900 dan ortiq asarlar yaratilgan.

Amir Temurning hayoti va faoliyati kishilik jamiyatining tarixida ibrat bo‘larli darajada o‘chmas iz qoldirdi. U o‘z hukmronligi davomida 27 nafar katta va kichik mamlakatlarni o‘z saltanati tasarrufiga oldi.

O‘z faoliyatini boshlar ekan, u eng avvalo, Movarounnahrni mo‘g‘ullar zulmidan ozod qildi, shuningdek Oltin O‘rdani mag‘lub etib, Hindiston, Anqara, Bag‘dod, Shomni o‘ysundirib, ulkan salatanat barpo qildi. Amir Temur tengsiz va engilmas strateg, mohir sarkarda, janglarni olib borishda mohiyatni oldindan ko‘ra biluvchi va jang vaqtida lashkarni turli usullarda harakatlarini shakllantira oladigan, hatto oz sonli qo‘shin bilan katta qo‘shinlarni yenga olishga qodir ajoyib tashkilotchi sifatida tarixda o‘z nomini qoldirdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

8. Ибн Арабмоҳ. Амир Темур тарихи, 2-жилдлик Тошкент Меҳнат 1991 йил.

9. Murtazayeva R.X. va boshqalar. O‘zbekiston tarixi. Darslik. – T.: Yangi asr avlodi, 2005. -420 b.

10. Murtazaeva R.X. va boshqalar. O‘zbekiston tarixi. Darslik. 2-jild.–T.: Yangi asr avlodi, 2015. -484 b.

11. Raximov J. Amir Temur – adolat va qudrat timsoli. Toshkent: “O‘qituvchi”, 2015. 530 b.

12. Raximov J. Amir Temur – buyuk arbobi va ulug‘ sarkarda. Toshkent: “Ziyonashr”, 2023. -680 b.

13. Руи Гонсалес Де Клавихо. Дневник путешествия в Самарканд ко двору Тимура. (1403-1406 г.) Пер. со староисп. Предисл. коммент. И.С.Мироковой. – Москва: Наука, 1990.

14. Temur tuzuklari. Raximov J. tahriri ostida.

Eshov B., Odilov A. O‘zbekiston tarixi. I jild. Eng qadimgi davrdan XIX asr o‘rtalarigacha. Darslik. – T.: Yangi asr avlodi, 2014. -416 b.

SOHIBQIRON TEMUR VA MIRONSHOH MIRZONI MADH ETGAN SHOIRLAR
(Alisher Navoiy asarlari ma’lumotlari asosida)

Meyliyev X.,
Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti tadqiqotchisi.

Temuriylar davri manbalari Sohibqiron Temur (1336-1405) va Mironshoh Mirzo atrofida doimo she’riyat ahli bo‘lganini hamda ularning huzurida shoirlar majlislari o‘tkazilganini tasdiqlaydi. Amir Temur va temuriylar zamonidagi adabiy muhit to‘g‘risida adabiyotshunos Abduqodir Hayitmetovning “Temuriylar davri o‘zbek adabiyoti” kitobida shunday degan: “Amir Temur nozikta’b inson, go‘zallikni chuqur his etadigan, adabiyot va san’atning qadriga yetadigan zot ham edi. Uning badiiy adabiyotga munosabati shu paytgacha maxsus o‘rganilmagan. Bunga oydinlik kiritishda bizga birinchi ko‘makdosh Alisher Navoiydir. Adabiyot tarixining buyuk bilimdoni, xususan temuriylar tarixini yaxshi bilgan Navoiy o‘zining “Majolis un-nafois” tazkirasida bu davrda yetishgan va ijod qilgan ijodkorlarga batafsil to‘xtab o‘tgan [9, 14]”. “Majolis un-nafois”da yozilganidek, “Temur Ko‘ragon” – anorallohi burhonahi, garchi nazm aytmoqqa iltifot qilmaydurlar, ammo nazm va nasrni andoq xo‘b mahal va mavqe’da o‘qubdurlarkim, aningdek bir bayt o‘qug‘oni ming bayt aytqoncha bor [3, 411]”. Aniqroq qilib aytganda, garchi Amir Temur va Mironshoh she’rlar yozmagan bo‘lsalarda, ko‘p nazmiy va nasriy asarlardan xabardor bo‘lganlar, ularning katta qismini yoddan bilganlar, she’riyat ahlini qadrlaganlar. O‘zaro suhbatlarda, olimlar va shoirlarning majlislarida, do‘stlik va o‘rtoqlik gurunglarida sohibqiron, Navoiy iborasi bilan aytganda, o‘z o‘rni va o‘z vaqtida (“mahal va mavqe’da”) she’riy asarlardan ayrim parchalarni, nasriy asarlardagi eslanishga loyiq bo‘lgan epizod va syujetlarni, bu asarlarning qahramonlariga oid baytlarni ma’lum bir voqealar munosabati bilan yoddan keltira olgan [9, 14]. Vaholanki, “Temur tuzuklari”da Amir Temurning Amir Husaynga yozgan bayti keltirilgan:

Yorga yetkur sabo, kim makr qilmishdir manga,

Qildi ersa kimga makr, qaytadir bir kun anga [1, 50].

Taniqli tarixchi A.Ahmedovning “Amir Temur jahon tarixida” kitobida ham Temur va temuriylar adabiyot va she’riyatni nihoyatda qadrlagani qayd etilgan: Ya’ni “Amir Temur she’rda juda katta ijtimoiy-falsafiy, ahloqiy ma’no, nafosatni ko‘rgan, sezgan va undan butun umri davomida foydalangan, uning zavqi bilan yashagan. Amir Temur hayotining eng qiyin damlarida she’r unga murakkab masalalarni oson yechishga yordam bergan [10, 166]”. Binobarin, “Amir Temur va Temuriylar davridagi adabiy hayot haqida so‘z yuritadigan bo‘lsak, gapni Sohibqironning o‘zidan boshlashga to‘g‘ri keladi. Tarixiy asarlarda, jumladan, “Zafarnoma”da Amir Temurga mansub bir necha bayt keltirib o‘tiladi. V.V. Bartold ham Amir Temurning o‘z saroyidan forsigo‘y muarrixlar bilan bir qatorda turkiy (uyg‘ur) baxshilariga o‘rin berganligini, ularning Amir Temur tarixini she’riy yo‘l bilan bitganliklarini ta’kidlab o‘tadi [11, 450]”.

Albatta, Amir Temur va Mironshoh davrida ko‘plab shoiru adiblar ijod qilgan. Bu davrda shoiru shuaro, fozilu fuzalolar, ilm ahlini ko‘payganligini Izzat Sulton shunday izohlagan: “Temur o‘z yurtida dunyoning ko‘p yerlaridan eng qimmatli kapital – ilm va hunar egalarini yiqqan edi. Temur avlodlari o‘z ota-bobosining shu bebaho merosi va mahalliy xalqlar iste’dodi va mehnati zaminida Temurning xayoliga ham kelmagan madaniy taraqqiyotga erishdilar. Samarqand va Hirot shu yangi madaniyatning markazi bo‘lib qoldi. Xuroson va Movarounnahrning boshqa ko‘p katta-kichik shaharlariga ham shu jonsiz va “jonli boylik” tarqalib ketgan, hunar va bilim, she’riyat egalarining ko‘pchiligi viloyatlarning bek va sultonlari saroyida o‘z ijodiy ishlarini davom ettirar edi [12, 34]”. Chunonchi, Navoiy ham “Muhokamat ul-lug‘atayn”da Amir Temur davriga kelib turkigo‘y shoirlar paydo bo‘lgani haqida quyidagicha zikr etgan: “Mamlakat arab va sart sultonlaridan turk xonlariga o‘tganidan so‘ng, Xalaguxon zamonidan so‘ngra Sohibqiron Temur Ko‘ragon zamonidan tortib farzandi Shohrux sulton zamonining oxirigacha turk tilida yozuvchi shoirlar, shu jumladan, ul hazrat (Amir Temur)ning avlodlaridan ham xushtab’ podshohlar paydo bo‘ldilar.

Shoirlardan Sakkokiy, Haydar Xorazmiy, Atoiy, Muqimiy, Yaqiniy, Amiriy va Gadoiy kabi. Lekin forsiy shoirlar qarshisiga chiqa oladigan yolg‘iz mavlono Lutfiydan o‘zga kishi paydo bo‘lmadi.

Podshohlar ichidan ham sulton (Abulqosim) Boburdan boshqa hech qaysisidan she’riy asar (devon) yuzaga chiqmadi va varaq yuziga naqsh qilarli o‘zga narsa qolmadi [4, 81]”.

Amir Temur va temuriylar davrida yashab, ijod qilgan saroy shoirlaridan biri Samarqand shayxulislomi Abdumalik Isomiy Samarqandiydir. Davlatshoh Samarqandiy “Tazkirat ush-shuaro”da “Amir Temur ko‘ragon zamoni” shayxulislomi Xoja Abdulmalik Isomiyni “ilmu fazli bilan birga ajoyib ash’ori bor [5, 131]” deb ta’riflab, quyidagi baytini keltirgan:

Sendan xeshlar xabari yiroq emas, Isomiy,

Bo‘lma bugun firoqdan qaddi o‘roq oqibat [5, 131].

Sohibqiron Temur g‘amxo‘rligida Faxriddin Mahmud Ibn Amip Yaminiddin Turg‘at (Ibn Yamin), Ubaydi Zakoni, Imodiddin Faqih, Jamoliddin Muhammad Salmon ibn Olouddin Muhammad, Shamsiddin Muhammad Nafiz, Kamoliddin ibn Mas’ud, Xoja Kamol kabi shoirlar ijod qilganlar. Tarixchi Ibn Arabshohning yozishicha, saroy shoiri Mavlono Ahmad ibn Shams ul Aimma turkcha, forscha, arabchada samarali ijod qilib, “malik ul-kalom” unvonini olgan [2, 414]. Faxriddin Ali Safiy “Latofatnoma” (“Latoyif ut-tavoyif”) asarida Amir Temur bilan Hofiz Sheroziy uchrashuviga bag‘ishlangan hikoyatda Sohibqironga yaqin saroy shoiri Sayyid Zaynul Obiddin Ruknobodiy nomini keltirib o‘tgan [7, 64].

Sohibqiron Temur va Mironshoh davrida forsiy she’riyatda jahonga mashhur Hofiz Sheroziy, Kamol Xo‘jandiy, Salmon Sovajiy, Ismat Buxoriy singari shoirlar, turkiy she’riyatda Sayyid Nasimiy, Sayfi Saroyi, Lutfiy, Durbek, Sakkokiy kabi so‘z san’atkorlari ijod qilganlar va nom chiqarganlar. Lekin ularning Sohibqiron bilan o‘zaro munosabatlari haqida bizga juda kam ma’lumot yetib kelgan. Marhum adabiyotshunos Hakim Homidiy va taniqli tojik adabiyotshunosi Otaxon Sayfullaev fikriga ko‘ra, Amir Temur avliyo shoir Shayx Kamol Xo‘jandiyning hayotida muhim rol o‘ynagan [10, 165]. Tarixchilar Sh. Axadov va T. Egamovlarning “Amir Temur va temuriylar davrining intellektual salohiyati” nomli kitobida mashhur shoirlar Mavlono Ahmad at-Termiziy, Sirojiddin Bisotiy Samarqandiy Amir Temur bag‘ishlab qasidalar yozganligi, Mavlono Mansur al-Qog‘oniy Xiyaliyyi Buxoriy, “Temurnoma” asari muallifi shoir Ahmad Karmoniy, Lutfullo Nishopuriy, qasidanavis Shayx Kamol Xo‘jandiylarni [13, 70] Sohibqiron Temur va Mironshoh nihoyatda hurmat qilib, iltifot ko‘rsatganligi zikr etilgan.

Qasidanavis saroy shoiri Lutfullo Nishopuriy Amir Temur va Mironshoh saroyida xizmat qilgan. Amir Temurning adabiy yig‘inlarida qatnashib, unga bag‘ishlangan o‘z qasidalarini o‘qigan. Qasidanavis bu shoir haqida “Tarixi tomm”da shunday yozilgan: “Ma’naviy va suriy g‘azalsarolar devonining shohbayti Mavlono Lutfulloh Nishopuriy Jamshidnishon hoqon Sohibqiron Amir Temur ko‘ragon zamonida o‘tgan bo‘lib, Sohibqiron va amirzoda Mironshohning ham maddohi edi. Ilmlar fanlarida shunday ediki, ma’no go‘yini qalam chavgoni bilan zamon so‘z ustalari maydoni arsasidan surib, arqonlari orasida volomisol ul zot fuzalo va zurafo orasida muttafiq edilar [6, 12]”. Nishopuriy Sohibqiron Temur va Mironshoh huzuridagi she’riyat kechalarida faol ishtirok etgan. Ma’lum muddat Mironshoh Mirzoning Tabrizdagi saroyida xizmat qilgan. Faxriddin Ali Safiyning “Latoyif ut-tavoyif” kitobida keltirilishicha, Mavlono Lutfullo Nishopuriy Sohibqiron Temur va Mironshoh zamonining qasida ustalaridan biri bo‘lgan[14, 77].

Xulosa qilib aytganda, Herman Vamberi “Buxoro yohud Movarounnahr tarixi” asarida Amir Temur, Mironshoh va temuriylar davridagi madaniy-adabiy taraqqiyot haqida shunday yozadi: “Amir Temur va Temuriylar davridagi madaniyatga havas qo‘ymoq–Andaluziya umaviylari davlatining porloq davri bilan Arabistondagi abbosiylarning ilk hukmronlik zamonini istisno etganda–islom olamining boshqa birorta joyida sodir bo‘lmadi. ...Garchi temuriylar taraqqiyot davriga Eronda mo‘g‘il hukmdorlari vaqtidagi fikriy uyg‘onishning davomi nazari bilan qaramoq lozim bo‘lsa ham, ammo fanlar va san’at Marog‘a, Tabriz, Sultoniya saroylarida hech qachon Hirot va Samarqanddagi kabi ko‘p va turli shakllarda porlamadi [8, 72]”.

Yuqorida ta’kidlaganimizdek, Ruknobodiy, Isomiy, Ismat Buxoriy, Sakkokiy kabi saroy shoirlari ijodining “oltin davri” Amir Temur va Mironshoh kabi temuriy hukmdorlar saroyi bilan bog‘liq. Binobarin, temuriylar davri adabiy muhitining yirik namoyandalaridan bo‘lgan mazkur shoirlar ijodini o‘rganish, tadqiq etish Amir Temur va temuriylar davri adabiyoti tarixining yangi ma’lumotlar bilan boyishiga xizmat qiladi, deb o‘ylaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Amir Temur. Temur tuzuklari. T. O‘zbekiston, 2014.

2. Ibn Arabshoh. Amir Temur tarixi. 1-2 qismlar.T. Fan, 2019.

3. Alisher Navoiy.To‘la asarlar to‘plami. To‘qqizinchi jild. T. G‘.G‘ulom nomidagi NMIO‘, 2012.

4. Alisher Navoiy. Muhokamatu-l-lug‘atayn. T. Akademnashr, 2017.

5. Davlatshoh Samarqandiy. Shoirlar bo‘stoni. (“Tazkirat ush-shuaro”dan).T. G‘.G‘ulom nomidagi ASN, 1981.

6. Sharafuddin Roqimiy. Tarixi tomm. T. Ma’naviyat, 1998.
7. Faxriddin Ali Safiy. Latofatnoma (“Latoyif ut-tavoyif”). T. G‘.G‘ulom nomidagi ASN, 1996.
8. Herman Vamberi. Buxoro yohud Movarounnahr tarixi.T. G‘.G‘ulom nomidagi ASN,1990.
9. Hayitmetov A. “Temuriylar davri o‘zbek adabiyoti” T. Fan, 1996.
10. Ahmedov A. Amir Temur jahon tarixida. T. “Sharq” NMAK BT , 2001.
11. Ravshanov P. Saylanma.Ikkinchi jild. T. Yangi asr avlodi, 2006.
12. Sulton I. Navoiyning qalb daftari. T. G‘.G‘ulom nomidagi BAN, 1969.
13.Axadov Sh., Egamov T. Amir Temur va Temuriylar davrining intellektual salohiyati. Samarqand , 2004.
14. Qorayev Sh. Navoiy adabiy majlislari.-Qarshi: “Qashqadaryo ko‘zgusi OAV”, 2019.-B.180.
15. Qorayev Sh. Navoiy majlislari.-Toshkent: Lesson – Press, 2020.-B.312.
16. Qorayev Sh. Temuriylar davri adabiy majlislari (Alisher Navoiy qarashlari asosida). –Toshkent: Donishmand ziyosi, 2021.-B.262.
17. Qorayev Sh. Temuriy shoirlar tazkirasi. –Qarshi: Intellekt, 2023.-B.262.

РАЗВИТИЕ КУЛЬТУРЫ И ПРОСВЕЩЕНИЯ В ЭПОХУ АМИРА ТЕМУРА

Мунарова Р.У.,
старший-преподаватель ДЖГПУ
факультета педагогики и психологии

Эпоха правления Амира Темура (Тимура) является одной из самых ярких и значимых в истории Центральной Азии, не только в военном и политическом плане, но и в культурном. Его правление оказало значительное влияние на развитие культуры, науки и просвещения, что стало основой для создания нового культурного и интеллектуального наследия в Средней Азии.

Амира Темура называют не только великим полководцем, но и основателем мощной империи, которая охватывала обширные территории от Индии до Восточной Европы, включая Персию, Среднюю Азию и Кавказ. Темур был способен объединить различные народы и культуры, что способствовало созданию многонациональной империи. Этот процесс объединения оказывал важное влияние на развитие межкультурных связей, что сыграло значительную роль в культурном обмене.

Амира Темур активно поддерживал науку и искусство, что стало одним из важнейших аспектов его правления. Он понимал важность

образования и науки для процветания своего государства. В его столице, Самарканде, был построен знаменитый Регистан – центр науки, архитектуры и образования. Здесь жили и работали выдающиеся ученые и художники того времени, такие как математик и астроном Улугбек, историк Зайн-ад-Дин Васифи, поэт Джами и другие.

Темур не только активно поддерживал ученых, но и приглашал их из разных уголков исламского мира. Его дворы становились центрами интеллектуальной жизни, где развивались такие науки, как астрономия, математика, медицина, философия и география. Создание таких академий и научных учреждений способствовало распространению знаний и их доступности для более широких слоев населения.

Символом культурного возрождения в эпоху Темура стал архитектурный стиль, который получил название «темуридский стиль». Он сочетал элементы традиционной исламской архитектуры с новыми инновациями и техникой. Великолепные здания и сооружения, построенные в этот период, поражают своей величиной, сложностью и красотой. Самарканде и Бухаре были построены величественные мечети, медресе, мавзолеи и дворцы. Среди самых известных памятников – Регистан в Самарканде, мечеть Биби-Ханым и мавзолей Гур-Эмир, где был похоронен сам Амир Темур.

Искусство также процветало: миниатюрная живопись, каллиграфия, ремесла и ткани стали символами процветания культуры и достигли высокого уровня. Темуриды активно поддерживали художников, и именно в этот период были созданы уникальные произведения искусства, которые в дальнейшем оказали влияние на последующие поколения.

В эпоху Темура также наблюдается значительное развитие системы образования. На базе медресе обучались не только будущие ученые, но и представители различных социальных слоев, что способствовало повышению уровня грамотности. Амир Темур вел строгую политику по распространению образования среди населения, особенно среди юношей, которым предстояло стать будущими государственными служащими, учеными или военачальниками. Открытие новых образовательных учреждений привело к тому, что Самарканд стал одним из крупнейших образовательных центров Средней Азии.

Эпоха Темура была также временем расцвета литературы. В это время создавались произведения, которые стали классикой восточной

литературы. Наиболее известным литературным деятелем того времени был поэт и философ Джами, чьи труды в области суфийской философии и поэзии оказали большое влияние на развитие культуры в Средней Азии. В целом литература той эпохи отличалась глубокими философскими размышлениями, стремлением к идеалам гармонии и мира.

Амира Темур активно взаимодействовал с соседними государствами и культурами, что содействовало развитию многокультурного обмена. Его империя стала важным мостом между Востоком и Западом. Интеллектуальные связи с учеными и философами Персии, Индии, Османской империи и даже Европы способствовали не только распространению знаний, но и культурному обогащению этих народов. Темур стимулировал изучение и заимствование знаний из разных культур и цивилизаций.

Амир Темур вступил на политическую арену Мавераннахра в середине XIY веке. Он с детства знал тюркский и таджикский языки и производил впечатление образованного человека. Хорошо знал историю тюрков, арабов, иранцев.

Темур ценил любое знание, если оно приносило «практическую пользу» - это медицина, астрономия, математика и архитектура. В эпоху А.Темура возводились дворцы, мечети, мавзолеи, загородные сады, мастерские, дуканы, городские укрепления.

В знак благодарности за то, что походы Темура помогли приостановить проникновение монголов в Европу, французы в XY веке поставили памятник А.Темуру. Он носил титул - Сохибкирон - счастливый (один из титулов владетельных государей в странах Востока).

В период А.Темура традиционная мусульманская система образования включала две основные ступени: начальная - мактабы и средняя - медресе. Содержание, формы и методы учебно-воспитательного процесса оставались традиционными и серьезных изменений не претерпевали. Основать мактаб считалось делом богоугодным, потому что главная цель мусульманского преподавания - научить ребенка чтению Корана и необходимым молитвам.

Таким образом, эпоха Амира Темура – это время не только военных завоеваний, но и расцвета науки, искусства и образования. Его правление стало поворотным моментом в истории Центральной Азии, а наследие, которое он оставил, до сих пор оказывает влияние на развитие культурных

традиций региона. Самарканд, Бухара и другие города стали центрами культурной и научной жизни, привлекая ученых, художников и мыслителей со всего исламского мира. Именно благодаря его усилиям, эпоха Темура вошла в историю как время величайшего культурного расцвета.

Литература

1. Гулямова, М. Ф. Культура и искусство Средней Азии в эпоху Тимуридов. –Ташкент: Издательство «Фан», 1989.
2. Бехбуди, М. История культуры Средней Азии в эпоху Тимуридов. – Самарканд: Издательство «Шарқ», 2001.
3. Насир, С. А. Темуридская империя: политические и культурные аспекты. – Москва: Наука, 1995.
4. Шамса, С. Р. Амира Темур и его вклад в развитие науки и культуры. – Ташкент: Академия наук Республики Узбекистан, 2005.
5. Мирза, А. Ш. Архитектура Тимуридов: стиль и достижения. – Санкт-Петербург: Научное издательство «Петрополис», 2010.

Порфирьев, В. П. Самарканд в эпоху Тимуридов. – Москва: Восточная литература, 2000.

AMIR TEMUR HARBIY DAHOSI: TARIX VA TASVIRIY SAN’ATDA

Mirjonova N.I.,
Temuriylar tarixi davlat muzeyi ilmiy xodimi.

Amir Temur 35 yil davomida harbiy va siyosiy faoliyat olib bordi. Bu 35 yillik faoliyat natijasida u buyuk saltanat barpo qilishga erishdi. Uning tarkibiga Movarounnahr, Xorazm, Kaspiy atrofidagi viloyatlar, hozirgi Afg‘oniston, Eron, Turkiya, Hindiston, Iroq, Janubiy Rossiya, Kavkaz va G‘arbiy Osiyoning bir qator mamlakatlari jami 27 ta o‘lka kiradi. Amir Temurning muvaffaqiyatiga avvalo shaxsiy harakteri, murakkab vaziyatlarga to‘g‘ri baho bera olgan holda ushbu vaziyatdan chiqa olish qobiliyati va uning nodir harbiy istedodi sabab bo‘ldi.

Amir Temurning yuritgan harbiy, siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy tadbirlari hozirgi zamon davlat boshqaruvi uchun chinakam ibratdir. U chinakam bunyodkorlik va ilm fan homiysi edi. Xususan u “Temur tuzuklari"da

o‘zi amalga oshirgan va amalda qo‘llagan tadbir va uslublarni, kengachlar, mashvaratlar haqida bayon qiladi. Bu jihat bilan “Temur tuzuklari” boshqa qadimgi va zamonaviy faylasuf, olimlarning davlat boshqaruvi haqida yozib qoldirgan kitob va nazariyalaridan ustundir. Amir Temur va Temuriylar qoldirgan betakror ma’naviy meros bugunga kelib insoniyatning umumiy boyligiga aylandi. Ayniqsa, Amir Temurdek daho mahorati oldida bosh egib, uning harbiy san’ati, ya’ni strategiyasi va taktikasidan haqli ravishda mag‘rurlanamiz. Harbiy san’at unga buyuk sarkarda shuhratini keltirdi. Uning janglari jahonning ko‘pgina harbiy akademiyalarida o‘rganildi va o‘rganilmoqda. Harbiy qurilish borasida o‘z zamondoshlaridan o‘zib ketgan Amir Temur o‘z davrida armiyani yaratish va takomillashtirish borasida mukammal tizimni ishlab chiqib, uni mohirlik bilan amalga oshirgan[1,3b].

Harbiy san’at tarixi Sohibqiron Amir Temurni haqli ravishda jahonning eng buyuk sarkardalaridan biri sifatida e’tirof etadi. Buyuk bobomizning harbiy iste’dodi asosan ikki yo‘nalishda: mohir harbiy tashkilotchi va atoqli sarkarda sifatida yorqin namoyon bo‘lgan. Sohibqironning janggohlarni tanlash san’ati, urush usullari va taktikasi, lashkar tutish va sipohiylarni saflash qoidasi “Temur tuzuklari” kitobida yoritilgan. Shu bilan birga O‘rta Osiyoni yer osti va usti boyliklarini egallash, mustamlaka mamlakatga aylantirish, o‘z navbatida bu hudud orqali Hindistonga chiqishni maqsad qilib ingliz va rus josuslari bosqindan ilgari o‘lkani har tomonlama chuqur o‘rganib chiqishadi. Shunday ekspeditsiya ishtirokchilaridan biri Mixail Ivanin edi. Uning asarida Amir Temur shaxsi va faoliyati, harbiy san’ati, jahon tarixida tutgan o‘rni, o‘sha davrdagi tarixiy voqealar bayoni keltiriladi. Ammo asar tub mohiyatiga ko‘ra qanday qilib O‘rta Osiyoni bosib olish va boshqarish mumkinligiga qaratilgan. Amir Temurning harbiy san’ati keyinchalik bolsheviklar tomonidan ham jiddiy o‘rganilib, “Qizil komissarlar” kurslarida o‘qitilgan. Shu kurslarda tahsil olgan Frunze va Gaydar kabi rus sarkardalari Sohibqironga azbaroyi hurmati sabab to‘ng‘ich o‘g‘illariga Temur deb ism qo‘yishgan.

Klavixoning ta’rifiga ko‘ra, temuriy lashkarboshi tinchlik chog‘ida zarhal ip bilan tikilgan havorang satin ko‘ylak kiygan. Uning boshida dur hamda boshqa qimmatbaho toshlar qadalgan bo‘rk bo‘lgan. Bo‘rkning ostidan uch qator qilib o‘rilgan ikki kokil yelkaga tushib turgan. Elchi bu yo‘sinda o‘rilgan sochlar Temurbek askarlarining nishoni ekanligini alohida qayd etadi. Yurish oldidan Sohibqiron arkoni davlat, vazirlar, sarkardalar, amirzodalar, beklar va amirlarni harbiy kengash – mashvaratga to‘plagan, so‘ngra askar yig‘ish uchun

maxsus buyruq e’lon qilingan, qismlar harbiy ko‘rikdan o‘tkazilgan. Amir Temurning harbiy san’at rivojiga qo‘shgan ulkan xizmatlaridan yana biri qo‘shin qanotlarini jang chog‘ida dushman hujumidan muhofaza qilish va, aksincha, g‘anim kuchlarini yon tomondan aylanib o‘tib, ortdan zarba berish maqsadida tuzilgan otliq qism – kanbulning joriy etilishidir.

Amir Temur qo‘shinini Jahongir Sayfuddin va Purhusayn barloslar, Oq Bug‘a, Usmon Abbos, Muhammad Sulton Qamariy, O‘rus Bug‘a, Hamza Sulduz, Amir Murizoda, Muhammad Qazg‘on, Sariq Atka va Muzaffar Uch Qaro kabi janglarda shuhrat topgan mahoratli va jasur kishilar boshqargan[2].

Sohibqiron Sharqda birinchilardan bo‘lib armiyaga o‘t sochar qurol – to‘p(ra’d)ni olib kirgan. Temuriylar davrida bu qurolning boshqa turlari (zarbzan, farangi, qozon va hokazo) keng yoyildi. Tog‘li hududlarda jang harakatlari olib boruvchi maxsus harbiy qism va bo‘linmalar tashkil qilingan. Amir Temur jahon harbiy ish tarixida birinchilardan bo‘lib qo‘shinni jang maydonida an’anaviy 5 bo‘lakdan farqli ravishda 7 qo‘lga bo‘lib joylashtirish tartibini joriy etgan. Bu yangilik keyinchalik To‘xtamish, Shayboniyxon singari sarkardalar tomonidan o‘zlashtirilgan.

Ibn Arabshohning guvohlik berishicha, Sohibqiron qo‘shinida ayollardan iborat bo‘linmalar bo‘lib, ular erkaklar bilan bir safda turgan, qahramonlik va matonat namunalarini ko‘rsatgan[3]. Temur harbiy yurishlarining yana bir sababi bor yedi. Bu ham bo‘lsa, Buyuk Ipak yo‘lini bir mamlakatga birlashtirib, undagi xavfsizlikni taminlash edi. Sharafuddin Ali Yazdiy bir necha marta Mo‘guliston, Eron va Iroqda mahalliy hokimlarning zo‘ravonligi yoki qaroqchilar ko‘payganligi sababli karvonlar va hatto elchilar yurolmay qolganliklari va hajga ham borish xavfli bo‘lib qolganligini o‘z asarida aytadi[4,7b].

Amir Temur lashkarlarida asosiy qo‘shin turlaridan tashqari yana quyidagilar mavjud: 1) pon-tonchilar (ko‘chma ko‘priklar qurish ishlari bilan shug‘ullanuvchilar) va kemachilar (ular, asosan, Amu va Sirdaryoda kemachilik bilan shug‘ullanuvchi kishilardan tanlab olinib, kemalar va ko‘priklar qurish uchun ishlatiladi); 2) naftandozlar (gregoryan yoki yunon olovini otuvchilar); 3) qamal qilish mashinalari va tosh otuvchi qurollar bilan ishlashni biladigan jangchilar. Amir Temur boshchiligida qamal qilingan ko‘plab qal’alarning gregoryan olovlarini otish va uloqtiruvchi qurollardan mohirona foydalanishi natijasida qo‘lga kiritilganligi qo‘shinning shu turi juda katta malakaga ega bo‘lganligidan dalolat beradi. Qamal jarayonlari Amir Temur yunonlar va

rimliklar qal’alarni ishg‘ol qilish uchun qo‘llagan usullarni yaxshi bilganini ko‘rsatadi. Boyazidga qarshi bo‘lgan jangda Amir Temur gregoryan olovini otuvchi moslamalarni fillar ustiga o‘rnatib, jangga kiritdi; 4) Amir Temur tik qiyaliklarga chiqa oladigan, tog‘li yerlarda bo‘ladigan janglarga ko‘nikkan, tog‘ aholisidan tashkil topgan maxsus piyoda qismga ega edi. Bu qism jangchilari Amir Temurga daralar, tog‘ yo‘llari va tog‘larda joylashgan qal’alarni qo‘lga kiritishda katta yordam berdi. Amir Temur qo‘shinlari Chingizxon qo‘shinlari kabi o‘nliklar, yuzliklar, mingliklar, tumanlar (10 ming yoki 12 ming jangchidan iborat qo‘shin) va boshqalarga bo‘linib, ularga o‘nboshi, yuzboshi, mingboshi va amirlar boshchilik qilardilar. Amirlar 12 darajaga bo‘lingan edilar. Ular turli qabilalarga boshchilik qilib, ularning darajasi qabila tomonidan berilgan jangchilar soniga bog‘liq bo‘lishi mumkin[5,179-180 b].

Batal janri (frans. bataille -jang) – tasviriy san’atning urush va harbiy hayot mavzularini aks ettirishga bag‘ishlangan janri. Jang ko‘rinishlari, harbiy yurishlar, qurolli kuchlarning hayotini tasvirlash Batal janrida asosiy o‘rinda turadi. Aniq jang lavhasini ifodalash, uning mazmunini ochib berilishi bu janrni tarixiy janrga yaqinlashtiradi. O‘zbek tasviriy san’atida bu janrning sarchashmalari qadimdan – arxeologik topilmalar (san’at namunalari) va miniatyura san’atida ko‘rinadi. Qo‘lyozma kitoblar bezagining ajralmas qismiga aylangan mo‘jaz rasmlarda bazmlar, qabul marosimlari va boshqa lavhalar bilan bir qatorda jang lavhalarini tasvirlash qat’iy an’anaga aylangan. Kamoliddin Behzod, Muhammad Murod Samarqandiy va boshqa musavvirlar jang lavhalarini o‘ziga xos tarzda tasvirlagan. Shuningdek yozma manbalarda ta’kidlanishicha, Amir Temur saroyi devorlariga sohibqironning qahramonlik yurishlarini aks ettirgan jang lavhalari ishlangan[6].

Rassom A. Jalolovning “Loy jangi” (2-rasm) asarida Amir Temur va Ilyosxo‘ja o‘rtasidagi mashhur jang tasvirlangan. Ushbu jang tarixiy manbalarga ko‘ra, bahor faslida, kuchli yomg‘ir yog‘ayotgan sharoitda bo‘lib o‘tgan. Rassom bu holatni kulrang va qoramtir ranglar orqali tasvirlab, jangning shiddatli kechganligini ta’kidlagan. Tasvirda loy ichida qolgan askarlar, mashaqqatli jang va harbiy strategiyalar ko‘rinib turadi.

Z.Islomishkov tomonidan yaratilgan “Samarqandning sarbadorlar tomonidan himoyasi” (3-rasm) asarida esa Amir Temurga qarshi kurashgan oddiy xalq vakillarining jasorati tasvirlangan. Bu rasm tasviriy san’atda faqat hukmdorlar va sarkardalar emas, balki xalqning ham qahramonligini yoritish muhim ekanligini ko‘rsatadi. Rasmda jasorat bilan kurashayotgan sarbadorlar,

oddiy kishilarning jangda qatnashishi va urushning og‘ir oqibatlari aniq ifodalangan.

Mazkur tasviriy san’at asarlari mustaqillik davri rassomlari tomonidan chizilgan bo‘lib, ular Amir Temurning harbiy yurishlari va davrining muhim voqealarini zamonaviy badiiy yondashuv orqali aks ettirgan. Ushbu asarlar nafaqat Sohibqironning shaxsiyati va harbiy strategiyasini yoritadi, balki uning davridagi ijtimoiy jarayonlarni ham ifodalaydi. Mustaqillik yillarida yaratilgan ushbu san’at namunalarining Temuriylar tarixi davlat muzeyida saqlanishi, ularning tarixiy merosni vizual talqin qilish va kelajak avlodga yetkazishdagi ahamiyatini yanada oshiradi.

Amir Temurning harbiy dahosi faqatgina uning sarkardalik mahoratida emas, balki davlat boshqaruvidagi ilg‘or yondashuvlarida ham yaqqol namoyon bo‘ladi. U o‘z davri uchun mukammal harbiy tizim yaratib, strategik rejalari va taktik yondashuvlari orqali yirik saltanat barpo etishga erishdi. Uning boshqaruv prinsiplari "Temur tuzuklari" asarida batafsil bayon qilingan bo‘lib, ushbu manba keyingi asrlarda harbiy san’at va davlat boshqaruvi bo‘yicha muhim ilmiy manba sifatida xizmat qilmoqda.

Mazkur maqolada Sohibqironning harbiy mahorati, jang san’ati va strategik qarashlari tasviriy san’at bilan uzviy bog‘liq holda tahlil etilgan. Temuriylar davriga oid tasviriy san’at namunalarida uning shon-shuhrati, sarkardalik iqtidori va harbiy dahosi aks ettirilgan. Ayniqsa, batal janrida yaratilgan asarlar Sohibqironning jangovar mahoratini tasvirlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Umuman olganda, Amir Temur shaxsiyati va uning harbiy merosi nafaqat tarixchilar, balki san’atshunoslar tomonidan ham chuqur o‘rganilishi lozim bo‘lgan bebaho boylik hisoblanadi. Ushbu mavzuga oid tadqiqotlar yanada kengaytirilsa, Temuriylar davri harbiy san’ati va uning san’atdagi aks ettirilishi bo‘yicha yangi ilmiy xulosalar chiqarish imkoniyati yuzaga keladi.

Ilova : “Amir Temur jang oldidan” B.Aytmurodov (1-rasm). **“Loy jangi”** A.Jalolov (2-rasm). **“Samarqandning sarbadorlar tomonidan himoyasi”** Z.Islomishkov (3-rasm).

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Ульжаева Ш.М. Амир Темур салтанатида миллий давлатчиликнинг ривожланиши // афтореферат. Т..2008. 3 б.

2.Соҳибқирон Амир Темурнинг ҳарбий санъати//http://dkm.gov.uz/uz/soibkiron-amir-temurning-arbij-sanati

3.Temuriylar harbiy san’ati//https://uz.wikipedia.org/wiki/Temuriylar_harbiy_san%CA%BCati

4.Шарафуддин Али Яздий. Зафарнома. ”Шарқ,”-Т.:1997. 384 б

5.Иванин, Михаил Икки буюк саркарда. Чингизхон ва Амир Темур: ҳарбий санъ ати, стратегия ва тактикаси. Михаил Иванин / Таржимон Акмал Маҳкамов. Масъул муҳаррир Юсуф Музаффар. Тошкент: Янги аср авлоди, 2017. - 304 б.179-180

6.Batal janri//https://uz.wikipedia.org/wiki/Batal_janri

SOHIBQIRON AMIR TEMURNING INSONIY FAZILATLARINI TARIXIY MANBALARDA YORITILISHI

Mirzayev A.T.,
Andijon Davlat universiteti dotsenti,
tarix fanlari bo‘yica falsafa doktori, (PhD).

Sohibqiron Amir Temurning hayoti va faoliyati hozirgacha Sharq va G‘arb tadqiqotchilari tomonidan o‘rganib kelinmoqda. Izlanishlar u kishining tarixiy siymosini gavdalantiradi. O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoev, «Ushbu tarix silsilasida Sohibqiron Amir Temur alohida o‘rin egallaydi. Bu ulug‘ shaxs haqli ravishda dunyo tarixidagi eng buyuk davlat arboblaridan biri, yengilmas sarkarda deya e’tirof etiladi. Ayni paytda, u ilm-fan, madaniyat va san’at homiysi sifatida ham mashhur. Uning bunyodkorlik sohasidagi tarixiy xizmatlari beqiyos», - deb ta’kidlaydi[1, 252-b.].

O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov, «Buyuk bobokalonlarimizning ma’naviy olami xususida so‘z yuritganda, sohibqiron Amir Temur haqida alohida to‘xtalishimiz tabiiydir. Chunki tengsiz azmu shijoat, mardlik va donishmandlik ramzi bo‘lgan bu mumtoz buyuk siymo buyuk saltanat barpo etib, davlatchilik borasida o‘zidan ham amaliy, ham nazariy meros qoldirdi, ilmu fan, madaniyat, bunyodkorlik, din va ma’naviyat rivojiga keng yo‘l ochdi», - deb ta’kidlagan edi[2, 44-b.].

Davlatdorlik bobida ulkan ishlarni amalga oshirgan Amir Temur o‘ziga xos go‘zal faliyalatlar sohibi bo‘lgan va bu haqda tarixiy asarlarda ma’lumotlar bor.

Tarixchi Ibn Arabshoh Amir Temurning yoshligi haqida quyidagicha yozadi: «U yoshligidan aqlli, ochiq ko‘ngil, jur’atli, qat’iy kuchli va qobiliyatli bo‘lib o‘sib, tengqurlari – vazirlarning o‘g‘illari bilan suhbat qurar va amirlarning o‘g‘illaridan o‘ziga o‘xshashlar bilan vaqtini o‘tkazardi»[3, 72-b.].

Amir Temurning ajoyib xislatlaridan biri sabr-matonatlilik bo‘lgan. Buyuk maqsad yo‘lida ulkan matonat va kuchli irodani o‘zida ifoda etgan.

Bunyodkorlik, yangi masjid, madrasa, maqbara qurish, umuman, xalqqa xizmat ko‘rsatadigan me’moriy obidalar barpo etish Sohibqironning insoniy fazilatlaridan sanalgan. Qurilish ishlarini o‘ta noziklik bilan chiroyli, ulug‘vor va mustahkam holatda olib borishni talab qilgan. «Amr etdimki, har bir shahar, har bir qishloqda masjid, madrasa va xonaqohlar bunyod qilsinlar, faqiru miskinlarga langarxona(g‘aribxona, moddiy ta’minot markazi) solsinlar, kasallar uchun shifoxona qurdirsinlar va ularga ishlash uchun tabiblar tayinlasinlar»[4, 100-b.].

Ayniqsa, Movarounnahrning markaziy shaharlari, xususan, poytaxt Samarqand va uning atroflarida bunyodkorlik ishlarini amalga oshiradi. «Samarqand atroflarida bir qancha qasabalar bunyod etib, ularni ulug‘ va poytaxt shaharlar nomi bilan atadi»[5, 127-b.], – deb ma’lumot beradi Ibn Arabshoh. Sohibqiron yangi me’moriy obidalarni bunyod etar ekan, uni xalqqa, jamiyatga, davlatga foydasi tegadigan, uzoq vaqt kelajak avlodlar uchun xizmat ko‘rsatadigan holatda mustahkam qilib qurdiradi.

Ali Yazdiy javob beradi: «Aslini olib qaraganda, onhazratning muborak fe’l-atvorida adolat qilmoq va raiyatparvarlik tug‘ma sifat bo‘lib, oliy himmati shaharlarni obod qilishga va xudojo‘ylarning hol-ahvolini yaxshilashga ishtiyoqmand edi»[6, 253-b.].

Toshkentdagi Zangi ota qabriga maqbara bunyod ettiradi. «Ko‘p avliyolarni qabri shariflarini hazrat Amir Temur bino qilg‘on erdilar. Yana ko‘p-ko‘p joylarda masjid va madrasalar bino qilg‘on erdilar, barchasi tavorixda ma’lumdir»[7, 326-b.].

Akademik Bo‘riboy Ahmedov ta’kidlaganidek, Amir Temur to‘g‘risida uning zamondoshlari qimmatli yirik asarlar yaratganlar. G‘iyosiddin Alining «Ro‘znomayi g‘azovati Hinduston» («Hindistonga qilingan g‘azo urushi kundaligi»), Nizomiddin Shomiyning «Zafarnoma», Sharafiddin Alining shu nomli («Zafarnoma») asarlari shular jumlasidandir. «Tuzukoti Temuriy» asari bular orasida alohida o‘rin tutadi.

Shamsiddin Somiyning mashhur qomusida shunday deyilgan: «Amir Temur «Tuzukot» deb yuritiladigan qonunlar majmuasini yozdi, unda o‘zining hayot yo‘lini bayon qildi» («Qomus ul-a‘lom». Istanbul, 1891-yil 1727-sahifa). Bu borada atoqli tarixchi olim Sharafiddin Ali Yazdiy quyidagi e’tiborga molik ma’lumotni keltirgan: «On hazrat o‘zining hayoti va turmushi tarziga doir asosiy voqealarni o‘z ichiga olgan turkiy va forsiyda alohida bir manzuma tuzdilar». Shuni ham ta’kidlash lozimki, taniqli sharqshunos M. Sharmua (1793-1869-yillar) va yirik rus harbiy tarixchisi M. I. Ivanin (1801-1874-yillar) «Tuzukot»ning haqiqiy asar va uning muallifi Amir Temur bo‘lgani haqida fikr bildirgan edilar.

«Tuzukoti Temuriy» – muhim tarixiy manba bo‘lib, unda qadimiy Turkistonning buyuk farzandi Amir Temurning davlatning tuzilishi va boshqarilishi xususidagi nuqtai nazarlari bayon etilgan[8, 299-b.].

Amir Temur bilimdon, zakovatli va tengi yo‘q farosat sohibi bo‘lgan.

U haqda «Temur tuzuklari»da shunday bayon qilingan: «Bir ishga kirishmay turib undan qutulib chiqish yo‘llarini mo‘ljallab qo‘yar edim. Uni to‘g‘ri tadbir, qat’iy jazm, chinlik-chidamlilik ko‘rsatib, ehtiyotkorlik bilan uzoqni ko‘rib, ortini o‘ylagan holda oxiriga yetkazardim... Kengash egalari birlik, ittifoqlik bilan so‘zda sobit, ishda chidamli bo‘lishlari shartdir. Qilmoqchi bo‘lgan ishlarini qilmasdan qoldirmasinlar. Agar biror ishni qilmaslikka so‘z berar ekanlar, uning yaqiniga ham yo‘lamasinlar»[9, 16-b.].

Amir Temur, yuqorida ta’kid etilganidek, zukko siyosatdon va yirik davlat arbobi sifatida o‘z davlatining tuzilishini, uning qay tarzda bo‘lishi kerakligini bayon etadi, mansabdorlarning huquq va burchlarini belgilab beradi. «Tuzukot» muallifining fikriga ko‘ra, har bir tojdor o‘z davlatining tayanchi bo‘lgan ijtimoiysiyosiy guruhlarga suyangan holda ish olib borishi lozim. Faqat ularning yordamida raiyat, qo‘shinlar va davlatini idora qilishi zarur.

«Zafarnoma»da keltirilishicha, jang arafasida g‘anim bo‘lib turgan ro‘paradagi dushmaniga yangi keltirilgan qovunlarni mulozimlarning yog‘och idishda yuborsak ham bo‘ladi degan takliflariga qaramasdan, oltindan ishlangan tovoqda yuboradi. Ali Yazdiy buni Sohibqironning «podshohona saxiy marhamati» deb izohlaydi[10, 248-b.].

O‘z davrining yirik faylasuf olimi va tarixchisi sanalgan Ibn Xaldun bilan Sohibqiron Damashq shahrida uchrashadi. Ibn Xaldun o‘zining «Tarjimai hol» asarida Amir Temur haqida yozar ekan, «u (Amir Temur – M.A.) o‘ta aqlli,

bilimdon, farosatli, ko‘p bahslashadigan, so‘zida qattiq turadigan kishi edi» deydi[11, 52-b.].

Amir Temur ilm-ma’rifatni juda sevgan, bilimdon, zakiy kishilarni qadrlagan. Tarixiy ilmlarni o‘zi ham juda yaxshi o‘rganib, o‘tgan hukmdorlarning tarixini bilishga qiziqqan. «Temur podshohlar va xalqlar siyratlarida bilimdon, sharqu g‘arb tarixining otasi va onasi edi»[12, 227-b.], – deydi Ibn Arabshoh. U olim va ulamolarga bo‘lgan chuqur hurmati tufayli ko‘plab masjid, madrasa va avliyolarning qabrlariga maqbaralar bunyod ettiradi. «Amir Sohibqiron ilmu xikmat ahli va fan arboblari bilan g‘oyatda do‘stlashgan edi. Ularni e’zoz-ikrom qilishda mubolag‘alar ko‘rsatardi. Tarix kitoblarini eshitish orqali ummatlar nasabi va sharhi hollarini, turk, arab va ajam podsholarining turgan joylari va qilgan ishlarini va bu ilmning boshqa tarmoqlarini juda chuqur egallagan edi»[13, 178-b.].

U o‘zining qo‘l ostidagi askarlarga nisbatan o‘ta samimiy sarkarda bo‘lgan. Albatta, katta qo‘shinni birlashtirish uchun ham o‘ziga xos xislatlarga ega bo‘lish kerak, ko‘p sonli askarlarning ko‘nglini topib, ularni o‘z maqsadi yo‘lida ergashtira olish zarur. Amir Temur minglab lashkarni birlashtirgani haqida «Tuzuklar»da shunday ma’lumot keltirilgan: «Ba’zilariga muruvvat, mehribonlik qildim, boshqalari bilan kelishishga intildim, yana bir guruhini esa molu dunyo bilan o‘zimga egmoqchi bo‘ldim. Yaxshi so‘z ahdu paymon va va’dalar bilan qolganlarining ko‘nglini ko‘tarishni maslahat ko‘rdim»[14, 31-b.].

U o‘ziga sodiq kishilarni juda qadrlar ham edi. Zamondosh tarixchilar asarlarida keltirilgan ma’lumotlarga qaraganda, Sohibqiron kengashlarida hech qachon qo‘pol so‘zni ishlatmagan. Ibn Arabshoh yana shunday ma’lumotni keltiradi: «U hazil-mazax va yolg‘onni yoqtirmas, ko‘ngilxushlikka maylsiz, garchi o‘ziga ozor yetadigan biron narsa bo‘lmsa hamki, sadoqat unga yoqar edi... Jasoratlilarni, dovyurak va mardlarni yoqtirar edi. U bexato fikrli, ajoyib farosatli, mislsiz baxtli, ulug‘vorligi o‘ziga muvofiq, qat’iy azm bilan so‘zlovchi, boshiga kulfat tushganda ham haqgo‘y kishi edi»[15, 25-b.].

Kastiliya qirolining Amir Temur huzuriga yuborgan elchisi Rui Gonsales de Klavixo tomonidan yozilgan elchilik kundaligida ham Amir Temurning insoniy fazilatlari haqida qimmatli ma’lumotlar keltirilgan. Amir Temur nomidan uyushtirilgan bazmga elchilar ham taklif etiladi. Biroq elchilar tilmochni kutib bazmga kechikib kelishadi. Amir Temur elchilarni kechirishini

aytadi va elchilarni boshlab kelgan mulozimni o‘tinib so‘ragani uchun tilmochni ham avf etadi[16, 161-162-b.].

Haqiqatdan ham Amir Temur saxiylikda tengi yo‘q, boshqalarga foydasi tegsa quvonadigan, yaxshilik qilib huzurlanadigan, ko‘p ezgu ishlarni bajarib kibrlanmaydigan go‘zal insoniy fazilatlar egasi bo‘lgan. Qudratli davlat bunyod etib, o‘z davrining buyuk hukmdori bo‘lishida u kishiga o‘ziga xos hislatlari katta yordam bergan.

Xulosa qilib aytganda, tahlil etilgan tarixiy manbalarda, jumladan «Temur tuzuklari»da Amir Temurga xos bo‘lgan muhim fazilatlar, davlatni idora qilish usuli bilan yaqindan tanishish mumkin, desak xato bo‘lmaydi. Ushbu asarda, bunday misollarni ko‘plab keltirish mumkin. Zero, bugungi kunda “Yangi O‘zbekiston” g‘oyasini shakllantirishda «Temur tuzuklari» muhim nazariy manbalardan biri sifatida katta ahamiyatga egadir. Qisqa qilib aytganda, Amir Temur sharqona demokratiyaga, qonunga, urf-odatlarga asoslangan buyuk davlat barpo qilib, tarixda o‘chmas iz qoldirdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Мирзиёев Ш.М. Нияти улуғ халқнинг иши ҳам улуғ, ҳаёти ёруғ ва келажаги фаровон бўлади. 3-жилд. – Тошкент: «Ўзбекистон» НМИУ, 2019.

2. Каримов И. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2008.

3. Ибн Арабшоҳ. Ажойиб ал-маҳдур фи тарихи Таймур (Темур тарихида тақдир ажойиботлари). – Тошкент: Меҳнат, 1992.

4. Темур тузуклари. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1991.

5. Ибн Арабшоҳ. Ажойиб ал-маҳдур фи тарихи Таймур. – Тошкент: Меҳнат, 1992.

6. Шарафиддин Али Яздий. Зафарнома. – Тошкент: Ўқитувчи, 1996.

7. Салоҳиддин Тошкандий. Темурнома. Амир Темур Кўрагон жангномаси. – Тошкент: Чўлпон, 1990.

8. Аҳмедов, Бўрибой. Тарихдан сабоқлар. – Тошкент: Ўқитувчи, 1993.

9. Темур тузуклари. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1991.

10. Шарафиддин Али Яздий. Зафарнома. – Тошкент: Ўқитувчи, 1996.

11. Ибн Халдун. Таржимаи ҳол (парчалар) // Амир Темур ва Улуғбек замондошлари хотирасида. – Тошкент: Ўқитувчи, 1996.

12. Ибн Арабшоҳ. Ажойиб ул-мақдур фи тарихи Таймур. – Тошкент: Меҳнат, 1992.

13. Муиниддин Натанзий. Мунтахаб ут-таворих (парчалар) // Амир Темур ва Улуғбек замондошлари хотирасида. – Тошкент: Ўқитувчи, 1996.

14. Темур тузуклари. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1991.

15. Амир Темур ва Улуғбек замондошлари хотирасида. – Тошкент: Ўқитувчи, 1996.

16. Руи Гонсалес де Клавихо. Самарқандга – Амир Темур саройига саёҳат кундалиги(1403-1406 йиллар). О. Тоғаев таржимаси, масъул муҳаррир: Муҳаммад Али. – Т.: «O‘ZBEKISTON» NMIU, 2010.

TEMURIYLAR AMALIY SAN’ATINING ME’MORCHILIKKA TA’SIRI

Murodova R.D.
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi
Temuriylar tarixi davlat muzeyi ilmiy xodimi.

Amir Temur davrida Movarounnahrda yirik katta inshootlar qurilishi yuqori pog‘onaga chiqdi. Buning natijasida Movarounnahrning ko‘plab shaharlarida maqbara, madrasa, qarorgohlar, bog‘lar, chorsular qurilishi avj oldi. Amir Temur va temuriylar hukmronligi (1370-1507) davrida amaliy san’at turlari hisoblangan kulolchilik, zargarlik, kandakorlik, o‘ymakorlik, metallga ishlov berish turlari buyumlar bilan chegaralanmasdan temuriylar davrida qad ko‘tarilgan me’moriy inshootlarning asosiy qismiga ham aylandi.

Temuriylar davri me’moriy yodgorliklarining bezagi jahon san’atining eng yorqin namuna va islom tafakkuri koinotni anglashda eng nozik taqdimotidir. Hunarmandchilik, nafis badiiy did va haqiqiy musulmonning ilhomlangan imoni uyg‘unligi bu davrdagi me’moriy yodgorliklarni bezash uslubida birlashganga o‘xshaydi. Temuriylar davri yodgorliklarining konstruktiv, qurilish va texnik yechimlarning o‘ziga xosligi, yoki mahobatli shakllarning ulug‘vorligidan iborat edi, lekin me’moriy obidalarga badiiy barkamollikni ularning ajoyib bezaklari bag‘ishlar edi.

XIV asrning ikkinchi yarmida san’at turlarining o‘zaro sintezi natijasida me’morchilikning yuksak namunlari bo‘lgan binolarda qoplama bezaklar, ichki qismini devoriy suratlar, yog‘och va ganch o‘ymakorligi va toshtaroshlik

singari amaliy san’at turlaridan unumli foydalanildi [1.224b]. XV asrda Samarqand va boshqa shaharlarda marmar o‘ymakorligi namunlaridan keng foydalanildi [4.79b]. Me’morchilikda amaliy san’atning quyidagi turlari keng foydalanilgan: Yog‘och o‘ymakorligi, kulolchilik, tosh o‘ymakorligi va ganch o‘ymakorligi.

XIV–XV asrlarda naqshlarning yaxlit rangli gilamga o‘xshash ko‘k-moviy sirlikoshinlar me’moriy yodgorliklarning ichki va tashqi tomonlarini qamrab oladi. Samarqanddagi Go‘ri Amir maqbarasi va Bibixonim masjidi, Samarqand va Buxorodagi Ulug‘bek madrasasi, Shahrisabzdagi Oqsaroy va shu davrning boshqa ko‘plab me’moriy durdonalari nihoyatda nozik ishlangani va rang ohanglari bilan ajralib turadi. Sopol idishlardan farqli ravishda, me’moriy va qoplashga mo‘ljallangan kulolchilik Xitoy badiiy an’analari ta’sirida bo‘lmagan va yetakchi naqshlar o‘simliksimon geometrik va epigrafik naqshlarni birlashtirgan. Me’moriy yodgorliklar bezashining ajralmas qismi turli xil toshlardan yasalgan maqbaralar sag‘analarining muqaddas xususiyatlari edi. Ular nefrit, marmar va boshqa toshlardan ishlangan. Qabr toshlari nafis naqshinkor o‘ymakorlik va epigrafik yozuvlar, marhumga bag‘ishlovlar va Qur’ondan iqtiboslar bilan bezatilgan. Me’moriy makonlardagi diniy va ijtimoiy inshootlar: masjidlarning mehroblari, minbarlari, eshik va ustunlari, yog‘och va toshdan ishlangan alohida o‘yma bezak parchalari, tosh va yog‘och o‘ymakorlari ustalarining mahoratidir. Shahrisabzdagi Oqsaroy binosi (1380-1404) Amir Temur buyrug‘i asosida bunyod etilgan. Bino 1386-yilda o‘z nihoyasiga yetdi, ammo 1404-yilga qadar bezak ishlari amalga oshirildi [2.43b]. Binoni bunyod etishda Xorazm, Eron va boshqa ko‘plab mamlakatlardan keltirilgan hunarmandlar ishtirok etgan. Binoning bezak ishlarida ya’ni o‘ymakorlik ishlarida hunarmand Muhammad Yusuf Tabriziyning ishtiroki beqiyos. Oqsaroy binosi turli bezaklardan iborat parchinlar bilan bezatilgan. Ispan elchisi Klavixo saroyni ko‘zdan kechirilganda uning ko‘p joylari bitkazilmagan, ba’zi joylarining koshinlari tugallanmagan edi [7.120b].

Amir Temur maqbarasi XV asr boshida Samarqandda bunyod etilgan me’moriy yodgorlik. Maqbaraning qurilishida pishgan, g‘isht, marmar va oniks materiallaridan foydalanilgan. Ushbu maqbara amaliy san’at bilan uzviy bog‘liqdikda bunyod etilgan. Jumladan maqbaraning yong‘oq daraxtidan yog‘och o‘ymakorligi natijasida bunyod etilgan eshigi bunga misoldir. Eshikda turli xil girih naqshlar va bitiklar bitilgan.

Amir Temur qurdirgan bir qancha binolarning ma’lum bir qismlarida mahoratli hunarmandlarning ishlarini naqadar go‘zallikka va san’at darajasiga yetkazganligiga guvoh bo‘lamiz. Jumladan XIV asrda Buxorodagi Sayfiddin Boharziy maqbarasining to‘sinlari, Amir Temur maqbarasidagi eshiklarga ishlangan naqshlar, Buxorodagi Ulug‘bek madrasasining eshiklari qismlariga ishlangan yog‘och taxtachalardan yelimsiz, mix ishlatmay girih naqshlar hosil qilingan [10.eletr.res.].

Bu davr me’morchiligi hamda amaliy san’atida asriy an’analar sadosi yanada takomillashdi va yuqori darajali va ma’naviyatni anglatuvchi o‘ziga xos uslub sifatida yaratildi. Bu uslubdagi qurilgan binolar va inshootlar o‘zining mutanosibligi, ritmi, qimilarning uyg‘unligi, rang-barangligi bilan e’tiborlidir. Haqiqatdan tarixiy davrlarga nazar solsak aynan temuriylar davrida me’morchilik o‘zining mukammalligi, yetuk va takrorlanmas bezagi va nafisligi birgina me’morlar mehnatida emas, butun bir hunarmandlar mahsuli sifatida aytishimiz o‘rinlidir. Chunki XIV-XV asrlardagi me’moriy inshootlarda xalq ichidan yetishib chiqqan me’mor, naqqoshlar va boshqa kio‘ilar mehnatining mahsulidir. Bu davrning me’morlari, naqqoshlari o‘z davrining aql-idrokda mukammal bo‘lgan insonlar bo‘lgan. Chunki davrga xos bo‘lgan g‘oya va ruhni bera olganliklari bunga yaqqol misoldir.

Muzey xazinasida Amir Temur va temuriylar barpo etgan me’moriy obidalar-Oqsaroy, Dorrusiyodat, Doruttilovat, Samarqand shahridagi jome’ masjidi, Shohi-Zinda majmuasidagi masjid va maqbaralar, Toshkent viloyatidagi Zangiota maqbarasi, Samarqand, Buxoro va G‘ijduvondagi Mirzo Ulug‘bek madrasalari, rasadxonasi hamda boshqa binolarga tegishli me’moriy keramika, parchin, relyefli sirli terrakota singari namunalari saqlanadi [8.39b].

Muzey fondidagi 150 dan ortiq me’moriy qoplama namunalarining mavjudligi temuriylar davridagi me’morchilikda amaliy san’atning ta’siri katta bo‘lganligiga guvoh bo‘lamiz. Jumladan XIV asrga tegishli o‘yma naqshli sirlangan terrakota, XIV asrga tegishli moviy rangli sirlangan o‘yma naqshli terrakota, XIV asrga tegishli me’moriy bezak parchalari, XV asrga tegishli yarim ustunlar o‘rin olgan [9.KK 1-181, 1-80, 1-84, 1-14, 2-42, 106-1, 53-2].

Me’moriy bezak parchasi XIV asrga tegishli Samarqand shahri me’morchilidagi sirlangan parcha. Me’moriy bezak parchasi moviy rangda bo‘lib, temuriylar davrida urf bo‘lgan rangda naqshlangan. Me’moriy qoplama parchasi ma’lum bir me’morchilik inshootining bir bo‘lak qismi hisoblanadi. Unda davrga xos bo‘lgan och moviy rangdagi nozik va nafis ishlangan islimiy

naqshlarni koʻramiz. Parchaning oʻrta qismi toʻrtburchak shakldagi ramkaga olingan boʻlib, uning chetga qismlarida ham naqshlar tasvirini uchratamiz. Naqshlar novda yoki ildizlar koʻrinishida boʻlib, ular bir-birini uzmagan holatda oʻyib ishlangan [9.KK 1-80].

Devoriy qoplama Dilkusho bogʻining devoriy qoplamasi hisoblanib, yarimustun parchasi pastki qismi qirrali va yuqori qismi dumaloq burchakli. Ikki tarafi bir xil-boʻrtma naqshli. Arklar orasi qora fondagi zarhallangan romb shaklidagi naqshlar bilan toʻldirilgan. Undan yuqorida yashil fonda oltin va qizil romblar tasvirlangan, boʻshliqlari oltin va oq rangda bezatilgan [9.KK 2-77].

Me'moriy bezak parchasi. XIV asr Samarqand me'morchiligiga tegishli parcha. Ushbu parcha mozaika boʻlib, unda 7 xil rang mavjud. Parchaning chetki qismi qora rangdagi boʻyoq yordamida hoshiyalangan, undan soʻng ingichka oq rangli hoshiyasi mavjud. Parchaniing markaziy qismi toʻq koʻk rangda boʻlib, uning ichki qismiga koʻza koʻrinishidagi idishda gul tasvirini kuzatamiz [9.KK1-84].

Me'moriy bezak parchasi. XIV asrga tegishli me'moriy parcha. Me'moriy parcha qismi an'anaviy koʻk-moviy rangda boʻlib, uning ustki qismida geometrik va islimiy naqshlar naqshlangan. Parchaning markazida sakkiz qirrali yulduz koʻrinishidagi bezak mavjud. Bu kabi naqshlar temuriylar davrida urf boʻlgan bezak turlari hisoblanadi [9.KK 2-24].

Sakkiz qirrali, yulduzcha shaklidagi me'moriy qoplama. XIV asr Shahrisabz me'morchiligiga tegishli. Me'moriy parcha feruza va toʻq koʻk rangda, sakkiz qirrali boʻlib, uning ichki qismlariga geometrik naqsh solingan [9.KK 2-78].

Yarim ustun. XV asr Samarqand me'moriy inshootiga tegishli. Ustunning yarim qismi saqlanib qolingan. Ustun oniks toshidan yasalgan boʻlib, hech qanday bezagi mavdu emas [9.KK 53-2].

Me'moriy bezak parchasi. XV asr Samarqand me'moriy inshootiga tegishli. Me'moriy bezak parchasi umumiy foni sariq rangida boʻlib, uning hoshiyasi oq rangda berilgan. Parchaning ichki qismida gullar va novdalar tasviri tushirilgan.

Me'morchilikda amaliy san'atning yogʻoch oʻymakorligidan foydalanish keng taraqqiy etdi. Yogʻoch oʻymakorligining yirik naqshli ustunlari, panjaralari va eshiklari yasash me'moriy binolarning bir qismiga aylandi. Shu sababli bu davrda qad koʻtarilgan hech bir madrasa, masjid yoki maqbara

yog‘os o‘ymakorligi namunalarisiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Masalan bu kabi ustunlar aynan Hoja Ahmad Yassaviy, Amir Temur maqbarlari, Shohi-Zinda majmuasi va Chashma Ayub yodgorliklarida ishlatilgan.

Turkistonda Amir Temur va temuriylar davrida qattiq qayrag‘ochdan yirik naqshli ustunlar yasalgan. O‘sha davrga oid ana shunday o‘ymakor eshiklar Samarqand, Shahrisabz kabi me’moriy majmualarda saqlanib qolgan. Ammo ularning ko‘p qismi xorij muzeylari eksponati sifatida ekspozitsiyalarda namoyish etib kelinmoqda. Bu kabi qadrli va qimmatli buyumlarimiz mustamlaka davrida ekspeditsiya natijasida xorij davlatlariga chiqib ketilgan. Jumladan Ermitaj muzeyida Amir Temur maqbarasining ikki tabaqali asosiy eshigi, Samarqand muzey qo‘riqxonasida uning g‘arb tarafdan kirish eshigi, g‘arb tarafdan ikkinchi ichki kirish eshigi Londondagi Viktoriya va Albert muzeyida saqlanadi [6:15]. Samarqand muzeyi qo‘riqxonasidagi Amir Temur maqbarasining g‘arb tomondagi ikki tabaqali eshigi yong‘oq daraxtidan yasalgan bo‘lib, unda o‘ymakor naqshlar bilan bir qatorda bitiklar ya’ni Qur’on sura va oyatlari keltirib o‘tilgan.

Yog‘och o‘ymakorligi - Muzey xazinasida 39 ta noyob yog‘och o‘ymakorlik namunlari saqlanadi [3]. Yog‘och o‘ymakorligida qattiq va qadralunuvchi daraxtlardan keng foydalanilgan. Me’moriy inshootlarninda o‘yma naqshli ustunlardan, eshik va turili hil naqsh tushirilgan panjaralardan imoratlarni bezashda keng foydalanilgan. Temuriylar davrida me’morlikda ustunlar uchun maxsus yirik naqshli bezaklardan foydalanilgan.

Naqshinkor ustun. Bu ustun ham Xiva inshootlariga tegishli bo‘lib, qayrag‘och daraxtidan yasalgan. Ustunning balandligi 355 sm, diametri esa 42 smni tashkil etadi. Ustunda islimiy naqshlar o‘yib ishlangan bo‘lib, unda Qur’on suralari keltirilgan [9.KK 2-4].

Xulosa qilib aytganda Amir Temur va temuriylar davri me’morchiligi va amaliy san’ati o‘ziga xos uslub sifatida yaratildi. Buning natijasida bu davrda bunyod etilgan inshootlar yetuk va takrorlanmas bezagi nafisligi bilan me’morlar mehnati va hunarmandlar ijodi bilan qorishib, o‘zgacha mukammallik va go‘zallikka erishdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Hakimov A. O‘zbekiston san’ati tarixi.-T:Zilol buloq, 2022.
2. Mankovskaya L. “Qashqadaryo vohasining arxitektura yodgorliklari. Toshkent.: 1979.

3. Muzeyning mavzu- ekspozitsiya rejasi ma’lumotlaridan olindi.
4. Narbekov A.V. Mirzo Ulug‘bek ma’rifatparvar hukmdor. Mirzo Ulug‘bek buyuk mutafakkir olim va davlat arbobi. Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman.O‘zMu tarix fakulteti.-T., 2023.
5. Qurbonova D. Temuriylarga oid durdonalarning dunyo bo‘ylab tarqalishi. Toshkent : Akademnashr.2016.
6. Qurbonova D. Temuriylarga oid durdonalarning dunyo bo‘ylab tarqalishi. Toshkent : Akademnashr.2016. -B.15// Migeon G. Manuel d’Art Musulman. T. II. -Paris, 1907.
7. Rui Gonzales de Klavixo. Samarqandagi Amir Temur saroyiga sayohat kundaligi. (1403-1406 yy). Eski ispan tilidan tarjima, kirish va izohlar I.S. Mirokovniki. -M.: 1990.
8. Temuriylar tarixi davlat muzeyi durdonalari.- T.,”Mashhur press”-2017.

AMIR TEMURNING BOSHQA DAVLATLAR AHVOLI HAQIDA MA’LUMOT OLISH VOSITALARI

Mustafayev G‘.G‘.
Jamoat xavfsizligi universiteti bo‘lim boshlig‘i

Amir Temurning boshqa davlatlar ahvoli haqida ma’lumot olishda bir qancha vositalardan foydalangan. Sohibqiron yurishga jo‘nashdan ancha avval dushmanning qurolli kuchlari, mudofaa inshootlari, u yerdagi ichki vaziyat kabilar haqida aniq va to‘la ma’lumotga ega bo‘lish maqsadida uning yurti yoki qarorgohiga o‘z ayg‘oqchi (xabargir, josus)larini peshma-pesh yuborib turgan. G‘anim to‘g‘risida zarur ma’lumotlarga ega bo‘lgandan so‘nggina yurishga taraddud ko‘rilgan.

Chegaradosh davlatlardagi ahvol to‘g‘risidagi ma’lumotlarini Amir Temur 1000 kishidan iborat bo‘lgan yengil qurollangan otryadlar yordamida to‘plagan. Bu qo‘shinlar suvsiz va cho‘l joylarda tuyalar minib jang qilganlar, boshqa yerlarda esa ular tarkibi suvoriylar va yengil piyodalardan iborat bo‘lgan. Qo‘shni davlatlar yerlariga kirib borib, ular shubhasiz, harbiy hiylalardan foydalangan holda chegaradosh yerlardagi ahvol haqida ma’lumot to‘plaganlar. Urushga tayyorgarlik ko‘rilayotgani va boshqa turli xabarlarni bilib olganlar.

Mazkur otryadlar tomonidan yetkazilgan ma’lumotlarni mulohaza qilgandan so‘ng, Amir Temur tegishli chora-tadbirlarni ko‘rgan.

Ibn Arabshohning ma’lumotiga ko‘ra Amir Temur davrida tashqi razvedka faoliyati nihoyatda yuksak darajada yo‘lga qo‘yilgan. mazkur xizmat vakillari chakanafurush, yirik savdogar, polvon, dorboz, hunarmand, munajjim, qalandar, darvesh, dengizchi, sayyoh, meshkobchi, etikdo‘z, tolib niqobi ostida turli mamlakatlarda bo‘lib, u yerlardagi shaharlar, qishloqlar, yo‘llar, tog‘u toshlar, suvlar, har bir joyning aholisi, boshliqlari, ulug‘lari, amirlari, fozillari, shariflari, boy-u kambag‘allari to‘g‘risida har tomonlama batafsil ma’lumotlar yig‘ib, hatto suratlari bilan Samarqandga yuborib turganlar. “Temur tengi yo‘q fe’l-atvorli, chuqur mulohazali kishi bo‘lib, uning tafakkur dengizining qa’ri yo‘q va (uning) tadbiri tog‘iga na tekislik, na g‘adir-budur orqali yo‘l topilardi. U yerlarning barcha tomonlariga o‘z ayg‘oqchilarini tarqatib, qolgan mulklarida bo‘lsa josuslar qo‘ygan edi. Ular (josuslar) jumlasindan uning amaldorlaridan biri Amir Otlamish bo‘lsa, yana biri faqih Masu’d al-Kuhoniyu Temur devoni as’hoblarining ko‘zi edi. Josuslarning bunisi Kohirada bo‘lsa, unisi Damashqda, Shamiysiyadagi so‘fiylardan biri edi. Ularning biri chakanafurush bo‘lsa, ikkinchisi yirik savdogar, badxulq polvon va hunarmand, munajjim va o‘z tabiaticha ish qiladigan, gapchinoz qalandarlaru, sayoq darveshlar, zarofatli meshkoblar, latofatli etikdo‘zlar, alvasti va hiylakor Dalla misoli firibgar kampirlar, tajribasi bo‘lib, ilm talabida mag‘ribu mashriqni kezgan, payiga tushgan maqsad yo‘lida makr-hiyla makonida kamoliga yetgan, o‘zining nozik firibi va dahosi bilan suv bilan olov, tug‘rilik bilan egrilik o‘rtasida unib o‘sgan, makru hiylada Soson va Abu Zayddan ham o‘tib ketgan, o‘z hikmati va bahsida Ibn Sinoni ham mulzam qilgan, qachonki o‘ylagan ishlari o‘zlariga teskari natija bergach, o‘z so‘zamolliklari bilan yunonliklarni sukutga solgan, ikki muxolifni bir-biriga biriktirib, ikki dushmanni bir-biriga qo‘shgan uddaburon kishilar edi. Natijada ular chor atrofda bo‘layotgan hodisalar va ularning xabarlarni Temurga yetkazib, o‘zlari afzal ko‘rgan ishlarni unga bayon etardilar. Ular vaznlar, narx-navolar to‘g‘risida unga zikr qilib, manzil-u shaharlarni tavsiflardilar. Ularning tekis va notekis joylarining suvratini keltirib, uylari va daryolarining o‘rinlarini chizib ko‘rsatardilar, shular orasida u joylarning yaqin yoki uzoq, tor yoki kengligi, ularning qaysi tevarak atrofda, g‘arb yoki sharqdami (ekanligini), shaharlar va qishloqlarning ismlarini, manzil va panohjoylar nomlarini, har joyning ahliyu boshliqlarini, amirlari, ulug‘lari, fozillari, shariflari, boylariyu faqirlarini, ularning har birining ismi va laqabini,

shuhrati va nasabini, ularning hunari va (ega bo‘lgan) vositalarini (to‘la-to‘kis) bayon qilardilar. Natijada Temur o‘z fikri bilan shu (narsa)larni yaqqol ko‘rib, tafakkuri vositasida o‘z yerlaridan xorij joylar ustidan ham tasarruf yuritardi. (Ibn Arabshoh “Amir Temur tarixi”, 2-jild, 71-72 betlar).

Amir Temur turli o‘lkalardan kelgan sayohatchilarga, savdogarlarga, karvonboshilarga homiylik qilgan. Ularga har qanday yordam ko‘rsatilgan va shu asnoda ular ko‘rgan davlatlardagi ahvol ham bilib olingan. Amir Temur turli tovarlarning olib kelinishi va olib ketilishi, xorijliklarning mamlakatga kirishi va chiqib ketishi, Amir Temur huzuriga kelishni istagan turli olimlar haqida aniq ma’lumotlar berib turishlari lozim bo‘lgan alohida ishonchli lavozimdagi amaldorlarga ega bo‘lgan. Ular xorijiy podshohlarning Amir Temurga bo‘lgan munosabati va niyatlarini bilishlari, bu ma’lumotlarni unga tez va aniq qilib yetkazishlari lozim edi.

Agar bu ma’lumotlar kamlik qilsa, u holda Amir Temur elchilarni jo‘natgan. Ular Amir Temurning yurishlaridan oldin kerakli ma’lumotlarni berib turishlari zarur edi. Ba’zi xollarda u bu maqsadlar uchun darveshlardan foydalanardi.

Yuk-aravalar. Jangchi yurish paytida qurol-yarog‘ zaxiralari, chodirlar va boshqa narsalarni o‘zi bilan olib yurishi lozim bo‘lgan. Amir Temur qo‘shinlar ortidan ko‘p sonli yuk-aravalari yurishi lozim edi. Ular jangchilar soniga nisbatan uch barobar keladigan karvonlarni tashkil etgan. Qurol-yarog‘ zaxiralari tuyalar va boshqa yuk hayvonlarida olib yurilgan. So‘nggi yurishlari vaqtida Amir Temur o‘z armiyasida doimiy ravishda mis qozonlarga ega bo‘lgan, ular “yunon”lar olovini, toshlarni va boshqa og‘ir narsalarni otish uchun xizmat qilgan. Bundan tashqari, garchi uzoq masofalarga olib borilmasa-da manjanaqlar, shuningdek, qamal qilish uchun zarur materiallar va asboblarning zaxiralari ham bo‘lgan.

Shuningdek, Temuriylar armiyasi harbiy bo‘linmalarning harakatlarini boshqarishda, yurish paytida ham, jang paytida ham qo‘yilgan vazifalarning aniq bajarilishida aloqa vositalari sifatida turli tovush va belgili ko‘rish-kuzatish vositalari muhim rol o‘ynagan.

Ushbu vazifani maxsus ishlab chiqarilgan shartli tizim nog‘ora tovushlari, tug‘lar va bayroqlar vositasidagi ko‘rish aloqasi orqali samarali tarzda amalga oshirganlar.

Nog‘ora deb ataluvchi maxsus harbiy barabanlar qadim davrlardan beri ma’lum bo‘lib, ular yordamida harbiy bo‘linmalarning ichidagi buyruqlar, ya’ni

komandalar berilgan va ular orqali aloqa tizimi amalga oshirilgan. Amir Temur o‘z qo‘shin boshliqlaridan birontasini mukofotlar yoki yuqori mansabga ko‘tarar ekan, unga yangi mansab va unvon ramzi sifatida alohida bayroq va nog‘ora topshirgan. Zarafshon vodiysidagi Ko‘hak (Zarafshon) daryosi etagidagi bepoyon maydonda Amir Temur muntazam ravishda o‘z qo‘shinlarini harbiy ko‘rikdan o‘tkazgan, harbiy o‘quv mashqlarini amalga oshirgan, shuningdek, bu yerda doimiy ravishda tantanali bayramlar ham o‘tkazilgan. Ulardan biri Amir Temur saroyiga tashrif buyurgan ispan elchisi Rui Gonsales de Klavixo o‘z kundaliklarida yorqin va go‘zal tarzda tasvirlab bergan.

Zarafshonning baland qirg‘og‘ida joylashgan Nog‘oratepa deb atalgan tepalikda harbiy nog‘oralar yordamida qo‘shin bo‘linmalariga buyruqlar (komandalar) berilgan. Harbiy nog‘oraning muayyan ohanglari bo‘linmalarga oldindan tanishtirilgan va ular shu ohanglar orqali berilgan buyruqlarni jang paytlarida ham aniq-ravshan bajarganlar.

Jang paytida ko‘rish vositalarning o‘rni va roli ham katta bo‘lgan.

Qadimdan hokimiyat ramzi hisoblanib, urug‘-qabila va harbiy hokimiyatlarning o‘ziga xos timsoli bo‘lib kelgan bayroqlar, tug‘lar, nishonlardan Amir Temur aloqa tizimi – ko‘rish vositalari sifatida unumli foydalangan. Ulardan janglar, manevrlarga tezkor rahbarlikni amalga oshirish vositasi sifatida foydalanishni takomillashtirgan. Amir Temur qo‘shinida har bir bo‘linma o‘z hokimiyat va or-nomus ramziga, o‘z bayrog‘i yaloviga hamda o‘zlarining muloqot vositasiga, ya’ni signallarni yetkazib beruvchi bayroqlar – bunchuqlarga ega bo‘lgan. Amir Temur davrida mavjud bo‘lgan bayroqlar va bunchuqlarning haqiqiy namunalari bizgacha yetib kelmagan bo‘lsa-da, ularning tasvirlari miniatyuralardagi suratlarda saqlanib qolgan, ko‘rinishi manbalarda tasvirlangan.

Markaziy hokimiyat ramzi bo‘lgan bayroq - alam odatda butun jang maydonida yaqqol ko‘zga tashlanib turadigan tepalikdagi qarorgohda o‘rnatilgan. Bu bayroq lashkarboshi qo‘l ostida bo‘lgan va u barcha jangchilarga ko‘rinib turgan. Har bir bo‘linma bayrog‘ining o‘z rangi bo‘lgan va bu lashkarboshiga uning buyruqlari qanday bajarilayotgani va jangning borishini kuzatib turish imkonini bergan.

Qo‘shin boshlig‘ining bayrog‘i o‘ziga xos shaklga ega bo‘lgan. Amir Temur bayrog‘i uzun yog‘och tepasiga o‘rnatilgan mohcha - Amir Temur gerbi va katta zangori matodan iborat bo‘lgan. Ispan elchisi Rui Gonsales de Klavixo Temurning gerbida uchta doira tasvirlangani haqida xabar beradi.

Miniatyuralarni o‘rganish va zamondoshlarining ma’lumotlari asosida Amir Temur va uning vorislarining gerbi oltin nurlar sochayotgan quyosh bayrog‘ida tasvirlangan sher ko‘rinishida bo‘lganligi aniqlangan. Bu gerb tasviridan XVII asrda Samarqand Registonida qurilgan Sherdor madrasasi peshtoqini bezashda foydalanilgan.

Belgili buyruqlar tizimi aniq-ravshan qilib ishlab chiqilgan va uni barcha jangchilar bilishi zarur edi. Qo‘mondon qarorgohi joylashgan yerda o‘rnatilgan oliy bayroq baland ko‘tarilgan bo‘lsa, g‘alaba yaqinligini yoki yordam kelayotganini anglatgan. Agar u yuqorida hilpirab turgan bo‘lsa, hukmdorning xavf ostida qolganligining, agar tushirib qo‘yilgan bo‘lsa mag‘lubiyatni, dushman bayrog‘i qo‘lga kiritilgan bo‘lsa, to‘liq g‘alabaning belgisi hisoblangan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ибн Арабмоҳ. Амир Темур тарихи, 2-жилдлик Тошкент Меҳнат 1991 йил.
2. Murtazayeva R.X. va boshqalar. O‘zbekiston tarixi. Darslik. – T.: Yangi asr avlodi, 2005. -420 b.
3. Murtazaeva R.X. va boshqalar. O‘zbekiston tarixi. Darslik. 2-jild.– T.: Yangi asr avlodi, 2015. -484 b.
4. Raximov J. Amir Temur – adolat va qudrat timsoli. Toshkent: “O‘qituvchi”, 2015. 530 b.
5. Raximov J. Amir Temur – buyuk arbobi va ulug‘ sarkarda. Toshkent: “Ziyonashr”, 2023. -680 b.
6. Руи Гонсалес Де Клавихо. Дневник путешествия в Самарканд ко двору Тимура. (1403-1406 г.) Пер. со староисп. Предисл. коммент. И.С.Мироковой. – Москва: Наука, 1990.
7. Temur tuzuklari. Raximov J. tahriri ostida.

Eshov B., Odilov A. O‘zbekiston tarixi. I jild. Eng qadimgi davrdan XIX asr o‘rtalarigacha. Darslik. – T.: Yangi asr avlodi, 2014. -416 b.

AMIR TEMURNING AXLOQIY QARASHLARINING PEDAGOGIKADA TUTGAN O‘RNI.

Muxammadiyeva S.,

Jizzax davlat pedagogika universiteti katta o‘qituvchisi

Mustaqilligimiz sharofati bilan tarixni xolisona o‘rganish, tarixni soxtalashtirmay, uning sarhadlarini buzmay, bor haqiqatni oydinlashtirib ma’lumot berish imkoniyatlariga ega bo‘ldik. «Temur tuzuklari»da o‘zi amal qilgan o‘n bir sifatni yoshlarimiz ongi va qalbiga singdirsak, shuning o‘zi ta’lim-tarbiya sohasidagi g‘oyalarni yoshlarimizni tarbiyalashda tadbirkor bo‘lishdan odamlar bilan maslahatlashib, nozik va tarbiya ko‘rgan aqlli kishilar bilan birga kelishib, e’tiqodli, iymonli qilib tarbiyalashda e’tiborni kuchaytirsak foydadan xoli bo‘lmaydi.

Amir Temur nomi tariximiz sahifalaridan qora bo‘yoq bilan o‘chirildi, unitilishga mahkum etildi. Bundan ko‘rinadiki xalqimizning yuragidan milliy ong, millliy g‘urur tuyg‘usini yo‘qotish, xalqni qaramlikka, tobelikka ko‘ndirish edi. Lekin o‘zbek xalqi o‘z ajdodlarini, o‘z bahodirlarini unitmadi, hamisha yuragida, qalb to‘rida saqladi. Muhammad Tarag‘ay Bahodir o‘g‘li Amir Temur yoshlik chog‘idan mard, dovyurak, g‘ururli, o‘tkir zexn va aql-idrok egasi bolib o‘sdi. Turli dunyoviy ilmlarni, harbiy san’atni egalladi, Quroni Karimni yod oldi, hadis ilmini o‘rgandi, iymon-etiqodli, halol-pok inson bo‘lib yetishdi. Darhaqiqat, I. A. Karimov ta’kidlaganidek insof-iymon tuyg‘usi, diyonat mezoni Amir Temur hayotining mazmunini tashkil etadi. Olamning qariyib yarmiga jahongir ersa-da, u kuch-qudrat, zo‘rlik, zo‘rovonlik emas adolatda ekanini teran anglatdi. Shu bois bo‘lsa kerakki, o‘tmishda ilm ahli, mashxur muarrixlar o‘z asarlarida Amir Temur ismiga Ko‘ragon, Sohibqiron, Qutbiddin, Abulmansur kabi unvonlarni qoshib, uni e’zozlab, ulug‘lab, hikoyat, rivoyat va xotiralar bitganlar.

Tarixiy manbalarda zikr etilishicha, Amir Temur xushfellik, adolat, saxovat, islom axloq-odob qoidalariga rioya va amal qilish, insonlarni jamiyatda tutgan o‘rinlari qanday bo‘lishidan qat’iy barchani birdek hurmat qilish, ular bilan samimiy muomalada bo‘lish, berilgan vada va zimmaga olingan ahdnomalarni vaqtida bajarish kabi qator yuksak insoniy fazilatlarga ega bo‘lgan. U yoshligidan o‘z oldiga ona yurtni mo‘g‘il bosqinchilaridan ozod qilish maqsadini qo‘ydi, yer yuzida buyuk saltanat soxibi sifatida el va elatlarning boshini qovushtirdi. Mamlakat qudratini har sohada yuksaklikka ko‘tarib, dunyoga mashxur qildi.

Amir Temur davlati qurilishi, harbiy san’ati ko‘p asrlar davomida Sharq va G‘arb davlatlariga o‘rnak va andoza bo‘ldi. Uning zamonida madaniyat, ilm-

fan, me’morchilik, tasviriy san’at, musiqa she’riyat beqiyos rivoj topdi, xalqimizning ko‘p an’analari takomiliga yetdi. Amir Temurning madaniyat va din axillariga ko‘rsatgan cheksiz mehr-muruvvati ayniqsa ibratlidir.

Amir Temur nomi tarixda Movarounnaxr va buyuk Turkiston o‘lkalarida ilm-fan homiysi sifatida ham qolganini ta’kidlash lozimdir. Ma’lumki, u nafaqat o‘z mamlakatini, balki o‘zga o‘lkalarni ham obod qilish uchun katta kuch va g‘ayrat sarflagan. Doktor Shamsuddin Samiyning “Alq A’lom” qomusining “Temur” bandida Amir Temurning o‘zi olim bo‘lgani, ulamolarning rahnamosi, ularni yaxshi ishlarga rag‘batlantiruvchi shaxs ekanligi zikr etilgan va o‘z poytaxti Samarqandni katta g‘ayrat bilan obod qilib, u yerda qator madrasa, kutubxona va madaniyat saroylarini barpo etgani, “Tuzuklar” nomi bilan asar yozib, turli qonunlar yaratgani, o‘z tarjimayi holini ham adabiy, chig‘atoy tilida yozgani hamda Temur va temuriylar davrida san’at va adabiyotning rivoj topganini eslatib o‘tadi. Shuningdek, doktor Shamsuddin Boboxonov Amir Temur buyuk lashkarboshi, mohir sarkarda sifatida mukammal, yaxshi qurollangan, tezkor hujum qilishga qodir, muayyan taktik va strategiyaga ega bo‘lgan qudratli armiyaga asos soldi. Bu armiya o‘nlik, yuzlik, minglik va tumanliklarga bo‘lingan edi. Amir Temurning harbiy san’ati, uning taktika va strategiyasi ko‘p mamlakatlarda, jumladan, Fransiya, Rossiya va boshqa mamlakatlarning harbiy akademiyalarida, maxsus o‘rganilgan va hozirgi kunga qadar o‘rganib kelinmoqda deb, ta’kidlashi ham Sohibqiron Amir Temurning buyukligidan dalolat beradi.

Zamondosh tarixchilar sohibqiron Temurning eng xarakterli xususiyatlari - davlat, mamlakat va fuqaroning g‘amxo‘ri bo‘lganligi edi deb e'tirof etishadi, jahongirlik qoidasi esa haqiqat sihat-salomatlik, haqiqat-tartib, haqiqat-adolat deb tushinilgan. Buyuk bobokalonimiz har doim “insonparvarlik va mardlikni Alloh ham, xalq ham ulug‘laydi”, degan hikmatli so‘zlarni takrorlashni xush ko‘rgan va o‘z hayoti davomida bunga qat’iy amal qilganlar. Dastavval shuni aytish kerakki,

Amir Temur, odob-axloq, iymon-etiqod, ta’lim-tarbiya sohasida o‘zi yuksaklikka, mukammallikka erishgan siymolardan biridir. Bunga ishoch hosil qilish uchun uning o‘zi tomonidan yaratilgan odob-axloqqa oid qoidalar, o‘gitlar, pand-nasihatlarni, shuningdek, Sohibqiron haqidagi tarixiy asarlarni ko‘zdan kechirish kifoya.

Tadqiqotchilarning fikriga ko‘ra Sohibqiron Amir Temur o‘gitlarini uning mohiyati va vazifasiga qarab quyidagi guruhlarga ajratib o‘rganish maqsadga muvofiqdir:

1) Islom dini va shariat qonunlari haqidagi o‘git-nasihatlar;

2) Davlat va uni idora etish;

3) Podsho va vazirlar haqida o‘git-nasihatlar;

4) Axloq va odobga oid o‘git-nasihatlar. Ushbu qayd etilgan pand-nasihatlar sohibqironning o‘z tajribasida sinalgan, hayotga tadbiq etilgan juda katta ma’naviy, axloqiy, tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan xulosalaridir. Shu sababli ham ular Temur va temuriylar sulolasi davrida ta’lim-tarbiya tizimida katta ahamiyatga molik bo‘ldi.

Amir Temurning Movaraunnaxrda fan, ma’rifat va madaniyat sohasidagi sa’yi-harakatlari jahon taraqqiyoti tarixida musulmon renessansi deb atalgan ilmiy, ma’rifiy va madaniy yuksalishga olib keladi. Ulug‘bek, Qozizoda Rumiy, Jamshid Koshiy, Ali Qushchi, Jomiy, Navoiy, Behzod, Bobur va Boburiylar ana shu sharq yuksalishi avj olgan davr farzandi edilar. Amir Temur va temuriylar davrida Movaraunnaxrda ta’lim-tarbiya va pedagogik fikrlar imkon darajasida yoritilgan.

Amir Temurning ilm-fan maorif, madaniyat ravnaqi yo‘lidagi tadbirlari, uning Mirzo Ulug‘bek, Shoxrux Mirzo, Husayn Boyqaro va boshqalar tomonidan yanada rivojlantirilishi haqida so‘z yuritiladi. Ishda islom dini, uning mamlakat ilm-fan, maorif taraqqiyotiga ta’siri ham yoritiladi.

“Amir Temur - buyuk shaxs, - deb yozadi akademik B.Axmedov- kuragi yerga tegmagan sarkarda, yirik davlat arbobi, qonunshunos, talantli me’mor, notiq, ruxshunos, shu bilan birga el-yurt sevgan va uni mashxur qilgan inson ” U yetti iqlim Sohibqironi, 27- mamlakatni birlashtirib buyuk saltanatni vujudga keltirgan Movaraunnaxr Amir Temur va Xurosonda madaniyat, ilmu-ma’rifat, ta’lim-tarbiyani yanada rivojlantirib uni dunyoga tanitadi. U haqiqatdan xam ko‘p qirrali aql, salohiyat egasi, donishmand bo‘lgan. Uning shaxsi haqida birinchi prezidentimiz I. A. Karimov: “Muxammad Tarag‘ay Bahodir o‘g‘li – Amir Temur yoshlik chog‘laridan mard, dovyurak, g‘ururli, o‘tkir zexn va idrok egasi bo‘lib o‘sdi. Turli dunyoviy ilmlarni, harbiy san’atni egalladi”,- deb aytgan edi. Quroni Karimni yod oldi. Hadis ilmini o‘rgandi. Imon-etiqodli, halol pok inson bo‘lib etishdi.

Amir Temurning O‘rta Osiyo tarixida tutgan o‘rni uning ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, jabhalardagi merosi, shuningdek davlatni boshqarish, ichki-tashqi

siyosat olib boorish, mamlakatni himoya qilish, harbiy san’at, huquq, adolat, ilm-fan, san’at, adabiyot, maorif sohasidagi siyosatiga yetarlicha baho berilmadi. O‘zbekiston Mustaqillikka erishganidan so‘nggina milliy merosimiz, qadriyatlarimiz, urf-odatlarimiz umuman ma’naviyatimizni o‘rganish, unga baho berish va tiklanishning imkoniyatlarini yaratadi. Amir Temurning ko‘p qirrali faoliyati, murakkab shaxs ekanligi o‘sha davrda yozilgan qator asarlarda ifodalangan. Hofiz Boburning “Zubdat ut tavorix”, SHarofiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma”, Fasih Ahmad Havofiyning “Mujmali Fasihiy”, Abdurazzoq Samarqandiyning “Matlaus sadayn va majmual baxrayn”, Ibn Arabshohning “Ajayibul- maxdur fi axbori Temur”, nomli asarlari o‘sha davrning qimmatli yozma manbalari hisoblanib, ularda Amir Temurning hayoti va ko‘p qirrali faoliyati ma’lum darajada, hikoya qilinadi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, buyuk sarkarda, adolatli shoh Amir Temur Markaziy Osiyoda mo‘g‘ullarning 150-yillik hukmronligini tugatib, buyuk davlat tuzgan va uni dunyoga tanitgan, shuningdek, Movaraunnaxrda fan va madaniyat ravnaqining asosini yaratgan shaxs sifatida mashxurdir. O‘z davrida Turkistonda hunarmandchilik, qurilish, ilm- fan va madaniyatni rivojlantirgan. Bu esa kelajak avlodga ta’lim-tarbiya berishda muhim asos bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I. A. Bizdan ozod va obod vatan qolsin. Toshkent, O‘zbekiston, 1994 yil.

2. Karimov I. A. Amir Temur faxrimiz, g‘ururimiz. Toshkent, O‘zbekiston, 1996 yil.

3. Karimov I. A. Istiqlol va ma’naviyat. Toshkent, O‘zbekiston, 1994 yil.

4.Amir Temur o‘gitlari. Toshkent, Cho‘lpon, 1992 yil.

5.Amir Temur va temuriylar davrida madaniyat va san’at, Toshkent, Adabiyot va san’at nashriyoti, 1996 yil.

6.K. Xoshimov, Pedagogika tarixi, Toshkent, O‘qituvchi, 1997 yil.

7.Safo Ochil, K. Xoshimov, O‘zbek pedagogikasi antalogiyasi, Toshkent, O‘qituvchi, 1995 yil.

О НОВЫХ МОНЕТАХ АМИРА ТИМУРА, НАЙДЕННЫХ В КАТТАКУРГАНСКОМ РАЙОНЕ

Нормуродов Д.Р., - PhD., доцент НУУз,
Дусмуродов О.Ш., - преподаватель НУУз

Древние монеты служат важным источником для освещения истории торгово-экономических связей и товарно-денежных отношений государства, а также для идентификации глав правящей династии и определения государственных символов. Таким источником стали и три медные монеты с именем Амира Темура, отчеканенные в Самарканде, которые студент *образовательного направления «Археология»* Национального университета Узбекистана В.А. Абдусаломов хранил в своей личной коллекции. Монеты были найдены им в селе Джизмансай Каттакурганского района Самаркандской области, и предоставлены для научного изучения преподавателям кафедры Археологии и этнографии Д.Р. Нормуродову и О.Ш. Дусмуродову в январе 2025 года. Монеты, которые первоначально казались незначительными, как объект исследования, были эффективно очищены от грязи и оксидов механическим и химическим способом. В результате появилась возможность изучить надписи и символы на них.

Монеты изготовлены из меди, нанесённые на них орнаментальные элементы и надписи арабскими буквами имеют высокий рельеф. Диаметр монет составляет в среднем 25 мм, а вес – 4–5 граммов. Орнамент и надписи на поверхности двух из этих монет относительно хорошо сохранились, а на третьей они почти стёрты. Они имеют следующее общее описание:

Лицевая сторона. Центр монетного поля занимает квадратная рамка с надписью внутри «Амир Темур». Год чеканки монеты написан словами *«дата / семьсот / восемьдесят / пять»* по всем четырем сторонам рамки снаружи неё. Далее рамка и надписи окружены кольцами и точками, идущими по окружности вокруг края монеты (Рис. 1,а; Рис. 2,а).

Обратная сторона. Монетное поле занимает треугольник, вписанный в круг. В треугольник помещена тамга – три кольца (☋). С внешних сторон треугольника выгравирована надпись, указывающая место чеканки монеты, то есть: *«чеканка / Самар / канд»* (Рис. 1,б; Рис. 2,б).

Из вышеизложенного видно, что медные монеты, найденные в селе Джизмансай Каттакурганского района Самаркандской области, были отчеканены в Самарканде в 785 году хиджры (1383 – 1384 гг. н.э.) от

имени Амира Темура. Подобные медные монеты Амира Темура, отчеканенные в Самарканде, уже описывались в работах нумизматов, историков и археологов XIX – XXI вв.: Х.М. Френа [15, С. 62], Е.А. Давидович [5, С. 69-70], Г.А. Федорова-Давидова [14, С. 179-223], И. Тухтиева [13, С. 8-46], Э.В. Ртвеладзе [12, С. 95-98], В.Н. Настича [10, С. 152-160], Д. Давуди [6, С. 44], А.О. Брагина, П.Н. Петрова, А.А. Гомзина [2, С. 67-79; 3, С. 114-125], В.И. Харитонова [16, С. 65-69], А.М. Камышева [8, С. 13-153], Д.Р. Нормуродова [11, С. 22]. Сведения о месте чеканки, дате выпуска, орнаменте и легендах на монетах этого типа достаточно хорошо освещены в работах этих исследователей. Отмечается, что такие монеты назывались фулусами (фельсы) и служили средством обращения в местной торговле.

Монеты, аналогичные монетам из Джизмансая, с тамгой в виде трёх колец – были найдены в разных городах и селах современного Узбекистана, в том числе в Самарканде и Термезе [12, С. 95-98], в Яккабагском районе [11, С. 22]; в большом количестве они встречались в соседней Киргизской Республике, в Джалал-Абадском, Аксыйском, Панфиловском районах [8, С. 13-172]; Хутталонском и Дангаринском (село Итарка) районах Таджикистана [6, С. 44-115], а также в городе Астрахани в России [2, С. 67-79] и других местах. Такое широкое их распространение свидетельствует, что отчеканенные в столице Амира Темура медные монеты данного типа, с тамгой правителя, почти не уступали в востребованности серебряным монетам – дирхемам, широко обращавшимся в международной торговле. Хотя медные монеты (фулус), отчеканенные в Самарканде во время правления Амира Темура, предназначались в основном для мелких расчетов в торговле на внутреннем рынке, они вошли в обращение и за пределами государства Амира Темура.

Известно, что Амир Темур некоторое время правил от имени марионеточного хана Суюргатмиша (1370 – 1388), потомка сына Чингисхана Чагатая, а затем от имени его сына Махмуд-хана (1388 – 1402). И хотя Амир Темур указывал их имена на своих медных и золотых монетах вместе со своим именем [13, С. 8-46], на практике он осуществлял абсолютное правление.

На ранних монетах Амира Темура, изготовленных из золота и серебра, с тамгой из трех колец, на лицевой стороне в центральной части

написано «Ля иляха иллялаху Мухаммадур расулуллах», на четырёх углах – имена четырёх халифов - Абу Бакра, Умара, Усмана и Али, а на оборотной стороне – «Суюргатмишхан ярлыки Амир Темур Кураган акману». На мелких медных монетах, выпущенных в Самарканде (в 1380 – 1386 годах) также присутствуют имена Суюргатмиш-хана и Амира Темура [13, С. 8-9]. На лицевой стороне серебряных и медных монет, отчеканенных от имени Султана Махмуд-хана и Амира Темура, написано «Ля иляха иллялаху Мухаммадур расулуллах» а на оборотной стороне монет: «Султан Махмуд-ханский ярлык Амир Темур Кураган акману». Позднее на медных монетах написано только имя «Амир Темур» [13, С. 9]. Примечательно, что, поскольку Амир Темур не был прямым потомком Чингисхана, на монетах его имя дополняли титулы «Эмир» или «Кураган» (по-монгольски – зять).

Амир Темур установил мир в государстве и привёл его к экономическому и культурному расцвету. Значительно увеличилась численность населения и объем производства. В свою очередь, значительно выросла внутренняя и международная торговля. Амир Темур усовершенствовал экономическую и финансовую систему во всех регионах, входивших в состав его государства. Если Амир Темур чеканил свои первые монеты в 1372 – 1373 годах хиджры по образцу чагатайских ханов, то после денежной реформы 1380-х годов он чеканил монеты нового типа под своим именем.

«Три кольца» – тамга Амира Темура, были нанесены на многочисленных медных монетах – фулусах, отчеканенных в Самарканде в 783 – 787 гг. хиджры (1381 – 1385 гг. н.э.) [15, С. 62; 16, С. 65-69]. Эта тамга также наносилась на его золотые и серебряные монеты, а также на государственные печати, используемые при сборе налогов, особенно хараджа [13, с. 8-42].

По масштабам распространения и качеству изготовления медные монеты с тремя кольцами, отчеканенные в Самарканде, превосходят монеты, изготовленные в монетных дворах других городов страны. В результате экономического подъёма в период правления Амира Темура в 1370 – 1405 годах, резко возросло производство товарной продукции и увеличилась потребность в монетах. В результате была проведена денежно-финансовая реформа. Помимо Самарканда, медные монеты с именем и тамгой Амира Темура чеканились в разные годы в 40 – 50

монетных дворах – в Хорезме, Хорасане, Иране, Ираке и Азербайджане, в частности, в Астрабаде, Астраре (Ашпара), Баку, Балхе, Багдаде, Барсе, Бамиане, Герате, Дамгане, Дербане, Йезде, Исфахане, Кашане, Кермане, Куме, Карши, Мардине, Саве, Султании, Тебризе, Хое, Шабанкоре, Ширазе, Шемахе, Махмудабаде, Мешхеде, Бидлисе, Вастане, Сельмасе и других городах, [12, С. 95-98; 13, С. 8-46]. Даже независимые правители Индии, Турции, Египта и Леванта чеканили золотые и серебряные монеты с именем Амира Тимура [13, С. 8-46]. Это, а также широкое распространение медных монет Амира Темура, свидетельствует о высоком статусе его власти, и прочном экономическом положении его государства.

Тамга “три кольца” на монетах Амира Темура представляет особенный интерес для учёных. Некоторые исследователи ошибочно полагают, что это клеймо символизирует голову быка, изображая только два глаза и рот быка [13, С. 8-46]. Описание этой тамги впервые приводится в путевом дневнике посла короля Кастилии Руи Гонсалеса де Клавихо, прибывшего во дворец Амира Темура в Самарканде в 1404 году. Он сообщает, что у входа во дворец Амира Тимура в Самарканде было три кольца, расположенных в том же порядке, что и на золотых монетах [4, С. 90-189]. У Ибн Арабшаха сказано, что на флаге, знамени, конях, монетах и золотых украшениях Амира Тимура был знак, состоящий из трёх колец [7, С. 65]. Этот знак (тамга), является гербом государства Амира Темура, и означает «Темур – правитель трех сторон света». Как известно, Амир Темур был правителем, объединившим три части света: Азию, Европу и Индию [4, С. 90-189; 13, С. 40-46]. На одной стороне монеты Амира Темура, отчеканенной в Хорезме в 783 году хиджры (1381-1382 гг. н.э.), кроме трёх колец, изображён лев с правой стороны от тамги [16, С. 65-69]. Известно, что в исламе освящение животных и использование их изображений рассматриваются негативно. Хотя Амир Темур был мусульманином и с уважением относился к исламу, в эту эпоху в мусульманской культуре Центральной Азии ещё имел место культурный синкретизм, сочетание мусульманских традиций с доисламскими. Таким элементом является и изображение льва, древнего восточного символа царской власти, на монетах Амира Темура. Проявлением того же культурного синкретизма в местных традициях являлось винопитие. Так, Клавихо рассказывает, что на пирах Амира Темура в Самарканде

участники, и мужчины и женщины, пили вино, и даже напивались допьяна [4, С. 90-189].

Следует отметить, что тамга в виде трёх колец встречается и на более древних монетах, в частности, на монетах Насра Ибрагима оглы из династии Караханидов, отчеканенных в Бухаре в 1067-1068, 1073-1074 годах, Масуда Хасана оглы в Самарканде в 1164-1165 годах, Арсланхана Ибрагима Хусейна оглы в Узгене в 1163-1164 годах, и Алп Арслана из Сельджуков, отчеканенных в Нишапуре в 1072-1073 годах [1, С. 38]. В других случаях, вместо трёх колец на монетах мы видим знак в виде трёх выпуклых точек, расположенных в том же порядке. Такие точки находятся на медных монетах Яхьи Асада оглы из Саманидов, отчеканенных в Шаше (Ташкенте), на монетах Насра Ибрагима оглы из Караханидов (чеканены в 1072-1073 годах), на монетах Табгачхана Мухмуда (чеканены в Бухаре в 1096-1097 годах), на монетах Имадиддина Табгачхана Мухаммада Такаш оглы (чеканены в Вахше в 1210 году), на монетах правителя Кермана Кара Арслан Бека из Сельджуков (чеканены в 1069-1070 годах), на монетах Мункихана и Узбекхана из Чингизидов, на монетах кунградских суфиев в Хорезме (чеканены в 1377-1378 годах) [1, С. 30-38; 9, С. 62; 17]. Три кольца и точки в них значительно меньше.

Три кольца – тамга Амира Темура, были нанесены на серебряные и медные монеты его сына Шахруха и внука Улугбека. Это также можно наблюдать на медных монетах, отчеканенных тимуридскими принцами в Самарканде и Бухаре в конце XV века [17]. Позднее эта тамга уже не встречается на последующих местных монетах других династий.

Таким образом, монеты, найденные в Каттакурганском районе, являются важным источником для изучения экономических и политических отношений эпохи Амира Темура и расширяют географию распространения монет этого типа. Хотя эти монеты, отчеканенные в Самарканде в 785 году хиджры (1383-1384 гг. н.э.), были отчеканены на монетах тюркских династий, они стали символом правления Амира Темура.

Литература и интернет-ссылки

1. Catalogue of oriental coins in the British Museum. – Vol. III. – London: Printed by order of the trustees, 1877.

2. Брагин А.О. Находки монет амира Тимура и Тимуридов на территории Золотой Орды // Нумизматика Золотой Орды. – №5. – Казань, 2015.

3. Брагин А.О., Петров П.Н., Гомзин А.А. Медные монеты Амира

Тимура с номиналом Тассудж // Нумизматика Золотой Орды. – № 4. – Казань, 2014.

4. Гонсалес, Руи Де Клавихо. Самарқандга – Амир Темур саройига саёҳат кундалиги (1403–1406). Масъул муҳаррир: Муҳаммад Али; сўзбоши ва изоҳлар муаллифи М. Сафаров; тарж. О. Тоғаев. – Тошкент, 2010.

5. Давидович Е.А. История денежного обращения средневековой Средней Азии (медные монеты XV– первой четверти XVI в. в Мавераннахре). – Москва, 1983.

6. Давлатходжа Довуди. Древние и средневековые монеты Дангары. – Душанбе, 2014.

7. Ибн Арабшоҳ. Амир Темур тарихи. 2-китоб. – Тошкент, 1992. 65-бет.

8. Камышев А.М. Клады медных монет тимуридов и шейбанидов. – Самарканд, 2013.

9. Монеты хановъ улуса Джучіева или Золотой орды, съ монетами разныхъ иныхъ Мухаммеданскихъ династій. – Санктпетербургъ, 1832.

10. Настич В.Н. Еще о Самаркандском чекане Темура и первых тимуридов. // Роль города Самарканда в истории мирового культурного развития (Материалы Международного научного симпозиума, посвященного 2750-летнему юбилею города Самарканда). – Ташкент – Самарканд, 2007.

11. Нормуродов Д., Мейлиев И. Яккабоғдаги Амир Муҳаммад (барлослар) мақбараси. – Тошкент, 2023.

12. Ртвеладзе Э.В. Термезский клад монет Тимура и Халил Султана // ОНУ. 1969. – № 8–9.

13. Тўхтиев И. Амир Темур ва темурийларнинг молия-пул сиёсати. – Тошкент, 2006.

14. Федоров-Давыдов Г.А. Нумизматика Хорезма Золотоордынского периода // НЭ. – Том. V. 1965.

15. Френ Х.М. Монеты ханов улуса Джучиева или Золотой Орды с монетами различных мухаммеданских династий. – Санкпетургбург, 1832.

SOHIBQIRON AMIR TEMURNING HARBIY-SIYOSIY TIZIMI

Nortojiyev M.A.,
Jamoat xavfsizligi universiteti o‘qituvchisi

Sohibqiron mukammal harbiy-siyosiy tizimni yaratdi va bu tizim keyinchalik yirik davlatlar boshliqlari, sarkardalariga muhim dastur vazifasini o‘tadi. U lashkariy qismlarni Chingizxon davridagidan ham mukammalroq qayta tashkil qildi va harbiy san’ati orqali mamlakatda kuchli mudofaa tizimini yaratdi. Amir Temur harbiy ilmu salohiyati orqali davlatda tinchlik va barqarorlikni ta’minlash bilan birga dunyo geosiyosiy maydonida yetakchi mavqeni egalladi.

Amir Temur markazlashgan davlat barpo etib, eng avvalo uning harbiy salohiyatini kuchaytirishga katta e’tibor qaratdi. Shu maqsadda muntazam qo‘shin tuzishga, unga yangiliklar kiritishga harakat qildi. Amir Temur sharkda birinchilardan bo‘lib o‘z armiyasiga o‘t ochar qurol, ya’ni to‘p-ra’dni olib kirdi. Shuningdek, u tog‘li hududlarda jang harakatlari olib boruvchi piyodalardan tuzilgan maxsus harbiy qismlarni tashkil qildi. U jahon harbiy san’ati tarixida birinchi bo‘lib qo‘shinni jang maydonida yetti qo‘lga bo‘lib joylashtirish tartibini joriy etdi. Amir Temur armiyasida ayollardan tuzilgan bo‘linmalar bo‘lib, ular jang chog‘i erkaklar bilan bir safda turgan, kahramonlik va matonat namunalari ko‘rsatgan.

Amir Temur tuzgan harbiy qo‘shinida muntazam armiyaga xos bo‘lgan ko‘pgina belgilar namoyon edi: Xususan, qo‘shin son jihatdan aniq va puxta tashkil qilingan, uning jangovar tartibi jangdan-jangga takomillashtirilib borilgan, armiya o‘z zamonasining ilg‘or qurol va texnikasi bilan qurollangan, aynan bir turdagi qurol-yarog‘, aslaha-anjom bilan ta’minlangan qismlar bir-biridan kiyim-boshi, tutgan bayroq yoki tug‘i orqali ham farqlangan. Bunday ajralib turish jang paytida qo‘shinni boshqarishda juda qo‘l kelgan.

Qo‘shinning qism, polklarga taqsimlanishi, har biri uchun ma’lum bir turdagi askariy kiyimlarning joriy etilishi kabi yangiliklar keyinchalik yevropalik xalqlar tomonidan ham o‘zlashtirildi.

Qo‘shin piyodalar va otliq askarlardan iborat edi. Temur piyodalarning ahamiyatiga mo‘g‘ullardan ko‘ra ko‘proq e’tibor bergan. Uzoq yurishlar vaqtida harakatlanishi uchun piyodalar ham otlar bilan ta’minlangan. Piyoda askarlardan o‘q-yoy bilan otishmalarda ham, qal’alarni shturm qilishda ham foydalanilgan. Shuni qayd etish lozimki, aniq nishonga o‘q otish lozim bo‘lgan paytlarda otliq qo‘shin ham otlaridan tushib, yayov holda harakatlangan.

Biroq, asosiy rolni otliq qo‘shin o‘ynagan. Ular tez harakat qiluvchi safarbar yengil suvoriylarga va og‘ir qurolli otliqlarga bo‘lingan. Og‘ir qurollangan otliq qo‘shinning vazifasi dushmanga hal qiluvchi zarbani

berishdan iborat edi. Agar mo‘g‘ullarda og‘ir qurolli otliqlar oxirgi zahira sifatida va xonni qo‘riqlash maqsadida foydalanilgan bo‘lsa, Amir Temur jangda ularning rolini yanada orttirdi. Og‘ir qurollangan suvoriylarning katta qismini sara otliq ko‘shinlar tashkil etgan. Amir Temur qo‘shinlarida xos soqchilar va gvardiya ham mavjud bo‘lgan. Shuningdek, asosiy jangovar bo‘linmalardan tashqari quyidagi harbiy-yordamchi qismlar ham bor edi:

1..Qamal qiluvchi, tosh otuvchi mashinalar, «yunon olovi»ni otuvchi, devor buzuvchi texnikadan iborat o‘ziga xos artilleriya.

2.Har doim qo‘l ostida turish lozim bo‘lgan vositalarni tayyorlash, ko‘priklar qurish, kemalar yasash, kema haydash va hokazo ishlar uchun maxsus ustalar otryadi.

3.Jangda foydalaniladigan, qo‘l ostidagi jangovar vositalar va hayvonlarni (tuyalar, ho‘kizlar, fillar) boshqarish otryadi.

4.Tog‘larda harbiy harakatlar olib borish uchun daralardan o‘ta oladigan va baland qoyalarni shturm qila oladigan maxsus piyoda bo‘linmalar.

Shu tariqa, Amir Temur harbiy qo‘shin tarkibini boyitib, yanada kengaytirdi hamda har qanday sharoitlarda jang olib borishga moslashtirdi.

Yurishga jo‘nashdan oldin Amir Temur arkoni davlat, vazirlar, sarkardalar, beklar, amirlarni harbiy kengash – mashvaratga chorlagan. Ayni chog‘da ulusning turli viloyat va tumanlardan, shuningdek tobe yurtlardan qo‘shin to‘plash uchun maxsus buyruq - tunqal e’lon qilingan. Farmon kerakli joylarga yuqori mansab egasi, bosh qo‘mondonning ad’yutanti – tavachi tomonidan tezlik bilan yetkazilgan. Tavachining zimmasiga askar jamlashdan tashqari qo‘shin qismlarining qarorgoh yoki safardagi o‘rni, jangovar tartibni hamda bir joydan ikkinchi joyga ko‘chishini nazorat qilish ham yuklatilgan edi.

Piyoda askarlar asosan qilich, kamon va kerakli miqdordagi o‘q bilan safarga chiqqan. Avvaldan maxsus tanlab, belgilab qo‘yilgan joyda - miod yerida oliy bosh ko‘mondonning qarorgohi tikilgan va u turli rangdagi tug‘ hamda bayroqlar bilan bezatilgan. Belgilangan vaqt (miod vaqti) da lashkargohga yetib kelgan askarlar qat’iy tartib va intizom bilan o‘z bo‘ljar (pozitsiya)larini egallagan hamda yurish oldidan o‘tkazilajak an’anaviy harbiy ko‘rikka puxta tayyorgarlik ko‘ra boshlagan.

Soqibqiron yurish paytida tajribali sipohiylarga katta ishonch bildirgan. Ko‘p sonli janglarda suyagi qotgan, urushni o‘zining bosh mashg‘uloti deb hisoblagan harbiylar safar boshlanishidan avval jam qilingan, ular kirim-chikim

daftariga, shuningdek davlatdan maosh – ulufa, oziq-ovqat, yem-hashak oluvchilar ro‘yxatiga kiritilgan.

Run Gonsales de Klavixoning guvohlik berishicha, qo‘shin to‘plash to‘g‘risida farmoni oliy e’lon qilinishi bilan askarlar o‘z oilasi, asbob-aslahasi, mol-mulki bilan miod yeriga yetib kelgan. O‘rdagohdagi Sohibqironning saropardasi atrofida har bir qism va bo‘linmalarning chodirlari tikilgan. Oddiy askardan yirik sarkardagacha har kim o‘z joylashish o‘rnini aniq bilgan. Barcha ishlar tartib-intizom bilan, shovqin-suronsiz bajarilgan. Qo‘shin bilan birga qassoblar, bakovullar, qovurilgan va pishirilgan go‘sht bilan savdo qiluvchilar, arpa va meva sotuvchilar, novvoylar ham ko‘chib yurgan. Turli kasb egalari askarlarga xizmat ko‘rsatgan. Hatto ko‘chma hammomlar ham jangchilar xizmatida bo‘lgan. Tuzilishiga ko‘ra Amir Temur armiyasi o‘n, yuz, ming va tumanlarga taqsimlangan. Ularga o‘nbegi, yuzbegi, mingbegi va tumanbegilar sardorlik qilgan.

Amir Temurning jangovar taktikasiga ko‘ra, agar dushman 12 mingdan ortiq, lekin 40 mingdan kam jangchiga ega bo‘lsa, Amir Temur ularga qarshi qirq ming kishidan kam bo‘lmagan qo‘shin jo‘natgan. Lashkarboshi sifatida o‘z o‘g‘illaridan birini tayinlab, uning yoniga ikkita tajribali amirni va boshqa harbiy boshliqlarni qo‘shgan. Bu qo‘shinlar uchun jangovar tartib quyidagicha edi: qo‘shin 14 qismga bo‘linardi, bu qismlardan biri, umumiy korpus sonining 1/3 qismidan kam bo‘lmagan miqdorida sarkarda boshchiligida zahirada turgan; o‘ng va chap qanotlarga uchtadan qism tayinlangan, ular ikkinchi chiziqni tashkil etgan; mazkur qismlardan bittadan ajratib olingan va ular avangordda turgan, boshqalari har bir qanotning o‘ng va so‘l yonini tashkil etgan; o‘ng va chap qanotlar avang‘orlari oldida yana uchtadan qism joylashtirilgan va ular birinchi chiziqni tashkil etgan, bulardan ham bittadan qism avangor sifatida ajralib olingan, bu qismlarga qilichlar, nayzalar va o‘q-yoylar bilan qurollangan tajribali va botir jangchilar tayinlangan. Ular jang paytida suron solishlari va dushman avang‘orini sarosimada qoldirishlari kerak edi.

Amir Temur amal qilgan qoidalarga ko‘ra, yaxshi boshliq dushman qo‘shinining sonini bilib olgandan so‘ng, unga qarshi o‘z qo‘shinlarini qo‘ya olishi uchun dushman nima qilayotganini, uning o‘qchilari qanday, qilichbozlari qanaqa ekanligini kuzatishi, jangning borishini nazardan qochirmasligi, dushman o‘zini zaif qilib ko‘rsatib, uni pistirmaga duchor kilmasligiga benihoyat ehtiyotkor bo‘lishi lozim edi. Mohir lashkarboshi janglarning butun mexanizmini tushunishi, dushmanning niyatlarini payqab

olishi va uning rejalarini barbod qilish uchun barcha vositalardan foydalanishi zarur bo‘lgan.

Amir Temur armiyasining turli qism va bo‘linmalariga 313 bek boshchilik qilgan. Ularning dastlabki yuztasi o‘nbegilik, ikkinchi yuztasi yuzbegilik, uchinchi yuztasi esa mingbegilik rutbalarini egallagan. Tumanlarga Sohibqironning farzandlari, nabiralari hamda amir Shayx Nuruddin, amir Hoji Sayfuddin, amir Shohmalik, amir Allohdod, amir Jahonshoh singari nomdor lashkarboshilar rahbarlik qilgan. Janglarda qahramonlik va mardlik namunalari ko‘rsatgan sara jangchilar munosib ravishda taqdirlanib, o‘nbegi, takror jangovar xizmatlari evaziga yuzbegi va nihoyat, mingbegi amaliga ko‘tarilish imkoniyatiga ega bo‘lgan.

Tarixiy manbalarda keltirilgan ma’lumotlarga qaraganda, otliq askarlar Amir Temur armiyasining zarbdor kismi hisoblangan, ular og‘ir va yengil qurollar bilan qurollangan suvoriy guruhlarga bo‘lingan. Yoy, sadoq va qilich bilan yengil qurollangan otliqlar asosan razvedka va soqchilik bilan shug‘ullangan, o‘ta zarur chogdagina dushman kuchlari bilan jang qilish huquqiga ega bo‘lgan.

Xulosa qilib aytganda, Amir Temur o‘z faoliyati davomida o‘zbek va dunyo xalqlari manfaatlari uchun quyidagi vazifalarni ado etdi:

– Movaraunnahrda ildiz otgan mo‘g‘ullar zulmiga uzil-kesil zarba berdi;

– mayda davlatlarga bo‘linib ketgan tarqoqlik, ichki urushlar va adolatsizlik hukm surgan Movoraunnahrni yagona davlatga birlashtirib, uning boshqaruv apparatini shakllantirdi va mustahkamladi.

Iste’dodli va tajribali lashkarboshi Amir Temur harbiy san’ati va taktikasining bugungi kunda ham O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti kursantlariga o‘rgatilib kelinishi, shubhasiz Sohibqiron bobomizning vatanimiz hududida harbiy ish va taktika rivojlanishida chuqur iz qoldirganligi hamda nafaqat O‘rta Osiyo, balki jahon harb ilmini rivojlantirishga, yangi usullap va taktikani shakllanishiga o‘zining munosib hissasini qo‘shganligidan dalolat beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1..Гонсалес Руи Де Клавихо. Самарқандга – Амир Темур саройига саёҳат кундалиги (1403-1406). – Т.: “O‘zbekiston”, 2013. – 264 б.

2.Иброхимов А. Бизким, ўзбеклар. – Т.: “Sharq” 2011. – 464 б.

3.Иванин М. Икки буюк саркарда. Чингизхон ва Амир Темур: ҳарбий санъати, стратегияси ва тактикаси. – Т. “Янги аср авлоди”, 2019. – 304 б.
4.Содиқов Ҳ. Амир Темур салтанатида хавфсизлик хизмати. – Т.:“ART FLEX”, 2010. – 436 б.
5.Темур тузуклари. – Т.: “O‘zbekiston”, 2013. – 182 б.

AMIR TEMUR HARBIY SAN’ATI VA ELCHILIGINING ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR TOMONIDAN DAVOM ETTIRILISHI

Nurutdinov H.A.,
O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi Xalqaro hamkorlik boshqarmasi bosh mutaxassisi.

Amir Temur Qadimgi Movarounnahr hududida shakllangan jangovarlik va elchilik an’analari asosida umrining oxiriga qadar Yaqin Sharqdan-Chingacha, Janubiy Osiyo/Hindistondan-Rus Knyazliklariga qadar hududlarda janglar olib bordi. XIV asr oxirlaridan XV asr boshlariga qadar Amir Temur davlatining bunday katta hududga ega bo‘lishi, birinchi navbatda Amir Temurning zakovati, uzoqni ko‘ra bilishi va albatta harbiy mahorati natijasida yuzaga keldi. Amir Temur vafotidan so‘ng u tomonidan tashkil qilingan katta hudud, davlat boshqaruvi, harbiy-elchilik ana’analari va boshqa tajribalari asosida yana bir asrga farzandlari, nabiralari tomonidan davom ettirildi.

Bu o‘rinda, Amir Temurning beshinchi nasli Zahiriddin Muhammad Bobur o‘zining “Boburnoma” asari qahramoni bo‘lib, muqaddas kitoblar Qur’oni karim, Hadisi sharif, Hidoya hamda qadimda Xuroson-Movarounnahr hududida yaratilgan Nizomulmulkning “Siyosatnoma” yoki “Siyar ul-muluk” (“Podshohlar turmushi”), Yusuf xos Hojibning “Qutadg‘u Bilig” (“Saodatga yo‘llovchi bilim”), asarlari asosida boshqaruv faoliyatini olib bordi. Shuningdek, qadim zamonlardan harbiy sohaning amaliy jang qilish usullari bilan birga nazariy tomoni ham tadrijiy ravishda rivojlanib keldi. Bu o‘rinda Movarounnahr harbiy fanidagi nazariy va amaliy tomonlariga asos bo‘luvchi asarlardan biri Sharq muallimi soniysi, mutafakkir Abu Nasir Forobiyning “Fozil odamlar shahri” asarining 28-bobidagi “Fozillar shahri hokimining fazilatlari”da rahbar inson “oqil kishi bo‘lib, u tabiatan o‘n ikkita xislat-fazilatni o‘zida birlashtirgan bo‘lishi zarur. Avvalo to‘rt muchali sog‘-solim;

ikkinchidan, tabiatan nozik farosatli, ziyrak, mulohazakor; uchinchidan, kuchli xotiraga; to‘rtinchidan, zehni o‘tkir, zukko, sezgir bo‘lishi; beshinchidan, aniq fikrlash va uni chiroyli ifodalashi kerakligi; oltinchidan, ilm-ma’rifatga qiziquvchan bo‘lishi; yettinchidan, yeb-ichishda, yurib-turishda nafsga berilmaslik; sakkizinchidan, haqiqat, adolat uchun kurashadigan; to‘qizinchidan, or-nomusli, oliyhimmat ishlarga intilishi; o‘ninchidan, mol-mulk, boylikka qiziqmaydigan bo‘lishi; o‘n birinchidan, jabr-zulm, turli tahqirlashga murosasiz, yaxshilik va go‘zallik uchun bor kuchini ayamaydigan; o‘n ikkinchidan, to‘g‘ri xulosa qilish va uni amalga oshirishda qat’iyatli, jasur bo‘lishi zarurligi, shuningdek, harb ishlariga mohirona rahbarlik qilish uchun yetarli jismoniy quvvatga ega bo‘lishi; ham jang qilishni, ham sarkarda sifatida jangu-jadalga rahbarlik qilish uchun harbiy san’atni yaxshi bilishi” [2, 159-161-b.] kerakligi qayd etiladi. Ushbu fazilatlarning barchasi bobosi Amir Temurda bo‘lganidek Zahiriddin Muhammad Boburda ham mujassam ekanligini ko‘rish mumkin. Qayd etilganlardan kelib chiqib, Bobur Forobiyning mazkur asaridan xabardor ekanligi ko‘rinadi.

Bobur necha yuz yillar avval podshoh-sarkardalarning qanday bo‘lishi kerakligi to‘g‘risida bitilgan asarlarda o‘rnatilgan, belgilangan talab-qonunlardagidek faoliyatini olib borganligi sababli ham yuksak maqsad, orzu, tilak va marralarga erishganligida, deb bilish mumkin. Shuningdek, Bobur bobosi Amir Temur kabi o‘zining harbiy harakatlari bilan birga elchilik faoliyatini ham barobarida olib borganligini kuzatish mumkin. Ayniqsa, ulusning mustaqilligini asrash, xalqni bir oz bo‘lsa ham tinchlikda va yurt parokandaligidan saqlab qolganligini ko‘rish mumkin*. Shuningdek, “Qutadg‘u Bilig”da lashkarboshiga nisbatan jang maydonlarida ... ziyrak, xushyor, botir, mergan bo‘lishni, shu bilan birga yuksak xulqli bo‘lishi bildirilgan. Jangovar harakatda esa bir qancha yo‘l-yo‘riqlar ko‘rsatilgan bo‘lib, yovning askari ko‘p bo‘lsa uning senga hujum qilishini kutgin deydi yoki dushmanni g‘aflatda qoldirib kechasi hujum qilishni yoki uning ilojini topolmasang unga elchi yuborib u bilan ellash** [6, 375-395-b.] – deb, qayd etilgan fikrlarga Bobur amal qilganday harbiy-elchilik faoliyatlarida qo‘llaydi.

Amir Temur “Temur tuzuklari” boshidayoq o‘zining harbiy harakatlarini tinchlik vositasi bo‘lgan elchilik, ya’ni diplomatiya asosida olib borishini

* 1495-1496 yillarda Samarqandda boshlangan parokandalikka nisbatan Bobur Farg‘ona ulusini bir oz muddatda tinchlikda saqladi.

** Ellash [ellash; ellesh] – tinchlikka kelishish

bunday keltiradi: “O‘zga mamlakatlarni zabt etish, ularni idora qilish, g‘anim*** lashkarlarini sindirish, dushmanni tuzoqqa tushirish, muxoliflarni (ko‘nglini ovlab) do‘stga aylantirish, do‘st-dushman orasida muomala, murosayu madora qilish xususida ushbu kengash va tadbirlarni qo‘lladim.” [5, 13-b.] Ya’ni bu yerda “... g‘anim lashkarlarini sindirish, dushmanni tuzoqqa tushirish, muxoliflarni (ko‘nglini ovlab) do‘stga aylantirish, do‘st-dushman orasida muomala, murosayu madora qilish ...” jumlalari harbiy san’at va elchilik faoliyati asosida harbiy harakatlarni olib borish nazarda tutilgan.

Bobur Farg‘ona ulusining ilk boshqaruviga kelishi arafasida katta amakisi Samarqand/Movarounnahr hokimi Sulton Ahmad mirzoning Andijon qal’asiga xujumi oldidan uning huzuriga Bobur tomonidan elchilik yuborilgan [3, 20-b.]. Mazkur elchilikka rahbarlik Farg‘ona ulusining ko‘zga ko‘ringan diniy arbobi Xoja Ahrori Valiyning muridi bo‘lgan Xoja Mavlonoyi Qozi Boburga davlat ishlarida yaqindan maslahat bergan va qo‘llab-quvvatlagan. U viloyatda tinchlikni saqlash, xavf-xatardan himoya qilishda jonbozlik ko‘rsatgan. Bobur unga davlat ichki ishlaridan tashqari muhim vazifalar bo‘yicha elchilik vazifalarini bajarishni ishonib topshirgan. [4,542-b.] Bobur Xoja Mavlonoyi Qozini Sulton Ahmad mirzoning Farg‘ona ulusiga bosqinini to‘xtatish, masalani tinch yo‘l bilan hal etish bo‘yicha muzokara olib borish va sulh tuzib, o‘zaro kelishish maqsadida elchilikka rahbar qilib yuboradi. Asarda elchilikka taqdim etilgan ahdnoma/sulhning qisqa mazmuni keltirilgan bo‘lib, unda Bobur o‘zining Sulton Ahmad mirzoga nisbatan qarindoshlik oqibatlarini yumshoq jumlalar bilan keltirib, shu bilan birga itoatda/hamjihatlikda ish olib borishini keltiradi. Sulton Ahmad mirzoning ayrim xos beklari Boburning Xoja Mavlonoyi Qozi boshchiligida yuborilgan elchiligi bilan hech qanday sulhga kelishmaydilar. Bu vaqtda jang vaziyati Bobur g‘alabasiga hal bo‘layotganligi hamda Andijon lashkarini yengib bo‘lmasligini sezgan Sulton Ahmad mirzo o‘zining xos elchisi Darvesh Muhammad tarxonni o‘rtaga solib, Bobur elchisi Hasan Ya’qub bek bilan sulh tuzib, orqaga qaytishga majbur bo‘ladi.

Sohibqiron Amir Temurga chevara bo‘lgan Bobur bobosi izidan qal’ani zabt etish san’ati bo‘yicha Farg‘ona ulusi boshqaruvining ilk davrlaridan e’tiboran boshlaydi. Boburning ilk qal’ani qamal qilish va qo‘lga kiritish jangi bir vaqtlar otasining harbiy beklaridan bo‘lgan Ibrohim Soru tomonidan egallangan Isfara qal’asidan boshlaydi. Bobur ushbu holatni shunday ta’riflaydi: ... Bu fursatda minglik elidan bo‘lgan, otamning oldida kichikligidan

*** G‘anim - dushman.

xizmatlar qilib beklik martabasiga yetgan, biroq bir gunohi tufayli martabasi pasaytirilgan Ibrohim Soru Isfara qo‘rg‘onini egallab, Boysunqur mirzo otiga xutba o‘qitdi, muxolif tomonida bo‘ldi, – deydi. Ushbu qal’a qamali qirq kunga cho‘ziladi. Oxiri Ibrohim Soru ojiz qolib, Xoja Mavlonoyi Qozining vositachiligi bilan qal’ani topshiradi. [3, 46-47-b.]

“Temur tuzuklari”ning ilk sahifalarida Bobur bobosining harbiy mohirliklaridan biri keltirilib, “... tajribamda ko‘rdimki, g‘anim lashkarini yengish qo‘shinning ko‘pligi bilan emas, mag‘lub bo‘lish esa sipohning kamligidan bo‘lmaydi. Balki g‘olib bo‘lmoqlik (Tangrining) madadi va bandasining tadbiri bilandir. Chunonchi, men kengashib va tadbir yuritgan holda ikki yuz qirq uch kishi bilan Qarshi qal’asi ustiga yurdim. Amir Muso va Malik bahodir o‘n ikki ming otliq askar bilan qal’a va uning atrofini qo‘riqlamoqda edilar. Lekin Tangri taoloning yordami yetib, o‘zim qo‘llagan to‘g‘ri tadbirlarim orqali Qarshi qal’asini egalladim [5, 14-15-b.] – deganligi qayd etilgan.

Bobur o‘zining harbiy faoliyatlarini asosan ajdodlaridan qolgan boy tajribalariga ko‘ra amalga oshiradi. Ayniqsa, Sulton Husayn mirzo, bobosi Sulton Abu Said mirzo tajribalaridan xabardor bo‘lgan va shu uslubda janglar olib borgan. Bobosi Amir Temur saboqlaridan ruhlangan va kengash hamda tadbir asosida Bobur Samarqandni ikkinchi martta egallashida yuz beradi. Buni Bobur o‘zining asarida Husayn (Boyqaro) Mirzo Xirotni egallaganligi bilan solishtiradi/qiyoslaydi.

Bu hususda Abdurazzoq Samarqandiy quyidagilarni keltiradi, “Xuroson aholisi turkmonlar zulmidan jondan to‘yganligi haqida paydar-pay xabar kelib turganini eshitgan Sulton Husayn butun himmatini Hirot tomon yurishga safarbar etadi. Maymana va Faryob viloyatidan bir ming adadli suvoriylar bilan ilg‘or (hujum) qiladi. Yodgor Muhammad Nosir mirzo g‘aflat uyqusiga shunday qattiq cho‘mgan edi-ki uni qo‘lga olganlaridagina uyg‘onadi. Yana Abdurazzoq Samarqandiy shunday ta’riflaydi, mirzo Sulton Husayn oltmish farsang masofadan ilg‘or qilib kelib andak (ozgina) odami bilan shunday jasoratli ish qiladi, deb hech kimning xotiri yaqiniga ham kelmagan edi” [1, 661-671-b.], - deydi. Bu kabi bosqinlardan Boburning xabari bo‘lganidek, o‘zining oz va sinalgan beku navkarlari bilan Samarqandni ikkinchi martda Shaybonixondan epchillik va chaqqonlikda harakat qilib tunda shabixun (tungi harbiy hujum) usulida qal’ani qo‘lga kiritadi.

Bu bilan Bobur Samarqandni ikkinchi martda olishida Sulton Husayn mirzoning Hirotni qanday qo‘lga kiritganligini har tomonlama qiyosiy tahlilini keltiradi: “Sulton Husayn mirzo ham Hirotni ushbu yo‘sinda yov g‘ofilligida olgan ekan. Lekin ish biladigan ravshan va insofli kishi nazarida ayondirki, bu voqea bilan u hodisa orasida ko‘p farq bordir,” [3, 78-79-b.] – deb, Sulton Husayn mirzoga nisbatan Bobur o‘zini hali yosh va tajribaga ega bo‘lmay turib amalga oshirganligini birma-bir taqqoslaydi.

Mavzu “Boburnoma” va “Temur tuzuklari” bilan qisman qiyosiy tahlil amalga oshirilib, shunday xulosaga kelish mumkin-ki, Boburning barcha harbiy-elchilik faoliyatlari bobosi va boshqa ayrim sarkarda ajdodlari kabi faoliyatda bo‘lganligini ko‘rish mumkin. Boburning harbiy faoliyatlari yuqorida keltirilgan qiyosiy tahlillarda Bobur taxt boshqaruviga o‘tishi bilan umrining oxiriga qadar og‘ir jang sinovlaridan o‘tganligi, ajdodlari va Movarounnahr mutafakkirlarining nazariy manbalariga asoslanganligi, harbiy-elchilik san’atini mukammal egallaganligi ma’lum bo‘lib boradi. Ushbu tahlil “Boburnoma”dan, ya’ni buyuk ummondan tomchidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdurazzoq Samarqandiy. Matlai sa’dayn va majmai baxrayn. II jild 1-3 qismar. 1405-1470 yillar voqealari. – T.: “O‘zbekiston”, 2008.
2. Abu Nasir Forobiy. “Fozil odamlar shahri”. – T., Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993.
3. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. – T.: “O‘qituvchi” nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2008.
4. Zahiriddin Muhammad Bobur ensiklopediyasi / Tahrir xay’ati A.Qayumov va boshq. Bosh muxarrir: A.A’zamov. – T.: “Sharq”, 2014
5. Temur tuzuklari. Forscha matndan A.Sog‘uniy va H.Karomatov tarjimasi. Izohlar B.Ahmedov va A.Ahmedov tomonidan tayyorlangan. – T.: O‘zbekiston, 2013. 13 b.

Yusuf Xos Hojib. Qutadg‘u bilig (Saodatga yo‘llovchi bilim). Transkripsiya va hozirgi o‘zbek tiliga tavsif. Nashrga tayyorlovchi f.f.k. Q.Karimov. – T.: “FAN” nashriyoti, 1971

AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA HOMIYLIK AN’ANASI

Nosirov Sh.Sh.,
O‘zbekiston Respublikasi IIV Samarqan viloyati IIB xodimi

Tarixga chuqurroq nazar tashlasak, o‘tmishda xayrli ishlar bilan ko‘plab davlat arboblari, yirik mulk egalari, ilm-fan vakillari, tijoratchilar, din va tasavvufning yetakchi vakillari ham shug‘ullanganligining guvohi bo‘lamiz. Amir Temur, Mirzo Ulug‘bek, Shohruh, Husayn Boyqaro, Xo‘ja Ahror, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy kabi tarixiy shaxslarning nafaqat madaniyat va ilm-fan homiylari bo‘lganliklari, balki bog‘-rog‘lar, imoratlar, madaniy obidalar qurganligi, suv inshootlari, kanal va ariqlar o‘tkazganligi, maktab, madrasa, masjid, shifoxona, hammom, rabot va karvonsaroylar barpo etishda homiylik qilganliklari uchun ham katta shuhratga ega bo‘lganlar.

Xususan, Sohibqiron Amir Temur davrida fan, madaniyat, san’at va adabiyot yuksalishi bilan birgalikda yirik qurilish va bunyodkorlik ishlari amalga oshirilgan. Mamlakatda kasalxonalar, dorixonalar, kutubxonalar barpo etilgan. Sohibqiron Amir Temur davrida Jahonni hozir ham lol qoldirayotgan me’moriy obidalar barpo etilgan. Amir Temurning sa’y-harakatlari bilan madrasalar, masjidlar, xonaqohlar, saroylar, bozorlar, rabot-u karvonsaroylar, ko‘priklar, suv havzalari va boshqa inshootlar bunyod etilgan. Amir Temur tomonidan barpo etilgan davlat boshqaruvi faoliyati insonparvarlik va mehr-shafqat tamoyillari asosida ish ko‘rgan. U o‘z davlatida aholining nochor qatlamlariga g‘amxo‘rlik munosabatida bo‘lganligini kuzatamiz. Masalan, Temuriylar davrida qashshoqlikni tugatish maqsadida boshpanalar tashkil qilinib, kambag‘allar ulardan nafaqalar olib turganlar [13, B.23-24]. Bundan tashqari Amir Temurning soliqlar haqidagi qoidalarida ham “Soliqlar yig‘ishda xalqni og‘ir ahvolga solishdan, yoki o‘lkani qashshoqlikka tushirib qo‘yishdan ehtiyot bo‘lish zarur. Negaki, xalqni xonavayron qilish davlat xazinasining bequvvatligi harbiy kuchlarning tarqoqlanishiga, bu esa, o‘z navbatida hokimiyatning kuchsizlanishiga sabab bo‘lishi...” takidlab o‘tilgan [12, B.12]. Amir Temur o‘z davrida aholining ijtimoiy ahvoli haqida qayg‘urgan va o‘z aholisi orasida nochorlar sonining ortib ketmasligi choralarini ko‘rgan. U nochorlar orasida nogironlar va zaiflar haqida ham alohida g‘amxo‘rlik qilgan. Bu haqida Temur tuzuklarida shunday ta’kidlangan: “Amr etdimki... faqiru miskin, biron kasb qilishga ojiz shol ko‘rlarga nafaqa belgilansin... Yana buyurdimki, har bir mamlakat fath etilgach, u yerning gadolarini to‘plab, kundalik yemish, ichishlarini berib, ularga biron vazifa belgilansin. Hamda barcha tamg‘alansinlar, toki boshqa gadolik qilmasinlar. Yana amr etdimki, katta-yu – kichik har bir shahar, har bir qishloqqa masjid, madrasa va honaqoxlar bino qilsinlar, faqiru miskinlarga langarxonalar, yo‘lovchilar qo‘nib

o‘tadigan joy g‘aribxona, keksalar uchun shifoxona qurdirsinlar va ularda ishlash uchun tabiblar tayinlansinlar” [10, B.67]. Shuningdek, xalqning sog‘ligini saqlash, bemorlarni davolash, yetim-yesirlar haqida g‘amxo‘rlik qilish borasida muhim ishlar amalga oshirilgan.

Shuningdek, Amir Temur xoh Samarqandda bo‘lsin, xoh safarda biror joyda ozgina to‘xtab qolsa, albatta bir xayrli ishni amalga oshirishni rejalashtiradi, deb yozgan edi, tarixchi Sharafuddin Ali Yazdiy [15, B.194]. Sohibqironning xayriya bobida qilgan ishlaridan biri sifatida 1381 yil Xurosonga yurishi chog‘ida Murg‘ob vodiysida to‘xtab, u yerda ko‘plab ariqlar chiqarishni buyurgan [2, B.132]. Shuningdek, Amir Temur 1403 yili Qorabog‘da qishlab qolgan vaqtida Baykalon shahrini [4, B.132] qayta tiklashga buyruq bergan. Sohibqironning bunday xayrli ishlariga yana ko‘plab misollar keltirish mumkin. Jumladan, “Biz hazrati Temurni buyuk bunyodkor deb boshimizga ko‘taramiz. Ro‘yi zaminning sayqali bo‘lmish Samarqandda, Shahrisabz, Buxoro, Toshkent va sohibqiron barpo etgan bepoyon saltanatning boshqa hududlarida bunyod etilgan nodir me’moriy obidalar, tengsiz bog‘u rog‘lar Temurbek bobomizga xos amaliy shijoat samarasidir” [6, B.167] – deb bejiz aytilmagan edi.

Bunday yuksalish, ayniqsa, Amir Temurning nabirasi Mirzo Ulug‘bek (Muhammad Tarag‘ay Ko‘ragoniy) zamonasida ham davom etgan. Mirzo Ulug‘bek saltanat hukmdori va mashhur astronom bo‘lishi bilan bir qatorda mamlakatda adolat o‘rnatishga, ilm-fan rivojini ta’minlashga homiylik qilgan. Uning davrida bugun jahonga dong‘i ketgan Samarqand rasadxonasi qad ko‘tardi, qator masjid, madrasalarni qurish nihoyasiga yetkazildi, uning atrofida jam bo‘lgan ilm ahliga, madrasalar talabalariga yetarli sharoit yaratib berishga harakat qilindi, hukmdorlar o‘rtasidagi urush-nizolarni bartaraf etishga alohida e’tibor qaratib kelindi, xalq farovonligi va yurt obodonchiligini amalga oshirishni o‘zining oliy maqsadi deb bildi. Ulug‘bek Samarqand, Buxoro va boshqa shaharlarda o‘nlab masjidlar, hammomlar, karvonsaroylar, yo‘llar, shifoxonalar qurdirdi. Bular ichida eng mashhuri 1414-1428 yillari Samarqand yaqinidagi Obi-Rahmat yoqasida qurilgan rasadxonadir. Odamlarga mehribonlik qilish, qiyin sharoitlarda ularga hamdard bo‘lish har bir kishining Alloh oldidagi muqaddas burchi ekanligini e’tirof etib, Mirzo Ulug‘bek ko‘p jabr va ortiqcha zulm o‘tkazgan Ashraf ibn Temirtosh, ibn Cho‘pon Sulduz kabi xonlarni qoralagan. Ulug‘bek bandalarining kattasi hamda kichigining ham boshini marhamat qo‘li bilan siylagan To‘qta Boyxon va Tarmashirxon ibn

Duvo Chechanxon kabi hukmdorlarning nomlarini hurmat bilan tilga oladi [7, B.231, 249-250].

Zamonasining yetuk olimi Abdurahmon Jomiy saxiylik deganda, evaziga biror narsa talab qilmaydigan, beminnat va xolis yordamni tushungan. “Sahovat, - deb ta’kidlaydi Jomiy, - biror narsaga qarab yoki evaziga biror narsa talab bo‘lsa, hatto talab etilgan narsa maqtov va minnatdorchilik bo‘lgani taqdirda ham, u sahovat emas” [1, B.14].

“XV-XVI asr Samarqand hujralari” nomi bilan O.D.Chexovich tomonidan nashrga tayyorlangan vaqf hujjatlari to‘g‘risidagi kitobda Xoja Ahror Valiyning Temuriylar saroyidagi baland martabasi, uning O‘rta Osiyo va Afg‘onistondagi ulkan boyliklari, son-sanoqsiz mulklari haqida guvohlik berilgan [5, B.12]. Naqshbandiya tariqatining nazariy, amaliy jihatlarini boyitib, bu ta’limotning mashhur bo‘lishiga hissa qo‘shgan Hazrat Hoja Ubaydulloh Ahror o‘z xo‘jalik faoliyatidan olgan daromadning ko‘pgina qismini, shaxsiy mablag‘larini madrasa, xonaqoh va masjidlar qurish, mudarris va talabalar, xonaqoh qo‘noqlari, masjid xizmatchilarini moddiy ta’minlash ba’zan esa bir shahar aholisi boshiga tushgan og‘ir soliqlarni to‘lash, muhtojlarga doimiy tarzda xayr-ehson qilish kabi ishlarga sarf qilgan. Jumladan, Muhammad Qozining “Silsilat ul-orifiyn” asarida bayon qilinishicha, umrining oxirlarida Toshkentga borganida qahatchilik va vabo tufayli Turkistondan ko‘chib kelganlarga har kuni qo‘y, mol so‘yib, non yoptirib, beg‘araz yordam ko‘rsatganlar [8, B.87-88]. Shuningdek, Umarshayx Mirzo Toshkent aholisidan 250 000 dinor hajmida soliq talab qilganida Xoja Ahror bu mablag‘ning hammasini o‘zi to‘lab, yana 70000 dinorni ham soliq yig‘uvchilarga topshirgan. Shuningdek, Xoja Ahror tomonidan Samarqandda, Toshkentda va Qobulda ham madrasalar qurdirilganligi haqida manbalarda uchraydi [9, B.11].

O‘zbek adabiy tilining asoschisi, Temuriylar davri ilm-fan homiysi, mutafakkir, davlat arbobi Alisher Navoiy ijodida mehr va muruvvat, xayru-ehson, xayru saxovat, saxiylik g‘oyalarini o‘ziga singdirgan ahloqiy tarbiya masalalari katta o‘rin tutadi. “Hayrat ul-abror” asarining beshinchi maqolasida Navoiy xayru ehson (karam) masalasiga to‘xtaladi. Bu bobda ham shoir o‘z fikrlarini chiroyli, silliq bayon etishga harakat qiladi. Uning mulohazalariga ko‘ra, xayr saxovat shunday ulug‘ narsaki, uni davlatmand odamning boshidagi toj (afsar)ga o‘xshatish mumkin. Shu tojga qadalgan qimmatbaho gavharni esa karam deb tasavvur etsa arziydi. Navoiy fikricha, xayru saxovat ko‘rsatishga qodir odam hech mahal baxillik (buxl) yo‘lini tutmasligi, boylik darajasiga

erishganidan xursand bo‘lib, Olloh taologa shukrlar qilib yashashi zarur. Alisher Navoiy butun umri davomida xalqparvarlik va vatanparvarlik g‘oyalarini yuksak badiiy mahorat bilan umrboqiy asarlarida ifodalash bilan cheklanib qolmay, amaliy faoliyatida millat va davlat ravnaqi yo‘lida tinimsiz faoliyat olib borgan. Alisher Navoiy xayriya va homiylikka oid fikrlarni bildirish bilan birga, uni amalga oshirishga ham harakat qilgan. U butun umrini, butun kuchini, butun mablag‘ini mamlakatni obod qilish, ilm va ma’rifatni rivojlantirish yo‘lida sarflagan. Navoiy xalq foydasi uchun ulkan va mahobatli madrasalar, kutubxonalar, kasalxonalar, hammomlar, rabotlar, hovuz, ko‘prik va boshqa binolar qurdirgan. Tarixchi Xondamir Alisher Navoiy qurdirgan imoratlar orasida 52 ta rabot, 19 ta hovuz, 16 ta ko‘prik, 8 ta hammom, ko‘plab masjid, 12 ta madrasa, 5 ta maqbara, kutubxona, shifoxona va boshqa binolar borligini birma-bir ko‘rsatib o‘tadi [1, B.23].

Alisher Navoiyning g‘amxo‘rligi va homiyligi ostida bu davrda Xondamir, Mirxond, Davlatshoh kabi yetuk tarixchilar, Behzod, Shoh Muzaffar kabi iste’dodli rassomlar, usta Muhammad Sabziy, usta Kavomiddin kabi kuchli arxitektorlar, Sulton Ali kabi mashhur hattotlar, Husayn Udiy, Qulmuhammad nayi kabi buyuk musiqashunoslar yashab ijod etganlar. Navoiy g‘amxo‘rligi va rahbarligida olimlar tomonidan yigirmaga yaqin tarixiy, ilmiy asarlar yaratilgan [11, B.14-16].

Xulosa o‘rnida, shuni aytish joizki, xalqimiz ulug‘ fazilatlari xayriya va homiylik faoliyatining natijasi eng avvalo, jamiyatda bunyodkorlik ishlarining amalga oshganligida, jamiyat aholisining moddiy-ma’naviy yuksalishida ko‘rinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Aliqulov X. va boshqalar. Homiylik va sahovat – eng oliy qadriyat. Toshkent: I.M.Mo‘minov nomidagi Falsafa va huquq instituti, 2006. - B. 14.

2. Amir Temur saboqlari. (Ikkinchi qism) 1998 yil Toshkentda “Amir Temur ilm-fan va madaniyat homiysi” mavzusida o‘tkazilgan Xalqaro ilmiy konferensiya materiallari. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va sa’nat nashriyoti, 1999. – B. 132.

3. Aziz Qayumov. Alisher Navoiy. Toshkent, 1976 y. – B. 54.

4. Boltaboev S.D. Turkistondagi vaqf mulklari tarixi. O‘quv-uslubiy qo‘llanma. – Namangan, 2005. – B. 12.

5. Karimov I.A. Xalqimiz bor ekan, Amir Temur nomi barhayotdir. “Yangicha fikrlash va ishlash davr talabi”. 5-tom. Toshkent: O‘zbekiston, 1997. – B. 167.

6. Mirzo Ulug‘bek. To‘rt ulus tarixi. B.Axmedovning tahriri ostida. Toshkent: Cho‘lpon, 1994. – B. 231, 249-250.
7. Rahmatova X.H. Xoja Ahror Valiyning ijtimoiy-falsafiy qarashlari. MonografiY. – Buxoro, 2014. – B. 87-88.
8. Saxovatli insonlar va salomatlik posbonlari: Metod.-bibliogr.qo‘ll. - Toshkent: Alisher Navoiy nom. O‘zbekiston Milliy k-nasi nashriyoti.- 2006. - B. 13.
9. Temur tuzuklari. – Toshkent: G‘.G‘ulom nashriyoti, 1991. – B. 67.
10. Uyg‘un. Alisher Navoiy. Oybek muxarrirligi ostida: Toshkent: O‘zSSR “Fan”, 1942. – B. 14-16.
11. Xayrullaev M.M. Ma’naviyat yulduzlari. – Toshkent: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2001. – B. 12.

TEMURIYLAR DAVRIDA AVLIYO SHOIRLAR

Ortiqova M.N.,
Xalqaro innavatsion universitet o‘qituvchisi,

Amir Temur va Temuriylar davrida ilm-fan, ta’limga bo‘lgan e’tibor davlat siyosati darajasiga ko‘tarilganligi, barcha markaziy shaharlarda oliy ta’lim dargohlari faoliyati yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, bu esa xalqni orasida olim, ulamolarni yetishib chiqishiga asos bo‘lgan desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Tarixiy manbalarga ko‘ra bu davrda o‘g‘il bola to‘rt yosh va to‘rt oylik to‘rt kunlik bo‘lganda maktabga berish an’anasi joriy etilgan. Bundan bilinadiki, A.Temur va Temuriylar davrida bolalarni yoshligidanoq ma’rifatli bo‘lishiga katta e’tibor berilgan.

Temur tuzuklarida “Tug‘luq Temurxon oldiga borishdan avval Qur’ondan varaq ochsam “Surayi Yusuf alayhi-s-salom” chiqdi va “Qur’oni majid hukmiga amal qildim” “Va saltanatim qavoidin o‘n ikki toifa bila marbut va mazbut va mustahkam qildim. Va bu o‘n ikki toifani falakning o‘n ikki burji va o‘n ikki oyi yanglig‘ saltanatim falakining o‘n ikki burji va davlatim korxonasining o‘n ikki oyi deb hisobladim”[1] deya o‘n ikki toifaning birinchi toifasini sayyidlar, ulamolar, shayxlar, fozillarga bag‘ishlaydi. “Birinchi toifa-sayyidlar, ulamo, shayxlar, fuzalolarni o‘zimga yaqinlashtirdim. Ular mening saroyimga kelib-ketib, majlisimni bezab turishdi” deb e’tirof etadi. Bundan ko‘rinadiki, Amir Temur ulamolarga, avliyolarga yuksak hurmatda bo‘lgan. Shunga ko‘ra A.Temurdan keyingi Temuriy hukmdorlar ham bu an’anaga tayangan.

[1] Temur A. Temur tuzuklari-T.: Ijod-press, 2019.-B.18.

Temuriylar davrining ilm-fanga berilgan imkoniyatlaridan unumli foydalangan ijodkorlardan, davlat arboblaridan biri A.Navoiy desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Buyuk mutafakkir shoirning “Majolisu-u-nafois” tazkirasi 14-15-asr ijodkorlarini izchil va o‘ziga xos tarzda tasnif etish barobarida davrning adabiy muhiti, ijtimoiy-madaniy hayoti, tasavvuf ta’limotidagi qarashlar haqida ma’lumot beruvchi bebaho asar desak bo‘ladi. Navoiy qaysi bir shoir haqida so‘zlar ekan, uning ijodiy, ta’limiy faoliyatidan boshqa tarbiyaviy-axloqiy xususiyatlarini, salohiyatini va hattoki kamchilik va qusurlarini ham ochiq ta’rif etadi. Biz ushbu maqolada Temuriylar davrida yashab ijod etgan shoirlar va ularning orasida valoyat maqomiga erishgan ijodkorlar to‘g‘risida yoritishga harakat qildik. Shoirning “Majolisu-u-nafois” tazkirasida valoyat masalasiga dahldor qarashlar, kashf yoki karomat egasi bo‘lgan, abdollardan ekanligi zikr qilingan yoki valoyat ahlidan ekanligiga dalolat qilingan ijodkorlarni har bir majlisdan qarab chiqdik va keltirilgan izohlarga ko‘ra avliyolarning sifatlarini she’riy misralari orqali sharhlashga harakat qildik. Boisi, A.Navoiy har bir ijodkorni ijod namunasini keltirganlarida o‘zining ruhiyatini, xususiyatini namoyon qiluvchi misralaridan foydalanadi. Buni ko‘p hollarda shoirlar ijodining matla’sidan foydalanganligidan ham bilishimiz mumkin. Bilamizki, matla’da shoir ko‘proq o‘zi haqida ma’lumot beradi. Ayni mana shu tartibda berilishi asarning ham mazmunli ham maroqli bo‘lishini taminlagan. Bu asarning yozilishi xususida Navoiy hamd va na’tdan keyin, fors-tojik adabiyotining yirik namoyandasi Abdurahmon Jomiy Shayx Sa’diyning “Guliston” asari ta’sirida yozilgan “Bahoriston” asari haqida keltiradi. Bu asarning 7-qismiga monanad asar yozishni niyat qiladi. “Majolisu-n-nafois” asarining avvalgi majlisi, “Ulug‘lar jamoasi va azizlar zikridakim, bu faqir alarning sharif zamonida edim. Va ularning mulozimatlari sharafiga musharraf bo‘lmadim” deb boshlanadi. Aziz va ulug‘lar jamoasi sifatida valoyatga dahldor bo‘lgan avliyolar zikrini sakkizta majlislarda ifodalaydi. Shulardan, Xoja Abulvafoyi Xorazmiy q.s ulug‘ avliyolardandir deb zikri keltirilgan. Xorazm ahli farishtalarga xos sifatlarga ega bo‘lganligi sababidan “yer farishtasi” deydi. Xoja botiniy va zohiriy ilmlarni mukammal egallagan. Tasavvufda yaxshi asarlar tasnif qilgan. Bundan tashqari advor va musiqa ilmida ham mahoratli ekanligi ta’kidlanadi. Xoja Abulvafoyi Xorazmiyni tavsifini berish uchun alohida kitob kerakligi, balki bir kitobga ham sig‘masligini aytib yuksak baho beradi. Va bir ruboiyisini keltiradi.

Bad kardamu e’tizor badtar zi gunoh,

Zero ki dar in hast se da’vii taboh,

Da’vii vujudu da’vii quvvatu havl,

Lohavla valo quvvata illo billoh.

“O‘z zamonasining nozik bitiklarda chuqur ma’no ifodalovchi, nafis ipaklardan nazmga libos kiydiruvchi” sifatida vasf etgan uchinchi majlis Hazrati Mahdumiy shayxu-l- islomiy Mavlono Nuriddin Abdurahmon Jomiy (madda zillahu)ga tavsif berish bilan boshlanadi. “Ushbu tazkirada jam bo‘lgan jamoatning boshi va raisi nafis zot bu risolada mahfiy bo‘lgan guruhning gavhari yagona peshvosidir. Muborak ismlarini bu sahifalarda qayd etish ko‘ngilga yoqimlidir. Uning latif nazmini elga ma’lum bo‘lsin deb qayd etilsa, kitoblarining oti sanalsa bu sahifalardan oshar va tasniflari durlari zikr qilinsa, falak dengizi shu durlar bilan toshar” deya ko‘p va xo‘p ulug‘lab, ijodlaridan bir bayt keltiradi.

Rahravoni borkashro sahl don oshomi qahr,

Dar dahoni noqa xori xushk xurmoi tar ast.

Ya’niki, Yo‘lovchi, bilgilki, qahr paytida qiyinchiliklarni ko‘tarish oson [ko‘rinadi], tuyaning og‘zida quruq yantoq xurmodek totli [tuyuladi].

Bu misralar, Xoja Muhammad Tayobodiy – Jomiyning maxsus xizmatkoriga qarata aytilgan. Asarda keltirilishicha, Jomiyning oldida kun-u tun birga yurgani bilan uning nazmidan bir misra bilmas va bilsa ham mazmunini anglamas edi. Hazrat yillar uning badfe’lligin ko‘rib qayg‘urar ekan. Navoiy esa shu holatga ayni shu misralar to‘g‘ri kelishini aytadi. Yo‘lovchi deb birgina Jomiyning mulozimiga emas, balki har bir jarayonga fahm etmagan, bu hayotdan o‘z falsafasini topmagan har bir ilmsiz kishiga murojaat qiladi. Va bu foniy dunyoda maqsadsiz, ilmsiz, haqiqatsiz yashash naqadar achinarli ekanligiga qayg‘uradi. Aynan yo‘lovchi deb berilishi ham bu dunyoda hamma narsa o‘tkinchi ekanligiga ishora. Sababi, Yo‘lovchi yurayotgan yo‘lning poyoni bor. Sen oson deb o‘ylayotgan qiyinchiliklaring (boqiy dunyoda) aslida sen o‘ylaganingdek emas. Huddi, tuya faqat yantoq yeb yurganida, xurmoning ta’mini bilmagani kabi. “Majolisu-n-nafois” asarida Hazrat Jomiyni valiyligi, yoki karomati aynan zikr etilmagan, ammo Navoiy unga bag‘ishlab yozgan “Xamsatu-l-mutahayyirin” risolasida “Oliy hazrat valoyat manqibati, koshifi asrori rabboniy va olimi rumuz va asrori samadoniy “Al-ulamou varsat ul-anbiyo” qismatgohida ilmi o‘n olamcha erkanlardin yuz tir ortuqroq taraka olg‘on va “Al-ulamou ummati ka-anbiyoyi bani isroil” nuzhatgohida yuz yigirma to‘rt ming harif arosida o‘zini to‘rt sohib millat millat mushobahatig‘a

solg‘on, tariqat ahlining muqtadosi va imomi va shariat xaylining mujtahid va shayx ul-islomi, ya’ni Nur ul-haq vad-din, kahf ul-islom va muslimiyna shayxuno va Mavlono Abdurahmon ul-Jomiy (quddisa ollohu sirrahu va navvara ollohu marqadahu)”[1]kabi ulug‘lab yozadi. Jomiyning valoyat fazilati, rabboniy sirlar kashshofi va samadoniy ramzlar sirini biluvchi deb sifat beradi. “Al-ulamou varsat ul-anbiyo”- ya’ni,“olimlar payg‘ambarlarning merosxo‘rlaridir” hadisi sharifini keltirib, aynan Jomiyni ana shunday oliy maqomga ega olim ekanligiga ishora qiladi. Yoki, “Al-ulamou ummati kaanbiyoyi bani isroil”- “Ummatimning olimlari Bani Isroilning payg‘ambarlari kabidir” hadisida ham Jomiyning tasavvuf ilmiga urg‘u berilgan desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Mir Husayn Muammoiy- “Ixlosiya” madrsasida yashagan va tahsil olgan muammo janrida mashhur bo‘lgan ijodkor, Nishopurlik. Yaxshi axloq va maqbul atvori borki, sharhlashga qalam tili va yozuvchi qo‘li ojiz. Valoyat belgilari holatida namoyon bo‘lgan va fano zotida ayon ko‘rinib turibdi. Mir xizmatlariga bir yosh bola ta’limini iltimos qilib kelishadi va yoshlik taqozosi bilan o‘qishga sust bo‘ladi. Mir bir azizga iltimos qiladiki, otasi o‘g‘liga muloyimlik bilan nasihat qilsin deb, shogird ham biladiki, Mirning o‘zi uning ko‘nglini og‘ritmagay. Uning bu kabi sifatlari ko‘p. Muammo fanining latofat va nozikligin shunday yerga yetkardikim, undan o‘tmak mumkin bo‘lmay qoldi va bu yo‘lni band qildi deb aytsa ham bo‘lar. Shayxzoda Puroniy – Shayx Abu Said Puroniyning xalafidir. valoyat ikki pushtidan unga me’rosdir. O‘z zotida ham qobiliyati ko‘pdir. Oz fursatda xatlarni shunday bitdiki, shu fan ustozi o‘ttiz yilda uncha bitmagan. Hozir tahsilga mashg‘uldir. Derlarkim, yetuklik belgilari ko‘rininb turibdi.

Jahonda sening g‘amingda yurgan mendek boshqa bir kishi yo‘q. Yuragi kuygan, yolvoruvchan odam yo‘q. G‘am va dardimni ochib tashlashni istayman biroq nima qilayki, hech hamdarim yo‘q. Ruboiy sharhidan ko‘rinadiki, unda valiylarga xos ishq taqvo va tangridan o‘zgani do‘st deb dardini aytishga botinmaydi. Alloh valiylarni do‘st deb bilganidek, valiy ham ham faqat Allohni do‘st deb biladi. Xoja Xurd-Samarqand taxtining dongdor qozisi va Ulug‘bek Mirzo madrasasining mudarrisidir.Butun vujudi, fazl-u kamol, aql-u donnish ziynati bilan

[1] Navoiy A.To ‘la asarlar to ‘plami.10 jildlik.5-jild.B-735.

orastadur. Va butun vujudi zuhdi taqvo husni axloq bezagi bilan tartiblangan. Buncha mashg‘ulotlar va paydo bo‘lgan hodisalarbilan latif ta’bi g‘olib bo‘lib, nazm, insho, taarix va muammo fanlarida ham shug‘ullandi. Va Bobo Xudoydod aytadilarki, Xoja Xurd abdollardan emish. Samarqandda favt bo‘lganda favtning tarixini topgan deb. Navoiyning ham “Vaqfiya” asarining tarixini topganligini mazkur asarda keltiradi.

Har bir davrda ham avliyolar xalqni ezgulikka chorlab turuvchi, ularga to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatib turuvchi pir-u komil sifatida jamiyat orasida e’zozlanib kelingan. Xususan, Temuriylar davrida madaniyat va ilm-fan rivojlanishida ham avliyo-shoirlarning o‘rni beqiyosdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Temur A. Temur tuzuklari-T.: Ijod-press, 2019.-B.18.

2. Navoiy A. To‘la asarlar to‘plami. O‘n jildlik. 10-jild-T.: G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot –matbaa ijodiy uyi 2012.-B-6

3. Navoiy A. To‘la asarlar to‘plami. O‘n jildlik. 9-jild-T.: G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot –matbaa ijodiy uyi 2012.

4. Navoiy A. To‘la asarlar to‘plami. O‘n jildlik. 5-jild-T.: G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot –matbaa ijodiy uyi 2012.

5. Navoiy A. Nasoyim ul- muhabbat.-T.: 2018. B-12.

6. Shamsiyev P. Navoiy asarlari lug‘ati. T.: G‘.G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti 1972.

AMIR TEMUR FAOLIYATIDA SOTSIAL ASOS QONUNIGA AMAL QILISHINING O‘ZIGA XOS JIHATLARI

Qodirov O.S.,
Samarqad Davlat Universiteti kafedrasi
mudiri, psixologiya fanlari doktori, dotsent

Bugungi murakkab globallashuv davrida ma’naviyat sohasida vujudga kelayotgan dolzarb muammolar, xalqimiz ma’naviyatini asrash va yanada yuksaltirish, yosh avlodning qalbi va ongini turli zararli g‘oya va mafkuralar ta’siridan saqlash va himoya qilishda Vatanimiz tarixini har tomonlama va chuqur tadqiq etish, birlamchi manbalarga tayanib talqin etish, kelajak avlodga haqqoniy tariximizni o‘qitish orqali ularni yuksak ma’naviyatli shaxslar etib tarbiyalash dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Ma’lumki, jamiyat vertikal aspektda, davlatchilik paydo bo‘lgan davrdan boshlab, to‘rtta asosiy soha – jamiyatning moddiy hayoti, jamiyatning sotsal hayoti, jamiyatning siyosiy-huquqiy hayoti va jamiyatning ma’naviy hayoti sohalari bo‘lib o‘rganiladi.

Jamiyatning moddiy hayoti xo‘jalik va ekohayot sohalarga bo‘linadi. Moddiy hayotning yadrosini moddiy madaniyat tashkil etadi. Moddiy madaniyat xo‘jalik va ekomadaniyatlar birligidan iborat. Jamiyatning moddiy madaniyati jamiyatning sotsial, siyosiy-huquqiy va ma’naviy hayotlariga nisbatan moddiy asos qonunini bajaradi. Jamiyatning siyosiy-huquqiy madaniyatlari jamiyatning siyosiy-huquqiy hayotlarining yadrosini tashkil etib, jamiyatning moddiy, sotsial va ma’naviy hayotlariga nisbatan boshqarib va tartibga solib turuvchilik qonunini bajaradilar. Jamiyatning ma’naviy madaniyati barcha tarmoqlari ila jamiyatning ma’naviy hayotining yadrosini tashkil etib, jamiyatning moddiy, sotsial va siyosiy-huquqiy hayotlariga nisbatan ma’naviy, jumladan, gnoseologik asos qonunini bajaradi.

Jamiyatning sotsial sohasi inson va uning birliklarini, ularning turmush sharoiti kabilarni ichiga oladi. Inson va uning birliklari, birinchidan, insonni, ikkinchidan, insonlarning mikrobirliklari-oila va mehnit jamoalarini, uchinchidan, makrobirliklari esa urug‘-qabila, elat va millatlarni, to‘rtinchidan, makrobirliklar ichidagi sotsial-sinfiy, posyolkaviy va demografik bo‘linishlarni o‘z ichiga oladi. Ammo inson oila, millat va sotsial tarkiblarning subekti bo‘yicha jamiyatning moddiy, xususan xo‘jalik hayotida, siyosiy-huquqiy va ma’naviy hayotlari sohalarida faoliyat yuritadi. Demak, jamiyatning biron bir sohasi subektsiz mavjud bo‘lmaydi. Insonlar yaratuvchilardir va yaratilgan narsalar, norma, munosabat va muassasalarni avloddan avlodga tashuvchilardir. Ular jamiyatning boshqa sohalariga nisbatan sotsial asos qonunini bajaradi. Sotsial asos qonuni yurisprudensiyada subektning belgilovchilik qonuni tusini oladi. Shuning uchun ham Amir Temur shunday degan edi: “Saltanatim martabasi bo‘lmish to‘ra-tuzuklar va qonun qoidalarni ham shu o‘n ikki toifaga bog‘lab tuzdim. Bu o‘n ikki toifani saltanatim falakining o‘n ikki burji va davlatim korxonasining o‘n ikki oyi deb hisobladim”[1].

Bu o‘n ikki toifadagi kishilar quyidagilar edi:

-birinchi toifa – sayyidlar, ulamo, shayx va fozillar;

[1] Temur tuzuklari. -T.: “O‘zbekiston”, 2019. 90-bet.

-ikkinchi toifa - aqlli kishilar va kengash sohiblari, ehtiyotkor, qat’iyatli arboblar, uzoqni ko‘zlab ish yurituvchilar, keksa va tajribali kishilar;

-uchinchi toifa – duogo‘y kishilar;

-to‘rtinchi toifa – amirlar, sarkardalar, sipoh-salorlar;

-beshinchi toifa – sipoh va raiyat, sipohiylardan chiqqan bahodirlar;

-oltinchi toifa – ishonchli, to‘g‘ri e’tiqodli oqil xiradmand kishilar;

-yettinchi toifa – vazirlar, devon kotblari va munshiylar;

-sakkizinchi toifa - hakimlar, tabiblar, munajjimlar va muhandislar;

-to‘qqizinchi toifa – muhaddislar, (payg‘ambar, uning avlodlari va sahobalari) haqida rivoyatlar naql qiluvchilar hamda qissaxonlar;

-o‘ninichi toifa – mashoyixlar, so‘fiylar, oriflar;

-o‘n birinchi toifa – kasbu-hunar egalari;

-o‘n ikkinchi toifa – sayohatchilar, musofirlar.

Birinchi toifa kishilar saroy majlislarida qatnashuvchilar bo‘lib, Amir Temurga qimmatli fikrlar beruvchilar bo‘lgan. Ikkinchi toifa kishilar - Amir Temur bilan o‘z tajribalarini baham ko‘rishgan.

Uchinchi toifa kishilar Tangridan Amir Temurga zafarlar va mamlakatga osoyishtalik tilashgan.

To‘rtinchi toifa kishilar ijang sirlari bo‘yicha maslahatlar berishgan.

Amir Temur beshinchi toifa kishilar orqali raiyatga zulm o‘tkazishlarining oldini olgan.

Amir Temur oltinchi toifa kishilar yordamida maxfiy ishlar bo‘yicha maslahatlar olgan.

Yettinchi toifa kishilar har mulk-mamlakatlardagi ahvol, kirim - chiqimlar bo‘yicha fikrlashilgan.

Amir Temur sakkizinchi toifa kishilar - hakimlar, tabiblar, munajjimlar va muhandislarning ham hurmatini joyiga qo‘ygan. Amir Temur to‘qqizinchi toifa kishilar – muhaddislar, (payg‘ambar, uning avlodlari va sahobalari) haqida rivoyatlar naql qiluvchilar hamda qissaxonlardan davlatchilik masalalarida tajriba o‘rgangan va jahon ahli ahvolidan xabardor bo‘lgan.

Amir Temur o‘ninchi toifa kishilar – mashoyixlar, so‘fiylar, oriflar bilan suhbatlar qurib raiyatning farovonligi uchun ko‘p fikrlar olgan.

Amir Temur o‘n birinchi toifa kishilar – kasbu-hunar egalarining hurmatini joyiga qo‘ygan va kerakli jihozlarda yordam bergan.

O‘n ikkinchi toifa kishilar – sayohatchilar, musofirlar, bugungi kunda ularni xorij fuqarolari ham deymiz, ular orqali turli mamlkatlar hol-ahvolidan xabardor bo‘lingan va savdo-sotiq ishlarini tartibga solingan.

Shunday qilib, Amir Temur turli toifa kishilar xizmatidan ularning hurmatini joyiga qo‘yish orqali mamlakat farovonligi uchun foydalangan.

Amir Temur o‘z oldiga ulug‘ davlatning ichki siyosati va ishchan davlat tizimini qadimiy tajribalardan ijodiy foydalangan holda tuzish, harbiy siyosatni zamon talabi asosida tobora takomillashtirib, mo‘g‘ul istilosi asoratlarini tezroq bartaraf etib, mamlakat xo‘jaligini oyoqqa turg‘izish, savdo-sotiq, hunarmandchilikni bir meyorga tushirish va rivojlantirish, aholi manfaatlarini himoya qilish, islom diniga kuch-kuvvat berish, ilm-fan, madaniyat, me’morchilikni tubdan rivojlantirish, obodonlashtirish ishlarini keng ko‘lamda jadallashtirish kabi dolzarb vazifalarni qo‘ygan edi. Uning bunday say-harakatlari katta kuch-g‘ayrat, mablag‘, bilim va oqilona tadbirlarni talab etar edi. Temur yetuk siyosatdon va mohir davlat arbobi bo‘lib, u o‘zidan avval o‘tgan hukmdorlardan farqli ravishda, davlat va mamlakatni boshqarishda bir yoki ikki tabaqaga emas, balki aholining barcha tabaqalariga suyangan.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, «Biz Amir Temur davri davlat boshqaruvi, konunchiligi, xarbiy san’at masalalariga oid muloxazalarni bildirdik. Mazkur soxalarda olib borilgan xarakatlar bir maksadga, davlatni qudratli va jamiyatni iktidorli etishga karatilganini yedda tutish biz uchun goyat muximdir»[1].

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Boltaboev S.D. Turkistondagi vaqf mulklari tarixi. O‘quv-uslubiy qo‘llanma. – Namangan, 2005. – B. 12.
2. Karimov I.A. Xalqimiz bor ekan, Amir Temur nomi barhayotdir. “Yangicha fikrlash va ishlash davr talabi”. 5-tom. Toshkent: O‘zbekiston, 1997. – B. 167.
3. Mirzo Ulug‘bek. To‘rt ulus tarixi. B.Axmedovning tahriri ostida. Toshkent: Cho‘lpon, 1994. – B. 231, 249-250.
4. Rahmatova X.H. Xoja Ahror Valiyning ijtimoiy-falsafiy qarashlari. MonografiY. – Buxoro, 2014. – B. 87-88.
5. Saxovatli insonlar va salomatlik posbonlari: Metod.-bibliogr.qo‘ll. - Toshkent: Alisher Navoiy nom. O‘zbekiston Milliy k-nasi nashriyoti.- 2006. - B. 13.
6. Temur tuzuklari. – Toshkent: G‘.G‘ulom nashriyoti, 1991. – B. 67.

[1] Azamat Ziyo “O‘zbek Davlatchiligi tarixi” Toshkent 2001, “Sharq” 45b.

SOHIBQIRON TEMUR SAROYI ADABIY MUHITINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Qorayev Sh.P.,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori,
Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti dotsenti

Mustaqillik davrida Amir Temur va temuriylar davri (1336-1862)ning 526 yillik tarixi, madaniyati va adabiyoti borasida akademik Bo'riboy Ahmedov kabi ko'plab tadqiqotchi olimlar tomonidan qator tadqiqotlar olib borilgan, kitoblar yozilgan: "XIV-asrning 2-yarmi va XV-asr O'rta Osiyo xalqlari adabiyoti taraqqiyotida yangi va juda sermahsul davr bo'ldi. Bu davrda adabiyot badiiy uslub jihatidan takomillashdi, yangi pog'onaga ko'tarildi. Nasrda ham, nazmda ham ko'plab nodir badiiy va lirik asarlar yaratildi. Turkiy va forsiy tillarda ijod qiluvchi shoirlar o'rtasida o'zaro aloqa va hamkorlik kengaydi. O'zbek tarjima adabiyoti vujudga keldi. Badiiy adabiyotning o'sishi bilan uzviy bog'langan holda adabiyotshunoslik ham taraqqiy etdi, bu sohaga oid ilmiy asarlar yaratildi". Amir Temur va temuriylar zamonidagi adabiy muhit to'g'risida Abduqodir Hayitmetovning "Temuriylar davri o'zbek adabiyoti" kitobida ham shunday so'z yuritilgan: "Amir Temur nozikta'b inson, go'zallikni chuqur his etadigan, adabiyot va san'atning qadriga yetadigan zot ham edi. Uning badiiy adabiyotga munosabati shu paytgacha maxsus o'rganilmagan. Bunga oydinlik kiritishda bizga birinchi ko'makdosh Alisher Navoiydir. Adabiyot tarixining buyuk bilimdoni, xususan temuriylar tarixini yaxshi bilgan Navoiy o'zining "Majolis un-nafois" tazkirasida bu davrda yetishgan va ijod qilgan ijodkorlarga batafsil to'xtab o'tgan". Darvoqe, Alisher Navoiy "Majolis un-nafois" tazkirasining yettinchi majlisiga quyidagi sarlavha qo'yib: "Salotin izom (Ulug' sultonlar) va avlodi vojub ul ehtiromlari zikridakim, ba'zi yaxshi mahallarda xo'b bayt o'qubturlarkim, filhaqiqat, o'zlari aytqondek xo'bdur va ba'zi nazm latoyifiga mashg'ul bo'lubturlarkim, ul dag'i matlub va marg'ubdur", deydi hamda uni "Muluk shajarlarining (Podshohlar daraxtining) bo'stoni va salotin gavharlarining ummoni, xoqoni jahongiri sohibqiron, ya'ni: Temur Ko'ragon...", degan ta'rif bilan boshlaydi: "Temur Ko'ragon" – anorallohi burhonahi, garchi nazm aytmoqqa iltifot qilmaydurlar, ammo nazm va nasrni andoq xo'b mahal va mavqe'da o'qubdurlarkim, aningdek bir bayt o'qug'oni ming bayt aytqoncha bor". Aniqroq qilib aytganda, garchi Amir Temur she'rlar yozmagan bo'lsa-da, ko'p

nazmiy va nasriy asarlardan xabardor bo‘lgan, ularning katta qismini yoddan bilgan, ilmiy, adabiy majlislar va qissaxonlik kechalari tashkil etgan. O‘zaro suhbatlarda, olimlar va shoirlarning majlislarida Sohibqiron, Navoiy iborasi bilan aytganda, o‘z o‘rni va o‘z vaqtida (“mahal va mavqe’da”) she’riy asarlardan ayrim parchalarni, nasriy asarlardagi eslanishga loyiq bo‘lgan epizod va syujetlarni, bu asarlarning qahramonlariga oid baytlarni ma’lum bir voqealar munosabati bilan yoddan keltira olgan. “Majolis un-nafois”dagi keltirilgan lavhadan ma’lum bo‘ladiki, she’rni tushunish zavqi, tab’i noziklik, o‘z vaqtida jo‘yali so‘z topa olish salohiyati she’r yoza olishlikdan-da ustun fazilat ekanligi Sohibqiron hayotidan keltirilgan chizgilar orqali yanada ta’sirchanroq ifoda etilgan... Darhaqiqat, Amir Temur ilm – fanning qadriga yetadigan, uning ravnaqi haqida o‘ylaydigan, dunyoning eng yetuk olimlari, tarixchilari bilan bemalol bahslashib, suhbatlasha oladigan va adabiyotni tushunadigan donishmand olim hukmdor bo‘lgan.

O‘zbek tilining adabiy til maqomiga ko‘tarilishi, arab va fors tillari kabi musulmon Sharq olamida ilm va adab tili sifatida tan olingan tillar bilan bellasha olish salohiyatiga ega bo‘lishi Amir Temur asos solgan davlat olib borgan siyosat tufayli amalga oshdi. Navoiy birinchilardan bo‘lib, temuriylarning o‘zbek xalqi madaniyati rivojiga qo‘shgan ushbu tarixiy xizmatlarini ilg‘agan va ilmiy jihatdan asoslab bergan.

Amir Temur she’r yozishga rag‘bat bildirmagan bo‘lsa hamki, she’rni nozik tushungan va badiiy so‘z qadriga yetgan. Bu esa, temuriy hukmdorlar tabiatidagi ma’rifatparvarlik, adabiyotsevarlik aynan ulug‘ ajdodlaridan meros fazilat ekanligiga guvohlik beradi”. Darhaqiqat, *“Amir Temur (yuqorida zikr etganimizdek) she’r yozish yoki nasrda ijod qilish bilan shug‘ullanmasa-da, nazm va nasrni teran tushunadigan, nazm o‘qiganda g‘oyatda ma’nodorlik bilan o‘qiy olish qobiliyatiga ega bo‘lgan hukmron bo‘lgan, ya’ni, u faqat buyruq bilan rahbarlik qiladigan shoh emas, ma’naviyat bilan suyagi qotgan, o‘z faoliyatida madaniyatni vosita qilib olgan mo‘tabar elboshidir”*. Sulton Husayn Boyqaro kabi ko‘plab temuriy sultonlar ham ulug‘ bobosidek adabiy majlislarda ketma-ket yaxshi she’r va go‘zal so‘zlar aytganlar. Binobarin, *“Temur va temuriylar kabi ilm-fan, madaniyat va san’atni, falsafa va adabiyotni nozikta’b tushungan, o‘zlari ham bu sohalarda yutuqlarga erishgan sulolani jahon sahnida topish qiyin. Bu sulola vakillari orasida she’r yozmagan, fan-madaniyatga qiziqmagan biror temuriyzoda bo‘lmasa kerak”*. Hakim Sattoriy ta’biri bilan aytganda, *“Nashr etilgan “Sohibqiron abadiyati”*

kitobida bobomizning o‘g‘illari – Muhammad Jahongir Mirzo (1356-1376), Umarshayx Mirzo (1356-1394), Mironshoh Mirzo (1366-1408), Shohrux Mirzo (1377-1447) avlodlarini xuddi sinf jurnalidagi o‘quvchilar ro‘yxatidek ketma-ket yozib chiqdim. Dunyo tan olganlari 198 nafar. Ularning har biri qaysidir xizmati bilan o‘z davrida nom qozongan. Aslida gap bu haqda emas. Gap shundaki, kitobning olti sahifasini egallagan bu Yozuvlar zamirida qanchalar sinoatlar yashiringan? Shu haqda o‘ylansa, yurak hapqiradi, vujudni bemisl iftixor hissi chulg‘ab oladi. Ana shu muhtashamlikka daxldorlikdan boshing ko‘kka yetadi.

To‘g‘ri, biz keltirgan ma’lumot yangilik emas. Hayratlanarlisi shundaki, tarixda nomi qolgan sulolaning istalgan vakili tarjimai holi bilan tanishsangiz, dilingiz yayraydi. Shunda beixtiyor deylik, dunyoviy adabiyot an’analarini davom ettirib, “Taashshuqnoma” dostonini yaratgan Saydi Ahmad yoki Sharafuddin Ali Yazdiyga homiylik qilib, besh yil davomida “Zafarnoma” asarini yozdirgan, Balx va Sheroz hokimi bo‘lgan Ibrohim Sulton (1394-1435) yoxud Hirot tasviriy san’at maktabining asoschisi, Firdavsiy “Shohnoma”si mukammal nusxasini tayyorlab, so‘zboshi ilova qilgan, viloyatlarni boshqargan, otasi Shohrux hukmronligi davrida moliya vaziri bo‘lgan Boysunqur Mirzo (1397-1433) faoliyati zamirida qanday sinoatlar yashiringan, ularning kamolga yetishi qanday kechgan, degan andishaga borasiz.

Xullas, temuriylar qo‘lga kiritgan muvaffaqiyatlar, ularning shon-shavkati bu tilsim ustida o‘ylab ko‘rishga da’vat etadi. Albatta, bunday yuksaklikning bosh sababi inson qobiliyatini yuzaga chiqaradigan mu’tadil muhit yaratilganidadir. Bu ishning boshida, shubhasiz, o‘z qudrati, talabchanligi, o‘rni kelganda, mehri va qahri bilan Sohibqiron Amir Temur turganidadir”. Temuriylar sulolasining ro‘yxati 193 nafar shahzoda va 300 dan ziyod malikadan iborat ekanining o‘zi hayratomuz fakt! Bu sulola jami 488 yil (!) hukmronlik qilgani haqida gapirish uchun esa til ojiz.

Sohibqironning “Temur tuzuklari” asari bizgacha yetib kelgan. Turli manbalarda bu asar “Temur tuzuklari” (“Tuzuki Temuriy”), “Temurning aytganlari” (“Malfuzoti Temuriy”) va “Temur haqida xotiralar” (Voqeoti Temuriy”) degan nomlar bilan tilga olinadi.

Binobarin, “Amir Temur bilan Hofiz Sheroziy o‘rtasida bo‘lib o‘tgan tarixiy muloqotga keladigan bo‘lsak, u Sohibqironning adolatpeshaligi, adabiyot va ilm ahlini qanchalar ulug‘laganini ko‘rsatuvchi yorqin bir misoldir. Shu sababli bu voqea solnomachilar e’tiboridan chetda qolmagan va tarix

zarvaraqlariga muhrlangan. Ko‘plab jahon shoirlari bu voqea haqida she’r ham yozganlar”. Binobarin, ana shu misolning o‘zi ham Amir Temurning she’riy iqtidorga egaligi, she’riyatga qiziqishi, adabiyot ahliga alohida g‘amxo‘rlik ko‘rsatganidan darak beradi.

Nizomiddin Shomiyning “Zafarnoma”sida Sohibqironning so‘nggi kunlari shunday tasvirlangan: “Odatga ko‘ra, arkoni davlat va hazrat (Sohibqiron)ning yaqinlari har biri (Allohga) iltijo qilib turardilar. Shu orada (Allohning) quli bo‘lmish hazrat Sohibqiron avval bir barmog‘ini, so‘ngra ikki barmog‘ini ko‘tardi va ko‘zi bilan imlab, bu nimani anglatishini so‘radi. Amirlardan ba’zilari bunga javob topmoqqa urindilar va: “Hazrat (Sohibqiron tuzalish uchun) bir yoki ikki iloj qoldi, (deb ishorat qildilar)”, deyishdi. (Hazrat Sohibqiron): “Yo‘q, men unday demoqchimasdim”, deb, ushbu bayt mazmunida yotgan so‘zlarni aytdi.[1]

Xulosa qilib aytganda, Herman Vamberi “Buxoro yohud Movarounnahr tarixi” asarida temuriy shoirlar, Amir Temur va temuriylar davridagi madaniy-adabiy taraqqiyot haqida batafsil yozgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Muhammadjonov A. Temur va temuriylar saltanati. -Toshkent: Qomuslar Bosh tahririyati, 1994.-B.144.

2.Hayitmetov A. Temuriylar davri o‘zbek adabiyoti. -Toshkent: Fan, 1996. –B.14.

3.Alisher Navoiy.To‘la asarlar to‘plami.To‘qqizinchi jild. -Toshkent: G‘.G‘ulom nomidagi NMIO‘, 2012.-B. 411.

4.Qorayev Sh.. “Temur-Shahi Islompanoh”. // “Nishon tongi”, -Qarshi: 2018 yil 30-mart. -№12-13(3868)-son.-B.4.

5.Qorayev Sh. Amir Temur ilmiy majlislari / Markaziy Osiyo tarixi va arxeologiyasi muammolari. Respublika ilmiy konferensiyasi materiallari. – Samarqand: 2018. – B. 94-98.

6.Qorayev Sh. Story nights in the presence of Amir Temur // Mejdunarodnыy nauchno-prakticheskыy jurnal «Ekonomika i sotsium». – Saratov: Rossiya, 2020. -№ 10(77). -P. 199-202.

7. Qorayev Sh. Buyuk Sohibqiron huzuridagi kitobxonlik kechalari// “Yangi O‘zbekiston”, -Toshkent: 2021 yil 27 mart. № 62(318) -B.6.

[1] Nizomiddin Shomiy. Zafarnoma. T.: O‘zbekiston, 1996.-B.399-400.

8.Qorayev Sh. Amir Temur she’r yozganmi? // “Sanduvoch”, -Qarshi: 2021 yil 29 mart.№06(439).-B.6.

9.Qorayev Sh. Sohibqiron ijod ahliga qanday munosabatda bo‘lgan?// “Qashqadaryo”, -Qarshi: 2021 yil 6 aprel. №027 (15763)-son.-B.3.

10.Qorayev Sh. Sohibqiron Amir Temur oliy majlislari va saroy shoiri Lutfullo Nishopuriy. / “Temuriylar davrida ilm-fan va madaniyat rivojini o‘rganish va targ‘ib qilishning umumbashariy ahamiyati” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. O‘zR FA Temuriylar tarixi davlat muzeyi. –Toshkent: (2021 yil 18 noyabr.) 2024 yil.-B.100-104.

11.Ahmad Muhammad Tursun. Dunyoni tebratgan yetti buyuk. - Toshkent: Azon kitoblari, 2021.-B.423.

12. Davlatov O. Alisher Navoiy va Amir Temur.// - Toshkent: “O‘zbekiston adabiyot va san’ati” gazetasi, 2013 yil 9 aproel.-№14.-B.4.

13. G‘oyibov N. Amir Temur davri ma’naviyati. -Toshkent: G‘.G‘ulom nomidagi ASN, 2001.-B.11-12.

SOHIBQIRON AMIR TEMURNING DAVLAT BOSHQARUVI SOHASIDA AMALGA OSHRGAN KENGASHLARI

Rasulova N.S.,
Jamoat xavfsizligi universiteti dotsenti,
tarix fanlari doktori

Bugungi murakkab globallashuv davrida ma’naviyat sohasida vujudga kelayotgan dolzarb muammolar, xalqimiz ma’naviyatini asrash va yanada yuksaltirish, yosh avlodning qalbi va ongini turli zararli g‘oya va mafkuralar ta’siridan saqlash va himoya qilishda Vatanimiz tarixini har tomonlama va chuqur tadqiq etish, birlamchi manbalarga tayanib talqin etish, kelajak avlodga haqqoniy tariximizni o‘qitish orqali ularni yuksak ma’naviyatli shaxslar etib tarbiyalash dolzarb ahamiyat kasb etadi.

XV asrda Sohibqiron Amir Temur bobomiz asos solgan va uning munosib avlodlari davom ettirgan muhtasham saltanat, yurtimizda ikkinchi Uyg‘onish, ya’ni ikkinchi Renessans davrini boshlab berdi. Amir Temurning “Davlat

qonunlar asosida qurilmas ekan, unday saltanatning shukuhi, qudrati va tarkibi yo‘qoladi”, degan fikrlari bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan.

Prezident Shavkat Mirziyoyev ta’biri bilan aytganda, “Milliy davlatchiligimiz, g‘urur-iftixorimiz timsoli bo‘lgan bu ulug‘ zotning xalqimiz, Vatanimiz oldidagi tarixiy xizmatlarni baholashning o‘zi qiyin. Mustaqillik yillarida buyuk ajdodimizning xotirasini tiklash borasida qanday katta ishlar amalga oshirilganini barchangiz albatta yaxshi bilasiz”[1].

Yevropa olimlari Amir Temur davlati Osiyodagi eng so‘nggi buyuk saltanat edi, deya e’tirof etadilar. Sohibqironning bunday katta davlatni, markazlashgan yirik saltanat sifatida tuzishi, tartibga keltirishi va uzoq yillar hukmronlik qilishida “Temur tuzuklari” asosiy manba sifatida xizmat qilgan. “Temur tuzuklari” – podsholarning turish-turmush va axloq-odob normalarini belgilovchi risoladir.

Amir Temur faoliyatining asosiy tamoyillari «Temur tuzuklari»da o‘z aksini topgan bo‘lib, unda jahongirning saltanat boshqaruvida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan barcha muammolaridan tortib, ichki va tashqi siyosatning mohiyati, xalqlararo va millatlararo munsabatlar, ma’naviy meros masalalari to‘g‘risidagi fikr-mulohazalari bayon etilgan[2].

Amir Temur o‘z Tuzuklarida “Mamlakatlarni fath etuvchi baxtli farzandlarim va jahonni idora etguvchi qudratli nabiralarimga ma’lum bo‘lsinkim, Tangri taolo dargohidan umidim shulki, ko‘plab farzandlarim, avlodim saltanat taxtiga o‘tirib, mamlakatlarni idora etgay. Shuning uchun saltanat qurish, davlat tutish ishlarini bir necha tuzukka bog‘ladim va saltanatni boshqarish haqida qo‘llanma (dastur ul-amal) yozib qoldirdim, toki farzandlarim va avlodimdan bo‘lganlarning har biri unga muvofiq ish yuritsin”[3], deb ta’kidlaydi.

Sohibqironning piri Abubakr Tayobodiyning fikricha, kengash va mashvaratsiz saltanatni barcha qilgan ishlari va aytgan gaplari noto‘g‘ri bo‘lgan johil odamga qiyos qilish mumkin; uning aytgan so‘zlari va qilgan ishlari boshga pushaymonlik va nadomat keltiradi. Shu sababli ham saltanatni boshqarishda mashvaratu maslahat va tadbirkorlik bilan ish yuritish, oqibatda nadomat chekib, pushaymon bo‘lishdan asraydi. Saltanat ishlarining bir qismi

[1] Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – B.309.

[2] Рахмонов С. Иккинчи ренессанс даврининг маънавий-руҳий асоси. Монография. – Самарқанд: СамДЧТИ нашри. 2021 йил. – Б.123.

[3] Темур тузуклари. – Т.: “Шодлик нашриёти”, 2018. – Б.69.

sabru toqat bilan, qolgan qismi esa bilib-bilmaslikka, ko‘rib-ko‘rmaslikka solish orqali hal qilinadi.

“Temur tuzuklari”da keltirilishicha, azmi qat’iy, tadbirkor, hushyor, jang ko‘rgan, mard, shijoatli bir kishi mingta tadbirsiz, loqayd kishidan yaxshi ekanligi e’tirof etilgan. Chunki, tajribali bir kishi ming kishiga ish buyurgan[1]. Amir Temur saltanatida o‘tkazilgan mashvarat, qurultoy, kengash, shohona qabullar va dabdabali saroy marosimlarida o‘rta asr davlatchiligining o‘ziga xos rasmiy an’analari jamlangan edi.

“Temur tuzuklari”da qayd etilishicha, Amir Temur mashvaratga kiruvchilarni liboslariga quyidagi talablarni qo‘ygan: “Amr qildimki, sipohiylar, amirlar, mingboshilar, yuzboshilar va o‘nboshilar devonxonaga, bazm-majlislariga kulohsiz, etiksiz, kavushsiz, bo‘rk yoqalik chakmonsiz, xanjarsiz, qilichsiz hozir bo‘lmasinlar” [2].

Amir Temur huzurida maslahat, kengash idoralariga qurultoy va davlat kengashini kiritish mumkin. Qurultoy – vaqti-vaqti bilan mamlakat va davlat hayotining muhim masalalarini hal etish uchun chaqirib turilgan. Amir Temur o‘z Tuzuklarida kengashni ikki turga bo‘lgan: til uchida aytilgani (shunchaki eshitgan) va dildan aytilgani (bunday maslahatlarni qalb qulog‘iga quyib, diliga joylagan)[3]. Bu Temur siyosatining o‘ziga xosligini ko‘rsatadi. Tarixiy manbalarga ko‘ra, Balx, Qarshi va Qorabog‘, Samarqandda qurultoylar chaqirilgan. Buni Sharqqa xos marosim, hatto millat majlisi deb atash mumkin. Qurultoylarga barcha shahzodalar, oliy martabali dindorlar, bosh amaldorlar, ma’muriyat xodimlari, harbiy boshliqlar, zodagonlar vakillari taklif qilingan.

Qurultoyning davlat hayotidagi o‘rni quyidagicha bo‘lgan:

jamiyat va davlat o‘rtasidagi munosabatlarni yaxshilashga xizmat qilgan;

xalq vakillari bilan kengashish vositasi;

qurultoyda urush, tinchlik masalalari yoki davlat boshqaruviga oid boshqa muhim ishlar hal etilgan;

qurultoy boshqaruvda jamoat fikriga tayanish imkonini yaratgan;

markaziy va mahalliy boshqaruv tizimi o‘rtasidagi aloqadorlikning ta’minlanishiga ta’sir etgan;

qurultoy monarxiyaning demokratiya bilan uyg‘unlashgan ko‘rinishi bo‘lib davlatda tenglik, adolat tamoyillarini shakllantirishga katta ta’sir ko‘rsatgan;

qurultoy davlatning manbai xalq bo‘lganligini anglatadi.

[1] Темур тузуклари. – Т.: “Шодлик нашриёти”, 2018. – Б.10.
[2] Темур тузуклари. – Т.: “Шодлик нашриёти”, 2018. – Б.117.
[3] Темур тузуклари. – Т.: “Шодлик нашриёти”, 2018. – Б.12.

Amir Temur saltanati binosini islom dini, to‘ra va tuzuk asosida mustahkamladi. Saltanatni boshqarishda uchragan har qanday voqea va ishni to‘ra va tuzuk asosida ado etdi.

Sohibqiron o‘z davlatining mafkuraviy, ma’naviy va axloqiy asosini kuchaytirishda shariat qoidalariga tayangan. Amir Temur islom mafkurasidan davlat boshqaruvini takomillashtirishda xalq bilan davlatni birlashtiruvchi kuch sifatida foydalanganini alohida ta’kidlab o‘tish joiz. Amir Temur yashagan davrda jamiyatning ijtimoiy-madaniy hayotida diniy tafakkur muhim ahamiyat kasb etgan. Manbalarda ta’kidlanganidek, Amir Temur, islom dini taqvodorligiga mudom mansubligini ko‘rsatib, davlat manfaatlaridan kelib chiqib, har doim musulmon ruhoniylarining barcha namoyondalari bilan o‘ta do‘stona munosabatlar o‘rnatgan.

Amir Temur dunyo siyosati va tamaddunida ulkan iz qoldirgan siymolardan biridir. Uning adolatli davlat boshqaruvidagi boy tajribasi bugungi kunda nechog‘lik ahamiyatli ekanini barchamiz yaxshi bilamiz. “Temur tuzuklari”da hokimlar va vazirlarning vazifalari, o‘z ishiga munosabati, aholi turli qatlami, raiyatning haq-huquqlarini himoya qilish, sipohlarga munosabat kabi ma’naviy-axloqiy qonun-qoidalar aks etgan.

Amir Temur davlatni aql-zakovat va huquqiy asos bilan idora etgan. Temur siyosiy qarashlari tizimining yana bir muhim tomoni shundan iboratki, u har bir siyosiy masalani hal etishdan oldin shu sohaning bilimdon odamlari, olimlari bilan maslahatlashib, so‘ngra qaror qilar edi. Manbalarda Sohibqiron Amir Temur – yorqin xislatlarga ega ekanligi, xotirasi o‘tkir, shijoatli va qatiyatli, bir so‘zli, zo‘r ruhiy qudrat egasi, salobatli inson sifatida ta’riflanadi.

Amir Temur barpo etgan ulug‘ saltanati martabasini saqlash uchun quyidagilarga e’tibor qaratgan: birinchidan, saltanat qonun-qoidalari islom dini va shariat asosida shakllantirildi; ikkinchidan, sipohu raiyat umid va qo‘rquv orasida saqlab, do‘st-dushman murosayu madora martabasida tutildi; uchinchidan, hech kimdan o‘ch olish payida bo‘linmadi; to‘rtinchidan, xalqqa ochiq yuzlilik, rahm-shafqat bilan munosabatda bo‘lindi, adolat bilan ish yuritildi[1].

Sayyidlar, olimlar, faqihlar va bilim egalari, shuningdek, uyg‘ur baxshilariyu fors adiblari Sohibqironga safarda ham, mamlakatda ham uzluksiz mulozimlikda bo‘lgan. Farmonga muvofiq ulardan bir guruhi muntazam (ravishda) ul Hazratning yurish-turishi va gap-so‘zlarida, mulk, millat va arkoni

[1] Темур тузуклари. – Т.: “Шодлик нашриёти”, 2018. – Б.84-85.

davlat ahvolida nimaiki gap bo‘lsa, to‘la-to‘kis yozib borardilar. Bu ishda mubolag‘a qilinmasin, deb alohida ta’kidlab buyurilgan edi.

Amir Temur mamlakat tinchligi, farovonligi va taraqqiyotida hukmdor katta rol o‘ynashini chuqur anglab yetgan davlat arbobi edi. Chunki uning davrida taraqqiyot, tinchlik va farovonlik ko‘pincha podshohlarning siyosiy ilmi, aql-zakovati, adolati, hushyorligi va boshqa sifatlariga bog‘liq bo‘lgan, aks holda, davlat va xalq tanazzulga yuz tutishi mumkin edi.

Uluslar garchand markaziy hukumatga itoat etsalar-da, ma’lum mustaqillikka ega edilar. Ulus hukmdorlarining alohida davlat apparati, mustaqil qo‘shini bo‘lib, ularning markaziy hukumatga tobeligi xirojning bir qismini Samarqandga yuborib turish va oliy hukmdor harbiy yurishlar uyushtirganda o‘z qo‘shini bilan qatnashish yoki oliy hukmdor talab qilganda askar yuborib turishdan iborat edi.

Amir Temur davlatining shon-shuhratini ta’minlagan muhim kuch uning vazirlari, amaldorlari va sipohiylari edi. Qo‘l ostidagi amaldorlarini to‘g‘ri tanlagani va ularning kuch-quvvatidan davlatni boshqarishda foydalangani Amir Temurning eng muhim yutuqlaridan biri bo‘lgan.

Tuzuklarda vazirlar, amirlar va voliylar haqida ham muhim ma’lumotlar keltirilgan: “Vazirlar saltanat ustunlaridir... (ular) mamlakat obodonchiligini, raiyatning tinchligini, sipohlarning birligini, xazina boyligini doimo ko‘zda tutadilar. Davlat, saltanat ishlarini yuzaga chiqarishda kamchilikka yo‘l qo‘ymaydilar. Saltanatga zararli narsalarni qaytarishda molu jonini ayamaydilar”.

Manbalarga ko‘ra, Temur davlatini yetti nafar vazir boshqargan bo‘lib, vazirlar ushbu sifatlarga ega kishilardan bo‘lishlari lozim edi: asillik va toza nasllik, aql, farosatlilik, sipohu raiyat ahvolidan xabardorlik, ularga nisbatan xushmuomalalik, sabr-chidamlilik va tinchliksevarlik. Ushbu sifatlarga ega vazirga to‘rt imtiyoz – ishonch, e’tibor, ixtiyor va qudrat berilgan. Amir Temurning fikricha, aqlli, bilimdon va hushyor vazir murosayu madora, xushmuomalalik bilan sipohni birlashtirib, dushman lashkarini o‘ziga rom qiladi; bir to‘g‘ri tadbir qo‘llab g‘anim qo‘shinini parokanda qilib yubora oladi[1].

Amir Temur o‘z davlati sarhadlarini yurishlar evaziga kengaytirgan bo‘lsa ham, adolatli qonunlar, to‘g‘ri qo‘llangan boshqaruv orqali mintaqalardagi tinchlik, barqarorlik va adolatni ta’minlashga intilgan, xalq ko‘nglida hokimiyatga nisbatan ishonch, mas’uliyat uyg‘ota olgan. U davlatning

[1] Темур тузуклари. – Т.: “Шодлик нашриёти”, 2018. – Б.102-103.

majburlov kuchiga tayanib huquqbuzarliklar va jinoyatlarning oldini olishga harakat qildi. Uning o‘zi ma’naviyati yuksak inson bo‘lib, oila a’zolari va qo‘l ostidagi amaldorlarni ham axloqiy jihatdan tarbiyalashga intilgan. Saltanatda markaziy apparat va mahalliy boshqaruv idoralarining o‘zaro aloqadorligi, bir-biriga bo‘ysunish qoidalari tartibga solindi.

AMIR TEMUR JASORATI – YOSHLAR UCHUN NAMUNA

Raximov Sh.K.,
O‘zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish instituti Maxsus fanlar sikli o‘qituvchisi, mayor

Bugungi kunda davlatimiz siyosatining eng ustuvor yo‘nalishlaridan biri yuksak ma’naviyatli, jismonan sog‘lom, har tomonlama barkamol avlodni voyaga yetkazishdir. Qaerda yuksak aqd-idrok va tafakkur hukmron bo‘lsa, o‘sha yerda ma’naviyat qudratli kuchga aylanadi.

Dunyoda sodir bo‘layotgan turli ziddiyatlar, notinchliklar davrida ajdodlarimiz tomonidan g‘animlarga qarshi ko‘rsatilgan mardlik, jasorat va qahramonliklarini yoshlar ongiga singdirish muhim vazifalardan hisoblanadi.

Jumladan, Amir Temur – buyuk sarkarda, adolatparvar hukmdor va jasoratli rahbar sifatida tarixda o‘chmas iz qoldirgan shaxslardan biridir. Uning hayoti va faoliyati faqatgina harbiy g‘alabalar bilan emas, balki davlatchilik, fan, madaniyat va adolatli boshqaruv sohasidagi ulkan yutuqlari bilan ham yoshlar uchun ibrat namunasidir. Uning jasorati, irodasi va aql-zakovati har qanday muammolarni yengishga, katta maqsadlarga erishishga ilhom bag‘ishlaydi. Bugungi kunda ham Amir Temurning g‘oyalari yosh avlodni Vatanga sadoqat, shijoat va mehnatsevarlikka undaydi.

Amir Temur Vatanimiz tarixida – o‘zbek davlatchiligi taraqqiyotiga beqiyos hissa qo‘shgan, yurtning mo‘g‘ullar zulmidan ozod bo‘lishiga bosh bo‘lgan millat qahramoni, temuriylar nomi ostida yigirma yetti mamlakatni o‘z ichiga olgan markazlashgan davlat asoschisidir. Bundan tashqari, Sohibqiron jahon xalqlari tarixida buyuk davlat arbobi, janglarda yengilmagan mashhur sarkarda sifatida e’tirof etilgan yorqin siymo ham [6].

Bolaligidanoq tabiatan og‘ir-bosiq, zehni o‘tkir, shoshilmay fikrlaydigan Temurbek dastavval maktabda saboq oldi, savodini chiqardi, ustozlar nazoratida kamon dastasini ushlash, o‘q uzish, nayza tutish, otlarni saralay

olish, shikorlar uyushtirish, chavandozlik va qilichbozlik sirlarini yaxshilab o‘rgandi. Sharafiddin Ali Yazdiyning yozishicha, Temurbek o‘n ikki yoshida tengqurlari bilan “poshsho-vazir” o‘ynashar ekan. Temurbek podsho bo‘lar, qolganlarning har biriga bir “mansab” berilar, “gunohkor” odamni jazolab, “yurt” boshqarar ekan. O‘n ikki yoshligidayoq yurt boshqarish havosini olishga intilish kuchli bo‘lgan, niyatni katta qilgan [3].

Amir Temur o‘zining ilk harbiy faoliyatini qo‘l ostidagi navkarlari bilan ayrim viloyat amirlariga xizmat qilishdan boshlagan; ularning o‘zaro kurashlarida qatnashib, jasorat ko‘rsatgan, janglarda chiniqqan, harbiy mahoratini oshirgan. Dong‘i butun Qashqadaryo vohasiga yoyilgan.

Sohibqiron Amir Temur Qashqar, Yettisuv, Turkiston va Xorazmning bir qismidan iborat Chig‘atoy ulusining vorisi sifatida maydonga chiqdi va ulus yerlariga to‘liq egalik qilishni o‘zining qonuniy huquqi deb hisobladi. O‘sha paytdagi taomilga ko‘ra, davlatga Chingizxon asos solgan, shuning uchun faqat uning avlodidan bo‘lganlargina xon atalishga loyiq ko‘rilardi. Amir Temur davlat boshiga kelishdan oldin chingiziy Suyurg‘atmishxonni nomigagina xon qilib ko‘tardi, soxta obro‘lar ketidan quvishga ehtiyoji bo‘lmagan Sohibqiron o‘zini xon deb atamadi, chunki u xon avlodidan emas, balki oddiy xalq ichidan chiqqan qahramon edi. Samarqandni Turon saltanatining poytaxti deb belgiladi, 1391-yilda To‘xtamishxon bilan jangga borayotib, Dashti Qipchoqda ulkan toshga xotira satrlarini o‘ydirib yozdirganda, o‘zini “Turon sultoni” deb atadi [5].

Amir Temur – buyuk davlat asoschisi. U Hindiston hamda Xitoydan Qora dengizga qadar, Sirdaryo va Orol dengizidan Fors qo‘ltig‘iga qadar g‘oyat katta hududni qamrab olgan markazlashgan ulkan saltanatga asos soldi. Bundan tashqari Amir Temur davlatiga Kichik Osiyo, Suriya, Misr va shimoli-g‘arbda Quyi Volga, Don buylari; shimoli-sharqda Balxash ko‘li va Ili daryosigacha; janubi-sharqda esa Shimoliy Hindistongacha bulgan mamlakatlar buysundirildi. Amir Temur davlatni aql-zakovat va huquqiy asos bilan idora etgan. Uning “…davlat ishlarining to‘qqiz ulushini kengash, tadbir va mashvarat, qolgan bir ulushini qilich bilan amalga oshirdim”, degan so‘zlari buning yorqin dalilidir [2].

Sohibqironning bunyodkorlik sohasidagi tarixiy xizmatlari beqiyosdir. Tarix bu qo‘hna dunyoda o‘tgan ko‘p jahongirlarni biladi. Ularning aksariyati faqat buzgan. Amir Temurning ulardan farqi shundaki, u umr buyi bunyodkorlik bilan mashg‘ul bulgan. Uning “Qay bir joydan bir g‘isht olsam,

o‘rniga o‘n g‘isht qo‘ydirdim, bir daraxt kestirsam, o‘rniga o‘nta ko‘chat ektirdim” degan so‘zlari buning yorqin isbotidir [2].

Amir Temur, eng avvalo, mustaqil ulkan Turon davlatini tuzgan vatanparvar, buyuk davlat arbobidir, vatanimizni mo‘g‘ul bosqinchilaridan ozod etgan xalq qahramonidir. U mustabidlarga qarshi kurash va mustaqil davlat bunyod etish o‘zining burchi ekanini chuqur anglab yetdi.

Sharqda “odil podsho” tushunchasi qadim-qadimdan mavjud va xalq ana shunday podshoni hamisha orzu qilib kelgan. Sohibqiron Amir Temur ana shunday podsho bo‘lishga intildi. “Kuch – adolatda” so‘zlari Amir Temur uzugiga o‘yib yozilgan va davlat muhrida ham aks etgan edi. “Mamlakat zulm-ga chidashi mumkin, ammo adolatsizlikka chiday olmaydi”, – deb yozgandi Amir Temur o‘z “Tuzuklar”ida [2]. Bu – saltanat shiori. Sohibqiron bunga qattiq amal qilardi. Adolatning kuchi shunchalar yuksak ediki, agar mamlakatda biror odam bir tovoq oltin yo kumushni boshiga qo‘yib, mag‘ribdan mashriqqacha borsa, hech kim unga qo‘l cho‘zmas, oltin yo kumushdan bittasi ham kamaymasdi.

U har qadamda, xoh o‘zining farzandlari bo‘lsin, xoh boshqa fuqaro – barchaga birday adolat ko‘zi bilan qarardi. Safarlardan qaytib kelganda, shaxsan o‘zi bozorni tekshirar, agar qassobu baqqol, novvoylar va hokazolar foyda topaman deb narx-navoni oshirib yuborgan bo‘lsalar, adolat rusumi buzilganini ko‘rsa, el oldida ayovsiz o‘sha gunohkorning jazosini berardi. Yolg‘on gapni yomon ko‘rardi. Adolat tamoyillarini buzgani uchun o‘g‘li amirzoda Mironshoh, nabiralari amirzoda Pirmuhammad, Sulton Husayn Mirzolar jazolanganlari tarix kitoblaridan ma’lum. Muarrix Nizomiddin Shomiy “Zafarnoma”da Amir Temurning 1366-yilda, hali davlat taxtiga chiqmasdan to‘rt yil avval aytgan shunday so‘zlarini keltiradi: “Qaysi bir podshoh o‘z ishini g‘addorlik va bevafolik asosiga qursa, kishilarga ozor berish va halok qilishga oshiqsa, uning davlati chayqalib, qarorsizlikka yuz tutadi... Biz o‘z saltanatimizni odamlarga e’tibor berish va ularni himoya qilish asosiga qurayotganligimiz sababli ularni yupantirib, xotirjam qilamiz...” [4].

Amir Temurning mashhur janglari quyidagilardir:

1391-yil 18-iyun – Kandircha daryosi bo‘yida (Samara viloyati) Oltin O‘rda xoni To‘xtamishxon ustidan qozonilgan g‘alaba. Har ikki tomondan 200 mingdan ortiq askar ishtirok etgan. Bu g‘alaba Turon davlati mustaqilligini yana ham mustahkamladi.

1395-yil 15-aprel – Oltin O‘rta xoni To‘xtamishxonga qarshi ikkinchi jang Terek daryosi bo‘yida yuz berdi. Turon tomonidan 250 ming sipoh qatnashdi. Jang Amir Temurning uzil-kesil g‘alabasi bilan qaror topdi.

1402-yil 20-iyul – Anqara yonida Amir Temur va usmonlilar imperatori Yildirim Boyazid bilan jang bo‘lib o‘tdi. Amir Temur qo‘shini taxminan 200 ming, Yildirim Boyazid lashkari 160 mingdan iborat edi. Turon sultoni Amir Temurning buyuk g‘alabasi bilan yakunlandi [6].

Akademik Yevgeniy Tarlening 1943-yil chop etilgan 17 bobli “Napoleon” kitobining 333-betida shunday ma’lumot keltiriladi: Bonapart o‘z kavaleriyasi marshali Myuratga yuzlanib, “Kimki, Amir Temur o‘z-o‘zicha jang qilgan desa, katta xato qiladi. Jahon tarixida ilk muntazam armiyani, qulay taktika va strategiyani sohibqiron Amir Temur ishlab chiqqan”, deydi [7].

Turkiya Respublikasi asoschisi Mustafo Kamol Otaturk Amir Temur haqida quyidagi fikrlarni bildirgan: “Menimcha, jahonda o‘tgan sarkardalarning eng ulug‘i Amir Temurdir. U hech qachon biror urushni ko‘r-ko‘rona, faqat harbiy omadga ishonib boshlamagan. U har bir harbiy yurishga jiddiy, puxta, aniq hisob-kitob asosida uzoq yillar davomida hozirlik ko‘rgan. Masalan, u Anqara jangida Boyazid ustidan qozongan g‘alabasiga aql bilan erishdi” [8].

Sultoniya usqufi o‘z xotiralari so‘ngida: “Men yaqin vaqtlarda jahon miqyosida iqtidor, boylik va saxovat sohasida Temurga teng keladigan podshoh kelishi mumkin emas deb o‘ylayman”, - deb yozib qoldirgan.

Tarix Temur zimmasiga Oltin O‘rdadek qudratli mo‘g‘ul imperiyasining asosini yemirishdek ulkan vazifani qo‘ygan ekan, Sohibqiron bu vazifani ham buyuk jasorat bilan ado etib, Rus knyazliklari va Sharqiy Ovro‘po xalqlarini mo‘g‘ullar asoratidan xalos bo‘lishlariga yo‘l ochib berdi. Yirik rus olimi A.Yu.Yakubovskiy: “Temurning To‘xtamish ustidan qozongan bu g‘alabasi nafaqat Markaziy Osiyo va Sharqiy Ovro‘po, balki Rusiya uchun ham katta ahamiyatga molik bo‘ldi”, deb yozdi [6].

Shu munosabat bilan quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

1. Maktab va oliy o‘quv yurtlarida Amir Temur hayoti va faoliyati bo‘yicha maxsus darslar tashkil etish – yoshlar uning shaxsiy fazilatlari va davlat boshqaruvidagi yutuqlari haqida chuqurroq bilim olishi uchun.

2. Amir Temur jasorati haqidagi asarlar va filmlar targ‘ibotini kuchaytirish – bu yoshlarning tarixga bo‘lgan qiziqishini oshirishga xizmat qiladi.

3. Yoshlar o‘rtasida ilmiy va ijodiy tanlovlar tashkil etish – Amir Temur merosini o‘rganish va uning g‘oyalarini hayotda qo‘llashga undash.

4. Yoshlarga vatanparvarlik va jasoratni targ‘ib etuvchi tadbirlar o‘tkazish – sport, harbiy-vatanparvarlik musobaqalari va ma’rifiy konferensiyalar tashkil etish.

5. Yoshlar orasida Amir Temurning hayot yo‘li va ta’limotlari haqida ma’ruzalar, davra suhbatlari va seminarlar tashkil etish.

6. Amir Temur va temuriylar davrini o‘rganishga qiziqqan talabalarga maxsus grantlar berish orqali ularni ilmiy faoliyatga jalb qilish.

7. Temuriylar davridagi harbiy san’at va strategiyani o‘rganish uchun maxsus kurslar tashkil etish

8. Amir Temurga bag‘ishlangan interaktiv muzeylar yaratish, zamonaviy texnologiyalar yordamida yoshlar uchun qiziqarli, virtual va interaktiv muzeylar tashkil etish.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: O‘zbekiston, 2017-yil.

2. Amir Temur. Temur tuzuklari. – T.: G‘ofur G‘ulom, 1991-yil. 92-b.

3. Sharafiddin Ali Yazdiy. Zafarnoma. – T.: Kamalak, 1996-yil. 12-15-b.

4. Nizomiddin Shomiy. Zafarnoma. – T.: O‘zbekiston, 1996-yil. 36-bet.

5. Axmedov B. “Sohibqiron Amir Temur” maqolasi. ziyouz.uz/ sayti. 04.04.2017-yil.

6. Muhammad Ali. “Amir Temur solnomasi” maqolasi. temurtuzuklari.uz/.

7. Rahmonov H. “Amir Temur – faxrimiz g‘ururimiz” maqolasi. islomkarimov.uz/ sayti. 08.04.2024.

8. Raximov Sh. Ichki ishlar organlari faoliyatida ma’naviy-ma’rifiy ishlar. O‘quv qo‘llanma.-T., 2024-yil. 85-86-betlar.

YOSHLARNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHDA AMIR TEMUR MEROSINING O‘RNI

Sadriddinova F.M.,

A.Qodiriy nomidagi J.D.PU dotsent

Har bir xalqning taraqqiyoti va kelajagi yosh avlodning ma'naviy-axloqiy tarbiyasiga bog‘liq. Vatanparvarlik ruhi yuqori bo‘lgan yoshlar yurt tinchligi, taraqqiyoti va mustahkamligi yo‘lida fidoyilik ko‘rsatadilar. Shu nuqtayi nazardan, buyuk tarixiy shaxslarning merosini o‘rganish va yosh avlodga yetkazish dolzarb masalalardan biridir. Amir Temur merosi ana shunday bebaho manbalardan bo‘lib, unda davlat boshqaruvi, harbiy strategiya va axloqiy qadriyatlar kabi ko‘plab saboqlar mujassam va yoshlarni

vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda Amir Temur merosining ahamiyati, uning hayoti va faoliyatidan kelib chiqadigan saboqlar, shuningdek, ushbu merosni yoshlar orasida targ‘ib qilishning zamonaviy usullari tahlil qilinadi.

Amir Temur nafaqat buyuk sarkarda, balki dono davlat arbobi sifatida ham tarix sahifalarida muhim o‘rin egallaydi. Uning asosiy hayotiy tamoyillari "Temur tuzuklari"da o‘z ifodasini topgan bo‘lib, unda adolat, sadoqat, intizom va vatanparvarlik kabi tushunchalar asosiy o‘rin tutadi. Temur o‘z harbiy yurishlarida faqat g‘alabaga intilibgina qolmay, balki o‘z davlatini mustahkamlash, xalqining farovonligini ta’minlash, ilm-fan va madaniyatni rivojlantirishga katta e’tibor qaratgan. Aynan shu fazilatlar bugungi yoshlar uchun ibrat maktabi bo‘lishi lozim. Uning jasorati, yurtga sadoqati va milliy manfaatlarni ustuvor qo‘yganligi hozirgi yosh avlodni ham ruhlantirishi shubhasiz.

Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda Amir Temur ta’limoti ahamiyatlidir. Milliy g‘urur va tarixiy xotirani saqlash yoshlar ongida vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirishning asosiy omillaridan biridir. Amir Temur shaxsiy namunasi orqali yoshlarni jasorat, fidoyilik va yurtga sadoqat ruhida tarbiyalash mumkin. Uning jasorati va g‘alabalari nafaqat o‘zbek xalqi, balki butun jahon tarixida o‘chmas iz qoldirgan. Bugungi kunda yoshlar orasida tarixiy xotirani saqlash va milliy qahramonlarga hurmat bilan yondashish muhimdir. Bu jarayonda maktab va oliy ta’lim muassasalarida Amir Temur hayoti va faoliyati haqida darslar o‘tilishi, badiiy va hujjatli filmlar yaratish, yoshlar uchun maxsus tadbirlar tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Amir Temur hayotida harbiy intizom, qat’iyat va strategik tafakkur muhim o‘rin tutgan. Uning yurishlari shuni ko‘rsatadiki, har qanday muvaffaqiyat tinimsiz mehnat, fidoyilik va ona yurtda tinchlikni saqlashga bo‘lgan ishtiyoq bilan bog‘liqdir.

Bugungi kunda yoshlarning harbiy-vatanparvarlik tarbiyasini kuchaytirish maqsadida Amir Temurga bag‘ishlangan tarixiy darslar, musobaqalar va turli harbiy-sport tadbirlarini yo‘lga qo‘yish lozim. Bu nafaqat tarixiy merosni o‘rganishga yordam beradi, balki yoshlarni vatan himoyasiga tayyorlashga ham xizmat qiladi.

Amir Temurning hayoti va faoliyati yoshlar uchun nafaqat vatanparvarlik, balki yetakchilik va fidoyilik darslari hamdir. Uning harbiy yurishlari, diplomatik muhokamalari va davlatni boshqarish uslubi hozirgi yosh avlod uchun ibratdir. Liderlik fazilatlarini shakllantirish uchun yoshlarni tarixiy

shaxslarning hayoti va faoliyati bilan yaqindan tanishtirish, ularning strategik qarorlarini tahlil qilish va zamonaviy yetakchilik qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan maxsus dasturlar ishlab chiqish lozim.

Amir Temur merosini keng targ‘ib qilish uchun quyidagi zamonaviy usullardan foydalanish mumkin:

-Raqamli texnologiyalar va ijtimoiy tarmoqlar: Yoshlar orasida tarixiy ongni rivojlantirish uchun Amir Temur hayoti va faoliyatiga bag‘ishlangan interaktiv platformalar, mobil ilovalar va hujjatli filmlar yaratish.

-Ta’lim tizimi orqali targ‘ib qilish: Maktab va universitetlarda Amir Temur shaxsiyatini o‘rganishga oid maxsus kurslar va seminarlar tashkil etish.

-Madaniy-ma’rifiy tadbirlar: Amir Temur tavallud sanasiga bag‘ishlangan festivallar, ilmiy anjumanlar va turli ko‘rik-tanlovlar tashkil etish. Amir Temur merosi bugungi yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash uchun bebaho manba hisoblanadi. Uning jasorati, davlatni boshqarishdagi donoligi va strategik tafakkuri yosh avlod uchun ibrat maktabi bo‘lib xizmat qilishi lozim.

Bugungi kunda yoshlar orasida milliy g‘urur, vatanparvarlik va fidoyilik tuyg‘ularini mustahkamlash uchun Amir Temur merosini keng targ‘ib qilish, uning hayoti va faoliyatidan saboq olish muhim ahamiyat kasb etadi. Shunday ekan, bu yo‘nalishda ta’lim tizimi, madaniy-ma’rifiy tadbirlar va zamonaviy texnologiyalar orqali samarali ishlarni amalga oshirish dolzarb vazifadir. Vatanparvar yoshlar – millat kelajagi!

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Amir Temur. Temur tuzuklari. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 1992.

2. Axmedov B. Amir Temur: hayoti va faoliyati. – Toshkent: Fan, 2001.

3. Vohidov Sh. Amir Temur va temuriylar davlati. – Toshkent: Sharq, 2005.

4. Jo‘rayev N. Buyuk sarkarda – buyuk davlat arbobi. – Toshkent: Ma’naviyat, 2010.

5. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008.

6. Bartold V.V. Srednyaya Aziya v epokhu Amira Temura. – Moskva: Nauka, 2000.

7. Alizoda N. Amir Temur va uning harbiy strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2015.

AMIR TEMUR SALTANATI VA UNING JAHON TARIXIDA TUTGAN O‘RNI

Saidboyev B.J.
Jamoat xafsizligi universiteti dotsenti,
t.f.b.f.d.(PhD)

XIV asr o‘rtalarida Chingizxon egallab olgan yerlar uning merosxo‘rlari qo‘l ostida bo‘lsa ham, bu yerlar mayda bo‘laklarga bo‘linib ketib, ularda toju-taxt, xokimiyat uchun o‘zaro nizolar kuchayib ketgan edi.

Qozonxon (1336-1347) o‘limidan so‘ng mamlakat hududlari parchalanish, iqtisodiy vayronlik sari yuz tutdi. Amir Qozog‘on (1347-1357) davrida bu jarayon yanada avj oldi.

Amir Qozog‘on fitna tufayli o‘ldirilgach, Chig‘atoy ulusi beklari o‘zlarini mustaqil deb e’lon qildilar: Keshda Hoji Barlos, Xo‘jandda Boyazid jaloyir, Balxda O‘ljoy Bug‘o suldus, Shibirg‘onda Muhammad Xoja Aperdi nayman, Xuttalonda amir Kayxusrov va O‘ljoy Aperdi, Totkand va Saripulda Xizr Yasovuriy, Ko‘histonda Amir Sotilmish hukmronlik qildilar edi.

1348 yilga kelib Yettisuv, Farg‘onaning sharqiy qismi, Sharkiy Turkiston yerlarida Mo‘guliston feodal davlati tashkil topdi, uning xoni etib Chigatoy avlodidan To‘g‘luq Temur ko‘tarildi. To‘g‘luq Temur dastlabki davrlardanok o‘z yerlarini kengaytirish maqsadida Movarounnahr yerlariga ikki marta (1360-1361) harbiy yurish uyushtirdi.

Mana shunday ichki o‘zaro urushlar avj olib, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy inqiroz kuchayib borgan davrda tarix maydoniga mo‘gul boskinchilariga qarshi kurashda nom chiqargan buyuk sohibqiron, mohir sarkarda Amir Temur kirib keldi.

Amir Temurning xokimiyat tepasiga kelishi. Amir Temur 1336 yil 8 aprelda Shahrisabz yaqinida Xo‘ja Ilhor qishlog‘ida (hozirgi Yakkabog‘ tumani hududida) barlos beklaridan Muhammad Tarag‘ay oilasida dunyoga kelgan.

Uning amakisi Xoji Barlos Kesh shahrining hokimi edi. Temur yoshligidanoq harbiy mahoratga ega shaxs bo‘lib, u o‘z atrofiga barlos urugidan chikkan yosh jangchilarni to‘plagan edi.

1360-1361 yillarda To‘g‘luq Temur Movarounnahr yerlariga bostirib kirganida Xoji Barlos Xurosonga qochadi. Vatanparvarlik, milliy gurur va iftixor xissiyoti kuchli bo‘lgan yosh Temur esa amakisi xokimlik qilib turgan yerlarini

dushman qo`liga bermaslik uchun To‘g‘luq Temur xizmatiga kiradi. 25 yashar Amir Temur Kesh viloyati hokimi etib tayinlanadi.

Amir Temurning bu ishi Movarounnahrda siyosiy tarqoqlik, o‘zaro kurashar va boshboshdoqlik xukm surgan davrdagi birdan-bir tug`ri yo`l edi. Chunki Movarounnahr amirlarining To‘g‘luq Temurga qarshi bosh ko‘tarib chiqishi mo‘gul bosqinchilarining Movarounnahr yerlarini yana bir bor vayron etishiga olib kelishi muqarrar edi.

To‘g‘luq Temur 1361 yilda Movarounnahr yerlarini boshqarishni tajribasiz o‘gli Ilyosxo‘jaga topshiradi.

Lekin Temur Ilyosxo‘jaga xizmat qilishdan bosh tortib, o‘sha vaqtda Balx xokimi bo‘lib turgan Amir Qozogonning nabirasi Amir Xusayn bilan ittifoq tuzadi.

Temur o‘z xokimiyatini mustaxkamlash maqsadida mo‘gullarga qarshi kurash boshlaydi. Maxalliy xokimiyat uchun bo‘lgan janglarning birida, aniqrogi Seyistonda turkmanlarga qarshi bo‘lgan janglarda o‘ng qo‘li va o‘ng oyog`idan yaralanib bir umrga oqsoqk bo‘lib qoladi.

1363 yilda To‘g‘luq Temurning vafoti Movarounnahr uchun bo‘lgan kurashlarni kuchaytirib yuboradi. Lekin mo`g`ul bosqinchilari osonlikcha Movarounnahr yerlarini bermasliklari ma’lum edi.

Shu munosabat bilan Amir Temur va To‘g‘luq Temur vafotidan sung Movarounnahrdan xaydalgan Amir Xusaynning birlashgan qo‘shinlari 1365 yilda Ilyosxo‘ja qo‘shinlariga qarshi ittifoqlikka kurash boshlaydilar.

Toshkent va Chinoz oraligida bo‘lgan mashxur «loy jangi» ittifoqchilar o‘rtasidagi kelishmovchilik tufayli mag`lubiyat bilan tugaydi. Mana shunday og‘ir, qaltis vaziyatda nafaqat Samarqand, balki umuman Movarounnahr taqdirida sarbadorlar harakati alohida rol o‘ynadi.

Sarbadorlar harakati dastlab XIV asrning birinchi yarmida Xuroson va Eronda keng tarqalgan bo‘lib, u moxiyat e’tibori bilan mo‘g‘ullar hukmronligini ag‘darib tashlashga qaratilgan edi.

Markazi Sabzavor shahri bo‘lgan Sarbadorlar davlatining (1337—1381) tarixda ma’lum iz qoldirganligi shubhasiz.

Bu kurashning tepasida madrasa tolibi Mavlonozoda, kalava yigiruvchi Abu Bakr, mergan ustasi Xo‘rdak Buxoriy singari sinalgan yo‘lboshchilar turgan. Xalqni oyoqqa turg‘izgan, Ilyosxo‘ja qo‘shinini shaharga yo‘latmasdan unga qaqshatqich zarba berishni uyushtirgan ham shular bo‘ldilar.

Mag‘lubiyatga uchragan mo‘g‘ullar qo‘shini Samarqandni tark etadilar. Sarbadorlar ko‘p sonli quyi tabaqalar manfaatlarini ko‘zlab bir qator muhim tadbirlar o‘tkazishga ham muvaffaq bo‘ldilar. Bular jumlasiga molu-mulklarni cheklash, soliq va majburiyatlarni kamaytirish, kambag‘allarga ma’lum imtiyoz va yengilliklar berishni kiritish mumkin.

Movarounnahrda mo‘gullar ustidan qozonilgan g‘alaba xaqida xabar eshitgach, Amir Temup va Amir Xusayn Movarounnahrga yo`l olib, Samarqand yaqinidagi Konigil degan joyda sarbadorlarning raxbarlari bilan uchrashadilar. Bu uchrashuvda o‘zaro kelishmovchilik kelib chiqib, sarbadorlarning raxbarlari xiyla yuli bilan o`ldiriladi.

Movarounnahrda Samarkand taxtini Amir Xusayn egallab, uning xukmronligi tiklanadi. Shu vaqtdan boshlab Amir Xusayn va Amir Temur o‘rtasidagi munosabatlar yanada keskinlashib ketadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Марсель Брион. Мен ким, Соҳибқирон-Жаҳонгир Темур – Т., “Янги аср авлоди”. 2014. – Б. 21-22.
2. Бобир Бердиев. “Темур тузуклари”да жамият ижтимоий қатламларининг акс этиши. Ижтимоий фикр-инсон ҳуқуқлари. 2013 йил № 3. Б-115.
3. Ҳамдам Содиқов. Амир Темур салнатанида хавфсизлик хизмати. Т.: “ARTFLEX”. -2010йил. Б-9.
4. O‘zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. – T.: “O‘zbekiston” 2012.
5. Sog‘uniy A. Temur tuzuklari. – T.: Yangiyul Poligraph Service,2018y. –
6. 160 b.

MA’NAVIY BARKAMOLLIK TIMSOLI

Sayitxonov A., PhD, katta o‘qituvchi,
Farg‘ona davlat universiteti

Xalqimiz ma’naviyatini yanada yuksaltirishga e’tibor berilayotgan ayni damlarda ma’naviy barkamollik timsollari bo‘lgan ajdodlarimizning qoldirgan boy, ma’naviy meroslaridan bahramand bo‘lish juda muhimdir. Ular duru-gavharlar konlaridan-da a’loroq, noyobroq, bebahoroq va beqiyosroq – konlardir. Temuriylar davri ma’naviyati yurtimiz tarixidagi zarhal harflar bilan bitilgan ulkan xazinadir. Bunday ma’naviy meroslarni o‘rganish, ularning mislsiz ma’nolaridan ma’naviy ozuqa olish, yosh avlodni ham bunday ma’naviy ozuqalardan bahramand etib borish va shu yo‘l orqali xalq, millat, Vatan,

jamiyat taraqqiyotiga hissa qo‘shish – biz avlodlarning muqaddas burchlarimizdandir.

Zamondosh tarixchilar sohibqiron Temurning eng xarakterli xususiyatlari - davlat, mamlakat va fuqaroning g‘amxo‘ri bo‘lganligi edi deb e'tirof etishadi, jahongirlik qoidasi esa haqiqat sihat-salomatlik, haqiqat-tartib, haqiqat-adolat deb tushinilgan. Buyuk bobokalonimiz har doim “insonparvarlik va mardlikni Alloh ham, xalq ham ulug‘laydi”, degan hikmatli so‘zlarni takrorlashni xush ko‘rgan va o‘z hayoti davomida bunga qat’iy amal qilganlar. Dastavval shuni aytish kerakki, Amir Temur, odob-axloq, iymon-etiqod, ta’lim-tarbiya sohasida o‘zi yuksaklikka, mukammallikka erishgan siymolardan biridir. Bunga ishoch hosil qilish uchun uning o‘zi tomonidan yaratilgan odob-axloqqa oid qoidalar, o‘gitlar, pand-nasihatlarni, shuningdek, Sohibqiron haqidagi tarixiy asarlarni ko‘zdan kechirish kifoya.

Sohibqiron Amir Temurning: “Har neki degan bo‘lsam unga amal qildim”, - degan so‘zlarida uning komil inson ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Amir Temur bobomiz hayoti, faoliyati va saltanatida nimaiki yaxshilikka erishgan bo‘lsa, faqat va faqat xulqidagi mana shu oliyjanob fazilati tufayligina erishdi. SHuning orqasidangina qo‘shin va xalqning hurmatini qozonib, ularni o‘z ortidan ergashtira oldi.

Amir Temurning ma’naviy salohiyati davlatni idora qilish, uning ichki va tashqi siyosatini belgilash bilan izohlanadi. Movarounnahrning qadimiy iqtisodiy, madaniy shuhratini tiklash yillarida uning ma’naviy salohiyati yanada kamol topdi va ijtimoiy hayotda to‘laligicha namoyon bo‘ldi. Shuning uchun ham mamlakat ijtimoiy hayotining barcha tomonlari, davlat idora tizimi, iqtisodiy, moliyaviy, dehqonchilik, hunarmandchilik, savdo, madaniyat, fan, me’morchilik, harbiy masalalar, xalqaro aloqalar, islom dini, shariat va boshqa sohalar maqsadga muvofiq rivojlandi.

Buyuk davlat arbobi va yuksak ma’rifat sohibi Amir Temur ibn Tarag‘ay Muhammad Bahodir mohir sarkarda, odil podsho, eng asosiysi, ma’rifatparvarligi bilan nafaqat Markaziy Osiyo xalqlari tarixida, balki jahon tarixida salmoqli o‘rin egallagan. Temuriylar sulolasining XIV-XV asrlardagi hukmronligi jahon tarixida alohida o‘chmas iz qoldirdi. O‘tgan olti yuz yil mobaynida Amir Temurga bag‘ishlab Yevropada 500 dan ziyod, Sharq tillarida esa 900 ga yaqin asarlar yaritlgan. Tarixda birorta davlat boshlig‘i yoki sarkardaga bag‘ishlab bunchalik ko‘p asarlar bitilmagan.

Amir Temur o‘z davlati dunyoga yuz tutishi uchun dastavval harbiy va davlatchilik sohasida chuqur bilim va tajribaga asoslangan muhim islohotlarni amalga oshirishga erishdi, o‘z zamonasiga nisbatan, qolaversa, kelgusi avlodga dasturilamal bo‘la oladigan davlat boshqaruv tizimini yaratdi. Buning natijasida Markaziy Osiyoda bir yarim asr hukmronlik qilgan mo‘g‘ullarning beboshligi natijasida bosqinchilik, zo‘ravonlik, adolatsizlik va vayronagarchilik hukm surgan feodal tarqoqlikka barham berildi. Xalq iqtisodiy, madaniy, ma’rifiy turg‘unlik girdobidan olib chiqildi. Uning buyuk ishlari va salobatli davlati o‘z davrida ham Sharq, ham G‘arb davlatlarida tan olindi.

Sohibqiron ma’naviyatining yana bir qirrasi shundaki, u o‘z faoliyatini axloqiy tamoyillar negiziga asoslanib “rosti-rasti” qoidasiga rioya etib olib bordi. Ya’ni bu davrda “Kuch adolatdadir” degan axloqiy qoida davlatni idora qilish jarayonida, ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish va fuqarolarning farovonligini ta’minlashda asosiy o‘rinni egalladi. O‘z davrining buyuk shaxslaridan bo‘lmish pirlari Abu Bakr Tayibodiy pand-nasihatlariga rioya qilgan holda, saltanat ishlarida shariat qonun qoidalariga qattiq amal qildi. Bu pand-nasihatlar quyidagilirdan iborat edi: birinchidan, har bir ishni amalga oshirishdan oldin kengashib olish maqsadga muvofiqdir; ikkinchidan, hukmdorning har bir masalani chidam, sabr-toqat va mulohaza bilan hal qilishi saltanat manfaati uchun foydalidir; uchinchidan, jismoniy va aqliy yetuklik har bir hukmdorning muhim sifatidir. Shuni ta’kidlash kerakki, Temurning ma’naviy axloqiy fazilatlari uning davlat arbobi sifatidagi mas’uliyati va dasturini belgilashda asos bo‘lib xizmat qiladi. Uning fikricha, saltanatni o‘z erkida saqlaydigan davlat arbobi mustaqillik bilan taxtga o‘tirmog‘i, har narsada adolatpesha bo‘lmog‘i, qoshida insofli, adolatli vazirlar saqlamog‘i kerak.

Amir Temur o‘zi barpo etgan buyuk davlatni milliy va axloqiy qadriyatlariga tayanib idora qildi. Bu esa jamiyatni adolat, insonparvarlik mezonlari asosida boshqarishga, mamlakatda osoyishtalik, tinchlik, totuvlik saqlanib turishiga olib keldi. Temur o‘z qo‘li ostidagi rahbarlardan, sarkardalardan ham axloqli, odobli, ayniqsa, adolatli bo‘lishni talab qildi. U o‘zining “Tuzuk”larida rahbarlarning axloqli, adolatli bo‘lishi jamiyat, davlat va millat uchun qanday katta ahamiyatga ega ekanini ko‘rsatib berdi.

Amir Temur buyuk davlat arbobi va yuksak ma’naviyatga ega bo‘lgan dono xukmdor bo‘lib, ham siyosiy ham ma’naviy jihatdan juda katta tarixiy ahamiyatga egadir. Bular:

1. Amir Temur XIV asrdayoq mamlakat va mintaqalararo munosabatlarni chuqurlashtirib iqtisodiy makonga birlashtirishga harakat qildi. Integraцiyani ishlab chiqib Buyuk ipak yo‘li o‘tgan mamlakatlar o‘rtasida madaniyatlar muloqotini boshlab berdi.

2. Amir Temur davlat tizimi va boshqaruvni tashkil etishda o‘ziga xos maktab yaratdi, adolatli jamiyat qaror toptirishda qonun ustivorligiga rioya qildi.

3. Amir Temur davlatchilik tamoyillarini rivojlantirdi, uni aql-idrok salohiyatiga, taktik va strategik asosida shakllantirdi.

4. Amir Temur sadtanati ma’naviyat va oliy darajadagi madaniyatga yo‘ғirilgan saltanat edi...

Sohibqiron piru komil shayx Bahovuddin Naqshbandiyning: “Kam egin, kam uxla, kam gapir”, - degan pandu nasihatlariga amal qilgan. Shuningdek, Amir Temur ham arkonu davlatga, barcha mulozimlarga: “Kam yenglar – ocharchilik ko‘rmasdan boy-badavlat yashaysizlar, kam uxlanglar – mukammallikka erishasizlar, kam gapiringlar – dono bo‘lasizlar”, - deya nasihat qildi.

Piru komillarning ma’naviy yuksaklik darajalarni bizlar tasavvur qila olmaymiz. Faqat o‘qib bilganimizki, qalbni poklash borasida ular Alloh muhabbatini qozongan kishilardir.

Amir Temur hayotlik davridayoq uning harbiy san‘ati va davlat boshqarish uslubiga bag‘ishlangan maxsus asar yaratilib, u “Temur tuzuklari” nomi ostida nom qozondi. Ushbu asar Temur bobomizning o‘zlari yozib qoldirgan asar hisoblanadi. Asarda davlatni qanday boshqarish, mansabga kimni tayinlash, sipohlarning ish haqlari, mansabdor shaxslarning etiborga molik xizmatlarini yuksak darajada baholash va boshqa qonun qoidalar bayon etiladi. Amir Temur eron, arab, turk kabi xalqlarning tilini bilgan. Ushbu bilimlari orqali jahonda o‘zining tengsiz izini qoldirgan. Ko‘plab bilimlarni egallagan. Davlat boshqaruvida o‘zing etiborga loyiq ishlarni amalga oshirgan. Amir Temur hayotligi chog‘ida saltanatni asosan to‘rt qismga bo‘lib, o‘g‘il, nabiralariga taqsimlab bergan: Xuroson, Jurjon, Mazondaron va Seyiston Shohruxga, G‘arbiy Eron, Ozarbayjon, Iroq va Armoniston Mironshohga, Fors, ya’ni Eronning janubiy qismi Umarshayxga, Afg‘oniston va Shimoliy Hindiston Pirmuhammadga suyurg‘ol qilib berilgan. Temur bobomizning saltanati o‘ziga xos qoidalarga asoslangan holda boshqarilgan. Buyuk sarkarda Amir Temur bobomiz o‘zining yuksak idroki bilan saltanatni boshqargan. Bobobim yaratgan

saltanat Xuroson va Movarounnahrda XVI asrda bo‘lib, Shayboniyxon tomonidan tugatilgan. Temur bobomizning piri imom Sayyid Barakani edi. Piri Sayyid Baraka bobomizning qilich bilan nimaniki qo‘lga kiritgan bo‘lsa, shularga ibodat va fatvo berib, o‘zing duolarida mustahkamlagan.

Biz – vorislar, ma’naviy barkamollik timsollari bo‘lgan buyuk ajdodlarimizning qoldirgan boy ma’naviy meroslari, noyob pand-nasihatlarini chuqur o‘rganish, shuningdek, yosh avlodga o‘rgatish ham faxr, ham sharafli burch deb o‘ylaymiz.

AMIR TEMUR O‘GITLARINING TARBIYAVIY AXAMIYATI

Sodiqov H.M.,
Termiz iqtisodiyot va serviz universiteti dotsenti.
Sodiqova D.R.,
Jizzax davlat pedagogika universiteti Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Tarixdan bizlarga ma’lumki Amir Temur hukmronligi davrida o‘rnatilgan tinchlik mamlakatda madaniyat, ilm-fan, xalq og‘zaki ijodi, adabiyot va san’atning rivojida, madrasalarda ta’lim-tarbiyaning yuqori saviyada bo‘lishida muhim omil bo‘ldi. Amir Temur davlat qurilishi, harbiy san’ati ko‘p asrlar davomida nafaqat Sharqda balki G‘arb davlatlariga ham o‘rnak va andoza bo‘lgan. Uning zamonida madaniyat, ilmu fan, me’morchilik, tasviriy san’at, she’riyat va musiqa rivoj topgan. Sohibqironning madaniyat va din ahllariga ko‘rsatgan cheksiz mehr muruvvati ayniqsa diqqatga sazovordir.

Amir Temur odob-axloq, iymon, e’tiqod, ta’lim-tarbiya sohasida o‘zi yuksaklikka, mukammallikka erishgan siymolardan diridir. Insof-iymon tuyg‘usi, diyonat mezoni Amir Temur hayotining mazmunini tashkil etgan. U kuch-qudrat zo‘rlik, zo‘ravonlikda emas, balki adolatda ekanligini yaxshi anglagan. Amir Temur zamonida siyosiy, iqtisodiy va madaniy sohalarda amalga oshirilgan bir qancha ishlar, uning faoliyati va fazilatlari insonniylik, ma’rifatparvarlik, tarbiyaviy xususiyatga ega bo‘lgan. Buni biz Amir Temurning o‘g‘itlari misolida ham ko‘rib o‘tishimiz mumkin. Bu o‘gitlar Sohibqironning juda mashaqqatli va sertashvish umrining ijodiy mevasidir. Bu o‘gitlar xalqning bir maqsad sari birlashtirgan, jipslashtirgan, muvaffaqiyatlarga

erishtirgan, sehrli tarbiyaviy kuchdir. O‘gitlarda Amir Temurning davlatni boshqarish va uni idora qilish, g‘olibona harbiy yurishlar qilish, mamlakatda osoyishtalik o‘rnatish, fan va madaniyatni rivojlantirish, xalqlar o‘rtasida buzilmas do‘stlik, mehr-shafqat, odamiylik va axloq-odobni tarbiyalash kabi muammolarni hal qilishga bag‘ishlangandir.

Amir Temur davlatni boshqarishda odamlarning ishbilarmon, tadbirkor, hushyor, qat’iy, shijoatli bo‘lishiga jiddiy e’tibor qaratgan. Bunday fazilatga ega bo‘lganlarni loqayd kishilardan yuqori qo‘ygan. Bu haqida u quyidagilarni aytib o‘tkan: “Ishbilarmon, mardlik va shijoat sohibi, azmi qat’iy, tadbirkor va hushyor bir kishi, ming-minglab tadbirsiz, loqayd kishidan yaxshidir”[1].

Sohibqironning axloqiy sifatlar haqidagi qarashlari ham o‘z axamiyatiga ega. U shijoatlilikni yuqori baholaydi va kishilarni, yoshlarni shijoatli bo‘lishga, shijoatlilar bilan do‘st bo‘lishga undaydi. “Shijoatli kishilarni do‘st tut, chunki Tangri taolo jasur kishilarni ardoqlaydi”-deydi Amir Temur[2].

U yaxshilik haqida ham fikr bildirib, yaxshilikka yaxshilik bilan javob berishni, do‘stlik qadrini unutmaslikni maslahat beradi. O‘z faoliyatida shu sohada tutgan yo‘lini misol qilib ko‘rsatadi:”Yaxshilarga yaxshilik qildim, yomonlarni esa o‘z yomonliklariga topshirdim. Kim menga do‘stlik qilgan bo‘lsa, do‘stligini qadrini unutmadim va unga muruvvat, ehson, izzat-ikrom ko‘rsatdim”[1].

Amir Temurning tarbiyaviy qarashlarida sodiq va vafodor do‘stlik alohida o‘rin tutgan. U do‘stlarni ranjitmaslik, kerak bo‘lsa jonnini ayamaslik, bu do‘stlikka xos sifatlardan biri ekanligini ta’kidlab o‘tadi:”Sodiq va vafodor do‘st ulkim, o‘z do‘stidan ranjimaydi, do‘stining dushmanini o‘z dushmani deb biladiyu Agar kerak bo‘lsa, do‘sti uchun jonini ham ayamaydi”[1]. “Farzandlar, qarindoshlar, oshna-og‘ayni, qo‘shinlar va men bilan bir vaqtlar do‘stlik qilgan barcha odamlarni davlatu ne’mat martabasiga erishganimda ununmadim, haqlarini ado etdim. Do‘st-dushmandan kimki menga iltijo qilib kelgudek bo‘lsa, do‘stlarga shunday muoala qildimki, do‘stligi yana ortdi, dushmanlarga esa shunday munosabatda bo‘ldimki, ularning dushmanligi do‘stlikka aylandi”. Amir Temur o‘z faoliyatida buyuk mutafakkirlarning do‘st haqidagi ta’limotlariga qat’iy amal qilgan va do‘st va dushman bilan muomilada bir tekis yo‘l tutgan.

Buyuk jaxongir adolatni qudratli kuch deb bilgan va bir kunlik adolatni yuz kunlik toat-ibodatdan afzal hisoblaydi. “Har qaysi mamlakaida adolat eshigini ochdim, zulmu sitam yo‘lini to‘sdim”[1] deya ta’kidlaydi.

U hayot sirlarini, insonlar ruhiyatini yaxshi tushunganligi bois – shirin so‘zlab o‘z faoliyatida jiddiy muvaffaqiyatlarga erishgan, shirin so‘zlik bilan hatto dushmanni o‘ziga rom etgan. “Bir kalima shirin so‘z qilinchni qinga kiritar” deb kishilarni shirin so‘zli bo‘lishga undagan[1]. Amir Temur hech kimga g‘azab bilan qattiq muomala qilmagan. Temur tuzuklarida “g‘azab va qattiqqo‘llik bilan qilingan muomalani tangri taolaning g‘azabiga duchor bo‘lish, o‘z holini tang qilishdir”, deb yozgan. Shuning uchun har doim shirin so‘z bo‘lishga xarakat qilgan.

Kechirimli bo‘lish Amir Temur shaxsiga xos eng yaxshi xususiyatlardan biri bo‘lgan. U kechira olishni mardlik deb bilgan. Shu sababli u boshqalarni ham shunday fazilatli bo‘lishga chaqirgan. Sarkarda kechira olishlik – mardlik, kechira bilmaslik nomardlik deb sanagan. U “Insonparvarlik va mardlikni Alloh ham, xalq ham ulug‘laydi”[2], degan hikmatli so‘zni takrorlashni xush ko‘rgan va o‘zlari shunga amal qilgan.

Amir Temur jismoniy tarbiyaga ham katta e’tibor bergan. Sharqda dilovarlik tarbiyasi, ya’ni yoshlarda mardlik, jasurlikni tarbiyalash asosiy masalalardan sanalgan[3]. Yigitlar bolalikdan merganlik, chavandozlik, suvdv suzish, ovchilik, qilichbozlik, shaxmat o‘yini kabilarni mohir murabbiylardan o‘rganib, bu borada mashq qilar edilar. Amir Temurning o‘zi kuchli lashkarboshi sifatida harbiy ilmning “Ming askar” uslubi asoschilaridan biri bo‘lgan.

Xulosa qilib aytsak, sohibqiron Amir Temurning ibratli, hayotiy pand-nasihatlari va o‘gitlarining har bir mazmuni va ma’nosining kengligi, mantiqning kuchliligi, teranligi, ta’siri, umuminsoniy qadriyatlar asosiga qurilganligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Hozirgi kunda yoshlar tarbiyasida bu o‘git va nasihatlardan keng foydalanib, ularni hadsiz xazina, odob-axloqqa oid dastur deya olishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Temur tuzuklari. G‘.G‘ulom nomidagi nashiriyot-manbaa. T.,1991
2. A.Ahmedov. Amir Temur haqida haqiqat. “Kamalak”, T., 1992

K.Hoshimov va b. Pedagogika tarixi. “O‘qituvchi”, T., 2003

AMIR TEMURNING ILM-FAN VA MA’RIFAT HAQIDAGI QARASHLARI

Sodiqova D.R.,
Jizzax davlat pedagogika universiteti dotsenti,
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Sodiqov H.M.,
Termiz iqtisodiyot va serviz universiteti dotsenti.

Mashhur o‘zbek taraqqiyparvari, jadidchilik harakatining yirik namoyondasi Abdurauf Fitrat 1917-yilda tarixdan saboq chiqarish to‘g‘risida shunday yozgan edi: “Tarix millatlarning o‘tmishini, taraqqiyotini hamda tanazzulining sabablarini o‘rganaturg‘on ilmdir”[5]. Darhaqiqat, tarix xalqqa saboq va ma’rifat beradi. Tarixni o‘rganmasdan turib kelajakni anglab bo‘lmaydi. Tarix inson aql-idroki va tafakkurining shunday bir nodir va mo‘jizakor mahsulidir, inson o‘tmishdan ta’lim-tarbiya oladi, o‘tmish katta saboq beradi. O‘tmish saboqlaridan o‘ziga tegishli xulosa chiqara olmagan, kechagi kunini yaxshi bilmagan millatning kelgusi qismati o‘z-o‘zidan ravshandir.

Mustaqillik bizga in’om etgan eng ulug‘ ne’matlardan biri – bu, xalqimizning o‘zligini bilish, o‘z tarixini emin-erkin o‘rganish huquqi bo‘ldi. Qadriyatlarimizni tiklash, merosimizga xolis munosabatni qaror toptirish, aziz allomalar nomini sharaflash, ularga bugungi avlodning yuksak hurmat-e’tiborini bajo keltirish istiqlol yillarida amalga oshirilgan ulkan ishlardan biridir. Kelajak avlodni ulug‘ ajdodlarimizning nomi va merosi bilan faxirlanishga o‘rgatish, ularni anashu buyuk an’analarga munosib davomchilar qilib tarbiyalash, milliy g‘ururini yuksaltirish bugungi kunning dolzarb mavzularidan hisoblanadi. Xuddi shunday biz faxtlanib yuradigan insonlardan biri buyuk Sohibqiron Amir Temur hazratlarining tabarruk nomi, hayoti va mislsiz jasoratlarga to‘la faoliyati xalqimiz ma’naviy dunyosining ajralmas qismiga aylanib ulgurgani bunga yaqqol misoldir.

Buyuk davlat arbobi va yuksak ma’rifat sohibi Amir Temur ibn Tarag‘ay Muhammad Bahodir mohir sarkarda, odil podsho, eng asosiysi, ma’rifatparvarligi bilan nafaqat Markaziy Osiyo xalqlari tarixida, balki jahon tarixida salmoqli o‘rin egallagan. Temuriylar sulolasining XIV-XV asrlardagi hukmronligi jahon tarixida alohida o‘chmas iz qoldirdi. Temuriylar hukmronligi davrida ta’lim-tarbiya, madaniyat va ma’naviyat rivojiga katta hissa qo‘shildi. Fan va adabiyot rivojlandi va gullab-yashnadi. Amir Temur din arboblarini, olimlarni, ilmni va ilm ahlini hurmatlovchi shaxs bo‘lgan. Bu

borasida tarixchi Ibn Arabshohning ma’lumot berishicha: “Temur olimlarga mehribon bo‘lib, sayyidu shariflarni o‘ziga yaqin tutardi. Ulamo va fozillarga to‘la-to‘kis izzat ko‘rsatib, ularni har qanday kimsadan batamom muqaddam ko‘rardi”[4]. “Temur tuzuklari”da ulamo va fuzalolar hurmatga muvofiq insonlar sifatida jamiyat ijtimoiy tarkibining o‘n ikki toifasi vakillari qatoriga kiritilgan. Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, har qanday jamiyat taraqqiyotini ilm-ma’rifatsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Buni teran anglagan Sohibqiron hokimiyatga kelishi bilan chiqargan dastlabki farmonlarini madrasalar barpo etishga kirishgan. Sohibqiron qaysi mamlakatni zabt etgan yoki qo‘shib olgan bo‘lsa, o‘sha yerdagi olimlar, sayyidlar, mashoyixlar va ulamo-yu fuzalo hurmatini joyiga qo‘yib ularga lavozimlar berib, maosh belgilagan. Temur zabt etilgan mamlakatlardan olimu fuzalolarni, elga tanilgan ilohiyotchilarni, san’at namoyondalari, kasb-hunar egalarini Samarqandga o‘zi bilan birga olib kelishga harakat qilgan. Hofizu Abru o‘zining “Zubdat at-tavorixi Boysung‘uriy” asarida Amir Temurning ilm-fanga munosabati haqida ba’zi ma’lumotlarni beradi. “…Uning namunali ishlaridan biri ul erdikim, sayyidlar, olimlar, din peshvolari va solihlarning izzat-hurmat qilish shart deb sanardi… Ularga yaxshi g‘amxo‘rlik qilib katta nafaqa, alohida maosh, yashashi uchun barcha zarur narsalar ajratib, nazorat qilib, e’tibor qaratib turardi, yig‘inlarda ularni hamma izzat hurmat qilishi kerak[1]”, – deb bilardi. Sohibqironning olimlarga qay darajada munosabatda bo‘lganini “Temur tuzuklari”da keltirilgan ma’lumotlardan ham bilsa bo‘ladi: “Sayyidlar, ulamo-yu mashoyixlar, oqil-u donolar, muxaddislar, xabarchilar (tarixchilar)ni tanlangan, e’tiborli odamlar hisoblab, izzat-u hurmatlarini joyiga qo‘ydim. Shijoatli kishilarni do‘st tutardim, chunki Tangri Taolo jasur kishilarni ardoqlaydi[3]”.

Sohibqiron Amir Temur tasviriy va musiqa san’atining ravnaqiga ham homiylik qilib, bu sohalar ham turfa yo‘nalishlari bo‘yicha mislsiz darajada yuksaladi. U o‘z davrining yirik me’morchilik obidalarining asosiy ijodkori bo‘lib, devoriy rasmlarni tikladi. Ibn Arabshoh, Sharafiddin Ali Yazdiy, Z.M.Bobur o‘z risolalarida Samarqanddagi Bog‘i Shamol, Bog‘i Dilkusho va Hirot saroyining hashamatli devoriy rasm – bezaklari haqida so‘z yuritganlar. Sohibqiron davridan Samarqanddagi uchta – Shirinbeka og‘a, Bibixonim va Tuman og‘a maqbaralaridagi tasvirlar bizgacha yetib kelgan[2]. Ularda naqqoshlik va xattotlik san’ati namunalari bilan bir qatorda tasviriy lavhalar ham mavjuddir. Shirinbeka og‘a maqbarasida ko‘p rangli surat bo‘lsa, qolgan ikki bino devorlarida faqatgina oq va moviy ranglardan foydalanilgan.

Sohibqiron davrida tasviriy san’at bilan bir qatorda musiqa san’ati va ilmi ham jadal ravnaq topdi, kamolot cho‘qqisiga erishdi, chinakam uyg‘onish davri bo‘ldi deyish mumkin. Xonanda va sozandalar rasmiy diplomatik, harbiy va boshqa tantanalarning doimiy qatnashchilariga aylangan. Xalq tomoshalari, ommaviy bayramlar ularsiz o‘tmagan. Bu esa, o‘z navbatida, musiqaning boshqa san’atkorlar qatoridan muhim o‘rin egallashini ta’minladi. Manbalarda keltirilishicha, o‘zbek xalqi musiqasi qatori harbiy rasmiy musiqa turlari, mumtoz maqom san’ati, mintaqaning boshqa turkiy hamda arabzabon, forsiyzabon xalqlarning musiqaviy folklori rivoj topdi. Eng muhimi, musiqiy anjomlar jasorat va mardlik timsollariga aylandi. “Amr qildimki, – deb yozadi Amir Temur o‘z “Tuzuklar”ida, – qaysi bir amir biron mamlakatni fath etsa, yo g‘anim lashkarini yengsa, uni uch narsa bilan mumtoz qilsinlar: faxrli kitob, tug‘ va nog‘ora berib, uni bahodir deb atasinlar[3]”

Olimlar Amir Temurni ilm-fanga e‘tiborini alohida ta’kidlaydilar. Jumladan tarixchi Abdurazzoq Samarqandiy uni “Davlat va dinning qutbi, hazrat sohibqiron Amir Ko‘ragon” deb ta’riflagan[4]. Amir Temur turk, arab va eronliklar tarixini chuqur bilgan. U tibbiyot, riyoziyot, falakiyot, tarix, adabiyot, tilshunoslik ilmi namoyandalari, shuningdek, ilohiyot va din sohasidagi mashhur ulamolar bilan muzokaralar o‘tkazgan. Amir Temur saroyida ulamolardan mavlono Abdujabbor Xorazmiy, mavlono Shamsuddin Munshiy, mavlono Abdullo Lison, mavlono Bahruddin Ahmad, mavlono Nu’monuddin Xorazmiy, Xo‘ja Afzal, mavlono Alouddin Koshiy, Jalol Hokiy va boshqalar xizmat qilardi. Amir Temur davlat poytaxtiga musulmon olamining eng mashhur va bilimdon olimu-ulamolarini to‘plashga intilgan. Ularni har tomonlama ijtimoiy jihatdan himoya qilgan, davlatni boshqarishda olimlarning maslahatlariga tayangan va ulardan foydalangan. Amir Temur o‘z davrida eng boy bo‘lgan kutubxona tashkil qildirgan. Bu kutubxonaga qadimgi yunon-rim olimlari, arab dunyosi, O‘rta Osiyo Uyg‘onish davri buyuk olim va mutafakkirlarining asarlari to‘plangan va yangi ilmiy kashfiyotlarni amalga oshirishga qulay sharoitlar yaratilgan. Ulug‘bek akademiyasi ham Amir Temur tomonidan ilm-fan sohasiga qo‘yilgan poydevorning mahsulidir.

Xulosa o‘rnida shuni aytish kerakki, Amir Temur barpo etgan mustaqil markazlashgan davlatda u qo‘llagan siyosat o‘lkada ilm-fan, san’at, adabiyot, hunarmandchilik va yoshlar tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1..Ahmedov B. Amir Temur darslari. – T.: Sharq, 2000.

2.Sharafuddin Ali Yazdiy. “Zafarnoma”. Toshkent, 1997.

3. Temur tuzuklari. Toshkent, 1991.

4. Temur va Ulug‘bek davri tarixi. Toshkent, 1996.

5. Hoshimov K, Nishonov S. Pedagogika tarixi. “O‘qituvchi”, Toshkent, 2005.

AMIR TEMUR STRATEGIYASI VA HARBIY TAKTIKASI

Tolipov A.A.,
Jamoat xavfsizligi universiteti kafedra boshlig‘i,
sots.f.b.f.d. (PhD), dotsent.

Ma’lumki, XIX asr dunyoni bo‘lib olish siyosatida Rossiya va Angliya O‘rta Osiyoga muhim ko‘prik sifatida qaragan. Chunki mintaqa yer osti va yer usti boyliklari bilan mustamlakachilar e’tiborini tortsa, o‘z navbatida bu hudud orqali Hindistonga yo‘l ochilardi.

Shu maqsadda ingliz va rus josuslari bosqindan ilgari o‘lkani har tomonlama chuqur o‘rganib chiqishadi. Shunday ekspeditsiya ishtirokchilaridan biri Mixail Ivanin edi.

Bosqinchilar O‘rta Osiyoni hech bir talafotsiz egallashni ko‘zlagani holda Xivada qattiq qarshilikka duch kelib, ortga qaytishga majbur bo‘lishadi. Ruslar bu yerda qudratli texnikalarni ko‘rmagan bo‘lsa-da, katta harbiy tajriba, jang strategiyasi va taktikasini ko‘rishadi. Albatta, bu strategiya Amir Temur zamonlariga borib taqalishini ham bilib olishadi.

Xivada sog‘lig‘iga jiddiy putur yetgan Ivanin o‘z mamlakati poytaxtiga borib, O‘rta Osiyo xalqlari tarixi va harbiy san’ati haqida ko‘plab ma’lumotlar to‘playdi hamda ularni “Ikki buyuk sarkarda” asarida jamlaydi.

Asarda Amir Temur shaxsi va faoliyati, harbiy san’ati, jahon tarixida tutgan o‘rni, o‘sha davrdagi tarixiy voqealar bayoni keltiriladi. Ammo asar tub mohiyatiga ko‘ra qanday qilib O‘rta Osiyoni bosib olish va boshqarish mumkinligiga qaratilgan. Amir Temurning harbiy san’ati keyinchalik bolsheviklar tomonidan ham jiddiy o‘rganilib, “Qizil komissarlar” kurslarida o‘qitilgan. Shu kurslarda tahsil olgan Frunze va Gaydar kabi rus sarkardalari Sohibqironga azbaroyi hurmati sabab to‘ng‘ich o‘g‘illariga Temur deb ism qo‘yishgan.

Rus generali tadqiqotida qayd etilganidek, Amir Temur Movarounnahr zaminidan mo‘g‘ul bosqinchilarini quvarkan, taktik harakatlardan unumli foydalangan. Masalan, Ilyosxo‘ja Sirdaryo orqasiga chekinishga majbur bo‘lgach, uning tarafdorlari Movarounnahrda joylashgan qal’alarda qolib ketadi. Temur esa ularning har biri bilan urushib, ortiqcha vaqt va kuch sarflash o‘rniga Ilyosxo‘ja nomidan qal’alar boshliqlariga bu yerlarni bo‘shatib qo‘yish haqida farmoyish yozib, berib yuboradi. Shu bilan birga, qal’adagilar juda katta lashkar kelayapti, deb ishonishlari uchun choparlar ortidan borayotgan otliqlarga chang-to‘zon ko‘tarib harakatlanishni buyuradi. Bu ishlar asosan tunda bajariladi va kutilgan natijaga erishiladi, ya’ni hamma qal’a yovdan tozalanadi.

“Taqdirning shunday sinovlari va bevafoliklari Amir Temurni odamlarni to‘g‘ri tanlashga, ularni qadr-qiymatiga yarasha taqdirlashga o‘rgatdi, - deb yozadi Ivanin. – Uning farzandlari va urug‘lariga vasiyatnoma sifatida qoldirib ketgan urush va siyosat haqidagi qoidalari (tuzuklari), ehtimol, cho‘llarda darbadarlikda yurgan paytlarida yozilgandir?”

Temur o‘z hokimiyatini mustahkamlash maqsadida avvalo qo‘shinlar sonini oshirish va ularni tartibga solishga ahamiyat bergan. O‘ziga sadoqat bilan xizmat qilgan, vafodor, yaxshi sarkarda uchun kerakli xususiyatlarga ega, harbiy san’atni biluvchi, janglarda sinalgan 313 kishini tanlab olgan. Ularning 100 nafarini o‘nboshi, 100 nafarini yuzboshi va yana yuzovini mingboshi etib tayinlab, qolgan 13 sarkardaga yuqori lavozimlarni topshirgan. O‘z navbatida ana shu saralangan jangchilar Amir Temur qo‘shinida intizom va harbiy tartib o‘rnatilishiga katta hissa qo‘shishadi.

Amir Temur qo‘shinlari piyoda va otliq askarlardan tashkil topgan, biroq piyodalar ham uzoq cho‘l safarlarida otlar bilan ta’minlanar, otliq askarlarning katta qismi esa piyoda jang qilishga ham o‘rgatilgan edi. Otliq askarlar o‘z o‘rnida oddiy va saralangan jangchilarga bo‘linib, yengil va og‘ir otliq qo‘shinini tashkil etgan. Bundan tashqari, Temurning xos navkarlari ham bo‘lgan. Asosiy qo‘shin turlaridan tashqari quyidagilar ham bo‘lgan:

1) pontonchilar (ko‘chma ko‘priklar qurish bilan shug‘ullanuvchilar) va kemachilar;

2) naftandozlar (olov irg‘ituvchilar);

3) qamal qilish texnikalari va tosh otuvchi qurollar bilan ishlashni biladigan jangchilar;

4) tik qoyaliklarga chiqa oladigan, tog‘li yerlarda bo‘ladigan janglarga ko‘nikkan, tog‘ aholisidan tashkil topgan maxsus piyoda qism.

Mixail Ivanin Amir Temur boshchiligida qamal qilingan ko‘plab qal’alar gregoryan olovlarini otish va uloqtiruvchi qurollardan mohirona foydalanish natijasida qo‘lga kiritilgani, qo‘shinning bu turi juda katta malakaga ega bo‘lganini yozadi.

Darhaqiqat, 1402 yili Smirna shahrini ishg‘ol qilish paytida, rodoslik ritsarlar shaharga yordam berishga oshiqadi. Biroq Amir Temur shaharni dengiz tomondan qurshab olib, yog‘ochdan yasalgan chorpoya va sollar ustiga taxtasupa o‘rnatadi, uning ustiga esa irg‘ituvchi qurollar va qalqon ko‘targan jangchilarni joylashtiradi. Shu usul yordamida u dushmanga yordam berilishining oldini olib, garnizon bilan aloqani uzib qo‘yishga erishadi.

Amir Temur urush boshlashdan avval oddiy otliq askarlar yoki yengil otliqlar kamon, sadoq (o‘q-yoylari bilan), qilich, arra, bigiz, igna, arqon, bolta, o‘q uchun 10 ta poynak, qop, mesh (daryodan o‘tish hamda suv olib yurish uchun ishlatilgan) va 2 otga ega bo‘lishlarini talab qilardi. Bundan tashqari, har 18 kishi kigizdan ishlangan o‘tov olishlari shart edi.

Saralangan jangchilar yoki og‘ir otliqlar dubulg‘a, qalqon, qilich, kamon va o‘q-yoylar bilan qurollangan. Ularning har biri 2 ot va har 5 kishi bitta o‘tov olishi shart edi (5 kishiga 1 ta o‘tov olishning sababi – saralangan jangchilarning qurol-anjomlari ko‘p joyni egallar hamda ular maxsus xizmatkorga ega bo‘lgan). Shuningdek, gurzi, oybolta, shamshir bilan qurollangan maxsus jangchilar bo‘linmasi ham mavjud bo‘lib, otlari ustiga yo‘lbars terisidan yopinchiq yopilardi.

Birinchi amir o‘zi bilan 110 ta, ikkinchisi 120, uchinchisi 130, bosh qo‘mondon esa 300 dan kam bo‘lmagan ot olib yurishi shart edi. Piyoda jangchi shamshir, kamon va o‘qlarga ega bo‘lib, jang oldidan o‘qlar soni maxsus buyruq bilan ko‘paytirilgan. Masalan, To‘xtamishga qarshi yurishda har bir jangchiga 30 tadan o‘q olish topshirilgan.

Amir Temur pul qadri va narx-navo o‘zgarganda jangchilar zarar ko‘rmasligi uchun maoshni ot narxi bilan belgilagan. Bahodirlarning maoshi 2 tadan 4 tagacha ot narxiga teng kelsa, yo‘lboshchilar 10 jangchi, yuzboshilar 2 o‘nboshi, mingboshilar 3 yuzboshining maoshiga to‘g‘ri keladigan maosh olgan. Urush paytida xatolikka yo‘l qo‘ygan jangchi esa maoshining o‘ndan bir qismidan mahrum etilgan.

Amirlar maoshi esa ularning darajasiga qarab ming va 10 minggacha ot narxi, Amir Temur avlodlariniki esa 12 minggacha ot narxi bilan belgilanib, ularga viloyatlar ham hadya etilgan.

Temur taktikasiga ko‘ra, jang bo‘ladigan yerni tanlashda quyidagilar e’tiborga olinishi kerak edi: suv, lashkarni joylash va saqlash uchun qulay joy, jang uchun tanlangan yerda dushman ustidan ustunlik qilish mumkin bo‘lishi va ayniqsa, yuz va ko‘zga quyosh tushmasligi, shuningdek, jang maydoni keng va tekis bo‘lishi.

Jang oldidan amir qo‘shinlari tekis harakatlanishlari uchun har bir safning joyi tayin qilingan. Qo‘shin o‘z otlarini o‘ngga ham, so‘lga ham burmasdan, to‘g‘ri borishi, dushman bilan to‘qnashganda, shiddat bilan unga tashlanishlari kerak edi. Bu tadbir safda turgan qo‘shinlarning behuda otishma bilan shug‘ullanmasdan, shiddatli hujum qilishlariga qaratilgan edi.

Tajribaga ega va mohir sarkarda jang oldidan jang maydonini sinchiklab ko‘zdan kechirishi, dushmanning qaysi tarafdan ustun ekanligini o‘rganishi, o‘z nuqsonlarini tez orada yo‘qota olishi, dushman alohida ajratilgan qismlar bilan hujumga o‘tayotgani yoki bor qo‘shinlarini birvarakayiga jangga kiritganini kuzatishi, maxfiy rejalari bor-yo‘qligini bilishi kerak edi.

“O‘sha davrlarda deyarli barcha xalqlar urush vaqtida tartibli saflarda tizilmasdan, to‘da-to‘da bo‘lib, taktik mulohazalarsiz jang qiladigan, o‘z jasurligiga berilib ketib, dushmanga tartibsiz ravishda tashlanadigan bir vaqtda Amir Temur lashkarlari tartibli saflarga tizilgan va bir necha qismlardan iborat bo‘lar hamda ular jangga birin-ketin kiritilib, nihoyat, so‘nggi hujumlar bilan dushman kuchsizlantirilib, holdan toydirilgach, eng saralangan jangchilardan tuzilgan, har doim g‘alabani ta’minlashi mumkin bo‘lgan, kuchli va bardam rezerv jangga kiritilardi”, deyiladi “Ikki buyuk sarkarda” asarida.

Dushman qo‘shini soni 40 mingdan ko‘proq bo‘lganda, unga qarshi Amir Temurning o‘zi borgan. Bunday paytda qo‘shin jangga quyidagicha tayyorlangan: 40 ta bo‘linma bevosita Amir Temur ixtiyorida bo‘lgan. Eng saralangan 12 ta bo‘linma 1-qatorni, qolgan 28 tasi 2- va 3-qatorlarni egallagan. O‘g‘li va nabiralari boshchilik qiladigan qo‘shinlar ko‘rsatilgan 40 ta bo‘linma o‘ng tomonining old qismida, qarindoshlari va ittifoqchilari boshchilik qilayotgan qo‘shinlar esa uning chap tomoni old qismida joylashgan. Keyin qanot, qator va boshqa bo‘linmalar bo‘lgan.

Amir Temurdan harbiy taktikani o‘rgangan tatar jangchilari dushman hujumiga bas kela olmagan taqdirda otda qocha turib, yoylaridan o‘q otishar,

60-100 qadam masofadan nishonga bexato ura olishardi. Izlarni yo‘qotish uchun to‘rt tomonga yurishar, 5 chaqirimdan keyin har bir bo‘linma 3 qismga bo‘linib, 3 chaqirim yurgandan so‘ng yana 3 qismga bo‘linar, keyin esa kelishilgan yerda, boshlangan nuqtadan 40-50 chaqirim uzoqlikdagi biror jarda to‘planishar edi. Tarqab qochish ot choptirish yo‘li bilan bor-yo‘g‘i bir yarim soat orasida amalga oshirilgan.

Chegaradosh davlatlar to‘g‘risidagi kerakli ma’lumotlarni Amir Temur ming kishilik yengil bo‘linmalar vositasida to‘plagan. Sohibqiron sayohatchilar, savdogar va karvonboshilarga alohida homiylik qilar, ulardan o‘zlari ko‘rgan mamlakatlarning holati haqida muhim ma’lumotlarni bilib olardi. Buning uchun ishonchli amaldorlar ham tayin qilinib, ular mol ayirboshlovchi, chet ellik sayohatchi va olimlarning asl niyatlari haqida aniq ma’lumotlarni to‘plashi, ayg‘oqchilar yordamida o‘zga davlatlar boshliqlarining Amir Temurga munosabatini o‘rganishlari, bu ma’lumotlar tez va aniq yetkazilishi kerak edi. Agar bu ma’lumotlar yetarli bo‘lmasa, elchilar jo‘natilar, ba’zan zarur ma’lumotlarni keltirishi uchun darvishlar xizmatidan foydalanilardi.

Umumun olganda, Amir Temur Osiyoda 40 yil davomida olib borgan urushlari davrida o‘z harbiy taktikasi va strategiyasini mohir sarkarda sifatida namoyon etgan. Yuqorida ko‘rganimizdek, Sohibqironning bu boradagi mahorati xorij harbiy mutaxassislarini bejiz o‘ziga jalb etmagan. Mixail Ivaninning Amir Temur harbiy san’ati, strategiya va taktikasiga bag‘ishlangan o‘rganishlari esa buyuk ajdodimiz shon-shavkatini ko‘z o‘ngimizda yana bir qadar yuksaltiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Temur tuziklari // forscha matndan Alihonto‘ra Sog‘uniy va H. Karamatov tarjimasi, izohlar muallifi B. Axmedov va A. Ahmedov. – T.: 2018.

3.Amir Temur jahon tarixida mas’ul muxarrir X. Karamatov. Mualliflar jamoasi. – T.: Sharq 2001. – 304 b.

4.UvatovU. Sohibqiron arab muarrixlari nigohida. – T.: Sharq. 1997. – 160 b.

AMIR TEMURNING OILA – NIKOH MUNOSABATLARI MASALALARIGA OID QARASHLARI

Turayeva S. R.
Jamoat xavfsizlik universiteti professori,
tarix fanlari doktori, dotsent.

Ko‘hna moziydan xabar beruvchi tarix zarvaraqlarini varaqlar ekanmiz, ijtimoiy hayotning barcha sohalarida erkaklar bilan bir qatorda buyuk jasorat sohibalarining nomlari ham tarannum etib kelingani guvohi bo‘lamiz. Ayollar orasidan shavkatli hukmdorlar, oqila maslahatgo‘ylar, yetuk donishmandlar, zabardast olimalar, suhandon shoiralar va zukko san’atshunoslar yetishib chiqqan. Chunonchi, massagetlar hukmdori To‘maris, qadimiy Palmiraning hukmroni Zinoviya, ispan qirolichasi Izabella, arman malikasi Tamaralar o‘z davrining yetuk siyosatdon hukmdorlari bo‘lganlar. Garchi bunday hukmdor, olima, shoira va donishmand ayollar G‘arbda barmoq bilan sanalsa-da, Sharq mamlakatlarida ularni ko‘plab uchratish mumkin. Birgina Temur va temuriylar sulolasiga mansub xotin-qizlardan ayrimlarini sanab o‘taylik: buyuk sohibqiron Amir Temurning (1336–1405) rafiqasi – Saroy Mulk xonim (1341–1408, Bibixonim), Hirotda Shohruh Mirzoning (1377–1447) rafiqasi – Gavhar Shod begim (1379–1457)1 Xalil Sulton Mirzoning (1384–1411) suyukli xotini – Shod Mulk Xotun (1387–1411), Sulton Husayn Boyqaroning (1438–1506) xotini – Xadicha begim (1451–1511), Umar Shayx Mirzoning (1456–1404) to‘ng‘ich qizi – Xonzoda begim (1477–1544), Zahiriddin Muhammad Bobur shohning (1483–1530) qizi – Gulbadan begim (1523–1603), Badaxshon hukmdori Sulaymon Mirzoning xotini – Haram Begim (1514–1589), Jahongir Shohning (1569–1627) suyukli xotini – Nurjahon begim (Mehriniso, 1577–1645), Shoh Jahonning (1592– 1666) sevikli xotini – Mumtoz Mahal (Arjumand bonu, 1594– 1631), Shoh Jahonning qizi – Jahon Oro begim (1614–1681), Avrangzeb Olamgirning (1618–1707) qizi – Zebunniso begimlar (1639–1702) ana shular jumlasidandir.[1]

Bu haqida ko‘pgina qo‘lyozma va toshbosma asarlarda qiziqarli ma’lumotlar mavjud. Masalan, Nizomiddin Shomiyning «Zafarnoma»si, Sharafuddin Ali Yazdiyning (1454–vafoti) «Zafarnoma», Ibn Arabshohning (1389–1450) «Ajoyib ul-maqdur fi axbori Taymur» (Temir haqidagi xabarlarda taqdir ajoyibotlari), Hofizi Abro‘ning (1430 vafoti) «Zubdat ut-tavorixi

Boysung‘uriy», Kamoliddin Abdurazzoq Samarqandiyning (1413–1482) «Matlai sa’dayn va majmai bahrayn» («Ikki saodatli yulduzning chiqish va ikki dengizshshg qo‘shilish joyi»), Fasih Xavofiyning (1375 yilda tug‘ilgan) «Mujmal-i Fasihiy Temuriy malikalar (fasihiyiing tarixlar majmuasi), Zahiriddin Muhammad Boburning (1433–1530) «Boburnoma», G‘iyosiddin Muhammad Xondamirning (1475–1535) «Habib us-siyar fi axbor afrod ul-bashar» («Inson xabarlarida do‘stlarning tarjimayi holi»), Gulbadan begimning (1523–1603) «Humoyunnoma», Abulfazl Allomiyning (1551 – 1602) «Akbarnoma», Boburiylar saltanatining to‘rtinchn hukmdori Jahongirshohning (1569–1627) «Jahongirnoma» («Jahongir tuzuklari»), Mirzo Alouddin Adoul Mulk at-Tavjiyning «Shohjahonnoma», Hakimxon to‘raning «Muntahab ut-tavorix», «Tazkirat ul-xavotun» («Xotinlar tazkirasi») va «Mashohir un-nisvon» (Mashhur xotinlar) kabi asarlarda shu qimmatli ma’lumotlarni o‘qiymiz.

Amir Temurning oila – nikoh munosabatlari, xotin-qizlar, ayollarga bo‘lgan ulkan ehtiromi, farzandlar ta’lim-tarbiyasi bilan bog‘liq fikr-mulohazalari ham yuqori e’tiborga sazovordir. Amir Temur huzurida xotin-qizlarni g‘iybat qilish, ayollarga nisbatan zo‘ravonlik qilish va shunga o‘xshagan gap-so‘zlarni aytish ta’qiqlangan. U xotin-qizlarga zo‘ravonlik qilganlarni tanobini tortib qo‘ya olgan. O‘z xotinlari, qizlari va boshqa ayollarga nisbatan ham mehribon va shavqatli bo‘lgan. Amir Temur ayollarga ma’lum erkinliklar bergan, ularni rasmiy marosim, bazmu-jamshidlarda ishtirok etishlariga ruxsat bergan. Klavixo rasmiy marosimlarda Amir Temurning suyukli xotini Saroymulkxonim ishtirok etganligini alohida ta’kidlagan. Amir Temur ayol qarindoshlariga atab qator inshootlar qurdirgan. Masalan, xotiniT uman og‘aga atab Behisht bog‘ini, To‘qal xonimga atab Dilkusho bog‘ini, opasi Qutlug‘ Turkon og‘a, singilisi Shirinbeka og‘alarga hamda Bibixonimning onasiga atab maqbaralar barpo etganligi yuqoridagi mulohazaning mantiqiy tasdig‘i bo‘lib xizmat qiladi**.** U nikoh masalasini “Davlat yumishlari darajasidagi muhim ish” qatorida ko‘rgan.

Saroy Mulk xonim chig‘atoy ulusiga mansub mo‘g‘ul xonlaridan Qozonxonning qizi bo‘lib, 1341 yilda tug‘ilgan. Qozonxon taxtdan azl etilib, qatl qilingan chog‘da Saroy Mulk xonim hali besh yoshda edi. Saroy Mulk xonim balog‘atga yetgach, 1355 yilda Movarounnahr hukmdori amir Qozog‘onning nabirasi amir Husayn uni nikohiga kiritdi. 1370 yilda sohibqiron Amir Temur jangda amir Husaynni yengib, uni qatl qildirgach, Movarounnahr

hukmronligini o‘z qo‘liga oladi. Tabiiyki, amir Husaynning bir necha xotinlari bo‘lib, haramning ulug‘ bekasi – Tarmashirinxonning qizi Suyunch Qutlug‘ Og‘o edi. Sohibqiron Amir Temur maqtulning haramidagi malikalar orasidan Qozonxonning qizi-Saroy Mulk xonimni, Bayon Sulduzning qizi -Ulus Og‘oni, Xizr Yasuriyning qizi-Islom Og‘oni hamda Tag‘oy Turkon xotunni tanlab olib, idda muddati uch oy o‘tgach, o‘z nikohiga kiritadi. Sohibqiron Amir Temur Saroy Mulk xonimni o‘z nikohiga kiritgach, «**ko‘ragon**» unvoniga musharraf bo‘ldi. Ko‘ragon iborasi mo‘g‘ulcha so‘z bo‘lib, **«kuyov»** degan ma’noni ifodalaydi. Zero, Saroy Mulk xonim mo‘g‘ul xonlaridan birining qizi bo‘lgani tufayli sohibqiron Amir Temur mo‘g‘ul xonining kuyovi, ya’ni **«Amir Temur Ko‘ragon»** nomini olgan edi. Sohibqiron Amir Temur malika Saroy Mulk xonimni o‘z nikohiga kiritgunga qadar, haramida boshqa xotinlari ham bor edi. Lekin xon avlodiga mansub Saroy Mulk xonim haramdagi barcha malikalardan ulug‘rog‘i hisoblanib, «katta xonim» yoxud «Bibixonim» degan unvonga noil bo‘ladi. Albatta, bunday e’zozga musharraf bo‘lish uchun aql-zakovat, did-farosat, fikrlash doirasining ulkanligi bosh omil bo‘lgan. Zotan, tarixiy manbalarning guvohlik berishicha, Saroy Mulk xonim zamonasining yuksak idrokli, farosatli, tadbirkor va aql -zakovat sohibasi, husn-latofat bobida ham benaziri edi. Saroy Mulk xonim insonparvar, vatanni sevguvchi, mamlakatning siyosiy-ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayotidan yaxshigina xabardor bo‘lgan, saltanat ishlarida dono maslahatlari bilan qatnashib turgan ayol edi. Ayniqsa, ilm-ma’rifatga alohida e’tibor ila qarar, tolibi ilmlarga homiylik qilardi.Sohibqiron Amir Temurning harbiy yurishlarida Saroy Mulk xonim ko‘pincha birga yurgan. Tarixiy manbalarning yakdillik bilan bergan ma’lumotlariga ko‘ra, o‘ta ziyrak, tadbirkor Saroy Mulkxonim saltanatni boshqarishda vujudga kelgan ayrim muammolarni hal qilishda o‘zining oqilona maslahatlari bilan faol qatnashgan. Amir Temur Saroy Mulk xonimga oshkora bo‘ysunmasa-da, biroq uning oqilona maslahatlariga o‘zida qandaydir ehtiyoj sezib turgan.

Amir Temurning umumiy **42** ta xotini bo‘lib, ulardan **18** tasi aslzoda qizlar, qolganlari esa surayyo, kanizak va joriyalardan iborat bo‘lgan. Ular orasidagi eng mashhuri Bibi Xonim yoki Saroymulk xonim bo‘lgan. [13:295].

Shohruh Mirzo zamonida “Nasabnomada” yozilishicha, ismlari budir: O‘ljay Turkan Og‘a- Amir Musallo ibn Amir Qazaog‘on qizidir. Suton Baxt Begim shu ayoldan tug‘ilgan. Pokiza xonzoda Saroymulkxonim- Qora Sultonxon Turmish Og‘a qizi bo‘lib, Jahongir Mirzo va Og‘a Begining onasidir.

Dilshod Og‘a Dulg‘otning ul hazartdan Sulton ilmli qizi bor edi. Saodat Sulton Tug‘di Bey Oqso‘fi Qo‘ng‘irot qizi, Tuman Og‘a Muso Toyjuvit qizi, Tukal xonim Xizir Xojaxon qizi, Davlat Turkan Og‘a, Sulton Og‘a, Burhon Og‘a, Ulus Og‘a Amir Bayon Sulduz Jonibek qizi, Og‘a Mundar, Cho‘lpon Mulk Og‘a, Baxt Sulton Oroy, Og‘a Nekuz va Navro‘z Og‘a.

Ul shahriyorxaramidagi kanizaklar: Tog‘ay Turkan Og‘a- Qoraxitoy urig‘idan, Shohruh Mirzo undan tug‘ilgan. Jahon Baxt Og‘a. Takor Uch Berur Og‘a, Latik Og‘a, Yobi Bek Og‘a, Dar Sulton Og‘a, Dilshod Og‘a, Barot Og‘a, Sevinch Malik Og‘a, Azruniy Og‘a, Mongulibek Og‘a Joni Qurboniy- amirzoda Mironshohning onasi edi. Yodgor Sulton Og‘a, Xudodod Og‘o, Tuman Og‘o- Umarshayx Mirzoning onasi edi, Baxt Nigor Og‘a, Mulkon Shoh Og‘a, Filuniy Og‘a kabilar edi [3: 295].

Surayyolar sovg‘a sifatida tortiq qilingan, yohud o‘rtamiyona yoki martabali oilalardan hukmdor uchun shunchaki, tortib olingan ayllar edi.

Uning dastlabki xotini Turmush Og‘adir. U Movarounnahrning yirik amirlaridan Joku Barlosning qizi bo‘lgan. Amir Temurning katta qizi O‘gi Begi Xonim va to‘ng‘ich o‘hli Jahongir Mirzoning onasi. 1382 yilda O‘gi Begi Xonim to‘satdan bedavo kasalga uchraydi shu yil oxirida vafot etadi. 1376 yil Jahongir halok bo‘lgan. Sohibqironning ikkinchi xotini O‘ljoy Turkon Og‘a begim Amir Qazag‘anning nevarasi, Amir Temurning ikkinchi qizi Sulton Baxt begimning onasi.[3]

Amir Temurning haramlaridan yana biri Cho‘lpon Mulk Og‘a begim bo‘lib, Hojibek mo‘g‘il qizi edi. U Sohibqironning 1391 va 1394 yillardagi harbiy yurishlarida birga yurgan. [2]

Menglik Qurbon og‘adan o‘g‘li Mironshoh tug‘ilgan. Amir Temurning chevarasi bo‘lgan Zahiriddin Muhammad Bobur ham Menglik Qurbon Og‘a avlodimdan bo‘lgan. Temur haramlaridan yana biri Dilshod Og‘a begim bo‘lib, Sulton Uvays Shayx Hasan Jazoyirning qizi edi.

U 1374 yil Amir Temur nikohiga kiradi va 1383 yilda kasallikdan vafot etadi. Dilshod og‘adan kenja o‘g‘il Shohrux mirzo (1377-1447) dunyoga kelgan. Yana bir suyukli xotin Tuman Og‘odir. Tuman Og‘a Saroy Mulk xonimning akasi amir Musoning qizi va Saroy mulk xonimning jiyani bo‘lgan. U 1366 yilda tug‘ilib, 1378 yilda 12 yoshda Amir Temurga nikoh qilingan. Uning sharafiga Temur Samarqandda Bog‘i Bihishtni barpo etgan. Temurning ikkinchi o‘g‘li Umarshayh Mirzo (ba’zi adabiyotlarda ikkinchi o‘g‘il sifatida Jahongir Mirzo e’tirof etiladi Turmush Og‘odan tug‘ilgan).

1397 yilda sohibqiron Konigilda to‘y o‘tkazib, Tukal xonimni o‘z nikohiga kiritadi. Tukal xonim haramda (xon qizi bo‘lganligi tufayli) Saroymulk xonimdan keyingi o‘rinda turgan va “kichik xonim” deb atalgan. 1397 yilda sohibqiron Tukal xonim sharafiga Samarqandda “ Bog‘i Dilkusho”ni barpo ettiradi.

Ibn Arabshohning yozishicha, 1408 yilda Halil Sulton Mirzoning xotini Shodimulk Tukal xonimni zaharlab o‘ldirgan. Sohibqironning keyingi paytlarda xotini olgan xotini Ruhparvar Og‘o bo‘lib, Amir Temurning xos kanizaklaridan edi. Ruhparvar Og‘o ham yosh va go‘zal ayol bo‘lgan. Uning sohbqirondan farzandi bo‘lmagan. Amir Temur vafotidan so‘ng Ruhparvar Og‘oni Temurning nufuzli amirlaridan biri o‘z nikohiga olgan. Ruhparvar Og‘o 1423 yil vafot etgan.

Qolgan malikalarning ayrimlari nomlari manbalarda saqlangan bo‘lsa-da, yetarli ma’lumotlar mavjud emas. Buni musulmon an’anlari hukmron jamiyatida tarixiy asarlar yozish tamoyili asosida ayollar bilan bog‘liq ma’lumotlarga e’tibor qaratilmagani bilan izohlash mumkin. Ammo bir hodisada Amir Temur o‘g‘li Jahongir Mirzo kelinga qattiqo‘llik qilib uni jazolaganini bilagandan keyin, o‘g‘lini chaqirtirib zindonband etadi. Kelindan Amir Temur kechirim so‘raganligi haqida ma’lumotlar mavjud. Demak, oilaviy rishtalarda ko‘p munosabatlar o‘zaro hurmat va islomiy qoidalar asosida boshqarilgan.

Ibn Arabshoh shunday yozadi: “Temur lashkarlari orasida ayollar ham bo‘lib, ular dushman bilan bo‘lgan to‘qnashuvlarda matonat ko‘rsatardilar. Nayza sanchish, qilich o‘ynatish va kamondan mo‘ljalga olishda mohir erkaklardan ko‘ra ham ortiqroq ish qilardilar. Agar ulardan biri homilador bo‘lib yo‘lda dard tutsa, darrov chetga chiqardi. U tezda yig‘ishtirinib olgach, tag‘n ulovga minib jangga kirardi”[10]. Anglashiladiki, ayollar da ham vatanga sadoqat va jangovorlik g‘oyalari juda yaqqol ko‘ringan. Bunday jasorat urush maydonlaridagi qahramono kurashlar, mazkur davr ayollarining irodalari qanchalik kuchliligini bildiradi. Ayol Jangchilarning aksariyati ko‘chmanchi urug‘larga mansub bo‘lgan.

Arminiy Vamberining yozishicha, Amir Temur navarasi Xalil Cultonning kelin tanlashdagi ayrim hatti harakatiga qarshi bo‘lgan. Xalil Sultonning Shodimulk ismli ayolini qattiq sevgani noroziliklarga sabab bo‘lgan. “Shodimulk avval Hoji Sayfuddinning kanizagi edi. Xalil Sulton taxtga o‘tirgach unga uylandi. Amir Temur tiriklik zamonida bu jozibador joriyani

o‘ldirtirib. Xalil sultonning ishq o‘tini so‘ndirmoqchi bo‘lgan, ammo joriya jazodan qochib qutilgan” [12:5]. Amir Temurning bunday qattiqo‘llik qilishga urinishi, Shodimulkning nasl nasabi va raqqosa joriyaligi sabab bo‘lgan bo‘lishi mumkin.

Xullas, Amir Temur o‘z xonadoniga o‘g‘illari va nevaralari uchun ham nikohlanayotgan kelinlarning kelib chiqishiga, nasliga va qanday avloddan ekanligiga, e’tiqodiga katta e’tibor qaratgan. Oiladagi ayollarni qadrlaganidan mamlakatning turli joylarida bog‘lar, madrasa va masjidlar, turli jamoat inshoatlari qurdirgan va ular qurilishi uchun izin so‘ragan oila vakillari ayollarga bunday ishlarga bosh-qosh bo‘lishiga imkon bergan.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Fayziev T. Temuriy malikalar. A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti 1994.
2. Nizomiddin Shomiy. Zafarnoma./ fors tilidan tarjima Yunusxon Hakimjonov – T.: O‘zbekiston.1996. -528 b.
3. Temur tuziklari // forscha matndan Alihonto‘ra Sog‘uniy va H. Karamatov tarjimasi, izohlar muallifi B. Axmedov va A. Ahmedov. – T.: 2018.
4. Amir Temur jahon tarixida mas’ul muxarrir X. Karamatov. Mualliflar jamoasi. – T.: Sharq 2001. – 304 b.
5. UvatovU. Sohibqiron arab muarrixlari nigohida. – T.: Sharq. 1997. – 160 b.
6. Mamatov X.T. Amir Temur tuzuklarida davlat va huquq masalalari. MonografiY. (hammualliflikda). - Toshkent: Yangi asr avlodi, 2001. - 118 b.
7. Sharafuddin Ali Yazdiy. Zafarnoma. “Sharq”. – T. 1997.- 327.
8. Rui Gonsales de Klavixo . Samarqandga Amir Temur saroyiga sayohat kundaligi (1403-1406 yillar) – T. “O‘ZBEKISTON” 2010. – B.190.
9. Temur tuziklari // nashrga tayyorlovchi va mas’ul muharrir J.Rahimov, forscha matndan A. Sog‘uniy va H.Karomatov tarjimasi, izohlar B. Ahmedov va A. Ahmedov – T., “Shodlik nashriyoti” – 2018. – B.116
10. Ibn Arabshoh. Amir Temur tarixi. 2- kitob // so‘z boshi, arab tilidan tarjima va izohlarni U. Uvatov tayyorlagan. - Toshkent. “Fan”. 2018.
11. История Узбекистана. Эпоха Амир Темура и Темуридов. (автор. колл.) – Ташкент, «Фан». 2017. -568с.

AMIR TEMUR VA MARKAZLASHGAN DAVLAT BOSHQARUVI

Turdiyev J.R., TMII katta o‘qituvchisi,
Shoaslonova R.J. TMII talabasi

Amir Temur 1336 yilning 9 aprelida Shahrisabzning Xo‘ja Ilg‘or qishlog‘ida tavallud topdi. Temurning yoshligi va yigitlik yillari mamlakat og‘ir ijtimoiy-siyosiy buhron iskanjasiga tushib qolgan bir davrda kechdi. Amir Temur Mo‘g‘ullarga kuyov bo‘ladi, ya'ni Amir Temur (Bibixonim) mo‘g‘ullar sulosasidan hisoblanadi. Shu bois o‘z qaynotasi tomonidan "Ko‘ragoniy" (Ko‘ragon-kuyov degani) unvoni bilan taqdirlangan. Uzoq va mashaqqatli kurashlardan so‘ng Amir Temur o‘z raqiblarini yengib, hokimiyatni qo‘lga kiritdi. Mayda, tarqoq feodallarni birlashtirib, markazlashgan davlat bunyod etdi, mamlakatda iqtisodiy va madaniy o‘zgarishlar qildi.

Amir Temurning yoshligi Keshda kechdi. Yetti yoshga to‘lgach, otasi uni o‘qishga berdi. Amir Temur yoshlik chog‘laridanoq maxsus murabbiylar nazorati ostida chavandozlik, ovchilik, kamondan nishonga o‘q uzish, boshqa turli mashq va harbiy o‘yinlar bilan mashg‘ul bo‘lgan. Shu asnoda Amir Temur tulporlarni saralab ajrata oladigan mohir chavandoz va dovyurak bahodir bo‘lib voyaga yetgan.

Amir Temur tabiatan og‘ir, bosiq, teran fikrli va idrokli hamda nihoyatda ziyrak, kishilardagi qobiliyat, fazilat, ayniqsa, samimiyatni tezda fahmlab oladigan inson bo‘lgan. Shu tufayli o‘spirinlik chog‘laridayoq atrofiga tengqurlari orasidan sadoqatli do‘stlarni jalb qila olgan. Uning atrofiga bolalikdagi do‘stlari va maktabdoshlari (Abbos bahodur, Jahonshohbek, Qimori inoq, Sulaymonshohbek, Idiku Temur, Sayfuddinbek, Hindushoh, Qarqara va b.) to‘planishib, birgalikda mashq qilar, musobaqalarda ishtirok etishar, asta sekin navkar bo‘lishib va harbiy guruhga birlashib, harbiy bo‘linma sifatida shakllana borgan. Keyinchalik ular Amir Temur qo‘shinida lashkarboshilik darajasigacha ko‘tarilganlar. [1]

Buyuk davlat arbobi Amir Temur o‘zining o‘tkir aql-zakovati, noyob yetakchilik qobiliyati, harbiy mahorati bilan jahon tarixida munosib o‘rin tutadi. Sarkardaning hayot yo‘li, davlat boshqaruvi, o‘z faoliyati davomida erishgan muvaffaqiyati bir qator tarixiy asarlarda, jumladan, uning «Temur tuzuklari» kitobida ham yaqqol aksini topgan. Mazkur shoh asar olti asrdan beri dunyo jamoatchiligi e’tiborini tortib kelmoqda. Ayni paytda uning turli qo‘lyozma

nusxalari va tarjimalari dunyoning turli nuqtalarida, bir qator nufuzli kutubxona, muzeylar va shaxsiy to‘plamlarda saqlanmoqda. Ko‘plab taniqli olimlar «Temur tuzuklari» ustida tadqiqotlar olib borishgan. Bugun bizgacha yetib kelgan xilma-xil qo‘lyozmalar hajmi, tarkibi, uslubi nuqtai nazaridan bir-biridan farqlanadi.

Xalqimizning orzu-intilishlari ikkinchi uyg‘onish davrining buyuk siymolarini uyg‘otdi, aynan xalq armonini ro‘yobga chiqarishga bo‘lgan intilish Amir Temur ibn Tarag‘ay Bahodir davrida nafaqat mamlakat mustaqilligini ta'minlash, balki qudratli davlat barpo etish, iqtisodiyot, madaniyat, san'at va ilm-fan sohalarini rivojlantirish, odil podsho, adolatli jamiyat, komil inson g‘oyalarida namoyon bo‘ldi. Ezgulik va insonparvarlikni himoyalash xalqimiz mentaliteti va ma'naviyatining muhim tarkibiy qismi, hayot faoliyatining asosiy yo‘nalishi bo‘lib kelgan”. [2]

Sharafiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma” asarida yozilishicha, Amir Temur tomonidan bunyod etilgan Boilkan shahrida hijriy 806/ 1380 yilda chaqirilgan qurultoyi haqidagi ma'lumoti diqqatga sazovordir. Kengashda Temur nutq so‘zlagan. U o‘z nutqida shunday degan: “Fan va dinning mashhur kishilari o‘z maslahatlari bilan podshohlarga yordam berib kelganlar. Sizlar esa menga nisbatan bunday qilmayapsizlar. Mening maqsadim mamlakatda adolat o‘rnatish, tartib va tinchlikni mustahkamlash, fuqaroning turmushini yaxshilash, yurtimizda qurilishni kuchaytirish, davlatimizni rivojlantirishdir. Bu olijanob ishda menga yordam berishlaringizni iltimos qilaman”. [3]

Amir Temur, o‘zining jasorati, siyosiy donaligi va strategik ko‘nikmalari bilan tarixda o‘chmas iz qoldirgan hukmdordir. Uning davlati va boshqaruv tizimi, ayniqsa, markazlashgan boshqaruvga asoslangan edi. Bu maqolada Amir Temurning markazlashgan davlat boshqaruvi prinsiplarini tahlil qilish, uning siyosiy va iqtisodiy merosini ko‘rib chiqish maqsad qilingan.

Amir Temurning siyosiy tashkilotchilik faoliyati. Amir Temurning hukmronligi davrida asosiy e'tibor markazlashgan davlat tuzilmasini yaratishga qaratilgan. Temur davlat boshqaruvi tizimida shaxsiy hokimiyatni mustahkamlashga katta ahamiyat bergan. U o‘zining barcha qarorlarini shaxsiy tarzda qabul qilib, barcha davlat masalalarida yakka hukmronlikni o‘rnatgan. Amir Temur markazlashgan boshqaruvni qurish orqali davlatning ichki siyosatini mustahkamlash, tashqi tahdidlarga qarshi kurashishni osonlashtirishga erishgan.

Amir Temur shaxsi nafaqat millatimiz, balki umuminsoniyat uchun ahamiyatga molik iste'dod va insoniy fazilatlari tufayli boqiy sanaladi. Ul zotning o‘z muhriga yozdirgan va butun hayoti davomida amal qilgan «Rosti-rasti» (ya'ni «Najot rostlikdadir» va «Kuch – adolatdadir») degan e’tiqodi butun insoniyat uchun doimiy hayotiy mezon bo‘lib xizmat qiladi.

Amir Temur saltanat ishlarida to‘rt muhim narsaga amal qilgan:

Kengash

Mashvarat va maslahat

Qatoiy qaror, tadbirkorlik va xushyorlik

Extiyotkorlik

Amir Temur Davlatining Markaziy boshqaruv tizimi

Amir Temur davlatining markaziy boshqaruv tizimi quyidagi tartibda tashkil topgan:

AMIR — Mutloq hukmdor

BOSh VAZIR — Devonbegi

Vazirlar va Ularning Vazirliklari:

Mamlakat va raiyat ahvoli, hosil, soliqlar, kirim-chiqimlar bilan shug‘ullanuvchi vazir.

Mulkchilik va soliq ishlari vaziri, o‘lib ketganlar, qachonlar kelib-ketayotganlar, chorvalar, o‘tloq-yaylovlar va ulardan olinadigan daromadlarni nazorat qiluvchi vazir.

Sipoh vaziri — harbiy ishlar bilan shug‘ullanuvchi vazir.

Saltanat ishlarini yurituvchi vazir — davlat ishi va ichki siyosatni muvofiqlashtirish bilan shug‘ullanuvchi vazir.

Chegara yerlar va tobe davlatlar ishi:

Soliq ishlari bilan shug‘ullanuvchi vazir.

Sipoh ishlari vaziri. Daraksiz yo‘qolgan kishilar, kelib-ketib yuruvchilar, hosil, aqldan ozganlar, vorissiz mol-mulk, qozilar va shayxulislomlarning hukmi bilan olingan jarimalarni tartibga keltirgan vazir.[4]

Bu tizimning aniq va tartibli bo‘lishi Amir Temurning davlat boshqaruvidagi muvaffaqiyatining asosiy omillaridan biri bo‘lgan. Uning davlat boshqaruvi usullari va siyosatining samaradorligi ko‘p hollarda maslahat, qaror va tadbirkorlikka asoslangan bo‘lib, barqaror va adolatli jamiyat barpo qilishga qaratilgan edi.

Markazlashgan davlat boshqaruvining asosiy elementlari. Sarkarda va Vazirlar: Amir Temur, davlat boshqaruvini markazlashgan tizim orqali amalga

oshirdi. Buningda sarkardalar (harbiy rahbarlar) mamlakatni ichki va tashqi xavflardan himoya qilishda asosiy o‘rnini egallagan. Vazirlar esa davlatning iqtisodiy va siyosiy faoliyatini muvofiqlashtirishda ishtirok etgan. Ular hukmdorning amrlarini bajarishda markazlashgan tizimni ta'minlagan.

Soliq tizimi: Amir Temur soliqlarni jallashda markazlashgan tizimni yaratdi. U davlat byudjetini tartibga solishda soliq yig‘ish va uni boshqarish jarayonlarini markazlashtirdi. Bu, o‘z navbatida, iqtisodiy jihatdan mustahkam davlatning shakllanishiga olib keldi.

Hukumat va hukmdor orasidagi aloqalar: Amir Temur hukmdor sifatida o‘zining shaxsiy hokimiyatini jamiyatdagi barcha qatlamlarga, ayniqsa, yuqori ijtimoiy tabaqalarga ta’sir o‘tkazish orqali kengaytirgan. U davlatning barcha muhim qarorlarini o‘z qo‘lida jamlab, hech qanday muhokama yoki qarama-qarshilikka yo‘l qo‘ymagan.

Markazlashgan davlatning iqtisodiy ta'siri. Amir Temur o‘zining iqtisodiy siyosatda ham markazlashgan boshqaruvni ta’minlashga intilib ishladi. U mamlakatda savdo, ishlab chiqarish va qishloq xo‘jaligi sohalarida tizimli reforma va islohotlarni amalga oshirdi. Temur davrida ko‘plab yangi bozorlar ochildi, savdo yo‘llari rivojlantirildi va iqtisodiy resurslar davlat tomonidan nazorat qilindi. Bu iqtisodiy siyosat davlatning uzoq muddatli barqarorligini ta’minlashga yordam berdi.

Amir Temurning tashqi siyosati. Temurning tashqi siyosat ham markazlashgan boshqaruvga asoslangan edi. U ko‘plab yurishlar, xususan, Hindiston, Eron va Osiyo Markaziy qismlariga qarshi muvaffaqiyatli ekspeditsiyalarni amalga oshirdi. Bu yurishlar orqali Amir Temur o‘zining hokimiyatini mustahkamladi va markazlashgan boshqaruvni kengaytirish uchun yangi hududlar qo‘lga kiritdi. Tashqi siyosatning muvaffaqiyati, albatta, markazlashtirilgan va yagona hukmronlikni yaratishga yordam berdi.

Amir Temur o‘zining markazlashgan davlat boshqaruvi orqali jahonda misli ko‘rilmagan siyosiy va iqtisodiy barqarorlikni yaratishga muvaffaq bo‘ldi. Uning davlat tuzilmasi va siyosiy faoliyati nafaqat o‘z davrida, balki keyingi hukmdorlar va davlat rahbarlari uchun ham bir qator o‘rnaklar keltirdi. Amir Temurning markazlashgan boshqaruv tizimi, uning iqtisodiy va siyosiy islohotlari, shuningdek, tashqi siyosatdagi yutuqlari bugungi kunda ham tarixiy meros sifatida ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Шавкат Мирзиёев “Янги Ўзбекистон стратегияси”. – Т.: “Ўзбекистон” нашриёти, 2021. 17-18 бетлар.
2. Шарафиддин Али Яздий. Зафарнома. – Т., 1996, 288-бет.
3. Темур тузуклари / Форсчадан Алихонтўра Соғуний ва Хабибулла Кароматов таржимаси. Сўзбоши ва изоҳлар, умумий тахрир Академик Б.Аҳмедовники. - Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1996.
4. https://qomus.info/encyclopedia/cat-a/amir-temur-uz/

ТРАДИЦИИ САДОВОДСТВА В САМАРКАНДЕ В ЭПОХУ ТЕМУРИДОВ

Хабибуллаев О. –исследователь,
Ташкентский Международный Финансовый Университет управления и технологий

В эпоху Тимуридов особое внимание уделялось всестороннему развитию городов Моваруннахра и созданию благоприятных условий для населения, проживающего в городах. В том числе в столице Самарканде ведутся масштабные строительные работы, а также работы по смягчению климата города.

Если взглянуть на планировку садов, построенных во времена правления Амира Темура и других правителей династии Тимуридов, то можно понять, что они были построены с высоким вкусом и по определенному плану. В целом мы также видим, что до постройки садов был разработан тщательный план, и к оформлению каждого сада подходили индивидуально. Рассматривая информацию в источниках, можно убедиться, что строительство парков государственного значения началось на основе специального указа и плана, и что Амир Темур лично проявлял особую заинтересованность в строительных работах. Стоит также отметить, что в Самарканд приглашались мастера из разных уголков страны, что сформировало уникальную смешанную строительную культуру.

Область садового дизайна развивалась в эпоху Тимуридов, достигнув более высокого уровня развития, чем в период предыдущих династий. В период правления Амира Темура Самарканд, в частности, достиг высокого уровня развития как новый город и столица страны. По нашему

мнению, расположение города на обширной равнине, окруженной садами и виноградниками, также создает условия для прекрасного и приятного климата города.

В целом, средневековые сады, в том числе и сады периода Тимуридов, представляли собой не просто обнесенные стеной и благоустроенные участки с деревьями, но и полностью спланированные архитектурные шедевры, дополненные дворцами, особняками, мавзолеями и включавшие в себя ландшафтный дизайн прилегающих территорий, с хорошо налаженными системами орошения. Сад и входящие в его состав дворцы образуют единый архитектурный объект, отражающий в своем дизайне и структуре практическое выражение знаний архитектуры, сельского хозяйства и садоводства того периода.

Информацию по таким вопросам, как структура и дизайн садов, мы можем найти в трудах Низамуддина Шами, Клавихо, Шарафиддина Али Язди, Ибн Арабшаха, Абу Насри и других. В частности, Руи Гонсалес де Клавихо, прибывший в Самарканд в качестве посла Испании, выразил свое восхищение великолепными зданиями в Самарканде и красотой садов, которые он посетил.

Из информации Клавихо мы узнаем, что сады были построены по четкому плану и с высоким эстетическим мастерством. Например, первый посетитель Гульбога сообщил, что посередине сада протекает пруд, а всего в саду шесть прудов. Бассейны соединены друг с другом дорожками, образованными рядами высоких тенистых деревьев, что создает уникальную композицию. По дорожкам сада можно прогуляться и осмотреть весь сад. Он упомянул, что на холме, возвышающемся над землей в саду, был построен великолепный дворец. Он упоминает, что этот дворец был великолепно украшен золотом, лазуритом и цветной плиткой, а также упоминает, что вокруг холма был ров, полный воды. По нашему мнению, основываясь на этой информации, можно сказать, что этот сад, построенный во времена правления Амира Темура, был не просто садом, а уникальным комплексом, включавшим в себя ландшафт, искусственный холм, водные сооружения и дворец. Также было отмечено, что здание в саду было не просто замком, а своеобразной небольшой крепостью. Можно также сказать, что в саду содержались олени и павлины, завезенные по особому указу правителя, что придавало саду еще большую красоту. [1]

Можно сказать, что самым известным садом, построенным во времена правления Амира Темура и под особым наблюдением правителя, является сад Дилькушо. В доказательство нашей идеи Низамуддин Шами издал указ, в котором говорилось, что «Амир Сахибкиран должен потребовать строителей, инженеров и архитекторов из разных климатических зон, каждая из которых была столицей страны и (в настоящее время) сосредоточена в Самарканде, и построить здание Боги Дилкушо». «Они построили дворец и королевский дворец посреди сада». Мы посчитали необходимым привести их мысли. Сад и дворец в нем также описываются в исторических источниках как «достигающие неба». Можно сказать, что дизайн парка Дилкушо несколько красивее и роскошнее других парков. Стены дворца в саду украшены изображениями индийского похода. Подробные описания сада Дилькушо приведены в «Дневнике» Руи Гонсалеса де Клавихо. По словам Клавихо, сад находится за городом.

В сад можно попасть через невероятно высокие ворота, украшенные золотой и синей плиткой. Внутри ворот шесть слонов выступали с различными представлениями. На украшенных крыльце над каждым слоном развешаны два флага. После этого послы идут через сад к чиновнику, сидящему на королевском возвышении, который, как говорят, привел послов к маленьким детям (принцам), сидящим на возвышении. Здесь Клавихо приводит сведения о том, что Амир Темур сидел на крыльце в глубине, наблюдая за передвижениями послов. Говорят, что между крыльцом и послами бил фонтан, а в бассейне фонтана плавали красные яблоки. Тот факт, что постройки в саду были специально украшены золотом и лазуритом, также свидетельствует о том, что сад был построен с особой тщательностью. [2]

Следующий сад, о котором сообщил Клавиксо, был Боги Чинор, где Амир Темур, переехавший из Боги Дилкушо, устроил банкет для послов. Из информации, представленной по этой ссылке, можно сделать некоторые замечания, которые мы сочли необходимым привести. Во-первых, упоминается, что парк был построен недавно. Из этого можно сделать вывод, что садоводческая деятельность Амира Темура не ограничивалась определенным периодом, а продолжалась с конца 1370-х годов до конца его правления. Возможно, что на момент смерти Амира Темура в Самарканде и его окрестностях еще строилось несколько садов.

Возможно, это удастся доказать с помощью исторических источников, которые будут обнаружены в будущем. Во-вторых, в результате нашего исследования мы можем сделать вывод, что банкет, состоявшийся в Боги Чиноре, вероятно, проводился в царском шатре Амира Темура, а не во дворце в саду. По нашему мнению, исходя из информации о новизне сада, либо дворцовая часть сада еще не была полностью введена в эксплуатацию, либо Амир Темур стремился еще раз продемонстрировать величие своей империи. Мы посчитали необходимым кратко объяснить причину нашего вывода ниже. [3]

Описывая дворец в саду, Клавихо упоминает «великолепный дом, построенный в форме креста посреди сада и украшенный разноцветными занавесками». В своем описании он подробно рассказал о том, что стены были покрыты цветочными шелковыми тканями, арочные двери были украшены изумрудами и другими редкими камнями, а занавеси на дверях были подвешены на копьевидных деревянных брусках, с которых свисали большие шелковые шнуры, касавшиеся земли. Мы пришли к выводу, что эти определения соответствуют полному описанию шатра, и что различные типы шатров, включая боргах, хоргох, саропадар и другие, объединялись для создания образа дворца или особняка с уникальной композицией. Эту идею также подтверждает информация, содержащаяся в статье Бернарда О'Кейна «От шатров к павильонам: королевская мобильность и дизайн персидских дворцов». [4]

Можно сказать, что дизайн сада был одним из вопросов, которым Амир Темур уделял личное внимание. Потому что есть также сведения, что в строительстве Боги Нава принимали участие мастера из Египта и Сирии, и занимались эти мастера в основном каменотесом, а искусная укладка камней способствовала тому, что сады становились еще красивее. В целом, основное внимание в садах и других сооружениях уделялось величию и демонстрации могущества королевства. В этот момент мы посчитали уместным процитировать слова Амира Темура: «Мин шакка валоятуна ва карорматуна, фанзур илла иморатуна» (т.е. «Если вы сомневаетесь в нашей силе и могуществе, посмотрите на здания, которые я построил»), выгравированные на фасаде резиденции Оксарой. Ведь мощь и сила империи демонстрировались не только военными походами, но и соблюдением принципов справедливости, величественными

зданиями и великолепными садами, не уступавшими по красоте тем, что были вокруг Самарканда.

Литература

1. Руи Гонсалес де Клавихо «Дневник поездки в Самарканд - Дворец Тимура». Т.: 2010. С. 153.

2. Низомиддин Шомий «Зафарнома» Т.: 2019; Страница 218

3. Бабур З. М. «Бабурнома» Т.: 2015; Страница 80

4. Руи Гонсалес де Клавихо «Дневник поездки в Самарканд – дворец Амира Темура (1403-1406) Т.: 2010; Страница 155

AMIR TEMUR DAVLATI VA UNING DUNYO TARIXIDA TUTGAN O‘RNI.

Xidirov X.I.,

Jizzax politexnika institute dotsenti, f.f.d. (PhD.)

Mustaqilik sharofati bilan xalqimizning buyuk avlod-ajdodlarimiz yaratgan bebaho ma’naviyat sarchashmalaridan bahramand bo‘lish davri etib kelganligi sababli, ulug‘ ajdodlarimiz, buyuk mutaffakirlarimiz nomlarini xalqimiz hurmat va ehtirom bilan eslab, ularga haqqoniy, hurmat-ehtirom ko‘rsatmokda.

Bevosita Mustaqillik yillarida buyuk tariximizning o‘chmas ildizlaridan biri bo‘lgan Amir Temur va Temuriylar davlatining o‘rni va roli beqiyos ahamiyat kasb etayotganligini alohida e’tirof etish lozimdir. Buni birgina dunyo tarixshunosligida Amir Temur shaxsiga oid keyingi yillarda amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqotlardan ham ko‘rishimiz mumkindir. Yurtboshimiz rahnomoligida ma’naviy-ahlokiy qadriyatlarimizni tiklash va mustahkamlash yo‘llarning ko‘rsatuvchi yangi bosqichga asos solindi va kelajagi buyuk O‘zbekistonning ma’naviy kamolatida yangi uyg‘onish davri yuzaga keldi. Ma’naviy, ilmiy va estetik qadriyatlar xalqimizning turmush tarzida, an’anaviy madaniyatida muhim o‘rin olgan. Biz o‘zimizning tariximizni va jahon sivilizatsiyasini rivojlantirishga bebaho hissa qo‘shgan ajdodlarimiz sharqning mutafakkirlari Al-Buhoriy, At-Termiziy, Ahmad YAssaviy, Bahouddin Naqshband, Al-Horazmiy, Beruniy, Ibn Sino, Navoiy, Ulug‘bek va boshqalarni e’zozlaymiz hamda ular bilan fahrlanamiz[1]. Abu Iso Termiziyning 1200 yilligi, Mahmud az-Zamahshariyning 920 yilligi, Najmiddin Kubroning 850 yilligi, Bahouddin Naqshbandning 600 yilligi, Imom al-Buhoriy hijriy-qamariy taqvim

[1] I.A.Karimov. BMT Bosh Assambleyasi 48- sessiyasidagi ma'ruzasi. Toshkent. 1993. 6-bet.

bo‘yicha 1225 yilligi, Imom Motrudiyning 1130 yilligi nishonlanishi yuqoridagi fikrlarning amaldagi isbotidir. Ayniqsa, Amir Temurning merosini o‘rganish mustaqillik tufayli yangi bosqichga ko‘tarildi.. Davr va sharoit nechog‘lik og‘ir,shavqatsiz bo‘lmasin, o‘zbek xalqi hech kachon o‘tmishini, uning siymolarini èddan chiqarmadi, kalb ko‘rida saqlab keldi.

Sobiq Ittifoq davrida Amir Temurga, u orqali o‘zbek xalqiga nisbatan tahqirlash siyosatini olib borgan bir paytda, horijda bu benazir zotga bag‘ishlangan ko‘plab ilmiy, ilmiy ommabop, badiiy san’at asarlari yaratildi, xalqaro anjumanlar o‘tkazildi, uning nomi bilan bog‘liq ommaviy tashkilotlar tuzildi, muzeylar ochildi.

YUNESKO Amir Temurning insoniyat tarixidagi ulkan xizmatlarini jahon ahliga tanitishga, O‘zbekiston hukumati bilan birgalikda jonbozlik ko‘rsata boshladi. 1995 yil dekabrda, 1996 yilni “Amir Temur” yili deb atash to‘g‘risida farmon qabul qilindi.. Temur tuzuklari bir necha tillarda chop etildi. Amir Temur maqbarasi tiklandi. Ma’lumki, o‘tmishni bilish hozirgi kunni to‘g‘ri anglashni taqozo etadi. Shuning uchun O‘zbekistonning har bir vatanparvar va millatparvar fuqarosi Amir Temur va temuriylar davri tarixi haqidagi bor haqiqatni o‘rganishi lozim». Bilishimiz shart bo‘lgan tarih sahifalarini kunt bilan varaklash hammamiz uchun ham farz ham qarzdir[1]».

Amir Temur va temuriylar sulolasi tarixini chuqur bilish nima uchun zarur. Birinchidan, o‘z tarixini, nasl-nasabini, merosini bilmagan millatning kelajagi bo‘lmaydi. Chunki har bir xalqning o‘z tarixi mavjud. O‘z tarixini bilmagan,uning ijobiy va salbiy tajribalarini o‘rganib, tegishli hulosalar chiqarmagan xalq bugungi hayotining qadrini va muammolarini tushunib eta olmaydi, o‘z kelajagi haqida aniq tasavvurga, puhta ishlangan dasturga ega bo‘la olmaydi. Biz kelajagi buyuk O‘zbekistonni barpo etishga kirishgan ekanmiz, bobokalonimizning ulug‘ hayoti va faoliyati bizga katta ishonch, intilish, qat’iyat va kuch-quvvat bahsh etadi.

Ikkinchidan, Amir Temur va temuriylar tarixini har tomonlama chuqur o‘rganish faqat ilmiy ma’rifiy ahamiyat kasb etib qolmasdan, tarbiyaviy va amaliy ahamiyatga ham egadir. Bu davrda shakllangan va rivojlangan tarix saboqlaridan mustaqillik yo‘lida foydalanish zarur. Tarix har bir insonni o‘z Vataniga muhabbat, sadokat, o‘z xalqining o‘tmishi haqida aniq tasavvurga ega bo‘lish, uning hozirgi kuni va kelajagi bilan g‘ururlanish ruhida tarbiyalashning muhim vositalaridan biridir. Shu boisdan Amir Temur va temuriylar davri

[1] I.A.Karimov. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. T. 1994 y. 185 bet

tarixini o‘rganish va tahlil kilish hozirgi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan hulosalar chikarish imkonini beradi. Bularni Amir Temur tarixi saboqlari deb atash mumkin. Saboqlarning eng asosiylari quyidagilardir.

Birinchisi, Amir Temur bir yuz ellik yillik qaramlikdan so‘ng o‘zbek milliy davlatchiligini tiklagan, mamlakat va mintaqalarni birlashtirgan, o‘z zamonasi uchun dunyo miqyosidagi taraqqiyparvar markazlashgan davlat boshqaruv tizimini yaratgan.

Ikkinchisi, Sohibquron o‘z saltanatida tinchlik, osoyishtalik va barqarorlikni ta’minlashga eng asosiy vazifa deb qaragan va bu borada barcha choralarni ishga solgan. Buning natijasida iqtisodiy va ma’naviy sohalarda ulkan yutuqlarga erishgan. Bu ul zotning adolatli xalqparvar siyosati natijasidir. Bunday siyosat tufayli xalq bilan davlat o‘rtasida o‘zaro hamkorlik, bir-birini qo‘llab-quvvatlash yuzaga kelgan, davlat butun choralar bilan o‘z fuqarolari haqida g‘amxo‘rlik qilgan. Aholiga jabr-zulm o‘tkazganlarni, o‘g‘ri talonchilarni, bosqichlarini qattiq jazolagan, xalq esa bunga javoban Amir Temur olib borgan siyosatini qo‘llab-quvvatlab u o‘rnatgan qonun-qoidalarga rioya etgan.

Uchinchisi, Amir Temur dehkonchilik, hunarmandchilik, ichki va tashqi savdoni rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratgan. Uning hukmronlik davrida va shundan keyingi mulkchilik munosabatlari, soliq tizimi taraqqiy etgan.

To‘rtinchisi, Amir Temur fan va madaniyat ravnaqiga keng imkoniyatlar yaratgan, din peshvolari, olimlar, san’atkorlar, me’morlar, yozuvchilar, shoirlarga alohida g‘amxo‘rlik ko‘rsatib turgan. Bunday siyosatning natijasi o‘laroq Sharq Uyg‘onish davrini ikkinchi bosqichiga asos solingan.

Beshinchisi, Amir Temur mohil va muzaffar sarkarda sifatida mamlakatning mudofaa kudratini mustahkamlash, harbiy koshinning moddiy ta’minoti, uni kurollantirish, harbiy intizom masalalariga alohida e’tibor bergan.

Oltinchisi, Amir Temur saltanatining barcha mintaqalaridagi haqiqiy ahvol, mahalliy amaldorlarning xalqqa munosabati, bozorlardagi narh-navo, joylardagi tartib-intizom haqida aniq, to‘g‘ri ma’lumotga ega bo‘lishga katta e’tibor bergan.

Ettinchisi, Amir Temur mansabdor shaxslarning tanlash, ularni joy-joyiga qo‘yish. Ular faoliyatini nazorat qilish masalalariga katta e’tibor bergan. Mansabdor faoliyatiga baho berishda xalqning ular haqidagi fikri, adolat va

insof bilan ish ko‘rishlari, masalalarni qonuniy hal qilishlari asosiy me’yor bo‘lib hizmat kilgan.

Sakkizinchisi, Amir Temur saltanatida davlat ahamiyatiga molik masalalar kengashlarda maslahatlashib hal etilgan.

To‘qqizinchisi, Amir Temur shariat koidalari va «Tuzuklar» asosida jamiyat haqiqiy hayotini boshqarishni yo‘lga qo‘ygan.

O‘ninchisi, Amir Temur jamiyat rivojida barcha ijtimoiy tabaqalar faoliyatini nazarda tutgan va ularning manfaatlarini hisobga olgan va ta’minlagan.

O‘n birinchisi, Amir Temur o‘z davri shart-sharoitiga ko‘ra, tashqi siyosatda kat’iy, faol hamda maqsadga muvofiq harakat qilibo‘z saltanatini jahon mikèsiga olib chiqqan.

O‘n ikkinchisi, Amir Temur saltanatida ibratli ijobiy jihatlar, tadbirlar hukm surganligi bilan bir qatorda illatlar, qonunbuzarliklar, haksizliklar, hatto yovuzliklar ham bo‘lgan. Buni unutmaslik, tarixga haqqoniy ko‘zi bilan qarash zarur va baho berish kerak.

O‘n uchinchisi, Amir Temur davri tarixini o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, har bir mustaqil davlat o‘zining milliy mafkurasiga ega bo‘lishi shart. Busiz tom ma’nodagi milliy davlatning bo‘lishi mumkin emas. Shuning uchun milliy istiklol mafkurasini shakllantirishda Amir Temur saltanati va shaxsiyati namunalari va tajribalari nazariy, amaliy va tarbiyaviy ahamiyatga egadir.

Ma’lumki, dunyo sharqshunosligida Temur va Temuriylar davriga munosabat ancha yuqori darajadaligin quyidagi misollardan ham bilish mumkin. Sohibquronni Iskandar Zulqarnayn, Yuliy Sezar, Chingizhon va Napoleonga qiyoslashadi. Xo‘sh, buning sababi nimada ?.

Birinchidan, Amir Temur dunyoda eng katta Markaziy Osiyodan to O‘rta yer dengizigacha Kichik Osiyo va shimoliy Kavkazning katta qismini o‘z ichiga olgan yirik markazlashgan davlat tashkil etgan.

Ikkinchidan, Amir Temur mag‘lubiyat nimaligini bilmagan g‘olib sarkarda sifatida biror-bir xalqqa qarshi emas, balki, Movarounnahrni siyosiy, iqtisodiy va ma’naviy jihatdan birlashtirish va obod kilish uchun yurishlar olib bordi.

Uchinchidan, Amir Temur buyuk davlat arbobi o‘laroq o‘z zamonasi uchun eng mukammal davlatchilik va huquqiy tizimini yaratgan.

To‘rtinchidan, Amir Temur buyuk bunyodkor, fan, madaniyat, san’at va ta’lim-tarbiya homiysi sifatida Sharqdagi uyg‘onish davrining ikkinchi

bosqichini boshlab bergan, bu bilan jahon, hususan, Sharq sivilizatsiyasiga ulkan hissa qo‘shgan.

Beshinchidan, Amir Temur o‘zining shaxsiy fazilatlari, ya’ni, kamtarinlik, e’tiqodlilik, odillik, jasoratlik, bag‘rikenglik oldindan ko‘ra bilishlik, tadbirkorlik kabi hislatlari bilan ajralib turgan.

Oltinchidan, Amir Temur dunyo davlatchiligi va madaniyati tarixida butun bir davr, ya’ni, Temuriylar davriga asos solgan. Buyuk jahongir tashkil etgan saltanat 468 yil hukm surgan va Temuriylar sulolasi vakillari Sohibqiron an’analarini davom ettirganlar.

Dunyo sharqshunoslarini Sohibquron Amir Temurning shaxsiy fazilatlari, bilimdon davlat boshlig‘i, va mohir diplomat sifatida shakllanishi, Temuriylar saltanati yuksala borganligining sirlari hamda inqirozining sabablari qiziqtiradi.

Jahon Sharqshunosligida 600 yildan beri Amir Temurga bag‘ishlab ko‘plab ilmiy, badiiy asarlar, risola va maqolalar chop qilib kelinmoqda. Avvalambor, bu sohibqiron bilan zamondosh va bevosita muloqotda bo‘lgan, uni ko‘rgan yoki eshitgan muallifning asarlari, sharqona tarixnavislik an’analariga rioya qilib bitilgan solnomalardir. Bunday asarlar katoriga Sharqning mashhur olim va adiblaridan Sharaffuddin Ali Yazdiy va Nizomiddin Shomiyning «Zafarnoma»lari, Ibn Arabshohning «Amir Temur tarixi», Hofiz Abro‘yning «Tarix sirasi», Abdurazzoq Samarqandiyning «Matlaus-sa’dayn», G‘iyosiddin Alining «Temurning Hindistonga yurishi», Mirhondning «Soflik bog‘i» va boshqalar kiradi.

1425 yilda yozilgan Yazdiyning «Zafarnoma»sida Temur ko‘klarga ko‘tarilgan bo‘lsa, Ibn Arabshohning «Amir Temur tarixi» asarida Temur salbiy inson sifatida tasvirlanadi. Evropada Rui Gonsales de Klavixonning «Samarqandda Temur saroyiga sayohat kundaligi (1403-1406) nomli kitobi Evropada eng muhim manbalardan hisoblanadi.

Nemis olimi M.Dagen Hort 1913 yilda Evropa sharqshunoslarining Amir Temur va Temuriylar davriga bag‘ishlangan asarlar ro‘yhati-bibliografiyasi chop ettirdi. Fransuz olimlari Keren «Tamerlan yohud Sohibqiron salatanati» (Nyutabel, Shvesariya 1978) J.P.Ru Tamerlan (Parij, 1994) nomli kitoblarida har biri Amir Temur haqidagi 100 dan ortiq asar ro‘yhatini keltirganlar.

Mustaqillik Amir Temur va Temuriylar davri tarixini o‘rganishga ham ijobiy ta’sir o‘tkazdi. Buyuk bir davlatga asos solgan, olamni tebratgan, nomi etti iqlimga mashhur bo‘lgan bobokalonimizning ot ustidagi siymosi mustaqillik va erkinlik ramzi sifatida azim shahar Toshkentning markaziy

hiyoboniga qo‘yildi. Bu sohibqiron tug‘ilgan yurt Shahrisabzdagi èdgorlik taqdiriga jahongirlik bitilgan navkiron yigitning tajassumiga o‘xshaydi. Samarqanddagi haykalda Sohibqiron taxtda o‘tirgan holatiga buyuk davlat asoschisi, tadbirkor rahbar va donishmand siyosatchi sifatida tasvirlanadi[1].

Zero ma’naviyatimizning eng teran o‘q tomirlaridan biri zoti ulug‘ Amir Temur siymosidir. Sohibqiron siymosi insoniyat tarixida bizgacha bo‘lgan, bizdan keyin ham bo‘ladigan katta bir olamshumul voqelikdir. Darhaqiqat, tarix takrorlanadi va elagida o‘z qahramonlarini elaydi. Komilni komil taniydi, buyuklarni buyuklar tan oladilar. Amir Temurdek ulug‘ bobomiz haqida olimlarimiz va adiblarimiz so‘nggi yillarda bir kator ilmiy, tarixiy va badiiy asarlar yaratdilar.

Sohibquron bobomizning hozirgi kundagi qadrlanishiga zamin tayyorlagan siymolardan biri taniqli o‘zbek olimi akademik I.M.Mo‘minovdir. U bu borada mardonavor kurashdi va jonini fido kildi. I.Mo‘minovning «Amir Temurning O‘rta Osiè tarixida tutgan o‘rni va roli « (Toshkent, 1968) nomli o‘z davrida katta shov- shuvga sabab bo‘lgan risolasining 1993 yilda kayta nashr etilishi muhim voqea bo‘ldi. Birinchi martaba «Temur tuzuklari» (Toshkent, 1992)», «Amir Temur o‘gitlari» (Toshkent, 1992), «O‘zbegim» (Toshkent, 1992), Hilda Hukhemning «Etti iqlim hukmdori «(Toshkent, 1995) kitoblari chop etildi.

Albatta, o‘zbek temurshunosligining biz zikr etib o‘tgan namunalari hali juda kam, katta ishning boshlanishi, hamir uchidan patir, xolos. Biz tilga olgan va bo‘lajak tadqiqotlar hamda asarlar Sohibquron Amir Temur bobomiz tarixi haqidagi bor haqiqatni ancha to‘la ochib berishiga ishonchimiz komil.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. I.A.Karimov BMT Bosh Assobleyasi 48- sessiyasidagi ma’ruzasi. Toshkent, 1993, 6-bet.

2. I.A.Karimov «Bizdan ozod va obod Vatan kolsin. T. 1994 y. 185 bet

3. Xalq so‘zi. 1996 yil 27 yanvar.

4. Yangicha fikrlash va ishlash davr talabi. T.1997. “O‘zbekiston 5 jild.

5. Mo‘minov I. Amir Temurning O‘rta Osiyo tarixida tutgan o‘rni va roli. T. 1993. Fan.

6. Mustaqil O‘zbekiston tarixi. T.2000, Sharq.

7. Amir Temur va Ulug‘bek davri tarixi. T. 1996.

8. Temur va Ulug‘bek davri tarixi. T. 1996.

[1] Xalq so'zi. 1996 yil 27 yanvar.

9. Sharaffuddin Ali Yazdiy Zafarnoma. T. 1997. Sharq.
10. Nizomiddin Shomiy. Zafarnoma. T.1996.

AMIR TEMUR DAVRIDAGI AYOL LIDERLAR: DAVLAT BOSHQARUVI, MADANIYAT VA IJTIMOIY HAYOTDAGI O‘RNI

Xolikulova H.Yu.,
O‘zbekiston Respublikasi huquqni muhofaza qilish Akademiyasi dotsenti.

Amir Temur buyuk sarkarda va davlat arbobi Temurning rahbarligida O‘rta Osiyoda yuksak taraqqiyotga erishilgan, siyosiy, iqtisodiy va madaniy jabhalarda ulkan o‘zgarishlar amalga oshirilgan davrdir. Bu davrda nafaqat jangchilar va siyosatchilar, balki ayollar ham jamiyat hayotida muhim o‘rin tutgan. Tarixiy manbalarda Amir Temurning oila a’zolari, xususan, uning onalari, xotinlari va qizlarining davlat boshqaruvida, ilmiy-ma’rifiy va ijtimoiy jarayonlarda tutgan o‘rni haqidagi ma’lumotlar uchraydi.

Ayniqsa, Temuriylar sulolasining ayol vakillari – Bibixonim, Go‘roqli, Malika Aysun, Sulton Bakanikon singari shaxslar nafaqat hukmdorning yaqinlari sifatida, balki mustaqil qarorlar qabul qilgan, xayr-saxovat ishlari bilan tanilgan va san’at hamda ilm-fan taraqqiyotiga hissa qo‘shgan shaxslar sifatida tarixda muhrlangan. Ba’zi ayollar o‘zining bilimlari va ijtimoiy statusi orqali jamiyatda mustahkam nufuzga ega bo‘lgan. Ayollar faqat oilaviy hayotda emas, balki siyosiy va madaniy sohalarda ham faol qatnashgan[1]. Masalan, buyuk sohibqiron Amir Temurning (1336–1405) rafiqasi – Saroy Mulk xonim (1341–1408, Bibixonim), Hirotda Shohruh Mirzoning (1377–1447) rafiqasi – Gavhar Shod begim (1379–1457), Xalil Sulton Mirzoning (1384–1411) suyukli xotini – Shod Mulk Xotun (1387–1411), Sulton Husayn Boyqaroning (1438–1506) xotini – Xadicha begim (1451–1511), Umar Shayx Mirzoning (1456–1404) to‘ng‘ich qizi – Xonzoda begim (1477–1544), Zahiriddin Muhammad Bobur shohning (1483–1530) qizi – Gulbadan begim (1523–1603), Badaxshon hukmdori Sulaymon Mirzoning xotini – Haram Begim (1514–1589), Jahongir Shohning (1569–1627) suyukli xotini – Nurjahon begim (Mehriniso, 1577–1645), Shoh Jahonning (1592–1666) sevikli xotini – Mumtoz Mahal (Arjumand Bonu, 1594–1631), Shoh Jahonning qizi – Jahon Oro begim (1614–1681),

[1] Muhammad Ziyodulla. "Temuriylar davrida ayollar: ijtimoiy va siyosiy rol." Toshkent, 2010.

Avrangzeb Olamgirning (1618–1707) qizi – Zebunniso begimlar (1639–1702) ana shular jumlasidandir.

Bu malikalalar haqida ko‘pgina qo‘lyozma va toshbosma asarlarda qiziqarli ma’lumotlar mavjud. Masalan, Nizomiddin Shomiyning "Zafarnoma"si, Sharafiddin Ali Yazdiyning (1454–vafoti) "Zafarnoma"si, Ibn Arabshohning (1389–1450) "Ajoyib ul-maqdur fi axbori Taymur" (Temir haqidagi xabarlarda taqdir ajoyibotlari), Hofizi Abro‘ning (1430 vafoti) "Zubdat ut-tavorixi Boysung‘uriy", Kamoliddin Abdurazzoq Samarqandiyning (1413–1482) "Matlai sa’dayn va majma’i bahrayn" (Ikki saodatli yulduzning chiqish va ikki dengizning qo‘shilish joyi), Fasih Xavo fiyning (1375 yilda tug‘ilgan) "Mujmal-i Fasihiy Temuriy malikalar" (Fasihiyning tarixlar majmuasi), Zahiriddin Muhammad Boburning (1433–1530) "Boburnoma"si, G‘iyosiddin Muhammad Xondamiyning (1475–1535) "Habib us-siyar fi axbor afrod ul-bashar" (Inson xabarlari do‘stlarning tarjimai holida), Gulbadan begimning (1523–1603) "Humoyunnoma"si, Abulfazl Allomiyning (1551–1602) "Akbarnoma"si, Boburiylar saltanatining to‘rtinchi hukmdori Jahongirshohning (1569–1627) "Jahongirnoma" (Jahongir tuzuklari), Mirzo Alouddin Ado‘ul Mulk at-Tavjiyning "Shohjahonnoma", Hakimxon to‘raning "Muntaxab ut-tavorix", "Tazkirat ul-xavotun" (Xotinlar tazkirasi) va "Mashohir un-nisvon" (Mashhur xotinlar) kabi asarlarda shu qimmatli ma’lumotlarni uchratamiz [1].

Amir Temurning suyukli rafiqalaridan biri, Chig‘atoy ulusi hukmdori Qozonxonnning qizi Saroy Mulk Xonimdir. Uning siyosiy ta’siri yuqori bo‘lib, u davlat ishlarida faol ishtirok etgan. U Amir Temurning harbiy yurishlari vaqtida unga maslahatchi bo‘lgan va davlatni boshqarishda muhim rol o‘ynagan. 1404 yili Samarqandda bo‘lib o‘tgan tadbirlardan birida Saroy Mulk Xonimni kuzatish imkoniyatiga ega bo‘lgan ispaniyalik elchi Rui Gonsales de Klavixo uni shunday ta’riflaydi:

“Saroy Mulk Xonimni taxminan uch yuz nafar ayol kuzatib kelardi. Saroy Mulk Xonim Amir Temur huzuriga kirib keladi va hukmdor yonidan bir oz pastroqda joylashgan taxtdan joy oladi”[2]. Demak, Saroy Mulk Xonim Amir Temur haraminiing bosh bekasi, saroydagi katta nufuzga ega shaxs bo‘lgan.

Siyosiy ta’sirga ega bo‘lgan yana bir ayollardan biri G avharshod Begimdir. Shohruh Mirzoning rafiqasi bo‘lib, homiylik faoliyati bilan tanilgan

[1] Turğun Fayziev. Temuriy malikalar. A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti,1994. https://staff.tiiame.uz/storage/users/432/books/FpnZBMHWibmfnbUTh2uW112KA4nQ9k08n6RWbiRD.pdf

[2] Azzamat Ziyo. *O‘zbek ayollari tarix sahnasida.* – T., “Fan” nashriyoti, 2002., 12-13-betlar.

va Hirotdagi Gavharshod masjidini qurdirgan. Uning rahnamoligi ostida Hirot madaniy markaz sifatida tanilgan[1].

Amir Temur va Temuriylar davri ayollarning ijtimoiy, siyosiy va madaniy hayotida alohida ahamiyatga ega bo‘lgan. Bu davrda jamiyatning yetakchi ayollari to‘g‘risida ma’lumotlar mavjud [2]. Masalan, Qutlug‘ Turkon O‘go (1331–1383) – Amir Temurning opasi va Amir Dovudbek Dug‘latning xotini.

Ma’lumki, sohibqiron 1360-yillarning boshlarida g‘animlari ta’qibi tufayli Samarqandga kelib, Qutlug‘ Turkon O‘go uyida 48 kun turgan. 1375 yil Sohibqiron O‘zganda Dilshod O‘goga uylangan chog‘da, Qutlug‘ Turkon O‘go noyonlar va amirlar bilan to‘yga yetib kelgan.

Nizomiddin Shomiyning yozishicha, 1383 yil Dilshod O‘go vafotidan bir necha kun o‘t g ach, "O‘zining xayrli ishlari, in’om-u ehsoni bilan zamonasining boshqa ayollaridan ajralib turgan, o‘z halis mollari hisobidan madrasalar va xonaqohlar qurdirgan, har xil ezgu ishlari bilan jahonga manfaat yetkazgan ulug‘ xotin – Amir Sohibqironning opasi Qutlug‘ Turkon O‘go vafot etgan. Bundan Sohibqiron qattiq iztirobga tushgan. Bir necha muddat mamlakat va davlat ishlari bilan shug‘ullanmay qo‘ygan." [3] Sohibqiron davrida jamiyat rivojida katta ta’sir doirasiga ega ayollar soni ko‘p bo‘lgan.

Amir Temur davrida ayollar jamiyatda muhim o‘rin tutib, siyosiy, ijtimoiy va madaniy hayotda faol ishtirok etganlar. Ushbu davrdagi tarixiy manbalarga nazar solsak, Temuriylar sulolasidagi ayollar nafaqat hukmdor va sarkardalarning oila a’zolari sifatida, balki mustaqil shaxslar sifatida ham ulkan rol o‘ynaganini ko‘rish mumkin. Ular davlat boshqaruvida, diplomatik munosabatlarda, ilmiy va ijtimoiy sohalarda faol bo‘lib, o‘zining boy merosini qoldirgan.

Amir Temurning oilasidagi lider ayollardan biri Bibixonim bo‘lib, u nafaqat Temurning rafiqasi sifatida, balki yirik siyosiy va ijtimoiy shaxs sifatida ham tanilgan. Uning nomi bilan bog‘liq bo‘lgan Bibixonim masjidi Amir Temur davridagi buyuk me’moriy obidalardan biri hisoblanadi. Bibixonim faqatgina shaxsiy hukmdorlik mavqeiga ega bo‘lgan ayol emas, balki xayr-saxovat ishlari, bilim va ma’rifat taraqqiyotiga hissa qo‘shgan olijanob ayollardan biri sifatida ham e’tirof etilgan.

[1]Lutfullaev, O. "Ayollar tarixidagi ahamiyat: Temuriylar davrida." Tarix va madaniyat jurnali, 2015 yil.
[2]Tojiboev, S. "Temuriylar davrida ayollar: madaniy va ijtimoiy hayot." Tarix va ijtimoiy fanlar jurnali, 2020 yil.
[3] Inagamova, M. "Turkistonlik ayollarning siyosiy maqomi."2012 yil. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences ISSN: 2181-1784 .4 (5), May, 2024

Shuningdek, Temuriylar sulolasidagi boshqa ayollar ham davlat ishlarida muhim rol o‘ynagan. Masalan, G‘orog‘li va Sulton Bakanikon kabi ayollar siyosiy jarayonlarga ta’sir o‘tkazgan, muhimi, ular nafaqat shaxsiy manfaat yo‘lida harakat qilgan, balki jamiyat farovonligini oshirishga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirganlar. Ular ilm-fan va san’at rivojiga katta e’tibor qaratgan bo‘lib, Temuriylar davrida madaniy rivojlanishga ayollar ham katta hissa qo‘shganini ko‘rish mumkin.

Temuriylar sulolasidagi ayollar davlat va jamiyat taraqqiyotida faol ishtirok etib, siyosiy qarorlar qabul qilishda ham o‘z so‘zini ayta olgan. Ular diplomatik aloqalarni mustahkamlashda, iqtisodiy taraqqiyotga hissa qo‘shishda va ijtimoiy loyihalarni amalga oshirishda faol bo‘lganlar. Bu esa ayollarning nafaqat oilada, balki davlat boshqaruvida ham o‘ziga xos mavqega ega bo‘lganini ko‘rsatadi.

Temuriylar sulolasining ayollari nasl-nasab jihatidan ham muhim ahamiyat kasb etgan. Ular hukmdorlarning turli mamlakatlar bilan siyosiy aloqalarini mustahkamlashda, sulolaviy nikohlar orqali davlatning kuchayishiga hissa qo‘shganlar. Bu kabi tarixiy voqeliklar shundan dalolat beradiki, Amir Temur davrida ayollar faqatgina hukmdorlarning jufti sifatida emas, balki mustaqil shaxs sifatida ham siyosiy va ijtimoiy jarayonlarda ishtirok etgan.

Xulosa qilib aytganda, Amir Temur davridagi ayollar jamiyatning barcha jabhalarida muhim o‘rin tutgan. Ular davlat va siyosiy jarayonlarda qatnashib, o‘zlarining uyushqoqligi, bilimdonligi va davlatparvarligi bilan tarixda iz qoldirgan. Bugungi kunda ham Temuriylar sulolasi ayollarining merosi o‘rganilib, ularning faoliyatidan ilhom olish mumkin. Ular nafaqat o‘z davrida, balki keyingi avlodlar uchun ham ibrat namunasi bo‘lib qolgan.

Shunday qilib, Amir Temur davridagi ayollar tarixi – faqat hukmdorlar tarixi emas, balki ayollar jamiyatda tutgan o‘rinning yana bir yorqin ifodasidir. Ular o‘z faoliyati bilan davlatni mustahkamlashga hissa qo‘shgan, madaniyat, ilm-fan va ijtimoiy taraqqiyotga xizmat qilgan. Bugungi kunda bu ayollarning tarixi o‘rganilishi, ularning jasorati va faoliyati haqida kengroq ma’lumotga ega bo‘lishga yordam beradi. Shu sababli, Amir Temur davridagi lider ayollarning jamiyat rivojiga qo‘shgan hissasi hamisha e’tirof etilishi va qadrlanishi lozim.

SOHIBQIRON QO‘ShINIDAGI JANGOVAR BOShQARUV

Xotamov Sh.N.,
Jamoat xavfsizligi universiteti dotsenti,
polkovnik, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

Amir Temur qo‘shinida to‘xtovsiz takomillashib borayotgan muntazam armiyaning ko‘pgina xususiyatlari mujassamdir: qo‘shinning aniq soni, jangovar tartibi (yosol) belgilangan.

Kavaleriya qismlari ko‘p hollarda bir-birlaridan nafaqat kiyimboshlari, bayroqlari va anjomlarining ranglari, balki otlarining rangi bilan ham farq qilgan. Bunday farq jang paytida qo‘shinni boshqarishda katta rol o‘ynagan. Dushmanga nisbatan ustunlik otliqlarning yuqori harakatchanligi va Amir Temur tomonidan ularni mohir manyovr qilinishi bilan ta’minlandi.

Turli usullar bilan dushmanning mudofaa tizimini yakson etish, g‘animning yirik va yaxshi mustahkamlangan ob’ektlariga to‘satdan hujum qilish, dushman tomonining hukmdorlari va taniqli harbiy boshliqlarini asirga olish, qurshab olingan shaharqal’alarni uzoq vaqt qamal qilish, birmabir qishloqlar, tumanlar, shaharlar va viloyatlarni zabt etish, dushmanni to‘liq tormor etilgunigacha ta’qib etish, zabt etilgan hududlarni boshqarish uchun o‘zining sodiq kishilarini tayinlashdek strategik maqsadlarni ketmaket amalga oshirilishi Amir Temurga ko‘plab g‘alabalar olib keldi.[3]

Uning harbiy ishni rivojlantirishga qo‘shgan katta hissasi butkul yangi ko‘rinishdagi kavaleriya qismlarini (*kunbul, kumbul*) joriy etganidan iborat bo‘lib, u nafaqat o‘z qanotlarini himoya qilish uchun, balki dushman qanotlarini aylanib o‘tish va front ortiga zarba berish uchun ham mo‘ljallangan.

Otliq qo‘shin armiyaning zarbdor qismini tashkil etib, yengil hamda og‘ir otliqlarga bo‘lingan. Yoylar, o‘qdonlar, qilichlar bilan qurollangan yengil otliqlar razvedka bilan shug‘ullangan, qo‘riqlash xizmatini olib borgan va kerak bo‘lgan hollarda dushmanning ilg‘or otryadlariga qarshi jangga kirgan.

Saralangan jangchilar va zodagonlardan tuzilgan og‘ir otliqlar dushmanning asosiy zarbdor kuchlariga qarshi jang olib borgan bo‘lsa, chavandozlar nayza, dubulg‘a, zirh, qilich, yoy, o‘qlar solingan sadoq bilan qurollangan.

Harbiy yurishdan oldin Amir Temur odatda harbiy kengash (*mashvarat*) chaqirgan, unda harbiy boshliqlar, beklar va amirlar ishtirok etgan. Davlatning turli qismlaridan, Oliy Bosh Qo‘mondonning adyutanti (*tavochi*) yetkazgan

maxsus buyruqqa (*muchalkaga*) binoan qo‘shin yig‘ilgan. Jangchilarni yig‘ishdan tashqari tavochilarning majuriyatlariga qo‘shinni joylashtirilishi, uning harakatlanishi va jangovar tartibini nazorat qilish ham kirgan.

Amir Temur o‘z qo‘shinini jangga olib borishda uning hamma kerakli narsalar bilan ta’minlanishiga, lagerlarda joylashishiga alohida e’tibor bergan.

Sohibqironning buyrug‘iga binoan viloyatlar hukmdorlari, tumanlar va shaharlar beklari, qal’alar boshliqlari (*dorug‘a*) ro‘yxat bo‘yicha ko‘rsatilgan muddatda o‘z qo‘shinlari, anjomlari, oziqovqatlari bilan oldindan ko‘rsatilgan yerga (*miod yeri*) yetib kelgan.

Amir Temur To‘xtamishga qarshi Dashti Qipchoqqa harbiy yurishni uyushtirishdan oldin (1390–1391) o‘zining o‘rinbosarlariga qo‘shinni uzoq davrga yetadigan oziqovqat, qurolyarog‘ va boshqa kerakli narsalar bilan ta’minlashga buyruq bergan. Har bir jangchi bitta yoyga, o‘ttizta o‘qqa, bitta kamondonga, bitta qalqon va bitta zaxira otga ega bo‘lgan. Safar chog‘ida har o‘nta jangchiga bitta chodir, ikkita belkurak, kirka, o‘roq, arra, bolta va yuzta igna berilgan.[2]

Jangchilar chodirlarda beshtadan bo‘lib joylashgan. Ko‘zda tutilgan ta’minot bo‘yicha ularning har biri dubulg‘a, zirh, qilich, yoy, o‘qdon va ot bilan ta’minlangan. O‘n begi alohida chodirga joylashgan. U zirh, qilich, yoy, kamondon bilan qurollangan. U o‘zi bilan beshta qo‘shimcha otni olib yurish huquqiga ega bo‘lgan.

Yuz begiga ham alohida chodir berilgan. Uning qurolyarog‘larini qilich, yoy, zirh, o‘qdon, gurzi, to‘qmoq va kolchugalar (simdan tayyorlangan halqachalarni bir biriga o‘tkazib to‘qilgan ko‘ylak) tashkil etgan. Yuz begiga qo‘shimcha o‘nta ot berilgan.

Ming begi chodirdan tashqari soyabonga ega bo‘lib, qurolyarog‘lari nayza, qilich, o‘qyoy, dubulg‘a, zirh (*chax, oroyna*), kolchugalardan iborat bo‘lgan.

Piyodalar harbiy yurishlar paytida qilich, yoy va kerakli sondagi yoyning o‘qlari bilan qurollanib harakatlangan.

Lagerda Oliy Bosh Qo‘mondonning rangbarang bayroqlar bilan bezatilgan chodiri (*bargoh*) o‘rnatilgan. Ko‘rsatilgan vaqtda (*miod vaqti*) lagerga yetib kelgan jangchilar, joriy etilgan tartibga ko‘ra o‘z joylarini egallagan va qo‘shin ko‘rigiga tayyorgarlik ko‘rgan.

Kerakli sondagi jangchilar yig‘ilganidan keyin, harbiy lagerda kamonchilar, arbaletchilar, tosh uloqtiruvchilar, nayzachilar, to‘pchilar va boshqalardan tashkil topgan ulkan qo‘shinning ko‘rigi bo‘lgan. Qo‘shinda

yonuvchi aralashma (*naft*) solingan xurmachalarni uloqtirish uchun maxsus askarlar bo‘lib, ular o‘t otuvchi qurollarning to‘xtovsiz ishlashlarini ta’minlaganlar.[1]

Oliy Bosh Qo‘mondonning buyrug‘iga ko‘ra, jangchilar himoya sovutlarida, to‘liq qurolyarog‘lari bilan saflanganlar. Ko‘rik o‘tkaziladigan maydonda turli qismlarga tegishli bo‘lgan yashil, qizil, sariq, binafsha, qora, ko‘k bayroqlar hilpirab turgan. Harbiy orkestr sadosi ostida Amir Temur navbatmanavbat jangchilar sherengalari oldidan o‘tgan. Jangchilar nayzalarini baland ko‘tarib, bo‘lajak jangga tayyor ekanliklarini namoyon etib baland ovozda na’ra (*suron*) tortganlar.

Jangchilarning jangovar ruhi va tayyorgarligini aniqlash uchun yurishlar va janglardan oldin harbiy ko‘rikning o‘tkazilishi Temuriylar davrida ham an’ana bo‘lib qoldi. Ko‘rikda nafaqat qo‘shin birlashmalari, balki asosiy kuchlarning ortidan harakatlanadigan ta’minot aravalari ham ishtirok etgan.

Lagerning atrofi chuqur xandaqlar bilan o‘ralgan va qo‘riqlash zastavalari va postlari bilan puxta qo‘riqlangan. Lagerda o‘rnashgan vaqtlarda qo‘shin qo‘riqlash xizmatini olib borgan. Qo‘riqlash qismlari lagerdan 5–6 km oldinga chiqqan, undan postlar, postlardan soqchilar ajratilgan va oldinga yuborilgan.

Ta’kidlash kerakki, Amir Temur qo‘shinni boshqarishga katta ahamiyat bergan.

Sohibqironning buyrug‘i bo‘yicha dongdor komandirlardan to‘rttasi birinchi darajali qo‘mondon – *beklarbegi* lavozimiga tayinlangan. Bitta harbiy boshliq bosh qo‘mondon *amirululamo* vazifasiga tayinlanib, u bevosita Oliy Bosh Qo‘mondonga bo‘ysungan.

Harbiy qismlarni boshqarish uchun yana o‘n ikkita harbiy boshliqlar tayinlangan. Birinchi bek mingta chavandozlardan tashkil topgan birinchi guruhga, ikkinchi bek – ikki ming kavaleriyachilardan iborat ikkinchi guruhga qo‘mondonlik qilgan, uchinchi bek uch minglik kavaleriyachilarga boshchilik qilgan. Xuddi shu tartibda o‘n ikkinchi bek o‘n ikki minglik otryadning tepasida turgan.

Quyi toifadagi harbiy boshliq, toifasi bo‘yicha yuqori bo‘lgan harbiy boshliqqa so‘zsiz bo‘ysungan.

Biror bir davlatni zabt etgan yoki dushman qo‘shinini tormor etgan harbiy boshliq bahodir faxriy unvoniga sazovor bo‘lib, unga burg‘u va nog‘ora berilgan. Biror bir g‘anim shahzodasining yirik qo‘shini ustidan qozongan g‘alabasi uchun beklar ham xuddi shunday hurmate’tiborga sazovor bo‘lgan.[4]

Dushman qo‘shinini qochishga majbur etgan o‘nbegi shahar garnizonining boshlig‘i (*dorug‘a*) etib tayinlangan, xuddi shunday qahramonligi uchun yuzbegi – viloyat hokimi, mingbegi – viloyat amiri (*vali*) lavozimiga ega bo‘lgan.

U yoki bu davlatni zabt etgan amirga ushbu davlatning yeri imtiyozli asosda boshqarish uchun *suyurg‘ol (sovg‘a)* sifatida berilgan. Amir Temur va Temuriylar davrida suyurg‘ol yerni boshqarishning ommabop usuli bo‘lib, avloddan-avlodga o‘tib kelgan.

Yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan 12 amir nog‘ora va jangovar bayroq olgan. Bosh Qo‘mondon nog‘ora va jangovar bayroqdan tashqari, *burg‘u* va ikkita shtandartga (*tumantug‘ga, chortug‘ga*) ega bo‘lgan.

Mingbegiga bayroq va karnay (*ko‘raga*), yuzbegi va o‘nbegiga nog‘ora berilgan. Qo‘shin qo‘mondonining bayrog‘i, nog‘orasi va burg‘usi bo‘lgan. Kastiliya qirolligining elchisi – Klavixoning guvohlik berishicha, harbiy boshliq tinchlik davrida ko‘k rangdagi, zardan tikilgan ko‘ylak kiyib yurgan. Ular boshlariga telpak (burk) kiyib yurganlar. Bosh kiyimlarining ostidan uch qator kokillari ko‘rinib turgan bo‘lib, bu belgi Amir Temur armiyasining jangchilari ekanliklarini bildirib turgan.

Dushmanning harbiy kuchlari va uning mudofaa inshootlari to‘g‘risida, g‘anim davlatining ichki ahvoli haqida aniq ma’lumotlarni olish uchun Amir Temur o‘zining eng yaxshi razvedkachilarini (*josuslarni*) jo‘natgan. Faqatgina kerakli ma’lumotlarni olgandan keyingina qo‘shin harbiy yurishni boshlagan. U mahalliy aholi vakillaridan yo‘lboshchilarni (*kajarchi, kacharchi*) tanlashga ham jiddiy e’tibor bergan.[3]

Amir Temur o‘zining to‘satdan beradigan zarbalari bilan mashhur bo‘lgan. Dushman qo‘shinining soni ma’lum bo‘lganidan keyin uning armiyasi tun qorong‘usida dushmanning lageriga yashirincha yaqinlashib, tongda hujumga tashlangan. Uning qo‘shini qattiq intizomi, yuqori harakatchanligi, chidamliligi va janglarda jasorati bilan ajralib turgan.

Jang arafasida shakllanadigan jangovar tartibga katta ahamiyat berilgan. Qo‘shin hech tomonga burilmasdan va ko‘rsatilgan yo‘ldan og‘ishmasdan olg‘a harakatlangan.

Tinchlik davrida ov (*charg‘a*) asosiy mashg‘ulotlardan biri bo‘lgan, ovga urushga tayyorlovchi maktab singari ahamiyat berilgan va ularni ko‘p uyushtirishga harakat qilingan. Amir Temurning qo‘shini nafaqat tekisliklarda

jang olib borish san’atiga ega bo‘lgan, balki tog‘larda ham mohirlik bilan harakatlangan.

Sohibqironning qo‘shini harbiy yurishlarni bahor, yoz va kuzda amalga oshirgan. Qishni o‘z o‘tovlarida o‘tkazishni afzal ko‘rganlar. Harbiy yurishga otlanish muddati yaqinlashuvi bilan jangchilar hamma kerakli qurolyarog‘lari va anjomlarini tartibga keltirgan. Belgilangan vaqtda qo‘shin saf tortib yo‘lga tushgan. Uning ortidan hamma kerakli narsalar ortilgan aravalar (*ug‘ruq*) harakatlangan.

Sharafiddin Ali Yazdiyning ma’lumot berishicha, belgilangan safar tartibida (*murchil*) har bir o‘nbegi, yuzbegi, mingbegi va tumanbegi (*10 minglik qo‘shin qo‘mondoni*) o‘z mavqei va darajasiga ko‘ra, intizomga qattiq rioya qilgan holda harakatlangan. Tartibni buzganlar qattiq jazolangan, ularga hatto o‘lim jazosi ham berilgan.

Asosiy joylarning birida suvdan kechib o‘tish uchun joy hozirlangan. Kechuv qo‘riqlash postlari bilan qo‘riqlangan. Qo‘shin daryodan qismlar va bo‘linmalar tarkibida kechib o‘tgan. Kechuv paytida jangchilar qayiqlardan, meshlardan foydalangan yoki ponton ko‘priklari yasagan.

Amir Temur armiyasida o‘ljani taqsimlash davrida mabodo kimdir o‘zboshimchalik qilsa, hatto u Sohibqironning yaqin kishisi bo‘lsa ham, qattiq jazolangan. Uning butun molmulki musodara qilinib, o‘zi esa qatl etilgan. Faqat ruxsat berilganidan keyingina yurishning har bir ishtirokchisi, uning toifasi va darajasiga qaramasdan, o‘ljaning teng taqsimlangan qismini olish huquqiga ega bo‘lgan.[4]

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Амир Темур в мировой истории. - Ташкент: Шарк, 2001. - 304 с.
2. Аликулов Х. ва бошқалар. Ҳомийлик ва саҳоват – энг олий қадрият. Тошкент: И.М.Мўминов номидаги Фалсафа ва ҳуқуқ институти, 2006. - Б. 14.
3. Амир Темур сабоқлари. (Иккинчи қисм) 1998 йил Тошкентда “Амир Темур илм-фан ва маданият ҳомийси” мавзусида ўтказилган Халқаро илмий конференция материаллари. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва саънат нашриёти, 1999. – Б. 132.
4. Азиз Қаюмов. Алишер Навоий. Тошкент, 1976 й. – Б. 54.
5. Болтабоев С.Д. Туркистондаги вақф мулклари тарихи. Ўқув-услубий қўлланма. – Наманган, 2005. – Б. 12.

6. Каримов И.А. Халқимиз бор экан, Амир Темур номи барҳаётдир. “Янгича фикрлаш ва ишлаш давр талаби”. 5-том. Тошкент: Ўзбекистон, 1997. – Б. 167.

7. Мирзо Улуғбек. Тўрт улус тарихи. Б.Ахмедовнинг таҳрири остида. Тошкент: Чўлпон, 1994. – Б. 231, 249-250.

8. Раҳматова Х.Ҳ. Хожа Аҳрор Валийнинг ижтимоий-фалсафий қарашлари. МонографиЙ. – Бухоро, 2014. – Б. 87-88.

9. Саховатли инсонлар ва саломатлик посбонлари: Метод.-библиогр.қўлл. - Тошкент: Алишер Навоий ном. Ўзбекистон Миллий к-наси нашриёти.- 2006. - Б. 13.

10. Темур тузуклари. – Тошкент: Ғ.Ғулом нашриёти, 1991. – Б. 67.

AMIR TEMURNING JAHON HARBIY SAN’ATI VA FANIGA QO‘ShGAN BUYuK HISSASI

Xudoyqulov Y.A.,
Jamoat xavfsizligi universiteti dotsenti,
falsafa fanlari nomzodi, dotsent;
Mirzaliev N.A.
Jamoat xavfsizligi universiteti katta o‘qituvchisi

Mamlakatimizda olib borilayotgan keng qamrovli islohotlar jarayonida jamiyatning barcha sohalarida tub o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda. Albatta, bu islohotlarning muhim yo‘nalishlaridan biri - O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlar tizimini modernizatsiyalash va zamonaviy-professional armiyani barpo etishga qaratilgandir. Bu maqsadga erishish jarayonida harbiy fan va ta’limni zamon talablari doirasida rivojlantirish talab etiladi. Qurolli Kuchlar tizimida olib borilayotgan islohotlar jarayonida an’anaviylik va zamonaviylikning dialektik birligini kuzatish mumkin. Ya’ni, bugungi kunda jahon mamlakatlari Qurolli Kuchlar tizimida qo‘lga kiritilgan zamonaviy tajribalar bir tomonni tashkil etsa, o‘tmishda harbiy sarkardalarning individual tarzda namoyon etgan harbiy jang san’ati ikkinchi jihatni tashkil etadi. Albatta, bugungi kunda Qurolli Kuchlar tizimida harbiy xizmatchilarning nazariy bilimlarini shakllanishida buyuk sarkardalarimiz Jaloliddin Manguberdi, Amir Temurlarning harbiy jang san’ati va mahoratlari muhim ahamiyatga egadir.

Ayniqsa, murakkab bir davrda tarix sahnasida paydo bo‘lgan buyuk sarkarda, markazlashgan davlat asoschisi Amir Temur bobomizning harbiy jang san’atini o‘rganish harbiy-nazariy bilimlarni shakllanishida muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

Bu borada Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev quyidagilarni ta’kidlab o‘tadi: “Shonli tariximizda Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur, Zahiriddin Muhammad Bobur singari buyuk sarkardalarimizning oz sonli qo‘shini bilan dushmanning katta lashkari ustidan g‘alaba qozongani haqida misollar ko‘p. Albatta, ularning harbiy salohiyati, jang maydonida qo‘llagan taktika va strategiyalari – bu alohida mavzu. Lekin bu ulug‘ sarkardalarning o‘z askarlari qalbiga chinakam vatanparvarlikni, jangavor ruhni singdira olgani biz uchun bugun ham ibratlidir”[1].

Amir Temur bobomiz harbu-zarb ilmiga doir mashg‘ulotlarni otasi va padari buzrukvori qo‘l ostidagi tajribali bahodir jangchilar, merganlardan qilichbozlik, yoydan nishonga aniqlikda o‘q uzish, yakka kurash, nayza uloqtirish, sirtmoqli arqon uloqtirib g‘anim suvoriysini otdan ag‘darish kabi jangu-jadallarda asqotuvchi harb san’ati usullarini qunt bilan egallashni izchillik bilan davom ettirdi. Chavandozlik sirlari, jangovar ov qilish ushbu mashg‘ulotlarning tarkibiy qismiga aylandi. Bu esa uning kelajakda mohir suvoriy jangchi bo‘lib yetishuvida muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Shu tariqa u o‘z davrining mukammal insoni bo‘lib yetishuvi yo‘lida qattiq jiddu-jahd qildiki, xuddi shu narsa uni kelajakda jahoniy miqyosli buyuk ishlar kutayotganligini ko‘ra bilgandek doimiy, izchil izlanish va harakatda bo‘ldi.

Harb ilmining dahosi Amir Temur janglari va uning sarkardalik san’ati haqida Sharofiddin Ali Yazdiy, Nizomiddin Shomiy, Ibn Arabshoh, Hondamir va ingliz tarixchisi Eduard Gibbon, Rossiya imperiyasi bosh shtabi general-leytenanti M.Ivanin kabilar qator asarlar yaratishgan.

Amir Temur qo‘shinlari piyoda va otliq askarlardan tashkil topgan edi. Lekin piyoda qo‘shin ham uzoq cho‘l safarlarida otlar bilan ta’minlanar, otliq askarlarning katta qismi esa kerak bo‘lganda piyoda tarkibida jang qilishga ham o‘rgatilgan edi. Ular faqat kamondan zarb bilan bexato otish lozim bo‘lgandagina otdan tushib, piyoda jangchiga aylanar edi. Otliq askarlar oddiy va saralangan jangchilarga bo‘linib, yengil va og‘ir otliq qo‘shinni tashkil etar edi. Bundan tashqari, Amir Temur xos navkarlari ham bor edi.

[1] Мирзиёев Ш.М. Миллий тикланишдан – миллий юксалиш сари. – Тошкент: “Ўзбекистон” НМИУ, 2020. – Б.135.

Amir Temur harbiy san’ati va harbiy mahorati haqida ko‘p va ho‘p gapirish mumkin. Bu harbiy sarchashmani to‘laqonli o‘rganish va kerak bo‘lsa undan foydalanish har bir harbiy xizmatchining muqaddas burchi hisoblanadi. Chunki, bir necha asrlar avval buyuk sarkarda Amir Temur bobomiz tomonidan ishlab chiqilgan va qo‘llanilgan harbiy strategiya va taktikaning o‘ziga hos jihatlari bugungi kunda butun dunyoda ko‘plab harbiy oliy o‘quv yurtlarida klassik harbiy-nazariy bilimlar sifatida o‘rganilishi ma’lumdir.

Agar dushman qo‘shini soni 12000 dan oshmasa, Amir Temur ularga qarshi tegishli o‘nliklar, yuzliklar va mingliklarga ega bo‘lgan 12000 dan otliq askar yuborar edi. Bu askarlarga boshchilik qilayotgan amir (amir ul-umaro) dushman turgan yerga bir manzil qolganda Amir Temurga bu haqda xabar berishi lozim edi. Amir Temurning talabi bo‘yicha ushbu lashkar quydagi 9 qism (favj)ga bo‘linishi kerak edi. Asosiy korpus yoki rezerv (qo‘l) bir qismni, o‘ng qanot (barong‘or) uch qismni, so‘l qanot (javong‘or) uch qismni, ilg‘or favj (avong‘or) bir qismni, oldingi postlar (qorovul) bir qismni tashkil etardi. O‘ng va so‘l qanotlarning har biri uch qismdan iborat bo‘lib, ilg‘or qismlar, o‘ng va chap yoki birinchi va ikkinchi bo‘linmalarga (avong‘or, chopovul va shig‘ovulga) bo‘linar edi.

Bunday tajriba har bir harbiy urushda qo‘l kelib g‘alabalarni ta’minlashga xizmat qilgan. Xozirgi kundagi zamonaviy armiyalarda ham bu kabi harbiy xulosalar muvaffaqiyatlar uchun xizmat qilishi mumkin.

Tajribali va mohir sarkarda jang oldidan jang maydonini sinchiklab ko‘zdan kechirishi, dushman xususiyatlarini, uning qaysi tarafdan ustun ekanligini o‘rganishi, o‘z nuqsonlarini tez orada yo‘qota olishi, dushman alohida ajratilgan qismlar bilan hujumga o‘tayotgani yoki bor qo‘shinlarini birvarakayiga jangga kiritganligini kuzatishi, unga qarshi ishonch bilan harakat qilishi, muvaffaqiyatga erishish uchun uning maxfiy rejalari bor-yo‘qligini bilishi kerak edi. Amir Temurning aytishicha, dushman hujum qilishi yoki chekinmoqchi ekanligini, hujumni takrorlamoqchiligi yoki birinchi hujum bilan qanoatlanayotganligini kuzatish va tezda uqib olish katta san’at hisoblanadi. Bunday yuksak harbiy san’atga buyuk Sohibqiron ega edi. Shu fazilatlarni o‘zlashtirish va bu boradagi mashg‘ulotlar, izlanishlar Amir Temur faoliyatida doimo davom etgan.

Amir Temur qoidalariga ko‘ra lashkarboshi dushman qo‘shini sonini bilib olgach, unga qarshi o‘z qo‘shinlarini to‘g‘ri qo‘ya bilishi, dushman nima qilayotganini kuzatishi, jang maydonidagi hujum va chekinish uchun mumkin

bo‘lgan kirish va chiqish joylarini belgilashi, dushmanning jang qilish tartibi va ko‘zlagan maqsadini fahmlay olishi kerak edi. U dushman ayyorliklariga uchib, qurshovga tushib qolmaslik uchun ehtiyotkor bo‘lishi lozim edi.

Dushman qo‘shini soni 40000 dan ko‘proq bo‘lganida unga qarshi Amir Temurning o‘zi borardi. Bunday paytda uning qo‘shinlari jangga quyidagi tartibda bo‘linardilar: 40 ta bo‘linma (polkka teng) bevosita Amir Temur ixtiyorida bo‘lardi. Ulardan eng saralangan 12 ta bo‘linma birinchi qatorni, qolgan 28 tasi ikkinchi va uchunchi qatorlarni tashkil etar edi.

Jangni yengil qurollangan jangchilar (qorovullar) va avong‘orning avong‘ori boshlab berardi. Katta avong‘or amiri ularga yordamga kelib, o‘z lashkarlarini jangga kiritardi. Shu tariqa jang qilayotganlarga yordam sifatida asta-sekin birinchi, keyinroq ikkinchi qatorlar jangga kirardi. Agar bu yordamlar ham kamlik qilsa, rezerv (tarx)ning so‘l va o‘ng qanotlari, ya’ni Amir Temurning ug‘illari va nabiralari, qarindoshlari va ittifoqchilari jangga kirishardi. Ularning asosiy vazifasi – dushman bosh qo‘mondoniga hamla qilib, uni asirga olish va uning bayrog‘ini qo‘lga kiritishdan iborat yedi. Agar bu harakatlar ham g‘alabaga olib kelmasa, unda butun qolgan rezerv qismlar (qo‘l) ishga tushib, qat’iylik bilan hujum olib borardi. Bunday jang uslubi XIV asr uchun yuksak yangilik hisoblanib, Sharofiddin Ali Yazdiy yozishicha jang san’ati tarixida ilk bora Amir Temur tomonidan qo‘llanilgan va muhim g‘alabalarni qo‘lga kiritish uchun muhim omil bo‘lgan. Bunday harbiy usul va yuksak ilm sohibi bo‘lgan ajdodimizning faoliyati har bir harbiy xizmatchida yuksak g‘urur tuyg‘usini uyg‘otadi va Milliy gvardiya tizimida xizmat qilayotgan har bir harbiy xizmatchining bu jihatlarni bilishi va o‘z faoliyatida qaysidir jabhasidan foydalana olishi vatanparvarlik va yuksak g‘urur tuyg‘ularini shakllantirishga xizmat qiladi.

Demak, marakazlashgan davlat asoschisi, mohir strateg va sarkarda, buyuk bobomiz Amir Temuring harbiy mahorati va jang san’ati bugungi kunda ham harbiy fanda, hususan, harbiy xizmatchilarning nazariy va amaliy bilimlarini boyitishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Мирзиёев Ш.М. Миллий тикланишдан – миллий юксалиш сари. 4-жилд. – Тошкент: “Ўзбекистон” НМИУ, 2020. – 456 б.
2. Содиқов Х., Иноятов И., Йўлдошев Б. Ўзбекистон Қуролли Кучлари (ўтмишда ва ҳозирда) –Т.:Тафаккур қаноти., 2014. -248 б.

3. Михаил Иванин. Икки буюк саркарда. Чингизхон ва Амир Темур: ҳарбий санъати, стратегияси ва тактикаси. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2019. – 304 б.

TEMURIYLAR DAVRIDA SUV BILAN BOG‘LIQ SO‘ZLARNING QO‘LLANISHI

Xurramova D.M.,
Xalqaro innovatsion universiteti katta o‘qituvchisi

Suv tabiat hodisasi sifatida antik davr ilm-fanidan boshlab tadqiqot mavzusi bo‘lib kelgan. Tilshunoslik ilmi falsafa negizida shakllanganidek, olamning va insonning to‘rt unsur: suv, havo, tuproq, olov bilan aloqadorligi haqidagi konseptual tahlillar eng qadimgi falsafiy ta’limotlarda amalga oshirilgan.

Shu narsa ma’lumki, tiriklik uchun zarur ne’mat hisoblangan suv ***va uning fizik, kimyoviy modda sifatidagi xususiyatlari*** aniq hamda ***tabiiy fanlar kesimida tadqiq qilingan.*** Suvning agregat holati, xususiyatlari, u bilan bog‘liq talqinlar ijtimoiy fanlar, xususan, falsafa, adabiyot, tilshunoslik sohalari doirasidagi asosiy mavzulardan sanalgan. Ijtimoiy-gumanitar sohalarda, xususan, tilshunoslikda suv tushuncha, leksema darajasida uning lisoniy va nolisoniy xususiyatlari tadqiq etilib kelingan.

Qadimgi yozma obidalar “Avesto”, “O‘rxun-Enasoy” yodgorliklarida, M.Koshg‘ariy, Yusuf Xos Hojib, Beruniy, Xorazmiy, Ahmad Farg‘oniy, Az Zamahshariy, Navoiy, Bobur, Munis, Ogahiy va boshqa ajdodlarimizning asarlarida suv haqida, bu tushunchani ifodalovchisi sanalgan *suv* leksemasi, u bilan bog‘liq tushunchalar xususida qimmatli ma’lumotlar uchraydi. Jumladan, mazkur davr manbalarida *suv, su, suu, siu, sup, sub, sug* va boshqa shakllarda namoyon bo‘ladi.

Amir Temur davrida bunyod etilgan va foydalanilgan suv inshootlari ichida suv yig‘ish va saqlash uchun qazilgan chuqur joy, ichimlik suvi saqlanadigan sun’iy suv havzasi hisoblangan hovuzlar ajralib turadi. Jumladan, Sohibqiron Temur tomonidan bunyod etilgan ko‘rkam bog‘larning har biri muhandislik texnologiyalari asosida qurilgan bir nechta hovuzlar bilan jihozlangan. Bunday hovuzlar estetik zavq olish predmeti vazifasini bajarishi bilan bir qatorda, undagi suvdan turli maqsadlarda foydalanilgan. Hovuzlar

nafaqat masjidlar yonida, shahar maydonlari, bog‘lar, chorbog‘lar, saroy hovlisida, balki bozorlarda ham qurilgan. Suvni iflos qilmasdan toza saqlash odati muqaddas qonun hisoblangan. Hovuzlar tabiiy sharoitlarni hisobga olgan holda bunyod etilgan. Jamoa yerlarida dehqonchilik qilishda ham qulfakli hovuzlardan foydalanilgan. Oqsaroydagi tom tepasiga qurilgan hovuz o‘sha davr ajoyibotlaridan biri bo‘lib, hovuzga qo‘rg‘oshin quvurlardan oqib kelgan suvdan sharshara hosil qilinib pastga tushirilgan.

O‘zbek tilining 6 jildli izohli lug‘atida hovuz so‘ziga shunday izoh beriladi:

Hovuz *[a. suv to‘planadigan joy, chuqurlik; basseyn; suv idishi]* – suv saqlash uchun xizmat qiladigan, maxsus qazilgan chuqurlik. *Chuqur hovuz, Sayoz hovuz, Hovuz kovlamoq. Hovuz suvi.*

2 maxs. Uy shipiga ishlanadigan chuqur naqsh-bezak.

Qashqadaryo viloyatining Muborak tumanidagi Xo‘ja Ravshan obidasi hududida XIII-XIV asrlarga oid qishloq xarobalari, Buxoro shahridan 30 km g‘arbda joylashgan, XVI asrning 30-yillarida barpo etilgan, maydoni 0,5 gektar bo‘lgan Qizbibi xonaqosidan “*toshnov (dashnov)*” yoki “*obrez*” deb aytilgan, uyning ichidan suv chiqib ketishiga mo‘ljallangan maxsus kanalizatsiya quvuri vazifasini bajargan jihozning qoldiqlari topilgan. *Tosh* ko‘p ma’noli so‘z bo‘lib, lug‘atda berilgan bosh ma’nosida “…yaxlit massa yoki bo‘lak holida uchraydigan, suv kor qilmaydigan, qattiq, mo‘rt tog‘ jinslarining umumiy nomi[1]” deb izohlangan. Qadimgi turkiy tilda ham shu ma’noni anglatgan bu ot *ta:sh* tarzida talaffuz qilingan. Keyinchalik *a:* unlisidagi cho‘ziqlik belgisi yo‘qolib *a* unlisiga almashgan: *ta:sh-tash-tosh*. *Nov* forscha so‘z bo‘lib, suv oqish uchun mo‘ljallangan maxsus suv yo‘lagi ma’nosini beradi. *Ta:sh-nov-tash-nov-toshnov* shaklida qo‘llangan.

Ma’lumki, Xurosonning tog‘liq yerlari ko‘p bo‘lganligidan yo‘llardagi oqar suvlardan kechib o‘tish ham oson bo‘lmagan. Xondamirning xabar berishicha, Navoiy qurgan ayrim hovuz va ko‘priklar marmardan ishlangan.

A.Navoiy asarlarida *suv* so‘zi turli ma’nolarda uchraydi:

Ariq, soy, daryo: *Mamolikda yo‘llarni tuzatib, suvlarg‘a ko‘pruklar bog‘lab, ahli fasodni yo‘llardin daf’ qildikim, musofirlar farog‘at bila borir-kelish bulg‘ay. “Tarixi muluki ajam”*dan.

Suy – suv: *Ne ayb, shodlig‘ashkim erur hayot suvi,*

Bahor fasli bo‘lur chashmalar suyi afzun.

[1] O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 6 jildli. 5-jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022. – B. 380.

Ariq qazdirish, charxpalak yordamida suvni yuqoriga chiqarish, bog‘-u gulzorlar yaratib u yerlarda dam olish Boburning sevimli mashg‘uloti bo‘lgan. “Boburnoma” qo‘lyozmasining 136 b-137 a sahifalarida Kobul viloyatidagi Xoja Seyoron (Uch do‘st xojalar) chashmasi haqida so‘z boradi. Buloqdan narida oqib yotgan yarim tegirmon suv ijodkor podshohga yangi ilhom va reja hadya etgandi: “*Bu suvni men ariq qazdirib, dashti Seyoronning janubi-g‘arbiy tarafidagi pushta (tepalik)ning ustig‘a kelturttum. Pushta ustida ulug‘ gird (aylana) sufa soldurdum. Sufaning girdida tamom tol daraxtlari ekildi. Xeyli yaxshi manzile bo‘ldi. Bu sufadin yuqqorroq pushta yonida uzum bog‘i soldurdum. Bu ariqning ta’rixi “Jo‘yi xush” topildi*.” Demak, Bobur “Jo‘yi xush” (Yaxshi ariq) arig‘ini qazdirib kelib, uning atrofida dam oladigan katta supa, “yaxshi manzilgoh” qurdirgan. Bu yerga aylantirib tol ektirgan, yana ham teparoqda uzumbog‘ barpo ettirgan ekan. Hazrat podshoh “yaxshi ariq” qazdiribgina qolmay, unga atab yaxshi mansur ta’rix ham yaratgan. “Jo‘yi xush” jumlasidagi jim (3), vov (6), yo (10), xe (600), vov (6), shin (300) harflarini abjad qoidasiga ko‘ra hisoblasak, 925 hijriy yilni, milodiy 1518-1519 yilni bildiradi. Bu mansur, ya’ni nasriy ta’rixni Boburning o‘zi yozgan. Ariq qazilib, bog‘ va soya-salqin oromgoh yaratilganiga ham mana besh asrdan oshibdi. Hazratimning sadaqai joriyasi, ya’ni mudom oqib turgan obi jo‘yi qancha tashna dillarni qondirib, qanchadan qancha yerlarni obod qilgan.

“Boburnoma” asari Markaziy Osiyodagi bitilgan boshqa asarlardan farq qiladi. Juda ko‘p ma’lumotlarni o‘zida jam etgan asar dunyo tillariga ko‘p marta tarjima qilingan. “Boburnoma”da qo‘llangan so‘zlarning aksariyatini suvga aloqador so‘zlar tashkil etadi. Asarda yurtimiz gidrografiyasi – daryo va soylari, buloqlari, ko‘llari ta’rif-tavsifiga tegishli ma’lumotlarni uchratish mumkin. Unda suv manbalari, daryolarning chuqurligi, muzlashi, oqim rejimi, oqim miqdori (necha tegirmon suv oqishi) batafsil ta’riflangan [1,51]. “Boburnoma”da **oqar suv** va **qora suv** birikmalari qiyoslangan. “Nisbatlanishni ifodalovchi leksemalar oqar va qora turkumi turlicha: oqar *oq-* fe’l o‘zagi, *-ar* qo‘shimcha esa sifatdosh hosil qiluvchi shakl, ya’ni harakatni bildiruvchi leksema, qora hozirgi o‘zbek tilidagi rang bildiruvchi so‘z. Lekin bu leksemalar o‘zlarining apellyativ leksika majmuidagi ma’nosidan birmuncha o‘zgalashib, yangicha ma’no xossasiga ega bo‘ladi: **oqar suv** oqim tezligi va hajmi, miqdori oz suv, oqar suv qor erishidan hosil bo‘lgan suv; **qora suv** tog‘dan ancha uzoqdagi, qorli joydan yiroqdagi, yer osti suvi. Ya’ni **oqar suv** daryo suvi, **qora suv** buloq suvi” [5,31]. Masalan, “Konigil Siyohob

yoqasidurkim, bu qor suvni Obirahmat ham derlar. Qora suvkim, Obirahmat ham derlar. Konigilning o‘rtasidan oqar, yetti-sakkiz tegirmon suyi bo‘lg‘oy. Bu suvning atrofi tomom obgirdur. Ba’zilar derlarkim, bu o‘langning asli oti Koni obgir ekandir, vali tarixlarda tamom Konigil biturlar, xili yaxshi o‘langdur” [6, 106-107]. Yana bir o‘rinda suv leksemasi bilan bog‘liq o‘rinlar uchraydi: “Bu daryo ko‘hakning tubidan oqqanligi uchun Ko‘hak suvi deydilar. Bu daryodan bir katta anhor chiqarganlar, balki kichik daryochaday bordir, uni darg‘am suvi deydilar” .

“Boburnoma”da *suv* tushunchasini anglatuvchi hamda u bilan bog‘liq turkiy, forsiy so‘zlar: *suv, suy, sug‘ormoq, suv kichik, ingichka, qalin suv, ulug‘ suv, suv chiqarmoq, choh suvi, darg‘am suvi, suv, poyob, obgir, obduz* kabilar mavjud. Ko‘rinadiki, asarda suv so‘zi ishtirokidagi so‘z va birikmalar ko‘plab uchraydi.

Shuni aytish lozimki, Bobur asarlarida uchraydigan *suv* leksemasi o‘zining leksik ma’nosida turli fonetik shakllarda qo‘llanishi bilan birga, mazkur leksema bilan bog‘liq bir qator yasama, qo‘shma va birikma terminlarni qo‘llagan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ҳикматов Ф.Н., Айтбаев Д.П. Ўрта Осиё сув илми тарихига оид маълумотлар. – Тошкент: Университет, 2006. – Б.57.

2. Dadaboyev H. O‘zbek terminologiyasi. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2019.

3. Древнетюркский словарь. – Ленинград: Наука, 1969. – С. 14, 512, 515, 516.

4. Исломов И. Ўзбек тилида ер сатҳи кўринишларини ифодаловчи атов бирликлари тизим: Филол. фан. б. фалс. док. (PhD)…дисс. – Qарши: 2019.–125 б.

5. Жабборов Х. Ўзбек тилида сув лексемасининг луғавий-маъновий хусусиятлари. – Қарши: Насаф, 2005. –Б.27.2.

6. Заҳириддин Муҳаммад Бобур Бобурнома. – Тошкент: Юлдузча, 1989. – 368 б.

7. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. – Тошкент: Университет, 2003. – 600 б.

“TEMUR TUZUKLARI”DA VATANPARVARLIK G‘OYALARI

Xursandov A.S.,
Jamoat xavfsizligi universiteti
Tillarni o‘rganish kafedrasi
boshlig‘i, PhD, dotsent.

Mamlakatimizda demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyat qurish jarayonida Milliy gvardiya xodimlari, kursantlari va harbiy bo‘linmalari harbiy xizmatchilarida to‘g‘rilik, halollik, poklik, vatanparvarlik, insonparvarlik va ezgulik kabi tuyg‘ularni shakllantirish dolzarb vazifa hisoblanadi. Ular muntazam o‘z bilim saviyasi va kasb mahoratlarini tinmay oshirib borishlari, ma’naviy kamolotga erishishga harakat qilishlari hamda sog‘lom bo‘lishlari zarur. Sog‘lom deganda, faqat jismonan baquvvat Milliy gvardiya xodimlari, kursantlari va harbiy xizmatchisini tushunmaslik kerak. Ular jismonan sog‘lom bo‘lishlari bilan birga, ma’naviy jihatdan sog‘lom, aqliy rivojlangan, axloqi yaxshi, ma’rifatli bo‘lishlari talab etiladi.

Mustaqillikka erishganimizdan so‘ng tarixning unutilmas sahifalariga, jumladan, yozma merosni o‘rganishga ham e’tibor kuchaytirildi. Bizning barcha havas qilsa arziydigan buyuk tariximiz, ulug‘ ajdodlarimiz va beqiyos boyliklarimiz bor.

Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Buyuk tarixda hech narsa izsiz ketmaydi. U xalqning qonida, tarixiy xotirasida saqlanadi va amaliy ishlarda namoyon bo‘ladi. Shuning uchun ham u qudratlidir. Tarixiy merosni asrab-avaylash, o‘rganish va avlodlardan-avlodlarga qoldirish davlatimiz siyosatining eng muhim ustuvor yo‘nalishlaridan biridir” [1].

Olti asrdan buyon ayniqsa, ilmiy jamoatchilik nazarini tortib kelayotgan “Temur tuzuklari”ga to‘xtalib o‘tamiz. Chunki, Sohibqiron bobomiz Amir Temurning axloqiy g‘oyalari, fikr va qarashlari aynan shu manbada o‘z aksini topgan. Shu boisdan, mamlakatimiz Birinchi Prezidenti “Temur tuzuklari” haqida to‘xtalib o‘tib, “ Temur tuzuklari”ni har gal o‘qir ekanman, xuddiki o‘zimga qandaydir ruhiy kuch quvvat topgandek bo‘laman. O‘z ish faoliyatimda bu kitobga takror-takror murojaat qilib, undagi hech qachon eskirmaydigan inson ma’naviyati uchun bugun ham oziq bo‘ladigan hikmatli fikrlarning qanchalik hayotiy ekaniga ko‘p bor ishonch hosil qilaman” [2],-deya ta’kidlagan edi.

“Temur tuzuklari” hayot sinovlarini boshidan o‘tkazgan, bir umr ona-Vatan, el-yurt tashvishi bilan yashagan fidoyi shaxs, harbiy vatanparvarlik

timsoli, buyuk davlat arbobi – Amir Temur bobomizga nisbatan berilgan tarixiy-siyosiy asardir.

Ushbu asar XIV-XV asrlar tarixiga oid qimmatli manba hisoblanib, unda Amir Temur bobomizning Movarounnahrni mo‘g‘ullardan xalos qilishlari, hokimiyatni qo‘lga kiritishlari, mustaqil va markazlashgan davlat tuzganliklari, o‘zga mamlakatlarda yurish qilishlari hamda Movarounnahr va Xurosonda olib borgan ijtimoiy-siyosiy va madaniy faoliyatlari yoritilgan.

“Temur tuzuklari”da Vatannning ozodligi va obodligi, uning sarhadlari dahlsizligi, mustaqilligini himoyasi yo‘lida fidoiylik ko‘rsatib yashash, ona-xalqining or-nomusi, shon-sharafi, baxtu saodati uchun kuch g‘ayrati, bilim va tajribasi, butun hayotini bahsh etishdek dunyodagi eng muqaddas va oliy janob fazilarlar, harbiy vatanparvarlik g‘oyalari mazmunan o‘zining ifodasini topgan.

Darhaqiqat, “Temur tuzuklari” da hech qachon eskirmaydigan hayot hikmatlari mavjud. Masalan, “Tajribamda ko‘rilgankim, azmi qat’iy, tadbirkor, hushyor, mard va shijoatli bir kishi mingta tadbirsiz, loqayd kishidan yaxshiroqdir”, degan fikrlar naqadar dolzarbligi bugungi kunda ham barchamizga ayon. Yoki u zotning: “Saltanat ishlarining to‘qqiz ulushini mashvarat, tadbir va kengash qolgan bir ulushini esa qilich bilan bajo keltirish zarur”, degan ko‘rsatmalarida hozirgi notinch zamon uchun, XXI asr siyosatdonlari uchun ham har jihatdan ibratli g‘oyalar borligini ta’kidlash joiz. Amir Temur bobomizning bunday chuqur ma’noli so‘zlari, ayniqsa, “Bilagi zo‘r birni, bilimi zo‘r mingni yiqar” degan hikmati insonni doimo aql-idrok, ilmu ma’rifat asosida yashashga da’vat etishi bilan alohida ahamiyatga egadir.

Buyuk sarkarda, Sohibqiron Amir Temur “Kuch - adolatdadir” degan hikmati asrlar davomida xalqimiz hayotidan keng o‘rin egallab kelmoqda. Ushbu g‘oyaning asosida xalqimizga xos vatanparvarlik, mardlik, odamiylik, jasorat kabi fazilatlar mujassamdir. Bobokalonimizning adolat haqidagi bu so‘zlari, ayni paytda, Vatanni asrab-avaylash uchun ham asos bo‘lib xizmat qiladi. Chunki, mustaqilligimizni mustahkamlash, uni himoya qilish, yurtimiz sha’ni-shavkatini yuksaltirish, insof va diyonat humkron bo‘lgan erkin, fuqarolik jamiyatni qurish kabi sa’y-harakatlarimiz adolat poydevori asosida quriladi. Faylasuf olim Abdulla Sher o‘zining “Axloqshunoslik” nomli darsligida “Sohibqironning “Kuch-adolatda” degan tamoyili shunchaki gap emasdi, - deydi. Amir Temur amalda haqiqat va adolat tarafdori edi[3].

Shu sababli hatto Temurda o‘zining shaxsiy adovati bo‘lgan tarixchi Ibn Arabshoh, agar nohaqlik yuz bersa-yu, nohaqlik qilgan kishi Temurga ota yoki

farzand maqomida bo‘lsa ham, u kishi juda qattiq jazoga mahkum etilardi, deb yozib qoldirgan[4]. Amir Temur Vatanini, millatini ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, madaniy, va ma’naviy jihatdan yuksaklikka olib chiqdi. Millati bilan o‘zi ham ulug‘lik maqomiga erishdi. Vatanining istiqloli va istiqboli yo‘lida fidoyilik ko‘rsatgan, ularning dovrug‘ini butun dunyoga taratgan insonlarni tarix ham, kelajak avlod ham unutmaydi. Zero, Amir Temur tarixiy, unutilmas shaxs, xalqimiz dahosining timsoli, ma’naviy qudratimiz ramzidir.

“Tuzuklar”da vatanparvarlik mezonini belgilaydigan jihatlar sirasiga Sohibqiron Amir Temurning do‘stlari, maslakdoshlari, unga hayrixoh bo‘lgan kishilarga munosabatini ham kiritish o‘rinlidir. Bu haqdagi tuzukda quyidagicha bayon etiladi: “Yaxshilarga-yaxshilik qildim, yomonlarni esa o‘z yomonliklariga topshirdim. Kim menga do‘stlik qilsa qadrladim, do‘stligini unutmadim va unga muruvvat, ehson, izzatu ikrom ko‘rsatdim. Kimki mening xizmatimni qilgan bo‘lsa, xizmati haqqini ado etdim. Kimki menga dushmanlik qilsayu, keyin pushaymon bo‘lib, iltijo bilan himoya istab, tiz cho‘kib huzurimga kelsa, dushmanligini unutib, muruvvat va do‘stlik ko‘rsatdim” [5].

Shuningdek, yaqin qarindoshlarga nisbatan yaxshi munosabat hukmdorlarga xos fazilat bo‘lib, tuzuklarda qarindoshlar bilan yaxshi munosabatda bo‘lish ta’kidlanadi: - “Farzandlar, qarindoshlar, yoru-birodarlar, qo‘shnilar va men bilan bir vaqtlar do‘stlik qilgan barcha odamlarni davlatu ne’mat martabasiga erishganimda unutmadim, (molu mulk va naqd pul bilan) haqlarini ado etdim. O‘z farzandlarim, qavmu qarindoshlarimdan qarindoshlik mehrini uzmadim. Ulardan noravo ish o‘tgan bo‘lsa, darhol (qo‘l oyog‘ini) bog‘lab, o‘ldirishga buyurmadim. Har kimni (turish-turmushning pastu balandlarida) turli yo‘llar bilan sinab bilib oldim va ularga shunga yarasha muomala qildim. Hayotning ko‘p issiq-sovug‘ini ko‘rib, ulardan saboq olib, tajribamni oshirdim. Shuning uchun do‘stu dushman bilan kelishib yashadim” [6].

Vatanni sevish, uni asrab-avaylash, sadoqatli bo‘lish uning himoyasiga jonini tikish insondan juda katta mas’uliyatni talab qiladigan ma’naviy hodisadir. Sohibqiron bobomiz nafaqat atoqli davlat arbobi, balki unda yuksak vatanparvarlik g‘oyasi mavjud bo‘lganligi bois uning faoliyati harbiy tarixchilarning ham diqqatini o‘ziga tortgan. Bu borada rus harbiy tarixchisi M.I.Ivaninning “Ikki buyuk sarkarda” nomli risolasidagi quyidagi fikr ahamiyatlidir: “Amir Temur jismoniy jazo berishni yoqtirmaganligi uchun uni

ta’qiqlab qo‘ygan, hokimiyatni qamchi va tayoqdan kuchsiz bo‘lgan boshliq o‘zi egallab turgan lavozimga mos emas, der edi” [7].

Uning bu fikrini tasdiqlovchi ma’lumotlar ko‘plab uchraydi. Masalan, “Temur tuzuklari”da Sohibqiron, mahalliy hokimiyat boshliqlari soliqlarni buyruq va yaxshi so‘z bilan olishlarini, bu ishlarida aholini urush-so‘kishlarsiz, jismoniy tazyiq o‘tkazmasdan, kishanlamasdan soliq yig‘ishlarini uqtirib o‘tgan.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, faqat katta ma’naviy salohiyatga ega bo‘lgan insonlargina millat, Vatan ahamiyatiga molik ulug‘ g‘oyalarni, ishlarni amalga oshirishga qodir bo‘ladilar. Demoqchimizki, Amir Temur ulug‘ligining asosida uning ma’naviy sifatlari turadi. Bu sifatlar orasida uning vatanga bo‘lgan muhabbati hamda yuksak vatanparvarligi va jonkuyarligi ulug‘ fazilat sifatida ko‘zga tashlanadi. Sohibqiron bobomizning ma’naviy salohiyatining kuchi va hosilasi ham ana shundadir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild. -T.: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. -B.29.

2. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. –T.: “Ma’naviyat”, 2008. –B.45.

3. Abdulla Sher. Axloqshunoslik. Darslik. –T.: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2010. –B.59.

4. Qarang: Ibn Arabshoh. Amir Temur tarixi. 1-kitob./U.Uvatov tarjimasi. –T.: “Mehnat”, 1992. –B.247.

5. Temur tuzuklari. Toshkent. “O‘zbekiston” NMIU, 2014. –B.77.

6. Temur tuzuklari. Toshkent. “O‘zbekiston” NMIU, 2014. –B.78

7. Ivanin M. Ikki buyuk sarkarda: Chingizxon va Amir Temur. –T.: Fan, 1994. –B.132.

AMIR TEMUR DAVRIDA ARXIVLAR FAOLIYATI VA ISH YURITISH TIZIMI

Choriyev Sh.Sh.,

O‘zbekiston Milliy universiteti dotsenti, tarix fanlari doktori.

Jahon tarixida Amir Temur va temurilar davlati tarixini o‘rganish har bir davr tarixchilari uchun muhim mavzulardan biri hisoblangan. Amir Temur va temuriylar davri tarixini o‘rganish nafaqat ilmiy va ma’rifiy ahamiyat kasb etib qolmasdan, tarbiyaviy va amaliy ahamiyatga ham egadir. Bu davrda

shakllangan va rivojlangan tarix saboqlaridan mustaqilligimizni mustahkamlash va asrab avaylash yo‘lida foydalanish zarur [1, 9-bet].

Arxivlar davlatchilik tarixini o‘rganishda muhim ahamiyat kasb etib, ularda saqlangan hujjatlar muhim tarixiy manbalar hisoblanadi. Amir Temur va temuriylar davri tarixshunosligida arxivlar tarixi bugungi kungacha alohida tadqiqot mavzusi sifatida o‘rganilmagan dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Amir Temur davriga kelib O‘rta Osiyoda davlat boshqaruv tizimida ko‘plab o‘zgarishlar ro‘y berdi. Amir Temur buyuk saltanat tuzgach, uni hududiy-ma’muriy jihatdan viloyatlar va tumanlarga taqsimlab, idora qilishda suyurg‘ol tizimidan keng foydalangan. Sohibqiron eng yirik hududlarni o‘g‘illariga yoki nevaralariga bo‘lib bergan, o‘zi egallagan mamlakatlarning ayrimlarini boshqarishni o‘sha joyning o‘z hukmdorlariga qoldirgan. (Dashti Qipchoq va Jo‘chi ulusi (Oltin O‘rda)ni Jo‘chixon avlodiga, Rum mamlakatini Yildirim Boyazid avlodiga, Misr mamlakatini esa Misr sultoniga).

Markaziy Osiyodagi yerlardan (yirik ma’muriy bo‘linish bo‘yicha) Movarounnahr bevosita Amir Temurning o‘z hukmida bo‘lib, unga Xorazm ham kiritilgan. Markaziy Osiyoning shimoliy qismi – hozirgi Qozog‘iston hududi “Zafarnoma”da Dashti Qipchoq (ba’zan qisqa shaklda “Dasht”) nomi bilan tilga olingan. Markazi – Sig‘noq shahri bo‘lgan. Amir Temur dastlab, bu joylarni To‘xtamishxonga bergan, keyinchalik u yerga o‘z amirlaridan hokim tayinlagan.

Amir Temur davlat boshlig‘i bo‘lib, mamlakatni devon xizmati vositasida idora qilgan. Harbiy soha – amirlar, qonunchilik sohalari – qoziliklar va islom dini tartiblari – shayxulislom hukmiga havola etilgan, vaqflarga sadri a’zam mutasaddi bo‘lgan.

Devoni a’lo – podshoh devoni, boshqaruv tizimidagi eng oliy davlat muassasasi hisoblangan. Podshoh devoni ko‘proq “borgoh” atamasi orqali ham ifodalangan; forscha “borgoh” – podshoh qasri, qabulxonasi va h.k. ma’nolarni anglatadi. Uni yana “o‘rduyi humoyun” (saodat o‘rdasi), “o‘rduyi a’lo” (eng oliy o‘rda) deb ataganlar.

Devon davlat siyosiy tuzumining asosiy tarkibiy qismi sanalgan. Muntazam kengashlar o‘tkazilardi va muhim masalalar bo‘yicha vaqti-vaqti bilan qurultoylar chaqirilardi. Bunday yig‘inlarda biror-bir masala bo‘yicha ko‘pchilikning fikri albatta inobatga olingan. Masalan, Amir Temur Dashti Qipchoqqa To‘xtamishxon ustiga yurishga otlanganida, arkoni davlatning maslahati bilan avval Mo‘g‘ulistonga yurish qiladi. Davlat boshqaruvida

birinchi o‘rinda Amir Temurning davlatdorlik qobiliyati turadi. Tarixchi olim Ibn Arabshoh uning ana shu xususiyati to‘g‘risida o‘z xuloslarini quyidagicha bayon qilgan.

Davlatni boshqarishda uning maxsus muhri bo‘lib, farmonlar aynan ushbu muhr bilan tasdiqlangan. Bu haqda tarixchi Ibn Arabshoh yozganlar yuqorida keltirilgan ma’lumotlarni to‘ldiradi. U “Ajoyib al-maqdur” asarida shunday yozadi: “Temur tamg‘asining naqshi “rosti rasti” bo‘lib, bu “haqgo‘y bo‘lsang, najot topasan” demakdir. Uning otlaridagi tamg‘a, tangayu tillolariga zarb beriladigan (asosiy) belgi ham mana shunday (ooo) uch halqadan iborat edi” [1, 65-b].

Haqiqatda, bizning davrimizgacha yetib kelgan Amir Temur devoniga tegishli rasmiy hujjatlarda ushbu shakldagi muhr bosilgan. Uch halqa hozirda mavjud Amir Temur tangalarida ham zarb qilingan.

Amir Temur devonida muhrdorlik vazifasi bor edi va u safarlarda ham birga bo‘lardi. Dashti Qipchoqqa birinchi yurishda dushman qorovuli bilan to‘qnashuvda amir Iyku Temur halok bo‘ladi. Amir Temur iltifot ko‘rsatib, qarindoshlaridan bo‘lmish Qaljag‘oyning o‘g‘li Shohmalikni devonga ishga oladi. Sohibqiron devonda Iyku Temur bajarib kelgan vazifani unga topshirib, katta muhr (muhri kalon) va undan kichik muhrni (Sharafiddin Ali Yazdiy uni muhri parvona deydi) unga topshiradi. Devondagi bu mansab parvonachi deb atalgan, devon kotibiyatidagi eng yuqori mansab sanalgan; parvonachi podshoh hukmlari va farmonlariga, darajasiga qarab, tegishli muhrni bosgan.

Kastiliya qiroli elchisi Rui Gonsales de Klavixo “Samarqandga, Amir Temur saroyiga sayohat kundaligi” (1403-1406) nomli asarida Amir Temur saroyida muhrdorlik xizmati va kundalik foydalanishda mavjud muhrlar haqida muhim ma’lumotlar yozib qoldirgan. U jumladan, shunday yozadi:

“Senyor har doim o‘zi bilan qozilarni olib yuradi, ular senyorning lashkarlarini va xonadonini kuzatib boradilar. Ular biror joyga borib qolsalar, o‘sha yerdagi aholi ularga quloq tutadi. Mazkur qozilar quyidagicha mansablarga qo‘yilgan: birlari yuz beradigan muhim ishlar va bahslarni eshitadi; boshqa birlari senyorning pul (moliya) ishlarini, uchinchilari esa viloyatlardagi va shaharlardagi unga tobe hokimlarni nazorat qiladi; yana birlari elchilar bilan shug‘ullanadi. Lashkar qo‘nganda, ularning har biri qayerda bo‘lishini va nima ish qilishini (yaxshi) biladi. Ular uchta chodir tikib, o‘sha yerda ish bilan kelganlarni qabul qiladilar. (So‘ngra) senyorning huzuriga borib hisobot beradilar, undan qaytib (bir paytning o‘zida) oltita yoki to‘rtta (ish)

yuzasidan qaror chiqaradilar. Ular biror-bir yorliq (yoki ko‘rsatma) berishni buyurganlarida, u yerda doim hozir turgan kotiblar darhol yozadilar; u yozilgach, doim o‘sha yerda saqlanadigan qayd daftariga kiritadilar va (unga) belgi qo‘yadilar; so‘ngra uni oidorga ko‘rish uchun uzatadilar; (oidor) kumush o‘yma muhrni olib, unga siyoh suradi va yorliqning ichki tomoniga muhr bosadi. So‘ng uni boshqasi olib qayddan o‘tkazadi va o‘z boshlig‘iga beradi va u (yana bitta) siyohli muhr bosadi. Shu yo‘sinda uch yoki to‘rt (oidordan) o‘tgach, o‘rtaga podshoh muhrini bosadi, unga “rostiy” so‘zi yozilgan va o‘rtasida quyidagi uchta belgi bor: ooo . har bir maslahatchi (qozi)ning o‘z kotibi va qayd daftari bor. Bu yorliqning (kuchi) shu darajadaki, undagi mirassalar va podshoh muhrini ko‘rsatgan zahoti hamma (zarur) narsa o‘sha kuni, o‘sha soatda, kechiktirmasdan amalga oshiriladi [2, 204-205 betlar].

Amir Temur saroyida saroy tarixchilari ham xizmat qilganlar. Ular yilnomalarni yozib borganlar. Hujjatlarning ko‘p qismi va qo‘lyozmalar saroy kutubxonalarida saqlangan. Bu tizim temuriylar davrida ham saqlanib qolgan. Jumladan, 1391 yili Dashti qipchoqqa yurishi paytida 26 aprel kuni Qozog‘istonning Ulu-tou degan joyiga yetganda “Amir sohibqiron tog‘ ustiga chiqib, har yon nazar soldi. Atrof poyensiz sahro va cho‘li biyobon edi. U kuni shu joyda to‘xtab hamma lashkarga tosh keltirishni buyurdi. U joyda baland bir nishona –minora ko‘tardilar. Toshtaroshlarga buyurdi, ular u kunlar tarixini toshga naqsh qildilar, toki u nishona turar ekan, zamona saxifasida bu yurish zikri boqiy qolgay ” – deyiladi [3, 158-bet]. Bu harsangtosh asrimizning 30-yillari o‘rtasida Qozog‘istonning Qarsakpay ma’dani yonida topilgan, hozir Ermitaj muzeyida saqlanmoqda. Unga 11 satr yozuv bitilgan, yozuvning 8 satri qadim uyg‘ur va 3 satri arab harfida yozilgan. Arab harfidagi 3 satrni o‘qib bo‘lmaydi. Lekin uyg‘ur tilidagi satrlarni o‘qisa bo‘ladi. Undan ma’lum bo‘lishicha, “1391 yil (793 xijriy yil) qo‘y yili yoz faslining o‘rtasida Turon sultoni Temurbek 200 ming kishilik o‘rdusi bilan To‘qtamishxonga qarshi safarga chiqdi” mazmunidagi bitik bitilgan [4, 429-bet].

– Amir Temur davridagi arxivlar faoliyati haqida xulosa qilib aytish mumkinki:

– Samarqand shahrida Ko‘ksaroy ma’muriy bino hisoblanib, unda ko‘pgina hujjatlar sandiqlarda saqlangan. Ko‘ksaroy vaqt o‘tishi bilan bugungi kunda yemirilib buzilib ketgan;

– Harbiy yurishlar vaqtida ma’muriy xodimlardan vakillar joriy ish yuritish xodimlari va arxivlar qo‘shin bilan birgalikda olib yurilgan;

– Amir Temur harbiy yurishlarda bo‘lgan chog‘ida, uning maxfiy xizmatiga turli mamlakatlardan ma’lumotlar kelib yig‘ilib turgan, ular asosida ma’lumotnoma tayyorlab Amir Temurga berishgan.

– Sharafutdin Ali Yazdiyning “Zafarnoma” asarida ko‘plab arxiv sohasiga oid ma’lumotlar uchratish mumkin;

Foydalanilgan manba va adabiyotlar:

1..Керен, Люсен. Саидов Акмал. Амир Темур ва Франция / тўлдирилган ва қайта ишланган иккинчи нашр. – Тошкент: Адолат, 2016. -560 бет.

2.Темур тарихида тақдир ажойиботлари / Араб тилидан тарж. Ва изоҳларни, сўз бошини У.Уватов тайёрлаган. Масъул муҳаррир А.Ўринбоев. К.2. – Т. Меҳнат, 1992. -192 бет.

3.Rui Gonsales de Klovixo. Samarqandga- Amir Temur saroyiga sayohat kundaligi (1403-1406 yilar.)/tarjima matni, so‘zboshi va izohlar M. Safarov-Toshkent:. O‘zbekiston-2010. -261 b.

4.Низомиддин Шомий. Зафарнома. / форс тилидан Юнусхон Ҳакимжонов Тошкент: Ўзбекистон, 1996. -544 б.

AMIR TEMUR TUZUKLARIDA JANG SAN’ATI

Kuldashev I.X.,
Jamoat xavfsizligi universiteti kafedra boshlig‘i,
texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent,

Amir Temur bobomiz buyuk jahongir bo‘lishi bilan birga, kuch-qudrat zo‘rligu zo‘ravonlikda emas, aksincha, adolat, hamjihatlik va hamkorlikda ekanini chuqur anglagan hukmdorlar siradiga kiradi. Uning jang boshqarish mahorati, o‘ta mushkul va imkonsiz vaziyatda ham to‘g‘ri yo‘l topa olish qobiliyati, noyob aql-zakovati har qanday odamni hayratga soladi.

Amir Temur siyosiy tarqoqlik oqibatida parokandalik, og‘ir iqtisodiy inqiroz, bosqinchilarning zo‘ravonligi, xalq noroziligi va ma’naviy tushkunlik hukmron bo‘lgan Movarounnahrni muqarrar halokatdan qutqarib qoldi. Yurt istiqboli uchun matonatli kurash olib borib, markazlashgan davlatni qayta tikladi. Davlat boshqaruvida tartib-intizom, qonuniylikni mustahkamlash,

mehnat ahliga hurmat va imkoniyat, barqaror soliq tizimi, mamlakat himoyasini ta’minlashga katta e’tibor berdi. Tashqi siyosatda dushmanlardan himoyalanish, karvon yo‘llarining xavfsizligini ta’minlash, zolim, sotqin va xiyonatkor shaxslarni jazolash, o‘z davlatining siyosiy ta’sirini kengaytirishga harakat qilgan.

Ma’lumki, Temur tuzgan qo‘shin o‘zining strategik va taktik mahorati bilan o‘sha davrning eng mukammal, kuchli armiyalaridan hisoblanadi. Uning tashkilotchisi va yetakchisi esa tajribali, mohir sarkarda sifatida shuhrat topdi. «Temur tuzuklari»da qo‘shinning tuzilishi, qurollanishi, harbiy san’ati haqida muhim ma’lumotlar keltirilgan. Xususan, uning jang oldidan safga tizilishi va qo‘shinlarning joylashtirilishi haqidagi ma’lumotlar nihoyatda qimmatlidir.

Sohibqiron 3 yillik, 5 yillik va 7 yillik harbiy yurishlari bilan tarixda o‘ziga xos nom qozondi. Amir Temur zabt etilgan hudud yoki saltanatda zudlik bilan tartib-intizom, adolat va barqarorlikni o‘rnatishga harakat qilgan, aholi holidan xabar olib, yetim-yesirlarning boshini silagan, olimlar, tarixchilarning hurmatini joyiga qo‘yib, ularga shart-sharoit yaratib bergan. Uzluksiz urushlar davrida ham obodonchilikka katta e’tibor berganini ko‘plab tarixiy manbalar tasdiqlaydi.

U do‘st-dushmanligiga qaramay, har joyda sipohiylarni hurmat qildi. G‘anim sipohidan biror odam o‘z valine’matiga sidqidildan xizmat qilib, urush kunlarida unga qarshi qilich ko‘targan bo‘lsa ham, unday odamga nisbatan lutf-marhamatlar ko‘rsatdi. Qoshiga panoh istab kelganda, uni qadrladi.

Amir Temur buyuk sarkarda sifatida, eng avvalo, o‘z armiyasining intizomiga nihoyatda e’tibor bergan. Zero, intizomsiz qo‘shinning g‘alabasiga ishonib bo‘lmasligi, tartib-intizom, jangovar ruhiyatning ahamiyati nechog‘li muhimligini to‘g‘ri anglagan. Uning boy merosi bo‘lgan “Temur tuzuklari”da o‘qiymiz: “...men bilan ittifoqi buzilgan toifadagi boshqa amirlarni ham birma-bir xoli joyga chorlab, har qaysisi bilan alohida gaplashdim. Bulardan mol-dunyoga hirs qo‘ygan ochko‘z va tamagirlariga mol-ashyo va’da qildim, mansab-martabaga, mamlakatlarni boshqarishga ko‘z tikkan amalparastlarga qo‘lga kiritgan mamlakatlar, viloyatlardan birining hokimligini berdim”. Bundan tashqari, sipohiylarni ham oziq-ovqat, kiyim-kechak bilan ta’minlab, shirin so‘z, ochiq yuz bilan ularning ishonchini qozonganini, bir xizmatini o‘n barobar qilib taqdirlab, dillarini xushnud aylaganini ta’kidlaydi. Zotan, lashkarlardan ko‘ngli tinchigan Temur har qanday jangga ildam va ishonch bilan kirisha olgan. “Temur tuzuklari”ni jangu jadal, urush maydoniga kirish va

chiqish, qo‘shinni saflash, g‘anim lashkarlarini sindirish tuzuklari sifatida o‘ziga xos harbiy nizom deb qarash joizdir.

Amir Temur lashkarlarining kam yoki ko‘pligiga qarab, uning tuzilmasini doim takomillashtirib, jang san’atining yangi tamoyillarini ishlab chiqishni hech qachon kechiktirmaslikni yodda tutgan va buni barcha janglarining muvaffaqiyati deb bilgan. Jang san’atining markazida lashkarlarning intizomi, ruhiy tetikligi, qurol-aslahani ishlatish mahorati va qiyin vaziyatlarda o‘ta tezlik bilan tadbirlarni qo‘llay olish, lashkarboshilarga nisbatan ishonch hamda mustaqil qarorlar qabul qilishga izn berish taktikasini ham keng qo‘llagan.

Sohibqiron lashkarlarning ko‘pligi yoki qurol-aslahasining mukammalligi, yordam kuchlarining hozirligi bilan bir vaqtda, janggohning geografik muhiti, relefi va iqlimiga ham katta e’tibor bergan. Temurning jang san’ati doimo o‘zgaruvchan va mukammal bo‘lganligidan g‘animning bir to‘xtamga kela olmasligi, uning taktikasini tezda ilg‘ab ololmasligi ham dushmanning mag‘lubiyatiga sabab bo‘lgan.

Tuzuklarda ko‘rsatilishicha, o‘n ikki ming otliq askarni to‘qqiz qismga bo‘lish ushbu tartibda amalga oshirilgan: qo‘lda bir favj, barong‘orda uch favj, javong‘orda uch favj, hirovulda bir favj va qorovulda bir favj turgan.

Amir ul-umaro urush maydonini tanlashda to‘rt narsani nazarda tutishini tayinlagan. Birinchisi – u yerning suvga uzoq-yaqinligi, ikkinchisi – askar saqlaydigan yerning xavfsizligi, uchinchisi – g‘anim lashkari turgan yerdan teparoqqa joylashishi va oftobga ro‘baro‘ bo‘lmasligi, toki quyosh shu’lasi sipohiylar ko‘zini qamashtirmasin, to‘rtinchisi – urush maydoni oldi ochiq, keng joy bo‘lishi lozim.

Sohibqiron shunday o‘git beradi:

“Sardor lashkar nazoratchisi bilan birga, dushman sipohining oz-ko‘pligini mulohaza etsinlar, sarkardalarini g‘anim lashkarboshilari bilan solishtirsinlar. Shunga qarab, o‘z sipohlarining kamu ko‘stlarini to‘g‘rilab, jangga hozirlansinlar. Yana o‘z sipohining qurol-aslahalarini dushmanniki bilan taqqoslasinlar. G‘animning urush olib borish yo‘llarini shoshmasdan, bir zayldami yoki shiddat bilanmi, jangga kirishishini kuzatsinlar. Yana g‘animning jang qilish tartibini chamalab ko‘rsinlarki, ular bor askari bilan bir yo‘la ot qo‘yib, shiddatkorona hujum qiladimi yoki favj-favj bo‘lib, ketma-ket hamla etadimi? Yana ko‘rsinlarki, g‘anim hamla vaqtida, jang qilib orqaga qaytib, keyin yana hamlaga kirishadimi yoki birinchi hamlasi bilan chegaralanib, oxirigacha savashadimi? G‘anim agar orqasiga qaytmay savash

qursa, sipoh uning hamlasidan yetgan zarbaga sabr-toqat qilib, oxirigacha turib berishi kerak...

Ishbilarmon lashkarboshi o‘zini va to‘qqiz sipohiy favjini bir tandek ko‘rib, ularni qo‘l-oyog‘i, boshi, ko‘kragi va boshqa a’zolarini ishlatib kurashuvchi bir pahlavondek hisoblasin. Shundagina, g‘anim sipohi favjlari ustiga ketma-ket urilgan to‘qqizta qilich zarbasidan keyin, to‘qqizinchi zarbada, albatta, yengilishiga umid qilsa bo‘ladi...

Shunday qilib, sardor aqlu tadbirkorlik bilan ish yuritib, shoshma-shosharlik qilmasin, chunki shoshqaloqlik shaytonning ishidir. Chorasi bo‘lmagan ishga kirishmasin, chunki undan qutulib bo‘lmaydi”.

Darhaqiqat, Amir Temur bir marta ham mag‘lubiyat alamini tatib ko‘rmagan. Qo‘shin va harbiylar orasida Sohibqironning obro‘-e’tibori kuchli bo‘lgan, armiya juda serharakatchan tarzda faoliyat yurgizib, e’tiborga loyiq tartib-intizom o‘rnatilgan, katta hajmda mukofot puli tarqatish rasm bo‘lgan.

Muntazam qo‘shin saltanatning asosiy poydevori bo‘lganligi uchun ham Amir Temur unga katta e’tibor berdi. U o‘z armiyasini harbiy jihatdan takomillashtirarkan, qo‘shin boshliqlarini tanlash, tarbiyalash, o‘rniga qo‘yish, harbiy qismlarni joylashtirish, navkar va sarbozlarning qurollanishi hamda ichki intizom masalalariga alohida e’tibor qaratgan. Uning qo‘shini asosan urush paytida to‘planadigan lashkarlardan iborat bo‘lib, tuman, minglik, yuzlik, o‘nliklardan tashkil topgan. Tumanlarda askarlarning soni 10 ming, qo‘shinda 100 ming nafardan ortiq bo‘lgan. Temur o‘n minglik lashkarlarni boshqarish uchun “mirihazor”, yuzliklar uchun “qo‘shinboshi”, o‘nliklar uchun esa “aylboshi” kabi harbiy unvonlarni ta’sis etgan.

Amir Temur o‘zining ulkan imperiyasini uluslarga bo‘lib idora qildi. Movarounnahrdan boshqa uning tasarrufida bo‘lgan barcha viloyat va mamlakatlar to‘rt ulusga bo‘lindi. Temurning to‘ng‘ich o‘g‘li Muhammad Jahongirga bir viloyat bilan 12 ming kishilik qo‘shin, ikkinchi o‘g‘li Umarshayxga bir viloyat bilan 10 ming askar, uchinchi o‘g‘li Mironshohga bir viloyat bilan 9 ming kishilik qo‘shin, kenja o‘g‘li Shohruhga bir viloyat bilan 7 ming askar berildi. Lekin uluslar, garchand, markaziy hukumatga itoat etsalarda, ma’lum mustaqillikka ega edi. Ulus hukmdorlarining alohida davlat apparati, mustaqil qo‘shini bo‘lib, ularning markaziy hukumatga tobeligi xirojning bir qismini Samarqandga yuborib turish va oliy hukmdor harbiy yurishlar uyushtirganda o‘z qo‘shini bilan qatnashish yoki oliy hukmdor talab qilganda askar yuborib turishdan iborat edi.

Amir Temur armiyasining tuzilishi o‘zbek davlatchiligi an’analarining davomi bo‘lib, asriy tajribalarga tayangan holda tashkil etilgan. Qo‘shin tuzilishida Amir Temur bir qancha samarali tajriba va nizomlarni yaratdiki, bu ham ulkan mamlakatni barpo etish ishlariga yaqindan yordamlashdi. Shu o‘rinda tuzuklardan parcha keltiramiz. **Sipohga tanxoh va ulufa taqsimlash tuzuki:**

Amr qildimki, piyodalar, qalaqchilar, yasovullar, chopovullarning bir yillik maoshlarini hisoblab, belgilangan mablag‘ni devonxonaga keltirib, shu yerda ularga (amirlari orqali) ulashsinlar. Oddiy sipohiylar va bahodirlarning olti oylik maoshini ham hisoblab, tanxoh xazinasidan olib berishni buyurdim.

O‘nboshi, yuzboshilarga maosh shahar omonligi (*Shahar omonligi xazinasi-fath* etilgan shahar aholisidan to‘plangan «moli omon» (o‘lpon) saqlanadigan xazina.) xazinasidan va podsholik mulki daromadidan nakd pul hisobida yozilsin. Mingboshilarga viloyat ichidagi ekinzor yerlardan tuyul (Tutol-xiroj va soliq yig‘ib olish haqqi bilan in’om etilgan yer-mulk, viloyat.) bersinlar. Amirlar va amir ul- umarolarga esa chegaralardagi viloyatlardan biri tuyul qilib belgilansin.

Viloyatlardan tushgan daromadlarni ushbu yo‘sinda taqsimlashni buyurdim: viloyatlar va mamlakatlardan olingan ja’mi daromadni taqsimlab, maosh berish yorliqlariga biriga kam, biriga ortiq qilib yozsinlar. So‘ng yorlikdar devonxonaga keltirilsin. Amirlar va mingboshilar shu yorlikdardan birini chiqarib olsin. Agar yorlikda maoshidan ortiq (ko‘rsatilgan) bo‘lsa, boshqani o‘ziga sherik qilsin. Bordiyu kam bo‘lsa, uni qo‘yib boshqa yorliq tortib olsin.

Yana buyurdimki, amirlar, mingboshilar raiyatdan molu jihot (*Molu* jihot-qishloq xo‘jalik mahsulotlaridan natura tarzida olinadigan soliq; daromadning beshdan bir yoki uchdan bir qismi hajmida olingan.) yiqqanlarida, xirojdan ortiqcha sovrun, qo‘nalra (Qo‘nalga-elchilar, xon choparlari, o‘tkinchi amaldorlar va sipohiyga qo‘noq berish; ularning navkarlari, soqchilari va xizmatchilarini, shuningdek, ot-ulovini boqish majburiyati) va shilon (Shilon-xalqadan to‘planadigan soliq turi) talab qilmasinlar.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, buyuk davlat arbobi va sarkarda sohibqiron Amir Temurning Vatanga sadoqat, el-yurtni ardoqlash, mardlik, fidoyilik va adolatparvarlik kabi yuksak fazilatlari yosh avlod uchun o‘rnak bo‘lib xizmat qilajak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.. “Соҳибқирон юлдузи” журнали, №1. (27) 2017 йил. 46-бет.

2. Султонов К. Соҳибқирон Амир Темурнинг маънавий жасорати. Тошкент-2021. -Б.7.

3. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Ўқитувчи ва мураббийлар кунига бағишланган тантанали маросимдаги нутқи.2019 йил 1 октябрь. president.uz.

4.Темур тузуклари. – Т.: “O‘zbekiston”, 2013. – 182 б.

5. www.temurtuzuklari.uz



YOSH TADQIQOTCHILAR MINBARI

SOHIBQIRON AMIR TEMUR – TIZIMLI QO‘SHIN VA STRATEGIK TAKTIKALAR ASOSCHISI

Ahatova S.S.,
Sharof Rashidov nomidagi SamDU talabasi,
Ilmiy rahbar: t.f.d., dots. G. Normurodova

O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov Amir Temur shaxsi tarixiga hurmat bilan tuxtalib quyidagi so‘zlarni aytgan edi: “Amir Temur shaxsini idrok etish – tarixni idrok etish demakdur, Amir Temurni anglash – o‘zligimizni anglash demakdur, Amir temurni ulug‘lash - tarix qariga chuqur ildiz otgan tomirlarimizda, madaniyatimizga, qudratimizga, asoslanib buyuk kelajagimizga ishonchimizni mustahkamlash demakdur”. Darhaqiqat, Amir Temur hukumronlik qilgan davr nafaqat O‘zbekiston, balki jahon tarixida chuqur iz qoldirgan. Bu davrda o‘lkamiz hududlari mug‘ul bosqinchilaridan ozod qilingan. Amir Temur o‘z davri uchun eng jangavor armiya tuzishga muvaffaq bo‘lgan, zamonasi uchun takrorlanmas strategiyalar ishlab chiqib shular asosida katta g‘alabalarni qo‘lga kiritgan va o‘lkan saltanatga asos solgan. Zero, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta’kiglaganidek: “*Bizning havas qilsa arziydigan ulug‘ tariximiz bor. Havas qilsa arziydigan ulug‘ ajdodlarimiz bor*” [1, 2017].

Avvalo Amir Temur uyushgan qo‘shin tuzishda o‘ziga xos tartib intizomni joriy etgan bo‘lib ayniqsa unga chorpilchor kunlarida katta e’tibor qaratilib, saltanat ishlarini boshqarishda mingboshining hukmi yuzboshiga, yuzboshining hukmi o‘nboshiga, o‘nboshiniki esa qo‘lostidagilarga joriy etiladi. Bu tartibga kim qarshi chiqib, chorpilchor ishlarida xatoga yo‘l qo‘ysa uning o‘rniga bosha kishi shu lavozimga tayin etilar edi. Xatolikka yo‘l qo‘ygan sipohiy maoshining o‘ndan bir qismi kamaytirilardi. Shu o‘rinda takidlash joizki, Amir Temur qo‘shinidagi har bir askarga adolatli tarzda mehnatiga yarasha ulufa tayin etilgan bo‘lib uning askarlarga yetkazilishi ustidan ham qattiq nazorat o‘rnatilgan edi. Davlat tomonidan beriladigan butun maoshlarning to‘liq ma’limotlari devonbegi va vazirlar tomonidan avval Amir Temurga yetkazilar,

so‘ngra egalariga tarqatilar edi. Bundan tashqari, sipohiylarning har biriga maosh olish yorlig‘i topshirilgan va ularga berilgan mablag‘ miqdori shu yorliqning orqasida yozib qo‘yilgan. Masalan oddiy sipohiyga beriladigan ulufa miqdori u minib yurgan ot bahosiga teng bo‘lgan. O‘nboshilarning maoshi qo‘l ostidagi askarlar maoshidan 10 barobar ko‘p bo‘lar va o‘nboshilar qo‘l ostidagilarning ko‘proq maosh olishidan manfaatdor bo‘lgan. Yuzboshilar maoshi o‘nboshilarnikidan 2 barobar, mingboshilarniki esa o‘z o‘z navbatida yuzboshilarnikidan 3 barobar ko‘p bo‘lgan [2, 99-100].

Zero, Amir Temur o‘z tuzuklarida “*Qaysi hokimning hukmi tayoq va kaltak ta’siridan kamroq bo‘lsa unday hokim hukumat yurgizishga yaroqsizdir*” [2, 102] deya takidlab o‘tganlar.

Sohibqiron biror jangga kirishar ekan u 4ta narsani doimo yodda saqlagan. Birinchidan, qaysi mamlaktni egallamoqchi bo‘lsa to‘g‘ri kengash va tadbir bilan ish tutgan. Ikkinchidan xatoga yo‘l qo‘ymaslik uchun sergaklik va ehtiyotkorlikni yo‘qotmagan. Ehtimol, shu sabab Sohibqiron qo‘llagan tadbirlarning barchasi to‘g‘ri va natijali bo‘lgan. Uchunchidan, Temur yoniga 313 nafar asil zotli, shijoatli, aql farosatli va sadoqatli er yigitlarni jamlagan. Ular barchasi bir tanu bir jon bo‘lib Temurga sadoqat bilan xizmat qilagan. To‘rtinchidan, Amir Temur vujudga kelgan mavjud vaziyatni to‘g‘ri baholay olish qobiliyatiga ega bo‘lib u avvalo bugungi ishni ertaga qoldirmaslik tamoyiliga amal qilgan. Yumshoqlik lozim joylarda muloyimlik bilan, qattiqqo‘llik ishlatish vaqti yetganda esa adolat me’zonlariga amal qilib keskin chora tadbirlar qo‘llay olgan. Janglarda shoshilmaslik kerak bo‘lsa sabr bilan kutgan, ammo zudlik bilan bajarilishi kerak bo‘lgan tadbirlarni hech qachon kechiktirmagan [2, 134-135]. Bu fazilatlaridan biz Sohibqiron bobomizni nechog‘lik uzoqni ko‘ra oluvchi dona davlat arbobi, mohir sarkarda bo‘lganining guvohi bo‘lamiz. Temur hech qachon tadbir va mashvarat bilan hal qilish mumkin bo‘lgan vaziyatlarga qilich kuchini aralashtirmagan. Biz Sohibqironning bu hislatidan haqiqiy musulmon olamining sarkardasi, yuksak adolat sohibi bo‘lganiga amin bo‘lamiz.

Amir Temur qo‘shinda 40 aymoqdan 12 tasiga maxsus tamg‘a berilgan va bu o‘n ikki urug‘dan xos navkarlikka ham olingan. Ular - barlos, tarxon, arg‘in, jaloyir, tulkichi, duldoy, mo‘g‘ul, suldus, tug‘oy, qipchoq, arlot, tatar , urug‘lari bo‘lishgan. Shu holatda Amir Temur harbiy qo‘shin tarkibini boyitib, yanada kengaytirdi hamda har qanday sharoitda ham jang olib borishga moslashtirdi. Qo‘shinning asosini sara otliq qo‘shinlar tashkil etgan.

Qo‘shindagi piyodalar ham uzoq safar paytlari to‘liq otlar bilan taminlangan. Assosiy jangavor bo‘linmalardan tashqari maxsus yordamchi qisimlar ham bo‘lgan. Ularga: 1. Qamal qiluvchi, tosh otivchi,” Yunon olovuni otivchilar “va devor buzuvchi texnikadan iborat o‘ziga xos arteliriya qism. 2. Tog‘larda harbiy harakatlar olib borishga moslashgan, daralardan o‘ta oladigan va baland qoyalarni shturm qila oladigan maxsus piyoda bo‘linmalar. Sharafiddin Ali Yazdiy o‘zining “Zafarnoma” asarida “hali hech kim o‘ylab topmagan usulni Sohibqiron o‘ylab topib qo‘llaganini ta’kidlab Amir Temur jahon harbiy san’atida ilk bor qo‘shinni “Yetti qo‘lga” yani qismga bo‘lgani va qo‘shinda erkaklar bilan bir qatorda jang qiluvchi maxsus ayollardan iborat bo‘linma ham, mazkur holat esa o‘rta asr musulmon sharqi uchun mutlaqo yangilik ekanligini alohida qayd etgan.

Harbiy yurishdan avval chaqirilgan mashvaratdan so‘ng hukumdorning maxsus buyrug‘i tunkal e’lon qilingan. Tunkal qo‘shin to‘plash uchun maxsus buyruq hisoblangan. Unga ko‘ra, barcha hokim va viloyat beklari qal’a va qo‘rg‘on dorug‘alari o‘z jangchilari va ularning taminoti bilan miodga yetib kelishlari shart bo‘lgan. Miodga (oliy bosh qo‘mondonning qarorgohi tiklangan markaziy joy) yetib kelgan lashkarlar qat’iy tartib intizom bilan o‘z pozitsiyalarini egallab an’anaviy harbiy ko‘rikka tayyorgarlik ko‘ra boshlaganlar. Sohibqiron harbiy kuchlarining umumiy miqdori 800 ming atrofida bo‘lsada yirik yurishlarda ishtirok etuvchi lashkarlar soni 250 ming atrofida bo‘lgan. Xitoy yurishiga tayyorlangan qo‘shin soni 272 612 kishi bo‘lgan [2, 64-66]. Qo‘shin yurish vaqtida dam olishga tuxtagan payt lashkargoh aravalar bilan mustahkam qilib o‘rab olinar va shox shabbalar bilan tusilib xandaqlar qazilib istehkom tashkil etilar va u kunduzi yazak, tunda esa taloya soqchi bo‘linmalari tomanidan qo‘riqlab chiqilardi.

Dastlabki harbiy to‘qnashuv razvedkachilar tomonidan boshlab berilar edi. So‘ngra, manglay jangga kirar, agar shuning o‘zi jang taqdirini hal qilishga kifoya qilmasa amir ul umaro boshliq yetakchi kuchlar - g‘o‘llar jangga tashlangan. Yetakchilik qobiliyatiga ega bo‘lgan qo‘mondonlarning to‘g‘ri tanlanganligi va o‘z pozitsiyasida joylashtirilganligi jang natijasini muvaffoqiyatli tugashiga katta ta’sir etgan. Amir Temurning harhiy san’at tarixiga qo‘shgan katta hissalaridan yana biri -qo‘shin qanotlarini dushman hujumidan himoya qilish va raqib qo‘shinini yon taraflardan aylanib o‘tib orqadan zarba berishga muljallangan maxsus bo‘linma – qanbulning joriy etilishi bo‘lgan. Bundan tashqari Amir Temur sharqda birinchi bo‘lib o‘z

qo‘shiniga to‘pni olib keldi. Uning qo‘shinida ichiga yonuvchi modda neft solingan ko‘zachalarni irg‘ituvchi o‘t sochish quroli – ra’dning uzliksiz ishlab turishini ta’minlovchi maxsus to‘pchilar bo‘limi – radandozlar ham bo‘lgan .Shuni ta’kidlab o‘tish kerakki Amir Temur radandozlar bo‘linmasi kuchidan 1379-yil Urganchni qamal qilish vaqtida ilk marotaba foydalanib ko‘rgan. Xullas, qo‘shin jang paytida quyidagicha harakatlangan: razvedkachi yani qorovul qism oldinda borgan uning ortidan manglay, bo‘rong‘or, juvong‘or, markaziy qism g‘o‘l va uning ortidan chag‘davullar borgan va albatta qo‘shin ortidan qo‘shin ta’minoti bo‘lgan og‘ir karvon – o‘g‘ruq ergashib borgan. Amir Temur o‘z tuzuklarida jang maydonini tanlashda 4 ta muhim jihatga amal qilganini ta’kidlab o‘tgan. Bular: 1. O‘sha yerning suvga uzoq yoki yaqinligi; 2. Askar saqlaydigan yerning havfsizligi; 3. Dushman turgan joydan doimo balandroq joyni egallash ammo quyosh nuriga ro‘para bo‘lib qolmaslik; 4. Urush maydonining oldi ochiq va keng bo‘lishi.

Amir Temur o‘z faoliyati davomida din masalasiga ham katta hurmat bilan qarardi. Hatto u jang safarida ham o‘zi bilan ko‘chma chodir masjid olib yurar va to‘xtagan joylarida uni yig‘ib ichida besh vaqt nomoz o‘qigan. Zero, Amir Temur “Qaysi mamlakatda dindan qaytish kuchaysa u mamlakatning halokati yaqindir” deya ta’kidlardi [4, 15-16]. Sohibqiron har bir harbiy yurishi uchun jang oldidan o‘ziga xos harbiy taktikalar ishlab chiqardi. Ibn Arabshoh ham Amir Temur haqidagi o‘z mulohazalarida uning harbiy san’ati haqida to‘xtalib, u bir vaqtning o‘zida bir qancha joylarga urish e’lon qilar, bu haqida hamma joyga ovozalar tarqatar va o‘zi esa bosha joyda paydo bo‘llardi, deb uning aynan shu hislatiga tan berganligini yozib qoldirgan. Shuningdek Ibn Arabshoh Amir Temurning aqliy salohiyatiga boha berib uni quyidagicha ta’riflagan edi “Go‘yo qarovchi ko‘rganini o‘z ko‘zlari bilan mushohada etgani kabi, u aql ko‘zi bilan barcha ishlarning oqibatini oldindan mushodada eta olardi. Agar u biror narsani amr qilsa yoki biror narsaga ishorat qilsa, u undan also qaytmasdi yoki u biror narsaga qastlansa, beqarorlik, yengiltaklik va sustkashlikka mansub bo‘lmaslik uchun o‘z qatiyati jilovini u narsadan sira burmasdi. Agar u bir so‘z aytsa, uning amiri shu ish xususida uzil kesil farmon hisoblanardi” [5, 44-49].

Amir Temur Shomda bo‘lgan payti islom askarlari unga qarshi ko‘tariladi shunda u o‘z qo‘shining zaiflashgani va endi u lashkarining oziq ovqatga muhtojligi uchun Bog‘dod tomonga chekinishi haqidagi xabarni tarqatadi so‘nra aslida o‘zi Misr qo‘shinlari ustiga yurish qilib ularni mag‘lubiyatga uchratadi. Bu ma’lumotlar Amir Temur haqidagi Ibn Arabshohning fikirlariga

tastiq bo‘lib xizmat qiladi. Dushman qo‘shinini jangga kiritish uchun Amir Temur o‘zini dastlab zaif qilib ko‘rsatar edi. Bu strategik hiyla “Savqul jaysh” deb yuritilib, bu usul ko‘p hollarda yaxshi samara berar edi [3, 66]. Amir Temur jang oldidan To‘xtamishxonning bayroqdori bilan til biriktirib oladi Shunday qilib amirzoda Abu Bakir 8000 otliq qo‘shin bilan jangni boshlaganda bayroqdor To‘xtamishxonning bayroqlarini yerga tashlab yuboradi. Bu voeadan sarosimaga tushib qolgan To‘xtamishxon va uning qo‘shini jang maydonini tark etadilar. Shunday qilib, oqilola o‘ylangan reja asosida o‘zidan bir necha bor kuchli bo‘lgan raqib ustidan g‘alabaga erishadi. Bu holatdan Sohibqironning “Yaxshi o‘ylangan bitta reja ming kishilik qo‘shindan kuchlidir” degan so‘zlari yana bir bor o‘z tastig‘ini topgan. Amir Temur janglarda dushmanga ruhiy tomondan ham zarba berishda mohir edi. Jumladan Toxtamishxonga qarshi ikkinchi yurishga otlangan Temur 1391-yil aprelda Ulug‘ tog‘ etagidagi mavzeda (hozirgi Qarsaqboy) bir harsang toshga “Turon sultoni Amir Temur 200 ming kishilik lashkari bilan To‘xtamishxonni qatil etish uchun yurish qildi”, degan so‘zlarni yozishni buyurgandi [2, 59-60]. 1391-yil 18- iyunda Qo‘yibeshev (Samara) va Chestopol oralig‘idagi Qunduzcha mavzeyida bo‘lgan jangda To‘xtamishxon qo‘shinini mag‘lub etishga erishadi. Amir Temur har doim raqiblariga nisbatan kechirimli bo‘lgan. U asirga tushgan 4000 Boyazid askarlariga o‘z yurtiga qaytib ketishga ruxsat beradi. Sharafiddin Ali Yazdiyning yozishicha, 1405-yil yanvarda Amir Temur Xitoy ustiga yurish boshlagan vaqtda Dashi Qipchoqda sarson sargardon bo‘lib yurgan To‘xtamishxondan elchi orqali bir xat keladi, unda To‘xtamishxon nonko‘rlik qilgani uchun kechirim so‘ragani yozilgan edi. Bu xatni olgan Temur elchining hurmatini joyiga qo‘yib To‘xtamishxonning gunohini kechirgan ekan [6, 294]. Amir Temurning harbiy san’ati va davlat bosharuvi idora usullari davlat va huquqiy ta’limotlar eng noyob tarixiy hodisa va tajriba sifatida maxsus tadqiq etishga arziydi. Birinchi Prezident I.A.Karimov Toshkentda Amir Temur haykali ochilishiga bag‘ishlangan tadbirda so‘zlagan nutqida Amir Temur davlatining tuzilishi ,uning harbiy san’ati asrlar davomida sharq va g‘arb mamlakatlari uchun namuna bo‘lib xizmat qilganini takidlab o‘tganlarni ham bejiz emas edi. Islom Karimov “Tajiribamda ko‘rilgankim, azmi qatiy, tadbirkor, hushyor, mard va shijoatli bir kishi mingta tadbirsiz, loqayd kishidan yaxshiroqdir”, degan so‘zlari bugungi kunda ham ma’naviy jihatdan naqadar dolzarb ahamiyatga ega ekani barchamizga ayon” [7, 44-45], deya o‘z asarlarida takidlab o‘tganlar. Zero, Prezident Sh. Mirziyoyev: “Harbiy bo‘lishni

orzu qiladigan har bir farzandimiz milliy ruhni, mas’uliyat tuyg‘usini Amir Temur kabi buyuk ajdodlarimiz jasoratidan oladi”. Yaqinda Shahrisabzda “Amir Temur -dunyo olimlar va adiblari nigohida” deb nomlangan xalqaro konferensiyani yuori darajada o‘tkazdik. O‘ylaymanki, ushbu anjumanni har ikki yilda o‘tkazib borsak, o‘rinli bo‘ladi. Bu borada “Temuriylar davri Renessansi” ilmiy ma’rifiy markazini tashkil etish ham muhim ahamiyatga ega, deb o‘ylayman. Shu bilan birga Sohibqiron Amir Temur tug‘ilgan Xo‘ja Ilg‘or qishlog‘ini obodonlashtirib, zamonaviy infratuzilmalar yaratsak ulug‘ ajdodimiz oldidagi farzandlik burchimizni bajargan bo‘lar edik” [8, 35-36], deya takidlaganlari Sohibqiron bobomizga bugungi kunda ko‘rsatilayotgan hurmat va ehtiromlarning yaqqol namunasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvdagi ma’ruzasidan // Xalq so‘zi, 2017 yil 4-avgust.
2. Temur tuzuklari. Forschadan Alixon Sog‘uniy va Habibullo Karamatov tarjimasi. - Toshkent, 2018.
3. B.J. Eshov, A.A. Odilov. O‘zbekiston tarixi. II kitob. - Toshkent, 2020.
4. J. Yaxshiliqov, Sh. Ahadov. Temuriylar manaviyati. – Toshkent: Fan. 1999.
5. U. Uvatov “Sohibqiron arab muarrixlari nigohida. Toshkent: Sharq, 1997.
6. Sharafiddin Ali Yazdiy. Zafarnoma. – Toshkent: Fan, 1997.
7. I. Karimov “Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008.
8. Sh. Mirziyoyev. Yangi O‘zbekiston Taraqqiyot Strategiyasi. - Toshkent: O‘zbekiston, 2023.

ВИЗУАЛЬНЫЙ ОБРАЗ АМИРА ТЕМУРА В ИСТОРИЧЕСКИХ ИЛЛЮСТРАЦИЯХ, МИНИАТЮРАХ И СОВРЕМЕННОЙ ГРАФИКЕ

Аллаёрова Ш.,

Независимый исследователь, УзГУМЯ,

Образ Амира Темура занимает особое место в историческом и культурном наследии Центральной Азии. Он был не только выдающимся полководцем, но и покровителем искусств, чьи деяния нашли отражение в миниатюрах, гравюрах, монументальном зодчестве и современной графике. Визуальное представление Темура формировалось на

протяжении веков, изменяясь в зависимости от эпохи и идеологических взглядов.

Сегодня благодаря цифровым технологиям появилась возможность глубже изучить эволюцию образа Темура и даже реконструировать его внешний вид с высокой степенью достоверности. Современные методы, такие как 3D-моделирование и искусственный интеллект, позволяют не только анализировать исторические иллюстрации, но и «оживлять» личность Темура в виртуальной реальности.

Цель данной статьи – исследовать, как визуальный образ Амира Темура отражался в различных художественных традициях, как он трансформировался со временем и какие современные технологии используются для его воссоздания.

Средневековые миниатюры являются важным источником информации о внешнем виде и символическом значении образа Амира Темура. Визуальные представления правителя в основном сохранились в персидских и тимуридских манускриптах XIV–XV веков. Они изображают его в роскошных халатах, с короной или тюрбаном, подчёркивая его статус великого завоевателя и мудрого правителя.

Один из самых известных визуальных источников — миниатюры из рукописи «Зафар-наме» (Книга побед), написанной Шараф ад-Дином Али Йазди [1]. Эти изображения, созданные придворными художниками, подчёркивают не только военную мощь Темура, но и его покровительство искусствам. Миниатюры часто изображают сцены сражений, триумфальные въезды в завоёванные города и моменты совещаний с советниками.

Важно отметить, что в тимуридской живописи использовался определённый художественный канон, включающий идеализированное изображение правителя. В отличие от реалистичных европейских портретов эпохи Возрождения, восточные миниатюры передавали скорее символическое величие правителя, чем его реальный облик.

После падения Константинополя в 1453 году интерес европейцев к восточной истории значительно возрос. Многие западные художники, не имея реальных портретов Темура, создавали его образ на основе описаний путешественников, таких как Руй Гонсалес де Клавихо – посол короля Кастилии, посетивший двор Темура в 1404 году [2]. Образ Амира Темура проник и в европейское искусство, где он изображался через призму

представлений о могуществе и экзотике Востока. В XV-XVII веках европейские путешественники, такие как Руй Гонсалес де Клавихо, описывали его внешний вид и двор в Самарканде, что вдохновляло художников на создание его портретов. Одним из первых изображений Темура в Европе считается гравюра из книги «Портреты знаменитых людей» (XVII век). На ней Темур представлен в богатом восточном облачении, с длинной бородой и строгим выражением лица. Эти гравюры имели значительное влияние на восприятие Темура в западной культуре, хотя их художественная точность остаётся спорной. Это связано с тем, что европейцы воспринимали его прежде всего как военного лидера, сравнивая его с Александром Македонским и Чингисханом. Например, в гравюрах того времени можно увидеть Темура с мечом в руке, на фоне покорённых городов и пленных [3].

Со временем, по мере расширения знаний о Центральной Азии, европейские изображения становились более детализированными. В XVIII-XIX веках усилилось влияние ориентализма, и художники начали изображать Темура в окружении восточной архитектуры, подчёркивая его культурное наследие. Например, в работах европейских гравёров того времени появились сцены, изображающие его дворец и придворных в традиционных костюмах.

XIX век принёс новую волну интереса к Востоку, что отразилось в иллюстрациях, сопровождавших труды ориенталистов и археологов. В этот период художники старались воспроизводить детали одежды и убранства дворцов Темура более тщательно, основываясь на археологических находках и описаниях путешественников.

В XX веке образ Амира Темура приобрёл новое значение в контексте национального самосознания. В советский период его фигура рассматривалась неоднозначно: с одной стороны, его успехи в военном деле признавались, с другой – он часто изображался как деспотичный феодал [4]. После обретения независимости Узбекистаном в 1991 году началась активная реабилитация образа Темура. Советские художники создавали его изображения, вдохновлённые как восточными миниатюрами, так и европейскими реалистическими портретами. В этот период появился более строгий и мужественный образ, подчёркивающий его роль как государственного деятеля, а не просто полководца. В Ташкенте и Самарканде были установлены его памятники, появились

новые художественные интерпретации, основанные на национальной гордости. В изобразительном искусстве этот период характеризуется созданием величественных и героизированных портретов Темура, подчёркивающих его роль в истории государства [5].

В XXI веке технологии позволили приблизиться к более научному подходу в реконструкции внешности исторических личностей. В 1941 году по черепу Амира Темура, найденному при вскрытии его гробницы в Самарканде, советский антрополог Михаил Герасимов создал реконструкцию его лица [6]. Этот портрет до сих пор остаётся основой для большинства современных изображений Темура. С развитием цифровых технологий появились новые способы визуализации исторических личностей. Один из таких методов — 3D-моделирование, которое позволяет не только воссоздать облик правителя, но и создать его цифровую скульптуру, максимально приближенную к реальному виду. Использование алгоритмов машинного обучения помогает анализировать старинные изображения и реконструировать недостающие детали. Например, современные системы на основе нейросетей способны сравнивать черепные структуры с базами данных этнографических черт, что даёт более точное представление о внешности Темура. В последние годы особую популярность получили технологии виртуальной и дополненной реальности. Например, в музейных экспозициях могут использоваться интерактивные голограммы, демонстрирующие исторические сцены с участием Амира Темура. Такие проекты, как Google Arts & Culture, применяют искусственный интеллект для анализа и реставрации старинных портретов [7].

Ещё одним направлением цифровой реконструкции являются анимационные проекты, позволяющие «оживить» образ исторического персонажа. Так, с помощью deepfake-технологий можно создавать видеоролики, где реконструированный образ Темура рассказывает о своей эпохе или взаимодействует с посетителями музея в интерактивном формате. Современные разработки в области искусственного интеллекта позволяют объединить различные визуальные источники — от средневековых миниатюр до гравюр и научных реконструкций, создавая комплексный, динамичный портрет Амира Темура. Это открывает новые возможности для изучения истории и популяризации культурного наследия.

Визуальный образ Амира Темура прошёл долгий путь трансформации – от средневековых миниатюр до современных цифровых реконструкций. В разные эпохи его изображали по-разному: в восточной традиции он предстаёт как величественный правитель, в европейском искусстве – как воин-завоеватель, а в современной культуре – как национальный герой.

Развитие технологий открывает новые возможности для изучения и представления исторических личностей. Использование искусственного интеллекта, 3D-моделирования и виртуальной реальности позволяет не только воссоздавать исторические образы, но и погружаться в эпоху, делая её ближе к современному зрителю.

Список литературы:

1. Шараф ад-Дин Али Йазди. Зафар-наме. – Ташкент: Фан, 1997. – С. 112–118.

2. Гонсалес де Клавихо Р. Дневник путешествия в Самарканд ко двору Тимура (1403-1406). – М.: Восточная литература, 1990. – С. 75–82.

3. The Timurids and Their Artistic Heritage. – London: British Museum Press, 2003. – P. 143–149.

4. Гулямов Я. Г. Искусство Средней Азии эпохи Тимуридов. – Ташкент: Фан, 1975. – С. 210–215.

5. Ахмедов Б. А. Государство Темуридов. – Ташкент: Издательство литературы и искусства, 1992. – С. 98–104.

6. Герасимов М. М. Восстановление лица по черепу. – М.: Наука, 1949. – С. 56–61.

7. Google Arts & Culture. Digital Restoration of Historical Figures. URL: https://artsandculture.google.com (https://artsandculture.google.com/)

AMIR TEMUR ILM-FAN VA MADANIYAT HOMIYSI

Aminova S.,

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti talabasi.

Ilmiy rahbar:t.f.d., dots. G. Normurodova

Musulmon Sharqi, ayniqsa Markaziy Osiyoning madaniyati tarixida Amir Temur va Temuriylarning hukumronlik davri XIV asrning ikkinchi yarmida XVI asrning boshlarigacha bo‘lgan davr so‘nggi umumiy tarixiy rivojlanishiga juda katta ta’sir ko‘rsatgan, nihoyatda yorqin, sermazmun, samarali davr hisoblanadi. Amir Temur davri madaniyatining shiddatli va keng doirada

yuksalishining yana ikki o‘ta muhim omili yuzaga kelgan ediki, bularsiz madaniyat bu qadar yuksak cho‘qqilarga ko‘tarila olmas, u xalq turmushi hamda ongiga dadil kirib bora olmas edi. Ularning birinchisi Amir Temur davri mafkurasining asosini Bahouddin Naqshband tariqat g‘oyalari tashkil etgan bo‘lsa, ikkinchisi madaniyat va ma‘naviyat taraqqiyotiga bevosita Hazrat Sohibqironning o‘zi rahnamolik qilganligidir.

Sohibqironning bolalik davri diqqatga sazovor voqealar bilan to‘la bo‘ldi. Amir Temur saroyida xattotlik xizmatida ishlagan Hofizi Abruning ma’lumotlarida sarkarda “yoshlik chog‘larida zehni o‘tkirligi bilan ko‘zga tushib, axloqi usul o‘rganish bilan band bo‘lganligi, darslarni o‘zlashtirishda o‘zi bilan qator tengdoshlariga nisbatan faol bo‘lganligi, ayniqsa yoshligidan aqlli, ochiq ko‘ngil, jur’atli, qat’iy kuchli va qobiliyatli bo‘lib o‘sganligi” [1, 560] aytiladi.

Xususan, Temurning o‘zi o‘z mamlakatida olim donishmandlarni, fan arboblarini o‘z atrofida to‘plab, ular bilan maslahat qilib, kengashlar olib borgani, madaniyatga katta e’tibor bergani taqsinga loyiqdir. Manbalarda ma’lumki u o‘z mamlakatida barcha ishlarni qonunlar asosida qurushga intildi, “Temur tuzuklari” da mamlakatni boshqarishga qaratilgan qoida-qonunlarni yaratishga bo‘lgan intilish, maqsadi o‘z ifodasini topdi. Amir Temur va temuriylar davrida astranomiya, tibbiyot, riyoziyot, falsafa, tarix kabi fanlar, me’morchilik, adabiyot, san’at, xattotlik va musiqa san’ati ham o‘sdi ko‘p olimlar yetishib chiqdi. Bu borada akademik N.I. Konrad: “Temuriylar davrida Samarqand va Hirotda qadimiy Markaziy Osiyoda maydonga kelgan universalizmning buyuk ruhi yangidan yashay boshladi. Bu universalizm… madaniyatning hamma jabxasida haqiqat edi”, -deb qayd etgan [2, 183].

Alisher Navoiy o‘zining “Majolis un-nafois” asari tavsifi bo‘yicha, Amir Temur she’r yozish yoki nasrda ijod qilish bilan shug‘ulanmasa-da, nazm va nasrni teran tushungan, nazm o‘qiganda ma’nodorlik bilan o‘qish qobiliyatiga ega hukumdordir, ya’ni u faqat buyruq bilan rahbarlik qiladigan shoh emas, ma’naviyat bilan suyagi qotgan hukumdordir, deb ta’kidlaydi.

Sharafuddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma” asarida qayt etilishicha, Temurning hislatlaridan biri shu edikiy u biror masalani hal etishda oldin shu sohaning bilimdon odamlari, olimlari bilan maslahatlashib, so‘ng aniq qaror qabul qilardi deb yozib qoldirgan. Amir Temur maktab - madrasalarda diniy fanlargina emas, tabiiy - matematik bilimlarni o‘qitish zarurligiga alohida e'tibor bergan. Hatto, akademik I. Mo‘minov o‘zining kitobida yozganidek:

“Temur ilm fanning matematika – riyoziyot, geometriya – handasa, arxitektura - me'morchilik, astronomiya, adabiyot, tarix, musiqa kabi sohalarini rivojlantirishga ayniqsa katta e'tibor bergan”. Sohibqiron o‘zi tomonidan tashkil qilingan fanlar akademiyasidagi va o‘lkadagi boshqa olimlarning qanday ilmiy muammolar bo‘yicha ish olib borayotganliklarini uzluksiz nazorat qilib borgan. Ularga mamlakat uchun zarur bo‘lgan ilmlarni o‘rganib, uni xalq orasida tarqatish bo‘yicha maslahatlar bergan. Bu haqda Amir Temur: “Men olimlar bilan doimo suhbatda bo‘lib, ular ishidan g‘oyatda xabardaman”, - deb yozgan edi [3, 11-12].

Amir Temur shahsiyatining tadqiqotchilari Hazrat Sohibqironning madaniyat va ma’rifatning buyuk homiysi ekanligini tasdiqlab, uning yana bir oliyjanob hislatini ta’riflaydilar. Sohibqironning bu xislati shunda namoyon bo‘lar edikiy, u qaysi mamlakatda bo‘lmasin, u yerdagi olimlar, shoirlar, musavvirlar, me’mor, quruvchilar bilan uchrashib, ular bilan qizg‘in suhbat qurardi va ularni o‘zi bilan birga imperiya poytaxti Samarqandga olib kelar edi.

Chunonchi, Sohibqiron Shomga qilgan yurushi vaqtida misrlik tarixchi Valiuddin Abdurahmon ibn Xaldun bilan uchrashgan. Ibn Xaldun Amir Temurning suhbatida bo‘lib, Temurgacha o‘tgan vaqtining, o‘zgalar uchun qilgan xizmatining befayz, besamar ketganidan afsus chekkan. Amir Temurdan rushnolik ko‘rgan va o‘z sevgan ilmi bilan shug‘ullanish imkoniyatini olganidan juda ham mamnun bo‘lgan [3, 15].

Amir temur va Temuriylar davrida Markaziy Osiyoda,xususan bu yerdagi shaharlar hayotida misli ko‘rilgan o‘zgarish sodir bo‘ladi. Tarixan qisqa davr XV asr davomida ko‘plab binolar, bog‘lar barpo etildi. Samarqanda Amir Temur qurdirgan bog‘lar; “Bog‘i naqshi jahon, Bog‘i behisht, Bog‘i amirzoda Shohruh, Bog‘i bo‘ldi, Bog‘i Dilkusho, Bog‘i Shamol, Bog‘i Zag‘on, Bog‘i Baland” kabi ko‘plab mashhur bog‘lar qurilgan. Amir Temur hukumronlik davrida uning yaqinlari, xususan malikalar ham keng bunyodjorlik ishlari olib borogan. Jumladan ilm fan markazi hisoblangan madrasalar ham aynan shu davrda yuzaga kelgan. Amir Temurning rafiqasi Dilshod og‘aning madrasa va xonaqohlar qurdurganligi haqida qisman ma’lumot Sharafuddin ali Yazdiy tomonidan keltirilgan. Bu davrda qurulgan madrasalardan biri shahzoda Mirzo Muhammad Sulton madrasasi bo‘lib, uni Amir Temur 1404-yilda borib qurgan. Madrasalardan yana biri Saroymulk xonim qurdirgan madrasa bo‘lib Amir Temur madrasa eshigini buzub qaytadan soldirgan [4, 21-23].

Amir Temur o‘z poytaxti Samarqandni obod va go‘zal shaharga aylantirish uchun uni yangi devor bilan o‘rab oldi eski va tor ko‘chalar o‘rniga keng hiyobonlar maydonlar barpo etildi.shahar markazidan uning asosiy Ohanin darvozasigacha rastalari quruldi. 1399 yilning may oyidan boshlab shu darvoza yaqinidan katta xotini Saroymulk xonimga atab katta jome masjidini qurush boshlanadi. Amir temur yana Qusam ibn Abbos qabri tepasiga maqbara qurdirib, unga Shohi Zinda deb nom berdi. Keyinchalik temuriy malikalar maqbaralari ham shu yerdan o‘rin oldi. Amir temur qurdirgan me’mor yodgorliklaridan yan biri Go‘ri Amir maqbarasidir. Bu maqbara uning Anqara jangida shahid bo‘lgan nabirasi Muhammad Sulton ibn Jahongir uchun qurulgan. Maqbara usta me’mor Mahmud Isfahoniy tomonidan qurulgan bo‘lib, unda yana Amir Temur, Mirzo Ulug‘bek, Shohruh Mirzo, va Mironshohlarning ham sag‘analari mavjud.

Sohibqiron tomonidan bunyod etilgan yana bir me’moriy yodgorlik Toshkent yaqinidagi Zangiota maqbarasidir. Amir Temurning Turkustondagi Xoji Ahmad Yassaviy maqbarasini 1398-yili qurdiradi. Manbalarga ko‘ра Jahongirning o‘zi bo‘lajak maqbara loyihasini tuzishda qatnashdi. Amir Temur qurdirgan yana bir me’morchilik obidasi Oqsaroydir. Uni onasi Nekuzbibi sharafiga 1404 yili Shahrisabzda qurdirgan. Oqsaroy haqida tarixchi Abdurazzoq Samarqandiy quyidagilarni yozgan: “Amir Temur ishga yaroqli bo‘lgan urganchliklarni hammasini Movarounnahrga ko‘chirish uchun buyruq berdi. Xorazmlik ustalar baland va salobatli saroy qurdilar. Hozir u Oqsaroy nomi bilan mashhurdir”. Oqsaroy 20 yil davomida qurulgan. Zahiriddin Muhammad Boburning yozishicha, saroy ichidagi xonalar ulkan hovli atrofida joylashgan. Ichki tomonidan haram va Amir Temurning xonasi bo‘lgan. Ushbu saroyning eng noyob xususiyati shuki saroy tomi tepasida marmardan hovuz qurilgan bo‘lib, unga Taxti Qorachi dovonidan qo‘rg‘oshin quvurlar orqali suv oqib kelgan. Saroy peshtoqitagi yozuvga ko‘ra ,uning me’mori shahrisabizlik naqqosh Muhammad Yusuf bo‘lgan. Sohibqironning yana bir me’moriy yodgorligi Shayx Burxoniddin Sag‘arjiy maqbarasidir. U Ruhobod nomi bilan mashhurdir [4, 21-23].

Xulosa qilib aytganda, Amir Temur Movarounnahr va Xurosonda madaniyat, ma’rifat, ta’lim- tarbiyani yanada rivojlantirib, uni dunyoga tanitgan kuchli shaxs, uzoqni ko‘zlab katta aql va idrok bilan ish yuritadigan usta siyosatdon, mohir sarkarda bo‘lgan. Bundan tashqari Amir Temurning boshqa sarkardalardan farqi shundakiy u umr bo‘yi bunyodkorlik bilan mashhur

bo‘lgan. Uning “qay bir joydan bir g‘isht olsam, o‘rniga o‘n g‘isht qo‘ydirdim, bir daraxt kestirsam, o‘rniga o‘nta daraxt ektirdim” degan so‘zlari bunyodkorlik, yaratuvchanlik faoliyatining tasdig‘idir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1..Amir Temur buyuk sarkarda va davlat arbobi. Toshkent, 2021.

2. Amir Temur davrida Movarounnahr. Toshkent, 2017.

3. G‘oyibov N. Amir Temur davri ma‘naviyati. Toshkent, 2001.

4. Norqulov N. Temuriylar davri madaniyati tarixidan lavhalar. Urganch, “Xorazm” nashriyoti, 1996.

AMIR TEMUR – BUNYODKORLIK ISHLARI SOHIBI

Axmedbekova M.,

Farg‘ona davlat universiteti o‘qituvchi,

Amir Temur ilm-fan, madaniyat va san’at ahliga har taraflama rag‘bat ko‘rsatib qulay shart-sharoitlar yaratib, ularning ijodkorlik ishlarini ro‘yobga chiqarishga ko‘maklashdi. Amir Temur o‘zining ko‘p yillik faoliyati davomida jamiyatning iste’dod sohiblarini qadrlab ularni keng ko‘lamli bunyodkorlik ishlariga faol jalb etib borgan. Temuriylar davlatining shon-shuhrati uchun uning markaziy qismi bo‘lgan Movarounnahrning, ayniqsa, poytaxti Samarqandning obodonligiga alohida ahamiyat beradi. Temuriylar davlatining qudrati ayniqsa me’morchilikda namoyon bo‘ldi. Sohibqironning har bir zafarli voqeani, sevinchli hodisani muhtasham me’morchilik obidasini barpo etish bilan nishonlash odati bo‘lgan. Shu maqsadda Hindistondan olib kelingan yuzlarcha mohir g‘isht teruvchilar, Sheroz, Isfaqon va Damashqning mashhur usta-hunarmandlari qatorida mahalliy ustalar mamlakatda go‘zal imorat-u inshootlar bino qiladilar. Amir Temur Tabrizda masjid, Sherozda saroy, Bag‘dodda madrasa, Turkistonda mashhur Axmad Yassaviy qabri ustiga maqbara bino qurdirdi.

Amir Temur davlatchiligining hosilasi o‘laroq mamlakat xalq xo‘jaligining barcha tarmoqlari tez rivojlandi. Ekin maydonlari kengaydi, mevali bog‘lar, yangi sug‘orish ishlari barpo etildi. Dehqonchilik madaniyati yanada yuksaldi. Movarounnahr shaharlari ijtimoiy qiyofasini o‘zgartirib kengaydi, obodonlashdi, yirik hunarmandchilik va savdo, madaniy va ma’muriy markazlarga aylandi. Turkiston yirik iqtisodiy mintaqa sifatida shuhrat qozondi.

Aholining moddiymaishiy turmush sharoiti farovonlashdi. Natijada jamiyatning ijtimoiy, madaniy, ma’naviy taraqqiyoti uchun qulay shartsharoit yaratildi. Amir Temurning boshqa davlat boshliqlaridan farqi, u butun umri davomida bunyodkorlik ishlari bilan mashg‘ul bo‘lganligida. El-ulus dardi, Vatan obodligi va yaxlitligi g‘ami bilan yashadi. Ul ulug‘ zotning bizga qoldirgan “Qay bir joydan bir g‘isht olsam, o‘rniga o‘n g‘isht qo‘ydirdim, bir daraxt kestirsam, o‘rniga o‘nta ko‘chat ektirdim” degan o‘gitomus so‘zlari fikrmizning isbotidir. Amir Temur davlatining mafkurasi ijtimoiy-iqtisodiy hayotni izga solib yo‘naltirishdan tashqari siyosiy hayotda ham katta kuchga aylandi. U chet davlatlar bilan aloqani kengroq yo‘lga soldi. U davr shart-sharoitlaridan kelib chiqib, tashqi siyosatda qat’iy faol harakat qilib, o‘z saltanati dovrug‘ini jahon miqyosiga olib chiqa oldi. Amir Temurning Yildirim Boyazid ustidan bo‘lgan g‘alabasidan so‘ng Fransiya, Angliya, Genuya va Vizantiya erkin aloqalarni, savdogarlar va mol almashishni taklif yetgan. U yevropa mamlakatlari bilan yaqin qo‘shnichilik qilish, savdo karvon yo‘llarini rivojlantirish niyati borligini ko‘rsatib, o‘z davlati shuhratini yevropaga tarqata oldi. Davlatning faol tashqi siyosat yuritishi ko‘p jihatdan mamlakatning ichki ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy taraqqiyot darajasiga bog‘liq bo‘ladi.

Amir Temur ko‘plab mashhur muarrixlar ta’kidlaganidek, ilmning qadriga yetadigan, uni rivojlantirishga astoydil bel bog‘lagan, dunyoning yetuk olimlari, tarixchilari bilan bemalol suhbatlasha oladigan donishmand hukmdor edi. Ilm-fanga qiziqish Amir Temurning bolalik chog‘larida oilasidan boshlangan edi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Sohibqiron xonadonida farzandlar (shahzodalar, malikalar)ga ilm-fanning turli sohalaridan ko‘p saboqlar berilar, madrasalarda tahsil olish davom ettirilardi.

Masalan, Mironshoh Mirzo uchun maxsus ibn al-Asirning “Al-komil fi-t-tarix” (Mukammal tarix) kitobi tarjima qilib berilgan edi. Sohibqiron boshlab bergan sa’y-harakatlari tufayli uning avlodlari orasida Muhammad Sulton, Ulug‘bek Mirzo, Ibrohim Sulton, Boysunqur Mirzo, Husayn Boyqaro, Zahiriddin Muhammad Bobur, Ko‘chkunchixon, Komron Mirzo, Gulbadanbegim, Zebunniso kabi shoirlar, olimlar, muarrixlar, xattotlar, homiylar, ma’naviyat va ma’rifat jonkuyarlari bor bo‘lib, ular ilm-fan, ma’naviyatning qadriga yetadigan ajoyib insonlar bo‘lib yetishdi. Ulug‘bek Mirzoning astronomiya maktabi aynan Samarqandda yaratildi. Zamonaning ilg‘or rasadxonasi barpo etildi. 1 018 ta yulduz ta’rifini o‘z ichiga olgan “Ziji jadidi Ko‘ragoniy” jadvali jahon faniga ulkan hissa bo‘lib qo‘shildi.

“To‘rt ulus tarixi” asari esa xalqimiz tarixini anglab yetishda katta ahamiyatga ega.

Sohibqiron Amir Temur davri tarixini to‘liq va ishonarli yoritib bergan Sharafiddin Ali Yazdiyning fundamental “Zafarnoma” (1425) asari Sohibqironning nabirasi, Sheroz hokimi, shoir va xattot Ibrohim Sultonning rahbarligi, fidoyiligi va homiyligi ostida dunyoga keldi. Bunyodkorlik Sohibqiron davrida davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan edi deyish mumkin. Amir Temur faqat o‘z mamlakatidagina emas, balki boshqa yurtlarda ham bunyodkorlik ishlarini amalga oshirgani buning dalilidir. Saltanat poytaxti qilib belgilangan Samarqandni dunyoning eng obod shahariga aylantirdi, ulug‘vorligini ko‘rsatish uchun, atrofida Damashq, Bag‘dod, Misr, Sheroz, Sultoniya kabi dunyoning mashhur shaharlari nomlari bilan atalgan, bog‘-rog‘larga ko‘milgan qishloqlar barpo qildirdi.

Amir Temur o‘zining sahovati va himmatini Shahrisabz va Samarqandda oliy imoratlar qurdirishda ko‘rsatdi. O‘zining ona-Vatani Shahrisabzda otasi va o‘g‘li Jahongirning qabri ustiga maqbara qurdirdi. Shunigdek, katta jome’ masjidini bunyod etdi. Shahrisabzda dunyoga dong‘i ketgan mashhur Oqsaroy qad ko‘tardi. Bu muhtasham saroyning peshtoqi, ravoqlari va devorlari zangori, oltin rangdagi arabiy naqshli koshinlar, guldor o‘ymakor parchinlar bilan ziynatlandi. Shahrisabzdagi mashhur Oqsaroyning koshinkor va parchinkor peshtoqning guldor naqshlari orasida “Agar bizning quvvat va qudratimizga ishonmasang bizning imoratlarimizga boq” degan xitobnoma bitilgan. Turkiston shahrida Axmad Yassaviy maqbarasining bino qilishda ham shunday maqsad nazarda tutilgan. Bu maqbara musulmon Sharqining me’moriy yodgorliklari orasida eng noyobidir.

Mo‘g‘ullar bosqini davrida butunlay vayron etilgan Samarqand shahri Amir Temur davrida o‘zining qadimgi o‘rnidan birmuncha janubroqda boshdan oyoq yangicha usulda qayta qurildi. Shahar tevaragi Oxanin, Shayxzoda, Chorsu, Korizgox, So‘zangaron va Feruza kabi nomlar bilan yuritiluvchi oltita darvozali mustahkam yangi qal’a devor bilan o‘rab chiqildi. Shahar arkida Amir Temurning qarorgohi Ko‘ksaroy va Bo‘stonsaroylar bino qilindi. Ko‘ksaroy to‘rt qavatli bo‘lib, gumbazlar va devorlari zangori koshinlar, naqshlar va guldor parchinlar bilan qoplanganligi uchun u shunday nom bilan shuhrat qozondi. Ko‘ksaroyda xonlarni podsholik taxtiga o‘tkazish marosimi vaqtida ularni oq kigiz ustiga olib o‘tkaziladigan toshdan taxt kursi – Ko‘ktosh qo‘yilgan edi. Bulardan tashqari, arkda davlat devonxonasi, qurol-yarog‘lar

yasaydigan ustaxona va aslahaxona, tangalar so‘qiladigan zarbxona, qamoqxona kabi imoratlar joylashgan edi.

Amir Temur diqqat e’tiborini Samarqandda saroylar, masjidlar, madrasalar, maqbaralar qurdirishga qaratgan. Shahar tashqarisida esa bog‘-rog‘lar barpo etilgan. 1403-1404 yillarda Samarqandda bo‘lgan Ispaniya elchisi Klavixo Amir Temurning olib borayotgan bunyodkorlik ishlaridan hayratda qolgan edi. Xuddi shu davrda Shohizinda kabi me’moriy yodgorlik, “Bibixonim” jome’ masjidi qurilgan. Bu davrda Samarqandda yangi, ko‘rkam va muhtasham binolardan tashqari turli-tuman kasbdagi hunarmandlar mahallalari ko‘paydi. Amir Temur bu mahallalardagi hunarmandlar uchun barcha shart-sharoitlarni yaratib bergan edi.

Sohibqiron Amir Temur tomonidan yaratilgan jannatmakon bog‘lar hayoliy bo‘lmasdan voqelikdagi real haqiqat edi. Bu narsa Temurning bog‘dorchilik sanoati haqida tarixchilar tomonidan yaratilgan asarlarda alohida qayd etilgan. Mohir me’mor, tajribali sohibkorlarning aql-zakovati, mehnati, mahorati bilan barpo etilgan Bog‘i Dilkusho, Bog‘i Chinor, Bog‘i shamol, Bog‘i Bixisht, Bog‘i Baland, Bog‘i Nav, Bog‘i Jahonnamo, Bog‘i maydon kabi chorbog‘lar va ulardagi go‘zal ko‘kishlar o‘sha davr san’atining namunalaridandir. Barpo etilgan bog‘lar tuzilishiga ko‘ra 2 turga bo‘lingan. Birinchi turdagi bog‘lar har tomoni taxminan 1 km masofaga cho‘zilgan to‘rtburchak shakldagi chorbog‘lardir. Ikkinchi turdagi bog‘lar geometrik shaklda bo‘lmay, tabiiy daraxtzorlar va chakalakzorlar bag‘rida barpo etilgan. Bunday bog‘lar xukmdor shikor qilishi uchun mo‘ljallangan. Bu turdagi bog‘larning o‘simlik va hayvonot dunyosi nihoyatda boy bo‘lgan. Amir Temur 1402 yil yozda Frantsiya va Angliyaga maxsus elchilar orqali Karl VI va Genrix IV nomlariga maktublar yo‘llaydilar. Elchilar Parijga 1403 yil may oyida etib boradilar. Elchilar ikki mamlakatning savdogarlari uchun erkin savdo munosabatlari olib borishini ta’minlash va agar qirol hamda gertsoglar rozi bo‘lsalar, bu erkin savdoni tegishli bitim yoki shartnoma bilan mustahkamlashni taklif etadi. Shuning uchun ham sohibqiron Amir Temur Frantsiya qiroli Karl VI ga yo‘llagan maktubida bu haqda alohida ta’kidlaydi: “Bundan keyin sizning(odamlaringiz) bizning erlarimizga va bizning(kishilarimiz) sizning o‘lkangizga o‘tgan ajdodlarimiz davridagi borib-kelib tursalar, sizning va bizning nomimizni hamma joyda olqishlab tursalar, mamlakatimiz savdogarlari foyda keltirishsa, ko‘p xursand bo‘lar edik. Shuni

aytish kerakki, endilikda bizning yurtimizda savdogarlaringizning xavfsizligi ta’minlanadi”.

Frantsiya qiroli Karl VI 1403 yil 15 iyunida Amir Temurga yo‘llagan javob maktubdan ma’lum bo‘lishicha, Amir Temur takliflari Frantsiya tomonidan mamnuniyat bilan qabul qilingan.

Temur va temuriyzodalar davrida yaratilgan moddiy va ma’naviy meroslar Markaziy Osiyo Uyg‘onish davri madaniyati taraqqiyoti, shuningdek, undan keyingi davrlarda muhim ahamiyatga ega ekan, bunday ulkan merosni asrab-avaylash, bizlarning, hamda kelajak avlodning burchidir.

AMIR TEMUR MARKAZLASHGAN DAVLAT ASOSCHISI

Batirova X.M.
O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi
Toshkent “Temurbeklar maktabi” HAL bosh o‘qituvchisi.

Amir Temur, tarixda Tamerlan nomi bilan tanilgan, o‘zining ajoyib harbiy salohiyati, siyosiy yondashuvlari va davlat boshqaruviga qo‘shgan hissasi bilan alohida o‘rin tutadi. 14-asrda Markaziy Osiyoda o‘zining kuchli imperiyasini barpo etgan Temur, nafaqat hududini kengaytirgan, balki u yerda markazlashgan davlat tizimini joriy etish orqali tarixda iz qoldirgan.[1] Uning boshqaruvidagi davlat, siyosatdagi innovatsiyalar, iqtisodiy va madaniy sohalarda erishilgan yutuqlar o‘z davrining ilg‘or tajribalari sifatida e’tirof etiladi.Amir Temurning markazlashgan davlatni qurishdagi yondashuvlari, davlatni samarali boshqarish uchun amalga oshirgan islohotlari, qo‘shinlarini tashkil etishdagi muvaffaqiyatlari va madaniy merosi bugungi kunda ham o‘rganilmoqda. U o‘zining siyosiy va harbiy mahorati bilan nafaqat Markaziy Osiyo, balki butun dunyo tarixida muhim o‘rin tutadi. Bu maqolada, Amir Temurning markazlashgan davlat asoslarini yaratishdagi yondashuvlari, uning davlat boshqaruvi va madaniyat sohasidagi merosi keng ko‘lamda tahlil qilinadi.

Amir Temur va uning markazlashgan davlatni qurishdagi roli. Amir Temur, 1336-yilda Shayxontohur (hozirgi O‘zbekiston) viloyatida tug‘ilib, o‘zining hayoti davomida kuchli va barqaror markazlashgan davlatni qurishga muvaffaq bo‘ldi. U tarixda o‘zining buyuk harbiy sarkarda sifatida tanilgan bo‘lsa-da, davlat boshqaruvi va siyosiy strategiyalari bilan ham katta

muvaffaqiyatlarga erishdi. Temur, o‘zining hukmronligi davrida Xorazm, Movarounnahr, Eron, Hindiston, va boshqa hududlarda ko‘plab yirik yurishlarni amalga oshirdi. Ularning barchasi o‘zining markazlashgan davlat tizimini barpo etish maqsadida olib borildi. Amir Temur davlatini o‘ziga xos boshqaruv uslubi bilan qurdi va uning siyosiy tizimi o‘z davri uchun eng ilg‘or tizimlardan biri sifatida tarixda qoldi.[2]

Markazlashgan davlat tizimi – bu davlat boshqaruvida barcha hokimiyat va vakolatlarning markazlashgan va bitta markazga to‘plangan tizimdir. Bu tizimda hukumatning barcha muhim qarorlari va amaliyotlari markaziy hukumat tomonidan qabul qilinadi va amalga oshiriladi, mahalliy hokimiyatlar esa markaziy hukumatning buyruqlariga bo‘ysunadi. Markazlashgan davlat tizimi hukumatning kuchli va samarali bo‘lishini ta’minlash uchun yaratilgan, u yerda markaziy hokimiyat o‘z qarorlari va siyosatlari bilan mamlakatning barcha sohalarini boshqaradi.

Amir Temur o‘zining imperiyasini yaratishda markazlashgan davlat tizimini joriy etgan va shu orqali davlatni samarali boshqarishga erishgan. Uning siyosiy yondashuvlari va markaziy hokimiyatni mustahkamlashdagi islohotlari davlatni barqaror qilish va uning ichki muammolarini hal qilishda muhim rol o‘ynagan. Amir Temur davridagi markazlashgan davlat tizimi kuchli markaziy hokimiyat, viloyatlar va hududlarni boshqarish, yagona qonunlar va tartiblar, harbiy hokimiyat va tartib, markazlashgan iqtisodiy tizim, siyosiy barqarorlik va madaniyat va ilm-fanga qo‘shgan hissalar kabi asosiy xususiyatlar bilan ajralib turadi.

Temur, o‘z davrida markaziy hokimiyatni mustahkamlashga katta e’tibor qaratgan. U o‘zining mamlakatining barcha viloyatlarida, hududlarida o‘zining to‘g‘ridan-to‘g‘ri vakillarini tayinlab, markaziy hukumatga bo‘ysundirgan. Amir Temur hokimiyatini mustahkamlash uchun ko‘plab harbiy va siyosiy chora-tadbirlarni amalga oshirdi. Markaziy hukumatning kuchli bo‘lishi, barcha hududlarda barqarorlikni ta’minlashga yordam berdi.[3]

Amir Temur markazlashgan davlat tizimining asosiy elementlaridan biri sifatida kuchli harbiy tizimni tashkil etdi. Amir Temur o‘zining kuchli va intizomli qo‘shinlari orqali, mamlakatni himoya qilish va uning ichki barqarorligini ta’minlashni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan.[4] Harbiy hokimiyat markazlashgan davlat tizimining asosiy qismlaridan biri bo‘lib, Amir Temur qo‘shinlari davlatning barqarorligini saqlashda va tashqi tahdidlarga qarshi kurashishda muhim rol o‘ynagan. Markazlashgan hokimiyat va harbiy

tizim o‘zaro chambarchas bog‘liq bo‘lib, harbiy kuch orqali davlatning ichki siyosiy barqarorligi ta’minlangan.

Amir Temur davrida iqtisodiy boshqaruv ham markazlashtirilgan edi. U o‘z davrida yangi iqtisodiy siyosatlar joriy etgan, bu esa mamlakatni iqtisodiy jihatdan rivojlantirishga yordam berdi. Boshqaruvning markazlashganligi tufayli, Amir Temur o‘zining iqtisodiy siyosatlarini barcha hududlarda bir xil qo‘llashga muvaffaq bo‘ldi. Mamlakatda savdo, qishloq xo‘jaligi, hunarmandchilik va boshqa iqtisodiy sohalarda rivojlanishning oldi olindi. Samarqandning iqtisodiy markazga aylanishi va xalqaro savdoning rivojlanishi ham markazlashgan iqtisodiy tizimning muvaffaqiyatidan dalolat beradi.[5]

Amir Temur o‘zining markazlashgan davlatini yaratish orqali siyosiy barqarorlikni ta’minlashga erishdi. Uning siyosiy yondashuvlari nafaqat ichki, balki tashqi siyosatda ham muvaffaqiyatga erishishiga olib keldi. O‘zining markazlashgan hukumat tizimi orqali u mamlakatni mustahkamladi, ichki ziddiyatlarni bartaraf etdi va tashqi tahdidlarga qarshi kurashda muvaffaqiyatga erishdi.

Amir Temur o‘zining markazlashgan davlat tizimini yaratish orqali o‘z davrining eng ilg‘or siyosiy boshqaruv tizimini joriy etdi. Uning markazlashgan hukumat modeli mamlakatning barqarorligini saqlash, iqtisodiy, madaniy va ilmiy rivojlanishni ta’minlashda katta rol o‘ynadi. Amir Temur markazlashgan davlatni qurish orqali nafaqat o‘z imperiyasining kuchini oshirdi, balki o‘z davrining boshqaruv tizimiga yangicha yondashuvlarni kiritdi. Uning merosi va tizimi bugungi kunda ham o‘rganilmoqda va davlat boshqaruvi sohasidagi innovatsiyalarni o‘rganuvchilar uchun muhim manba hisoblanadi.

Amir Temur o‘zining harbiy kuchlari va strategiyalari bilan tarixda katta iz qoldirgan buyuk sarkarda va hukmdor sifatida tanilgan. Uning qo‘shinlari, harbiy strategiyalari va jangovar tajribalari dunyo tarixida alohida o‘ringa ega. Amir Temur o‘zining harbiy amaliyotlarini aql-zakovat, yuqori intizom, qat’iyatlilik va chiroyli strategiya asosida qurdi. Temurning harbiy kuchlari zamonasi uchun juda ilg‘or edi. Uning qo‘shinlari nafaqat son jihatdan, balki tashkilot, qo‘mondonlik va jangovar mahorat bo‘yicha ham bir qadam oldinda edi. Amir Temur o‘zining harbiy strategiyalarida har bir urush va jangni alohida rejalashtirgan, u har bir jangovar harakatda jamoaviy kuchdan samarali foydalanishga e’tibor qaratgan.[6]

Temurning harbiy strategiyalarining asosiy jihatlari uning harbiy yurishlarida tezkorlikka katta e’tibor berish edi. U qo‘shinlarini uzoq

masofalarga tezda joylashtirish va kutilmagan hujumlar orqali dushmanlarni hayratda qoldirishda juda muvaffaqiyatli bo‘lgan. Masalan, u o‘zining tezkor harakatlari bilan dushmanlarni uyquda yoki tayyorgarliksiz paytlarida zarba berishni afzal ko‘rgan. Bu harbiy taktikasi unga juda ko‘p janglarda g‘alaba qozonishga yordam bergan. Amir Temur o‘zining harbiy yurishlarida har bir detalga alohida e’tibor qaratgan.[6] Temurning harbiy kuchlari juda yuqori intizomga ega edi. Amir Temur o‘z qo‘shinlarini qat’iy nazorat qilib, jangovar tadbirlarda juda yuqori tartibni saqlashga harakat qilgan. U har bir askar uchun aniq vazifalar va qarorlar belgilab bergan, bu esa qo‘shinlarining yuqori samaradorligini ta’minlagan. Qo‘mondonlarning va askarlarning o‘zaro hamkorligi, samarali aloqalari janglarda muvaffaqiyatning asosiy omili bo‘lgan. Amir Temur o‘zining harbiy yurishlarida ko‘plab turli millatlarni, shu jumladan, turkmanlar, mog‘ullar, arablar va boshqa xalqlardan askarlar yig‘gan. Uning qo‘shinlari bir nechta millatlar vakillaridan tashkil topgan bo‘lib, bu esa qo‘shinlarni kuchaytirgan va birlashtirgan. Temur, turli millatlar va xalqlarni birlashtirib, ularning har biri uchun maxsus rolda foydalanishni yaxshi bilgan. Har bir askar o‘zining jangovar tajribasiga ko‘ra moslashgan va samarali ishlagan.[7]

Amir Temur o‘zining davlatini faqat ichki boshqaruv bilan cheklanmay, tashqi siyosatni ham katta muvaffaqiyat bilan olib bordi. U ko‘plab qo‘shni davlatlar bilan ittifoqlar tuzdi va o‘zining siyosiy ta’sirini kengaytirishga muvaffaq bo‘ldi. Temurning tashqi siyosatidagi asosiy yo‘nalishlar, mamlakatining himoyasini ta’minlash va o‘z imperiyasining chegaralarini kengaytirish edi.

Shu bilan birga, Amir Temur o‘zining raqiblariga qarshi kurashishda ham juda qat’iyatli edi. U dushman davlatlarga qarshi kuchli harbiy yurishlar amalga oshirib, o‘zining markazlashgan davlatini kuchliroq va barqarorroq qildi.[10]

Amir Temur nafaqat harbiy va siyosiy muvaffaqiyatlari bilan, balki uning madaniy, ilmiy va iqtisodiy sohalarga qo‘shgan hissasi bilan ham tanilgan. Uning markazlashgan davlatini qurishdagi yondashuvlari, shuningdek, davlatni boshqarishdagi yangiliklari va inqilobiy islohotlari bugungi kunda ham o‘rganilmoqda. Samarqanddagi ilmiy yutuqlar, Temurning madaniy merosi va o‘zi yaratgan imperiyaning ta’siri nafaqat o‘z davriga, balki keyingi asrlar davomida ham sezilarli ta’sir ko‘rsatdi.[11]

Amir Temur merosi, uning siyosiy strategiyalari va davlat boshqaruvi uslubi bugungi kunda dunyo tarixida o‘rganiladigan va qadrlanadigan namuna sifatida qolmoqda.

Bugungi kunda, Amir Temurning markazlashgan davlatini qurishdagi strategiyalari, uning boshqaruvdagi yondashuvlari va ilm-fanga qo‘shgan hissasi, zamonaviy davlat boshqaruvi va siyosatni o‘rganish uchun katta ahamiyatga ega. Uning merosi, nafaqat o‘z davrida, balki kelajakda ham o‘rganiladigan, ilhomlantiradigan va qo‘llaniladigan tajriba sifatida qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Akhmedov, B. (2004). *Amir Temur va uning davlati*. Tashkent: Sharq Nashriyoti.
2. Mavlonov, I. (2007). *Amir Temur imperiyasi va markazlashgan davlat boshqaruvi*. Samarkand: SamDU Nashriyoti.
3. Maqsudov, Sh. (2000). *Amir Temur va uning siyosiy merosi*. Tashkent: Fan.
4. Shaykhov, A. (2008). *Amir Temur: Tarix va madaniyat*. Tashkent: Uzbekistan.
5. Khalilov, K. (2012). *Markazlashgan davlat va uning siyosiy tahlili (Amir Temur misolida)*. Baku: Elm.
6. Fazilov, R. (2010). *Amir Temur va uning imperiyasi: Tarixiy meros va madaniyat*. Tashkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi.
7. Thackston, W. M. (1993). *The History of Timur (Tamerlane) and His Dynasty*. Cambridge: Harvard University Press.
8. Rashid al-Din (1995). *Jami' al-tawarikh*. Tashkent: O‘zbekiston. (Tarixshunoslik asari, Amir Temur haqidagi ma'lumotlar)
9. Klaproth, J. H. (1810). *Histoire de l'Empire de Timour*. Paris: A. Bertrand.
10. Beruni, A. (1957). *Tarixiy asarlar va Amir Temur haqidagi fikrlar*. Tashkent: Fan.
11. Nasr, S. H. (1993). *The Islamic World: Past and Present*. Oxford University Press.

AMIR TEMUR HARBIY MEROSINING IJTIMOIY-SIYOSIY VA MA’NAVIY AHAMIYATI

Boboxonov S.R,
Jamoat xavfsizligi universiteti
Tahririyat-noshirlik bo‘limi katta ofitseri

Buyuk siymolar qatoridan munosib joy olgan Sohibqiron Amir Temur qadriyatini o‘rganish ham muhim ijtimoiy-siyosiy va ma’naviy ahamiyat ega. Bu buyuk zot hayoti va faoliyatini o‘rganar ekanmiz, uning tengsiz iqtidor va yuksak qobiliyat egasi bo‘lganligiga amin bo‘lamiz. Amir Temur bobomizga xos bo‘lgan mardlik, jasurlik, zukkolik, insonparvarlik, el-yurt tashvishlari bilan yashash kabi xislat va fazilatlar, uning har qanday mushkul siyosiy, harbiy,

diplomatik vaziyatlardan chiqa olish iqtidori, zehnu zakovati bugungi kunda porloq kelajagimiz egalari bo‘lmish yoshlar uchun ham ibrat, ham saboq maktabi vazifasini o‘tab kelmoqda. Chunki, yoshlar ongiga singdirishimiz lozim bo‘lgan madaniyat va ma’naviyat, Movarounnahrda aynan Amir Temur davrida juda yuksak darajada rivoj topgan. Bu davrda mamlakatda katta ilmiy, madaniy va iqtisodiy uyg‘onish sodir bo‘lgan.

Shu bois ham, milliy davlatchiligimiz tarixida aynan SohibqironAmir Temur davlat boshqaruvida bo‘lgan davr - Ikkinchi Renessansga tamal toshi qo‘yilgan davr, ya’ni Ikkinchi Sharq uyg‘onish davri deb e’tirof etiladi.

Bu haqida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev shunday fikr bildiradi: “O‘n beshinchi asrda Sohibqiron Amir Temur bobomiz asos solgan va uning munosib avlodlari davom ettirgan muhtasham saltanat, yurtimizda ikkinchi Uyg‘onish, ya’ni ikkinchi Renessans davrini boshlab berdi. Bu davrda Qozizoda Rumiy, Mirzo Ulug‘bek, G‘iyosiddin Koshiy, Ali Qushchi singari benazir olimlar, Lutfiy, Sakkokiy, Hofiz Xorazmiy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Bobur Mirzo kabi mumtoz shoir va mutaffakirlar maydonga chiqdi. Sharofiddin Ali Yazdiy, Mirxond, Xondamir kabi tarixchilar, Mahmud Muzahhib, Kamoliddin Behzod singari musavvirlar, ko‘plab xattot va sozandalar, musiqashunos va me’morlarning shuhrati dunyoga yoyildi”.

O‘ttiz besh yil (1370–1405) hukm surgan Sohibqiron Amir Temur Markaziy Osiyo hududlarini yagona markazlashgan davlatga birlashtirdi, Hind va Gangadan to Orol dengizigacha, Tyan-Shandan to Bosforgacha ulkan imperiya barpo etdi. Amir Temur, eng avvalo, mustaqil ulkan Turon davlatini tuzgan vatanparvar, buyuk davlat arbobidir, vatanimizni mo‘g‘ul bosqinchilaridan ozod etgan xalq qahramonidir. Shuni ta’kidlash joizki, Sohibqiron xudo izmidan chiqmaydigan bandalardan edi, hech qachon birinchi bo‘lib urush boshlamasdi, savashishlarni yoqtirmasdi. Uning yurishlari zaruratdan kelib chiqardi. U doimo urushning oldini olish chorasini izlardi.

Shuningdek, Amir Temurning "uch yillik" (1386–1388), "besh yillik" (1392–1396), "yetti yillik" (1399–1404) yurishlari tarixdan ma’lum. Bu yurishlar zamirida Buyuk ipak yo‘liga egalik qilish uchun kurashlar ham yotadi. Savdo yo‘llari davlatga katta daromad keltirishdan tashqari, xalqaro siyosiy maydonda mavqeyi, obro‘-martabasini yuksak darajaga ko‘tarardi. Amir Temur yurishlari, urushlar, albatta, o‘z asoratlarini qoldirdi, lekin ularning jahon tarixida ijobiy tomonlari borligi ham haqiqat. Sohibqironning yurishlari Xitoyda Min sulolasi davlat boshiga kelganda mo‘g‘ullarning Xitoyga

solayotgan xavfini bartaraf etdi. Oltin O‘rda xoqoni To‘xtamishxon bilan 1391 va 1395-yillarda olib borilgan ulkan janglar Rossiyani mo‘g‘ullar zulmidan xalos qildi, rus xalqiga markazlashgan davlat tuzish imkoniyatini yaratdi. Amir Temurning Usmonlilar imperiyasi ustidan qozongan g‘alabasi Yevropani usmonlilar mustamlakasidan qutqarib qoldi, uni Yevropa xaloskoriga aylantirdi, Vizantiya imperiyasi umriga yarim asr umr qo‘shdi. Fransuz tarixchisi Rene Grusse XX asr boshlarida: "Amir Temurning Boyazid ustidan g‘alabasi xristian olamini asrab qoldi", – deb yozgan edi.

Amir Temur davlatida sarkardalar tayyorlashga ham alohida e’tibor qaratilgan.

Amir Temur lashkarboshilari haqida topish mumkin bo‘lgan barcha ma’lumotni tahlil etib bir qator ilmiy natijalarni qo‘lga kiritish mumkin. Bular XV asr boshida yozilgan ikki “Zafar-noma”kitobi. Ularda Amir Temur harbiy yurishlari barcha tafsilotlari bilan keltirilgan. Undan tashqari, G‘iyosiddin Alining “Amir Temurning Hindistonga yurishi” kitobida Amir Temur lashkarboshilari haqida batafsil biografik ma’lumotlar bor. Amir Temur davlati haqida Ispaniya elchisi Rui Gonsales de Klavixoning “Samarqandga Temur saroyiga sayohat kundaliklari” (1405 – 1406 yillar) - shu vaqtgacha dunyo va Yevropa olimlariga yaxshi tanish bo‘lgan yagona asar.

Amir Temurning barcha lashkarboshilarini harbiy ustalik bo‘yicha uch guruhga bo‘lish mumkin.

Birinchi guruh “iste’dodli sarkardalar” bo‘lib, tug‘ma harbiy talantga ega bo‘lgan lashkarboshilardir. Ular orsida Xo‘ja Sayfiddin, Jahonshoh Bahodir, Muhammad Sultonshoh, Usmon Bahodir, Shayx Nuriddin bek nomlari bor. Amir Temur ushbu sarkardalarini juda yaxshi ko‘rgan va ular bilan qon-qarindosh bo‘lishga harakat qilgan.

Ikkinchi guruh bu “tayinlangan lashkarboshilar” bo‘lib, ular Temurga yaqin kishilarning o‘g‘illari bo‘lib, ular orasida Sulaymon shoh, Xudaydod, Berdibek degan nomlar bor. Ularning harbiy talanti, bir so‘z bilan aytganda “turli xil” bo‘lgan. Xususan, Amir Temurning kuyovi Sulaymon-shoh boshida harbiy ishga uquvi bo‘lmagan, lekin ko‘p yillik yurishlar davrida tajriba ortirib, keyinchalik munosib sarkardaga aylangan.

Uchinchi guruh sarakardalar bu “Me’rosxo‘r sarkardalar” bo‘lib, ularga Amir Temurning bolalari Umar shayx va Mironshoh hamda uning nabirasi Muhammad sulton bo‘lgan. Ushbu guruh bilan Amir Temurning shaxsan o‘zi shug‘ullangan. Buyuk sarkarda ular oldiga tobora tobora murakkab harbiy

masalalar qo‘yib, o‘quvchilarning harbiy mahoratini oshirib borgan. Amir Temurning shaxsiy harbiy talanti va ko‘p yillik jangovor tajribasi o‘z natijasini berdi va uning farzandlari zamondoshlari orasida “qobiliyatli lashkarboshilar” nomiga sazovor bo‘ldi. Temurning nabirasi Muhammad Sulton esa buyuk sarkarda bo‘lib yetishdi.

“Temur tuzuklari” davlat va jamiyat boshqaruviga oid qo‘llanma (dastur ul amal) bo‘lib, mazkur tarixiy asarda Amir Temur hazratlari buyuk markazlashgan davlatni qancha mashaqqatlar evaziga barpo qilgani, davlat va jamiyat boshqaruvida nimalarga e’tibor qaratish va uni qanday saqlash borasida o‘z vorislariga o‘ta qimmatli o‘git va nasihatlar yozib qoldirgan.

Davlat ahamiyatiga ega masalalarni hal etishda “etti o‘lchab bir kesish” tamoyiliga amal qiligan, boshlangan ish yakuniga yetkazilgan. Tuzuklarda davlat ishlarini boshqarishning asosiy qoidasi quyidagicha izohlangan, «…davlat ishlarining to‘qqiz ulushi kengash, tadbir va mashvarat, qolgan bir ulushi esa qilich bilan bajo keltirilishini angladim».

Davlat ahamiyatiga ega masalalarda kengash (kollegiallikka) asosida qarorlar qabul qilish bilan birga, xalqning turmush darajasi o‘rganilib, jamoatchilik fikri hisobga olinar edi. Davlat boshqaruvida tabaqaviy prinsipga amal qilingan, “Tuzuklar”da jamiyat o‘n ikki tabaqada bo‘linganligi to‘g‘risida ma’lumot beriladi. Sohibqiron tabaqalarning har biriga g‘amho‘rlik ko‘rsatib, ularning jamiyatda tutgan o‘rni va mavqeiga mos bo‘lgan ish berdi. “Saltanatimni o‘n ikki toifaga bo‘lib, ularga tayangan holda ish yurgizdim. Saltanatim qonun-qoidalarini ham shu o‘n ikki toifaga bog‘lab tuzdim. Bu o‘n ikki toifani saltanatim falakining o‘n ikki burji va davlatim korxonasining o‘n ikki oyi deb hisobladim”.

Davlat boshqaruvida vazirlarga keng vakolatlar berildi. Vazir lavozimga nomzod shaxsan Sohibqironning suhbatidan o‘tishi shart edi. U vazirlarni davlat ishlarida sherik hisoblab, maslahatlarini e’tiboridan chetda qoldirmagan. Davlat ishlarida ularning mavqeini mustahkamlanishi bilan birga, mansabiga mos ravishda vakolatlar berildi, ishonch bildirildi hamda hokimiyat berildi. “Amr qildimki, – deb yozgan Amir Temur, vazirlar ushbu to‘rt sifatga ega bo‘lgan kishilardan bo‘lishlari lozim; birinchisi – asillik, toza nasllilik; ikkinchisi – aql-farosatlilik; uchinchisi – sipohu raiyat ahvolidan xabardorlik, ularga nisbatan xushmuomalada bo‘lishlik; to‘rtinchisi – sabr-chidamlilik va tinchliksevarlik”. Davlat xizmatida vazirlardan keyin amir yoki viloyat hokimi lavozimi muhim o‘ringa ega bo‘lgan. Katta mas’uliyat talab qiluvchi bunday

lavozimga nomzod kishi quyidagi sifatlarga ega bo‘lishi ko‘rsatilgan: tajriba, aql, jur’at va jasorat. Amirlarga Amir Temur muhri bilan tasdiqlangan maxsus hujjat berilgan. Urush vaqtida amir tumanboshi (o‘n ming askariy qo‘shilma) lavozimida harbiy qismni boshqarar edi. “Tajribamdan sinab bildimki, deb yozgan Amir Temur, jangning sir-asrorini, g‘anim askarlarini sindirish yo‘lini bilgan, urush qiziganda o‘zini yo‘qotmasdan, qo‘l-oyog‘i bo‘shashmasdan, lashkar favjlarini jangga boshlay oladigan, agar qo‘shin safiga rahna tushsa uni tezda tuzata oladigan kishigina amirlik va hukmronlikka loyiq hisoblanadi”.

Amir Temur hukmronligi davrida davlatchilik an’analari yanada rivojlantirildi. Bepoyon sarhadlarga ega davlat boshqarishning murakkab mexanizmi yaratildi. Movarounnaxrdan tashqari saltanat tarkibiga kiritilgan sarhadlar udellar (ulus)ga bo‘lingan. Ulus hukmdori lavozimiga Sohibqironning o‘g‘illari, nabaralaridan iborat yaqin qarindoshlari hamda lashkarboshilar tayinlangan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.. “Соҳибқирон юлдузи” журнали, №1. (27) 2017 йил. 46-бет.

2. Султонов К. Соҳибқирон Амир Темурнинг маънавий жасорати. Тошкент-2021. -Б.7.

3. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Ўқитувчи ва мураббийлар кунига бағишланган тантанали маросимдаги нутқи.2019 йил 1 октябрь. president.uz.

4.Темур тузуклари. – Т.: “O‘zbekiston”, 2013. – 182 б.

5. www.temurtuzuklari.uz

AMIR TEMUR ARMIYASIDA AKUSTIK VOSITALARNING TUTGAN O‘RNI VA AHAMIYATI

Bokiyev M.G.,

Jamoat xavfsizligi universiteti batalyon komandiri o‘rinbosari

Tarixan, jangovar akustik vositalar turli shakl va ko‘rinishda qadimgi musulmon davlatlarining harbiy va ijtimoiy-siyosiy hayotida faol qo‘llanilib kelingan. Jumladan, bugungi “karnay” atamasi ruscha “рог”, “труба”, qadimgi turkiy “burg‘u” hamda fors-tojik istilohidagi “karnay” va “nafir” o‘zlashmalaridan iborat. Jangovar vaziyatlarda karnay, nafir (nafir –

karnayning urushda chaladigan bir turi) va burg‘u aksariyat hollarda kavurga (nog‘ora) va dovul (tabl) jo‘rligida chalingan: “Temurbeg hamul dam burg‘u chaldirib, kavurg‘a urib, otlanib, Sayxun yoqasiga yetdi”.

Ta’kidlash kerakki, musulmon sarkardalar ichida jahongiri sanalgan, Sohibqiron Amir Temur ham o‘z armiyasining harbiy orkestriga juda kuchli e’tibor qaratgan. Amir Temur armiyasining harbiy orkestri – damli va zarbli cholg‘ularning xilma-xil turlaridan tashkil topgan. Ularning ko‘pchiligi Turk hoqonligi, Somoniylar, Qoraxoniylar va Xorazmshohlar davrlarida ham mashhur bo‘lgan. Bunda azaldan Markaziy Osiyoda yaxshi tanish bo‘lgan nog‘ora turlari ko‘s, tabira, al-tabra, bir tomonli nog‘ora, chindoul, doulpaz, katta nog‘ora kabilardan foydalanilgan. O‘rta asr miniatyuralaridagi tasvirlarga qaraganda, qo‘sh nog‘oralar sipohiy sozandalar tomonidan otning ustida, egarning ikki tarafiga joylanib chalingan. Katta ko‘s nog‘ora esa aksariyat miniatyuralarda tuyaning o‘rkachiga o‘rnatilgan holda tasvirlangan. Dovul cholg‘usi o‘sha paytda “duhul” nomi bilan mashhur bo‘lgan.

Jangovar akustik vositalarning harbiy va ijtimoy-siyosiy hayotdagi ahamiyatini to‘g‘ri tushungan Amir Temur o‘z Tuzuklarida: “Amr qildimki, o‘n ikki katta amirlarning har biriga bitta bayroq va bir nag‘ora berilsin. Amir ul umaroga bayroq va nog‘ora, tuman tug‘i va chortug‘ taqdim etsinlar. Mingboshiga esa bir tug‘ va karnay bersinlar. Yuzboshi va o‘nboshiga bittadan katta nag‘ora bersinlar. Aymoqlarning amirlariga bo‘lsa bittadan burg‘u taqdim etsinlar. To‘rt beglarbegining har biriga bittadan bayroq, nog‘ora, chortug‘ va burg‘u bersinlar”, deya amr etgan. Mazkur buyrug‘i orqali Sohibqiron akustik vositalarni nafaqat urush holatida va ayni vaqtda tinch vaziyatlarda ham elni, qo‘shinni ogoh qilishdagi rolini to‘g‘ri anglagan. Shuning uchun ham ularni ham harbiy ham fuqarolik lavozimga tayinlanayotgan mansabdor shaxslarga birdek taqdim etgan.

Amir Temur doimo akustik vositalarning jangovar vaziyatlardagi roliga katta baho bergan. Jumladan, Rumga qarshi jangida to‘rt ming karnaychi, nog‘ora va bolabon cholg‘uchilar hamda xushovoz xonandalar ishtirok etishganidan ham bilish mumkinki, Sohibqiron askarlar jangovar ruhini oshirishda butun boshli orkestr va ansambldan unumli foydalangan. Masalan, Salohiddin Toshkandiyning “Temurnoma” asarida yozishicha “tunikadan uy qilib tevalarga ortgan edi, vaqti kelib, jang ichra kirgan paytlarida nahmai qilib, tanburlarni cholib, imom Hasan va imom Husayn marsiyalaridan o‘qur edilar. Alarning ovozig‘a askarlar mastu alast bo‘lub, o‘zlarini jangga urar edilar”.

Darhaqiqat, Amir Temur jang taktikasida musiqiy qurollar jarayonning ajralmas qismi sanalgan. “Masalan, jang boshlangandan so‘ng u o‘zining harbiy orkestriga “Ortga chekinish usuli”ni chalishni buyurgan. G‘anim taraf esa bundan xabar topib, g‘alaba qozonganiga ishongan. Ammo Amir Temur kechasi “shabixun” usulini qo‘llashdan oldin g‘anim askarining ruhini sindirish uchun kutilmaganda, to‘rtta yirik orkestrining to‘rtinchi bo‘linmasi musiqachilariga “Hal qiluvchi jangga o‘tish usuli”ni chalishni amr etgan. Momoqaldiroq tovushi singari jangovar gulduros musiqa sadolari ostida “Urho-ur” deya na’ra tortgan askarlarning kutilmagan hamlasidan shoshib qolgan g‘anim parokanda bo‘lib, jangovar jipsligini yo‘qotgan va sarosimaga tushib, qarshilik ko‘rsatishga ojizlik qilgan. Sohibqiron Amir Temur qolgan orkestrlari bu paytda “halqa ushrubi” usulida “Chappai rosta” kuyini ijro etgan, ya’ni g‘anim tamom sindirilgani haqida xabar bergan”.

Manbalarda keltirilishicha, Amir Temur davrida jangovar yurishlar uchun maxsus ishlab chiqilgan jangovar musiqa tizimiga qat’iy amal qilingan. Mazkur jangovar musiqa tizimi quyidagilardan iborat bo‘lgan:

Birinchi – saflanish ijrosi;

Ikkinchi – hujumga o‘tish;

Uchinchi – jang taktikasiga o‘tish;

To‘rtinchi – hujum-hurujga o‘tish;

Beshinchi – g‘alabaga chorlash usuli;

Oltinchi – chekinish usuli;

Yettinchi – hal qiluvchi zarba usuli;

Sakkizinchi – otliqlar va piyodalar uchun o‘ziga xos marsh usuli va boshqalar.

Ta’kidlash kerakki, jangovar akustik vositalar avvalo qo‘shinga jangovar ruh berish hamda dushmanda qo‘rquv uyg‘otish vazifasini bajargan. Jang vaqtida “odatga binoan borgoh oldida harbiy cholg‘uchilar askarlarni mardlikka, matonatga rag‘batlantiruvchi, ularni jangovar ruhini ko‘taruvchi kuylarni tinimisiz chalib turishgan”. Qolaversa, mazkur vositadan mohirlik bilan foydalangan sarkardalar ham bo‘lganki, ular akustik vositalardan axborot uzatishda ham foydalanganlar. Jumladan, o‘rganishlar natijasida va musiqa sohasi bilimdonlarining aniq xulosalariga tayanib aytish mumkinki, amerikalik ixtirochi Semyuel Finli Briz Morze 1837-1938-yillari nuqta va tirelardan iborat morze kodi yuzaga kelishidan qariyb besh yuz yil avval Sohibqiron Amir Temur uzun va qisqa ritmlarga asoslangan usullar vositasida jangovar

vaziyatlarda muhim buyruq va ma’lumotlarni uzatishning badiiy usulini ixtiro etgan.

O‘sha davrda jang boshlanishi yoki qo‘shinni orqaga qaytarish xabarini anglatuvchi musiqa asboblari (karnay, surnay, dovul, nog‘ora) va boshqa yordamchi harbiy aslahalardan foydalanish vazifasi bevosita askarlar zimmasida bo‘lgan.

Xalqimiz tarixida jangovar chorlov vositalari ichida “kuvrug” cholg‘u asbobi keng qo‘llanilgan. Jumladan, Ko‘k turklar va Qoraxoniylar davrida bu harbiy-cholg‘u asbobi bugungi kundagi “nog‘ora” vazifasida qo‘llanilgan.

“Kuvrug” keyinchalik Temuriylar va O‘rta Osiyo xonliklari davrida ham “kavurga”, “kaburka”, “ko‘raka” nomlari bilan atalgan holda amaliyotda qo‘llanilib kelingan. Bu davrda nog‘oraning katta turi “dovul” yoki arabcha “tabl” cholg‘u asbobi ham mavjud bo‘lgan.

Yuqorida ta’kidlaganimizdek, akustik qurulmalardan axborot berish vositasi sifatida ham foydalanilib, jangovar vaziyatlarda “dovul” yoki “tabl” orqali qo‘shinning biror harakati, ya’ni lashkargohdan ko‘chishi yoki belgilangan manzilga to‘xtashi yoxud dushman qorasi ko‘ringani haqida xabar berilgan.

Amur Temur va Temuriylardan keyin ham harbiy, ijtimoiy-siyosiy hayotda jangovar akustik vositalarning ahamiyati pastlamagan.

Foydalanilgan adabiyorlar

1. Dadaboyev H., Yodgorov H. O‘zbek harbiy terminologiyasi. – T.: “Shahhof” nashriyoti, 2021. - 145-b.

2. Sharafiddin Ali Yazdiy. Zafarnoma. – T.: 1992. – 321-b.

3. Таварихи гузида. Нусрат-наме. Исследование, критический текст, аннотация, оглавление и таблица сводных оглавлений к.ф.н. А.Акрамова. – Т.: 1967, - С. 139.

4. Temur tuzuklari. – T.: “Sharq”, 2005. – 100-b.

5. Samarov R., Axrorov S., Xolmo‘minov J., Sadriddinov S. Sohibqiron Amir Temur harbiy san’ati. – T.: “Ma’naviyat”, 2022. – 226-b.

6. Salohiddin Toshkandiy. Temurnoma. – T.: “Cho‘lpon”, 1990. – 308-309-b.

7. Dadaboyev H. Amir Temurning harbiy san’at rivojiga qo‘shgan hissasi. – T.: 2021. – 45-b.

8. Hofiz Tanish al-Buxoriy. Abdullanoma (Sharifnomayi shohiy) / Fors tilidan S.Mirzayev tarjimasi. 1-kitob. – T.: Sharq, 1999. – 188, 231, 232, 292, 293-b.

AMIR TEMUR VA ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR JANGOVOR NUTQI – HARBIY XIZMATCHILARNI HARBIY-VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHDA JASORAT VA MA'NAVIY-RUHIY TA'MINOT MANBAI

Bokiyev M.G.,
Jamoat xavfsizligi universiteti batalyon komandiri o'rinbosari

Xalqimiz tarixida harbiy-vatanparvarligi jo'sh urgan, jiddu-jahd sohibi bo'lgan ko'plab sarkardalar, davlat va jamoat arboblarining ko'pligi yosh avlodni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda katta me'ros mavjudligini ko'rsatadi.

Shunday buyuk shaxslar bor-ki, ular bilan nafaqat o'zbeklar, balki butun turkiy xalqlar g'urur va iftihor tuyadi, deya ayta olamiz. Sohibqiron Amir Temur
va Zahiriddin Muhammad Bobur mana shunday buyuk shaxslarning yorqin nomoyondalaridan hisoblanadi.

Ta'kidlash kerakki, shu vaqtgacha Amir Temurning jang san'ati bilan bog'liq ko'plab tadqiqotlar olib borilgan. Mazkur masalada Amir Temurning turk sultoni Boyazid Yildirimga qarshi 1402-yil 20-iyul kuni Anqara yaqinidagi Chubuk mavzeyida bo'lib o'tgan jangda so'zlagan jangovar nutqi tahlilini keltiramiz. Mazkur jangovar nutqda Amir Temur qo'shin orasida Boyazid qo'shinining yengilmas ekanligi to'g'risida tarqalgan ruhiy streotiplarni hisobga olgan holda shunday jangovar xitob qilgan: *"Turon-u, Xuroson el-ulusi lochinlari, bahodirlarim! Bizni Vatanimiz, oilamiz, do'st-u, qarindoshlarimiz g'anim ustidan muzaffar bayrog'imizni mag'rur hilpiratib, g'alaba qilgan holda qaytishimizni intiqlik bilan kutmoqda. Sizlarni shu ulug' jangda Alloh panohiga topshirdim. G'alaba to'yini hammamizga birgalikda o'tkazishni yaratgan Egamning o'zi nasib aylasin. Vatan sha'ni, oila va bahodirlik sha'nini ustun qo'yib, jang qilish bizga bobo meros, Xudo yor bo'lsin! Qalb qo'shinim, olg'a! Barong'or va Javong'or shunqorlarim hujumga, hujumga, olingu oldirmanglar, Allohu-akbar, zafar yor bo'lsin!".*

Ta'kidlash kerakki, Amir Temurning mazkur jangovar nutqi xajman qisqa, lekin o'ta hissiy va pafosli. Nutq Vatan, oila, sha'n, or-nomus masalalarini yodga solish bilan boshlanadi. Sohibqiron o'z nutqida *"bahodirlarim!", "qo'shinim", "shunqorlarim"*, deya "*im*" qo'shimchasi

orqali o‘zini har bir askar bilan bir-tanu, bir jon ekanini anglatadi. *“Sizlarni shu ulug‘ jangda Alloh panohiga topshirdim... Allohu akbar”* jumlalari orqali jangchilarda ruhiy-ma’naviy jihatdan himoya hissini uyg‘otadi. Shundan keyin ruhiy jihatdan tayyor bo‘lgan qo‘shinni janga *“hujumga”* deya otlantiradi. Nutq yakunida hujumdan asosiy maqsad jangchilarga yana bir bor eslatilgan holda “*hujumga, olingu oldirmanglar”, “Xudo yor bo‘lsin!”,* deya duo qiladi.

Mazkur jangovar nutqni tom ma’nodagi kashfiyot, sarkardaning psixologik, ijtimoiy va diniy bilimdonligining mahsuli sifatida baholash mumkin.

Yosh avlodni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda katta ibrat maktabi bo‘ladigan tarixiy shaxslardan yana biri bu, davlat va jamoat arbobi, shoir va harbiy strateg, Temuriyzoda - Zahiriddin Muhammad Bobur hisoblanadi.

Zahiriddin Muhammad Bobur shaxsiyatiga taaluqli jangovar nutqlardan biri 1527-yil Rano Sango orasida bo‘lib o‘tgan “Kanva jangi”da so‘zlangan. Mazkur jangovar nutqda Zahiriddin Muhammad Bobur begona geografik muhitda dushmanga qarshi oz sonli jangchilar bilan jangga kirayotganini hisobga olgan holda, barchasi askarlarning jangovar ruhiyatiga bog‘liqligini chuqur his etib, shunday deydi: *“Bek yigitlar! Har kimsa bu jahonga kelarkan, oxiri yo‘qlikka ketadi. Abadiy qoluvchi yolg‘iz Allohdir. Hayot majlisiga kirgan odamning har biri oxir-oqibat ajal qadahidan ichadi va tiriklik manziliga kelgan kishi oxiri dunyo g‘amxonasidan kechib ketadi. Yomon nom bilan tirik yurgandan ko‘ra, yaxshi nom bilan o‘lgan afzal. Yaxshi nom bilan o‘lsam, shu yetadi. Ruhga yaxshi nom kerak, tana esa o‘lim uchundir. Tangri taolo bunday saodatni bizga nasib qilibdi va bunday davlatni bizga yaqin aylabdi. O‘lgan shahid, o‘ldirgan g‘oziy. Barchangiz Tangrining kalomi nomi bilan bu urushdan hech kim yuz o‘girishini hayoliga keltirmasligini aytib ont ichmog‘ingiz kerak”.*

Mazkur nutq mazmunidan Oliy bosh qo‘mondonni yuksak tafakkur sohibi ekanligini sezish mushkul emas. Temuriy shahzodalari orasida o‘ziga xos bilim va tajribaga ega bo‘lgan Zahiriddin Muhammad Bobur askarlarni jang oldi hissiyotlarini anglagan holda, *“Har kimsa bu jahonga kelarkan, oxiri yo‘qlikka ketadi”* jumlalari orqali tiriklik hayoti vaqtincha ekanligini, sharafli nom qoldirmoq, bobolarga munosib bo‘lish lozimligini yodga soladi. Jangovar nutqini davom ettirib, *“Yomon nom bilan tirik yurgandan ko‘ra, yaxshi nom*

bilan o‘lgan afzal”, deya jangchilarida turkiylarga xos bo‘lgan or-nomus, jiddu-jahd shijoatini rag‘batlantiradi.

Jang oldi vaziyatida dushmanning son jihatdan ustunligi mavjud haqiqat bo‘lib, bu ma’lumotdan qo‘shin xabardor bo‘lganligi, ular ongida istalmagan qo‘rquv hissi mavjudligi Zahiriddin Muhammad Bobur tomonidan anglangan holda mumkin bo‘lgan ehtimoliy (jang maydonini tashlab qochish kabi) holatlarni oldini olish maqsadida askarlarga imonni o‘rtaga qo‘yib, *“hech kim yuz o‘girishini hayoliga keltirmasligini aytib ont ichmog‘ingiz kerak”,* deya qasam ichiradi, bu orqali u jangchilarda kuchli diniy motivni uyg‘otadi, ortga qaytishga bo‘lgan har qanday ijtimoiy, maishiy yoki psixologik omilni yo‘qqa chiqaradi.

Zahiriddin Muhammad Boburning adabiyotdagi qobiliyati unga jangovar nutq so‘zlashida ham qo‘l keladi. Darhaqiqat, jangovar nutqning hissiy to‘yinganligi
va ohangraboligi har bir askarda jangovar harakat uchun yuksak motiv vujudga kelishini ta’minlab beradi. Kanva jangidagi tarixiy g‘alaba Zahiriddin Muhammad Bobur shuhratiga shuhrat qo‘shadi, dushmanlar ongida uning shaxsiyatiga nisbatan qo‘rquvni shakillanishiga sabab bo‘ladi. Jangovar notiqlik borasida mana shunday sifatlari orqali Zahiriddin Muhammad Bobur shaxsiyati xalqimiz tarixida milliy harbiy san’atimiz me’rosini o‘ziga xos jangovar usullar va nutqlar bilan boyitadi.

Darhaqiqat, Amir Temur va Zahiriddin Muhammad Boburning jiddu-jahdi hamda ko‘rsatgan jasorati bugungi kunda barchamiz uchun jasorat va ma’naviy-ruhiy ta’minot manbai hisoblanadi. Zero, xalqimiz tarixidagi buyuk shaxslar hayoti va faoliyati orqali tarixiy o‘zlikni anglashimiz hamda undan g‘urur va iftixor tuyushimiz har bir fuqaroda, jumladan, Qurolli Kuchlar harbiy xizmatchilarida harbiy-vatanparvarlik va jangovarlik ruhiyatini rivojlantirishning asosiy sharti hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyorlar

1. Nizomiddin Shomiy. Zafarnoma, - T.: 1996.
2. Rahimov J. Buyuk sarkardalarimizning jahon harbiy san’atida tutgan o‘rni. – T.: 2020. JXU nashriyoti. – 307,654-b.
3. Zamonov A. Mirzo Bobur va Shayboniylar o‘rtasidagi dushmanlik surunkali bo‘lgan (midi)?// **“Vodiynoma” jurnali. 2019. – 4-son.**
4. Temur tuzuklari. – T.: “Sharq”, 2005.

5. Samarov R., Axrorov S., Xolmo‘minov J., Sadriddinov S. Sohibqiron Amir Temur harbiy san’ati. – T.: “Ma’naviyat”, 2022.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VA XORIJIY DAVLATLARDA AMIR TEMUR TARIXINING O‘RGANILISHIGA DOIR TADQIQOTLAR

Beysenov K.S.,
O‘zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish instituti
Kasbiy tayyorgarlik fakulteti Maxsus fanlar sikli o‘qituvchisi.

Mamlakatimiz taraqqiyotining yangi bosqichida davlat va jamiyatning har bir sohasida tubdan yangilanishlar, yuksalishlar bilan bir qatorda milliy davlatchilikni mustahkamlash, respublikamiz ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy hayotini barqaror izga tushirish va rivojlantirish bo‘yicha keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, tarix fanida ham ajdodlarimiz tarixini o‘rganish, ularga to‘g‘ri va xolis baho berish, shu asosda milliy qadriyatlarimizni tiklash uchun keng yo‘llar ochildi. Zero, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Miromonovich Mirziyoyev ta’kidlaganidek: “Bizning havas qilsa arziydigan ulug‘ tariximiz bor. Havas qilsa arziydigan ulug‘ ajdodlarimiz bor” [Prezident SHavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvdagi ma’ruzasidan // Xalq so‘zi 2017 -yil 4 avgust].

O‘tgan davr mobaynida ob’yektiv tariximizni yaratish yo‘lida ko‘plab ilmiy tadqiqotlar amalga oshirildi. Qator muhim manbalar nashr etildi. Natijada tarixchilar uchun yirik tadqiqotlar yaratish imkoniyati vujudga keldi. Xususan, ajdodlarimiz tarixining noma’lum bo‘lgan qirralari hamda insoniyat o‘tmishida o‘ziga xos o‘rin egallagan tarixiy shaxslar faoliyatini o‘rganish uchun ham manbaviy asoslar yaratildi. Binobarin, o‘z davrida buyuk saltanat barpo etgan, o‘zbek davlatchiligi tarixida hamda harbiy mahorat sohasida jahon tarixidan munosib o‘rin egallagan Amir Temur va temuriylar davri tarixi nafaqat o‘lkamiz, balki jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotida umume’tirof etilgan davr sifatida ko‘plab tadqiqotlarni taqozo etadi. Zero, Sohibqiron Amir Temur elu ulusning taraqqiyoti, tinchligi va xavfsizligini o‘z orzu-umidlarida mujassam etgan xalqimiz farzandi, “Temuriylar renessansi” asoschisidir.

Sohibqiron Amir Temurning ibratli hayoti va davlatdorlik faoliyati, saltanati tarixi, undagi ilm-fan, madaniyatni o‘rganish tarixshunoslikning yirik

ilmiy yo‘nalishlaridan biri sifatida doimo olimlar diqqat-e’tiborida bo‘lib kelgan. SHuningdek, temuriylar tarixiga tegishli manbalar jahon miqyosida turli tillarga tarjima qilingan hamda ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan.

Dunyo tarixshunosligida Amir Temur davri tadqiqiga oid nashrlar, “Temurshunoslik” ilmiy yo‘nalishining shakllanishi, badiiy adabiyotda Amir Temur obrazining yaratilishi ancha ilgari boshlangan.

Ma’lumki, sobiq sovet ittifoqi tarixshunosligida o‘z davrining xos mafkuraviy yondashuviga qaramay, ma’lum ishlar amalga oshirilgan. Shu o‘rinda temurshunoslik rivojiga tamal toshini qo‘ygan G.A.Pugachenkova, I.Mo‘minov, R.Mukminova, B.V.Lunin, E.V.Rtveladze, P.Zohidov, L.I.Rempel’, A.O‘rinboyev, B.Ahmedov, D. YUsupova, O‘.Alimov, T.Fayziyev, O.Bo‘riyev kabi qator fidoiy olimlarning tadqiqotlari Amir Temur saltanati tarixini yoritishga xizmat qilganlar. Zero, aynan ularning mustaqillik yillarida chop etilgan yirik nashrlarda Amir Temur hayoti va faoliyati tarixini mukammal yoritishdagi xizmatlarini e’tirof etish zarur. Birlamchi yozma manbalar, ya’ni qo‘lyozma kitoblar maxsus kataloglarda yoritilgan [Sobraniye vostochnix rukopiyey Akademii nauk Uzbekistana. T. I–XI.– Tashkent, 1952–1987.; Sobraniye vostochnix rukopiyey Akademii nauk Uzbekistana. Istoriya. Sostaviteli: D.YU.YUsupova, R.P.Jalilova. – Tashkent, Fan, 1998. – 536].

Ta’kidlash joiz, dastlabki bibliografik ko‘rsatkich mustaqillikkacha bo‘lgan davrda tarixshunos olim B.V.Lunin tomonidan tuzilib adabiyotlar sohalar bo‘yicha o‘n ikki qismga ajratib tasniflangan edi [Lunin B.V. Istoriya, kul’tura i iskusstvo vremeni timuridov v sovetskoy literature (bibliograficheskiy ukazatel’) // Obshestvenniye nauki v Uzbekistane. – Tashkent, 1969. № 8-9. – S. 100–145]. SHu bilan birga, ushbu bibliografik ko‘rsatkichda mustabid sovet davridagi mafkuraviy tazyiq ta’sirida Amir Temur hayoti va faoliyatiga oid adabiyotlar “Umumiy tarix” qismiga kiritilgan. Ammo bu holat tadqiqotning ilmiy ahamiyatini pasaytirmaydi, aksincha, olimning falsafiy mushohadasining nechog‘lik teran ekanligidan dalolat beradi. Ushbu bibliografik ko‘rsatkich tasnifi mustaqillik yillarida B.V.Lunin tomonidan ancha rivojlantirilib bir necha fundamental nashrlarda nafaqat keltirildi, balki olim tomonidan [Temur va Ulug‘bek davri tarixi. – Toshkent: Qomuslar Bosh tahririyati, 1996. – B. 28–42] Amir Temur davri asosiy manbalari hamda ilmiy adabiyotlarining tarixshunoslik nuqtai nazaridan tahlili ham amalga oshirildi. SHuningdek, xorij tarixshunoslari, rus sharqshunos olimlari hamda sobiq sovet ittifoqi davrida tadqiqot olib borgan tarixchilarning ilmiy ishlari tadrijiy ravishda o‘rganilib, ilk

bor mavzuga oid tarixiy adabiyotlar tarixshunoslikning yangicha talqinida o‘z bahosini oldi. Ushbu tayyorlangan bibliografiya to‘plami hozirga qadar tadqiqotlarni amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etib kelmoqda.

Hozirga qadar mamlakatimizda mazkur mavzuga oid bir necha bibliografik nashrlar amalga oshirilgan. CHunonchi, 1996 yilda O‘zbekiston Respublikasining Misrdagi elchixonasi xodimlari tomonidan [Amir Temur va temuriylar haqida Misr kutubxonalarida saqlanayotgan manba va qo‘llanmalar Fihristi. Muqaddima muallifi: Boboxonov Sh. Tayyorlovchi: Nasrullo Mubashshir at-Taroziy. – O‘zbekiston elchixonasi Qohira shahri, 1996. O‘zbek tilida – B. 1–37, arab tilida – B. 1–422] Amir Temur va temuriylar haqida Misr kutubxonalarida saqlanayotgan manba va qo‘llanmalar fihristi yaratildi. 1999 yilda esa akademik E.V.Rtveladze va akademik A.X.Saidovlar tomonidan tayyorlangan “Amir Temur dunyo fani ko‘zgusida” [Rtveladze E.V., Saidov A.X. Amir Temur v zerkale mirovoy nauki. – Tashkent: Izdatel’skiy dom Mirekonomiki i prava, 1999. – 112 s.; O‘sha mualliflar. Amir Temur v zerkale mirovoy istorii. Bibliografiya / Otv. za vipusk D.Nurmatova. – Parij, 1996. – 28] nomli bibliografik nashrda xorijiy tillarda chop etilgan adabiyotlar tizimga solindi. Mualliflar jahon tarixshunosligida mustaqil “temurshunoslik” ilmiy yo‘nalishi shakllanganini e’tirof etishdi. Shuningdek, “Amir Temur jahon tarixida” nomli nashrining “Amir Temur davri tarixnavisligi” bobidagi “Ilmiy izlanishlar” qismida O‘zbekiston Respublikasi va xorij tadqiqotchilarining ishlari tahlil qilindi. Nashrda “Amir Temur shaxsini biryoqlama, tor va bir xil tarzda talqin etishdan iborat dastlabki ko‘nikmalardan uni chuqur, keng va har yoqlama idrok etishga asta-sekin o‘tish tadriji sodir bo‘ldi” [Amir Temur jahon tarixida. – Toshkent: SHarq, 2001.– B. 214–216], degan xulosaga kelinishi tarixshunoslikdagi ilmiy burilish bo‘ldi.

2003-yilda akademik B.Ahmedov, B.Qosimov, I.Niyazov, B.Bannopov, M.Zikrullayev, YA.Muhammedov tomonidan ham temurshunoslik sohasida bir muncha tadqiqotlar olib borilib, “Amir Temur bibliografiyasi” [Amir Temur bibliografiyasi. B.Ahmedov, B.Qosimov, I.Niyazov, B.Bannopov, M.Zikrullayev, YA.Muhammedov. Markaziy Osiyoni tadqiq qilish Fransuz Instituti. Toshkent, 2003.– 114 b.] nashrdan chiqdi.

2010-yilda O.Rahmatullayeva tomonidan tayyorlangan “Amir Temur saltanati tarixnavisligi” nomli bibliografik ko‘rsatkichda faqat O‘zbekiston Respublikasida mustaqillik yillarida amalga oshirilgan adabiyotlar jamlanib sohalar bo‘yicha tasniflandi [Rahmatullayeva A. Amir Temur saltanati

tarixnavisligi (Bibliografik ko‘rsatkich).– T.: Fan va texnologiya, 2010. – 95 b.].

Amir Temur va temuriylar davri tarixshunosligi bo‘yicha O‘zbekiston respublikasida bir muncha salmoqli ishlar amalga oshirilgan. Aksariyat tadqiqotchilarning yakdillik bilan ta’kidlashicha, boshqa tarixiy davrni o‘rganishda adabiyotlar taqchilligi qiynasa, bu davr tadqiqotchisiga esa adabiyotlarning ko‘pligi va turli munosabat qiyinchilik tug‘diradi. Aynan shu jihat ham bibliografik tadqiqotlarga bo‘lgan ehtiyojni kuchaytiradi.

Keyingi yillarda Amir Temur shaxsi va davriga oid birmuncha manbalar tarjimasi, ilmiy, ilmiy-ommabop, badiiy adabiyotlar yaratildiki, ularni aniqlash, tizimlashtirish zaruriyatini keltirib chiqardi. O‘zR FA Temuriylar tarixi davlat muzeyida bajarilgan “Amir Temur. Bibliografiya. Birinchi kitob” [O‘ljayeva SH. XX asrning 50 − 60 yillarida Amir Temur va temuriylar davri tarixshunosligi (sho‘ro adabiyotlari misolida).: Tarix fan. nom. … diss. Toshkent O‘zR FA Tarix instituti, 1999; Abidjanova D. Maverannaxr epoxi pravleniya Amira Temura v angloyazichnoy istoriografii 60 – 90-x godov XX v.: Diss. kand. ist. nauk. Tashkent: Institut istorii AN RUz, 2000. 160 s.; Usmonov B. Amir Temur hayoti va davlatchilik faoliyatining Rossiya tarixshunosligida yoritilishi (XVII − XX asrlar).: Tarix fan. nom. ... diss. Toshkent: O‘zR FA SHI, 2004. 165 b.; Rahmatullayeva A.R. O‘zbekistonda Amir Temur hayoti va faoliyati tarixshunosligi (1991–2009).: Tarix fan. nom. ... diss. Toshkent: O‘zR FA Tarix instituti, 2010. – 175 b.] mavzuidagi maqsadli amaliy grant doirasida bajarilgan loyihada O‘zbekiston va jahon miqyosida Amir Temurning hayoti va faoliyatiga bag‘ishlab nashr qilingan turli adabiyotlar jamlanib izohlar bilan ta’minlandi.

Bibliografik ko‘rsatkichda mamlakatimizda Amir Temur xotirasini abadiylashtirishga bag‘ishlangan rasmiy (Qonun, Farmon, Qaror va boshqa me’yoriy hujjatlar) ma’lumotlarni yig‘ishda O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlar milliy bazasining Davlat xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha ma’muriy reglamentlarning elektron to‘plami [LexUz-online platformasi]dan foydalanildi.

Mazkur loyihada mavzuni yorituvchi yozma manbalar, monografiyalar, risolalar, dissertatsiya va avtoreferatlar ro‘yxati, yubileylarga bag‘ishlangan al’bomlar, tarixiy ma’lumotnoma va solnomalar, respublika va xalqaro konferensiya materiallari, o‘quv qo‘llanmalar, respublika va xorijiy nashrlarda chop etilgan maqolalar jamlandi. Shuningdek, unda xorijiy davlatlardagi

kutubxonalar, muzeylar va fondlardan o‘rin olgan adabiyotlardan ham imkon qadar foydalanildi. Jumladan, rus, ingliz, fransuz, turk, arab, fors tillarida nashr etilgan 6 mingga yaqin turli kitob va maqolalar nashrlari imkon qadar jamlanib, ma’lum bir tartibga solindi.

Kitobda yozma manbalar va ilmiy tadqiqotlar, monografiya va muhim kitob hamda risolalariga tavsif – izoh yozildi. SHu o‘rinda aytib o‘tish kerakki, bibliografiyada shartli ravishda, ko‘lami jihatidan nihoyatda ko‘pligi bois, davriy matbuot (xususan gazeta) nashrlari olinmadi. Zero, davriy matbuot materiallari, istiqbolda, ushbu bibliografiyaning davomli nashrlarida o‘z aksini topadi degan umiddamiz.

Temuriylar tarixi davlat muzeyida amalga oshirilayotgan mazkur tadqiqot davomlidir, zero yildan-yilga yangidan yangi adabiyotlar, tadqiqotlar qo‘shilib boraveradi. Bu hol o‘z-o‘zidan kelgusida bu bibliografiyaning davomli nashrlari yaratilishiga zamin bo‘lib qoladi va loyiha kelajakda ilmiy guruhimiz tomonidan amalga oshirish rejalashtirilgan “Amir Temur Bibliografiyasi. Ikkinchi kitob” ishida yana davom ettiriladi. Zero, asarning ikkinchi nashrida SHarq va yevropa xalqlari tillarida yozilgan ilmiy adabiyotlarni bibliografik ko‘rsatgichda jamlash maqsad qilingan.

Umid kilamizki, ushbu bibliografik ko‘rsatkich zamonaviy tarix fani uchun dolzarb hisoblanib, Amir Temurning ibratli hayoti va davlatdorlik faoliyatini o‘rganishda qulaylik va imkoniyat yaratib, kelgusi tadqiqotlarni yo‘naltirishda amaliy ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, ilmiy izlanish olib boruvchilarga adabiyotlar topishda yo‘llanma vazifasini bajaradi hamda mazkur muammo bo‘yicha kelajakda amalga oshiriladigan ilmiy izlanishlar uchun istiqbolli yo‘nalishlarni belgilab beradi [https://oyina.uz/kiril/article/151].

Foydalanilgan adabiyotlar:

1..Prezident Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvdagi ma’ruzasidan // Xalq so‘zi 2017 yil 4 avgust.

2.Sobraniye vostochnix rukopiyey Akademii nauk Uzbekistana. T. I–XI. – Tashkent, 1952–1987.; Sobraniye vostochnix rukopiyey Akademii nauk Uzbekistana. Istoriya. Sostaviteli: D.YU.YUsupova, R.P.Jalilova. – Tashkent, Fan, 1998. – 536.

3.Lunin B.V. Istoriya, kul’tura i iskusstvo vremeni timuridov v sovetskoy literature (bibliograficheskiy ukazatel’) // Obshestvenniye nauki v Uzbekistane. – Tashkent, 1969. № 8-9. – S. 100–145.

4.Temur va Ulug‘bek davri tarixi. – Toshkent: Qomuslar Bosh tahririyati, 1996. – B. 28–42.

5.Amir Temur va temuriylar haqida Misr kutubxonalarida saqlanayotgan manba va qo‘llanmalar Fihristi. Muqaddima muallifi: Boboxonov SH. Tayyorlovchi: Nasrullo Mubashshir at-Taroziy. – O‘zbekiston elchixonasi Qohira shahri, 1996. O‘zbek tilida – B. 1–37, arab tilida – B. 1–422/

6.Rtveladze E.V., Saidov A.X. Amir Temur v zerkale mirovoy nauki. – Tashkent: Izdatel’skiy dom Mirekonomiki i prava, 1999. – 112 s.; O‘sha mualliflar. Amir Temur v zerkale mirovoy istorii. Bibliografiya / Otv. za vipusk D.Nurmatova. – Parij, 1996. – 28.

7.Amir Temur jahon tarixida. – Toshkent: SHarq, 2001. – B. 214–216.

8.Amir Temur bibliografiyasi. B.Ahmedov, B.Qosimov, I.Niyazov, B.Bannopov, M.Zikrullayev, YA.Muhammedov. Markaziy Osiyoni tadqiq qilish Fransuz Instituti. Toshkent, 2003. – 114 b.

https://oyina.uz/kiril/article/151

AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA TA’LIM-TARBIYA MASALALARI

Boltaboyev M.,
Farg‘ona davlat universiteti o‘qituvchi

Amir Temur odob-ahloq, iymon, e’tiqod, ta’lim-tarbiya sohasida o‘zi yuksaklikka, mutafakkirlikka erishgan siymolardan biridir. Bunga ishonch hosil qilish uchun bobomizning o‘zi tomonidan yaratilgan odob-ahloqqa oid dasturlar, o‘gitlar, pand-nasihatlarni, shuningdek, Sohibqiron haqidagi tarixiy asarlarni ko‘zdan kechirish kifoya. «Temur tuzuklari» mashhur asarlardan biri bo‘lib, bu asarda ibratli, hayotiy pand-nasihatlar va o‘gitlar mazmunliligi, kuchliligi, teranligi, ta’sirchanligi, umuminsoniy qadriyatlar asosida yozilganligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Bu asarni qadrli xazina odob-ahloqqa oid dastur deya olamiz.

Asardagi barcha o‘gitlar xalqlarni bir maqsad sari birlashtirgan, jipslashtirgan, muvaffaqiyatlarga erishtirgan, sehrli tarbiyaviy kuchga ega bo‘lgan durdona-pedagogikadir. Bu pedagogika buyuk Sohibqironning davlatni boshqarish va uni idora qilish, g‘olibona harbiy yurishlar qilish, mamlakatda osoyishtalik o‘rnatish, fan va madaniyatni rivojlantirish, xalqlar o‘rtasidagi

buzilmas do‘stlik, mehr-shafqat, odamiylik va ahloq-odobni tarbiyalash kabi muammolarni hal qilishga bag‘ishlangandir.

Markaziy Osiyo dunyo sivilizatsiyasining qadimiy markazlaridan bo‘lib, Turon o‘lkasida qadimgi davrdan boshlab boshlang‘ich maktablar va kattalarga ta’lim beruvchi o‘quv dargohlari shakllana boshlagani ma’lum. Ilk islom uyg‘onish davri deya e’tirof etiladigan IX-XII asrlarda Movarounnahr islom dunyosining madaniy markazlaridan biriga aylandi. Bu davrda yashab o‘tgan buyuk ajdodlarimiz qoldirgan ilmiy meros islom davri madaniyati andozalarini belgilab, umuminsoniyat sivilizatsiyasi rivojiga ham katta ta’sir ko‘rsatdi. Buyuk ajdodlarimiz dastlabki ta’limni islom dunyosining madaniy va ilmiy markazlari sifatida tanilgan Movarounnahr va Xorazmning yirik shaharlarida olishgani ham bu davrda ta’lim tizimi yutuqlarining yaqqol dalilidir. Ilk islom davridayoq Movarounnahrda boshlang‘ich maktablar, madrasalar barpo etila boshlagan.

Amir Temur va temuriylar hukmronligi davrida Movarounnahr va Xurosonda ta’limga e’tibor, ilm- fanga homiylik davlat siyosatiga aylandi. Barcha shaharlarda oliy ta’lim dargohlari madrasalar barpo etilib, o‘z davrining yetuk olimu ulamolari tolibi ilmlarga dars berishga jalb etildiyu Amir Temur va temuriylar davri qadim Turon o‘lkasida maorif va ta’lim tizimi, ilm-fan yuksak rivojlangan davr sifatida ahamiyatlidir. Temuriylar davri renessansi rivoji bevosita Amir Temur asos solgan ulkan saltanatda adolatli boshqaruv tizimi barpo etilganligi katta o‘rin tutgan. Qudratli saltanat va ma’rifatli jamiyat barpo etishda qadim turkiy davlatchilik an’analari va islomiy shariatga tayanib ish tutgan Amir Temur. har qanday taraqqiyotning asosi sifatli ta’lim tizimi ekanligini chuqur anglagan edi. Shu sababli Sohibqiron birinchi galda ta’lim va tarbiyani to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish, ilmli, ma’rifati shaxslarning jamiyatdagi mavqeyini ko‘tarish yo‘lidan bordi. Ulkan saltanatning barcha shahar va yirik qishloqlarida ko‘plab boshlang‘ich maktablar barpo etildi. Tarixiy manbalarning dalolat berishicha, bu davrda o‘g‘il bola 4 yil, 4 oy va 4 kunlik bo‘lganda maktabga berish an’anasi amalda bo‘lib, boshlang‘ich ta’lim ulkan saltanatning barcha madaniy o‘lkalarini qamrab olgan edi.

Amir Temurning katta xizmatlaridan muhimi shuki, u madaniyat va ilm homiysi sifatida mashhur bo‘ldi, o‘z saroyiga olim-u fuzalo arboblarini to‘pladi. Temur hukmronligi davrida ichki va tashqi savdo kuchaydi. Ayniqsa, Hindiston, Xitoy, Rossiya bilan aloqalarning kuchayishi Temur saltanati iqtisodiy qudratini oshirdi. Temur va temuriylar davrida islom dini va

tasavvufga katta e’tibor berildi. Islom dini o‘sha davrda asosiy mafkura bo‘lib, markazlashgan davlat barpo etishda, iqtisod, madaniyat va ilm-fan sohasidagi maqsad va vazifalarni amalga oshirishda nazariy asos bo‘lib xizmat qildi. Temur o‘z faoliyatida unga tayanib ish ko‘rdi.

Temur zamonasida o‘g‘il bolalar uchun boshlang‘ich ma’lumot beradigan diniy maktablar bo‘lib, ular asosan masjidlarda va xususiy uylarda o‘qimishli kishilar, domla-imomlar tomonidan ochilgan edi. Mazkur maktablarda masjid imomlari yoki muazzinlar dars o‘tardilar. Aholisi ko‘p shaharlarda maktablarni maxsus maktabdorlar ochgan. Ko‘chmanchi va chorvador aholi orasida maktablar odatda bahor va yoz oylarida ochilar, ularda asosan masjid imomlari yoki madrasa toliblari o‘zlarining iqtisodiy ahvolini yaxshilash maqsadida o‘qituvchilik qilardi. Shahar maktablaridagi o‘quvchilar 20-30 nafar, qishloq maktablarida esa 10-15 nafar, ayrim hollarda undan ko‘proq bo‘lgan. Maktab o‘quvchilarining yoshlari har xil bo‘lgan.

Maktab ta’limining sermazmunligi yoki sayozligi o‘qituvchi-domlaning bilimi saviyasiga va o‘qitish mahoratiga bog‘liq bo‘lgan.

Temur va temuriylar davrida Movarounnahrda ibtidoiy diniy maktablardan tashqari, shahzodalar, xonzodalar, bekzodalar va yirik amaldorlarning bolalari uchun saroy va xonadonlarda alohida savod maktablari ham tashkil etilgan. Bunday maktablarda podsho xonadoni uchun maxsus qissaxon deyilar edi. Asta-sekin yirik davlat arboblari, ruhoniylar, amaldorlar bolalari uchun xonadonlarida maxsus maktablar ochgan edilar.

Shahzodalar, xonzodalar va bekzodalar 4-5 yoshlaridan boshlab o‘qish va yozishni podsho qissaxonlaridan o‘rganib olganlar. Shu bilan birga, bolalarning zehnini o‘stirish maqsadida ularga o‘zlari eshitgan va ko‘rgan narsalar, dunyoning ajoyib va g‘aroyib voqealari haqida hikoyalar qilib berilgan.

Shahzodalar savod chiqarganlaridan keyin ularga “Go‘zallikni naql etuvchi” qalamdan foydalanish o‘rniga “Naqshli xanjar va yaltillab turgan qilichni ishlatish, nayzabozlik va kamon otish san’ati o‘rgatilgan, chunki “chaqqonlik bilan bel bog‘lab, olam ochuvchi shamshir ishga tushirilmasa, bilish mumkinki, mamlakatni qalam bilan muhofaza etilmaydi? Xonzoda, bekzodalar otda chopish va chavgon o‘ynashni ham o‘rganishgan. Shundan keyin “Sulukul muluk”larda aytilishicha, bo‘lajak hukmdor davlatni idora qilish san’atini: turli lavozim egalarini tayinlash, soliq to‘plash, mansabdorlar hamda boshqa yurtlardan kelgan elchilarni qabul qilish, xayru sadaqalar berish tartib-qoidalari bo‘yicha ko‘nikmalarni ham egallagan.

Shahzodalar va malikalar Temurning boy kutubxonasida mutolaa qilishgan. U kutubxonada ilohiyot, hadis, tarix, geografiya, falsafa, fiqh, tibbiyot, falakiyot, riyoziyot kabi fanlarga oid kitoblar bo‘lgan. Jumladan, u erda Xorazmiy, Beruniy, Sa’diy va Nasriddin Tusiyning kitoblari saqlangan. g‘

Amir Temurning nevaralari tarbiyasi bilan ularning onalari emas, ulug‘ bibilari buvilari shug‘ullangan. Xususan, Shoxrux Mirzo, Muhammad Sulton Mirzo, Xalil Sulton Mirzo, Ulug‘bek Mirzo singari Temuriy shaxzodalar Saroymulkxonim qo‘lida tarbiya topganlar.

Amir Temur davrida madrasalar oliy o‘quv yurti vazifasini o‘tagan. Ular diniy va keyinchalik dunyoviy bilimlar o‘chog‘i, tafakkur gulshani, kadrlar tayyorlash maskani bo‘lgan. Madrasalarda mamlakatning eng atoqli donishmand shayxlari, olimu ulamolari mudarrislik qilishgan, ma’ruzalar o‘qishgan.

Xulosa qilib aytganda, XIV-XV asr boshlarida Samarqand, Hirot, Buxoro va G‘ijduvon kabi bosh shaharlarda Amir Temur an’analari davom ettirilib, olimu muhandis, shoiru bastakor, me’moru binokor va naqqoshu musavvirlar serqirra ijod etishdi. Mamlakatning ravnaqi, ma’naviy kamolotida ilm-fan va san’at muhim o‘rin egalladi.Temuriy shahzoda Mirzo Ulug‘bek Samarqand va Buxoro ilmu ma’rifat dargohiga aylantirdi. Shunday qilib, temuriylar davrida Movarounnahrda iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy yuksalish davri bo‘ldi. Markazlashgan davlatning asoschisi Amir Temur o‘z davrida mamlakatda ilm-fan va ta’lim-tarbiya masalalariga alohida e’tibor berdi. Natijada, davlatning iqtisodiy va madaniy qudrati yuksaklikka ko‘tarildi.

AMIR TEMUR - ILM-FAN, MADANIYAT VA ME’MORCHILIK HOMIYSI

Botirova S.R..

O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi

Toshkent “Temurbeklar maktabi” HAL bosh o‘qituvchisi

Amir Temur (Eski turkcha: امیر تیمور – Amir Temur) (1336-yil 9-aprel, 1405-yil18-fevral) – o‘rta asrlarning buyuk turkiy askari va qo‘mondoni, Temuriylar imperiyasi asoschisi, Oltin O‘rda, Mamluk sultonligi, Dehlisultonligi, Usmonlilar davlati, Kavkaz va Erondagi davlatlarni yengishi ortidan musulmon olamining to‘la yetakchisi, yeri 4,4 mln km² ga yetishgan 14-yuzyilliknig eng kuchli davlat quruvchisi, 35 yillik boshqaruvi va yurishlari

chog‘ida biror urushni yutqazmagan qo‘shinboshi, o‘tmishda ko‘rilgan uchta buyuk harbiy-taktik urush va yurish qo‘mondonlaridan biri, Temuriylar uyg‘onish davri asoschisi, ilm-fan, me’morchilik, san’at va adabiyot homiysi[1][2][3].

Amir Temur hukmronligi 35 yil davom etgan (1370 - 1405). U Ind va Gangdan Sirdaryo va Zarafshongacha, Tyan-Shandan Bosforgacha bo‘lgan katta saltanatni yaratgan. Hayotining katta qismini yurishlarda o‘tkazgan.

Amir Temur 1405-yil Xitoyga yurishi vaqtida O‘tror shahrida vafot etgan.[4]. Amir Temur – insoniyat tarixidagi eng shijoatli, eng qat’iyatli shaxslardan biridir. Bu ulug‘ siymo ko‘z o‘ngimizda ham hukmdor, ham buyuk sarkarda, ham mohir jangchi sifatida gavdalanadi. O‘zi ham askarlarni jasur, vatanparvar, adolatli bo‘lishga undagan hamda mana shunday ruhda tarbiyalagan.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev o‘z nutqlarida shunday deydi: “Buyuk sarkarda Amir Temur bobomiz: “Askarlari botir el qudratli bo‘lur”, deganlarida aynan ana shu haqiqatni nazarda tutgan edilar. Men har bir askar, Vatanning har bir posboni Amir Temur va ulug‘ lashkarboshilarimiz o‘gitlarini, ularning harbiy merosini chuqur bilishi kerak, deb qayta-qayta ta’kidlab kelaman. Bu o‘lmas va bebaho meros hozirgi kunda ham har birimizning qalbimizga cheksiz g‘urur baxsh etadi, muqaddas tuprog‘imizga sadoqat tuyg‘ularini kuchaytiradi”.

Amir Temur mamlakatning iqtisodiy va madaniy rivoji uchun sharoitlarni yaratib,. yirik davlatni barpo etdi. O‘tgan davrlarning qadimiy an’analari yangi tarixiy ko‘rinishda qayta tikladi. Yaqin va O‘rta sharq bo‘ylab Movaraunnahr savdo-sotiq, iqtisod va madaniyat markaziga aylanishi natijasida Samarqand, Kesh, Buxoro, Termiz, Toshkent, Marv va boshqa qadimiy shaharlar obodonlashtirildi. Masjid, madrasa, maqbara, karvonsaroy va hammomlarning katta binolari qad rostladi.

Amir Temur, ko‘p mashhur muarrixlar ta’kidlaganlaridek, ilmning qadriga yetadigan, uni rivojlantirishga astoydil bel bog‘lagan, dunyoning eng yetuk olimlari, tarixchilari bilan bemalol suhbatlasha oladigan donishmand hukmdor edi. Ilm-fanga qiziqish Amir Temurning xonadonidan boshlangan edi, desak to‘g‘riroq bo‘ladi. Sohibqiron xonadonida farzandlar (shahzodalar, malikalar)ga ilm-fanning turli sohalaridan ko‘p saboqlar berilar, madrasalarda tahsil olishlar davom ettirilardi. Masalan, Mironshoh Mirzo uchun maxsus ibn al-Asirning "Al-komil fi-t-tarix" (Mukammal tarix) kitobi tarjima qilib berilgan edi. Sohibqiron harakatlari tufayli uning avlodlari ichida Muhammad Sulton,

Ulug‘bek Mirzo, Ibrohim Sulton, Boysunqur Mirzo, Husayn Boyqaro, Zahiriddin Muhammad Bobur, Ko‘chkunchixon, Komron Mirzo, Gulbadanbegim, Zebunniso kabi shoirlar, olimlar, muarrixlar, xattotlar, homiylar, ma’naviyat va ma’rifat jonkuyarlari bor bo‘lib, ular ilm-fan, ma’naviyatning qadriga yetadigan ajoyib insonlar bo‘lib yetishdi. Ularning sa’y-harakatlari bilan madaniyatimiz yuksak darajalarga erishdi. Misol uchun, Ulug‘bek Mirzoning astronomiya maktabi aynan Samarqandda yaratildi. Zamonaning ilg‘or rasadxonasi barpo etildi. 1018 ta yulduz ta’rifini o‘z ichiga olgan "Ziji jadidi Ko‘ragoniy" jadvali jahon faniga ulkan hissa bo‘lib qo‘shildi. "To‘rt ulus tarixi" asari esa xalqimiz tarixini anglab yetishda katta ahamiyatga ega.

Sohibqiron Amir Temur davri tarixini to‘liq va ishonarli yoritib bergan Sharafiddin Ali Yazdiyning fundamental "Zafarnoma" (1425) asari Sohibqironning nabirasi, Sheroz hokimi, shoir va xattot Ibrohim Sultonning rahbarligi, fidoyiligi va homiyligi ostida dunyoga keldi. 1519-yilda Ulug‘bek Mirzoning nabirasi Ko‘chkunchixon topshirig‘i bilan mazkur "Zafarnoma" va Rashiduddinning "Jome ut-tavorix" asarlari o‘zbek tiliga tarjima qilindi.

Qolaversa, jahon adabiyotining buyuk namoyandalaridan hisoblangan Alisher Navoiyning ijodi, Lutfiy va Husayn Boyqarolar she’riyati, allomalar Qozizoda Rumiy va Ali Qushchi asarlari, Kamoliddin Behzodning durdona minyatyura rasmlari, Zahiriddin Muhammad Boburning bebaho "Boburnoma"si, go‘zal she’riyati, ilmiy asarlari, muarrixlar G‘iyosiddin Ali, Nizomiddin Shomiy, Muiniddin Natanziy, Hafizi Abro‘, Sharafiddin Ali Yazdiy, Mirxond, Xondamirlarning solnomalari – barcha-barchasi temuriylar davrining mahsulidir.

Amir Temur qurish, yaratish mentaliteti bo‘lgan xalqning farzandi, tabiatan bunyodkor bo‘lib tug‘ilgan o‘xshashi yo‘q zot edi.

...Amr etdimki, – deb yozadi Amir Temur "Tuzuklar"da, – katta-kichik har bir shahar, har bir qishloqda masjid, madrasa va xonaqohlar bino qilsunlar, faqiru miskinlarga langarxona (musofirxona) solsunlar, kasallar uchun shifoxona qurdirsunlar va ularda ishlash uchun tabiblar tayinlasunlar. Har bir shaharda dorul-amorat (hukmdor saroyi) va dorul-adolat (adolat saroyi) qursunlar...".

Bunyodkorlik Sohibqiron davrida davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan edi deyish mumkin. Amir Temur faqat o‘z mamlakatidagina emas, balki boshqa yurtlarda ham bunyodkorlik ishlarini amalga oshirgani buning dalilidir.

Dastavval saltanat poytaxti qilib belgilangan Samarqandni dunyoning eng obod shahariga aylantirdi, ulug‘vorligini ko‘rsatish uchun, atrofida Damashq, Bag‘dod, Misr, Sheroz, Sultoniya kabi dunyoning mashhur shaharlari nomlari bilan atalgan, bog‘-rog‘larga ko‘milgan qishloqlar barpo qildirdi.

Bunday misollarni ko‘plab keltirish mumkin. Sharafiddin Ali Yazdiyning: "Sohibqiron har yerdakim, imoratqa qobil yer ko‘rsa erdi, ul yerda albatta bir imorat solur erdi...", – degan so‘zlari zinhor mubolag‘a emas.

Sohibqironning bunyodkorlik sohasidagi tarixiy xizmatlari beqiyosdir. Tarix bu qo‘hna dunyoda o‘tgan ko‘p jahongirlarni biladi. Ularning aksariyati faqat buzgan. Amir Temurning ulardan farqi shundaki, u umr buyi bunyodkorlik bilan mashg‘ul bo‘lgan. Uning „Qay bir joydan bir gisht olsam, o‘rniga un g‘isht qo‘ydirdim, bir daraxt kestirsam, o‘rniga unta kuchat ektirdim“ degan so‘zlari buning yorqin isbotidir. Amir Temurga har bir zafarli voqea va sevinchli hodisani muhtasham me’morlik obidasi barpo etish bilan nishonlash odat bo‘lgan. Shu maqsadda Hindiston, Sheroz, Isfahon va Damashqning mashhur usta-hunarmandlari mamlakatda hashamdor imorat-u inshootlar bino qilganlar.

Amir Temur zabt etgan mamlakatlarning bir qator shaharlari (Bag‘dod, Darband, Baylaqon)ni qayta tikladi. Amir Temur Tabrizda masjid, Sherozda saroy, Bag‘dodda Madrasa, Turkistonda mashhur shayx Ahmad Yassaviy qabri ustiga maqbara qurdirgan bo‘lsa-da, lekin asosiy e’tiborini ona shahri Kesh va poytaxti Samarqandga qaratdi. Keshda otasining qabri ustiga maqbara, o‘g‘li Jahongirga maqbara bilan masjid qurdirdi. Amir Temur hukmronligining ilk davrida Kesh shahrini poytaxtga aylantirish niyatida bo‘lib, uning obodonchiligiga katta ahamiyat berdi, bu yerda mashhur Oqsaroy qad ko‘tardi. Amir Temur Keshni Movarounnahrning madaniy markaziga aylantirishga harakat qildi. Shu boisdan bu shahar „Qubbat ul-ilm val-adab“ unvoniga ega bo‘ldi.[4]

Saltanat poytaxti Samarqand Amir Temur davrida, ayniqsa, gullab-yashnadi. Shaharda Isfahon, Sheroz, Halab, Xorazm, Buxoro, Qarshi va Kesh shaharlarining me’moru binokorlari qo‘li bilan saroylar, masjidlar, madrasalar, maqbaralar quriladi. Shahar tashqarisida esa bog‘-rog‘lar va bo‘stonlar barpo etiladi.[5]

“Uning majlislarida uyatsiz gaplar, qon to‘kish, asir olish, g‘orat qilish va ayollar xususida haqoratli so‘zlar aytilmas edi. Temur tengi yo‘q fe’l atvorli, chuqur mulhazali kishi bo‘lib, tafakkur dengizining qa’ri yo‘q, tadbiri tog‘iga

na tekisligu, na uydim-chuqur orqali yo‘l topilar edi, ilm ahliga mehribon edi”. Amir Temur olimlarga mehribon bo‘lib, sayyid shariflarni o‘ziga yaqin tutgan. Ulamo va fozillarga to‘la izzat-ikrom ko‘rsatib, ularni har qanday kishidan muqaddam ko‘rgan. “Temur har qanday hunar va kasb bo‘lmasin, agar unda biron fazilat va sharofat bo‘lsa, kasb egalariga g‘oyatda mehr qo‘yar edi”- deydi Ibn Arabshoh.[7]

Amir Temur tabiatan masxaraboz va shoirlarni yoqtirmagan. O‘ziga munajjim va tabiblarni yaqin tutib, ularning gaplariga amal qilar va so‘zlarini tinglar edi. Bu Sohibqironning mayli imorat bila va xayr-u ehson bila asru ko‘b erdi. Va andin ko‘b imoratlar va masjid-u xonaqoh va rabot-u ko‘fruk va ga‘ayruh-u olamda bisyor qolib turur: Eron-u Turonda va borur-kelur kishilar va musofirlar va andin qayda har qayda tobarlar.[8]

Xulosa o‘rnida shuni aytish kerakki, Sohibqiron bobomizning buyuk ishlari dunyo tamadduniga ulkan hissa bo‘lib qo‘shildi. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” asarida Amir Temur bobomizning ma’naviy fazilatlari haqida to‘xtalar ekan: “Tengsiz azmu shijoat, mardlik va donishmandlik ramzi bo‘lgan bu mumtoz siymo buyuk saltanat barpo etib, davlatchilik borasida o‘zidan ham amaliy, ham nazariy meros qoldirdi, ilm-fan, madaniyat, bunyodkorlik, din va ma’naviyat rivojiga keng yo‘l ochdi” deydilar.[6]. Haqiqatan ham, xalqiga, Vataniga munosib xizmat qilgan Sohibqironning fazilatlari biz avlodlarga namunadir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Marozzi 2004, s. Andoza:Page needed.

2. Meri. Medieval Islamic Civilization. Routledge, 2005 – 812-bet. ISBN 978-0415966900.

3. „Timur | Biography, Conquests, Empire, & Facts | Britannica“. www.britannica.com. Qaraldi: 2022-yil 28-sentyabr.

4. Muntaxab-al Lubab, Xafi Xon Nizom-ul-Mulkiy, Vol I, p. 49. Printed in Lahore, 1985

5.Amir Temur bog‘lari" *O‘zME*. A-harfi Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil

6. Islom Karimov- “Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch”. Toshkent-2008

7.Ibn Arabshohn- “Temur tarixida taqdir ajoyibotlari”.

8. Yazdiy, Sharafuddun Ali. “Zafarnoma” / T.: Sharq, 1997

AMIR TEMURNING DAVLAT BOSHQARUVDAGI O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLAR

Bo‘tayev U.A.,
O‘R MG IO‘M Ijtimoiy-gumanitar fanlar sikli katta o‘qituvchisi – psixolog.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti – Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo‘mondoni Shavkat Miromonovich Mirziyoyev o‘z nutqlarida Amir Temurning davlat boshqaruviga oid fikrlariga alohida urg‘u beradi. Uning ta’kidlashicha, “Amir Temur davlatchilik bobida beqiyos meros qoldirgan, u barpo etgan tizim hanuzgacha muhim ahamiyatga ega”. Prezident Sh.M.Mirziyoyev ta’kidlaganidek, adolatli va kuchli davlatni barpo etishda Amir Temur tuzuklari va tamoyillari biz uchun muhim dasturilamal bo‘lib xizmat qiladi [1, 2-b].

Amir Temur davlat va jamiyatni boshqarish qonuniyatlarini ishlab chiqdi va davlatning ijtimoiy-siyosiy hayotida o‘zi ham ularga amal qilgan. Amir Temur saltanatni boshqarishda, ijtimoiy sinflar bilan bo‘lgan munosabatlarda, podshohlikni qilishda va ko‘p hollarda “Temur tuzuklari”ning o‘n ikki qoidasiga amal qilganligini ko‘ramiz. Bu bejiz emas albatta. Chunki, ana shu o‘n ikki qoida davlatni idora qilishning asosiy yo‘nalishlarini har tomonlama qamrab olgan edi. Mazkur tuzukning ikkinchi qismi Amir Temurning o‘z siyosiy faoliyatida qat’iy rioya qilgan o‘n ikki qoidani sharhlashga bag‘ishlangan.

“Mamlakatlarni fotih etuvchi baxtli farzandlarim va jahonni idora etuvchi qudratli nabiralarimga ma’lum bo‘lsinkim, Tangri taolo dargohidan umidim shulkim, ko‘plab farzandlarim, avlodlarim saltanat taxtiga o‘tirib, mamlakatlarni idora etgay. Bu tuzuklardan o‘z saltanat ishlarini boshqarishda qo‘llanma sifatida foydalangaylar, toki mendan ularga yetadigan davlat va saltanat zararu tanazzuldan omon bo‘lg‘ay.

Birinchi - davlat va saltanatimga bog‘langan mening birinchi tuzugim – tangri taoloning dini va Muhammad mustafoning shariatiga dunyoda rivoj berdim. Har yerda xar vaqt islom dinini quvvatladim.

Ikkinchisi shulkim, o‘n ikki tabaqa va toifadagi kishilar bilan mamlakatlarni zabt etdim, ularni idora qildim. Davlat, saltanat ustunlarini o‘shalar bilan quvvatlab, majlislarimni shular bilan ziynatladim.

Uchunchisi shulki, maslahat, kengash, tadbirlik, faollik va hushyorlik, ehtiyotkorlik bilan g‘anim qo‘shinlarini yengib, mamlakatlarni o‘zimga bo‘ysundirdim.

To‘rtinchisi – davlat ishlarini saltanat qonun-qoidalariga asoslangan xolda boshqardim.

Beshinchisi – amirlarim va sipohiylarimni martaba va unvonlari, zaru zevarlar bilan xushnud etdim. Amirlar, sipohsolarlar bahodirlar bilan ittifoq bo‘lib, ularning mardligu mardonavorligiga tayanib, shamshir zarbi bilan yigirma yetti podshohning taxtini egalladim. Eron, Turon, Rum, Mag‘rib, Shom, Misr, Iroqi arab va Iroqi ajam, Mozandaron, Gilonot, Shirvonot, Ozarbayjon, Fors, Xuroson, Dashti jete, Dashti Qipchoq, Xorazm, Kobuliston, Boxtarzamin, Hindistonga podshoh bo‘lib hukm surdim.

Oltinchisi – adolat va insof bilan tangrining yaratgan bandalarini o‘zimdan rozi qildim. Fuqaro va qo‘l ostimdagilarga rahmdillik qildim, sipohiylarga in’omlar ulashdim.

Ettinchisi – sayyidlar, ulamoyu mashoyix, oqilu donolar, muhandislar, xabarchilar (tarixchilar)ni tanlangan, e’tiborli odamlar hisoblab, izzatu hurmatlarini joyiga qo‘ydim.

Sakkizinchisi – azmu jazm bilan ish tutdim. Biron ishni qasd qilgan bo‘lsam, butun zehnim, vujudim bilan bog‘lanib, bitirmagunimcha undan qo‘limni tortmadim. Har neki degan bo‘lsam, unga amal qildim.

To‘qqizinchisi – raiyat ahvolidan ogoh bo‘ldim, ulug‘larini og‘a qatorida, kichiklarini farzand o‘rnida ko‘rdim. Har bir diyor aholisining ahvolidan ogoh bo‘lib turdim.

O‘ninchisi – turku tojik, arabu ajamning turli toifa va qabilalaridan bo‘lgan va mening panohimga kirgan kishilarning ulug‘lariga hurmat ko‘rsatdim. Yaxshilariga yaxshilik qildim, yomonlarni esa o‘z yomonliklariga topshirdim.

O‘n birinchisi – farzandlar, qarindoshlar, oshna-og‘ayni, qo‘shinlar va men bilan bir vaqtlar do‘stlik qilgan barcha odamlarni davlatu ne’mat martabasiga erishganimda unutmadim (molu mulk va naqd pul bilan), haqlarini ado etdim. O‘z farzandlarim, qavmu qarindoshlarimdan qarindoshlik mehrini uzmadim.

O‘n ikkinchisi – do‘st-dushmanligiga qaramay, har joyda sipohiylarni hurmat qildim, chunki ular boqiy mato bo‘lgan jonlarini foniy dunyo moli uchun sotadilar” [2, 53-56 -b.].

Yuqorida keltirilgan pandu nasihatlarda Amir Temur o‘z vorislariga murojaat qilib, saltanat boshqaruvida qonun-qoidalarga, rasm-rusum, usul,

tartib va odob hamda an’analarga rioya qilishga chaqiradi. U shunday, deydi: “Yana tajribamdan bildimki, davlat agar dinu oyin (qoida) asosida tuzilmas ekan, tura-tuzukka (qonun-qoidalarga) bog‘lanmas ekan, unday saltanatning shukuhi, qudrati va tartibi yo‘qoladi. Bunday saltanat yalang‘och odamga o‘xshaydi, uni ko‘rgan har kimsa nazarini olib qochadi. Yoxud kasu nokas tap tortmay kirib chiqadigan eshigi-to‘sig‘i yo‘q uyga o‘xshaydi. Shuning uchun ham men o‘z saltanatim binosini dini islom, tura va tuzuk asosida mustahkamladim. Saltanatni boshqarishimda uchragan har qanday voqea va ishni tura va tuzuk asosida bajardim” [2, 57- b.].

Yuqoridagi fikrlardan ayon bo‘ldiki, Temur o‘z siyosatini islom dinining mustahkam mafkurasi asosida qurgan. U islom dinini ulug‘lagan, shariat qonunlariga to‘la rioya qilgan. Diniy masalalar bilan bog‘liq ishlarni hamisha dunyoviy ishlardan yuqori qo‘yib kelgan bo‘lsak ham harbiy qo‘shinni boshqarishda va ijtimoiy-siyosiy faoliyatda takrorlanmas o‘ziga xoslik va buyuklik mavjud edi. Amir Temur yuksak insoniy fazilatlarga ega bo‘lgan tarixiy shaxs o‘z zamonasining atoqli davlat arbobi va tengi yo‘q mohir sarkarda edi. U barpo etgan davlat uch zabardas asos negiziga – diyonat, adolat va qattiq qo‘llik bilan amalga oshirilgan siyosatga asoslangan edi.

“Tuzuklar”da faqat bir o‘rinda, ya’ni mamlakatlar, qo‘shinlar va aholi ahvolidan xabardor bo‘lib turish tuzugida tan jazosi va qatl etish to‘g‘risida ochiq-oydin yozilgan. Boshqa hollarda iloji boricha o‘lim jazosini qo‘llamaslik yoki uni qo‘llash borasida shoshmaslik va odillik bilan ish ko‘rish to‘g‘risida so‘z yuritiladi: “Saltanat saroyining ishonchli va e’tiborli kishilari bo‘lmish vazirlar xususida shunday buyruq berdim, agar saltanat ishlarida ular xiyonat etsalar, saltanatni ag‘darishga jazm qilgan bo‘lsalar ham, ularni o‘ldirishga shoshilmasinlar. Avvalambor ularni ayblovchi va xabar yetkazguvchilarning kimligini tekshirib ko‘rsinlar” [2, 73-b.].

Amir Temur davlat boshqaruvida adolat va intizomni ustuvor deb bilgan. U davlat rahbarlari, ayniqsa vazirlar uchun bir necha muhim xislatlarni belgilab bergan. Uning fikricha, vazirlar quyidagi to‘rt xislatga ega bo‘lishi lozim:

Aqlu zakovat va farosat. Vazirlar davlat ishlarini oqilona yuritishi, hodisalarga chuqur tahlil bilan yondashishi va har qanday masalani hal etishda oqilona qaror qabul qilishi kerak. Aqlu zakovatli vazirlar xalqning ishonchini qozonish bilan birga, davlatning ravnaqiga ham hissa qo‘shadi.

Sodiqlik va halollik. Amir Temur davlat xizmatchilari, xususan vazirlardan yuksak vafodorlik va halollikni talab qilgan. Ularning o‘z manfaati

uchun emas, balki davlat va xalq uchun xizmat qilishi muhim deb bilgan. Halol vazirlar davlat xazinasi va boshqaruvida xiyonat qilmaydi, korrupsiyaga qarshi turadi.

Jasorat va qat'iyat. Davlat ishlarida qat'iy qaror qabul qilish va zarur bo‘lganda jasorat ko‘rsatish katta ahamiyatga ega. Amir Temur vazirlardan shaxsiy manfaatlarni emas, balki davlatning umumiy manfaatlarini himoya qilishni talab qilgan. Ular kerak bo‘lsa, qiyin qarorlar qabul qilishdan qochmasligi lozim.

Adolat va insof. Amir Temur adolatli hukmronlikni davlat mustahkamligining asosi deb hisoblagan. U vazirlardan o‘z vazifalarini adolat va insof bilan bajarishni talab qilgan. Har qanday qaror chiqarishda halollik va haqqoniylikni ustuvor deb bilgan.

Bu to‘rt xislatni o‘z ichiga olgan vazirlar davlatni barqaror boshqarishi va xalqqa munosib xizmat qilishi mumkin. Shu tufayli, Amir Temur o‘z davlatini buyuk va mustahkam bir imperiyaga aylantira olgan.

Amir Temur davlat boshqaruvida adolatli bo‘lishga ahamiyat qaratgan. Adolatparvar hukmdor sifatida tuhmat yoki g‘araz maqsadlarda yolg‘on xabarlar orqali hech kimni jazolamaslikka harakat qilgan, bunday shaxslarning o‘zi odatda qatl etishga hukm etilgan, shuningdek, mamlakatda bekorchi, ishsizlar, xususan gadoylar va tilanchilar sonini kamaytirishga harakat qilgan. Bu borada gadoylar va tilanchilar majburiy ishga jalb etilgan, agar shundan keyin ham o‘z harakatlarini davom ettirsalar uzoq mamlakatlarga sotib yuborish yoki badarg‘a qilish kabi jazolarni qo‘llagan. Bu bilan Amir Temur mamlakatda bekorchilik va u orqali kelib chiqishi mumkin bo‘lgan turli jinoyatlarga jumladan, qaroqchilik, bosqinchilik, o‘g‘rilikka qarshi kurashganligini ko‘rish mumkin: “Yo‘l ustiga kuzatuvchilar, zobitlar tayinlansinlarki, yo‘llarni qo‘riqlab, yo‘lovchilar, savdogarlar, musofirlarni kuzatib, mol-mulki va boshqa narsalarini manzildan-manzilga yetkazib qo‘ysinlar”.

Yuqoridagilarga ko‘ra, tuzuklardagi jazo siyosatini tahlil qilib, uning ijtimoiy adolat, xususan qonunga rioya etish, kezi kelganda insoniylik, gunohiga yarasha jazo tayinlash tamoyillariga asoslanganligini ko‘rish mumkin.

Shu boisdan ham Amir Temur davlati ko‘p asrlar mobaynida o‘z qudrati bilan dunyoni hayratga solgan. Uning tuzuklari o‘z davrida ham, hatto hozir ham muhim tarixiy, ijtimoiy, siyosiy va huquqiy dastur, ilmiy meros bo‘lib qolmoqda.

Shunday ekan Amir Temur qoldirgan boy madaniy-merosni qo‘shinlarda xizmat qilayotgan yosh avlodga o‘rgatish va ularning ongiga singdirish, qolaversa buyuk ajdodlarimiz qahramonliklarining sodiq davomchilari etib tarbiyalash Yangi O‘zbekistonimiz poydevorini yanada mustahkamlashga qo‘shgan ulkan hissamiz bo‘lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Шавкат Мирзиёев. Амир Темур таваллудининг 681 йиллигига бағишланган маросимдаги сўзлаган нутқи. 2017.

2. Темур тузуклари // Форсчадан / А.Согуний ва Ҳ.Кароматов тарж; Б.Аҳмедов таҳрир. остида / – Т.: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа бирлашмаси, 1991.

AMIR TEMUR LASHKARIDA HARBIY QO‘SHILMALARNING JOYLASHISHI VA HARBIY BOSHQARUV DARAJASI

Gulmatov M.A.,

IIV Akademiyasi Magistraturasi O‘quv-uslubiy guruhi katta o‘qituvchi-metodisti, mayor.

Amir Temur urush paytida bayroqlar harakatidan ham unumli foydalangan. Masalan, Terekda Oltin O‘rda xoni To‘xtamish bilan uzoq davom etgan kurashning hal qiluvchi jangida Amir Temur To‘xtamishning bayroqdorini sotib olgan va u urush qizib turgan paytda bayroqni tushirgan. To‘xtamish askarlari esa buni jangdagi mag‘lubiyat sifatida tushunganlar va bu urushni borishiga jiddiy ta’sir ko‘rsatgan.

1398-yilda bo‘lgan jangda Amir Temur o‘z bayrog‘ini shahrisabzliklarga topshirgan va shu tarzda dushmanni chalg‘itib, chaqqonlik bilan o‘tkazgan manevr orqali raqibni taslim bo‘lishiga majbur etgan.

Bularning hammasi qo‘shinni qat’iy, aniq boshqarishda, dushmanni dahshatga solishida, ba’zan hal qiluvchi rolni o‘ynagan taktik usullarda qo‘shinga belgilar vositasida va ko‘rish tarzda xabar qilinuvchi ma’lumotlarning muhim rol o‘ynaganligidan dalolat beradi.

Xitoy sarkardasi U-dzi o‘zining urush san’ati haqidagi asarida “Barabanlar va nog‘oralar quloqlarni vahimaga soladi, bayroqlar, tug‘lar, bunchuqlar ko‘zlarni dahshatga soladi” deb yozishi tasodifiy emas edi.

Iste’dodli va tajribali lashkarboshi sifatida Amir Temur bu vositalardan samarali foydalangan va ularni o‘z vorislariga ham meros qoldirgan.

Amir Temur biror hududni qancha vaqt ichida zabt etish mumkinligini oldindan yaxshilab hisoblab chiqar va sarkardalardan belgilangan muddatda harbiy harakatlarni nihoyasiga yetkazishni qat’iy talab qilar edi.

- Chingizxon qo‘shinlari yalpi majburiyat asosida harbiy xizmatga chaqiriladigan xalq lashkarlaridan iborat bo‘lgani holda, Temurbek armiyasi umumxalq xarakteriga ega emas edi.
- Chingizxon davrida qo‘shin asosini ko‘chmanchi omma tashkil qilgan edi. Temurbek qo‘shiniga aniq belgilangan talab asosida chorvadorlar qatori kosibchilik, hunarmandchilik, dehqonchilik bilan mashg‘ul o‘troq aholi vakillaridan ham olingan.
- Otliqlar bilan birga piyodalar ham anchagina qismni tashkil qilgan. Chingizxonda piyoda qo‘shin vazifasini ko‘pincha bosib olingan o‘lkalardan tuziluvchi qo‘shin bajargan.
- Temurbek Sharqda birinchilardan bo‘lib armiyada o‘t ochar qurol – to‘pni olib kirgan.
- Tog‘larda harakat qiluvchi maxsus otryadlarni tashkil qilgan.
- Jang maydonida qo‘shinni yetti qo‘lga bo‘lishni birinchi bo‘lib joriy qildi.
- Temurbek armiyasida ayollardan tuzilgan bo‘linmalar bo‘lgan.

Qo‘shin qanotlarini jang chog‘ida dushman hujumidan himoya qilish maqsadida va aksincha g‘anim kuchlarini yon tomondan aylanib o‘tib, unga ortdan zarba berish maqsadida maxsus otliq qism – qanbullarni joriy qildi. Aleksandr Makedonskiy, Gannibal, Lyudvig XIV, Buyuk Fridrix, Chingizxon qo‘shinlarida bo‘lmagan. Faqatgina qanot qismlar Napoleon Bonapart armiyasida mavjudligi keltiriladi.

“Tuzuklar”da yozilishicha, piyoda sipohiylar, xizmatchilarga, farroshlarga yuzdan ming tangagacha maosh belgilab qo‘yilgan. Agar o‘sha paytda bir qo‘y yarim tangaga teng bo‘lgan. Venger olimi Xerman Vamberi amirul-umaro unvonini sardori akramga, ya’ni generallissimusga to‘g‘ri keladi deb ko‘rsatadi. 313 ta amir “xos ul xos” oliy hukmdorga yaqin kishilar bo‘lgan.

1391-yilda To‘xtamishga qarshi navbatdagi urushida Nizomiddin Shomiy tomonidan hali tarixida kuzatilmagan yangi taktika – qo‘shinni 7 qo‘lga bo‘lish qo‘llanilganligi ma’lum qilinadi.

Katta qizil bayroq amirul-umaro yoki beklar begi Ot yoli bog‘langan tug‘ tuman og‘asiniki ikki tomonga kokillari osilgan ikki do‘l nog‘ora yuzboshiga tegishli bo‘lgan.

Amirlarniki darajasiga qarab 1000 – 10000 otgacha, Amir Temur avlodlariniki 12000 ot narxida belgilangan.

Piyoda askarlar, xizmatchilar (qurolbardor yoki xos navkarlar) va chodirchilar 100 tadan 1000 ot narxi piyoda jangchilarning katta maosh olishi ularning xizmati sharafliroq va otliq jangchilar xizmatidan mashaqqatliroq bo‘lgan deb xulosa chiqaradi. Ivanin lekin tuzuklarda piyodalar uchun 100 tangadan 100 tangagacha bo‘lishi ko‘rsatilgan. Temur qo‘shinlarida piyodalarning ancha kam bo‘lishiga asosi sabab esa uning askarlari aksariyat o‘troq va yaqinda o‘troqlikka o‘tgan xalqlarning vakillari bo‘lganligi va u olib borgan janglarning aksariyati keng va ochiq yerlarda (cho‘l va dashtlarda) bo‘lganligidan va bunday janglarda tezkorlik va chaqqonlik talab qilinishi bo‘lsa kerak deydi, Ivanin tarjimoni.

Anqara jangidan oldin maxsus rangli kiyimlar Samarqanddan keltirilgan. Qizil bayroqli qismlar shu rangdagi qalqon, egar, jabduq, o‘qdon, kamar, nayza, gurzi va hakozolar shu rangda bo‘lishi ko‘rsatilgan.

Maxsus ishonchli kishilar Amir Temurga xalqning holati haqida xabar berib turishar, o‘zi esa shu xalq urf-odatlariga amal qilishga, umuman xalq muhabbatini qozonishga harakat qilar edi. Jasur jangchilarning farzandlariga ham nafaqa to‘langan, martabasi ko‘tarilgan.

Yutqiziqsiz maqsad Temur dahosining asosini tashkil qiladi. U hatto donalari ikki barobar ko‘paytirilgan maxsus shaxmat taxtasini o‘ylab chiqargan. Bundan maqsadi o‘yin muddatini cho‘zish bo‘lgan. Bu shundan dalolat beradiki, Temur maqsadi va ularga erishish yo‘llarini geostrategiya ma’nosida bir-biridan ayri holda tushunib bo‘lmaydi va u bularni hayotga tatbiq etish jarayonida hech qachon birini ikkinchisi bilan adashtirib yubormagan.

Chegaralarga hayot sinoatlari bilan tanish, zamona hodisalari bilan egizak tug‘ilgan xushyor, sergak, mardonalikda tanilgan dovyurak va tajribali kishilarni qo‘yilan.

Amir Temur to‘g‘risida ko‘plab gapirish mumkin, biroq biz uning harbiy faoliyatiga e’tibor qaratishni lozim topdik. Manbalarda Amir Temurning harbiy faoliyatidagi ikki xususiyat alohida ko‘rsatilib o‘tiladi. Biri sarkardalik bo‘lsa, ikkinchi armiyani qayta tashkil qila olgan va qudratli qo‘shinni shakllantira olgan islohotchilik faoliyatidir.

Uning armiyasi quyidagi bo‘linmalardan tuzilgan edi: o‘nlik, yuzlik, minglik; ularni tegishli darajadagi sarkardalar boshqargan bo‘lib va o‘z navbatida bo‘linmalar bir-biriga bo‘ysunardi.

Bo‘linmalarning birlashmasidan qo‘shin shakllangan bo‘lib, bir nechta qo‘shin qo‘shunot – qo‘shinlar birlashmasini tashkil qilgan va ularning har biri umumiy qo‘shinda joylashgan joyiga qarab turlicha – qalb (markaz), burong‘or (o‘ng qanot), javong‘or (so‘l qanot), manglay (avangard) kabi nomlar bilan yuritilgan.

Amir Temur armiyasi piyoda va otliq qo‘shinlardan tarkib topgan. Otliqlar bilan bir qatorda tog‘larda jang qilishga moslashtirigan maxsus bo‘linma ham bo‘lgan. Odatda Amir Temur harbiy yurish oldidan beklar va sarkardalardan iborat harbiy kengash ishtirokida mashvarat o‘tkazib, qo‘shinning harakati va harakatlanish jarayonidagi o‘zgarishlar muhokama qilingan va bular zudlik bilan maxsus xabarchilar orqali qo‘shinga yetkazilgan. Qo‘shin o‘z davrining eng mukammal qurollari bilan ta’minlangan edi.

Har bir harbiy bo‘linma u yoki bu turdagi harbiy qurol-yarog‘ va boshqa aslahalar bilan ta’minlangan bo‘lib, harbiy qismlar bir-birlaridan bosh kiyimlari, bayroqlari bilan ajralib turganlar, hattoki ular mingan otlarning zotlari ham bir-biridan farqlangan.

Bunday tarzdagi alohidalik qo‘shinni boshqarish, ayniqsa, jang vaqtida ularning harakatlarini amalga oshirish uchun muvofiqlashtirishda katta foyda bergan.

Qo‘shinning jangovarlik holati va tayyorgarligini ko‘zdan kechirish maqsadida Sohibqiron tomonidan qo‘shin o‘ziga xos maxsus ko‘rikdan o‘tkazilgan.

Otliqlarning kiyimlari yengil va qulay bo‘lib, harakatlanish vaqtida halal bermagan. Dushman o‘qlaridan va zarbalaridan himoyalanish uchun ular doirasimon qalqonlardan foydalanganlar, jang vaqtlarida esa maxsus g‘iloflarda olib yurilgan qilich, nayza, o‘q-yoylardan foydalanganlar. Otlariga esa rang-barang yopinchiqlar yopilgan va maxsus yuganlar ham otlar uchun himoya vazifasini o‘tagan.

Piyodalar kiyimlari otliqlarniki bilan o‘xshash bo‘lgan. Piyodalar ham jang vaqtida nayza va o‘q-yoy ishlatganlar, shu bilan birga jangning borishiga qarab kalta xanjarlar, qilich, shamshir, jang boltalari va gurzi, cho‘qmorlar ishlatganlar.

Sohibqironning harbiy taktikasi nihoyatda puxta o‘ylangan xususiyatga ega bo‘lib, raqibga qarshi to‘satdan zarba berishga ham qaratilgan edi.

Yuqoridagilardan ko‘rinadiki, tarixiy tajribalar va an’analarga amal qilish yangi avlodni tarbiyalashda beqiyos ahamiyat kasb etadi.

Amir Temur qo‘shinning barcha bo‘linmalari uchun ularni boshqaruvchi maxsus nomlar bilan yuritilgan unvon va lavozimlarni ham joriy etdi: tuman og‘a - o‘n ming kishilik qo‘shin boshlig‘i, miri hazora - ming kishilik, qo‘shunboshi - yuz kishilik, aylboshi - o‘n kishilik qo‘shin boshliqlari hisoblangan. Ularning barchasi ma’lum darajadagi huquq va burchlarga ega bo‘lganlar, shuningdek barchalari davlat tomonidan ta’minlanganlar. Masalan, oddiy askar bir ot narxiga teng, otliq askar esa, 2-4 ot narxiga teng maosh bilan ta’minlangan. O‘nboshi oddiy askardan o‘n barobar, yuzboshi o‘nboshidan ikki barobar, mingboshi yuzboshidan uch barobar ko‘proq maosh olishgan.

THE DEVELOPMENT OF TRADE ROUTES DURING AMIR TEMUR AND THE TIMURIDS PERIOD.

Egamberganova M.O.,
Tashkent State University of Oriental Studies
Scientific advisor: Doctor history (DSc) Turayeva S. R.

It is known that Central Asia, especially the territory of Uzbekistan, played an important role in international trade and cultural relations during the period of Amir Temur and the Timurids. After Amir Temur took power in Movarounnahr, he managed to create a centralized authority in the former Chigatoy ulus and fully ensure the safety of international caravan routes. Because of this, since the 14th century, the central branch of the Great Silk Road passing through Movarounnahr began to take a more important place in international economic and cultural relations than the northern route. The revival of the movement of international trade caravans along the Movarounnahr led to the development of cities and the rise of economic and cultural relations. During this period, the roads connecting the country's capital Samarkand with the large cities of Movarunnahr and Khorasan formed the main link of the system of internal trade routes in the region. The activities carried out in the field of ensuring security on caravan routes, the construction of many roadside structures (caravans, reservoirs, bridges, etc.), the promotion of

internal and external trade to the level of state policy were among the main directions of the socio-economic policy of Amir Temur's state. During this period, there were several communication routes connecting the large cities of Movarunnahr with Herat, the capital of the Timurids state in Khorasan. Among them, the roads leading from Herat through Marv to Bukhara and Urganch and through Balkh to Samarkand had a strong place in the internal and external economic, cultural and political life of the region.

The roads connecting the cities of Samarkand and Herat, which became the two capitals of the Timurids state in the 15th century, with the northern parts of the kingdom, in particular, the Khorezm oasis, were also of great importance during this period. From Urganch, the capital of Khorezm, which was considered the main transit area in the relations of the Timurid rulers with the Golden Horde, to Herat was mainly passed through the Murghab oasis. The road that went south from Urganch and other cities of Khorezm joined in the city of Marv. The road from Marv to Herat passed along the left bank of the Murghob River, turned right at the confluence of the Murghob and Kushka Rivers, and continued along the left bank of the Kushka River to Kushka. From here, it went to Herat through Raboti Sangi Poin and Rabat Hill. The first part of the roads leading from Herat to Samarkand passed through the crossings in the middle course of Amudarya. In particular, Herat, which was the capital of Khurasan during the Timurids era, was connected with the cities of Movarounnahr through the route Sabzak - Qal'ai-Nov - Murghob - Maymana - Andkhoi - Kelif. The road from Herat branched off in Andkhoi, and one direction led to Termiz through Shibirgan, Balkh, Khairabad. The road from Kelif and Termez to Samarkand passed through the cities of Kesh (Shahrisabz) or Karshi in the Kashkadarya oasis. Roads from India and Afghanistan through the Kelif pass to the central cities of Movarounnahr passed mainly through Karshi.

Hafizi Abru informs about the location of the city of Nakhlab on the plain, the route from Bukhara to Samarkand passes through this ancient city[1]. In "Boburnoma" it is noted that Karshi is located south of Samarkand and the distance between them is 18 miles[2]. The route from Samarkand through Kesh to the Surkhan oasis and to India was also actively used during this period. In particular, according to Sharafuddin Ali Yazdi, during his campaign from Samarkand to India, Amir Temur built a garden and a palace on a mountain

[1] Бўриев О. Темурийлар даври ёзма манбаларида Марказий Осиё. – Тошкент: Ўзбекистон, 1997. – Б. 85.
[2] Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома... 47-бет.

located 7 yards from Samarkand, on the road to Kesh, and named it "Takhti Karacha"[1]. One direction of the road passing from Kelif and Termez to Samarkand passed through the city of Kesh (Shahrisabz). It is known that the Spanish ambassador Ruy Ganzalis de Clavijo, who came on an official visit to Amir Temur, came to Samarkand from Khurasan via Termiz - Darband - Temir Darvoza - Oqrobot - Kesh. Clavijo gave a high assessment of the position of Samarkand in the state of Amir Temur, and reports about the bazaar and covered stalls built by Sahibqiran[2]. During the period of Amur Timur and the Timurids, international relations were actively established with many countries of Europe and Asia. In particular, economic and cultural relations were conducted along important international caravan routes connecting the capital Samarkand with India, Khurasan, Iran, Iraq, Egypt in the south, the Golden Horde and Russian cities (Novgorod, etc.) in the northwest, East Turkestan and China in the east. During this period, the relations between Central Asia and India continued for many millennia. Ambassadors from India came to Shahrukh's palace in 1411-1416 and 1421, and it is known that in 1422 Abdurazzak Samarkandi went to southwestern India via the sea route of ambassadors, that is, in the direction of Herat-Kirman-Khormuz-Kolikut[3]. The port of Hormuz in the Persian Gulf was of great importance as an important port from which the water route from Amir Temur and the Timurids state to India began[4].

In written sources, especially in the works of the Middle Ages, in particular, in the famous work "Baburnoma", information is given about the mountain passes from India to Central Asia through Kabul and Kandahar. According to it, Kashkar, Fergana, Turkestan, Samarkand, Bukhara, Balkh, Hisar and Badakhshan were passed to Kabul through 7 kotal (pass, mountain road) in the Hindikush mountains. There were 4 roads (passes) from India to Kabul through the Khybar Mountains, and there were no mountain passes on the Khurasan road between Kabul and Kandahar[5]. During the period of Amir

[1] Шарофуддин Али Йаздий. Зафарнома. – Тошкент, 1997. – Б. 191.

[2] Руи Гонсалес де Клавихо. Дневник путешествия в Самарканд ко двору Тимура. 1403- 1407 гг. Перевод со староиспанского, предисловия и комментарий И.С. Мироковой – СПб., 1990. – С. 134; Руи Гонсалес де Клавихо. История Великого Тамерлана // Тамерлан. Эпоха. Личность. Деяния. – М.: Гураш, 1992. – С. 299-301.

[3] Абдураззоқ Самарқандий. Матлаи саъдайн ва мажмаи баҳрайн. II-китоб. 2 ва 3 қисмлар. 1429–1470 йиллар воқеалари / Форс тилидан таржима, ва изоҳлар муаллифи А. Ўринбоев. География номлар изоҳли кўрсаткичи муаллифи О. Бўриев – Тошкент: O’zbekistan, 2008. – Б. 112-180; Ҳасанов Ҳ. Сайёҳ олимлар. – Тошкент, 1981. – Б. 162-165.

[4] [Шильтбергер И.]. Путешествия Иоганна Шильтбергера по Европе, Азии и Африке (с 1394 по 1421 гг.) / Перевел с немецкого и снабдил примечаниями Ф.Брун. – Тошкент: Шарқ, 1997. – С. 57.

[5] Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. – Тошкент: Юлдузча, 1989. – Б. 117-118.

Temur and the Timurids, relations with China did not stop. It is known that in 1368, the Yuan Dynasty of the Mongols ended in China, and the Ming Dynasty came to power. Due to the policy of the Ming Empire (1368-1644) to reliably protect the north of China from the Mongols and to strengthen the borders, the relations between Central Asia and China were disrupted for a certain period of time. After Amir Temur subjugated Mongolia in 1389 and eliminated the threat to Movarounnahr from the Mongolian side, there was an opportunity to ensure the safety of the caravan route passing through Mongolia and Eastern Turkestan, and to restore trade and diplomatic relations with China. In particular, in the years 1389-1398, ambassadors went to China 9 times on behalf of Amir Temur, and in 1395, ambassadors were sent to Samarkand under the leadership of Fu An, indicating that the relations between the two countries continued[1].

Relations with China continued during Shahrukh Mirza's reign. In the written sources of this period, it is known that Chinese ambassadors came to Herat in 1409 and 1420, and in turn, Timurid rulers also sent their ambassadors to China several times. Trade routes, which are an important branch of the Great Silk Road connecting Central Asia with China, mainly led from the center of Movarunnahr to Eastern Turkestan through Ferghana and Yettisuv, and through the trading cities here to Beijing, the capital of China. The directions of this important trade route were described in detail in the diary written by the member of the embassy mission sent by Shahrukh Mirza to China under the leadership of Shahidhoja in 1419-1422. According to the information presented in this work, the ambassadors moved along the caravan route connecting Herat with China through Central Asia: Herat - Balkh - Kelif route - Samarkand - Sayram - Ashpara (the fortress of this city was built by Amir Temur) - Mogul Eli (Bilgutu - Konkir Suvi) - Star pasture) - Turfon - Karakhoja - Sufi Ato village - Kumul - Qarovul - Sukju - Qamju - Pinlon - Khanbaliq (Beijing). Among the roads connecting Central Asia with China, the Shosh oasis has an important place, and caravans covered the distance from Shosh to Turfon in 3 months[2]. It is known that diplomatic relations have been established during the period of Amir Temur and the Timurids with European countries - France, England, Spain and other countries. In particular, looking at

[1] Бўриев О., Колганов А. Об одном участке Великого шелкового пути // На Среднеазиатских трассах Великого шелкового пути. – Ташкент: Фан, 1990. – С. 106-116.

[2] Мирза Мухаммад Хайдар. Та’рих-и Рашиди / Введение, перевод с персидского А.Урунбаева, Р.П. Джалиловой, Л.М. Епифановой. Примечание и указатели Р.П. Джалиловой и Л.М .Епифановой. – Ташкент: Фан, 1996. – С. 367.

the route of the official visit of the Spanish ambassador Rui Ganzalis de Clavijo, who visited Samarkand in 1402-1404 from the Mediterranean Sea via Iraq-Iran-Khorasan, it is possible to get information about the activity of trade routes that came to Samarkand from Khurasan via Termiz-Darband-Temir Darvoza-Aqrobot-Kesh. During the period of Amir Temur and the Timurids, there were connections with the cities of the Golden Horde, which were in two directions; it was carried out through Khorezm oasis or cities in South Kazakhstan (Turkestan, Sayram). With this, the ancient relations between the peoples of Central Asia and the peoples of Eastern Europe were revived. Russian chronicles of the 14th century contain information about Bukhara and Khorezm merchants living in Nizhny Novgorod[1], which indicates trade and cultural relations between the two. From the 15th century, when the position of the Moscow principality began to strengthen, we see that the Russian princes began to seek to establish diplomatic relations with the Timurids.

Thus, the advanced Middle Ages, especially the era of Amir Temur and the Timurids, is the last and peak period of the Great Silk Road. During this period, the cities of Movarounnahr and Khorasan were the central routes of the Great Silk Road played a major role in international economic and cultural relations.

AMIR TEMUR DAVRIDA JINOYAT VA JAZO

Faxriddinova N.Sh.,
O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi
mustaqil izlanuvchisi

Mintaqamizning ko‘p yillik tarixidan ma’lumki biz yashab turgan ushbu muqaddas hududda mavjud bo‘lgan ko‘plab davlatlarda sodir etilgan jinoyatlar va ularga nisbatan qo‘llanilgan jazolar mavjud bo‘lgan. O‘z zamonasining qomusiy manbasi bo‘lgan muqaddas “Avesto” kitobida ham har qanday jinoyatlar javobsiz qolmasligi keng yoritib berilgandir. Uzoq vaqtlar davomida sodir etilgan jinoyatlarga nisbatan qo‘llanilgan jazolar Zardushtiylik dinining qonunlari asosida belgilab berilgandir.

Amir Temur davrida jinoyat va jazolarni qo‘llashda adolat prinsiplari asosida faoliyatini olib borganligini guvohi bo‘lamiz. Sohibqiron davrida qonunlar barcha uchun barobar ekanligi hatto, uning ba’zi bir o‘g‘illari va

[1] Жуковский С.В. Сношение Росии с Хивой и Бухарой за последней трехсотлетие // Труды общества руских ориенталистов.– СПб, 1915. – № 2. – С. 12.

nabiralari qonundan tashqari noloyiq ish qilganlarida ularni qattiq jazolanganlar. Amir Temur qattiqqo‘l va shu bilan birga adolatparvar davlat arbobi bo‘lgan. Biroq, Amir Temur davrida jinoyat va jazolarni qo‘llashda insonparvarlik prinsiplari ustun turishi, bugungi kundagi jazolarni liberallashtirish jarayonlarida yangi ilmiy takliflar ishlab chiqish uchun har qancha tadqiqotlar olib borilmasin, yana o‘rganadigan serqirra jihatlariga guvoh bo‘lamiz.

Amir Temur Xitoy, Hindiston, Fransiya, Ispaniya, Angliya va boshqa davlatlar bilan mustahkam aloqalar o‘rnatgan. Amir Temur qaysi bir davlat bilan aloqa o‘rnatmasin, eng birinchi davlat xavfsizligi va qonun ustivorligining ta’minlanishi muhim ahamiyatga ega hisoblangan.

“Buyuk Sohibqiron Amir Temur bobomizning Shahrisabzdagi Oqsaroy peshtoqiga yozdirib ketgan “Adolat- davlatimizning asosi va hukmdor shioridir”, degan hikmatli so‘zlari hammamizga ma’lum.Ularda aks etgan ulug‘vor g‘oyalar bugungi kunda inson qadr-qimmatini oliy darajaga ko‘tarish borasidagi amaliy harakatlarimizning poydevoriga aylanmoqda.” [1]

Markaziy Osiyo mintaqasiga arab bosqinchilarining bostirib kirishi, islom dinining hukmron mafkuraga aylanishi har qanday qilingan jinoyatlarga qarshi qo‘llanilgan jazolar shariat qonunlari asosida amalga oshirilishi joriy etildi.

Insoniyat tarixida birinchi marta miloddan avval Xomurappi o‘z qonunlarini ishlab chiqqanligi va uning hayotga tatbiq etilganligi ma’lum. Uning qonunlari o‘ta shavqatsizlikka asoslangan bo‘lsada, lekin ular ham tartib intizom bo‘lishiga xizmat qilgan.

Mintaqamizda ham jamiyatga qonunlarni jalb etish, qonun ustivorligini ta’minlash o‘z tarixiga egadir. G‘arb mamlakatlarida “Sharqning Arastusi” nomi bilan mashhur bo‘lgan Abu Nasr Farobiy o‘zining mashhur “Fozil odamlar shahri” asarida fiqh ilmi taraqqiyotiga katta hissa qo‘shgan buyuk vatandoshimiz “Islom va Shariatning rad etib bo‘lmaydigan mutloq isboti” degan faxriy unvoni bo‘lgan ulug‘ fiqhshunos Burxoniddin Marg‘iloniyning mashhur “Hidoya” asarida ko‘plab foydali fikrlarni ko‘rish mumkin. Bunday allomalar tomonidan ilgari surilgan g‘oyalarda, bildirilgan fikrlarda adolat, insonparvarlik, kechirimlilik singari qimmatli fikrlarni ko‘tarish mumkin. Bunday allomalar tomonidan bildirib o‘tilgan va ilgari surilgan g‘oyalar inson huquqlari masalasi doimo jamiyat hayotida asosiy maqsadlardan biri bo‘lib kelganligini asoslab beradi.

[1] Шавкат Мирзиёев.Миллий тарнаққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб янги босқичга кўтарамиз. Т.”Ўзбекистон ” 2018 йил 426-бет.

Jahon tarixida qudratli davlat tuzib uni adolat bilan boshqargan buyuk davlat rahbaridan biri Amir Temurdir. Amir Temur o‘zining butun hayoti davomida har jihatdan qudratli, markazlashgan davlat tuzish bilan birga mintaqamizda ikkinchi uyg‘onish davrining poydevorini ham yaratib berdi.

Amir Temurning dunyodagi obro‘-e’tiborini oshirib bergan asoslardan biri, o‘zi asos solgan davlatni boshqarishda adolat tamoyillariga amal qilganligidir.

A.Temurning “Agar dushmanning boshini urib panohingda kelsa, rahmat qilib yaxshilik va muruvvat ko‘rsatgil” deb aytgan so‘zlari ham jinoyat qo‘zg‘atishni rad etish va kechirish ma’nosini bildirganligini ko‘ramiz.

A.Temur o‘z davlatini faqat harbiy kuchga suyanib emas, balki aql-idrok, dinu -diyonat , ijtimoiy adolat tamoyillariga asoslanib idora etgan. Adolat kuchda emas, kuch adolatdadir, degan shior uning saltanatining axloqiy ma’naviy, huquqiy mezoni bo‘lib xizmat qilgan.[1]

Amir Temur har jihatdan qudratli sohibqiron bo‘lsada kuch-qudrat zo‘rlik va zo‘ravonlikda, shavqatsizlikda, to‘plangan boylikda emas, balki adolatda ekanligini chuqur anglab yetdi.

Sohibqiron adolatni kuch bilan, kuchni esa adolat bilan uyg‘unlashtirdi. Amir Temur tamg‘asining naqshi “Rost-rusti” bo‘lib, bu “Haqgo‘y bo‘lsang-najot topasan” demakdir.

Buyuk Sohibqiron “Kuch adolatdadir” degan shiorga qat’iy amal qilib, davlatni boshqarib, jabr-zulm yo‘llarini berkitgan. Amir Temur hukmronligi davrida o‘sha zamonlarda hech qaerda bo‘lmagan, insoniyat tarixida kamdan-kam uchraydigan lavozim – “Adolat amiri” lavozimini joriy etdi.

Amir Temurga nisbatan beriladigan tarixiy-siyosiy risola, XIV -XV asrlarning tarixiga oid qimmatbaho manba bo‘lgan “Temur tuzuk” larida farzandlari va nabiralariga o‘zi amal qilgan o‘gitlari va yo‘l-yo‘riqlariga amal qilishlarini vasiyat qilgan.

Buyuk sohibqiron amal qilgan tamoyillardan biri to‘g‘risida tuzuklarda shunday deyiladi. “Adolat va insof bilan tangrining yaratgan bandalarini o‘zimdan rozi qildim, gunohkorlarga ham, begunohga ham rahm qilib, haqqoniyat yuzasidan hukm chiqardim. Xayr-ehson ishlarim bilan odamlar ko‘nglidan joy oldim...Menga yomonliklar qilib, boshim uzra shamshir ko‘tarib, ishimga ko‘p ziyon yetkazganlarni ham, iltijo bilan tavba-tazarru qilib

[1] Ҳ.Бобоев .З.Ғофуров . Ўзбекистонда сиёсий ва маънавий маърифий таълимотлар тараққиёти.Т. “Янги аср авлоди”2001й.248-бет.

kelgach, hurmatlab yomon qiliqlarini xotiramdan o‘chirdim. Martabalarini oshirdim”[1]

Amir Temurning o‘z davlatini boshqarishda qo‘llagan avdolat bilan bezatilgan tamoyillarda atrofdagi odamdarga tuhmatu g‘iybat qilgan kishilarga quloq solmaganligini, biron bir ishni qilishga ahd qilgan bo‘lsa, butun zehnini, imkoniyatlarini ishga solib uni bitirmagunicha qo‘l tortmaganligini, kishilarga yaxshilik qilib, yomonlarni o‘z yomonliklariga topshirganligini, kim do‘stlik qilgan bo‘lsa, do‘stlik qadrini unutmaganligini takidlaydi.

Sohibqironning adolatparvar, kechirimli, insonparvar bo‘lganligini u hech kimdan o‘ch olish payida bo‘lmaganligi, tuzini tatib yomonlik qilganlarni yaratganning o‘ziga topshirganligi, sofdil kishilarga olim fuzalolarga dargohi doim ochiq bo‘lganligi yomon niyatli kishilarni o‘ziga yaqinlashtirmaganligi singari fazilatlari doimo barcha kishilarga namuna bo‘lib kelmoqda.

Amir Temurning “har mamlakatda adolat eshigini ochdim, zulmu sitam yo‘lini to‘sdim”, “Adovat emas adolat yengadi”, “Ahlu ehson bilan jahon gulshani obod bo‘ladi, “Bir kunlik adolat yuz kunlik toat-ibodatdan afzaldir”, “Hech bir ishda tanglik qilmadim”, “Har bir diyor aholisining ahvolidan ogoh bo‘lib turdim”, “Yaxshilarga yaxshilik qildim, yomonlarni esa o‘z yomonliklariga topshirdim” , “O‘z saltanatimni shariat bilan bezadim”, Hech kimdan o‘ch olish payida bo‘lmadim”, “Adolat bilan ish yuritib, jabr zulmdan uzoqroq bo‘lishga intildim” singari so‘zlari bu tarixiy shaxsning haqiqatdan ham adolatparvar inson bo‘lganligini, uning hurmat e’tiborining ortishi ham adolatparvar siyosat olib borganligini asoslab beradi.

Amir Temurning olib borgan bunday adolatparvarlik siyosatining tarixiy ahamiyati to‘g‘risida gapirib Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoev quyidagilarni ta’kidlab o‘tadilar. “Adolat xalqimiz uchun azal-azaldan tinch va faravon hayot mezoni, barcha ezguliklar manbai bo‘lib kelgan.” Sohibqiron Amir Temur bobomiz “Kuch-adolatda” degan hikmatga amal qilib, davlat boshqaruvini tashkil qilish,el-yurt tinchligi va obodligini ta’minlashga erishganligi tarixdan yaxshi ma’lum”[2]

Amir Temurning davlat boshqaruvi sohasidagi bunday hayotiy tajribasi o‘z davrida u asos solgan qudratli davlatning huquqiy asosini tashkil etish bilan

[1] Темур тузуклари.Т.Ғ.Ғулом нашриёти.Т.1991й. 54-55-бетлар

[2] Шавкат Мирзиёев.Миллий тарнаққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб янги босқичга кўтарамиз. Т.”Ўзбекистон ” 2018 йил 426-бет.

birga bugungi kunda ham ko‘plab mamlakatlardan boshqaruv tizimida dasturul amal bilan xizmat qilib kelmoqda.

Amir Temur olib borgan adolatli siyosat, u suyangan adolatparvarlik tamoyillari Sohibqiron asos solgan markazlashgan davlatning huquqiy asosi bo‘lganligi Nizomiddin Shomiy, Sharofiddin Ali Yazdiylarning “Zafarnoma” asarlarida olib borilgan bunday oqilona siyosat saltanat sarhadlarida tinchlik, totuvlik va barqarorlikka xizmat qilganligi keng yoritib bera olingan.

Amir Temur davlatini boshqarish usullari va uning huquqiy asoslari to‘g‘risida qimmatli fikrlar bera oladigan asosiy manbalardan biri “Temur Tuzuklari” bo‘lib ikki qismdan iborat bo‘lgan bu tarixiy-siyosiy risolaning ikkinchi qismida siyosiy, axloqiy va huquqqa oid qimmatli fikrlar bayon qilingan. Unda do‘stlik, vafodorlik, insof, adolat, iymon e’tiqod, kechirimlilik, halollik, yomonliklardan uzoqroq bo‘lish, jinoyatdan va haromdan hazar qilish singari ko‘plab insoniy fazilatlarga rioya qilish to‘g‘risida fikr kiritilgan. Risolada ayniqsa fuqarolarning shariatga va qonunlarga so‘zsiz bo‘ysunishi lozimligi masalasiga katta e’tibor beriladi. Amir Temur hukmronligi davrida har bir viloyatda qozilar qonunlarning to‘la amal qilinishi, tinchlik va osoyishtalik hukm surishini qattiq nazorat qilganlar, tartibbuzarlar jazolanganlar.[1]

Qudratli markazlashgan davlatga asos solib, uni uzoq vaqtlar davomida boshqargan bo‘lsada kuch qudrat zo‘rlik va zo‘ravonlikda emas, aksincha adolatda, adolatli siyosatda ekanligini teran anglab yetdi.

Amir Temurning orzusi va uni amalga oshirgan siyosati uni jahon sahnasiga olib chiqdi. Sohibqironning ilg‘or bunyodkor g‘oyalari, adolatparvar siyosati, insonparvarlik, odillikni ta’minlashga qaratilgan faoliyati Prezidentimiz Sh. Mirziyoev takidlaganlaridek bugungi kunda xalqimizning bunyodkorlik faoliyatiga kuchli ta’sir ko‘rsatib kelmoqda.

Yangi O‘zbekistonni yaratish asosiy maqsad bo‘lgan bugungi kunda Amir Temurdek buyuk tarixiy shaxslarning olib borgan adolatparvarlik siyosati orqasidan erishilgan hayotiy tajribalar yangi jamiyatimizning huquqiy asoslarini mustahkamlashga amaliy ta’sir ko‘rsatadi.

[1] Фалсафа қомусий луғат.Т. “Шарқ” 2004й.396-бет

AMIR TEMUR – MARKAZLASHGAN DAVLAT ASOSCHISI

Irisboyeva X.U.,
O‘R MG Toshkent “Temurbeklar maktabi” HAL
bosh o‘qituvchisi

Amir Temur Kesh viloyatidgi Xoja Ilg‘or qishlog‘i (Yakkabog‘ tumani)da 1336-yil 9-aprel kuni tavallud topgan. Uning to‘liq ismi Amir Temur ibn Amir Tarag‘ay ibn Amir Barqul. Amir Temurning onasi Takina xotun Kesh yurtining obro‘li beka (bek og‘o)laridan hisoblangan. Uning otasi Amir Tarag‘ay barlos urug‘ining oqsoqollaridan bo‘lib, ajdodlari Kesh va Nasaf viloyatida o‘z mulklariga ega bo‘lgan va bu yurtda hokimlik qilgan. Amir Temurning yoshligi ona yurti Keshda kechdi. Amir Tarag‘ay o‘g‘lini yoshligidan aslzodalarga yarasha o‘qitgan va har taraflama bilim bergan: katta-kichik bilan muomala ilmini, ov qilish va harbiy ilmlarni o‘rgatgan. Yosh Temurni yetti yoshidayoq madrasaga o‘qishga beradilar. U madrasaga kelganda alifbodan mukammal xabardor bo‘lgan. O‘n ikki yoshidan boshlab bolalarga xos bo‘lgan ermak o‘yinlardan voz kechib, keyinchalik o‘z tengqurlari bilan sipohiylikka oid o‘yinlar bilan shug‘ullanadi. Amir Temur yoshlik chog‘laridanoq chavandozlik va ovga ishqiboz bo‘lib, kamondan nishonga o‘q uzish, ot choptirib turli mashq va harbiy o‘yinlar bilan mashg‘ul bo‘lishni yoqtirar edi. Shu asnoda Amir Temur tulporlarni saralab ajrata oladigan mohir chavandoz va dovyurak bahodir sifatida voyaga yetadi. Uning atrofiga bolalikdagi do‘stlari va maktabdoshlari to‘planishib, birgalikda mashq qilar, musobaqalarda ishtirok etishar, asta-sekin navkar bo‘lishib, harbiy guruhga birlashib borishardi.

Keyinchalik ular Amir Temurning safdoshlariga aylanib, uning qo‘shinida lashkarboshilik darajasigacha ko‘tarilganlar. Shunday qilib, Amir Temur o‘z zamonisining o‘qimishli va uquvli hukmdorlaridan bo‘lib yetishadi. Tibbiyot, matematika, falakiyot, me’morchilik va tarix ilmidan ham yaxshigina xabardor bo‘lgan. Amir Temur bilan yuzma-yuz o‘tirib suhbatlashishga muyassar

bo‘lgan buyuk arab faylasufi Ibn Xaldunning ta’kidlashicha, Amir Temur turk, arab, fors xalqlari tarixini chuqur o‘rgangan, diniy, dunyoviy va falsafiy bilimlarning eng murakkab jihatlarigacha yaxshi o‘zlashtira olgan zot ekan.

XIV asrning 60-yillarida Movarounnahrda hukm surgan og‘ir siyosiy va iqtisodiy vaziyat mamlakatni birlashtirib, kuchli bir davlat tashkil etishni talab qilmoqda edi. Amir Temur markazlashgan davlat tuzishga kirishdi. Bunday maqsadni amalga oshirishda u oqsoqollar, harbiylar, savdogarlar va shahar

hunarmandlari tabaqalariga suyanadi. Amir Temur bu ulkan maqsadini ro‘yobga chiqarish ishini, avvalo, ichki g‘animlariga qarshi kurashdan boshlaydi. 1370-yilning bahorida Amir Temur butun qo‘shinlari bilan kuchli raqib – Balx hukmdori Amir Husaynga qarshi yo‘lga chiqadi. Qo‘shin Termiz yaqinidagi Biyo qishlog‘iga yetganida uning huzuriga taniqli ulamolardan Sayyid Baraka tashrif buyuradi. Sayyid Baraka Amir Temur faoliyatini qo‘llab-quvvatlab, unga Oliy hokimiyat ramzi nog‘ora bilan bayroq tortiq qilib, uning buyuk kelajagidan bashorat qiladi. Bu voqea, shubhasiz, siyosiy ahamiyatga ega edi. Chunki nog‘ora bilan bayroq, musulmonlar odatiga ko‘ra, toj-taxt ramzi bo‘lib, uni oliy martabali ruhoniyning qo‘lidan olish tez orada uning toj-taxt va saltanat egasi bo‘lishligiga ishora edi. Amir Temur qo‘shini to Balxga yetib borgunicha, yo‘l - yo‘lakay unga yangi-yangi kuchlar kelib qo‘shiladi. Bu paytga kelib Amir Husaynning ko‘pchilik amirlari uni tark etadilar. Jangda Amir Husayn qo‘shinlari yengiladi, ikki kunlik qamaldan so‘ng, 1370-yilning 10-aprelida Balx shahri Amir Temurga taslim bo‘ladi. Amir Husayn qatl etiladi. Ertasi kuni bo‘lib o‘tgan qurultoyda Amir Temurning hukmdorligi rasman tan olinib, u Movarounnahrning amiri deb e’lon qilinadi. Davlatni siyosiy va iqtisodiy jihatdan mustahkamlab, ko‘pdan beri davom etib kelayotgan ichki tarqoqlikka barham berish, tinchlik va osoyishtalikni qaror toptirish maqsadida Amir Temur 1370-yil iyul oyida Samarqandda katta qurultoy chaqirdi. Qurultoyda markaziy davlat tizimini shakllantirish va qo‘shin tuzish masalalari muhokama etiladi. Samarqand davlat poytaxti deb e’lon qilindi. Samarqandda mustahkam devorlar, qal’alar hamda saroylar barpo etishga kirishiladi. Bu imoratlar Samarqand mo‘g‘ullar tomonidan vayron etilganidan keyin 150 yil o‘tgach, birinchi marta bunyod etilgan umummamlakat miqiyosidagi inshootlar edi. Amir Temur mamlakatda qonun va tartib ishlarini joriy etadi. Maxsus qo‘shin tuzib, unga katta imtiyozlar beradi. U yirik harbiy bo‘linmalar boshliqlarini va sipohsolorlarni tayinlaydi. Amir Temur taxtga o‘tirgach, Chig‘atoy ulusining barcha yerlariga o‘zini voris deb bildi. Sohibqiron Sirdaryoning quyi havzasidagi yerlarni, Toshkent viloyatini, Farg‘ona vodiysini va Xorazmni o‘z hukmronligi ostiga kiritdi. Amir Temur

1372-yildan boshlab Xorazmga besh marta harbiy yurish qildi va Xorazm 1388-yilda uzil-kesil bo‘ysundirildi. 1381-yilda Hirot, Seyiston, Mozandaron egallandi. Shundan so‘ng Saraxs, Jom, Qavsiya, Sabzavor shaharlari jangsiz Amir

Temurga bo‘ysundi va uning tasarrufiga o‘tdi. Shunday qilib, Amir Temur Movarounnahr, Xuroson va Xorazmni birlashtirib, yirik markazlashgan davlat tuzdi. Bu ulkan hududda yashovchi xalqlarning birlashuvi ular taqdirida ijobiy ahamiyatga ega bo‘ldi.

Sohibqiron Amir Temur o‘z zamonasining talab-ehtiyojlaridan kelib chiqib davlat boshqaruvini takomillashtirdi, unga yangicha ruh va mazmun berdi. Davlatning tarkibiy tuzilishi harbiy-siyosiy tartiblarga asoslangan bo‘lsa-da, jamiyat rivoji, barcha ijtimoiy tabaqalarning manfaatlarini ta’minlash nazarda tutilgan edi.

Amir Temur saltanatida davlat boshqaruvi ikki idoradan: dargoh va vazirlik (devon)dan iborat bo‘lgan. Dargohni Oliy hukmdorning o‘zi boshqargan. Ijroiya hokimiyat – devonni devonbegi (bosh vazir) boshqargan. Devonda harbiy vazir, mulkchilik va soliq ishlari vaziri, moliya vaziri faoliyat yuritgan. Bulardan tashqari, sarhadlar va tobe mamlakatlarning boshqaruvi bilan shug‘ullanuvchi yana uch vazir bo‘lib, ular devonbegiga hisobot berib turgan. Tashqi va ichki favqulodda voqealardan voqif etib turuvchi ming nafar piyoda, ming nafar ot mingan choparlari bo‘lgan. Butun saltanat bo‘ylab bir kunlik yo‘l oralig‘ida yomxonalar tashkil etilgan. Har bir yomda 50–200 boshdan ot-ulov tutilgan. Sohibqiron mamlakatni boshqarishda o‘z yaqinlariga suyandi. Sohibqiron davlat boshqaruvi ishlarida islom qonun-qoidalariga asoslangan. Uning Qur’oni karim va Hadisi shariflarga munosabati samimiy va oliy darajada bo‘lgan. Payg‘ambar avlodlari, shayxul-mashoyixlarga hurmati cheksiz edi. Davlatni kuchaytirishda ham aynan shunday kishilarga tayanib ish yuritgan. Amir Temur ulkan saltanat tasarrufidagi o‘lkalarni asosan to‘rt qism (ulus)ga bo‘lib, o‘g‘illari, nabiralari va xizmat ko‘rsatgan amirlarga suyurg‘ol tarzida in’om qiladi. Movarounnahrdan tashqari o‘z tasarrufidagi barcha viloyat va mamlakatlarni Amir Temur o‘limidan biroz avval o‘g‘il va nabiralari orasida taqsimlaydi: Xuroson, Jurjon, Mazondaron va Seyiston (markazi Xirot) Shohruxga, G‘arbiy Eron, Ozarbayjon, Iroq va Armaniston (markazi Tabriz) Mironshohga, Fors, ya’ni Eronning janubiy qismi (markazi Sheroz) Umarshayxga, Afg‘oniston va Shimoliy Hindiston (markazi G‘azna, keyinchalik Balx) Pirmuhammadga suyurg‘ol qilib berilgan. Uluslar markaziy hukumatga itoat etsalar-da, ammo ular ma’lum mustaqillikka ega edilar. Ulus hukmdorlarining alohida davlat devonxonasi, qo‘shini mavjud edi. Ularning markaziy hukumatga tobeligi xirojning bir qismini Samarqandga yuborib turish

va oliy hukmdor harbiy yurishlarida o‘z qo‘shini bilan qatnashish yoki talab qilingan askarni yuborib turishdan iborat edi.

Amir Temur davlat mustaqilligi va muhofaza yo‘lidagi ichki va tashqi siyosatida asosan qo‘shinga suyanar edi. Shuning uchun ham u qo‘shin boshliqlarini tanlash va ularni tarbiyalash, harbiy qismlar va ularning joylashish tartibi, navkar va sarbozlarning qurollanishi hamda ichki intizom masalalariga nihoyatda katta ahamiyat berardi. Sohibqiron intizomli qo‘shin tuzishga, jang paytida qo‘shin qismlarini oqilona boshqarishga, jang taqdirini hal qiladigan joylarga harbiy kuchlarni tezkorlik bilan yo‘llashga, mavjud to‘siq va g‘ovlarni tadbirkorlik bilan bartaraf etishga, qo‘shindagi jangovar ruhni yuksak darajada ushlab turishga erishgan. Amir Temur qo‘shiniga chorvadorlar qatori o‘troq aholidan ham askar to‘plangan. Askariy qismlarni viloyatlardan to‘plash bilan tavochi mansabidagi amaldorlar shug‘ullanar edi. Qo‘shinda harbiy kuchlarning asosini tashkil qilgan otliq askarlar bilan bir qatorda piyodalar ham xizmat qilgan. Amir Temur qo‘shini son jihatdan aniq tashkil etilgan, uning jangovar tartibi takomillashib borgan, o‘z zamonasining ilg‘or qurol va texnikasi bilan ta’minlangan, qismlar bir-biridan kiyim-bosh, bayroq va tug‘lari bilan farqlangan. Bunday farqlanish jangda qo‘shinni boshqarishda qo‘l kelgan. Amir Temur qo‘shini o‘ntalik askariy birikmalar asosida tuzilgan harbiy qismlardan iborat edi. Lashkar tuman – o‘n minglik, hazora – minglik, qo‘shun – yuzlik va ayl – o‘nlik birikmalariga bo‘lingan. Amir Temur o‘n minglik askarni boshqarish uchun tuman og‘asi, minglik bo‘linmalar uchun mirihazora, yuzliklar uchun qo‘shunboshi va o‘nliklar uchun esa aylboshi kabi harbiy mansablarni ta’sis etadi. Sohibqiron Sharqda birinchilardan bo‘lib qo‘shinga o‘tsochar qurol – to‘pni olib kirgan. Tog‘li hududlarda jang harakatlari olib boruvchi maxsus harbiy qism va bo‘linmalar tashkil qilingan. Ibn Arabshohning guvohlik berishicha, Sohibqiron qo‘shinida ayollardan iborat bo‘linmalar bo‘lib, ular erkaklar bilan bir safda turgan, qahramonlik va matonat namunalarini ko‘rsatgan.[1]

Amir Temurning har bir harbiy yurishiga turtki bo‘larlik sabab bor edi. Bu sabablar – o‘z davlatining chegaralarini mustahkamlash, tashqi dushmanlardan himoyalanish, karvon yo‘llarini turli yo‘lto‘sarlardan tozalash, xiyonatchi, sotqin, aldamchilarni jozalash, bo‘ysunmaganlarni itoat ettirish, o‘zining siyosiy ta’sirini kengaytirishdan iborat bo‘lganligini tarixiy manbalardan bilib olish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, Sohibqiron Amir Temur hazratlari milliy davlatchiligimiz tarixida nafaqat yetti iqlim sultoni sifatida, balki yurt obodonchiligi va xalq farovonligi yo‘lida bor kuch-g‘ayratini safarbar etgan buyuk davlat arbobi sifatida qoladi.Shuni ta’kidlash lozimki, buyuk bobomiz nomini hamisha pok saqlash, unga munosib farzand bo‘lish va Vatanga sadoqat ila xizmat qilish yoshlarning ustuvor vazifasi bo ‘lishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ibn Arabshoh, Ajoibal-maqdur tarixi Taymur (Temur tarixida taqdir adabiyotlari).2022-yil

2.”Temur tuzuklari” 2018-yil “O‘zbekiston” nashriyoti

3.I.M.Mo‘minov “Amir Temurning O‘rta Osiyo tarixida tutgan o‘rni va roli” risolasi

4. Muhammad Ali, O‘zbekiston xalq yozuvchisi, “Amir Temur solnomasi” asari. 2022-yil

5. Islom Karimov, “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” asari. 2008-yil

6. Lyusen Keren, fransuz yozuvchisi, “Amir Temur saltanati” asari. 2022-yil.

YOSHLARNI HARBIY VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHDA AMIR TEMUR MEROSINING AHAMIYATI

Kamolov A,

Jamoat xavfsizligi universiteti

Tahririyat-noshirlik bo‘limi katta ofitseri

Tarixiy manbalarda keltirilgan ma’lumotlarga qaraganda, otliq askarlar Amir Temur armiyasining zarbdor qismi hisoblangan, ular og‘ir va yengil qurollar bilan qurollangan suvoriy guruhlarga bo‘lingan. Yoy, sadoq va qilich bilan yengil qurollangan otliqlar asosan razvedka va soqchilik bilan shug‘ullangan, o‘ta zarur chogdagina dushman kuchlari bilan jang qilish huquqiga ega bo‘lgan.

Birinchi toifali amirlar ikki poyali oltin bilan tikilgan chodirda yashagan. Yana bir chodirda esa jangchilarni ta’minlash uchun qurol-yarog‘ zaxiralari bo‘lgan. 2-12-darajadagi oliy toifadagi amirlar yanada ko‘proq qurol-yarog‘ zaxiralariga va ehtiyot qismlarga, otlarga ega bo‘lganlar. Birinchi amir o‘zi

bilan 110 ta, ikkinchi amir 120 ta, bosh qo‘mondon 300 tadan kam bo‘lmagan miqdorda ot olib yurgan.

Yakka tartibdagi himoya vositalaridan eng avvalo, sovutlarga katta e’tibor berilgan. Avvalgi davrlarda, dushman ustiga do‘ldek o‘q yog‘dirilib, quyundek hujum qilish usuli katta o‘rin tutgan edi. U paytlarda sovutlar asosiy himoya vositasi sifatida asosan, metall plastinkalar qadalgan charmdan iborat bo‘lgan. Garchi tizzaliklar na yengchalar ham bo‘lgan bo‘lsada, sovutlar asosan ko‘krakni himoya qilgan.

Og‘ir sovutlar xonni qo‘riqlovchi saralangan suvoriylar va hal qiluvchi so‘nggi lahzada urushga kiruvchi bahodir jangchilarda bo‘lgan.

Amir Temur armiyasida yengil otliq qo‘shinni himoya qilishga, og‘ir qurollangan suvoriylar qatorlarini ko‘paytirishga e’tibor beriladi.

Sovutlarning asosiy qismi bir nechta xildagi jibalardan iborat edi. Ancha yengil xildagisi tasmali jiba bo‘lib, ular dumaloq, to‘rt burchak, cho‘ziqroq, romb shakllaridagi metall plastinkalarga, jangchi tanasining o‘q tegishi mumkin bo‘lgan joylarini, eng avvalo, ko‘krak, yelka, qo‘llar va tizzalarni to‘sishiga xizmat qiluvchi plastinkalar to‘plamiga ega edi. Jangchilar otining peshonasiga manglaylik kiydiriladi.

Harbiy yurishlar paytlarida tunash uchun va urush paytlari o‘rda sifatida joylashtirilgan qo‘shin qarorgohi maxsus soqchilar tomonidan qo‘riqlangan. Amir Temur qo‘shinlarga uning o‘zi boshchilik qilgan vaqtda qarorgohni to‘satdan bo‘ladigan hujumlardan himoya qilish uchun 12000 otliq askar tayinlangan; ularning 3000 tasi har bir daf’ uchun tayinlangan. Bunday hollarda Amir Temur qarorgohi handaqlar bilan o‘rab olingan va g‘ovlar hamda jiblar bilan mustahkamlangan.

Ushbu qo‘shinlar qarorgohdan yarim farsax uzoqlikda joylashib, oldinga postlar jo‘natganlar, ular o‘z navbatida o‘z oralaridan soqchilar qo‘yganlar, soqchilar bir-birlari bilan muntazam aloqada bo‘lib turganlar va dushman haqida olingan barcha ma’lumotlarni qarorgohga yetkazganlar.

Qarorgohning o‘zida maxsus mirshablar bo‘lgan va ular tartibni saqlash, savdogarlar, oziq-ovqatlarning narxi ustidan nazorat qilganlar hamda qarorgohda yuz berishi mumkin bo‘lgan o‘g‘riliklar uchun javobgar edilar. To‘rtta maxsus guruh jangchilarning qarorgohdan tashqaridagi xavfsizligini kuzatib borgan, talon-toroj, qotillik yuz bergan hollarda, agar bu voqea qarorgohdan to‘rtta farsaxgacha masofada yuz bersa, mas’uliyat ularning zimmasiga tushgan.

Qo‘shin uchun oziq-ovqat (tag‘or) jamlash muhim ahamiyat kasb etar edi. Bu vazifa Allohdod, Oq Temur bahodir singari sarkardalar zimmasiga yuklatilar edi. Sharafuddin Ali Yazdiyning yozishiga ko‘ra, Amir Temur Dashti Qipchoqqa qilingan yurish (1390-1391) oldidan qo‘shinni bir yilga yetadigan oziq-ovqat, qurol-yarog‘, kiyim-kechak va boshqa safar uchun zarur ashyolar bilai ta’minlashni o‘z noiblariga buyurgan. Har bir suvoriyga bitta yoy, 30 ta o‘q, bir sadoq, bir qalqon va bitta qo‘shimcha ot ajratilgan, yurish vaqtida har o‘ng jangchi bir chodir, ikki belkurak, bir kerki, bir o‘roq, bir arra, bir tesha, bir bolta, 100 dona nina olgan.

Abdurazzoq Samarqandiyning qayd etishicha, har bir jangchining, arqon, bir dona pishiq teri va bitta qozon olib kelishi lozim bo‘lgan.

“Amir Temur tuzuklari”da ta’kidlanishicha, safar chog‘ida oddiy askarning har o‘n sakkiztasiga bitta chodir berilgan. Har bir jangchi ikkita ot, yoy, sovut, qilich, juvoldiz, qop, o‘nta nina, arra va teri xalta (chanach)ga ega bo‘lgan. Ularning har bittasi dubulg‘a, sovut, qilich, o‘q-yoy, sadoq va buyruqda ko‘rsatilgan miqdorda ot bilan ta’minlangan.

O‘nbegining alohida chodiri bo‘lgan. U sovut, qilich, o‘q-yoy, sadoq bilan qurollangan va beshta qo‘shimcha ot olish huquqiga ega bo‘lgan. Yuzbegining ham alohida chodiri bo‘lgan. Uning qurol-yarog‘i qilich, o‘q-yoy, sovut, sadoq, gurzi, oyboltadan iborat bo‘lgan. Unga o‘nta qo‘shimcha ot berilgan. Mingbegi chodirdan tashqari soyabon bilan ham ta’min etilgan. Dubulg‘a, zirh (chahoroyna), sovut, nayza, qilich, sadoq va o‘q singari rang-barang qurol turlari bilan qurollangan.

Ispan elchisining qayd etishicha, Amir Temur har bir yurishi chog‘ida mohir qurolsoz ustalarni qarorgohiga olib kelgan, uning poytaxti Samarqandda joylashgan arkda qurol-yarog‘ va qalqonlar yasash bilan shug‘ullangan mingga yaqin qurolsozlarning maxsus ustaxonalari bo‘lgan.

Amir Temur qo‘shinlarining harbiy jang san’atida taktika muhim o‘rin tutgan. Taktika jihatdan Amir Temur armiyasi o‘ziga xos xususiyatlarga ega edi. Qo‘shin yetti qism - yetti qo‘lga ajratilgan, qismlarning jang maydonida hamda yurish vaqtida talab darajasida harakat qilishi uchun zarur tadbir va rejalar ishlab chiqilgan, ularni jang paytida operativ boshqarishga alohida katta e’tibor qaratilgan. Amir Temur o‘nlik, yuzlik, minglik hamda tuman qo‘mondonlarini tanlash masalasiga bevosita rahbarlik qilgan. Lashkarboshilik salohiyatiga ega bo‘lgan qo‘mondonlarning to‘g‘ri tanlanganligi va o‘z joyiga

qo‘yilganligi aksar hollarda jang natijasining muvaffaqiyatli yakunlanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatgan.

Sohibqironning harb san’ati rivojiga qo‘shgan ulkan xizmatlaridan yana biri - qo‘shin qanotlarini jang chog‘ida dushman hujumidan muhofaza qilish va aksincha, dushman kuch¬larini yon tomonidan aylanib o‘tib, unga ort tomondan zarba berish maqsadida tuzilgan otliq qismning joriy etilishidir.

Amir Temur dushmaniga qo‘qqisdan qaqshatqich zarba berish usuli bilan shuhrat qozongan edi. G‘anim o‘rdagohi aniqlangach, aksariyat hollarda Sohibqiron unga maxfiy yoki o‘tish o‘ta mashaqqatli bo‘lgan, hech bir kimsaning oyog‘i yetmagan dovonlar, daradar, so‘qmoqlar, tog‘u toshlar orqali, tunda ulovlarni jilovidan tutgan tarzda yaqinlashar, quyosh o‘zining zarrin nurlarini bepoyon zamin uzra socha boshlashi bilan g‘aflat uyqusida yotgan dushmanga quyundek yopirilar edi.

Amir Temur harbiy yurishlarga ko‘proq ko‘klam, yoz va kuz oylarida otlanishni ma’qul ko‘rar, kishining qahraton kunlarini aksar qishlov uchun mo‘ljallangan qishloqlarda o‘tkazardi. Jang-u jadal va muhoraba anjomlari tartibga solinib, jibaxona, ya’ni qurol-yarog‘ omboridagi jibalar sipohiylarga ulashilib, yurish muhlati yetib kelgach, qo‘shin otlarga mingan. Ayni paytda o‘g‘ruq (oboz) ham yo‘lga chiqqan.

Sharafuddin Ali Yazdiyning ta’kidlashicha, safar tartibiga ko‘ra har bir tumanbegi, mingbegi, yuzbegi, o‘nbegi o‘z darajasi, mavqei va safda egallagan o‘rniga qarab qism va bo‘linmalari bilan jangovar tartibda harakat qilgan. Tartibni buzgan shaxs oliy bosh qo‘mondon tomonidan qattiq jazolangan. Qo‘shin dam olishga to‘xtaganda yoki janggohga tushganda lashkargoh atrofi bir-biriga zanjirband qilingan aravalar bilan mahkam o‘ralgan, shox-shabbalar bilan to‘silgan, girdiga chetan-chapar qo‘yilgan, ichiga mo‘ndu o‘rnatilgan xandaqlar bilan ixota qilingan. Istehkom kunduzgi - yazak va tungi - taloya soqchi bo‘linmalar yordamida qo‘riqlab turilgan. G‘animning qorasi ko‘rinishi bilan lashkar xandakdan chiqqan hamda jangovar saf tuzgan holda unga qarshi yuzlangan. Yurish yoki muhoraba chog‘ida boshboshdoqlik hamda parokandalikka yo‘l qo‘ymaslik maqsadida har bir bo‘linma, guruh, qismning o‘z o‘ron - paroli belgilangan.

Aksariyat vaziyatlarda g‘animni janggohga kiritish maqsadida Sohibqiron o‘zini zaif qilib ko‘rsatar edi. Ushbu strategik hiyla (savqul-jaysh) ko‘p hollarda muvaffaqiyat keltirgan.

Muxolifatchi lashkar bilan dastlabki to‘qnashuvni razvedka vazifalari bilan mashg‘ul bo‘lgan yengil suvoriylar, ya’ni, qorovul boshlab bergan. Shundan so‘ng, o‘ng va chap qanot ilg‘or qismlari - barang‘ar hiravuli va juvang‘ar hiravuli madadida asosiy ilg‘or qism mang‘lay jangga qadam qo‘ygan. Mang‘lay ortidan barang‘ar hamda juvang‘arning qolgan ikki bo‘lagi, ya’ni chapavul va shaqavul peshma-pesh harakat qilgan. Mabodo ushbu kuch dushmanni mag‘lub etishga kifoya qilmasa, u holda bosh qo‘mondon-amirul-umaro boshchiligidagi yetakchi kuchlar-qo‘l (g‘o‘l) hal qiluvchi hujumga tashlangan.

Amir Temur armiyasida ichiga yonuvchi modda - naft solingan ko‘zachalar, irg‘ituvchi o‘t sochish quroli - ra’dning uzluksiz ishlab turishini ta’minlovchi maxsus to‘pchilar – ra’dandozlar mavjud bo‘lgan. Mustahkam qal’a va qo‘rg‘onlarni qamal qilishda, dushman kuchlariga qirg‘in keltirishda samarali qurol hisoblangan ra’dni boshqaruvchi to‘pchilarning soni 10 ming kishiga yetgan. Ra’dandozlar Amir Temur tomonidan ilk marta 1379 yili Urganchni muxosara qilish vaqtida jangga solingan.

“Amir Temur tuzuklari”da, qo‘shin qo‘mondonlari safiga Amir Temur oliyhimmat, oqil, mard, tadbirkor, sezgir, jur’atli, sabotli, harb ishiga jondilini bag‘ishlagan iste’dodli shaxslarni jalb etish masalasiga katta e’tibor bergan. Har bir bek yoki amir o‘z noibi - o‘rinbosariga ega bo‘lgan. Biror bek yoki amir hayotdan ko‘z yumgan taqdirda noibi uning o‘rnini egallagan.

Yovning askariy guruhini tor-mor etgan mingbegi birinchi darajali amir unvoniga, yirik dushman qismini mag‘lub etgan birinchi darajali amir o‘z navbatida ikkinchi darajali amir mansabiga va shu yo‘sinda o‘zga bek hamda amirlar yuqoriroq harbiy martabaga ko‘tarilib borgan. Janggohda mardlik va qahramonlik ko‘rsatgan oddiy jangchilarning maoshi oshirilgan. Ba’zi sabablarga ko‘ra jang maydonini tashlab qochgan askarlar o‘lja taqsimotida ishtirok etishdan mahrum qilingan. Muhorabadan yarador bo‘lib qaytgan shaxslarning izzat-hurmati joyiga qo‘yilgan, ularga Amir Temurning marhamati ko‘rsatilgan.

Biror kishvarni fath qilgan yoki g‘anim armiyasini mag‘lubiyatga uchratgan sarkarda uchun uch xil mukofot ta’sis etilgan, ya’ni sharafli bahodir unvoni hamda tug‘ va nog‘ora berilgan. Ayni shunday yuksak mukofot bilan muxolifatchi taraf taxt vorislari rahnomoligidagi qo‘shinni parishonlikka solgan amir yoki bekning ham shavkati ziyoda qilingan.

Jangu jadal chog‘ida shijoat ko‘rsatib, dushman guruhini qochirishga muyassar bo‘lgan o‘nbegi shahar dorug‘asi, yuzbegi esa viloyat hokimi vazifasiga tayinlangan. Dushman ustidan zafar quchgan mingbegi viloyat voliysi mansabi bilan taqdirlangan.

Biror mamlakat yoki yurtni egallagan amirga o‘sha yerlar ma’lum shart va imtiyozlar asosida boshqarilish uchun suyurg‘ol tarzida inoyat qilingan. Amir Temur va temuriylar davrida suyurg‘ol yer egaligining keng tarqalgan turlaridan biri bo‘lib, nasldan naslga o‘tgan. Suyurg‘ol egasi davlat hisobiga to‘lanishi zarur bo‘lgan soliqlardan ozod qilingan. Bunday suyurg‘ol turi “darbasta suyurg‘ol” deb yuritilgan.

Dovyurak pahlavonlar harbiy yurishlarda ko‘rsatgan jasoratlari uchun baland darajaga erishib, boobro‘ kishilar qatoridan o‘rin olgan. Ular gurzi, olachuk (chodir), murassa’ kamar, qilich va saman ot kabi pahlavonlik nishonlari bilan e’zozlangan. Botirlarning ko‘pchiligi keyinchalik o‘nlik, yuzlik, mingliklarga qo‘mondonlik qilishdek mas’uliyatli vazifalarga qo‘yilgan.

Yuqorida tilga olingan o‘n ikki amirdan har biri o‘z dovul (tabl) va bayrog‘iga ega bo‘lgan. Bosh qo‘mondon nog‘ora hamda alamdan tashqari burg‘u, tumantug‘ va chortug‘ bilan nishonlangan.

Mingbegi tug‘ va karnayga ega bo‘lgan. Yuzbegi va o‘nbegiga nog‘ora berilgan. Turli qo‘shin, ya’ni qism qo‘mondonlari tegishli nishonlar bilan ta’minlangan. Beklarbegi yoki amirul-umaro bayroq, nog‘ora chortug‘ va burg‘u singari nishonlarga sazovor bo‘lgan.

Rui Gonsales de Klavixoning ta’rifiga ko‘ra, temuriy lashkarboshi tinchlik chog‘ida zarhal ip bilan tikilgan havorang satin ko‘ylak kiygan. Uning boshida dur hamda boshqa qimmatbaho toshlar qadalgan bo‘rk bo‘lgan. Bo‘rkning ostidan uch qator qilib o‘rilgan ikki kokil yelkaga tushib turgan. Elchi bu yo‘sinda o‘rilgan sochlar Amir Temur askarlarining nishoni ekanligini alohida qayd etadi.

Harbiy yurish yoki razmdan oldin qo‘shinni ko‘rikdan o‘tkazib, uning jangovar ruhi va holatini aniqlash an’ana tusiga kirgan. Amir Temur qo‘shinning jangovar holatini sahro, dasht va yaylovlarda nazardan o‘tkazib, imtihon qilar edi. Yetarli miqdordagi lashkar jam bo‘lgach, barcha qo‘shin turlari - yoychilar, nayzadorlar, sangandozlar, taxshandozlar, manjaniq, arroda, tiricharx otuvchilar hamda boshqa askariy qismlar ko‘rikdan o‘tkazilgan. Ko‘rikdan nafaqat asosiy jangovar qismlar, shuningdek, ular ortidan boruvchi og‘ir karvon - no‘gruq (ovoz) ham o‘tkazilgan.

Farmoni oliyga muvofiq askarlar boshdan-oyoq temir sovutlar kiyib, zarur qurol-yarog‘larni olib otga minganlar, ko‘rik uchun saflarni rostlaganlar. Maydonda har bir qismga taalluqli ko‘k, sariq, binafsha, qizil, qora rangdagi bayroq va yalovlar hilpirab turgan. Harbiy musiqachilar ijro etayotgan jangovar musiqalar ostida oliy bosh qo‘mondon qo‘shin qismlarini birin-ketin ko‘zdan kechirib chiqqan. Saf tortib turgan jangchilar nayzalarini baland ko‘tarib, hammalari bir maromda kuchli na’ra tortib, suron solib, yurishga shay ekanliklarini izhor qilganlar.

Bir favjning qurol-yarog‘i, a’lam va bayrog‘i, kiyim-kechagi, jibasi qizil, ikkinchi guruhning rangi ko‘k, uchinchi guruhning rangi ok, to‘rtinchi favjning rangi binafsha, beshinchi guruhning rangi sariq va hokazo bo‘lib, barchasi Sohibqironning tahsiniga sazovor bo‘ladi. Shu alfozda tong saharida boshlangan ko‘rik peshin oxirigacha davom etgan.

Amir Temur armiyasi safar paytida quyidagi jangovar tartibda harakat qilgan. Bosh kuchlardan ancha ilgarida qoravul - avanpost, undan keyin mang‘lay - (hiravul) - avan¬gard, barang‘ar, juvang‘ar, qo‘l, chagdavul - arergard yurgan. Qo‘shin ortidan o‘g‘ruq peshma-pesh kelgan.

Qo‘shinda suvli to‘siqlarni kechib o‘tishga alohida e’tibor qaratilgan. Daryolarning sayoz yerlari guzar – kechikka aylantirilgan va soqchi otliq guruhlar tomonidan ehtiyot qilingan. Daryo yoqasiga yetib kelgan qo‘shin kechuvdan qism-qism bo‘lib o‘ta boshlagan. Ko‘klam va kuz faslining seryomg‘ir kunlarida daryo suvining ko‘payishi natijasida guzardan o‘tish ancha mushkullashgan. Teran daryolar ustida qayiqlar yordamida bog‘langan ko‘prik orqali og‘ir texnika hamda o‘g‘ruq o‘tkazilgan. Suvoriylar ko‘pincha tezoqar daryolardan otning yugani va yoliga osilgan tarzda, piyodalar esa meshlar ko‘magida osonlik bilan talafotsiz kechib o‘tgan. Sohibqiron jang maydonini tanlashda bevosita ishtirok etgan. Janggohning tekis, keng va qo‘shin qismlarini joylashtirishga qulay bo‘lishi talab qilingan. Ayniqsa, ma’rakagohning ichimlik suvi manbaiga yaqin bo‘lishi hamda razm vaqtida quyosh nurining jangchilar ko‘ziga tushmasligi maqsadga muvofiq hisoblangan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Raximov J. Amir Temur – adolat va qudrat timsoli. Toshkent: “O‘qituvchi”, 2015. 530 b.

2.Raximov J. Amir Temur – buyuk arbobi va ulug‘ sarkarda. Toshkent: “Ziyonashr”, 2023. -680 b.

3.Руи Гонсалес Де Клавихо. Дневник путешествия в Самарканд ко двору Тимура. (1403-1406 г.) Пер. со староисп. Предисл. коммент. И.С.Мироковой. – Москва: Наука, 1990.

4.Temur tuzuklari. Raximov J. tahriri ostida.

10.Eshov B., Odilov A. O‘zbekiston tarixi. I jild. Eng qadimgi davrdan XIX asr o‘rtalarigacha. Darslik. – T.: Yangi asr avlodi, 2014. -416 b.

AMIR TEMURNING SIYOSIY FALSAFASI VA DAVLAT BOSHQARUVI.

Muradov F.D.,

Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti

“Ijtimoiy-gumanitar fanlar” kafedrasi katta o‘qituvchisi

Sattorov A.O‘.,

Toshkent menejment va iqtisodiyot institutining talabasi

“O‘zbek davlatchiligi tarixida Amir Temurning o‘rni beqiyos va juda katta ahamiyatga ega ekanligini jahon tan oladi”[1, 6-b.]. Amir Temur (1336-1405) — tarixda o‘zbek va boshqa xalqlarning eng ma’ruf va ta’sirli shohlaridan biri. Uning siyosiy falsafasi va davlat boshqaruvi faoliyati nafaqat o‘z zamonida, balki keyingi asrlarda ham ko‘plab millatlar uchun namuna bo‘ldi. Temurning davlat boshqarish usullari, harbiy strategiyalari va mafkuraviy qarashlari uning davrining siyosiy manzarasida muhim o‘rin tutadi.

Amir Temurning siyosiy falsafasi, avvalo, markazlashgan davlatni tashkil etish va uni samarali boshqarishga qaratilgan. U o‘z davlatida adolat, tartib-intizom va iqtisodiy rivojlanishni ta’minlashga intiladi. Bu maqsadlarga erishish uchun Temur o‘zining siyosiy va harbiy faoliyatlarini jamiyatning barcha qatlamlariga ta’sir ko‘rsatish uchun faollashtirdi.

Temurning davlat boshqaruvi, shubhasiz, ko‘plab zamonaviy davlatlar uchun namuna bo‘ldi. U, o‘zining davlat idoralari, huquqiy tizimi va harbiy tashkilotlari bilan, samarali davlat boshqaruvini ta’minlashga erishdi. Uning falsafasi va amaliy faoliyati, jumladan, adolat va inqilobiy o‘zgarishlar, o‘zbek xalqining tarixida uzoq muddatli ta’sir ko‘rsatdi. Temurning siyosiy falsafasi va davlat boshqaruvi, shubhasiz, murakkab va ko‘p qirrali. Uning hayoti va ishi, faqat siyosat bilan birga, madaniyat, iqtisod va harbiy strategiyalar bilan ham bog‘liq. Shuning uchun, Amir Temurning falsafasini

to‘liq tushunish uchun uning davrining tarixi, ijtimoiy va madaniy kontekstida qarash muhim.

Temur, o‘zining davlatini mustahkamlash va barqarorlikni ta’minlash maqsadida, markazlashgan davlat boshqaruvi tizimini joriy qildi. U, davlat idoralari va resurslarini samarali boshqarish orqali o‘z hududidagi barcha to‘siqlarni yengishga intildi.

Markazlashgan davlat konsepsiyasi — bu davlat boshqaruvi tizimi, unda barcha hokimiyat va qaror qabul qilish mexanizmlari markaziy organga tegishli bo‘ladi. Amir Temur davrida bu konsepsiyaning asosiy prinsiplari mamlakatning siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishida muhim rol o‘ynadi. Uning konsepsiyasi adolat, tartib-intizom va jamoat manfaatlarini birinchi o‘ringa qo‘ydi. Bu, o‘z navbatida, Temurning davlat boshqaruvi falsafasining mustahkam asosini to‘g‘riladi. Markazlashgan davlatning samaradorligi, Temurning harbiy va siyosiy strategiyalarida ham yaqqol namoyon bo‘ldi, bu esa mamlakatning ijtimoiy barqarorligi va iqtisodiy rivojlanishini ta’minladi. Shu tariqa, Amir Temurning markazlashgan davlat konsepsiyasi, o‘z zamonidagi murakkab siyosiy shart-sharoitlardan kelib chiqib, davlat boshqaruvining samaradorligini oshirishga va xalqning manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan edi.

Amir Temurning harbiy siyosatlari mamlakatning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishida muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Uning harbiy strategiyalari va taktikalari nafaqat o‘z davridagi harbiy muvaffaqiyatlarni ta’minladi, balki Temur davrida tashkil etilgan davlatning barqarorligi va kuchini ham shakllantirdi. Amir Temur davridagi davlat idoralari va strukturasi, markazlashgan boshqaruvni ta’minlash va mamlakatning barqaror rivojlanishini kafolatlash maqsadida shakllantirilgan. Uning davlat tashkilotlari, samarali boshqaruv mexanizmlari va ijtimoiy adolatni ta’minlashga intilishlari, davlatning ichki va tashqi siyosatini mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan. Temuriylar buyuk davlatining asoschisi Temur ibn Tarag‘ay, yoshligidanoq zo‘ravonlik va zo‘ravonlarga qarshi kurash olib borib, jamiyatda adolat me’yorlariga muvofiq ish yuritish tuyg‘ulari bilan birga o‘sdi va kamolot darajasiga ko‘tarildi.

Temur asos solgan davlatda o‘rnatilgan huquqiy tizim har doim ustun bo‘lib, uning talablariga rioya qilish barcha uchun majburiy bo‘lgan, tartibni buzgan va o‘z vazifasini bajarmagan kishilarga qattiqqo‘llik bilan

munosabatda bo‘lingan. Ayniqsa, davlat xavfsizligini buzganlar qattiq jazolanganlar. Sohibqiron Amir Temur islom huquqshunoslik ilmini har tomonlama o‘zlashtirib olgan edi. Bu sohada u zot yuksak darajaga ko‘tarilib, fatvo berish salohiyatiga ega bo‘lgan.

Amir Temur davlatida islom huquqining asosiy qoidalaridan biri bo‘lmish va hozirda ham xalqaro miqyosida qabul qilingan qoida, ya’ni “jinoyatning shaxsiyligi”ga jiddiy rioya qilingan, ya’ni jinoyatchining gunohi uchun uning qavm-qarindoshi, og‘a-inilari (jinoyatda ishtirok etmagan holda) javobgar bo‘lmaganlar, shuningdek, jinoyatga qo‘l urgan kishi jazosiz qoldirilmagan va gunohsiz kishini jazolashga yo‘l qo‘yilmagan. Amir Temur ushbu prinsipni davlat huquqiy tizimining asosiy qoidalaridan biri deb bilgan. U “men har doim askarlarimni qonunga itoat qilish ruhi bilan tarbiyalab keldim, qonun buzuvchilarni jazosiz qoldirmadim” deb ta’kidlagan edi [2, 549-550-bb.].

Temur, davlat idoralarini tashkil etishda, har bir organning o‘rni va vazifasini aniq belgilagan, bu esa resurslarni samarali taqsimlashga va qaror qabul qilish jarayonini tezlashtirishga yordam berdi. Uning idoralari faqatgina siyosiy boshqaruv bilan cheklanib qolmay, balki iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy sohalarda ham faoliyat yuritgan.

Shu bilan birga, Temurning davlat tizimi, xalq manfaatlarini muhofaza qilish va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashda muhim rol o‘ynagan. Uning idoralari, adolatli va tartibli jamiyatni tashkil etish maqsadida ishlagan, bu esa davlat boshqaruvining samaradorligini oshirgan.

Shu sababli, Amir Temurning davlat idoralari va tizimlari, zamonaviy davlat boshqaruvi uchun muhim namuna bo‘lib, tarixiy kontekstda jamiyatning rivojlanishidagi ijtimoiy va iqtisodiy omillarni o‘rganishga yordam beradi.

Temur, harbiy rahbar sifatida, o‘zining tashabbuslari va strategik qarorlari bilan aniq va samarali harbiy siyosatni joriy qildi. Uning asosiy maqsadlaridan biri o‘zining davlatini mustahkamlash va uning hududini kengaytirish edi. Uning harbiy siyosatlari, shuningdek, mafkuraviy va ijtimoiy omilarga ham asoslangan bo‘lib, xalqni birlashtirish va milliy g‘ururni oshirishga xizmat qildi.

Temurning harbiy siyosatlari, shubhasiz, uning harbiy tashkilotlari, taktikalari va jang texnikasida o‘zini namoyon qildi. Uning mafkuraviy prinsiplari harbiy falsafasini shakllantirdi, bu esa uning davrida harbiy

muvaffaqiyatlarning asosiy omili bo‘ldi. Uning harbiy siyosatlarini tahlil qilish, Temurning davlat boshqaruvi va ijtimoiy rivojlanishga bo‘lgan ta’sirini teranroq tushunishga yordam beradi.

Amir Temurning harbiy strategiyalari davlat boshqaruviga katta ta’sir ko‘rsatdi. Uning harbiy faoliyati, faqatgina janglardagi muvaffaqiyatlar bilan chegaralanib qolmadi, balki davlatni mustahkamlash, iqtisodiy rivojlanish va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashda ham muhim rol o‘ynadi.

Temurning harbiy siyosatlari, markazlashgan davlat konsepsiyasini amalga oshirishga xizmat qildi. Uning harbiy g‘alabalari davlat hududini kengaytirish va resurslarni samarali ravishda boshqarish imkonini berdi. Bu o‘z navbatida, davlat idoralarini mustahkamlash, iqtisodiy aktivlarni oshirish va xalqning ijtimoiy holatini yaxshilashga olib keldi.

Shuningdek, Temurning harbiy strategiyalari xalq o‘rtasida milliy g‘ururni oshirib, ularni davlatga bo‘lgan ishonchini mustahkamladi. Uning harbiy muvaffaqiyatlari davlat boshqaruvini samarali va barqaror qilishga yordam berdi. Ushbu faktorlar, davlat boshqaruvining strukturasi va mexanizmlarini takomillashtirishda muhim ahamiyatga ega bo‘ldi.

Amir Temurning siyosiy falsafasi va davlat boshqaruvi zamonaviy dunyoda ham muhim ahamiyatga ega. Uning prinsiplari, markazlashgan davlat konsepsiyasi, adolat, tartib-intizomga asoslangan boshqaruv usullari, zamonaviy davlatlar uchun samarali boshqaruv modellari sifatida xizmat qilishda davom etmoqda.

Temurning davlat boshqaruvi o‘rganilishi, jamiyatda barqarorlikni ta’minlash, iqtisodiy rivojlanishni rag‘batlantirish va ijtimoiy adolatni ta’minlash uchun katta imkoniyatlar yaratadi. Uning siyosati, xalq manfaatlarini birinchi o‘ringa qo‘ygani sababli, zamonaviy rahbarlarga ham namuna bo‘la oladi.

Bundan tashqari, Temurning harbiy va siyosiy strategiyalari, jamiyatda milliy g‘ururni oshirishga, madaniy rivojlanishga va ijtimoiy birlashishga xizmat qildi. Zamonaviy davlatlarda ham bu prinsiplarni amalda tatbiq etish, ijtimoiy barqarorlik va iqtisodiy rivojlanishni ta’minlashda ahamiyatli hisoblanadi.

Amir Temur, o‘z zamonidagi o‘zbek va turkiy xalqlar uchun muhim shaxs bo‘lib, uning merosi zamonaviy dunyoda ham ahamiyatini yo‘qotgan emas. Uning tarixiy faoliyati, davlat boshqaruvi, harbiy strategiyalari va

madaniyatga qilgan hissasi, bugungi kunda ham ko‘plab mamlakatlarda o‘rganiladi va tadqiq qilinadi.

Temurning merosida adolat, tartib-intizom, markazlashgan davlat konsepsiyasi va milliy g‘urur kabi prinsiplar muhim o‘rin tutadi. Uning tarixiy hayoti va faoliyati, zamonaviy davlat rahbarlari uchun namuna bo‘lib xizmat qilishi mumkin, chunki u o‘zining siyosiy va iqtisodiy rivojlanishni ta’minlash uchun zarur bo‘lgan samarali usullarni joriy etgan.

Bundan tashqari, Temurning madaniy merosi, arxitektura, san’at va ilm-fan sohalaridagi muvaffaqiyatlari zamonaviy jamiyatlarda ma’naviy va ijtimoiy rivojlanish uchun ilhom manbai bo‘lib xizmat qilmoqda. Uning hayoti va faoliyati, madaniyatlararo muloqot va hamjihatlikni rag‘batlantirishda ham muhim o‘rin tutadi.

Amir Temur nafaqat buyuk sarkarda va yirik davlat arbobi, balki madaniyat, ilm-fan, me’morchilik va san’at rivojiga ulkan hissa qo’shgan hukmdor sifatida ham tarixda muhim o’rin egallaydi. Uning hukmronlik davrida Markaziy Osiyoda shaharsozlik, ilm-ma’rifat va hunarmandchilik jadal rivojlangan. Temur o’z saroyiga mashhur olimlar, me’mor va san’atkorlarni to’plab, ularning ijodiy faoliyatini qo’llab-quvvatlagan. Bugungi kunda uning madaniy merosi nafaqat O’zbekiston, balki butun dunyo tarixining ajralmas qismi hisoblanadi. U qurdirgan inshootlar, ilmiy va adabiy asarlar hamon insoniyat madaniyatining bebaho boyligi sifatida qadrlanadi.

“U behuda so‘zlash va hazilkashlikni yoqtirmasdi, hech qachon havo va havasga ko‘ngil bermasdi, to‘g‘rilik va rostlikni hatto uning zarariga bo‘lsa ham yaxshi ko‘rardi. Uning majlisida nosazo aytish, qon to‘kish, asirlikka olish, or-nomusga tegish va g‘orat qilishdan so‘zlash mumkin emas edi. Temur yetuk aql, ajoyib idrok, yuksak baxtu iqbol, kelishgan tole, izchil iroda va qat’iy fikr egasi edi. Nihoyat ziyraklik bilan haqni botildan ajrata olib, o‘z dahosi bilan haqiqiy o‘git beruvchini laganbardordan farq etardi… O‘z yorqin fikrlari bilan porlok yulduzlarga yo‘l ko‘rsatardi va yulduzlar o‘qi uning ra’yi (fikri) va irodasiga qarab, maqsadga borib tegadi deb o‘ylardi kishi”[3, 65-b.].

Timurning tarixi, turkiy xalqlari uchun milliy g‘urur manbai bo‘lib, u o‘z davridagi davlat boshqaruvi v ijtimoiy rivojlanishdagi murakkabliklarni o‘rganishga yordam beradi.

Amir Temuning siyosiy falsafasi adolat, kuchli markazlashgan davlat, tartib-intizom va ilm-ma'rifatga asoslangan boshqaruv tamoyillariga tayanadi. U o'z davlatini barqaror saqlash va mustahkamlash uchun kat'iy qonun-qoydalar joriy qilgan, «Temur tuzuklari» orqali davlat boshqaruvi va xarbiy strategiyani mukammal tartibga solgan. Uning siyosiy tamoyillari keyingi asrlarda ham ko'plab hukmdorlar va davlat arboblari uchun namunavi tizim bo'lib xizmat qilgan.

Shu sababli, Amir Temurning merosi, uning zamonaviy dunyodagi o‘rni va ahamiyati, tarixiy kontekstdan olib qaralganda, jamiyatlarning rivojlanishidagi ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy omillarning murakkabligi bilan bog‘liqdir.

Temurning boshqaruv uslubi nafaqat uning imperiyasini qudratli va barkaror qildi, balki ilm-fan, madaniyat va iqtisodiyotning rivojlanishiga ham zamin yaratdi.

Amir Temurning siyosiy falsafasi va davlat boshqaruvi, faqatgina tarixiy kontekstda emas, balki zamonaviy jamiyatlar uchun ham o‘rganish va tadbiq etish uchun muhim manba bo‘lib xizmat qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.. To‘lqin Hayit. Temuriy ijodkorlar. Toshkent, 2016 yil.
2. Oriental Art and Culture. Scientific Methodical Journal. June 2023.
3.Ibn Arabshoh. Amir Temur tarixi. T. 1992 yil. 2-jild.

JADIDLARINING YOSHLARNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHDA AMIR TEMUR MEROSINI AHAMIYATI

Mirzajonov G‘T.,
Jamoat xavfsizligi universiteti mustaqil izlanuvchisi

Ko‘pgina taraqqiyparvar jadid bobolarimiz Amir Temur va uning davrini allaqanday o‘zgacha sog‘inch bilan yodga oladilar. Bu ham bejizga emas. Negaki, sohibqiron davrida Turkiston ilm-fanda ham, san’atda ham, iqtisodiy salohiyatda ham va nihoyat harbiy sohada ham dunyoning eng qudratli saltanati sifatida o‘zini to‘la namoyon etib ulgirgan edi. Amir Temurning hayotlik davrlaridan boshlab jahon adabiyoti namoyandalarining diqqat markazida bo‘lib keldi. Birgina Ovrupo xalqlari adabiotida unga bag‘ishlangan 20 dan ziyod roman va pyesalar mavjud. Ayrim

manbalarga qaraganda, bu raqam hatto ikki baravarga ko‘p. Sharq xalqlarining bu muborak mavzuga bag‘ishlangan asarlarining soni esa hali aniqlanmagan. Shu bilan birga sho‘rolar davri o‘zbek adabiyotida Amir Temur mavzuiga murojaat etish gunohi azim deb e’lon qilindi. Turkistonda 1918-yildan boshlab kimki bu buyuk tarixiy siymoni tasvirlash niyatida bo‘lgan bo‘lsa, uning boshiga ko‘pgina malomat toshlari yog‘ildi [1, 3-b]. Sho‘rolar tuzumining qarshiligiga qaramasdan Abdurauf Fitrat, Amir Temur obrazini yaratishdek xayrli ishga qo‘l urdi.

Abdurauf Abdurahmon o‘g‘li Fitrat XX asr milliy tafakkurimiz tarixini favqulodda qobiliyat va iste’dod egasi bo‘lib, hayoti va ijodiy faoliyati tarix chorrahasining eng murakkab, o‘ta qaltis davrida kechdi. Fitrat o‘zbek xalqi ilm-fani va madaniyati tarixida samarali iz qoldirgan siymolaridan, istiqlolimizni oldindan ko‘ra olgan fidoyi jadidlardan biridir. Uning asarlarida chor Rusiyasi tomonidan Turkiston zo‘rlab bosib olinib mustamlakaga aylantnrilganligi, xalqimiz uchun mustaqillik o‘tmishga aylana boshlaganligi keskin qoralangan. U bu haqda o‘zining “Yurt qayg‘usi” she’riy to‘plamida “Ko‘rdim, kezdim, eshitdim, o‘qidim. Mamlakatlar orasinda Turkistonimiz kabi baxtsiz bir mamlakat yo‘qdir”, - deb yozgan edi [2, 99-b].

Fitrat merosining butun botinida Turkiston taqdiri, uning boshiga tushgan mushkul ahvol uchun qayg‘urishdek mahzun bir ruh ustuvor bo‘lgan. Uni hurriyat sari, ozodlik sari yetaklovchi kuch yo‘qligidan qiynaldi. “Ey ulug‘ Turon, arslonlar o‘lkasi! Senga ne bo‘ldi? Holing qalaydur?! Nechuk kunlarga qolding? Ey Chingizlarning, Temurlarning, O‘g‘uzlarning, Otillalarning shonli beshiklari! Qani u chiqdig‘ing, yuksak o‘rinlar? Qullik chuqurlariga nedan tushding! Dunyoni “urho”lari bilan titratgan yo‘lbars yurakli bolalaring qani? Yer tuprog‘ini ko‘klarga uchiraturg‘on tog‘ gavdali o‘g‘lonlaring qani? ...” deb fig‘on qildi [3, 31-b]. Fitrat mustamlakachilik iskanjasida siqilib yotgan o‘zbeklarni ozodlik kurashiga da’vat etadi. Bu yerda mustaqillikni tiklash va milliy davlatni tashkil etish g‘oyasi barq urib turibdi. U xalq dardi bilan, uning tashvishi bilan yashadi, o‘z vatanining hur va farovon bo‘lishini orzu qildi.

Chor hukumati Turkistonni bosib olgandan so‘ng milliy davlat, milliy qo‘shin va milliy chegaralarni yo‘q qilib, o‘lkani Rossiya imperiyasining tarkibiy qismiga aylantirdi. O‘lkada siyosiy-ma’muriy tizim mustamlakachilik va milliy zulmga asoslangan bo‘lib, xalqqa siyosiy va insoniy huquqlar berilmadi. Jamiyatda adolatsizlik, zo‘ravonlik, haqsizlik, nazorat va ta’qib hukm surdi. Bunday ozodlikni barbod etgan boshqaruv tizimi jadidlarning siyosiy qarashi va faoliyatini shakllantirdi. 1916-yilda bo‘lgan qo‘zg‘olon jadidlarning g‘oyaviy qarashlariga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi. U milliy ozodlik kurashining kuchayishi, milliy mustaqillik g‘oyasining keng yoyilishiga turtki bo‘ldi. Ular “mardikor olish bo‘yicha yerli mahalliy qo‘mitalar vositasida qo‘zg‘olonchilarning ozodlikka intilishlarini qo‘llab-

quvvatlashdi, kuch va imkoniyatlari doirasida urush ortidagi ishchilar qismatini yengillashtirish, hokimiyatning ta’minotidagi o‘zboshimchalik va zo‘ravonliklarini bartaraf etish uchun barcha choralarni ko‘rdilar” [4, 23-b].

1917-yildagi Fevral inqilobi tarkibida Turkiston singari mustamlakalari bo‘lgan podsho Rossiyasi imperiyasini ag‘darib tashladi. Jadid mutafakkirlari mustamlaka asoratidan xalos bo‘lib, mustaqil davlat sifatida qanot yozishiga katta umid bog‘ladilar. Milliy inqilobiy kuchlar 1917-yildagi Oktabr voqealaridan keyin ham o‘z niyatlaridan qaytmay, bolsheviklarning ta’sir doirasi kam bo‘lgan Qo‘chonda Turkiston muxtoriyatini barpo etdilar. Lekin 1918-yil fevralida muxtoriyat vaxshiylarcha yo‘q qilindi. Fitrat ana shunday bir vaziyatda Turkistonda ro‘y bergan voqealarga keskin munosabat bildirib, “Temur sag‘anasi” pyesasini yaratdi. Unda Fitrat pyesa qahramoni orqali Amir Temur ruhiga murojaat etib deydi: “Xoqonim, ezilib talangan, talanib yiqilgan, yiqilib yaralangan turk elining bir bolasi sendan ko‘mak istarga keldi. Bog‘lari buzilgan, gullari so‘lgan, bulbullari uchirilgan Turonning bir qorovuli senga arz etarga keldi. Bag‘rim yoniq, yuzim qora, ko‘nglim siniq, bo‘yim bukuk. Sening ziyoratingga keldim sultonim! Ezilgan boshim, qisilgan vijdonim, kuygan qonim, o‘rtangan jonim uchun bu sag‘anangdan davo izlab keldim, Xoqonim! Yuz yillardan beri jafo ko‘rib, g‘am chekib kelgan turkning qonli ko‘z yoshlarini etaklaringga to‘karga keldim. Qorong‘ular ichra qolgan o‘zbek ko‘zlari uchun tuprog‘ingdan surma olgani keldim. Turkning nomusi, e’tibori, iymoni, vijdoni zolimlarning ayog‘lari ostida qoldi.

Turkning yurti, ulog‘i, o‘chogi, Turoni yot qo‘llarga tushdi. Turkning belgisi, ongi, o‘ylovi, ziyrakligi jaholat o‘ljasiga ketdi. Sening qiliching bilan dunyo egasi bo‘lgan Turk tinchgina bir yotoq topolmay qoldi” [5, 298-299-b]. Fitrat lirik qahramon nomidan: “Sening Turoningni o‘zim talatdim. Sening turkligingni o‘zim ezdirdim. Sening omonatlaringga o‘zim xiyonat qildim”, deydi. Bu so‘zlar zamirida har bir avlod o‘z vatanining istiqloli uchun ajdodlari ruhi oldida mas’ul ekanligini bayon qiladi.

Fitrat o‘z asarlarida o‘zbek xalqining o‘tmishiga, an’analariga va tarixiy merosiga alohida e’tibor qaratgan. Amir Temurning tarixiy merosini, uning hukmronlik davridagi siyosiy, iqtisodiy va madaniy yutuqlarini chuqur tahlil qiladi. Fitratning bu asari, ayniqsa, Temurshohlar sulolasining davlatni boshqarishdagi strategiyalariga va mamlakatni rivojlantirishdagi ilmiy yondashuvlariga hurmat bilan qaraydi. U, o‘z asarida, Amir Temurning muhim siyosiy qarorlarini, shuningdek, uning madaniyat va ilm-fan sohalarida qoldirgan merosini ham yoritadi.

Fitratning “Temur sag‘anasi” dramasi, jadidchilik harakati bilan bevosita bog‘lanadi, chunki jadidchilik yangi fikrlar va yuksalish sari intilgan bir harakat sifatida, o‘z faoliyatida o‘tmishga, ayniqsa Temur davriga asoslanishni o‘zlashtirgan.

Xorijda nashr etilgan “Milliy Turkiston” jurnalining 1952-yilgi sonlarining birida Fitrat haqida M.H.Erturk taxallusli muallifning maqolasi bosilgan bo‘lib unda, jumladan, bunday ma’lumot berilgan: “Fitrat o‘zining sahna asarlarinda bobolarning qoldirgan meroslarindan bahs etadur. U Turkiston merosini chetlilar har jihatdan yo‘q etayotganligini xalqqa tushuntirish fikrinda bo‘ladur. U “Temur sag‘anasi” asarinda sahnaga ko‘k o‘rmon va uni kesilib turilganligini ko‘rsatadir. Shu vaqtda Temur kelib “Bu o‘rmonlarni kim kesayotirlar? Bobolarning meroslari ne holga tushdi?” deb chaqiradir. Fitrat bu usulda bobolar qoldirgan merosni qo‘rumoq lozimligini xalqqa uqdirmoqchi bo‘ladir” [6, 118-119-b].

Chor hukumatining Turkistondagi mustamlaka siyosati davrining o‘zbek xalqiga keltirgan fojiasi haqqoniy ravishda tasvirlanadi. Haqiqatdan ham o‘sha davrda mahalliy aholiga hech qanday haq-huquqlar berilmay oyoq osti qilinishi, xo‘rlanishi va qul kabi ishlatilishi avjiga chiqqan edi. Ammo hech qanday ta’qib va jazolar o‘zbeklarning vatanparvarligi va kurashini parchalay olmadi. Aksincha ozodlik uchun kurashni muqaddas burch deb hisobladilar. Bu “Temur sag‘anasi”ning qahramoni misolida ham yaqqol ko‘zga tashlanib turibdi. U mustaqillik va ozodlik ramzi bo‘lmish buyuk Amir Temurdan kuch-quvvat so‘raydi. Fitrat “Temur sag‘anasi” dramasi orqali jadidlarning siyosiy qiyofasini yoritdi desak, aslo xato bo‘lmaydi. U, jadidchilarning o‘zgarishlarga intilishining asosi sifatida Amir Temur va uning davridagi hukmronlik tajribalariga tayanadi. Temur davrining muvaffaqiyatlari va yangilanishlaridan ilhomlangan jadidchilik harakati o‘z xalqini yangi zamon talablariga moslashtirishga harakat qilgan.

Shuni ta’kidlash joizki, “Temur sag‘anasi” dramasi bir oz muddat teatr sahnalarida qo‘yildi. Zaki Validiyning guvohlik berishicha, “Temur sag‘anasi” va “Hind ixtilolchilari” pyesalari sahnaga qo‘yilganda, tomoshabinlar ko‘zidan yosh yomg‘irlari oqqan. Pyesa shu darajada ta’sir kuchiga ega bo‘lgan va shu tufayli, uning sahnaviy taqdiri uzoqqa bormagan [1, 3-b].

Fitratning “Temur sag‘anasi” asari, o‘zbek milliy g‘ururini kuchaytirish va yangilanishni amalga oshirishda muhim bir asar sifatida, jadidchilik harakatining falsafiy asoslaridan birini tashkil etadi. “Temur sag‘anasi” asarida Amir Temur davrida dunyoni titratgan, keyinchalik parchalanib ketgan ulug‘ Turon o‘lkasini qaytadan birlashtirishga, g‘aflat uyqusida yotgan millatlarning ko‘zini ochishga qarata aytgan ushbu hayqiriq – nidosi hozirgi davrimiz uchun ham to‘la hamohangdir.

Abdurauf Fitrat Turkistonning muqaddas tuprog‘ini zolimlarning oyoqlari ostidan tozalash uchun elni ittifoq bo‘lishga chaqiradi: “Bugun yer yuzida sakson million bolang bor. Bularning tomirlaridagi qon Temurlarning qonidir” [7, 182-b]. Fitrat Vatanini ozod va mustaqil, xalqini hur va erkin ko‘rishni vujud-vujudi ila orzu qilgandi. U jondan aziz sevgan, ardoqlagan Vatanining mustabid tuzum sharoitidagi

qismati, mustamlakachilik ahvoliga achinib “Yurt qayg‘usi” asarida, “o‘lim sening o‘limingni istaganlarga, nafrat seni ko‘mgani kelganlarga” deb mardona xitob etgandi. Amir Temurning tarixidagi o‘zgarmas roli, uning davlat quruvchiligi, siyosiy va ijtimoiy yutuqlari bugungi kunda ham qadrlanmoqda. Temurshohlar sulolasining ta’siri va ularning madaniyatga qo‘shgan hissalari, ayniqsa jadidchilik harakati tomonidan yangilanish va taraqqiyot istagi bilan izlanadi.

Chor hukumatining mustamlakachilik siyosati va mullalarning tushunchalari tor bo‘lganligi va ramkaga tushib qolganligi tufayli ezilib qolgan Turkiston dunyo madaniyati va ilg‘or fikrlardan ancha uzoqlashib qolgandi. Chor Rossiyasiga bunday shakl ma’qul edi. Hammaga ma’lum bo‘lgan 1917-yilning Oktabr inqilobidan keyin Turkistonda ham uyg‘onish davri boshlandi. Bu davrlardagi bosilib chiqqan nashrlar va o‘sha zamonning munavvar kishilari o‘qish va o‘qitish ishlari bilan band edilar. 1905-yilda ro‘y bergan ilk ishlardan biri Toshkentda bir jamiyati xayriya ochildi va ushbu jamiyatning yordami bilan rus ta’siri va rus maktablariga nafrat ko‘zi bilan qarovchi xalqning va munavvar turkistonliklarning zehniyatiga mos tushadigan kishilarni Turkiyaga o‘qishga yubora boshladi. Bu harakatni ko‘rgan ruslar mazkur jamiyatga va ilg‘or fikrli kishilarga ochiqdan-ochiq monelik qildilar. 1918-yildan boshlab 1921-yilga qadar butun G‘arbiy Turkistonda inqilob mafkurasiga qarshi yuritilgan istiqlol mujodalasi va bu kurashda berilgan ko‘pdan-ko‘p qurbonlar oxiri samara berdi, o‘qimishli odamlarga ehtiyoj mavjudligi haqidagi fikrlar ilgari surildi va uni rivoj toptirmaklik uchun rus ta’siridan uzoqda bo‘lgan yerlarga, xususan, Turkiya va Olmoniyaga talabalar jo‘natish masalasi Turkiston milliyotchilari tarafidan o‘rtaga tashlandi va uni amalga oshirishlik maqsadida katta tashviqot ishlari boshlab yuborildi [8, 244-b].

1917-yil Oktabr inqilobiga qadar Turkistondan Rossiya va boshqa xorijiy mamlakatlarning oliy o‘quv yurtlarida Fitrat, G‘ozi Olim Yunusov, Ubaydulla Xo‘jayev kabi bir qancha ziyolilar tahsil olib, o‘lkamizga qaytib kelganlar. 1917-yil Rossiyadagi Oktabr inqilobdan so‘ng ularning izdoshlari yanada ko‘paygan. O‘sha davrlarda G‘arbiy Yevropada eng taraqqiy etgan mamlakat - Germaniya erishgan yutuq va tajribalarni o‘rganishni zarur, deb hisobladilar. Buning uchun avvalo mahalliy yoshlarni Germaniyaga, shuningdek, Sharq va G‘arbdagi boshqa ilg‘or mamlakatlarga yuborish, ular yordamida bu mamlakatlarda erishilgan ilmiy-texnik yutuq va tajribalar bilan tanishish, shu asosda o‘lkani iqtisodiy va madaniy qoloqlikdan qutqarish mumkin edi. 1922-yilning oxiriga qadar Turkistondan chet ellarga turli-tuman yo‘llar bilan 200 ga yaqin talaba o‘qishga yuborildi. 25 talaba Turkiyaga, 25 talaba Ozarbayjonga (Bokuga), 50 ga yaqin talaba Moskvaga va 74 talaba Olmoniyaga o‘qishga yuborildi. Olmoniyaga yuborilgan talabalarning 56 tasi Buxoro jumxuriyatidan, 16 tasi Turkiston jumxuriyatidan va ikki talaba Xiva jumxuriyatidan edi [8, 245-b]. Germaniyaga yuborilgan turli yoshdagi mahalliy yosh

yigit va qizlar mamlakatning turli shaharlaridagi oliy va o‘rta maxsus o‘quv yurtlariga qishloq xo‘jaligi, tekstil sanoati, kimyo, elektrotexnika, konchilik, falsafa, pedagogika, tibbiyot va boshqa muhim sohalar bo‘yicha o‘qidilar.

Jadidchilar harakati o‘zbek millatining mustahkamlanishi va zamonaviylashtirilishi yo‘lida o‘tmishga, xususan, Amir Temur merosiga hurmat bilan qarashni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan. O‘zgarishlarga bo‘lgan intilish, xorijga tahsil olish uchun ketgan yoshlarning Amir Temur qabriga qasamyod qilishi, yangi fikrlar va g‘oyalar uchun ochiq bo‘lishni anglatadi. Shu nuqtai nazardan, Javlon Jovliyevning “Qo‘rqma” asari ham, o‘zgarishlarni qo‘llab-quvvatlash va yangilanishning muhimligini targ‘ib qiladi.

Amir Temur merosi va jadidchilik harakati Amir Temur, o‘zining kuchli davlat quruvchisi sifatida, barcha sohalarda muhim yangilanishlarni amalga oshirgan va o‘z davrida katta siyosiy yutuqlarga erishgan shaxs sifatida tarixda qolgan. Jadidchilik harakati esa, aynan shu o‘tmishga bo‘lgan hurmatni va Amir Temur davridagi muvaffaqiyatlarni o‘rganishni o‘z ichiga oladi. Jadidchilar, xalqning ta’lim-tarbiyasini modernizatsiya qilishni maqsad qilib qo‘ygan holda, o‘zbek va turkistonliklarning o‘zligini saqlash hamda zamonaviy dunyo bilan uyg‘unlashish maqsadida o‘tmishdagi ilg‘or tajribalarga murojaat qilishgan.

Xorijga o‘qishga ketgan talabalar va Amir Temur qabriga qasamyod Xorijga o‘qishga ketgan yoshlar, ayniqsa Turkiya va Germaniyada tahsil olish orqali, nafaqat yangi bilimlar olish, balki o‘z milliy merosini anglash va ularning kelajagi uchun o‘zgarishlarni amalga oshirish istagini sezganlar. Amir Temur qabriga qasamyod qilish, ular uchun tarixiy merosga hurmat va o‘z yurtiga xizmat qilishga bo‘lgan vafodorlikni ifodalaydi. Bu jarayon, ularning milliy g‘ururlarini, ajdodlariga bo‘lgan hurmatini va yangi fikrlarga ochiqligini ko‘rsatadi. Temur qabriga qasamyod qilish, shuningdek, o‘tmish bilan bog‘lanishni va kelajak uchun yangilanishni anglatadi.

Fitrat 1922-yilda iste’dodli o‘zbek yoshlarini Germaniyaga o‘qishga borishiga yaqindan yordam bergan. Talabalar Germaniyaga ketishlaridan avval Fitrat tashabbusi bilan Samarqandga borib, Go‘ri amirni ziyorat qilishgan va Temur sag‘anasi oldida Vatanni kelajakda obod va ozod qilish haqida qasamyod qilishgan [6, 119-b].

Iste’dodli Turkiston yoshlarining Germaniyaga o‘qishga yuborilishi o‘sha yillarning ijtimoiy-madaniy hayotida ulkan voqea bo‘lgan. Turli sohalarda zamonaviy bilimlar bilan qurollangan yoshlarning yuqori malakali kadrlar bo‘lib qaytishi xalqimiz va mamlakatimizning keyingi taqdiriga katta ta’sir o‘tkazishi mumkin edi. Afsuski, O‘zbekistonning mustamlaka tarzida qolishidan manfaatdor bo‘lgan sovet davlati dastlab bu talabalarning o‘qishni bitirmay turib qaytishlarini talab etdi, 1937

yilning qonli voqealari boshlanishi bilan ularni Germaniyaning josuslari va aksilinqilobchi-millatchi unsurlar sifatida mahv etib tashladi.

Germaniyada tahsil olgan ilk o‘zbek talabalari, ularning fojiali qismati haqida Javlon Jovliyevning “Qo‘rqma” asarida o‘zgarishlardan qo‘rqmaslikni, yangi imkoniyatlar uchun kurashish va zamonaviy dunyo talablariga javob berish g‘oyalarini targ‘ib qiladi. Asarda insonning o‘zgarishlarga bo‘lgan jasorati va o‘zlikni saqlab qolish yo‘lida kurashish muhimligi ta’kidlanadi. Bu asar, aynan jadidchilik harakatining intilishlarini qo‘llab-quvvatlaydi: o‘zgarishlarni amalga oshirish, yangi fikrlarni qabul qilish va milliy rivojlanishga erishish yo‘lida qarshi turadigan to‘siqlarni yengish. Jovliyevning “Qo‘rqma” asari jadidchilik harakatining ruhiyatini o‘zida aks ettirib, Temur davriga bo‘lgan e’tiborni yangi davrning ehtiyojlari bilan uyg‘unlashtirishni ko‘zda tutadi.

Hulosa o‘rnidashuni ta’kidlash lozimki, Amir Temur merosi, jadidchilik harakati va J.Jovliyevning asari o‘rtasidagi bog‘lanish, o‘zgarishlarga bo‘lgan ehtiyoj, yangi fikrlarga ochiqlik va milliy o‘zlikni saqlash muhimligini ko‘rsatadi. Jadidchilar va o‘tgan asrning 20-yillarida o‘qishga xorijga ketgan yoshlar, Amir Temurning tarixiy yutuqlariga hurmat bilan qarash orqali o‘zgarishlarni amalga oshirish va milliy taraqqiyot yo‘lida o‘z hissalarini qo‘shishga intilishgan. Jovliyevning “Qo‘rqma” asari esa, bu jarayonni qo‘llab-quvvatlab, o‘zgarishlarga qo‘rquvsiz qarash zarurligini ta’kidlaydi. O‘zgarishlar va yangilanishlar orqali milliy merosni yangilash, bu asarlar o‘rtasidagi eng muhim bog‘lanish bo‘lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Karimov N. Fitratning shaytonga isyoni. “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati”, 1993-yil 20-avgust. 34-son.
2. Tulenov J., Gafurov 3. Falsafa: Oliy o‘quv yurt talabalari uchun. – T.: O‘qituvchi, 1997. – 384 b.
3. Fitrat A. Tanlangan asarlar. Yurt qayg‘usi, “Hurriyat”, 1917 yil 28 iyul.
4. A’zamxo‘jayev S. turkiston Muxtoriyati: Milly-demokratik davlatchilik qurilishi tajribasi. – T.: “Ma’naviyat”, 2000. -168 b.
5. Ziyoyev H. O‘zbekiston mustaqilligi uchun kurashlarning tarixi: (Miloddan oldingi asrlardan to 1991-yil 31-avgustgacha). – T.: “Sharq”, 2001. – 448 b.
6. Karimov N. XX-asr adabiyoti manzaralari (birinchi kitob). – T.: O‘zbekiston. 2008. – 536 b.
7. “Sharq yulduzi”, 1992-yil. 4-son.
8. Turdiyev Sh. Ular Germaniyada o‘qigan edilar. - T.: 2006. - 256 b.
9. Jovliyev J. *Qo‘rqma*. Toshkent: “Ofset-print” MChj, Nihol nashriyoti, 2020. – 379 b.

AMIR TEMURNING HAYOTI VA FAOLIYATI YOSH AVLOD UCHUN IBRATDIR

Muhammadxonov Sh.M.,
Jamoat xavfsizligi universiteti ofitseri

Har qanday jamiyatning borgan sari rivojlanishi hamda butun dunyo saxnasida bo‘y ko‘rsatishi albatta, qadimiy tarixiga chambarchas bog‘liqdir. Agar tarix zarvaraqlarida buyuk ulamolar hamda tarixiy shaxslar yetishib chiqqan bo‘lsa, u millatning kelajagi ham aynan shunday ajdodlarga munosib ravishda sayqallanib boraveradi. Hozirgi kunda barcha sohalar singari milliy qadriyatlar bilan birgalikda, tarixda o‘chmas iz qoldirgan buyuk shaxslarni ham e’zozlash asosiy,eng dolzarb bo‘lgan masalaga aylanib ulgurdi. Chunki, tarixga e’tibori yuksak xalqning, kelajakka bo‘lgan umidi hamda ishonchi ham shu darajada kuchli bo‘ladi va buni butun dunyo isbotlagan.

“Barcha ellarni bir-biriga ruhan yaqinlashtirish qanchalik muhim bo‘lsa,turli avlodlar orasidagi nizoni yo‘qotish va mehr-u oqibatni mustahkamlash shunchalik zarurdir.Tabiat qonuniga binoan avlodlar almashinib turadi.Yangi avlod avvalgisining o‘rniga kelganida nizo chiqishi, alg‘ov-dalg‘ov bo‘lishi tarixda ko‘p uchraydigan hodisadir. Yangi avlod o‘z ota-bobolarining eng yuksak insoniy va ijodiy tajribasini egallaganda tarixning baland bir dovonidan oshganday bo‘ladi” [1,8.].

Darhaqiqat, milliy tariximizni qanchalik ulug‘ligini anglab yetsak,har qanday masalada tarixga nazar tashlagan holda odimlasak, o‘ylaymanki, barchasi o‘ylaganimizdek yuqori saviyada davom etadi. Bunga asosiy sabablardan aytadigan bo‘lsak, tarixni bilgan kelajakka ham to‘g‘ri qadam tashlay oladi.

Eng qadimgi davrlardan buyon davom etib kelayotgan buyuk silsila so‘nggi o‘rta asrlarda yanada taraqqiy etdi. Bunga asosiy sabablardan biri buyuk temuriyzodaning olamga kelishi bo‘ldi. Amir Temurning dunyoga kelishi nafaqat Movarounnaxr va Xuroson, balki, butun Osiyo mamlakatlarida eng avvalo ozodlik, ilm-fan, san’at, she’riyat, adabiyot, fiqh, harbiy san’atning rivoj topishishiga ulkan imkoniyatlarni dunyoga keltirdi.

Istiqlol davrida nafaqat ijtimoiy sohalar, balki, Qurolli kuchlarimizga bo‘lgan e’tibor ham yuksak darajaga ko‘tarilmoqda. Bunga asosiy turtki – tinchlik eng bebaho boyligimiz bo‘lib, uni asrab-avaylash mard va fidoyi

o‘g‘lonlar burchidir. Shu bilan birgalikda harbiy xizmatchilarni har tomonlama yetuk malakali kadr bo‘lishlari uchun ham yetarlicha sharoitlar yaratilmoqda ularni ham jismonan, ham ma’nan kamol topishlari eng dolzarb masalaga aylandi. Ayniqsa, yuksak ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar ham shu maqsadga yo‘naltirilgan. Bu tadbirlarda bizga buyuk me’ros qoldirgan ajdodlarimizning tarixi va jang san’atini o‘rganish asosiy vazifamiz hisoblanadi.

Amir Temurning Movarounnaxr va Xuroson,balki,butun Osiyo mamlakatlarida, jumladan, Vatanimizda ilm-fan, san’at, she’riyat, adabiyot, fiqh, ayniqsa, harbiy san’at, taktika va strategiyaning rivoj topishi keskin tarzda jadallashdi.

Amir Temurning chevarasi bo‘lmish Bobur Andijonda tavallud topganida otasi Umarshayx Mirzo hohimiyat tepasida edi. Aynan, Boburning saroyda tug‘ilishi,uning ilm peshvolari davrasida kamol topishi,uning uchun kelajakda buyuk maqsadlarni amalga oshirishga har tomonlama zarur bo‘lgan diniy-dunyoviy ilm hamda yuksak harbiy san’atni kamol topishida muhim rol o‘ynadi.Yoshligidan jasurligi,mardligi,ilmga chanqoqligi,jismoniy tirishqoqligi hamda mardligi har tomonlama uning voyaga yetishida va yoshligidanoq tengdoshlari ichida “Bobur” ya’ni, “Sher” nomini olishiga sababchi bo‘ldi.

Boburga buyuk sarkardalik mahorati qondan o‘tgan desak mubolag‘a qilmagan bo‘lamiz.Chunki, unda Sohibqiron avlodi qoni bor edi. Ayniqsa, yoshligidan jasur, epchil, chaqqon bo‘lishi, suzish, kurash,ot choptirish,qilich o‘ynatishda unga teng keladigani kamdan-kam topilishi yuqorida aytilgan fikrimizga yorqin dalil bo‘ladi.

Ilm-fanga qiziqishi, zukkoligi va topqirligi jihatidan unga teng keladigani topilmadi.Uning yoshligidan kitob mutolaasi bilan shug‘ullanishi, turli marifiy davralarda va mashvaratlardan bahramand bo‘lishi ham uning uchun yuksak ilmiy salohiyatga ega bo‘lishiga sababchi bo‘ldi.Ayniqsa,Xoja Ubaydulloh Ahrorning “Volidiya” asarini mutolaa qilar ekan unda juda ham ko‘plab diniy-dunyoviy, pandnoma yo‘sinidagi bilimlar uning ma’nan kamol topishida yuqori turtki bo‘ldi.

O‘rta asrlar ilm-faniga beqiyos hissa qo‘shgan sharqning buyuk mutaffakkiri Abu Nasr Farobiyning fikricha “inson tanasi, miyasi, sezgi organlari tug‘ilishdan mavjud, lekin aqliy bilimi, ma’naviyati, ruhi, aqliy va axloqiy hislatlari, harakteri, dini, urf-odatlari, ma’lumoti boshqa tashqi muhit,boshqa insonlar va shu kabilar bilan muloqotda vujudga keladi va inson o‘z harakatlari orqali ushbu sifatlarni egallaydi, erishadi”. Uning aqli, fikri,

ruhiy yuksalishining eng yetuk mahsuli bo‘ladi. Inson o‘z bilimlarini, aqlini rivojlantirib, so‘nggida mavjudotning ibtidosi, boshlanishi haqidagi bilimga borib yetadi.

Zahiriddin Muhammad Boburning intilishi,oldiga qo‘ygan maqsadiga tolmasdan dadil harakati,irodasining kuchi hamda bardoshi naqadar toblanganligi uning yoshligidan ham jismoniy, ham ma’naviy, ham axloqiy kamol topib voyaga yetganligidan bir nishon bo‘lib xizmat qiladi.

Buyuk sarkarda Samarqandni ikki bora egallaydi ammo, har ikkisida ham hiyonat,sotqinliklar hamda ichki o‘zaro ziddiyatlar tufayli o‘z rejalari amalga oshmay qoladi.Bunga eng asosiy sabab, ichki muholifatning ayrim qismi Boburga, ayrim qismi uning ukasi Jahongir Mirzoni qo‘llashi, ayrim qismlar esa amakilari, tog‘alari va boshqa taxt uchun davogarlarni yoqlab chiqishlari edi. Bunday sabablar o‘z-o‘zidan saltanatda boshboshdoqliklar,o‘zaro nifoqlarni keltirib chiqardi.Oxir oqibatda Boburni o‘z yurtini tashlab dastlab Kobulga, so‘ngra Hind diyoriga ketishiga sababchi bo‘ldi.Boburga bu yo‘lda ham juda ko‘p dushmanlar ro‘baro keldi. Boburning tirishqoq va jasur sarkardaligi bu janglarda qo‘shinlari uchun katta kuch vazifasini o‘tadi. Bu janglarda Bobur qo‘llagan taktikalar oz qo‘shin bilan ko‘p sonli qo‘shin ustidan haqiqiy g‘alabani ta’minladi.

Temuriyzoda har bir jang oldidan u yerning iqlimi, joyi, tog‘lari, daryosi, xalqi, qo‘shini hattoki tabiati haqida ham turli hil ma’lumotlarni to‘plab borgan. Misol tariqasida ushbu ma’lumotlarni keltiramiz. “Hinduston mamlakati-hududi keng, aholisi ko‘p, yerlari serhosil o‘lkadir. Shimolda bir tog‘ bor. Hindikush, Kofiriston va Kashmir tog‘lari bilan tutash. Shimoli-g‘arbida Kobul, G‘azna va Qandahor joylashgan. Butun Hinduston viloyatining poytaxti Dehli ekan” [1, 367.]. Boburning bunday pishiq va mukammallik darajasiga yetgan buyuk sarkardalik mahorati shundan ham ko‘rinib turadi. 1519-yil bahoriga kelib Bobur Hindistonni zabt etish rejalarini amalga oshirishga kirishadi va keying 5-6-yil davomida bir-necha yurishlar uyushtiradi. Shu yurishlarning birida Zahiriddin Muhammad Boburning zukko sarkardaligi yana bir bor o‘z tasdig‘ini topdi. Qonli janglarning birida “Shu qo‘nimjoyda butun lashkar xalqi holiga yarasha arava keltirishlarini buyurdim.Yetti yuzta arava olib keldilar.Ustod Aliquliga Rum usuli bilan aravalar orasiga zanjir o‘rniga ho‘kizning xom terisidan arqon eshib tasma qilib bir-biriga bog‘lashni buyurdim.Har ikkita arava o‘rtasiga olti-yetti to‘ra (qalqon) qo‘yiladi.Miltiqlar shu arava va to‘ra-qalqonlar ortida turib,miltiq otadilar” [1, 367.].

Ushbu matndagi harakatlardan shuni tushunsak bo‘ladiki,Boburning nafaqat xalqona taktikalardan balki, Rum usullaridan ham ancha yuqori darajadi uquvi borligiga guvohi bo‘lamiz.

Nihoyat,1526-yil aprel oyida Panipatda Ibrohim Lo‘diyning ko‘p sonli qo‘shinini tor-mor etganidan so‘ng, Bobur qariyb uch yarim asr hukmronlik qilgan “Boburiylar imperiyasiga” asos soldi.Hindistonda ulkan bunyodkorlik ishlarini amalga oshirgan temuriyzoda tez orada butun xalqning nazariga tushdi va el ichida hurmatga sazovar podishohga aylandi. Ilm fan, san’at, haykaltaroshlik, me’morchilik, qurilish ishlari keng miqyosda davom etirildi va buyuk islohotlar amalga oshirdi. Yangi binolar, saroylar, himoya devorlari, bog‘lar barpo etilib Hindiston diyori gullab yashnadi.Bu davrda diniy bag‘rikenglik, har kimning o‘z dinida ibodat qilishi, din erkinligi, barcha dinlarni, urf-odatlarni hurmat qilishi butun xalq ommasini yanada ruhlantirib yubordi.Boburning bunday dilbar shaxsligi va adolatli davlat siyosati barcha elatarga manzur bo‘ldi.Butun aholi orasida hurmatga sazovar bo‘lgan jahongir ulkan ishlari bilan butun olam hamjamiyatida o‘zizning nomini zarhal harflar bilan qoldirdi.

G‘arb sharqshunosi V.Erskin Boburning odamlarga bo‘lgan mehrini va ularga bo‘lgan munosabatini quyidagicha sharxlaydi. “Sahovati va mardligi, iste’dodi, ilm fan va san’atga muhabbati va ular bilan muvoffaqqiyatli shug‘ullanishi jaxatidan Osiyodagi podshoxlar orasida Boburga teng keladigan birorta sharq podshohi topilmaydi.” Darhaqiqat bunday ta’rif bilan jahonda nom qoldirish Boburga yaratganning irodasi bilan sodir bo‘ldi.Xuroson, Movoraunnahr, Sharqiy Turkiston, Shimoloy Hindiston hududlaridagi misli ko‘rilmagan janglardan so‘ng Temuriyzoda to‘plagan boy harbiy jang tajribasi uni janubga ya’ni hind diyoriga navbatdagi harakatiga turtki bo‘ldi. Albatta navbatdagi jang ham avvalgi janglardan butkul farq qildi.Lekin Bobur Mirzo hech ikkilanmay mardonavorlik bilan, qat’iyat sohibi bo‘lganligi uchun uni hech qanday to‘siq to‘xtatib qola olmadi.Hech qanday mashaqqatlarga bo‘sh kelmasdan haqiqiy matonat va qat’iyat sohibi bo‘lgan shariatpanoh Bobur hanuzgacha hind diyori xalqining qalbida abadiy muxrlanib qoldi. Hozirda Amir Temurning nafaqat o‘zi, balki butun avlodlarining dunyo tamadduniga o‘z hissasini qo‘shgan yetuk insonlar bo‘lganligi hamda biz esa shunday buyuk ajdodlarning davomchisi ekanligimizdan faxrlanamiz.

Qadimiy davrlar, o‘rta asrlar hamda hozirgi kunimizga nazar tashlaydigan bo‘lsak, bizni doimiy ravishda qo‘llaydigan dunyo hamjamiyati tan olgan

yuksak irodali va buyuk bobokalonlarimiz ruhlari shod etadigan, ularning hayoti va faoliyatini chuqur o‘rganib, keraklicha xulosa chiqaradigan avlod bo‘lib yetishsak, har bir maqsadimizga ishonchim komilki,erishamiz. Albatta kechagi kunini unutmagan millatning ertasi ham sharafli bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati

1. Zahiriddin Muhammad Bobur. “Boburnoma”. Toshkent-2018.
2. Qodirov P. Avlodlar dovoni. Toshkent-2018.

Sohibqiron Amir Temur qo‘shinida axloqiy ruhiy tayyorgarlik mexanizmlari.

Eshtilovov S.B.,
Jamoat xavfsizligi universiteti ofitseri
Qobilov Z.R.,
DXX CHQ Harbiy qism katta ofitser psixologi

Amir Temur qo‘shinida axloqiy ruhiy tayyorgarlik masalalari juda muhim ahamiyatga ega edi. Temur o‘zining harbiy qo‘mondonlik faoliyatida nafaqat jismoniy, balki ruhiy va axloqiy tayyorgarlikni ham kuchli targ‘ib qilgan. Bu tayyorgarlikni amalga oshirishda bir nechta asosiy jihatlar mavjud bo‘lib bunda vatanparvarlik va sadoqatga alohida urg‘u berilib Amir Temur qo‘shinidagi har bir askar o‘z vataniga, Sohibqironga va umuman, davlatga sadoqat bilan xizmat qilishi kerak edi. Temur askarlarini yurtni himoya qilishga, uning shon-shuhratini oshirishga, o‘z maqsadlariga erishish uchun intilishlariga undagan. Mehnatsevarlik va sabr-toqat ham asosiy mexanizm turi bo‘lib, harbiy yurishlarda qatnashayotgan askarlar uchun mehnatsevarlik, jismoniy kuch va sabr-toqat juda muhim hisoblanardi. Amir Temur o‘z qo‘shinini intizomli va bardoshli qilishga harakat qilgan. Bu esa janglarda yengilmaslikni ta’minlashga yordam bergan.

Diniy axloqiy tamoyillar bu davrda asosiy ta’sir turiligini inobatga olgan holda Sohibqiron Amir Temurning teran aql va farosat bilan o‘z qo‘shiniga diniy axloqni o‘rgatgan. U musulmon bo‘lib, janglarda o‘ziga xos diniy qoidalarni qo‘llab-quvvatlagan va askarlarining adolatli va halol bo‘lishini talab qilgan. Diniy etika, odob-axloqni buzmaslik, o‘ziga va boshqalarga hurmat ko‘rsatish hamda zulmga yo‘l qo‘ymaslik qo‘shin uchun muhim ahamiyatga

ega bo‘lgan. Bundan tashqari harbiy harakatlarda qo‘shinning ma’naviy qiyofasini ijobiy saqlab turish maqsadida Sohibqiron moral va ma’naviy tarbiyaga urg‘u bergan holda qo‘shinining jangga bo‘lgan tayyorgarligi nafaqat jismoniy kuchga asoslangan, balki ma’naviy ruhiyatni ham rivojlantirishga qaratilgan edi. Amir Temur askarlarini maqsadga erishish yo‘lida ruhiy jihatdan tayyorlash, ularning qat’iyatini oshirish uchun o‘z zamoniga mos turli xil metodlarni qo‘llagan. Yuqoridagi fikrlarni inobatga olgan holda aytish mumkin-ki, Amir Temur qo‘shinida axloqiy ruhiy tayyorgarlik masalalari askarlarning jismoniy tayyorgarligidan hech qanday past bo‘lmagan va bu harbiy kuchning yengilmasligini ta’minlashda asosiy omil hisoblangan degan ilmiy asoslangan fikr o‘rtaga chiqadi. Axloqiy fazilatlarni diniy, ma’naviy, jamoaviy tarbiya usullari orqali shakillantirgan Sohibqiron Temur ruhiy tayyorgarlikka ham alohida e’tibor qaratib, askarlarini maqsadga erishishga qaratilgan, yengilmaslikka undovchi so‘zlar bilan ruhlantirgan. U qo‘shinni janglarda o‘z maqsadlariga erishishda qat’iyatlilikka va ishonchga ega bo‘lishga targ‘ib qilgan. Jangdan oldin u askarlarini motivatsiya qilish uchun shaxsiy nutqlar aytgan va ularga qahramonlik, sadoqat va vatanparvarlik haqida eslatmalar berganligi tarixiy mnbalarda qayd etilgan. Sohibqiron Amir Temur ruhiy jihatdan qo‘shinni “sog‘lom” saqlash maqsadida shaxsiy namuna va adolat, intizom va tartibni saqlash, uzoq muddatli rejalar va g‘alabalar sharafi to‘g‘risidagi mexanizmlar haqida fikr yuritmoq lozim;

- **Intizom va tartibni ta’minlash**

Ruhiy tayyorgarlikda intizom va tartib juda muhim o‘rin tutgan. Amir Temur askarlarining har birini qat’iy tartibda va ma’lum bir nizomga rioya qilgan holda o‘qitgan. Bu esa qo‘shinning umumiy ruhiy holatini yaxshilashga yordam bergan. Temur o‘z qo’shinidagi har bir askarni jangda o‘zini to‘liq nazorat qilishga, sabr-toqatli va mukammal bo‘lishga undagan. Bu jarayon askarlarga o‘zlarining maqsadlariga erishishda ruhiy jihatdan tayyor bo‘lishni ta’minlagan.

- **Shaxsiy namunalar adolat va tenglik**

Temur askarlarning ruhiyatini rivojlantirishda adolat va tenglikni ta’minlashga katta e’tibor qaratgan. U o’z qo‘shinida hammaga teng yondashgan, askarlar o‘rtasidagi farqni kamaytirishga harakat qilgan. Bu jarayonda o‘zaro hurmat va hamjihatlikni ta’minlash, shuningdek, askarlarga adolatli tarzda muomala qilish ruhiy barqarorlikni oshirgan. Qo‘shinning o‘zaro hamkorligi va bir-biriga bo‘lgan ishonchi ularga jismoniy va ma’naviy jihatdan kuchli bo‘lishga yordam bergan.

Amir Temur o‘z qo‘mondonlik faoliyatida har doim shaxsiy namunalar ko‘rsatgan. U o‘ziga xos rahbar sifatida o‘z askarlariga doimo ilg‘or yuksak axloqiy va ma’naviy me’yorlarni namoyish qilgan. Temurning shaxsiy jangovar jasorati va rahbarlik fazilatlari askarlariga ruhiy tayyorgarlikni kuchaytirish va o‘ziga ishonchni rivojlantirishda katta rol o’ynagan.

Amir Temur askarlarining ruhiyatini kuchaytirishda jamoaviy hamkorlikni ham targ’ib qilgan. Qo‘shin ichida ishonch, hurmat va o‘zaro yordamni kuchaytirish orqali ularning ruhiy holatini yaxshilagan. Temur janglarda jamoaviy ishning muhimligini ta’kidlagan va askarlarni bir-biriga yordam berishga, bir jamoa sifatida harakat qilishga undagan.

- **Uzoq muddatli maqsadlar va shon-shuhrat**

Amir Temur askarlarini uzoq muddatli maqsadlar, yuksak maqsadlarga erishish uchun tayyorlagan. U askarlarni faqatgina aniq bir jangda g‘alaba qozonishga emas, balki butun davlatchilikni barpo etish va unga shon-shuhrat keltirishga undagan. Bu ularga ruhiy turtki berib, jismoniy va ma’naviy jihatdan mukammal bo‘lishga ilhomlantirgan.

Xulosa o‘rnida aytishimiz lozim-ki, Amir Temur askarlarning ruhiyatini rivojlantirishda turli mexanizmlar orqali ularga nafaqat jangda, balki hayotda ham muvaffaqiyatli bo‘lish uchun zarur bo‘lgan axloqiy, diniy va ma’naviy qadriyatlarni o‘rgatgan. Bu usullar Sohibqiron Temur qo‘shini yengilmas va sadoqatli bo‘lishiga sabab bo‘lgan.

TEMUR TUZUKLARIDA DAVLAT BOSHQARUV TIZIMI HAQIDA AYRIM MULOHAZALAR

Rajabova S.,
TDPU. Tarix fakulteti talabasi
Ilmiy rahbar: t.f.d, professor F.O.Ismatullayev

Annotatsiya: Buyuk Sohibqiron Amir Temur hayotlik davridayoq uning harbiy san’ati va davlat boshqarish uslubiga bag‘ishlangan maxsus asar yaratilgan bo‘lib, bu asar butun dunyoda “Temur tuzuklari” nomi bilan mashhurdir. Ushbu maqolada Amir Temurning davlat boshqarish tamoyillari, markazlashgan boshqaruv tizimi, tartib-intizomga asoslangan siyosati, shuningdek uning harbiy va ma’muriy islohotlari yoritiladi. Shuningdek, “Tuzuklar”dagi davlat boshqaruvi tamoyillarning zamonaviy siyosiy tizilmalar bilan bog‘liqliligi ham tahlil qilinadi. Maqola tarixiy manba “Temur tuzuklari”ga tayangan holda

yozilgan bo‘lib, Temuriylar davrida davlat boshqaruvining qanday shakllangani haqida ilmiy yondashuv asosida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Amir Temur, Temuriylar imperiyasi, Temur tuzuklari, davlat boshqaruvi, qonun, adolat tamoyillari, diplomat, Yangi O‘zbekiston.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach, Amir Temur shaxsi yana Vatan va millat timsoliga aylandi. Amir Temur biz uchun har doim haqiqiy vatanparvarlik, jasorat va adolat timsoli bo‘lib kelgan. Sohibqiron Amir Temur (1336-1405) Movaraunnahr hududida mog‘ul ko‘chmanchilarining 150 yillik hukmronligiga barham berdi va bu hududda kuchli markazlashgan davlat barpo etgan buyuk sarkarda va davlat arbobidir. Uning asosiy maqsadi yurtini mog‘ullardan va ijtimoiy-siyosiy beqarorliklardan qutqarish edi. Amir Temur taxtga o‘tirgach turli mahalliy hokimlarning o‘zaro nizolariga barham berib, yagona markaziy boshqaruv tizimini o‘rnatdi, shuningdek davlati mustahkam bo‘lishi uchun kuchli harbiy va siyosiy tizim ham barpo etdi. Amir Temur hayoti jang- u jadallar, urushlardan iborat, u harbiy yurishlari natijasida juda katta hududlarni bosib oldi. Shu vaqtda uning saltanati hududi Hindiston hamda Xitoydan Qora dengizga qadar, Sirdaryo va Orol dengizidan Fors qo‘ltig‘iga qadar g‘oyat katta hududni qamrab olgan edi. Bundan tashqari Amir Temur davlatiga Kichik Osiyo, Suriya, Misr va shimol-g‘arbda Quyi Volga, Don bo‘ylari; shimol-sharqda Balxash ko‘li va Ili daryosigacha; janub-sharqda esa Shimoliy Hindistongacha bo‘lgan mamlakatlar bo‘ysundirildi. Amir Temur saltanati hududiga 27 ta davlatni birlashtirgan edi. Markazlashgan g‘oyat ulkan saltanat albatta qonunlar to‘plami asosidagi mustahkam boshqaruv tizimiga ega bo‘lishi zarur edi.

Amir Temurning tajribalari asosida yozilgan va uning hukmi bilan qonun darajasiga ko‘tarilgan qonunlar to‘plami mavjud bo‘lib , o‘zidan keyingi vorislariga davlat boshqaruvidagi asosiy qo‘llanma bo‘lib xizmat qilib kelayotgan asar bu “Temur tuzuklari”dir. Bu asar Amir Temurning davlat boshqaruvi, harbiy yurishlari va siyosiy qarashlari haqida yozilgan muhim tarixiy asardir. Ma’lumki, “Temur tuzuklari” ikki maqoladan iborat. Birinchi maqola Sohibqiron hayotining eng e’tiborli voqealaridan tashkil topdi, ular tarixiy hujjatlariga aylanganliklari bilan qadrlidir. Ikkinchi maqola esa davlat qonunlaridan, ya’ni tuzuklardan tashkil topdi. Bu tuzuklar saltanatning barpo bo‘lish yo‘lida, hayotning o‘zi keltirib chiqargan hayotbaxsh qonunlar majmuasi ediki, ular bugungi kunda ham ulkan ahamiyatga ega. [1] Ayniqsa asarning ikkinchi qismida davlat boshqaruv tizimi haqida batafsil bayon

qilingan. Masalan; davlatni idora etishda kimlarga tayanish , armiyaning tuzilishi va jang olib borish qoidalari , mamlakatni boshqarish tartibi, davlat arboblari va qo‘shin boshliqlarining burch va vazifalari ayniqsa vazirlar faoliyatiga katta e’tibor qaratilgan.

“Temur tuzuklari”ning fanda qayd etilgan ilk nusxasi eski o‘zbek tilida bitilgani ma’lum. Asar O‘rta Osiyolik Mir Abu Tolib Husayniy al-Ariziy at-Tubatiy tomonidan 1610-yili usmoniy turk hokimlaridan biri – Yaman hokimi Ja’far poshoning topshirig‘i bilan fors tiliga tarjima qilinadi va dunyoga “Tuzuki Temuriy” nomi bilan tarqaladi. Bizga uning fors tilidagi nusxasi va fors tilidan o‘zbek tiliga tarjimasining uch nusxasi yetib kelgan. Eng to‘liq nusxasi “Malfuzoti Temuriy” deb nomlangan va u Rossiyaning Sank-Petetburg shahridagi Salkitov-Shchedrin nomli kutubxonasida saqlanmoqda. [2:170-bet] “Temur tuzuklari” davlat boshqaruv tizimi va o‘zbek davlatchiligi uchun muhim manba hisoblanadi. Sohibqironning har bir tuzuki uni qanchalik mamlakatni mohirona va adolatli boshqarganini isbotlaydi.

Amir Temur davrida ijroiya tizimi ya’ni vazirliklar faoliyatiga kattta e’tibor qaratgan. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, mog‘ullarning 150 yillik hukmronligi davrida mahalliya boshqaruv tizimi an’analari poymol qilingan bir sharoitda Amir Temur somoniylar, qoraxoniylar va anushteginiylar zamonida guvohi bo‘lganimiz ijroiya hokimyatining vazirliklar tizimini qaytadan jonlantirdi. Amir Temurning o‘zbek davlatchiligi oldida qilgan katta xizmatlaridan biri ham shundadir. Amir Temur davlat boshqaruvida vazilarning o‘rni nihoyatta katta ekanligini ta’kidlab, alohida tuzuk ham yaratgan. Jumladan “Temur tuzuklari”da shunday bayon qilinadi: “Va amr etdimkim, vazirlarda to‘rtta sifatni ehtiyot etkaylar: avval asillik va oliyjanoblik, ikkinchi aql va ziyraklik, uchinchi sipoh va xalq bilan murosa etmaklik, to‘rtinchi yumshoqlik va sog‘lom munosabat”.[3:87-bet] Amir Temurning bu tuzukida vazirlarida bo‘lishi kerak bo‘lgan to‘rt fazilati sanab o‘tilgan. Bu tuzukidan shuni anglashimiz mumkinki, birinchi fazilat asillik va oliyjanoblik- vazirlar xulq-odobli, axloqiy pok bo‘lishi kerak. Ular shaxsiy manfaatlarini emas balki davlat manfaatlarini ustun qo‘yishlari zarur. Ikkinchisi aql va ziyraklik – Hukmdor atrofidagi vazirlar dono bo‘lishi, oqilona fikrlashi va har bir qarorni uzoqni o‘ylab qabul qilishi, uchinchi fazilat esa xalq va sipoh bilan murosa ya’ni davlatni boshqarishda xalq va qo‘shin bilan yaxshi muomala qilish, ularning muommolarini yechimini topishga harakat qilishi darkor, to’rtinchi yumshoqlik va sog‘lom munosabat eng muhimi adolatli bo‘lish, vazirlik lavozimidan

manfaatlari yo‘lida foydalanmaslik. Amir Temur shuni ta’kidlaydiki yaxshi vazir davlatning barqarorligini ta’minlasa, yomon vazir davlatning inqirozigacha sabab bo‘lishi mumkin. Misol tariqasida “Temur tuzuklari” da tarixda bo‘lgan ikki holatni keltiradi. 1. Saljuqiylarning buyuk vaziri Nizom ul-Mulkning chetlatilishi - Sulton Malikshoh o‘zining dono vaziri Nizom ul-Mulkni ishdan olib, o‘rniga munosib bo‘lmagan vazirni tayinlaydi. Bu esa davlatning zaiflashishiga olib kelgan. 2. Alqamiyning xoinligi – Abbosiylar xalifasi Mu’tasim Billoh Alqamiyni vazir qilib tayinlagan, ammo u dushmanga xizmat qilib, xalifalikning Xuloku tomonidan bosib olinishiga ko‘maklashgan. “Temur tuzuklari” da yana moliya vaziri haqida ham tuzuk bo‘lib, shunday bayon etiladi: “Mamlakat xazinachilari bo‘lmish moliya vazirlari moliya ishlarida xiyonat qilsalar, va o‘zlashtirib olgan bo‘lsalar tekshirib ko‘rilsin. Agar o‘zlashtirib olgan mablag‘i o‘ziga tegishli haq miqdoridan oshmasa, mazkur mablag‘ unda in’om o‘rnida qoldirilsin. Agar o‘zlashtirib olgan mablag‘i maoshidan 2 barobar ortiq bo‘lsa, ortig‘i oladigan maoshi hisobidan ushlab qolinsin. Agar maoshidan 3 barobar ko‘p mablag‘ olgan bo‘lsa, hammasi saltanatning xazinasiga tortiq sifatida olinsin”.[4:105-bet] Amir Temurning yuritgan bu siyosatini hozirgi kun bilan aytganda korrupsiyaga qarshi kurashish sifatida ham talqin qilsak bo‘ladi. Bu bilan Amir Temurning davlat boshqaruvida qanchalik adolatli hukmdor bo‘lganini yana bir yorqin namunasidir. Amir Temurning bu tuzuklardandan kelib chiqadiki davlat boshqaruvida vazirlarning ro‘li nihoyatda katta. Amir Temur shaxsiy manfaatlarini davlat manfaatlaridan ustun qo‘yadigan vazirlarni mamlakat uchun eng katta xavf deb bilgan. Shu sababli Amir Temurning vazirlari faqat bilimli, dono va adolatli insonlardan tanlangan.

“Temur tuzuklari” dagi eng muhim Amir Temurning davlat boshqaruvi va siyosiy qarashlari aks etgan “Saltanatimni saqlamoq tuzukini bu yosunda qildim” nomli tuzukidir. Bu tuzukda biz Sohibqironning saltanatini mustahkamlash va barqarorlikni ta’minlashda qanday qoidalarga amal qilganini bilib olishimiz mumkin. “Avval saltanatim qoidalarini dini islom va shariat bilan mahkam va va ustuvor qildim va podshohligim himoyasini urf-odat va tuzuk bilan shunday qildimki, saltanatimga daxl etishga hech kimsada quvvat va yurak bo‘lmadi. Ikkinchi, lashkar va aholini umid va qo‘rquv martabasida tutdimva do‘st dushmanni muruvvat va madoro martabasida tutib, qilmishlari va gap so‘zlarini chidam va o‘zini bilmaslikka olib o‘tkazdim. Uchinchi hech kimsada qasos olmadim va qasos olmoq tilamadim va yomonlik qilg‘uvchilarni

parvardigorga topshirdim va bahodir va ish qilgan kishilarni saqladim. To‘rtinchi ochiq yuzlik va rahm va shavqat bila xaloyiqni o‘zimga rom ettim. Va adolat va muruvvat qilib, zulm-u javridin uzoq bo‘ldim“. [3:74-bet] Bu tuzukdagi qoidalar har bir hukmdor davlat boshqaruvida amal qilishi kerak bo‘lgan saboqlardan iborat. Bu tuzukni shunday tahlil qilishimiz mumkin. Amir Temur amal qilgan birinchi qoida saltanatining asosini din va shariat qoidalariga asoslangan boshqaruv tizimi bilan mustahkamlaganligidir. Diniy qadriyatlarga asoslanishi bu xalqni birlashtirish vositasi bo‘lgan. Ikkinchi qoidada esa do‘st va dushmaga bo‘lgan munosabat haqida fikr yuritilgan bo‘lib, do‘stlar hurmat bilan qadrlanib, dushmanlar esa jazolanishi ta’kidlangan. Uchinchi qoidada esa Amir Temur o‘z boshqaruvida adolat va kechirimlilikni asosiy tamoyil sifatida qo ‘yadi. To‘rtinchi va eng muhim bo ‘lgan qoida bu ochiq siyosat va xalq bilan muloqotdir. U saltanatning barqarorligi uchun xalq bilan muloqot qilish, ularni rozi qilish muhimligini qayd etgan. Uning boshqaruv uslubi adolat, rahm-shavqat, xalq roziligi kabi tamoyillarga asoslangan edi. Bugungi kunda O‘zbekiston ham shu yo‘nalishda islohotlarni davom ettirmoqda. Ayniqsa O‘zbekistonda ochiqlik, xalq bilan muloqot qilish, adolat va inson huquqlari tamoyili faol amalga oshirilmoqda.Bu borada quyidagi islohotlar amalga oshirilmoqda: ochiq muloqot va xalq bilan uchrashuvlar, shuningdek, xalq qabulxonalarining tashkil etilishidir. Demak bunday davlat boshqaruvidagi siyosat bizga Amir Temur davridan merosdir.

Amir Temur o‘z boshqaruv tizimida aholini toifalarga ham bo‘lib, bundan ko‘zlangan asosiy maqsad jamiyat rivojida barcha ijtimoiy tabaqalar faoliyatini nazarda tutish va manfaatlarni ta’minlashdan iborat edi. Amir Temur bo‘yicha bunday tabaqalar 12 ta bo‘lib, ularda jamiyatning barcha tarkibiy qismlari o‘rin olgan. [5:173-bet] Bu haqida “Temur tuzuklari” da shunday bayon qilinadi. “Va o‘n ikki toifa bilan saltanatimni mahkam va ustivor etdim. Va saltanatim qoidalarini o‘n ikki toifaga bog ‘lab, mustahkam qildim. Va bu o‘n ikki toifani falakning o‘n ikki burjiva o‘n ikki oyiyanglig‘ saltanatim korxonadida qaror berdim”. Bunday toifalarga bo ‘lib davlatni boshqarish anchagina qulay bo‘lgan. Bu tizim ijtimoiy qatlamning o‘z o‘rniga ega bo‘lishini ta’minlagan. Har bir toifa jamiyatda o ‘z vazifalarini bilib, harkat qilgan. Ayniqsa fan va madaniyatning rivoji uchun bu tizim juda foydali hisoblanadi. To‘qqizinchi toifaga kiruvchi olimlar, san’atlorlar va ijodkorlarni davlat himoyasiga olgan. Ularga ijod qilishlari uchun barcha sharoitlar yaratilgan. Shuning uchun ham Movaraunnahr hududida Amir Temur davrida Ikkinchi Renesans davri

boshlandi. Bu esa Amir Temur davlatining qudratini yanada oshirdi.Bunday toifalarga ajratish tamoyili orqali tartib va barqarorlikni ta’minlash uchun muhim vosita bo‘lgan, u davlatning mustahkamligini va taraqqiyotini ta’minlashga xizmat qilgan.

Har bir mamlakatning qudratini biz uning armiyasidan ham bilib olishimiz mumkin. Milliy armiya har bir davlat uchun juda muhim hisoblanadi. Amir Temur armiyasi ham o‘z davridagi eng qudratli armiyalardan biri bo‘lgan. Uning armiyasi aniq strategiya va qo‘shinning tartibli tuzilganligi bilan mashhurdir. Uning harbiy tuzukida qo ‘shin tarkibini aniq toifalarga bo‘lish, intizomni ta’minlash kabi masalalarni batafsil yoritilgan. Uning “Lashkar saqlamoqning tuzuki” va “Lashkar ulufasi qarorining tuzuki” bandlarida harbiy tizimni tashkil etish va harbiylarga beriladigan maoshlar haqida yozilgan. Ayniqsa uning lashkarning ketma-ketlikda bo‘ysunish tartibi ahamiyatga molikdir. “Va bu tariqa amr etdimki, jang maydonida, ya’ni lashkargohda va podshohlik ishlarida mingboshining hukmi yuzboshiga va yuzboshining hukmi o‘nboshiga va o‘nboshining hukmi tobelariga joriy bo‘lgay”.[3:81-bet] Bundan ko‘rishimiz mumkinki, harbiy iyerarxiya qat’iy tartibda saqlanib, bo‘ysunish majburiy bo‘lgan. Lashkarlarga ham lavozimiga qarab maosh tayinlangan va mukofotlanib ham turgan. Amir Temur davrida aniq va adolatli maosh tizimi joriy qilingan. Bu ikkala tuzuk ham Amir Temurning lashkarni mustahkamlashga qaratilgan muhim qoidalar to’plami hisoblanadi. Bunday qat’iy intizim, aniq harbiy iyerarxiya va askarlarning moddiy ta’minoti tufayli Amir Temur armiyasi doim kuchli va harbiy safarbarlikka tayyor turgan.

Xulosa qilib aytganda “Temur tuzuklari” biz uchun qimmatli manba hisoblanadi. Amir Temurning davlat boshqaruv tizimi haqidagi tuzuklari zamonasi uchun eng mukammal boshqaruv tizimlaridan biri bo‘lib, unda markazlashgan hokimyat, qat’iy tartib-intizom, adolatli qonunlari bilan muhim ahamiyat kab etgan. Bu boshqaruv tizimi davlatni markazlashtirdi, barqarorligini ta’minladi va natijasida Amir Temur saltanatining gullab-yashnashiga xizmat qildi. “Temur tuzuklari” da davlat boshqaruvi aniq tizim va qonunlar asosida qurilgan bo‘lib, har bir davlat lavozimining aniq burch va javobgarligi mavjud edi. Bu asarni hattoki tadqiqotchilar “Amir Temur saltanatining Konstitutsiyasi” deb ham ta’rif berishadi va asarda qayd etilgan tuzuklar har bir davlat rahbari amal qilishi kerak bo‘lgan qoidalardan iborat. Amir Temurning boshqaruv tizimi bugungi kunda ham O‘zbekiston boshqaruv tizimida ham mavjud. Hukumat tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlar,

armiyaga qaratilayotga e’tibor, qonun ustuvorligi, fan va madaniyatga qaratilayotgan e’tibor bularning hammasi Amir Temur merosining davom etayotganligining yoqrin namunasidir. Shunday qilib Amir Temurning boshqaruv tizimi faqat o‘z davri uchun emas balki bugun ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan. Uning tuzuklarida qayd etilgan tamoyillar har qanday davlatning boshqaruv tizimini mustahkamlash uchun xizmat qilishi shubhasizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.https://www.temurtuzuklari.uz/oz/pages/honour
2.M.Rahimov, A.Zamonov. O ‘zbekiston tarixi. “Fan”. 2019.
3.Temur tuzuklari / Amir Temur Ko‘ragon. – T.: “IJOD-PRESS” nashriyoti, 2019.
4. Amir Temur. “Temur tuzuklari” . “Hilol media” . 2018.
5.Азамат Зиё. Ўзбек давлатчилиги тарихи / Т.: “Шарқ”, 2001.

AMIR TEMUR LASHKARIDA HARBIY QO‘SHILMALARNING JOYLASHISHI VA HARBIY BOSHQARUV DARAJASI

Ravshanov U.,
Jamoat xavfsizligi universiteti
Tahririyat-noshirlik bo‘limi katta ofitseri

Amir Temur urush paytida bayroqlar harakatidan ham unumli foydalangan. Masalan, Terekda Oltin O‘rda xoni To‘xtamish bilan uzoq davom etgan kurashning hal qiluvchi jangida Amir Temur To‘xtamishning bayroqdorini sotib olgan va u urush qizib turgan paytda bayroqni tushirgan. To‘xtamish askarlari esa buni jangdagi mag‘lubiyat sifatida tushunganlar va bu urushni borishiga jiddiy ta’sir ko‘rsatgan.

1398-yilda bo‘lgan jangda Amir Temur o‘z bayrog‘ini shahrisabzliklarga topshirgan va shu tarzda dushmanni chalg‘itib, chaqqonlik bilan o‘tkazgan manevr orqali raqibni taslim bo‘lishiga majbur etgan.

Bularning hammasi qo‘shinni qat’iy, aniq boshqarishda, dushmanni dahshatga solishida, ba’zan hal qiluvchi rolni o‘ynagan taktik usullarda qo‘shinga belgilar vositasida va ko‘rish tarzda xabar qilinuvchi ma’lumotlarning muhim rol o‘ynaganligidan dalolat beradi.

Xitoy sarkardasi U-dzi o‘zining urush san’ati haqidagi asarida “Barabanlar va nog‘oralar quloqlarni vahimaga soladi, bayroqlar, tug‘lar, bunchuqlar ko‘zlarni dahshatga soladi” deb yozishi tasodifiy emas edi.

Iste’dodli va tajribali lashkarboshi sifatida Amir Temur bu vositalardan samarali foydalangan va ularni o‘z vorislariga ham meros qoldirgan.

Amir Temur biror hududni qancha vaqt ichida zabt etish mumkinligini oldindan yaxshilab hisoblab chiqar va sarkardalardan belgilangan muddatda harbiy harakatlarni nihoyasiga yetkazishni qat’iy talab qilar edi.

- Chingizxon qo‘shinlari yalpi majburiyat asosida harbiy xizmatga chaqiriladigan xalq lashkarlaridan iborat bo‘lgani holda, Temurbek armiyasi umumxalq xarakteriga ega emas edi.
- Chingizxon davrida qo‘shin asosini ko‘chmanchi omma tashkil qilgan edi. Temurbek qo‘shiniga aniq belgilangan talab asosida chorvadorlar qatori kosibchilik, hunarmandchilik, dehqonchilik bilan mashg‘ul o‘troq aholi vakillaridan ham olingan.
- Otliqlar bilan birga piyodalar ham anchagina qismni tashkil qilgan. Chingizxonda piyoda qo‘shin vazifasini ko‘pincha bosib olingan o‘lkalardan tuziluvchi qo‘shin bajargan.
- Temurbek Sharqda birinchilardan bo‘lib armiyada o‘t ochar qurol – to‘pni olib kirgan.
- Tog‘larda harakat qiluvchi maxsus otryadlarni tashkil qilgan.
- Jang maydonida qo‘shinni yetti qo‘lga bo‘lishni birinchi bo‘lib joriy qildi.
- Temurbek armiyasida ayollardan tuzilgan bo‘linmalar bo‘lgan.

Qo‘shin qanotlarini jang chog‘ida dushman hujumidan himoya qilish maqsadida va aksincha g‘anim kuchlarini yon tomondan aylanib o‘tib, unga ortdan zarba berish maqsadida maxsus otliq qism – qanbullarni joriy qildi. Aleksandr Makedonskiy, Gannibal, Lyudvig XIV, Buyuk Fridrix, Chingizxon qo‘shinlarida bo‘lmagan. Faqatgina qanot qismlar Napoleon Bonapart armiyasida mavjudligi keltiriladi.

“Tuzuklar”da yozilishicha, piyoda sipohiylar, xizmatchilarga, farroshlarga yuzdan ming tangagacha maosh belgilab qo‘yilgan. Agar o‘sha paytda bir qo‘y yarim tangaga teng bo‘lgan. Venger olimi Xerman Vamberi amirul-umaro unvonini sardori akramga, ya’ni generallissimusga to‘g‘ri keladi deb ko‘rsatadi. 313 ta amir “xos ul xos” oliy hukmdorga yaqin kishilar bo‘lgan.

1391-yilda To‘xtamishga qarshi navbatdagi urushida Nizomiddin Shomiy tomonidan hali tarixida kuzatilmagan yangi taktika – qo‘shinni 7 qo‘lga bo‘lish qo‘llanilganligi ma’lum qilinadi.

Katta qizil bayroq amirul-umaro yoki beklar begi Ot yoli bog‘langan tug‘ tuman og‘asiniki ikki tomonga kokillari osilgan ikki do‘l nog‘ora yuzboshiga tegishli bo‘lgan.

Amirlarniki darajasiga qarab 1000 – 10000 otgacha, Amir Temur avlodlariniki 12000 ot narxida belgilangan.

Piyoda askarlar, xizmatchilar (qurolbardor yoki xos navkarlar) va chodirchilar 100 tadan 1000 ot narxi piyoda jangchilarning katta maosh olishi ularning xizmati sharafliroq va otliq jangchilar xizmatidan mashaqqatliroq bo‘lgan deb xulosa chiqaradi. Ivanin lekin tuzuklarda piyodalar uchun 100 tangadan 100 tangagacha bo‘lishi ko‘rsatilgan. Temur qo‘shinlarida piyodalarning ancha kam bo‘lishiga asosi sabab esa uning askarlari aksariyat o‘troq va yaqinda o‘troqlikka o‘tgan xalqlarning vakillari bo‘lganligi va u olib borgan janglarning aksariyati keng va ochiq yerlarda (cho‘l va dashtlarda) bo‘lganligidan va bunday janglarda tezkorlik va chaqqonlik talab qilinishi bo‘lsa kerak deydi, Ivanin tarjimoni.

Anqara jangidan oldin maxsus rangli kiyimlar Samarqanddan keltirilgan. Qizil bayroqli qismlar shu rangdagi qalqon, egar, jabduq, o‘qdon, kamar, nayza, gurzi va hakozolar shu rangda bo‘lishi ko‘rsatilgan.

Maxsus ishonchli kishilar Amir Temurga xalqning holati haqida xabar berib turishar, o‘zi esa shu xalq urf-odatlariga amal qilishga, umuman xalq muhabbatini qozonishga harakat qilar edi. Jasur jangchilarning farzandlariga ham nafaqa to‘langan, martabasi ko‘tarilgan.

Yutqiziqsiz maqsad Temur dahosining asosini tashkil qiladi. U hatto donalari ikki barobar ko‘paytirilgan maxsus shaxmat taxtasini o‘ylab chiqargan. Bundan maqsadi o‘yin muddatini cho‘zish bo‘lgan. Bu shundan dalolat beradiki, Temur maqsadi va ularga erishish yo‘llarini geostrategiya ma’nosida bir-biridan ayri holda tushunib bo‘lmaydi va u bularni hayotga tatbiq etish jarayonida hech qachon birini ikkinchisi bilan adashtirib yubormagan.

Chegaralarga hayot sinoatlari bilan tanish, zamona hodisalari bilan egizak tug‘ilgan xushyor, sergak, mardonalikda tanilgan dovyurak va tajribali kishilarni qo‘yilan.

Amir Temur to‘g‘risida ko‘plab gapirish mumkin, biroq biz uning harbiy faoliyatiga e’tibor qaratishni lozim topdik. Manbalarda Amir Temurning harbiy faoliyatidagi ikki xususiyat alohida ko‘rsatilib o‘tiladi. Biri sarkardalik bo‘lsa, ikkinchi armiyani qayta tashkil qila olgan va qudratli qo‘shinni shakllantira olgan islohotchilik faoliyatidir.

Uning armiyasi quyidagi bo‘linmalardan tuzilgan edi: o‘nlik, yuzlik, minglik; ularni tegishli darajadagi sarkardalar boshqargan bo‘lib va o‘z navbatida bo‘linmalar bir-biriga bo‘ysunardi.

Bo‘linmalarning birlashmasidan qo‘shin shakllangan bo‘lib, bir nechta qo‘shin qo‘shunot – qo‘shinlar birlashmasini tashkil qilgan va ularning har biri umumiy qo‘shinda joylashgan joyiga qarab turlicha – qalb (markaz), burong‘or (o‘ng qanot), javong‘or (so‘l qanot), manglay (avangard) kabi nomlar bilan yuritilgan.

Amir Temur armiyasi piyoda va otliq qo‘shinlardan tarkib topgan. Otliqlar bilan bir qatorda tog‘larda jang qilishga moslashtirigan maxsus bo‘linma ham bo‘lgan. Odatda Amir Temur harbiy yurish oldidan beklar va sarkardalardan iborat harbiy kengash ishtirokida mashvarat o‘tkazib, qo‘shinning harakati va harakatlanish jarayonidagi o‘zgarishlar muhokama qilingan va bular zudlik bilan maxsus xabarchilar orqali qo‘shinga yetkazilgan. Qo‘shin o‘z davrining eng mukammal qurollari bilan ta’minlangan edi.

Har bir harbiy bo‘linma u yoki bu turdagi harbiy qurol-yarog‘ va boshqa aslahalar bilan ta’minlangan bo‘lib, harbiy qismlar bir-birlaridan bosh kiyimlari, bayroqlari bilan ajralib turganlar, hattoki ular mingan otlarning zotlari ham bir-biridan farqlangan.

Bunday tarzdagi alohidalik qo‘shinni boshqarish, ayniqsa, jang vaqtida ularning harakatlarini amalga oshirish uchun muvofiqlashtirishda katta foyda bergan.

Qo‘shinning jangovarlik holati va tayyorgarligini ko‘zdan kechirish maqsadida Sohibqiron tomonidan qo‘shin o‘ziga xos maxsus ko‘rikdan o‘tkazilgan.

Otliqlarning kiyimlari yengil va qulay bo‘lib, harakatlanish vaqtida halal bermagan. Dushman o‘qlaridan va zarbalaridan himoyalanish uchun ular doirasimon qalqonlardan foydalanganlar, jang vaqtlarida esa maxsus g‘iloflarda olib yurilgan qilich, nayza, o‘q-yoylardan foydalanganlar. Otlariga esa rang-barang yopinchiqlar yopilgan va maxsus yuganlar ham otlar uchun himoya vazifasini o‘tagan.

Piyodalar kiyimlari otliqlarniki bilan o‘xshash bo‘lgan. Piyodalar ham jang vaqtida nayza va o‘q-yoy ishlatganlar, shu bilan birga jangning borishiga qarab kalta xanjarlar, qilich, shamshir, jang boltalari va gurzi, cho‘qmorlar ishlatganlar.

Sohibqironning harbiy taktikasi nihoyatda puxta o‘ylangan xususiyatga ega bo‘lib, raqibga qarshi to‘satdan zarba berishga ham qaratilgan edi.

Amir Temur qo‘shinning barcha bo‘linmalari uchun ularni boshqaruvchi maxsus nomlar bilan yuritilgan unvon va lavozimlarni ham joriy etdi: tuman og‘a - o‘n ming kishilik qo‘shin boshlig‘i, miri hazora - ming kishilik, qo‘shunboshi - yuz kishilik, aylboshi - o‘n kishilik qo‘shin boshliqlari hisoblangan. Ularning barchasi ma’lum darajadagi huquq va burchlarga ega bo‘lganlar, shuningdek barchalari davlat tomonidan ta’minlanganlar. Masalan, oddiy askar bir ot narxiga teng, otliq askar esa, 2-4 ot narxiga teng maosh bilan ta’minlangan. O‘nboshi oddiy askardan o‘n barobar, yuzboshi o‘nboshidan ikki barobar, mingboshi yuzboshidan uch barobar ko‘proq maosh olishgan.

Xulosa qilib aytganda, yuqoridagilardan ko‘rinadiki, tarixiy tajribalar va an’analarga amal qilish yangi avlodni tarbiyalashda beqiyos ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Raximov J. Amir Temur – adolat va qudrat timsoli. Toshkent: “O‘qituvchi”, 2015. 530 b.

2.Raximov J. Amir Temur – buyuk arbobi va ulug‘ sarkarda. Toshkent: “Ziyonashr”, 2023. -680 b.

3.Руи Гонсалес Де Клавихо. Дневник путешествия в Самарканд ко двору Тимура. (1403-1406 г.) Пер. со староисп. Предисл. коммент. И.С.Мироковой. – Москва: Наука, 1990.

4.Temur tuzuklari. Raximov J. tahriri ostida.

10.Eshov B., Odilov A. O‘zbekiston tarixi. I jild. Eng qadimgi davrdan XIX asr o‘rtalarigacha. Darslik. – T.: Yangi asr avlodi, 2014. -416 b.

AMIR TEMUR VA YILDIRIM BOYAZID MUHORABASINING XALQARO AHAMIYATI

Ro‘ziqulov A.,
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
mustaqil izlanuvchisi

Amir Temurning 1399-1404-yillarda olib borgan harbiy yurishlari natijasida Shomning Halab (Aleppo), Xums, Baalbek (Ba’albak), Dimishq (Damashq) kabi yirik shaharlari va Iroqi Arabning Ubuliston o‘lkasi (qad.

Kappadokiya) bilan Bag‘dod, shuningdek Turkiyaning katta qismi zabt etiladi. Anqara jangida Amir Temur jahonning buyuk sarkardalaridan biri Boyazid Yildirim ustidan g‘alaba qozondi.

Kichik Osiyoda bu davrda Yildirim Boyazid Oydin, Menteshe, Garmiyan, Qaramon, Jondor o‘g‘illari bekliklarini o‘ziga bo‘ysundirgan, Qozi Burhoniddinning o‘limidan keyin esa uning yerlarini ham bosib olib, Malatiyagacha kelgan edi. Usmonli turk imperiyasining me’mori sifatida tarix sahnasiga chiqqan Boyazid G‘arbda – Bolqonda ham muvaffaqiyatli harbiy harakatlar olib borgani ma’lum[1]. U mamluklar sultoni Barquq o‘limidan (1399) so‘ng sultonlikning Kichik Osiyo ichidagi joylarini ham siyosiy sarhadlariga qo‘shib olib, o‘z davlati chegaralarini Arzinjon va Firotga qadar kengaytirgan edi[2]. Amir Temur siyosiy jihatdan ilk bor o‘ziga teng raqibga duch keladi. Usmonli davlatiga majburan bo‘ysundirilgan hududlarda hali turklarning mavqei mustahkam emasdi. Sobiq hukmdorlar Boyazidga nomigagina bo‘ysunib, uning siyosiy tuzumini tan olmaslik yo‘lini tutgan va Sharqdagi qudratli homiy vositasida avvalgi mavqelarini tiklashdan umidvor edilar. Ular Amir Temurning yurishlariga pinxona madad berishdan manfaatdor edilar. Yildirim Boyazid Usmonli taxtiga o‘tirgan 1389 yildan e’tiboran g‘arb masalalariga o‘ta sezgirlik bilan qaray boshlagandi. Ammo sharqdagi siyosiy almashuv va o‘zgarishlarga kelganda ana shu hushyorlikni yo‘qotgandi. Uning 1396 yilda salibchilar bilan bo‘lgan jangdagi porloq g‘alabasi Sulton Yildirim Boyazidning Islom dunyosidagi ta’sir va shuhratini eng yuksak nuqtaga chiqargan edi. Ammo u Amir Temur saltanatining rivojlanishini xuddi bir tomoshabin kabi kuzatishdan nariga o‘ta olmadi. Davlatining chegaralari Arzinjon va Firotga yetgandan keyin u sharqdan yaqinlashgan tahlika bilan yuzma-yuz keldi. Umumiy tarixlarda hamda diplomatik yozishmalar to‘plangan bir qator majmualardan joy olgan hujjat nusxalarida 1399 yilgacha ikki taraf orasida kuchli ziddiyatlar bo‘lmaganligini ko‘ramiz. Ammo shunga qaramay, taraflar orasida sovuq urush havosi hukm surar edi.

Mana shu umumiy vaziyat ichida 1399 yilgacha Sharq masalasiga loqayd qaragan Yildirim Boyazidning Amir Temur Kichik Osiyoga juda yaqin joyda turgan chog‘ida Arzinjon amiri Mutahhartan yerlariga bostirib kirishi, o‘ta qaltis harakat bo‘lgan edi. Ustiga-ustak, bu harakat Amir Temurga o‘z rejalarini amalga oshirish uchun bir bahona bo‘ldi. Zero, Sohibqiron bunday harakatni

[1] Турк буюклари ва турк қаҳрамонлари. – Истанбул, 1967. – Б. 56-58.
[2] Исмоил Ака.Ўша асар. – Б. 27-28.

o‘z hukmronligiga qarshi qaratilgan tajovuz sifatida baholaydi. Maktublarda bu haqda batafsil yozilgan[1].

Yildirim Boyazidning Amir Temurga sadoqat bilan xizmat etgan Arzinjon amiri Mutahhartanga, Sohibqiron Bingul (Ming ko‘l) yaylovida bo‘lgan chog‘ida elchi yuborishi aqlga sig‘adigan tadbir emasdi. Har holda Amir Temur vujudga kelgan qulay imkoniyatdan mohirona foydalanadi.

Boyazid bilan munosabatda Amir Temur o‘zining yorqin harbiy va diplomatik salohiyatini namoyish etdi. «Amir Temurning strategiyasi eng avvalo o‘z qo‘shinining yuksak harakatchanligiga va qarorlarining o‘ta maxfiyligiga asoslanganligi tufayli g‘animlarini doimo dog‘da qodirardi», - deb yozadi L. Keren bu haqda[2].

Boyazidga qarshi harakat boshlashdan oldin uning barcha ittifoqchilarini birma-bir bartaraf etish lozim edi. To‘xtamish mag‘lub etilgan, ammo Misr mamluklari hamon mintaqada kuchli hukmdor hisoblanar va Sohibqironning ashaddiy raqiblari bo‘lgan Qora Yusuf turkman va Ahmad jaloyirni qo‘llab-quvvatlab, unga qarshi har doim gij-gijlab turar edi. Bu kuchlar birlashib, orqadan zarba berishini nazarda tutgan Amir Temur dastlab sulton Boyazid bilan ehtiyotkorona munosabatda bo‘ladi. Unga yozgan maktublarida u g‘ayridinlar bilan jangni davom ettirishi lozimligini ta’kidlaydi, o‘ziga tobe hukmdorlarni bezovta qilmaslikka chorlab, sulton huzurida boshpana topgan ashaddiy raqiblarini qaytarishni talab etadi[3].

Ayni zamonda Sohibqiron turk sultoni bilan hamkorlikda va do‘stona munosabatlarda bo‘lishni astoydil xohlagani ham ma’lum. Ammo g‘arbdagi g‘alabalaridan mast bo‘lgan Yildirim Boyazid Amir Temur qo‘shinining qudrati va imkoniyatlarini to‘g‘ri anglab yetolmaydi. Maktublar mazmuniga va ayonlariga aytgan so‘zlariga qaraganda, u haqiqiy ahvoldan ancha bexabar edi. Ibn Arabshoh bu xususda juda ibratli misol keltiradi: «Boyazid Temur maktubidan voqif bo‘lib, uning xitobli mazmunini anglagach, u o‘rnidan sapchib turib ketdi: uning g‘azabi qaynab, kuyib-yondi. Go‘yo nasha ivitmasi ichgan kishidek goh tovushini ko‘tarib, goh pasaytirib (shunday) dedi:

- Bu uydirmalar bilan meni qo‘rqitmoqchimi? Yoki bu yolg‘on-yashiqlar bilan menga nisbatan fitna chiqarmoqchimi? Yoki bo‘lmasa, meni Ajam podshohlari misoli hisobladimi? Yoki gapini anglab bo‘lmaydigan Dasht totorlari kabi sanadimi? Yoki qo‘shin yig‘ishda hindlar lashkarlari kabi

[1] Ғуломов С. Юқоридаги мақола // «Шарқшунослик» тўплами. – Б. 74-83.
[2] Кэрэн Л. Ўша асар. – Б. 99.
[3] Нагель Т. Ўша асар. – Б. 457-461; Исмоил Ака. Ўша асар. – Б. 28.

ko‘rdimi? Yoki mening askarlarimni tarqoqlikda Iroq to‘dalari kabi deb hisobladimi? Yoki mendagi islom (yo‘lidagi) g‘azotchilarini Shom askarlariga o‘xshatdimi? Yoki o‘zining qurigan to‘dasini mening askarlarimdek bildimi? Yoki uning haqidagi (barcha) xabarlarni menga ma’lum (ekanli)gini bilmaydimi?...»[1]

Boyazid ortiqcha takabburlikka berilib, haqoratomuz so‘zlarni bemalol ishlatayotgani diqqatga sazovor. Ammo u Amir Temur qanchadan-qancha janglarda g‘olib chiqqanligini bilsa-da, ulardan zarur xulosa va saboqlar chiqara olmagani, hatto puxta razvedka tizimiga ega emasligi yaqqol ko‘rinib turibdi. Shuning uchun ham Ibn Arabshoh uni: «Ibn Usmon (Boyazid) shoshqaloq va shijoatli kishi bo‘lib, odil podshohlardan bo‘lishiga qaramasdan, unda zarracha ham sabr-toqat yo‘q edi», - deb ta’riflaydi[2]. Ayni zamonda, arab muarrixi Amir Temurning og‘ir va vazmin, bosiq tabiatini ham qayd etadi: «Qachonki, Temur uning iztirobli javobidan voqif bo‘lgach, «Ibn Usmon majnun va ahmoq», - dedi[3]. Voqealar jarayoni Amir Temur turk sultoni tabiatiga to‘g‘ri baho berganini isbotlab berdi. Zero, ana shu davrda quruqlikda Sohibqiron qo‘shinlariga teng keladigan armiya Sharqda ham, G‘arbda ham yo‘q edi. Bu haqda suriyalik zamonaviy olim Akram Hasan al-A’labiy to‘g‘ri xulosalar bergani diqqatga sazovor. U Amir Temurning o‘z raqiblari ustidan erishgan zafarlarini tahlil qilib, uning ustunligi sabablarini quyidagicha izohlagan:

– qo‘shinning soni jihatidan ko‘pligi;

– raqiblar haqida to‘liq ma’lumotga egaligi (razvedka);

– janglar hujumkorlik ruhida olib borilgani;

– qo‘shinda ma’naviy ruh juda kuchli bo‘lganligi;

– tashviqot-targ‘ibot ishlariga katta ahamiyat berilganligi;

– boshqaruv (rahbarlik) siyosatidagi o‘ta kuchli salohiyati[4].

Turk olimi Erol Gungur asarida bu jang tafsilotlari bir qadar aniq keltirilgan. Uning yozishicha, Chubuk vodiysida ikki taraf saf tortadi. Yildirimning yonida vaziri a’zam Ali posho, o‘g‘illari Mustafo, Isa va Muso markazda turadi. O‘rdu (qo‘shin)ning o‘ng qanotiga Anatoliya beglarbegi Temirtosh posho, chap (so‘l) qanotini esa katta o‘g‘li amir Sulaymon boshqaradi. Yigirma ming saralangan serb askarlari zahiraga qo‘yiladi.

[1] Ибн Арабшоҳ. Ўша асар. – Б. 256.
[2] Шу асар. – Б. 256.
[3] Шу ерда. – Б. 259.
[4] Уватов У. Кўрсатилган асар. – Б. 123.

Amir Temur bilan Boyazid to‘qnashuviga yuqorida ko‘rsatilganidan tashqari yana boshqa muhim sabablar ham bor edi. Bu Vizantiya, Italiya, Fransiya, Angliya va boshqa G‘arbiy Yevropa davlatlari boshliqlarining Boyazidga qarshi kurashda yordam so‘rab Amir Temurga murojaat qilishidir. Shu yillarda Boyazidning Yevropadagi muzaffar yurishlarini to‘xtatish G‘arbiy Yevropa davlatlari uchun hayot va mamot masalasiga aylangandi. Amir Temur birinchi darajali quruqlik qo‘shinlariga ega bo‘lib, strategiya va taktika jihatidan boy harbiy tajriba orttirgandi. Turkiyada esa yaxshi quruqlik armiyasidan tashqari, harbiy-dengiz kuchlari ham mavjud edi. Shuning uchun ham Amir Temurning o‘g‘li Mironshoh “Qirollar, hukmdorlar, farang va xristian jamoalari boshliqlari”ga murojaat qilgandi[1]. Shu davrda birinchi darajali dengiz davlatlari bo‘lgan Genuya va Venetsiyaga sovg‘alar va maktublar bilan elchilar jo‘natilgandi. Konstantinopol va Trabzonga ham dengizdan turib madad berishni so‘rab da’vatnomalar yuborilgandi. Amir Temurning Ioann Paleologga yozgan maktubidan bilamizki, Trabzon (u bu mamlakat imperatori Manuildan barcha hududlari va harbiy dengiz kuchlarini o‘z ixtiyoriga berishini talab qilgan edi) va Konstantinopol Turkiya qirg‘oqlariga hujum qilish uchun yigirmatadan kema yuborishi zarur edi. Buni tasdiqlaydigan dalillar Klavixo asarida mavjud. U Konstantinopol imperatori va Perilik genuezlar Amir Temurga xizmat qilib, odamlar va kemalar bilan yordam berish majburiyatini olgani haqida yozadi. Shu o‘rinda genuezlar tabiatini ko‘rsatuvchi boshqa muhim dalil mavjud. Vizantiyaning mag‘lubiyatini ellik yil orqaga surib yuborgan Anqara jangidan keyin genuezlar ma’lum mukofot evaziga mag‘lub turklarni Osiyodan Yevropaga o‘z flotlarida o‘tkazib qo‘yishga rozi bo‘lganlar. Hatto ayrim kemachilar ko‘proq pul ishlab qolish umidida qochoqlarni qirg‘oq yaqinida dengizga ag‘darib, orqaga qaytgani haqida ma’lumotlar bor. [2]

Aynan 1402 yilgi Anqara jangi arafasida Amir Temur bilan G‘arbiy Yevropa davlatlari orasida elchilarning borib-kelishi kuchaygan edi. Sohibqironning farang qiroli Karl VI va ingliz qiroli Genrix IV bilan keyingi yozishmalarida Sharq bilan G‘arb orasida savdo sotiq va elchilik aloqalarini o‘rnatish taklifi ilgari surilgani muhim ahamiyatga ega[3].

Amir Temur farang qiroli Karl VI ga fors tilida yo‘llagan maktubida (hijriy 805 yil muharram oyining 1 kuni (milodiy 1402 yil 1 avgust): “O‘z savdogarlaringizni bu (bizning) mamlakatimiz tomonlarga yuborsangiz ma’qul

[1] Умняков И.И. Ўша асар. – Б. 184-185; Ўзбек дипломатияси тарихи. – Б. 258-261.

[2] Клавихо. Кўрсатилган асар. – С. 69, Кэрэн Л. Ўша асар. – Б.134-135.

[3] Умняков И.И. Ўша асар. – С.180; Кэрэн Л. Ўша асар. – Б. 205-222.

bo‘lardi. Biz ularga yetarlicha hurmat va e’tibor ko‘rsatamiz. Shuningdek, bizning savdogarlarimiz (sizning) o‘lkalaringizga yo‘llanmog‘i va ularga ham shunday hurmat-e’tibor ko‘rsatilmog‘i (lozim). Ularga hech kim zo‘ravonlik ko‘rsatmaydi va ortiqcha talablar qo‘ymaydi. Zero, jahon savdogarlar tufayli oboddir” – deb ta’kidlaydi[1]. Shunisi ajablanarliki, Sohibqiron va Karl VI ning birdek dushmani bo‘lgan Boyazid ustidan qozonilgan g‘alaba haqida maktubda biron og‘iz so‘z yo‘q. I.I.Umnyakov buni maktub Anqara jangidan oldin yozilgan, ammo bu hodisadan keyin sana qo‘yilib, jo‘natilgan bo‘lsa kerak, deb izohlaydi.

Tarixni to‘g‘ri yoritmasdan, tarixiy shaxslarning xizmatlarini haqqoniy baholamasdan turib, kelajakning chinakam maqsadlarini to‘la anglab bo‘lmaydi. Shu ma’noda mamlakatimizni bir necha asr hukm surgan mo‘g‘ul asoratidan xalos qilib, mustaqil mamlakat qurgan va uni jahonning kuchli, yetakchi davlatlaridan biriga aylantira olgan Amir Temurning hayoti va faoliyatini o‘rganish O‘zbekistonning kelajagi bo‘lgan yosh avlod ma’naviyatini, milliy g‘ururini yuksaltirishda, ularni Vatanga cheksiz muhabbat ruhida tarbiyalashda nihoyatda katta ahamiyatga egadir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Turk buyuklari va turk qahramonlari. – Istanbul, 1967.
2. G‘ulomov S. Yuqoridagi maqola // «Sharqshunoslik» to‘plami.
3. Umnyakov I.I. Vneshnepoliticheskiye svyazi Samarkanda s gosudarstvami Zapadnoy Yevropi. “Istoriya Samarkanda”. T.1. – T., 1969
4. Lyusen Keren. Amir Temur saltanati.
5. Vladimir Cherevanskiy. Amir Temur. – T., 1993. – B. 109-157.
6. Ioann. Amir Temur va uning saroyi. Fransuz tilidan Bahodir Ermatov tarjimasi // O‘zbekiston adabiyoti va san’ati. – 2005. – 13 may;
7. Amir Temur Yevropa elchilari nigohida. U.Jo‘rayev, B.Ermatov tarjimasi. G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. T., 2007. B. 3-207.
8. Ibn Arabshoh. Amir Temur tarixi.
9. Mannonov B. Amir Temur jahon tarixida. // «Sharqshunoslik» to‘plami.
10. O‘zbek diplomatiyasi tarixi. – B. 258-261.
11. Rui Gonsales de Klavixo. Dnevnik puteshestviya v Samarkand ko dvoru Timura (1403-1406 gg.) / per. so staroisp., predisl. i komment. I.S. Mirokovoy. M., “Nauka” 1990, S. 212.

[1] Умняков И.И. Ўша асар. – Б. 180.

AMIR TEMUR BUYUK SARKARDA

Sobirov A.,
Jamoat xavfsizligi Universiteti
Ilmiy rahbar: t.f.d. Turayeva S.R.

Amir Temurning tug‘ilishi, manzi, bolalik va o‘smirlik yillari haqida tarixiy manbalarda ma’lumotlar nihoyatda kam. Buning eng asosiy sababi, u o‘z avlodlari kabi hukmdorning o‘g‘li bo‘lmay, Kesh viloyatining kichik beklaridan birining farzandi bo‘lgan. Shu tufayli ham asosan, saroyda faoliyat ko‘rsatadigan muarrixlar uning yoshlik chog‘lari bilan deyarli tanish bo‘lmagan. Shunga qaramay, ayrim manbalarga qaraganda, u yoshligida xat-savod chiqarib, o‘z davrining tibbiyot, riyoziyot, falakiyot, me’morchilik va tarix ilmlarini o‘rgangan. Amir Temur bilan suhbatlashish sharafiga muyassar bo‘lgan buyuk arab faylasufi Ibn Xaldun jahongir turk, arab, fors xalqlari tarixini, diniy, dunyoviy va falsafiy bilimlarning murakkab jihatlarigacha yaxshi o‘zlashtirganini ta’kidlaydi [6, 41-46].

Amir Temur tug‘ilgan joy Amir Temur ibn Amir Tarag‘ay milodiy 1336 yil 8 apreldan 9 aprelga o‘tar kechasi Kesh (Shahrisabzga qarashli) yaqinidagi Xo‘ja Ilg‘or qishlog‘ida tug‘ildi. Tarixiy adabiyotlarda Amir Temurning Yakkabog‘ emas, «Shahrisabzga qarashli Xo‘ja Ilg‘or qishlog‘i»da tug‘ilgani haqidagi ma’lumotlar keltirilishini qisqacha sharhlaymiz. Amir Temurning Xo‘ja Ilg‘or qishlog‘ida tug‘ilganligi haqidagi ilk ma’lumotlar arab muarrixi Ibn Arabshoh (1389–1450 yillarda yashagan, 12 yoshligida Amir Temur farmoniga binoan Damashqdan qarindoshlari bilan birga Samarqandga olib kelingan)ning Amir Temur haqidagi «Amir Temur tarixida taqdir ajoyibotlari» asarida uchraydi (Muiniddin Natanziy esa o‘zining 1414 yil yozilgan «Muntaxab ut-tavorixi Muiniy» asarida Amir Temurni Niyoziy qishlog‘ida tug‘ilganlini aytadi [3, 85]. Lekin bu qishloqning o‘rni hanuz munozarali). Jumladan, unda «Temur ibn Tarag‘ay ... tug‘ilgan joyi Xo‘ja Ilg‘or deb ataladigan qishloq, Xo‘ja Ilg‘or Keshga qarashli joylardan... Kesh Movarounnahr shaharlaridan, Samarqanddan taxminan 13 farsax (1 farsax 6–8 km. – A.Z.)», deb yozilgan ma’lumot mavjud [2, 68]. Xo‘ja Ilg‘or qishlog‘i Sohibqiron tug‘ilgan maskan sifatida tanilgani sababli doimo tarixchilar va keng jamoatchilik e’tiborini o‘ziga tortib kelgan.

Xo‘ja Ilg‘or qishlog‘i bugungi kunda Yakkabog‘ tumanida. Xo‘sh, nega unda tarixiy adabiyotlarda mazkur qishloq «Shahrisabz yaqinida», «Keshga qarashli», «Shahrisabzga qarashli» deb yozib kelingan? Bugungi kundagi

Yakkabog‘ va Shahrisabz tumanlari o‘rta asrlarda Kesh vohasi doirasida bitta hududiy birlik sifatida tilga olib kelingan. Yakkabog‘ning Shahrisabzdan alohida ma’muriy hudud sifatida ajralib chiqishi va tarixiy shakllanishi to‘g‘risida ba’zi tadqiqotchilar yozgan bo‘lsa-da, uzoq vaqtlardan beri bu tarixiy jarayon mavhumligicha qolib kelayotgandi. Yakkabog‘ viloyati (bekligi)ning paydo bo‘lishi ashtarxoniylar davriga (1601–1756), XVII–XVIII asr boshlariga to‘g‘ri keladi. Kenagas va mang‘itlar Shahrisabz bekligiga kelib o‘rnashgan paytlarida beklikning Taka, Yakkabog‘, Surxob mintaqalari boshqaruvini o‘zbeklarning avaqli urug‘i vakillari qo‘lga kiritdi [4, 99-101]. Shu vaqtga qadar alohida ma’muriy birlik sifatida mavjud bo‘lmagan Yakkabog‘ bekligining tarixiy shakllanishi mazkur urug‘ vakillaridan bo‘lgan Qosimbekning faoliyati bilan bog‘liq. Buxoro amirligining asoschisi Muhammad Rahimbiy (1756–1758) Shahrisabzni bo‘ysundirgan paytlarda Qosimbek avaqli Yakkabog‘ bekligining hokimi bo‘lgani haqidagi ma’lumotlar manbalarda saqlanib qolgan. Shu vaqtlardan boshlab Yakkabog‘ Qosimbek avaqli va uning avlodlari tepasida turgan ma’muriy boshqaruv tizimiga ega viloyat (beklik)ga aylandi (Yakkabog‘liklar orasida mashhur bo‘lgan Yodgorbek vallamiy mazkur beklikning yettinchi hokimi bo‘lgan. – A.Z.) [1, 20]. Shunday bo‘lsa-da, Yakkabog‘ qisqa muddatlarda Shahrasabz bilan goh siyosiy ittifoqda, goh uning ta’sirida, goh tarkibida bo‘lgan ma’lum davrlar ham mavjud. Hatto 1920- yillarda ham Yakkabog‘dagi Xo‘ja Ilg‘or qishlog‘i Shahrisabz viloyatining Mo‘minobod amloki (amlok – kichik ma’muriy hudud)ga qarashli bo‘lgan [1, 94]. Xullas, Amir Temur tavallud topgan davrlarda (XIV asr) Yakkabog‘ deb nom olgan alohida ma’muriy birlik mavjud emas edi. XVIII asrda shakllangan Yakkabog‘ bekligi esa Kesh (Shahrisabz) viloyatiga qarashli hudud bo‘lgan. Shu jihatdan qaraganda, ko‘plab tarixiy manbalar va adabiyotlarda Amir Temur tavallud topgan joy – bugungi Yakkabog‘ tumanidagi Xo‘ja Ilg‘or qishlog‘i Shahrisabz va Kesh nomlari bilan yonma-yon keladi.

Sohibqiron Amir Temir tavallud topgan Xo‘jailg‘or qishlog‘i hozirgi kunda Yakkabog‘ tumani hududidadir. U tuman markazidan 4 km uzoqlikda joylashgan. Xo‘jailg‘or qishlog‘i haqida “Qashqadaryo qishloqnomasi” kitobida: *“Xo‘jailg‘or” – Yakkabog‘ tumanidagi qishloq. Tarkibi: ho‘ja+ilg‘or. Xo‘ja-sig‘inadigan (joy); muqaddas, mo‘tabar; qadamjo. Adabiy tildagi ilg‘or(qo‘shinning oldingi qismi; peshqadam; yangilikka boshlovchi) so‘zining nom tarkibidagi ilg‘or so‘ziga daxli yo‘q. Nom tarkibidagi ilg‘or so‘zining*

tovush tarkibi o‘zgargan. Ilg‘or so‘zining tarkibi: ilg‘or. Eroniy tillarda g‘ar/g‘or-tog‘. Tog‘simon balandlik, tosh. Il so‘zining ma’nosi va qadimiy shakli noaniq. Nomning shakllanishida g‘ar/g‘or so‘zining tosh ma’nosi asos bo‘lganligi taxmin qilinadi: ilg‘or-tosh qo‘rg‘on” *[5,280]* deyiladi.

Qashqadaryo viloyati, Yakkabog‘ tumanida joylashgan, Sohibqiron Amir Temur tavallud topgan Xo‘ja Ilg‘or qishlog‘ida buyuk bobokalonimiz hayot yo‘liga bag‘ishlangan madaniy yodgorlik deyarli saqlanmagan. Qishloqda milodiy 711 yilda vafot etgan va xalq o‘rtasida Xo‘ja Ilg‘or ota nomi bilan tanilgan Xo‘ja Muhammad ibn al-Qosimning ham maqbarasi joylashgan bo‘lib, Xo‘ja Ilg‘or qishlog‘i bugungi kundagidan shimoli-sharqqa qarab kengaygan hududda bo‘lgan. Amir Temur bilan bir davrda yashagan tarixchi Ibn Arabshohning ta’kidlashicha, Sohibqiron Xoja Ilg‘or qishlog‘ida tug‘ilgan va shu makonda ulg‘aygan.

Rivoyatlarga ko‘ra, mazkur qishloqdagi «Xo‘ja Ilg‘or ota» qabristonida bo‘lgan, og‘irligi 100 kilogrammga yaqin tosh Amir Temur yoshligida ko‘tarib, mashq qilib chiniqqan «polvon tosh» ekan. Lekin, so‘nggi paytlarda olib borilgan ilmiy tadqiqotlar, bu toshning «polvon tosh» emas, balki, qabr toshi ekanligini isbotladi. Chunki, Movarounnahrda Temur va temuriylar davriga qadar qabrlar uchun qayroq toshlar qo‘yilgan bo‘lsa, XIV asrdan marmar toshdan qabr toshi qo‘yish urfga kirgan. «Xo‘ja Ilg‘or ota» qabristonidagi «polvon tosh»ning shakli beshiksimon bo‘lib, bu arablar istilosidan keyin paydo bo‘lgan shakl hisoblanadi. Temur va temuriylar davridagi qabrlardagi toshlar, xususan, Samarqanddagi Shohi Zinda ansamblidagi temuriy shahzoda, malika va amirlarga tegishli ko‘plab qabr toshlarining shakli aynan, «Xo‘ja Ilg‘or ota» qabristonidagi «polvon tosh»ning shaklini eslatadi. Xo‘sh, bu tosh qabr toshi bo‘lsa, nega unda yozuvlar mavjud emas?! Tarixchi va epigraf olim Bobur Aminovning izlanishi natijalariga ko‘ra, o‘rta asr qabr toshlarining hammasida ham yozuvlar mavjud emas. Tarixiy manbalar tahlili asosida, buni quyidagicha izohlash mumkin: 1) bunday toshlar asosan, yuqori tabaqa vakillariga qo‘yilgan bo‘lib, tug‘ilgan bola go‘dakligidayoq vafot etsa, unga qo‘yilgan tosh yozuvsiz bo‘lgan; 2) musulmon jamiyatlarida ko‘p hollarda ayollarga qo‘yilgan qabr toshlariga yozilmagan; 3) ayrim hollarda bek va amirlar o‘zlariga tirikligidayoq qabr tosh yasatishgan, vafot etgandan keyin unga avlodlari yozdirishlari lozim bo‘lgan. Vaziyat o‘zgarib, tosh sohibining boshqa joyda vafot etib, dafn etilishi natijasida toshlar egasiz qolib ketgan (buni eski qabristonlar omborlaridan topilgan yozuvsiz toshlar tasdiqlaydi). Xullas, XIX asrning ikkinchi yarmidan

boshlab bu tosh «polvon tosh» sifatida qarala boshlangan. Ungacha bo‘lgan davrdagi manbalarda «polvon tosh»lar xususidagi ma’lumot uchramaydi. Shuningdek, Amir Temur hukmdor yoki mamlakatning yuqori darajali shaxsining farzandi bo‘lmaganligi uchun, uning bolalik davri zamondosh tarixchilar tomonidan yoritilmagan. Shuning uchun, uning bolaligi va o‘smirlik davri haqida faktlar emas, asosan, afsona va rivoyatlar mavjud.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Жуманазар А., Тўхлиев Ж. Яккабоғ – Соҳибқирон камол топган юрт. – Т.: Академнашр, 2018.

2. Ибн Арабшоҳ. Ажойиб ал-Мақдур фи тарихи Таймур (Темур тарихида тақдир ажойиботлари) / Сўзбоши, араб тилидан таржима ва изоҳларни У.Уватов тайёрлаган. 1- жилд. – Т.: Меҳнат, 1992.

3. Муиниддин Натанзий. Мунтахаб ут-таворихи Муиний. / Форс тилидан таржима, сўзбоши ва изоҳлар муаллифи Ғулом Каримий. – Т.: Ўзбекистон, 2011.

4. Муъин ва унинг «Зикри теъдоди подшоҳони ўзбек» асари // Ўзбекистон тарихи. Хрестоматия. XVI–XIX асрлар / Нашрга тайёрловчи: Н. Ҳабибуллаев. Тошкент, 2014.

5. Нафасов. Т. Қашқадарё қишлоқномаси. Т.: Муҳаррир нашриёти, 2009.

6. Ҳабибуллаев А. Ибн Ҳалдун “Таржимаи ҳол”дан. / Амир Темур ва Улуғбек замондошлари хотирасида. Т.: Ўқитувчи, 1996.

“TEMUR TUZUKLARIDA” ADOLAT TAMOYILLARI

Hamrayev S.Q.,
Jamoat xavfsizligi Universiteti kursanti
Ilmiy rahbar: t.f.d. Turayeva S.R.

Amir Temur 35 yil davomida mamlakatni boshqardi. Hindiston va Xitoydan Qora dengizga qadar, Orol dengizidan Fors qo‘ltig‘iga qadar bo‘lgan g‘oyat katta hududni qamrab olgan ulkan saltanatni vujudga keltirdi Amir Temur va Temuriylar haqida 33 mamlakatda 500 dan ziyot chet ellik tadqiqotchilarning asarlari chop etilgan. Buyuk bobokalonimiz Amir Temurning shaxsiyati, tarixi, harbiy salohiyati, xalqlar hamda davlatlar o‘rtasida tutgan o‘rni, diplomatik aloqalar, munosabatlarni joriy etishdagi

faolligi to‘g‘risida juda ko‘plab tarixiy, badiiy, ilmiy asarlar, risolalar, publitsistik maqolalar yozilgan. Shubhasizki, Temur haqida yozilgan katta asar yoki kichik maqola bo‘lsin, har birida dahoning shaxsiyatiga tarixda o‘chmas iz qoldirgan yirik davlat arbobi, mohir sarkarda, ilm-fan, madaniyat homiysi sifatida yuqori baho berishadi.

Tadqiqotchilar tomonidan Amir Temur shaxsiyatiga murojat etar ekan . bu buyuk dahoning hali o‘rganilmagan yangidan yangi jihatlari ochilib kelaveradi xususan Amir Temur adolatli jamiyat qurishga, inson huquqlari fqih ilmi (musulmon qonunshunosligi) asosida ta`minlashga, mol-mulk daxilsizligiga, zo‘rovonlikga qarshi chiqadi [1]Amir Temur uzigi ko‘zida yozilgan,, Adolat najot yo‘lidir” degan qisqacha iborasi ham uning dunyo qarashi ko‘zgusi va amaliy faoliyatning asosiy shiori edi. Amo Temurning barcha xati xarakatlarida uning ta`siri ochiq sezilib turadi. Adolatga ishonish Amir Temur uchun iymon darajasiga ko‘tarilgan edi.

Amir Temurning yetti yoshi 1342-yildan to 1405-yil 18-fevralga qadar kechgan hayoti va ishtmoiy siyosiy faoliyati haqida ma`lumot beruvchi Sohibqironing og‘zidn yozilgan “Temur tuzuklari” asarida adolatli davlatni boshqarganligi xaqida shunday deydi[2] “Adolat va insof bilan Tangrimning yaratgan bandalarini o‘zimdan rozi qildim. Gunohkorga ham, begunohga ham rahm-shafqat bilan, haqqoniyat yuzasidan hukm chiqardim. Xayr-ehson ishlarim bilan odamlarning ko‘nglidan joy oldim. Siyosat va insof bilan sipohlarimni, raiyatni umid va qo‘rqinch orasida tutib turdim. Fuqaro va qo‘l ostimdagilarga rahmdillik qildim”

Amir Temur adolat bilan davlatni boshqarishda xardoim ustozlari maslaxtiga amal qilar nasixasstlarni tiglar edi xar bir ishboshlashdan oldin mashvarat qilar edi bu to‘g‘risida temur tuziklarida shunde deydi [3]”Pirim menga yozmishlarkim: «Abulmansur Temur, saltanat ishlarida to‘rt narsaga amal qilgin, ya’ni: 1) (o‘zing bilan) kengash4; 2) (boshqalar bilan) mashvaratu maslahat ayla; 3) hushyorligu mulohazakorlik bilan qat’iy qaror chiqar; 4) ehtiyotkor bo‘l. Chunki kengash va mashvaratsiz saltanatni barcha qilgan ishlariyu aytgan gaplari xato bo‘lgan johil kimsaga qiyoslash mumkin; uning so‘zlari va qilmishlari boshga pushaymonlik ila nadomat keltirgay. Shunday ekan, saltanatni boshqarishda mashvaratu maslahat va tadbir bilan ish yuritgin, toki oqibatda nadomat chekib, pushaymon bo‘lmagaysan. Bu maktub menga

[1] Amir Temur soboqlar moqolalar toplami 26-bet (Toshkent 1997-yil)
[2] Temur tuziklari G’ofur G’ulom nashryoti 54 bet (Toshkent-1991-yil).
[3] Temur tuziklari G’ofur G’ulom nashryoti 14 bet (Toshkent-1991-yil)

yo‘l boshlovchi yanglig‘ rahnamolik qildi. U menga saltanat ishlarining to‘qqiz ulushi mashvarat, tadbir va kengash, qolgan bir ulushi esa qilich bilan bajo keltirilishini anglatdi.”

Sohibqiron Amir Temur odiy xalq turmishiga katta e`tibor qaratar oddiy xalqni o‘z oila a`zolaridek ko‘rar edi. shuning uchun xalqning xolidan xabar olib turishga ularning kayfiyatni bilib turishga va xalqning o‘zlari so‘ragan kishinin rahbar qilib tayinlar edi [1]“Raiyat ahvolidan ogoh bo‘l-dim, ulug‘larini og‘a qatoida, kichiklarini farzand o‘rnida ko‘rdim. Har yerning tabiati, har el va shaharning rasm-u odatlari, mizojidan voqif bo‘lib turdim. Har bir o‘lka va shahar axdining ashrof-ulug‘lari bilan do‘st tutindim. Mizojlariga, tabiatiga to‘g‘ri kelgan, o‘zlari tilagan odamlarni ularga hokim qilib tayinladim. Har bir diyor aholisining ahvolidan ogoh bo‘lib turdim. Har bir mamlakatning ahvolini, sipohu raiyat kayfiyatini, turish-turmushini, qilish-qilmishlarini, bular o‘rtalaridagi aloqalarni xatga bitib, menga bildirib turishlari uchun diyonatli, to‘g‘ri yozuvchi kishilarni belgiladim. Bordi-yu egri yozganlari menga bildirilsa, ularni jazoladim. Hokimlaru sipohdan qay birining xalqqa jabr-zulm yetkazganini eshitsam, ularga nisbatan darhol adolatu insof yuzasidan chora ko‘rdim”

Yuqorida keltirilgan misralardan ko‘rinib turibdik Sohibqiron Amir Temur rayat-odiy xalqa nisbat adolatli bo‘lish, holidan xabr olishga, xarakat qilgan va ularga o‘zi kabi adolatli rahbar tayinlash masalasiga aloxida e`tibor bergan va yangi tayinlanadigan rahbarga nisbatan juda qattiq talpchan bo‘lgan biz bu to‘g‘risida “Temur tuziklariga” murojat etamiz bunda vazir lavozimga ega bo‘lgan inson qanday sifatlarga ega bo‘lishi kerakligi tog‘risida shundey deydi [2]“Amr qildimki, vazirlar ushbu to‘rt sifatga ega kishilardan bo‘lishlari lozim: birinchisi asillik va toza nasllik, ikkinchisi–aql, farosatlilik, uchinchisi–sipohu raiyat ahvolidan xabardorlik, ularga nisbatan xushmuomalalik, to‘rtinchisi–sabr-chidamlilik va tinchliksevarlik. Kimki shu to‘rt sifatga ega bo‘lsa, unday odamni vazirlik martabasiga loyiq kishi deb bilsinlar. Uni vazir yoki maslahatchi etib tayinlasinlar. Mamlakat ishlarini, sipoh va raiyat ixtiyorini unga topshirsinlar. Bunday vazirga to‘rt imtiyoz–ishonch, e’tibor, ixtiyor va qudrat berilsin.Qaysi vazir g‘iybat gaplarni aytsa, uydirma gaplarga quloq solsa, jabr-zulm qilsa, o‘ziga yoqmagan kishilarni yo‘qotish payiga tushsa, uni vazirlikdan tushirish lozim. Nasliyu zoti past, hasadchi, gina-kek saqlovchi,

[1]Temur tuziklari G’ofur G’ulom nashryoti 55 bet (Toshkent-1991-yil)
5Temur tuziklari G’ofur G’ulom nashryoti 75 bet (Toshkent-1991-yil)
[2] Temur tuziklari G’ofur G’ulom nashryoti 75 bet (Toshkent-1991-yil)

qora ko‘ngilli kishilarga zinhor vazirlik lavozimi berilmasin. Buzuqi, qora ko‘ngilli, zoti past odam vazirlik qilsa, davlatu saltanat tez orada qulaydi.”

Amir Temurnig adolatli foliyati haqida temur tuziklari, arab murihlar va g‘arbiy Yevropa bilan olib borilgan elchlik aloqalari natijasida yurtmizga tashrif buyurgan elchilar estaliklarida qizqarli malumotlar uchratamiz shulardan Kastiliya qiroli Genrix III tomonidan yuborilgan Rui Gansales de Klavixo boshliq elchilari 1404-yilning sentabr noyabr oylarida Samarqandda bo‘ladilar . Klavixoning safar taassurotlari “Buyuk Temur tarixi”, “Temur qarorgohi” va “Samarqandga sayohat kundaligi” nomlari ostida ispan tilida bir necha bor nashr qilinadi bu asarlarda Amir Temur foliyati haqida ajoyib vaqiyalar hikoya qilinadi.

Amir Temur uzoq vaqt davomida xarbiy safarlardan Samarqandga qaytib kelgandan so‘ng xalqning xolidan xabar olar edi. Safarda vaqtida davlat boshqaruvga tayinlab ketgan amaldorlar foliyati juda qatiq nazoratga olinar edi bu to‘g‘risida Rui Gansales de Klavixo “Buyuk Temur tarixi”asarida quydagicha bayon etadi [1]”Temurbek olti yilu o‘n bir oy bo‘lmagan vaqtda uni o‘z o‘rniga hokim tayinlab ketganli. Shu vaqtlar mobaynida bu kishi Temurbekning ishonchidan foydalanib, o‘z laozimini suiste'mol qilgan, ko‘p xatoliklarga yo‘l quygan. Sohibqiron Samarqandga qaytib kelishi bilanoq, bu kishini oldiga chaqirib, molk-mulkini musodara qildi, o‘ziga jazo tayinladi. Shunday taniqli kishiga bunday jazoning berilishi hammani hayratga soldi, chunki bu kishiga Sohibqironning o‘zi ko‘p ishonch bildirgandi. Sobiq hokimning tarafini olib chiqqanlar ham jazolandi.. Shundan keyin Temurbek yana ko‘pgina insonlarni jazoladi Bunga misol qilib, bozordagi bir qancha qassoblarni ko‘rsatish mumkin. Bu qassoblar Temurbek yo‘q bo‘lgan vaqgda go‘shtlarni o‘z narxidan ancha qimmatiga sotganligi uchun jazolandilar Keyinroq bozordagi hunarmandlar, etikdo‘zelar o‘z mollarini qimmat narxda sotayotganligini bilib, ular- ning ham ortiqcha daromadlarini olib qo‘yishni buyurdi.”

[2]Temur yozishmalariga muvofiq vaqti-vaqti bilan so‘rovlar o‘tkazish, tergov qilish, tekshirish, taftish ishlari amalga oshirilgan. O`z amalini suiste'mol qilish, poraxo‘rlik, doimiy ichkilik ichish, maishiy buzuqlik kabilar og‘ir gunoh hisoblanib, qattiq jazolangan. Sharafuddin Ali Yazdining yozishicha, sui`stemol qilish Temur avlodlariga ham talluqli bo‘lgan ular ham tegishli jazo olganlar. Jumladan, uning o‘g‘li Mironshoh, nevarasi Amirzoda Pirmuhammadlar xalq

[1] Amir Temur Yevropa elchilari nigoxida 126-bet (Toshkent 2007-yil)
[2] Amir Temur jahon tarixida tutgan o’rni FAN nashryoti 1996-yil 14 bet

oldida qattiq jazoga tortilganliklari to‘g‘risnda manbalarda yozib qoldirilgan . Amir Temur davlatning obro‘si, sharafi, manfaati sohasida g‘oyat qattiqqo‘l edi. U bunday paytlarda o‘zini ham, o‘g‘il va nevaralarnni ham, qarindosh-urug‘lar ham, harbiy boshliqlarni ham ayamas edi. U davlat ishlarida g‘oyat mustahkam sobit va barqaror turardi.

Xullas, Sohibqiron Amir Temur 35-yilik hukumronlik qilgan davr mobaynida adolat shamshirni mahkam tutib davlatni boshqardi eng ,avvalo, Rayat- oddiy xalq manfatlarni himoya qilindi. Yo‘qsilar holidan xabar olindi jabir-zulim noxaqlikga murosasiz munosabatda bo‘lindi Sohibqiron Amir Temur amaldorlar o‘rtasida tez-tez taftish o‘tkazilib o‘z ishni tashlab qoygan poraxo‘rlik, ichklikbozlik, mayishi buzuqilikga berilib ishida, suiistemolchiliga yo‘l qo‘ygan amaldorlar, vazirlar, viloyat hokimlari, sarkardalar qatiq jazolandi. Bunda Amir Temur davlat ishlarida g‘oyatda mustahkam sobit turib o‘z yaqinlari qarindosh urug‘lari o‘g‘ilari nabiralarigaxam jazo tayinladi natijada Sohibqiron Amir Temurdan dasturi amal bo‘laoladigan kelajak avlod uchun buyuk ma`naviy meros qoldi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati.

1 Vatan tarixi. Rustam Shamsidinov, Shodi Karimov “ShARQ” nashryot Toshkent 2010-yil

2 Amir Temur soboqlar moqolalar toplami “ShARQ” nashryot Toshkent 1997-yil

3 Temur tuziklari “G‘ofur G‘ulom nashryoti” Toshkent-1991-yil

4 Amir Temur Yevropa elchilari nigoxida “G‘ofur G‘ulom” nashryoti Rui Gansales de Klavixo Toshkent 2007-yil

5 Amir Temur jahon tarixida tutgan o‘rni ” FAN” nashryoti Toshkent 1996-yil

AMIR TEMUR MEROSINING YOSHLARNI HARBIY VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASH MASALALARI

Toshbekov N.,
Jamoat xavfsizligi universiteti
Tahririyat-noshirlik bo‘limi katta ofitseri

Sohibqiron mukammal harbiy-siyosiy tizimni yaratdi va bu tizim keyinchalik yirik davlatlar boshliqlari, sarkardalariga muhim dastur vazifasini o‘tadi. U lashkariy qismlarni mukammal tuzib chiqdi. Kuragi yerga tegmagan harbiy sarkarda, bugungi kungacha o‘tgan qo‘mondonlarning eng buyuklaridan biri sifatida dovruq qozondi. Aynan mana shu harbiy san’ati orqali mamlakatda kuchli mudofaa tizimini yaratdi. Amir Temur harbiy ilm-u salohiyati orqali davlatda tinchlik va barqarorlikni ta’minlash bilan birga dunyoda yetakchi mavqeni egalladi.

Uning qo‘shini beqiyos qo‘shin edi.

Amir Temur qo‘shin, sardorning (amir ul-umaro) xatti harakatlarini kuzatuvchi lashkar nazoratchisini ham tayinlagan va unga shaxsan o‘zi bildirgan ishonch nishoni – Zafarnishon yorlig‘ini bergan. Bordiyu jangda sardor yanglishsa, lashkar nazoratchisi amirlarga va sipohiylarga zafarnishon yorlig‘ini ko‘rsatgan va uning o‘rniga boshqa sardor tayinlagan.

Taxminan 1000 dan ortiq jang o‘tkazgan, bir marta 29 yoshida janggi loyda mag‘lub bo‘lgan.

Sohibqiron – zafarli, g‘olib, Zuhra va Mushtariy Venera va Yupiter sayyoralarining bir burjda to‘g‘ri kelishi pallasida tug‘ilgan.

Ta’kidlash joizki, Amir Temurda jang paytida eng zarur mahalda kerakli joyda bo‘la olishdek ajoyib xususiyatga ega bo‘lgan. Amir Temur dushmanlari uning maqsadini uqib olishga ulgurmasdan, o‘z ishini nazorat qilish imkonini beradi. Boz ustiga, jang maydonida uning shaxsan ishtiroki eng og‘ir damlarda jangchilarini aniq bo‘lib qolgan mag‘lubiyatdan qutqarib qola olgan harbiy sarkarda edi.

Amir Temur markazlashgan davlat barpo etib, eng avvalo uning harbiy salohiyatini kuchaytirishga katta e’tibor qaratdi. Shu maqsadda muntazam qo‘shin tuzishga, unga yangiliklar kiritishga harakat qildi. Amir Temur sharqda birinchilardan bo‘lib o‘z armiyasiga o‘t ochar qurol, ya’ni to‘p-ra’dni olib kirdi. Shuningdek, u tog‘li hududlarda jang harakatlari olib boruvchi piyodalardan tuzilgan maxsus harbiy qismlarni tashkil qildi. U jahon harbiy san’ati tarixida birinchi bo‘lib qo‘shinni jang maydonida yetti qo‘lga bo‘lib joylashtirish tartibini joriy etdi. Amir Temur armiyasida ayollardan tuzilgan bo‘linmalar bo‘lib, ular jang chog‘i erkaklar bilan bir safda turgan, qahramonlik va matonat namunalari ko‘rsatgan.

Amir Temur tuzgan harbiy qo‘shinida muntazam armiyaga xos bo‘lgan ko‘pgina belgilar namoyon edi: xususan, qo‘shin son jihatdan aniq va puxta

tashkil qilingan, uning jangovar tartibi jangdan-jangga takomillashtirilib borilgan, armiya o‘z zamonasining ilg‘or qurol va texnikasi bilan qurollangan, aynan bir turdagi qurol-yarog‘, aslaha-anjom bilan ta’minlangan qismlar bir-biridan kiyim-boshi, tutgan bayroq yoki tug‘i orqali ham farqlangan. Bunday ajralib turish jang paytida qo‘shinni boshqarishda juda qo‘l kelgan.

Qo‘shinning qism, polklarga taqsimlanishi, har biri uchun ma’lum bir turdagi askariy kiyimlarning joriy etilishi kabi yangiliklar keyinchalik yevropalik xalqlar tomonidan ham o‘zlashtirildi.

Qo‘shin piyodalar va otliq askarlardan iborat edi. Temur piyodalarning ahamiyatiga ko‘proq e’tibor bergan. Uzoq yurishlar vaqtida harakatlanishi uchun piyodalar ham otlar bilan ta’minlangan. Piyoda askarlardan o‘q-yoy bilan otishmalarda ham, qal’alarni shturm qilishda ham foydalanilgan. Shuni qayd etish lozimki, aniq nishonga o‘q otish lozim bo‘lgan paytlarda otliq qo‘shin ham otlaridan tushib, yayov holda harakatlangan.

Biroq, asosiy rolni otliq qo‘shin o‘ynagan. Ular tez harakat qiluvchi safarbar yengil suvoriylarga va og‘ir qurolli otliqlarga bo‘lingan. Og‘ir qurollangan otliq qo‘shinning vazifasi dushmanga hal qiluvchi zarbani berishdan iborat edi. Amir Temur jangda ularning rolini yanada orttirdi. Og‘ir qurollangan suvoriylarning katta qismini sara otliq qo‘shinlar tashkil etgan. Amir Temur qo‘shinlarida xos soqchilar va gvardiya ham mavjud bo‘lgan.

Amir Temur harbiy qo‘shin tarkibini boyitib, yanada kengaytirdi hamda har qanday sharoitlarda jang olib borishga moslashtirdi.

Yurishga jo‘nashdan oldin Amir Temur arkoni davlat, vazirlar, sarkardalar, beklar, amirlarni harbiy kengash – mashvaratga chorlagan. Ayni chog‘da ulusning turli viloyat va tumanlardan, shuningdek tobe yurtlardan qo‘shin to‘plash uchun maxsus buyruq - tunqal e’lon qilingan. Farmon kerakli joylarga yuqori mansab egasi, bosh qo‘mondonning ad’yutanti – tavachi tomonidan tezlik bilan yetkazilgan. Tavachining zimmasiga askar jamlashdan tashqari qo‘shin qismlarining qarorgoh yoki safardagi o‘rni, jangovar tartibni hamda bir joydan ikkinchi joyga ko‘chishini nazorat qilish ham yuklatilgan edi.

Tunqalga binoan viloyat hokimlari, tuman yoki shahar beklari, qal’a, qo‘rg‘on dorug‘alarining Amir Temur tomonidan tuzilgan ro‘yxatga muvofiq, o‘z jangchilari, zarur ot-ulovi, qurol-yarog‘i, oziq-ovqati, yem-hashagi bilan belgilab qo‘yilgan joyga (miodga) o‘z vaqtida, kechikmasdan yetib kelishi shart hisoblangan.

Piyoda askarlar asosan qilich, kamon va kerakli miqdordagi o‘q bilan safarga chiqqan. Avvaldan maxsus tanlab, belgilab qo‘yilgan joyda - miod yerida oliy bosh qo‘mondonning qarorgohi tikilgan va u turli rangdagi tug‘ hamda bayroqlar bilan bezatilgan. Belgilangan vaqt (miod vaqti)da lashkargohga yetib kelgan askarlar qat’iy tartib va intizom bilan o‘z bo‘ljar (pozitsiya)larini egallagan hamda yurish oldidan o‘tkazilajak an’anaviy harbiy ko‘rikka puxta tayyorgarlik ko‘ra boshlagan.

Sohibqiron yurish paytida tajribali sipohiylarga katta ishonch bildirgan. Ko‘p sonli janglarda suyagi qotgan, urushni o‘zining bosh mashg‘uloti deb hisoblagan harbiylar safar boshlanishidan avval jam qilingan, ular kirim-chiqim daftariga, shuningdek davlatdan maosh – ulufa, oziq-ovqat, yem-xashak oluvchilar ro‘yxatiga kiritilgan.

Run Gonsales de Klavixoning guvohlik berishicha, qo‘shin to‘plash to‘g‘risida farmoni oliy e’lon qilinishi bilan askarlar o‘z oilasi, asbob-aslahasi, mol-mulki bilan miod yeriga yetib kelgan. O‘rdagohdagi Sohibqironning saropardasi atrofida har bir qism va bo‘linmalarning chodirlari tikilgan. Oddiy askardan yirik sarkardagacha har kim o‘z joy**lashish** o‘rnini aniq bilgan. Barcha ishlar tartib-intizom bilan, shovqin-suronsiz bajarilgan. Qo‘shin bilan birga qassoblar, bakovullar, qovurilgan va pishirilgan go‘sht bilan savdo qiluvchilar, arpa va meva sotuvchilar, novvoylar ham ko‘chib yurgan. Turli kasb egalari askarlarga xizmat ko‘rsatgan. Hatto ko‘chma hammomlar ham jangchilar xizmatida bo‘lgan.

Tuzilishiga ko‘ra Amir Temur armiyasi o‘n, yuz, ming va tumanlarga taqsimlangan. Ularga o‘nbegi, yuzbegi, mingbegi va tumanbegilar sardorlik qilgan.

Amir Temurning jangovar taktikasiga ko‘ra, agar dushman 12 mingdan ortiq, lekin 40 mingdan kam jangchiga ega bo‘lsa, Amir Temur ularga qarshi qirq ming kishidan kam bo‘lmagan qo‘shin jo‘natgan. Lashkarboshi sifatida o‘z o‘g‘illaridan birini tayinlab, uning yoniga ikkita tajribali amirni va boshqa harbiy boshliqlarni qo‘shgan. Bu qo‘shinlar uchun jangovar tartib quyidagicha edi: qo‘shin 14 qismga bo‘linardi, bu qismlardan biri, umumiy korpus sonining 1/3 qismidan kam bo‘lmagan miqdorida sarkarda boshchiligida zaxirada turgan; o‘ng va chap qanotlarga uchtadan qism tayinlangan, ular ikkinchi chiziqni tashkil etgan; mazkur qismlardan bittadan ajratib olingan va ular avangardda turgan, boshqalari har bir qanotning o‘ng va so‘l yonini tashkil etgan; o‘ng va chap qanotlar avang‘orlari oldida yana uchtadan qism joylashtirilgan va ular

birinchi chiziqni tashkil etgan, bulardan ham bittadan qism avangard sifatida ajralib olingan, bu qismlarga qilichlar, nayzalar va o‘q-yoylar bilan qurollangan tajribali va botir jangchilar tayinlangan. Ular jang paytida suron solishlari va dushman avang‘orini sarosimada qoldirishlari kerak edi.

Amir Temur amal qilgan qoidalarga ko‘ra, yaxshi boshliq dushman qo‘shinining sonini bilib olgandan so‘ng, unga qarshi o‘z qo‘shinlarini qo‘ya olishi uchun dushman nima qilayotganini, uning o‘qchilari qanday, qilichbozlari qanaqa ekanligini kuzatishi, jangning borishini nazardan qochirmasligi, dushman o‘zini zaif qilib ko‘rsatib, uni pistirmaga duchor qilmasligiga benihoyat ehtiyotkor bo‘lishi lozim edi. Mohir lashkarboshi janglarning butun mexanizmini tushunishi, dushmanning niyatlarini payqab olishi va uning rejalarini barbod qilish uchun barcha vositalardan foydalanishi zarur bo‘lgan.

Jangni qo‘shin oldida boruvchi, ilg‘or otryadlarni tashkil etuvchi, kamonchilarga ega bo‘lgan avang‘or qo‘shin boshlab bergan. Asosiy avong‘or asta-sekin birinchi chiziqdagi avong‘orlar ko‘magida kuchaytirilgan, so‘ngra shu chiziqdagi boshqa qismlar ham unga ko‘mak bergan. Avval markazga yaqin, so‘ng tashqi qismlar yordamga yuborilgan. Agar bu hamlalar jang taqdirini hal qilmasa, u holda, aynan shu tartibda ikkinchi chiziqdagi qismlar jangga olib kirilgan. Agar bu ham kamlik qilsa, jang taqdirini hal etmasa, u holda boshliq hech ikkilanmay, eng saralangan jangchilardan tashkil topgan o‘z zaxirasini jangga kiritishi zarur edi. Ular dushmanga tashlanib, unga yomg‘irdek o‘q yog‘dirganlar. Agar shunda ham g‘alabaga erishib bo‘lmasa, boshliq boshqalarga o‘rnak ko‘rsatib, o‘zi jangga kirishi, jang qilayotganlarni ilhomlantirishi lozim bo‘lgan. Har qanday holatda ham qo‘shin bayrog‘i ko‘zdan yo‘qolmasligi zarur edi.

Agar dushman qo‘shini 40 mingdan ortiq bo‘lsa, unga qarshi Amir Temurning o‘zi otlangan. Bunda qo‘shin jangga kirish uchun quyidagi tartibda bo‘lingan: qirqta harbiy qism bevosita Amir Temurning qo‘mondonligi ostida bo‘lgan, ulardan 12 ta saralangan qism birinchi qatorni, qolgan 28 tasi ikkinchi va uchinchi qatorlarni tashkil etgan. Uning o‘g‘illari va tajribali amirlari boshchiligidagi qo‘shinlar mazkur qirq bo‘linmaning o‘ng qanotini tashkil qilgan, qarindoshlari va ittifoqchilari boshchiligidagi qo‘shinlar esa chap qanot oldida joylashgan. Bu qismlarning hammasi zaxirani tashkil etgan va agarda yordam zarur bo‘lib qolsa, o‘sha yerga yuborilgan.

Amir Temurning farmoyishiga binoan, atoqli lashkarboshilardan to‘rttasi birinchi darajali sarkarda, ya’ni beklarbegi mansabiga tayinlangan. Dongdor amirlardan biriga amirul-umaro lavozimi berilgan va u oliy bosh qo‘mondonning, ya’ni Amir Temurning noibi vazifasini ado etgan. Sohibqiron bevosita ishtirok etmagan urush va janglarda amirul-umaro qo‘shinga qo‘mondonlik qilgan.

Amir Temur armiyasining turli qism va bo‘linmalariga 313 bek boshchilik qilgan. Ularning dastlabki yuztasi o‘nbegilik, ikkinchi yuztasi yuzbegilik, uchinchi yuztasi esa mingbegilik rutbalarini egallagan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Raximov J. Amir Temur – adolat va qudrat timsoli. Toshkent: “O‘qituvchi”, 2015. 530 b.

2.Raximov J. Amir Temur – buyuk arbobi va ulug‘ sarkarda. Toshkent: “Ziyonashr”, 2023. -680 b.

3.Руи Гонсалес Де Клавихо. Дневник путешествия в Самарканд ко двору Тимура. (1403-1406 г.) Пер. со староисп. Предисл. коммент. И.С.Мироковой. – Москва: Наука, 1990.

4.Temur tuzuklari. Raximov J. tahriri ostida.

10.Eshov B., Odilov A. O‘zbekiston tarixi. I jild. Eng qadimgi davrdan XIX asr o‘rtalarigacha. Darslik. – T.: Yangi asr avlodi, 2014. -416 b.

AMIR TEMUR DAVLATIDA HARBIY TAYYORGARLIKDA JISMONIY TARBIYA VA SPORTGA E’TIBOR

Xolmatov I.B.,

Farg‘ona Davlat Universiteti, Sotsiologiya yo‘nalishi magistranti

Amir Temur (1336–1405) nafaqat buyuk sarkarda va davlat arbobi, balki jismoniy tarbiya va sportni harbiy tayyorgarlikning ajralmas qismi sifatida ko‘rgan yetakchilardan biri hisoblanadi. Uning “Temur tuzuklari” asarida harbiylarning jismoniy tarbiyasiga oid ko‘plab qimmatli fikrlar uchraydi. Ushbu maqolada Amir Temurning jismoniy baquvvatligi, harbiy sport mashg‘ulotlariga bergan e’tibori, shuningdek, ilmiy tadqiqotlar va tarixiy manbalar asosida tahlil qilinadi.

Tarixiy manbalarga ko‘ra, Amir Temur yoshligidanoq jismonan mustahkam, epchil va bardoshli bo‘lgan. Uning yoshligida ot minish,

qilichbozlik, kamondan o‘q otish, kurash kabi sport turlari bilan shug‘ullangani haqida ko‘plab ma’lumotlar mavjud. Masalan, Ibn Arabshoh o‘zining “Ajayib al-maqdur” asarida Temurning jismoniy kuch-quvvatini alohida ta’kidlab o‘tgan [1]. Amir Temur nafaqat buyuk sarkarda, balki jismonan baquvvat va harbiy tayyorgarlikka katta e’tibor bergan shaxs sifatida ham tarixda qoldi. U yoshligidan nayzabozlik, chavandozlik, kurash va suzish kabi jismoniy mashqlar bilan shug‘ullangan, bu esa uning harbiy mahoratini oshirishda muhim ahamiyat kasb etgan [2]. “Temur tuzuklari” asarida Amir Temur va uning avlodlari jismoniy tarbiyaga alohida e’tibor qaratganliklari qayd etilgan. U askarlarining doimiy harbiy mashg‘ulotlarda ishtirok etishini ta’minlagan va o‘zi ham jismoniy tayyorgarlikda shaxsiy namuna ko‘rsatgan [3]. Amir Temur o‘z askarlari bilan birga yurishlar qilgan, uzoq masofalarga piyoda va otliq harakatlangan. Tarixiy manbalarga ko‘ra, u oddiy askarlari bilan bir xil sharoitda yashagan, bu esa harbiy intizom va jismoniy tayyorgarlikning yuqori darajada bo‘lishini ta’minlagan [4]. Komiljon Sultonovning tadqiqotlariga ko‘ra, Amir Temur o‘z qo‘shinlarini faqat jangovar strategiya orqali emas, balki jismoniy tayyorgarlik bilan ham mustahkamlagan. U o‘zining kuch-quvvati va chidamliligi bilan askarlari uchun namuna bo‘lib xizmat qilgan, bu esa qo‘shin ichida o‘ziga xos sadoqat va intizomni shakllantirgan [5].

“Temur tuzuklari” asarida Amir Temur qo‘shinlarining jismoniy tarbiya, sport musobaqalari va harbiy tayyorgarligiga katta e’tibor berganligi haqida ma’lumotlar mavjud. Asarda askarlarning harbiy-jismoniy tayyorgarligi bo‘yicha maxsus talablar belgilangan bo‘lib, ular piyoda va ot ustida jang qilish, qilichbozlik, nayzabozlik va kamondan o‘q otish kabi mashg‘ulotlarni o‘z ichiga olgan [3].

Askarlarning sport turlari bo‘yicha taqsimotini quyidagicha tahlil etish mumkin. Chavandozlik bilan shug‘ullanganlar – 60% Nayzabozlik va qilichbozlik – 30%; Kurash va jismoniy tayyorgarlik – 10% [15].

Amir Temur o‘z qo‘shinlarini faqat jangovar strategiya orqali emas, balki muntazam harbiy mashg‘ulotlar va sport musobaqalari orqali ham mustahkamlagan. Masalan, “Temur tuzuklari”da askarlarning harbiy yurishlar paytida uzoq masofalarni bosib o‘tishi, og‘ir qurollarni ko‘tarishga odatlanishi va turli tabiiy to‘siqlarni yengib o‘tishga tayyor bo‘lishi ta’kidlangan [6]

Temuriylar davrida askarlarning jismoniy chiniqishi uchun maxsus musobaqalar tashkil etilgan. Bu musobaqalar ichida ot chavandozligi, nayzabozlik, kurash va kamondan o‘q otish alohida o‘rin tutgan. Ushbu

musobaqalar askarlarning jang maydonida tezkorlik va chaqqonligini oshirishga xizmat qilgan [7].

Askarlarni tayyorlash mezonlari quyidagicha tahlil etiladi: Jismoniy kuch va chidamlilik – 40% Harbiy mahorat (qilichbozlik, kamondan otish, nayzabozlik) – 35% Aql-zakovat va strategik fikrlash – 25% .

Amir Temur o‘z harbiy boshliqlari va sarkardalariga shaxsiy namuna ko‘rsatgan. U askarlar bilan birga yurishlar qilgan, uzoq masofalarga piyoda va otliq harakatlangan. Tarixiy manbalarga ko‘ra, u oddiy askarlari bilan bir xil sharoitda yashagan, bu esa harbiy intizom va jismoniy tayyorgarlikning yuqori darajada bo‘lishini ta’minlagan [4]. Amir Temur o‘z askarlarining jismoniy tayyorgarligiga katta e’tibor bergan. “Temur tuzuklari”da quyidagi jihatlar alohida ta’kidlangan:

- Jismoniy bardoshlilik: Askarlarning uzoq yurishlarga, qattiq iqlim sharoitlariga chidamliligi sinovdan o‘tkazilgan.
- Qurol ishlatish mahorati: Kamon, qilich, nayza va boshqa qurollarni mohirlik bilan boshqara olish harbiylarning asosiy talablaridan biri bo‘lgan.
- Otda chopish va manevrlar: Otliq qo‘shin Amir Temur harbiy yurishlarining muhim qismi bo‘lib, ot minish va yurishlar davomida uzoq masofani bosib o‘tish muhim bo‘lgan [3].

Bu tamoyillar Amir Temurning qo‘shinlarini jismonan bardoshli va jangovar jihatdan kuchli bo‘lishini ta’minlagan.

3-diagramma: Sport musobaqalariga ajratilgan vaqtni quyidagicha tahlil etildi: Chavandozlik va uloq – 50%Kurash va jismoniy mashqlar – 20%; Kamondan otish va qilichbozlik – 30% [10].

Amir Temur nafaqat buyuk sarkarda va davlat arbobi, balki jismoniy tarbiya va sportga katta e’tibor bergan shaxs sifatida ham tarixda muhim o‘rin tutadi. U o‘z qo‘shinlarining jismoniy tayyorgarligi va sport musobaqalarida ishtirok etishini qat’iy nazorat qilgan. Fransuz olimi Lyangle Amir Temurning nafaqat harbiy yurishlar, balki ilm-fan va jismoniy tarbiya sohalariga bo‘lgan e’tiborini ham ta’kidlagan. U Temurning askarlarni tanlashda jismoniy tayyorgarlikka katta ahamiyat berganligini qayd etadi [8]. Amir Temur qo‘shinida 200 mingdan ortiq askar bo‘lib, ularning ko‘pchiligi o‘z davrining usta chavandozlari va qilichbozlari bo‘lgan. Temur askarlik xizmatiga yigitlarni qabul qilishda ularning kuch-quvvati, qilichbozlik mahorati va aql-zakovati kabi uch asosiy sifatga e’tibor bergan. Bu haqda u shunday deydi:

> *“Cherik tuzib navkar olishda uch qoidaga amal qildim: birinchidan - yigitning kuch-quvvatiga, ikkinchidan - qilichni o‘ynata olishiga, uchinchidan - aqlu zakovatiyu kamolotiga e’tibor berdim”* [3].

Bu yondashuv uning qo‘shinlarining jismoniy va aqliy jihatdan yetuk bo‘lishini ta’minlagan. Temur askarlarining sport musobaqalarida ishtirok etishini ham qo‘llab-quvvatlagan. Ular orasida chavandozlik, nayzabozlik, kamondan o‘q otish va kurash mashhurlik kasb etgan. Ushbu musobaqalar askarlarning jang maydonida chaqqonlik va bardoshli bo‘lishini ta’minlagan [9].

Ko‘plab tarixchilar va tadqiqotchilar Amir Temurning jismoniy tayyorgarlik va sportga e’tiborini alohida qayd etganlar. Masalan, ingliz tarixchisi Harold Lamb o‘zining “Tamerlane: The Earth Shaker” asarida Temurning shaxsiy jismoniy tayyorgarligi va askarlarning harbiy sport mashg‘ulotlariga e’tiborini alohida ta’kidlagan [3]. Tarixchi va sharqshunos olim Richard Foltz ham Amir Temurning jismoniy chiniqish va harbiy sportga bo‘lgan e’tiborini alohida ta’kidlaydi. Uning fikricha, Temur qo‘shinlarining harbiy yurishlarda g‘olib bo‘lishi ularning nafaqat strategik rejalari, balki yuqori jismoniy tayyorgarligi va sport musobaqalarida chiniqqanligi bilan bog‘liq bo‘lgan [4]. Shuningdek, mashhur fransuz tarixchisi Rene Grousse Amir Temurning jang maydonidagi chidamliligi va sport mashg‘ulotlari orqali qo‘shinlarini mustahkamlash strategiyasiga urg‘u bergan [10].

Amir Temur qo‘shinlari haqida mavjud tarixiy ma’lumotlarga ko‘ra:

Uning armiyasining asosiy qismini 100 ming nafardan ortiq harbiylar tashkil qilgan bo‘lib, ularning barchasi jismonan baquvvat va jangovar tayyorgarlikdan o‘tgan [11]. Harbiy tayyorgarlik dasturlarida askarlar har kuni kamida 20-30 km yurish va yugurish mashg‘ulotlarini bajargan. Otliq qo‘shinlar o‘rtacha 50-70 km masofani bir kunda bosib o‘tishga qodir bo‘lgan, bu esa Temurning harbiy yurishlarining tezkorligini ta’minlagan [4] Bu statistika shuni ko‘rsatadiki, Amir Temur davrida jismoniy tayyorgarlik armiyaning muvaffaqiyati uchun asosiy omillardan biri bo‘lgan.

Xulosa. Jismoniy tayyorgarlik, sport musobaqalari va harbiy intizomning o‘zaro aloqasi va ularning Amir Temur davridagi harbiy yutuqlarga ta’siri o‘rganildi. Shuningdek, Temurning askarlari o‘z davrining eng kuchli chavandozlari va qilichbozlari sifatida tanilgan, bu esa uning harbiy mahoratini yanada kuchaytirgan. "Temur tuzuklari"da ko‘rsatilgan jangovar tayyorgarlik va jismoniy mashg‘ulotlar zamonaviy harbiy tizimlar uchun ham ahamiyatlidir.

Amir Temur nafaqat buyuk sarkarda, balki ilg‘or va boshqacha qarashlarga ega bo‘lgan lider sifatida tarixda o‘z o‘rnini topgan. U jismoniy tayyorgarlikni harbiy muvaffaqiyatning ajralmas qismi deb bilgan. Uning shaxsiy namunalari va o‘zgacha yondashuvi, askarlarini faqat jangovar strategiyalar bilan emas, balki jismoniy va aqliy jihatdan tayyorlash orqali ham g‘alabaga olib kelgan. Temurning jismoniy tarbiya va sportga qaratilgan e’tibori, uning nafaqat harbiy qo‘shinini, balki butun mamlakatni mustahkamlashda ham muhim rol o‘ynagan.

Amir Temurning harbiy va jismoniy tayyorgarlikka bo‘lgan e’tibori bugungi kunda ham bizga o‘z maqsadlarimizga erishish uchun qat’iyat, o‘z-o‘zini tarbiyalash va intizomni qanday muvaffaqiyatli amalga oshirish kerakligini ko‘rsatadi. Bu tahlil har bir zamon va davrda o‘rganilishi lozim bo‘lgan, tarixdan olingan qiymatli saboqlardir. Amir Temur nafaqat buyuk sarkarda, balki jismoniy tarbiya va sportni harbiy muvaffaqiyatning muhim tarkibiy qismi deb bilgan rahbar edi. Uning “Temur tuzuklari”da jismoniy tayyorgarlik va sportga oid tamoyillari hozirgi zamonaviy harbiy tayyorgarlik tizimlari uchun ham muhim ahamiyatga ega. Kelajakda Amir Temurning jismoniy tarbiya tamoyillarini sport ilmi va harbiy pedagogika nuqtayi nazaridan chuqurroq o‘rganish istiqbolli ilmiy yo‘nalishlardan biri bo‘lishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Ibn Arabshoh, "Ajayib al-maqdur", 15-asr.

2 Tishabayev, A. M. (2023). Amir Temurning jismoniy va harbiy tayyorgarlikdagi yengilmas tajribasi. IMRAS, 6(6), 336–339.

3.Amir Temur. (1370). Temur tuzuklari.

4 Richard Foltz. (1999). Religions of the Silk Road. New York: Palgrave Macmillan.

5.Sultonov, K. (2021). Sohibqiron Amir Temurning ma’naviy jasorati. Toshkent.

6 Tishabayev, A. M. (2023). Amir Temurning jismoniy va harbiy tayyorgarlikdagi yengilmas tajribasi. IMRAS, 6(6), 336–339.

7 “Markaziy Osiyoda qadimgi davr va o‘rta asrlarda jismoniy tarbiya”. ilmiybaza.uz

8. Uljayeva, Sh. (2023). Amir Temur saltanatida sog‘lom avlod tarbiyasi masalalari. Academia.edu.

9. Biz kimmiz, qanday buyuk zotlarning avlodimiz. (Amir Temur)”. hozir.org.

10. Rene Grousse, "The Empire of the Steppes", 1970.

11.David Nicolle, “The Mongol Warlords”, 1990.

12. Baxtiyorovich, X. I. (2025). jismoniy madaniyat va sportning aholi salomatligi hamda uzoq umr ko‘rishdagi o‘rni: muammolar va yechimlar sotsiologik tahlil. “global munosabatlar nazariyasi: yoshlarning taraqqiyot g‘oyalari” xalqaro ilmiy-amaliy anjumani materiallari, 1(2), 219-224.

13.Harold Lamb, “Tamerlane: The Earth Shaker”, 1928.

14. Baxtiyorovich, H. I. (2024). oliy ta’lim tizimida bo‘lajak sotsiologlarni shakllantirishda sport sotsiologiyasining roli va o‘rni, kasbiy shakllanish muammolari va yechimlari. pedagogik tadqiqotlar jurnali, 1(2), 290-292.

15. Uljaeva, Sh. (2023). Amir Temur saltanatida sog‘lom avlod tarbiyasi masalalari. Academia.edu. (Manba)

TEMURIY SHOXRUX MIRZO VA UNING DAVLATNI MARKAZLASHTIRISH SIYOSATI

Ulashboyeva S.,
Sharof Rashidov nomidagi SamDU, iqtidorli talabasi.
Ilmiy rahbar: dots. G.Normurodova

Temuriylar sulolasining ulug‘ namoyondalaridan biri bo‘lgan Shoxruh Mirzo Mirzo (1377-1447) Sohibqiron Amir Temurning o‘g‘li bo‘lib, uning vafotidan so‘ng, 1405-yil mart oyida rasman Xuroson hokimyatini o‘z qo‘liga oldi. Amir Temur vafotidan so‘ng Shohrux Mirzo taxtga da’vogarlar qatorida valiahd Pir Muhammad Mirzo bilan ittifoq tuzib, samarqand hukmdori Xalil Sultonga qarshi kurashadi. 1407-yili Pir Muhammad Mirzoning fojiali o‘limidan so‘ng yakka o‘zi kurashni davom ettirib, 1409-yili Xalil Sulton ustidan qo‘li baland kelib, taxtni qo‘lga kiritgach, Movarounnahrni to‘ng‘ich o‘g‘li Ulug‘bek Mirzoga, Balxni ikkinchi o‘g‘li Sulton Ibrohim Mirzoga, Hisorni marhum Muhammad Sulton Mirzoning o‘g‘li Muhammad Jahongir Mirzoga, Farg‘onani esa marhum akasi Umarshayx Mirzoning o‘g‘li Ahmad Mirzoga in’om qilib [1, 1], o‘zi Hirotga qaytib ketadi.

Shoxruh Mirzo taxtga o‘tirganidan so‘ng Temuriylar sulolasining boshqa vakillaridan farqliy ravishda, jangovor yurshlaridan ko‘ra davlat boshqaruvi,

ilm-fan va madaniyat rivojiga ko‘proq e’tibor qaratgan. Tashqi siyosatda Temuriylar davlati Shoxruh Mirzo davrida aynan o‘z muvozanatini saqlab turgan holatda diplomatik munosabatlarga alohida e’tibor berdi. Shohrux Temuriylar davlatining yagona hukmdori sifatida faol tashqi siyosat olib borishga harakat qildi. Bu borada qo‘shni yirik davlatlarning ham Temuriylar davlatiga katta qiziqish bilan qaraganligini ham ta‘kidlash kerak.

Hindiston, Xitoy, Oltin O‘rda, Tibet, Anadolu va Fors davlatlari bilan yaqindan diplomatik munosabatlar o‘rnatdi. Shoxruh Mirzoning Hindiston bilan bo‘lgan diplomatik munosabatlar orqali ikki davlat o‘rtasida savdo va madaniy almashinuvlar yanada kengaytirildi. 1420-yil Shoxruh Mirzo Mirzo Hindistonga o‘z elchilarini yubordi va Dehli sultoni Muborak Shoh Sayyid (1399-1434) bilan do‘stona munosabatlar o‘rnatdi. Oradan vaqt o‘tib 1430-yillar oralig‘ida Shoxruh Mirzo Hindistondagi boshqa boshqa hududiy hukumdorlar, jumladan Gujarat va Bengal sultonlari bilan ham yaqinda do‘stona munosabatlar o‘rnatildi. Bu aloqalar asosan, ipak, ziravorlar va qimatliy toshlar savdosi orqaliy rivojlandi.

Shoxruh Mirzo davrida Xitoy bilan munosabatlar yanada mustahkamlandi. Xitoy solnomalarida ta‘kidlanishicha, 1405-1449-yillarda Xitoyga Samarqanddan 33 marta, Hirotdan 14 marta elchilar tashrif buyurgan. Bu elchilik aloqalarini aslida xitoyliklar boshlab berganlar. 1409-yili birinchi marta Hirotga Xitoy elchilari tashrif buyurgan edi [2, 215]. Bu aloqalar keyinchalik doimiy ravishda olib borildi. Bu davrda Xitoyda Min sulolasi hukm surar edi.

1419-yil Shoxruh Mirzo tomonidan Amir Shodixo‘ja boshchiligida 500 nafarlik karvon bilan Xitoyga elchilar yuborildi. Xitoy bilan 1430-yilga qadar 5 marotaba elchilar va maktub almashishlar kuzatilgan [3, 26]. Shoxruh Mirzo davrida, aynan Tibet bilan ham diplomatik munosabatlar o‘rnatildi. Tibetlik olim va ruhoniylar Temuriylar saroyida taklif qilinib, madaniy va ilmiy almashinuvlar amalga oshirildi. Bularning barchasi Markaziy Osiyo va Tibet o‘rtasida madaniy bog‘liqliklarni yanada mustahkamladi. Bundan tashqari, Oltin O‘rda, Mamluklar davlati (Misr), Anadolu va Fors hududlarining mahaliy hukumdorlari bilan ham diplomatik munosabatlar yo‘lga qo‘yildi.

Shohrux Mirzoning (1407-1447) kuchli tashqi siyosati natijasida davlat sarhadlari kengayib, Mo‘g‘ulistondan to g‘arbda Misr va Rum yerlarigacha, janubda Hindistonning markazidan to Dashti Qipchoq chegaralarigacha joylar Temuriylar davlati tarkibiga kirgan. Bu ulkan davlat hozirgi Misr va Shomni o‘z ichiga olgan mamluklar saltanati bilan chegaradosh edi. Shohrux bilan

mamluklar o‘rtasida ilk bor 1429 yil Misr hukmdori Barsboy (1429-1438) bilan o‘zaro munosabatlarining yangi davri boshlandi [3, 1].

Shohrux Mirzoning bosh maqsadi Amir Temur davlati tarkibiga kiritilgan barcha yerlarni o‘z qo‘li ostida birlashtirish edi. Shu nuqtai nazardan, G‘arbiy Eronni zabt etish uning o‘z maqsadiga to‘la erishishi yo‘lidagi oxirgi qadam bo‘lardi. 1420-yili Shohrux mirzo G‘arbiy Eron, Iroq va Ozarbayjonni zabt etish uchun yurish boshladi. Uning farmoniga binoan 200 ming kishilik qo‘shin jamlangan edi. Qora Yusuf ham katta miqdorda qo‘shin to‘plab urushga hozirlik ko‘ra boshladi. Shohrux Mirzoning Qazvin va Sultoniya viloyatlarini o‘ziga topshirish hamda o‘zini vassal deb tan olish haqidagi talabi rad etilgach, hamma jangga hozirlik ko‘rayotgan vaqtda 1420-yilning 13-oktyabrida Qora Yusufning vafot etishi temuriylarning ishini biroz yengillashtirdi. Temuriylar qo‘shini tezda Qazvin, Sultoniya, Tarbiz viloyatlarini egalladilar. Shirvonshoh Xalilulloh ham Shohrux mirzo hukmronligini tan oldi. Ozarbayjondan 1421-yili qaytgan Shohrux mirzo u yerda o‘z hukmronligini to‘la o‘rnata olmagan bo‘lsa-da [2, 210]. G‘arbiy Eronning katta qismini bo‘ysundirishga erishdi.

Ichki siyosatda Shoxruh Mirzo aholiga nisbatan soliq va zulimlardan farqliy ravishda ilm-fan, madaniyat va me’morchilik katta e’tibor qaratildi. Aynan ichgi siyosatda o‘tkazilgan islohotlardan 1420-yil o‘tkazilgan pul islohoti alohida ahamiyatga ega. “*Shoxruxiya*” deb atalgan kumish tangalar zarb qilina boshlandi [3, 59-61]. Aynan katta shaharlarda jumladan Astrobod, Buxoro, Damg‘on, Isfaxon, Kushon, Kirmon Qum, Nishopur, Marv, Saamarqand, Sabzavor, Sultoniya Tabriz ,Xorazm, Hirot, Sheroz va boshqa shaharlarda o‘zining kumush tanga pulari zarb qilindi.Tangalarning oldi tomonida iymon keltirish kalimasi (La ilaha ilalloh Muhammadu Rasululoh) deb yozilar edi. Tanganing to‘rta tomoniga to‘rta xalifa ismi (Umar, Ali, Usmon, Abu Bakir) yozilar edi.

Amir Temurning kenja farzandi Shohrux Mirzo buyuk hukmdor bo‘lishiga qaramay, juda oddiy, o‘ta dindor, taqvodor bo‘lgan. Shohrux davlat ishlari bilan bir qatorda, islom shariati qoidalariga to‘la amal qilgan, besh vaqt namozni aslo kanda qilmagan, Qur’oni karim va uning arabcha, forscha tafsirlarini o‘qigan. Har oyda bir necha kun ro‘za tutgan, mashoyixlar, ulug‘lar mozorini ziyorat qilgan, yo‘qsillarga sadaqalar ulashgan. Bu odatlarga hatto safarlar chog‘ida ham qat’iy amal qilgan.

Asosiy maqsadi davlatni barqaror boshqarish va iqtisodiyotni mustahkamlash bo‘lgan Shoxrux Mirzo hokimyatda turgan yillari asosiy

e’tiborni soliq islohotiga ham qaradi. Og‘ir soliqlar yengilashtirildi. Amir Temur yurishlari natijasida soliqlar juda yuqori bo‘lib ketgan edi. Shohrux bazi soliqlarni kamaytirib aholining iqtisodiy ahvolini yaxshilashga harakat qildi. Yer solig‘i qayta tartibga solindi, tijorat va bojxona soliqlari, zakot va diniy soliqlar tartibga solinib nazorat qilindi. Hokimyatga kelgach, Shohrux Mirzo poytaxtni Samarqandan, Hirotga ko‘chirganidan so‘ng bu yerda ilmiy muhit yanada rivojlandi va asosiy madaniy markazlardan biriga aylandi. Shoxruh Mirzo homiyligida 1418-yil Gavharshod madrasasi qurildi va bu madrasa Shoxruh Mirzoning rafiqasi Gavharshodbegim tashabusi bilan qurilgan va bu me’mori obida bu davrning eng mashhur obidalaridan biridir [5,]. Bu obida mashhur me’mor Qavomidin Sheroziy tomonidan ishlangan, bino rang-barang koshinlar va arab yozuvlari bilan bezatilgan.

Shunday qilib, Shoxruh Mirzo Sohibqiron Amir Temurning kuchli markazlashtirish siyosatini davom ettirgan temuriyzoda bo‘lgan. Uning kuchli tashqi siyosati natijasida davlat sarhadlari kengayib, Mo‘g‘ulistondan to g‘arbda Misr va Rum yerlarigacha, janubda Hindistonning markazidan to Dashti Qipchoq chegaralarigacha joylar Temuriylar davlati tarkibiga kirgan. Adolatli va islohotparvar hukmdor sifatida tanilgan Shoxruh Mirzo o‘z davrining ilm va madaniyadni rivojlantirishga ham katta hissa qo‘shgan Temuriy namoyandasi edi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘xati:

1. Fayziyev T. Shohrux Mirzo. https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/tarix/manaviyat-yulduzlari

2. Usmonov B.A. Ўзбекистон тарихи. Amir Temur va Temuriylar siyosiy tarixi. O‘quv qo‘llanma. – Farg‘ona, 2024.

3. Холматов М. Темурий ҳукмдор юборган сарпо нега йиртиб ташланди, Шоҳрух Мирзонинг қасами ёхуд Каъбапўш тарихида аждодларимиз // https://uza.uz/uz/posts

4. Irpon To‘xtiyev. Amir Temur va Temuriylarning moliya pul islohotlari. -Toshkent, 2006. https://kitobxon.com/oz/kitob/amir-temur-va-temuriylarning-moliya-pul-siyosati

Nazirov B. Temuriy hukimdorlar: Shoxruh Mirzo Mirzo va Mirzo Ulug‘bek. – Toshkent, 2022.

AMIR TEMUR SIYOSATIDA DINIY VA MILLIY BAG‘RIKENGLIK

Ummatov J.G‘.
Jamoat xavsizligi universiteti kursanti
Ilmiy rahbar: t.f.d. Turayeva S.R.

O‘zbek xalqi va uning davlatchiligi tarixida alohida o‘rin tutgan Amir Temur ma’naviyati va u bunyod etgan qudratli saltanatning salohiyati ko‘p asrlardan beri ibrat namunasi bo‘lib kelmoqda. Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoev 2018 yil 28 dekabrda parlamentga yo‘llagan Murojaatnomasida «Buyuk alloma va adiblarimiz, aziz avliyolarimizning bebaho merosi, yengilmas sarkarda va arboblarimizning jasoratini yoshlar ongiga singdirish, ularda milliy g‘urur va iftixor tuyg‘ularini kuchaytishga alohida e’tibor qaratishimiz kerak» deb ta’kidlagandi[14]. Darhaqiqat, Amir Temur bilan bog‘liq tarixiy jarayonlarni tahlil qilar ekanmiz bunga yana bir karra iqror bo‘lamiz.

XIII asrg boshdan to XV boshgacha Markaziy Osiyoda yuz bergan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va etnomadaniyjarayonlarmintaqaning etnik va diniy muhitiga ham ta’sir ko‘rsatmay qolmadi. Chingizxonning 1219-1224 yillardagi harbiy yurishlari natijasida zamonasining qudratli davlatlaridan sanalgan xorazmshohlar davlati quladi. Bir paytlar gullab yashnagan mamlakat vayronaga aylandi. Bundan tashqari, istilo natijasida huvullab qolgan hududlarga mo‘g‘ullar safida bo‘lgan ko‘plab ko‘chmanchi va yarim ko‘chmanchi chorvador qabila va urug‘lar kelib joylashdi. Ayrim shaharlar (xususan, Samarqand) aholisi to‘rtdan birga qisqarib ketdi[11, 383-b]. Buxoro umuman yetti yil (1273-1280) huvvulab qoldi. Bu holat shu davrgacha shakllangan etnik vaziyatga ham o‘zgartirib yubordi. Ayniqsa, 1224 yilda tashkil topgan Chig‘atoy ulusidagi siyosiy jarayonlarsilsilasida mintaqaga kirib kelgan turkiy qabilardan tashqari kirib kelgan etnik guruhlar, xususan, mo‘g‘ul qabilalarining bir qismi turkiylashib, asta-sekin islomdini qila boshladi. Bunda chig‘atoyzodalardan bo‘lgan Baroqxon (islomiy Sulton G‘iyosiddin)ning (1266–1271) ulus poytaxtini Samarqandga ko‘chirishi [7, 325-326-b] va Buxoroda islom dinini qabul qilishi[1, 53-b; 2, 201-b], Duvoxon (1274-1306), Kepekxon (1309/1318-1326) vaTarmashirin (islomiy Alouddin) (1326-1334) kabilar olib borgan siyosat[5, 369-375-b]. Movarounnahrda islom dini mavqeini tiklanishga harakatlar edi. Natijada Movarounnahr va Yettisuvningturkiy

bo‘lmagan ko‘chmanchi aholi turkiy tilga o‘tib, islom dinini qabul qila boshladi. Bundan tashqari, Movarounnahrga kirib kelgan jaloyir, barlos, qavchin va arlotlarning aksariyati turkiy bo‘lib, ularda islomlashish jarayoni yuz berdi.Keyinchalik til jihatdan turkiy bo‘lgan barcha qavm, umumiy nom bilan “qoraunos”[9], deb yuritildi.

XIV asr 40-yillaridagi o‘zaro kurashlar, Qozonxonning(1343–1346) qatliom siyosati Movarounnahrdagi etnik va diniy vaziyatga ta’sir etdi. Oqibatda Movarounnahr tub aholisining qo‘llab-quvvatlashi bilan viloyatlarning hokimiyatlari turkiy amirlar qo‘liga o‘ta boshladi. Qoraunos guruhiga mansub amir Qazag‘on (1346–1358-yy) Qozonxonni tor-mor etib, hokimiyatga keldi. An’anaga ko‘ra, mo‘g‘ullardan bo‘lgan Donishmandcha xon (1346-1348) va Bayonqulixon (1348-1358) xon etib ko‘tarildi [8, 44-45; 92-b]. Bu ham etnik, ham diniy murosa yo‘li bo‘lib, keyingi turkiy hukmdorlarga tajriba bo‘ldi.

1358 yilda Amir Qazag‘on xalok bo‘lgach, Movarounnahr o‘nga yaqin mustaqil bekliklarga bo‘linib ketdi. Bundan foydalangan Amir Qazag‘onning nabirasi – Amir Qaylonning o‘g‘li amir Xusayn o‘z bobosi hokimiyatini tiklashga kirishdi[8, 51-52-b]. Bu orada Movarounnahrdagi nufuzli barlos amirlaridan bo‘lganamir Temur hokimiyat ishlariga bosh qo‘sha boshlagan edi. Amir Husayn yuritgan noto‘g‘ri siyosat va hokimiyat boshqaruvidagi xatolariamir Temurni Movarounnahr boshqaruvini o‘z qo‘liga olishga majbur etdi. O‘zaro kurashlardan so‘ng, 1370-yilning 11 aprelida Sayyid Baraka ishtirokidagi qurultoyda amir Temur, Movarounnahr Amiri sifatida rasmiyhokimiyatga keldi. An’anaga ko‘ra, chig‘atoyzodalardan Suyurg‘otmish o‘g‘lon (1370 –1388) va Mahmud Sulton (1388-1398) va Sotuqxon (1398-1405) xon etib ko‘tarildi[8, 325-326; 7, 51-52; 108-b]. Bu esa Movarounnahrdagi hokimiyatni legitimlashtirish tadbiri edi.

Amir Temur o‘z boshqaruvi jarayonidamintaqa hamda o‘z tasarrufiga olgan hududlardagi diniy va etnik vaziyatni to‘g‘ri baholay oldi. U har bir qabila va elatning, har bir mazhab va dinvakilining mavqeiga qarab munosabatda bo‘ldi.Avvaliga o‘z qaramog‘ida bo‘lgan har bir qirq aymoq amirlarini muayyan uluslarga amir etib tayinladi[10, 86-87-b]. Ularning darajasi, nufuzi va xizmatlariga qarab adolatli taqsimot qildi.

Bundan tashqari, Amir Temur o‘z harbiy harakatlari natijasida Movarounnahrga turli yurtlardan ayrim toifa va tabaqa vakillarini ko‘chirib keltirdi. Xususan, 1379 yilda Xorazmdan donishmand, hunarmand va hoffoz

kishilar Keshga,[8, 130-131-b] 1382-1384 yilda Xurosonning Kalot shahri ahli va maligi G‘iyosiddin farzandlari[13, 100-101-b] hamda 1383-1384 yilda Seyiston maligi Qutbiddin o‘z yaqinlari bilan Samarqandga olib kelindi. Diniy ulamo va solihlari esa Faroh hisoriga joylashtirildi[13, 100-101-b].

Amir Temur uch yillik (1386-1388), besh yillik (1392-1396), Hindistonga qilgan 11 oylik (1398 (may) -1399 (mart)) va yetti yillik (1399-1404) yurishlari natijasida ham Movarounnahrga ba’zi etnik va diniy guruh vakillari ko‘chirib keltirildi.

1404-yilda esa Iroqdan qoraquyinli turkmanlarning bir qismi Samarqandga ko‘chirildi. Ayrimlari keyinchalik o‘z yurtlariga qaytarildi. Xususan, Samarqandga garov sifatida keltirilgan Luriston maligining birodarlari Afrosiyob va Mas’udshoh hamda 1388-yilda shu viloyat maligi Izziddinning o‘g‘li Sayyidiy Ahmad ham uch yillik tutqinlikdan so‘ng o‘z yurtiga qaytarildi[8, 179-180; 209-b]. Bu Amir Temur har bir millat va din vakilining manfaatini o‘z manfaatidan ustun qo‘yganligini ko‘rsatadi.

Amir Temurning bag‘rikenglik siyosati Kastiliya va Leon qiroli Don Enriko III ning Samarqandaga yuborilgan elchisi Rui Gonsales de Klavixo “Kundaligi”da ham yoritilgan. Unga ko‘ra, Amir Temur Erzinjon hokimi Zaratanning jiyani Shevalini, 1400-1401-yillarda Damashq va uning atrofidagi hunarmand ustalarni, oqquyinli turkmanlarini[14], nasroniy armanilarni Samarqandga keltirgan. Ayrim oqquyinlilar Tehron va Mashhad oralig‘idagi Domg‘onga[4, 97, 124; 136-142-b], qoraquyinlilar esa chorvador bo‘lgani uchun o‘z chorvasi bilan Kichik Osiyodan Yettisuvga ko‘chirilgan[3, 41-b].

Amir Temur islom dinining barcha mazhablari vakillariga alohida hurmat ko‘rsatgan. Samarqandga keltirilgan yirik arboblar, olimlar va ulamolari zzatda bo‘lgan. Xususan, Sayyid Sharif Jurjoniyga (1330-1414) 1387-1405/06 yillarda Samarqanddagi dorush-shifo ochib, unda faoliyat yuritishga imkoniyat yaratib bergan. Amir Temur u bilan suhbatlar qurib, maktublar yozishib turgan. Bundan tashqari, Amir Temur farmoni bilan Mozandaron sayyidlariga Xorazm, Toshkentdan joy qilib berilgan[13, 229; 10, 58-59-b].

Ammo bu davrda Movarounnahrga, nafaqat olim va hunar egalari, balki insonparvarlik nuqtai nazaridan Eron va Xurosonning nochor qismi ham keltirilgan. Klavixoning yozishicha, mo‘g‘ul istilosi davrida xuvullab -qolgan Samarqandga jami ikki yuz ming turli tabaqa vakillari kelib o‘rnashgan.Klavixoning yozishicha, turk, arab, fors, ozori, kurd, armani, yunonlardan iborat qavmlar Samarqand va uning atrofiga joylashgan edi. Bu

,albatta, shaharning etnik qiyofasiga o‘z ta’sirini ko‘rsatgan. Klavixo ma’lumotiga ko‘ra, Movarounnahr aholisi chig‘atoy turkiysi va forsiyda so‘zlashgan. Chig‘atoylar mashhur bo‘lgani bois, Movarounnahrdagi chig‘atoyi bo‘lmagan turkiy aholi ham o‘zlarini “chig‘atoyi” deb ataganligini Klavixo alohida qayd etgan[19, 136-137, 142-143, 152-b] .

Xulosa qilib aytganda, Amir Temur yuritgan etnik va diniy bag‘rikenglik siyosati uning davlatidagi har bir insonning millati va dinidan qat’iy nazar emin-erkin yashashi uchun g‘amxo‘rlik qilishdan iborat bo‘lgan. Bu esa mintaqada milliy va diniy mojarolar kelib chiqishini oldini olgan. Amir Temur yuritgan to‘g‘ri siyosat natijasida barcha elat va din vakillari: turku tojik, ajamu arab bir yoqadan bosh chiqarib, yurt iqtisodini tiklash, shahar va qishloqlarni obod qilish uchun xizmatga jalb etilgan. Shu asosda saltanatning, xususan, Movarounnahrning nufuzi va iqtisodini yuksaltirish ishiga hissa qo‘shishgan.

Foydalanilga adabiyotlar

1. Аёзий, Мирзо Муҳаммад Ҳайдар. Тарихи Рашидий. Нашрга тайёрловчи, сўз боши, тадбил, изоҳлар ва кўрсаткичлар муаллифи О.Ҳ. Жалилов. – Тошкент: O‘zbekison, 2011. – 53-б.

2. Абулғози Баҳодирхон. Шажарайи турк. – Тошкент: Чўлпон, 1990. – 94-б; Воҳидов Ш., Қодиров А. Шарқнинг машҳур сулолалари. – Тошкент: Akademnashr, 2013. – 201-б.

3. Бўриев О. Шарафуддин Али Яздий “Зафарнома”сида Марказий Осиё аҳолисининг этник-ҳудудий ҳолати ҳақида маълумотлар // ЎзМУ хабарлари. 2013. – Б. 41; А. Асқаров. Ўзбек халқининг келиб чиқиш тарихи. – Т.: O‘zbekiston, – 472-б.

4. Гонсалес, Руи де Клавихо. Самарқандга – Амир Темур саройига саёҳат кундалиги (1403-1406)// масъул муҳаррир Муҳаммад Али. Сўзбоши ва изоҳлар муаллифи М. Сафаров; тарж. О. Тоғаев. – Тошкент: O‘zbekiston. – 97-, 124- ва 136-142-б. (136-137-, 142-143-, 152-б.)

5. Ибн Баттута. Саёҳатнома – “Туҳфат ан-нуззор фи ғароиб ал-амсор ва ажоиб асфор / Тарж. Н. Иброҳимов ва б. – Тошкент: Sharq, 2012. – 369-375-б.

6. Клавихо келтирган оқ тоторлар (оққуюнли туркманлар)нинг кўчирилиши тарихий ҳақиқатга тўғри келмайди. Чунки улар Боязид Йилдиримга қарши курашида Амир Темурга иттифоқчи бўлишган.

7. Мирзо Улуғбек. Тўрт улус тарихи (“Тарих-и арбаъ улус”). – Тошкент: Чўлпон, 1994. –307-312-б. (– 325-326-б)

8. Натанзий, Муиниддин. Мунтахаб ут-таворихи Муиний (Муинийнинг тарихлари танланмаси)/ форс тилидан тарж., сўз боши ва изоҳлар муаллифи Ғ. Каримий; масъул муҳаррир А. Ўринбоев. – Т.: O‘zbekiston, 2011. – 44-45- ва 92-б. Б. 51-52. (130-131.) (179-180- ва 209-б.)

9. Турк хоқонлиги давридаги “қора будун” – “катта халқ” атамаси каби, “қораунос”ни – катта сонли аҳолиси деб талқин қилиш мумкин. Чунки бу иттифоқ таркибига минтақадаги барча туркий қабиллар кирган эди.

“TEMUR TUZUKLARI”DA HARBIY XIZMATChILARNI SADOQAT RUHIDA TARBIYaLAShGA OID QARAShLAR

Jamoat xavfsizligi universiteti
Usmonov S.M.
Ilmiy rahbar: t.f.d. Turayeva S.R.

Amir Temur va temuriylar davri O‘zbekiston tarixida chuqur iz qoldirdi deb aytsak mubolag‘a bo‘lmaydi. Bu davrda yurtimizda yirik markazlashgan davlat barpo etildi.

Amir Temur buyuk davlat arbobi, mohir harbiy strateg va iqtidorli qo‘mondon sifatida jahon tarixida katta iz qoldirgan. Uning harbiy-siyosiy muvaffaqiyati, eng avvalo, qo‘shinlarni boshqarishda qat’iy intizomga rioya qilish va askarlarning jangovar salohiyatini yuqori darajada saqlashga bog‘liq edi. Bu borada Temur tuzuklari («Tuzukoti Temuriy») harbiy xizmatchilarning jangovar tayyorgarligi, axloqiy-ruhiy holatini tarbiyalash va ularni samarali boshqarishda muhim rol o‘ynagan.

Buyuk tarix zarvaraqlarida nom qoldirgan sohibqiron Amir Temur (1336-1405) o‘zining o‘tkir aql-zakovati, noyob yetakchilik qobiliyati va harbiy mahorati bilan jaxon tarixida munosib o‘rin egallagan tarixiy shaxslardan biridir. Amir Temurning faoliyati, davlat boshqaruvi hamda harbiy sohadagi muvaffaqiyati, shuningdek uning ilm, fan va ma’naviyat sohasidagi fazilatlari xalqimiz milliy o‘zligini anglashi, yosh avlodlar tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, sarkardaning harbiy sohadagi faoliyati harbiy sohada ta’lim olayotgan yoshlar ma’naviy dunyosini yuksaltirish, ularda vatanparvarlik ruhini oshirishda hamda kasbiy faoliyatida adolat mezoni bilan ish ko‘rishdek jihatlarni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Amir Temur o‘z qo‘shini va sipohiylarni boshqarish, yangi harbiy yurish usullari takomillashtirish borasida doimiy tarzda fikr yuritgan. Jumladan, “Temur tuzuklari”da shunday keltiriladi: “Kunduzlari tajribali va dono kishilar bilan turli mamlakatlarni zabt etish shatranji ustida bosh qotirdim. Kechalari bo‘lsa to‘shagimda yonboshlab olib, mamlakat ishlarini qanday yurgizish kerakligi haqida o‘yladim va ularni bajarish vositalarini o‘zimcha tasavvur qilib ko‘rdim. O‘zga mamlakatlarni zabt etish yo‘llarini o‘z ko‘nglimda chamalab, qay tarzda hujum qilib, qanday chekinish mumkinligini belgilar edim. Sipohiylarim bilan qanday muomala qilishim to‘g‘risida fikr yurgizib, qaysi

birini qanday tarbiyat qilishim kerak, qaysi ishni qay biriga topshirsam, xato qilmagan bo‘laman deb, har ishning oldi ketini o‘ylar edim”[1].

“Temur tuzuklari”da davlatning asosiy tayanchlaridan biri bo‘lgan qo‘shinni tuzish, qo‘shin boshliqlarini tanlash, tarbiyalash, joylashtirish, harbiy martabalarga ko‘tarish, navkar va sarbozlarni qurollantirish, qo‘shinda intizomni saqlash, uning jangovorligini oshirish, mahoratiga ko‘ra jangchilarni taqdirlash, maosh hamda nafaqa belgilash masalalariga ham katta ahamiyat berilgan. Amir Temur qo‘shinni boshqarishda amirlik mansabini joriy etgan bo‘lib, u o‘ziga eng yaqin mahoratli bahodirlardan 313 kishiga amirlik mansabini bergan. Ulardan bir kishini amir ul-umaro (amirlar amiri), 12 kishini o‘n ikki darajadagi amir, 100 nafarini mingboshi, yana shunchasini yuzboshi, o‘nboshi etib tayinlagan. Amirlar mingboshilarga, mingboshilar yuzboshilarga, yuzboshilar o‘nboshilarga boshliq etib tayinlangan.

Amir ul-umaroning hukmi yurishlarda, urushlarda amirlar va butun sipoh tomonidan so‘zsiz bajarilishi lozim bo‘lib, sohibqiron yo‘q vaqtida u o‘rinbosar vazifasini bajargan. 12 darajadagi amirlardan birinchisi darajalisi 1000 kishiga, ikkinchi darajalisi 2000, uchinchisi 3000 va shunga mos ravishda o‘n birinchisi 11000, o‘n ikkinchi darajalisi 12000 kishiga buyruq berish huquqiga ega bo‘lgan. Amirlik tartibiga ko‘ra birinchi darajadagi amir ikkinchi darajadagi amirning, ikkinchi darajadagi amir uchinchi darajadagi amirning va shu tartibda o‘n birinchi amir o‘n ikkinchi amirning, o‘n ikkinchi amir amir ul-umaroning o‘rinbosari qilib belgilangan, qaysi bir amirga biror kor-hol bo‘lsa, uning o‘rnini o‘rinbosari egallagan.

XIX asr rus harbiy tarixchisi M.I.Ivanin Amir Temurning harbiy san’ati xususida “Hali bironta ham xalq qo‘shinini to‘g‘ri saflashni bilmay, tartibsiz va taktik harakatlarsiz, faqat o‘zidagi jasorat darajasi bilan uzuq-yuluq jang qilayotgan bir paytda Temurning to‘g‘ri saflangan, bir necha yo‘nalishdan iborat muntazam tartib bilan jangga kiruvchi, kuchli zaxiraga ega bo‘lgan, qudratli armiyasi bor edi” deya o‘zining yuqori va xolis bahosini bergan edi. O‘rta asr tarixchilaridan Sharofuddin Ali Yazdiy ham “Zafarnoma “asarida “hali hech kim o‘ylab topmagan uslubni Sohibqiron o‘ylab topib, qo‘llaganligini” alohida qayd etgan edi. Amir Temur qo‘shinida o‘sha davr uchun xos bo‘lmagan yana bir holatni ko‘rish mumkin. Uning qo‘shinida ayollardan tuzilgan bo‘linmalar ham bo‘lib, ular erkaklar bilan bir qatorda jangga kirgan. Mazkur hol ham o‘rta asr musulmon sharqi uchun mutlaqo yangilik edi.

Amir Temur harbiy qo‘shin tarkibini doim boyitib va kengaytirib, har qanday sharoitda ham jang olib borishlari uchun moslashtirib turgan. Harbiy yurishdan avval chiqarilgan mashvaratlardan so‘ng, hukmdorning maxsus buyrug‘i-tunkal e’lon qilingan. Tunkal-qo‘shin to‘plashga qaratilgan maxsus buyruq hisoblangan. Farmon (tunkal) tegishli joylarga bosh qo‘mondonning ad’yutanti-tavochi tomonidan tezlik bilan yetkazilgan. Tavochining zimmasiga askar jam etishdan tashqari qo‘shin qismlarining qarorgoh yoki safardagi o‘rni, jangovar tartibni hamda bir joydan ikkinchi joyga ko‘chishning nazorat qilish ham yuklatilgan edi. Tunkalga ko‘ra, viloyat hokimlari, tegishli hududlar beklari, qal’a, qo‘rg‘on dorug‘alarining Amir Temur tomonidan tuzilgan ro‘yxatga ko‘ra, o‘z jangchilari, zarur ot-ulovi, qurol-yarog‘i, oziq-ovqati, yem-xashagi bilan belgilab qo‘yilgan joyga o‘z vaqtida yetib kelishi shart bo‘lgan. Avvaldan maxsus tanlab, belgilab qo‘yilgan joyda oliy bosh qo‘mondonning qarorgohi tikilgan va turli rangdagi tug‘ hamda bayroqlar bilan bezatilgan. Belgilangan vaqtda lashkargohga yetib kelgan askarlar qat’iy tartib va intizom bilan o‘z marralarini egallagan hamda yurish oldidan o‘tkazilajak an’anaviy harbiy ko‘rikka puxta tayyorgarlik ko‘ra boshlagan. Amir Temur harbiy yurish vaqtida tajribali sipohiylarga katta ishonch bildirganki, bu "Temur tuzuklari"da ham o‘z ifodasini topgan.

Xulosa: Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki Amir Temurning “Temur tuzuklari” asarida qo‘shinni boshqarish va uning tayyorgarligiga katta ahamiyat berilgan. U qo‘shinni qat’iy intizom, aniq taktik rejalar va harbiy san’atga asoslangan holda boshqargan. Qo‘shin tarkibiga maxsus qismlar kiritilgan bo‘lib, har birining o‘z vazifasi va jangdagi roli aniq belgilangan. Jangga tayyorgarlik ko‘rishda askarlarning jismoniy va ma’naviy tayyorgarligi muhim o‘rin tutgan. Shu bilan birga, Temur harbiy strategiya va taktikani jang vaziyatiga mos ravishda o‘zgartirish qobiliyati bilan ajralib turgan.

Ushbu masalani o‘rganishning Amir Temurning harbiy boshqaruv tizimi va uning samaradorligini tahlil qilish, zamonaviy harbiy strategiya va boshqaruv modellari bilan taqqoslash, shuningdek, uning o‘rnak olsa bo‘ladigan taktik va strategik yondashuvlarini aniqlashdir. Ushbu tahlil nafaqat tarixiy tadqiqotlar uchun, balki harbiy ta’lim va boshqaruv sohalari uchun ham ahamiyatlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.. “Темур тузуклари”. Тошкент. Шодлик. 2020, 124-бет.

2. Амир Темур. Темур тузуклари. Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 1999.

3. Бартольд В.В. Туркистон таріхі. Тошкент: Фан, 2002.

4. Ҳайдар М. Темур ва унинг даври. Тошкент: Шарқ, 2010.

5. Гулямов Я. Амир Темур – буюк саркарда. Тошкент: Ўқитувчи, 1997.

6. Ҳазраткулов Р. Темурийлар даври ҳарбий санъати. Тошкент: Фан, 2015.

7. Низомиддин Шомий. Зафарнома. Тошкент: Фан, 1996.

MUNDARIJA

№	F.I.O.	Maqola nomi	Bet
	Rustambayev M.X.	**Kirish so‘zi**.	**3**
	YALPI MAJLIS MA’RUZALARI		
1.	Юсупова Д.Ю.	Нравственные взгляды Амира Темура, отражающие его духовный мир.	**5**
2.	Tojiboyev M.T.	Amir Temur davlatida qonunchilik, jinoyat va jazo masalalari.	**9**
3.	Davlatova S. T.	Amir Temur davlat boshqaruvida xavfsizlikni ta’minlashda millatlararo totuvlik va bag‘rikenglik masalalari.	**18**
4.	Xaknazarov X.D., Toshniyozov A.F.	Amir Temur shaxsiy sifatlarining harbiy intizomni ta’minlashdagi ahamiyati.	**24**
	ILMIY MAQOLALAR VA TEZISLAR		
1.	Babajanova D.B.	Amir Temur siymosi – jahon olimlari talqinida	**32**
2.	Rashidov R.R.	Amir Temur strategiyasi – davlat boshqaruvi va harbiy san’at taraqqiyotining yorqin namunasi.	**40**
3.	Baxranov Sh.T.	Buyuk Sohibqiron Amir Temur saltanatining o‘ziga xos jihatlarini.	**47**
4.	G‘afforov Sh.S.	Amir Temurning “Temur tuzuklari” - muhim tarixiy manba.	**51**
5.	Yermetov A.A.	Amir Temurning harbiy san’ati tarixi.	**57**
6.	Haydarov I.M.	Amir Temur va temuriylar davri madaniyati.	**62**
7.	Haydarov A.U.	Amir Temur va temuriylar harbiy san’ati.	**66**
8.	Ikramov A.A.	Amir Temurning jahon harbiy san’atida tutgan o‘rni va uning ahamiyati.	**70**
9.	Imamov B.X.	Amir Temur davrida bunyodkorlik ishlari.	**75**
10.	Inoyatov I.Yu.	Amir Temur tuzuklarida razvedka va harbiy xiylaga oid masalalarni yoritilishi.	**79**
11.	Ismatullayev F.	Temuriylarning Yevropa davlatlari bilan xalqaro hamkorligining ayrim jihatlari.	**85**
12.	Ishmatova N.M.	Amir Temur – ilm-fan homiysi.	**89**
13.	Jurayev S.S.	Sohibqiron Amir Temur davrida sug‘orish va bog‘dorchilik madaniyati.	**93**
14.	Kadirov M.B.	Sohibqiron Amir Temurning harbiy san’ati.	**98**
15.	Kamilov M.A.	Amir Temurning markazlashgan davlatga asos solishi.	**100**
16.	Каримов А.Т.	Путешествия Руи Гонсалеса де Клавихо в государстве Амира Темура.	**104**
17.	Karimov O‘.	Amir Temur – buyuk davlat arbobi va ma’naviyat sohibi.	**109**
18.	Karimova G.	Sohibqiron hikmatlari.	**112**
19.	Ergashbayev Sh.	Uzluksiz ta’limni samarali tashkil etishda Amir Temur merosi orqali yoshlarni vatanparvarlik	

		ruhida tarbiyalash	**117**
20.	Мадалиева Р., Абдусамедов Н.	Особенности боевой тактики, использованной Амиром Темуром в военном походе в Индии.	**121**
21.	Madaminova D.I.	Amir Temur markazlashgan davlat asoschisi.	**126**
22.	Mamatqobilov T., Islomov O.	Amir Temur siyosatida diplomatiya va ma'naviy omillar.	**131**
23.	Mirzayev G.R.	Amir Temurning o'zbek va dunyo xalqlari manfaatlari yo'lidagi xizmati.	**136**
24.	Meyliyev X.	Sohibqiron Temur va Mironshoh Mirzoni madh etgan shoirlar (Alisher Navoiy asarlari ma'lumotlari asosida).	**140**
25.	Мунарова Р.У.	Развитие культуры и просвещения в эпоху Амира Темура.	**144**
26.	Mirjonova N.I.	Amir Temur harbiy dahosi: tarix va tasviriy san'atda.	**147**
27.	Mirzayev A.T.	Sohibqiron Amir Temurning insoniy fazilatlarini tarixiy manbalarda yoritilishi.	**152**
28.	Murodova R.D.	Temuriylar amaliy san'atining me'morchilikka ta'siri.	**157**
29.	Mustafayev G'.G'	Amir Temurning boshqa davlatlar ahvoli haqida ma'lumot olish ositalari.	**162**
30.	Muxammadiyeva S.	Amir Temurning axloqiy qarashlarining pedagogikada tutgan o'rni.	**167**
31.	Нормуродов Д.Р., Дусмуродов О.Ш.	О новых монетах Амира Тимура, найденных в Каттакурганском районе.	**171**
32.	Nortojiyev M.A.	Sohibqiron Amir Temurning harbiy-siyosiy tizimi.	**177**
33.	Nurutdinov H.A.	Amir Temur harbiy san'ati va elchiligining Zahiriddin Muhammad Bobur tomonidan davom ettirilishi	**181**
34.	Nosirov Sh.Sh.	Amir Temur va temuriylar davrida homiylik an'anasi.	**186**
35.	Ortiqova M.N.	Temuriylar davrida avliyo shoirlar.	**190**
36.	Qodirov O.S.,	Amir Temur faoliyatida sotsal asos qonuniga amal qilishining o'ziga xos jihatlari.	**194**
37.	Qorayev Sh.	Sohibqiron Temur saroyi adabiy muhitining o'ziga xos xususiyatlari.	**198**
38.	Rasulova N.S.	Sohibqiron Amir Temurning davlat boshqaruvi sohasida amalga oshrgan kengashlari.	**202**
39.	Raximov Sh.K.	Amir Temur jasorati – yoshlar uchun namuna.	**207**
40.	Sadriddinova F.M.	Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda Amir Temur merosining o'rni.	**211**
41.	Saidboyev B.J.	Amir Temur saltanati va uning jahon tarixida tutgan o'rni.	**213**

42.	Sayitxonov A	Ma’naviy barkamollik timsoli.	**216**
43.	Sodiqov H.M., Sodiqova D.R.,	Amir Temur o‘gitlarining tarbiyaviy Ahamiyati.	**220**
44.	Sodiqova D.R., Sodiqov H.M.	Amir Temurning ilm-fan va ma’rifat haqidagi qarashlari.	**223**
45.	Tolipov A.A.	Amir Temur strategiyasi va harbiy taktikasi.	**226**
46.	Turayeva S. R.	Amir Temurning oila – nikoh munosabatlari masalalariga oid qarashlari.	**231**
47.	Turdiyev J.R.	Amir Temur va markazlashgan davlat boshqaruvi.	**237**
48.	Хабибуллаев О.	Традиции садоводства в Самарканде в эпоху темуридов.	**241**
49.	Xidirov X.I.,	Amir Temur davlati va uning dunyo tarixida tutgan o‘rni.	**245**
50.	Xolikulova H.Y.	Amir Temur davridagi ayol liderlar: davlat boshqaruvi, madaniyat va ijtimoiy hayotdagi o‘rni.	**251**
51.	Xotamov Sh.N.	Sohibqiron qo‘shinidagi jangovar boshqaruv.	**255**
52.	Xudoyqulov Y.A., Mirzaliev N.A.	Amir Temurning jahon harbiy san’ati va faniga qo‘shgan buyuk hissasi.	**260**
53.	Xurramova D.M.	Temuriylar davrida suv bilan bog‘liq so‘zlarning qo‘llanishi.	**264**
54.	Xursandov A.S.	“Temur tuzuklari”da vatanparvarlik g‘oyalari	**268**
55.	Choriyev Sh.Sh.	Amir Temur davrida arxivlar faoliyati va ish yuritish tizimi.	**271**
56.	Kuldashev I.X.	Amir Temur tuzuklarida jang san’ati	**275**
	YOSH TADQIQOTCHILAR MINBARI		
57.	Ahatova S.S.	Sohibqiron Amir Temur – tizimli qo‘shin va strategik taktikalar asoschisi.	**281**
58.	Аллаёрова Ш.	Визуальный образ Амира Темура в исторических иллюстрациях, миниатюрах и современной графике.	**286**
59.	Aminova S.	Amir Temur ilm-fan va madaniyat homiysi.	**290**
60.	Axmedbekova M.	Amir Temur – bunyodkorlik ishlari sohibi.	**294**
61.	Batirova X.M.	Amir Temur markazlashgan davlat asoschisi.	**298**
62.	Boboxonov S.R.	Amir Temur harbiy merosining ijtimoiy-siyosiy va ma’naviy ahamiyati.	**302**
63.	Bokiyev M.G.	Amir Temur armiyasida akustik vositalarning tutgan o‘rni va ahamiyati.	**306**
64.	Bokiyev M.G.	Amir Temur va Zahiriddin Muhammad Bobur jangovor nutqi – harbiy xizmatchilarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda jasorat va ma’naviy-ruhiy ta’minot manbai.	**310**
65.	Beysenov K.S.	O‘zbekiston Respublikasi va xorijiy davlatlarda	**313**

		amir temur tarixining o‘rganilishiga doir tadqiqotlar.	
66.	Boltaboyev M.	Amir Temur va temuriylar davrida ta’lim-tarbiya masalalari.	**318**
67.	Botirova S.R.	Amir Temur - ilm-fan, madaniyat va me’morchilik homiysi.	**321**
68.	Bo‘tayev U.A.	Amir Temurning davlat boshqaruvdagi o‘ziga xos xususiyatlar.	**326**
69.	Gulmatov M.A.	Amir Temur lashkarida harbiy qo‘shilmalarning joylashishi va harbiy boshqaruv darajasi.	**330**
70.	Egamberganova M.O.	The development of trade routes during Amir Temur and the Timurids period.	**334**
71.	Faxriddinova N.Sh.	Amir Temur davrida jinoyat va jazo.	**338**
72.	Irisboyeva X.U.	Amir Temur – markazlashgan davlat asoschisi.	**343**
73.	Kamolov A.	Yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda Amir Temur merosining ahamiyati.	**347**
74.	Muradov F.D., Sattorov A.O‘.	Amir Temurning siyosiy falsafasi va davlat boshqaruvi.	**354**
75.	Mirzajonov G‘.T.	Jadidlarining yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda Amir Temur merosini ahamiyati	**359**
76.	Muhammadxonov Sh.M.	Amir Temurning hayoti va faoliyati yosh avlod uchun ibratdir.	**366**
77.	Eshtilovov S.B., Qobilov Z.R.	Sohibqiron Amir Temur qo‘shinida axloqiy ruhiy tayyorgarlik mexanizmlari.	**370**
78.	Rajabova S.	Temur tuzuklarida davlat boshqaruv tizimi haqida ayrim mulohazalar.	**372**
79.	Ravshanov U.	Amir Temur lashkarida harbiy qo‘shilmalarning joylashishi va harbiy boshqaruv darajasi.	**378**
80.	Ro‘ziqulov A.	Amir Temur va Yildirim Boyazid muhorabasining xalqaro ahamiyati.	**382**
81.	Sobirov A.	Amir Temur buyuk sarkarda.	**388**
82.	Hamrayev S.Q.	“Temur tuzuklarida” adolat tamoyillari	**391**
83.	Toshbekov N.	Amir Temur merosining yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash masalalari.	**395**
84.	Xolmatov I.B.	Amir Temur davlatida harbiy tayyorgarlikda jismoniy tarbiya va sportga e’tibor.	**400**
85.	Ulashboyeva S.	Temuriy Shoxrux Mirzo va uning davlatni markazlashtirish siyosati.	**405**
86.	Ummatov J.G‘.	Amir Temur siyosatida diniy va milliy bag‘rikenglik.	**409**
87.	Usmonov S.M.	“Temur tuzuklari”da harbiy xizmatchilarni sadoqat ruhida tarbiyalashga oid qarashlar.	**413**

AMIR TEMUR – BUYUK SARKARDA
VA DAVLAT ARBOBI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari
2025-yil 8-aprel, Toshkent

Muharrir: Haydarov A.U.
Texnik muharrir: Boboxonov S.

Bosishga ruhsat etildi. 05.04.2025 y. Buyurtma №__. Format 60x90/16. Times New Roman garniturasi bilan raqamli bosma usulda bosildi. Hajmi 26,75 .sh.b.t. Adadi 5 nusxa

O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti bosmaxonasi.